Amaliy topshiriqlarni yuborishda talaba .docx, .pdf, .pptx yoki .txt formatidagi fayllarni yuklaydi. Tizim ushbu fayllardan matnni avtomatik ravishda ajratib olib, sun’iy intellekt tizimiga yuboradi va natijalarni qayta ishlaydi.

Xulosa sifatida, ushbu tezisda talabalar o‘quv progressini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilishga mo‘ljallangan dasturiy platformani ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etildi. Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli ta’lim tizimlarining imkoniyatlari va mavjud kamchiliklari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ko‘p funksiyali platforma ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan tizim natijasida administrator, o‘qituvchi va talaba kabi uch xil foydalanuvchi roli asosida xavfsiz autentifikatsiya va boshqaruv tizimi yaratildi. Platforma orqali talabalarning resurslardan foydalanish davomiyligi, test natijalari hamda amaliy topshiriqlar holatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati ta’minlandi. Shuningdek, OpenAI GPT-4 modeli asosida amaliy topshiriqlarni avtomatik baholash mexanizmi joriy etildi. O‘qituvchilar uchun guruh natijalarini grafik va diagrammalar ko‘rinishida vizual tahlil qilish hamda hisobotlarni DOCX formatida eksport qilish imkoniyati yaratildi. Baholash tizimi esa kredit soatlariga mutanosib ravishda tashkil etilib, 5 ballik baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan platforma o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, o‘qituvchilarning tahliliy faoliyatini yengillashtirish hamda talabalar o‘quv faolligini aniq monitoring qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimi amaliy topshiriqlarni tekshirish jarayonini tezlashtirib, baholashning obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Siemens G., Long P. Penetrating the fog: Analytics in learning and education // EDUCAUSE Review. 2011. Vol. 46, № 5. P. 30–40. URL: https://er.educause.edu/articles/2011/9/penetrating-the-fog-analytics-in-learning-and-education

2. Chatti M. A., Dyckhoff A. L., Schroeder U., Thüs H. A reference model for learning analytics // International Journal of Technology Enhanced Learning. 2012. Vol. 4, № 5/6. P. 318–331. DOI: 10.1504/IJTEL.2012.051815.

3. Django Software Foundation. Django REST Framework Documentation. 2024. URL: https://www.django-rest-framework.org/

4. OpenAI. GPT-4 Technical Report. 2024. URL: https://openai.com/research/gpt-4 (data обращения: 11.05.2026).

5. *Алламова Ш. Ш. Модель совершенствования методики применения интеграционных форм организации учебного процесса в условиях цифровой*

трансформации образования // Школа будущего. – 2025. — № 6. – С. 118-131. DOI 10.55090/19964552_2025_6_118_131

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISH USULLARINI O‘QITISH METODIKASI

Allayarova Maxliyoxon Erkinjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Aniq fanlar fakulteti magistanti

Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi matematika fanlarini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, oddiy differensial tenglamalarni o‘qitishda innovatsion didaktik yondashuvlar, interaktiv platformalar va raqamli vositalardan foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika o‘quvchining mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalar hosil qilishi hamda vizual tasavvurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Oddiy differensial tenglamalarni yechish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish murakkab matematik jarayonlarni vizuallashtirish imkonini beradi. Masalan, GeoGebra yoki MATLAB dasturlari yordamida differensial tenglama yechimlarining grafiklarini hosil qilish orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlaydi.

Oddiy differensial tenglamalarni yechish jarayonida quyidagi raqamli texnalogiyalardan foydalanish mumkin:

1.Multimedia taqdimotlari.

2.GeoGebra, MATLAB, Maple kabi dasturlar.

3.Online test va interaktiv topshiriqlar.

4.Video darslar va virtual laboratoriyalar

5.Masofaviy ta’lim platformalari.

Differensial tenglamalar — bu noma’lum funksiya, uning hosilalari (differensiallari) va erkli o‘zgaruvchini bog‘lovchi tenglamalardir. Tabiatshunoslik, fizika, texnika, iqtisodiyot va biologiyadagi ko‘plab jarayonlar (masalan, radioaktiv parchalanish, mexanik tebranishlar, populyatsiya o‘sishi) tezligining o‘zgarishi aynan differensial tenglamalar orqali modellashtiriladi.

Matematika fanida differensial tenglamalar muhim o‘rin egallaydi. Ular tabiatda, texnikada, iqtisodiyotda va boshqa ko‘plab sohalarda uchraydigan jarayonlarni matematik model orqali ifodalash imkonini beradi. Differensial tenglamalar yordamida turli jarayonlarning o‘zgarish qonuniyatlari o‘rganiladi va ularning kelajakdagi holatini oldindan aniqlash mumkin bo‘ladi.

Oddiy differensial tenglamalar — noma’lum funksiya va uning hosilalarini o‘z ichiga olgan tenglamalardir. Bunday tenglamalarda noma’lum funksiya faqat bitta mustaqil o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy differensial tenglamalar nazariyasi matematikaning ko‘plab bo‘limlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning amaliy qo‘llanish doirasi juda kengdir.

Oddiy differensial tenglamalar (ODT) yechimini topish — bu hosiladan xalos bo‘lib, jarayonning aniq qonuniyatini (funksiyasini) aniqlash demakdir. Ushbu mavzuda biz asosan quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratamiz:

1. **Analitik yechish:** Tenglamani aniq matematik formula ko‘rinishida yechish (o‘zgaruvchilarni ajratish, o‘rniga qo‘yish usullari).

2. **Sonli yechish:** Analitik yechim topish imkonsiz bo‘lgan hollarda, kompyuter yordamida taqribiy yechimlar topish.

Ushbu bilimlar muhandislik va amaliy matematikada murakkab tizimlarni tadqiq qilishning asosi hisoblanadi.

Oddiy differensial tenglamalar tarifi:

Bitta mustaqil o‘zgaruvchi va unga nisbatan olingan hosilalarni o‘z ichiga olgan tenglama oddiy differensial tenglama deb ataladi. Umumiy holda bunday tenglama quyidagicha yoziladi:

$$F(x, y, \frac{dy}{dx}, \frac{d^2y}{d^2x}, \ldots)=0$$

Oddiy differensial tenglamalar o‘z tartibiga qarab birinchi tartibli, ikkinchi tartibli va yuqori tartibli korinishda boladi.

O’zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar

Ajraluvchi differensial tenglamalar eng sodda yechiladigan tenglamalar sinfiga kiradi va quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\frac{dy}{dx}= f(x) \cdot g(y)$$

Bu tenglamalarda o‘zgaruvchilarni ajratish orqali yechim topish mumkin:

Har ikki tomonni integrallash natijasida umumiy yechim hosil bo‘ladi.

Misol: $\mathbf{\frac{dy}{dx}=x}$

Yechish: $dy = xdx$

Integral olamiz va $y=\frac{x^2}{2}+ C$ natijaga erishamiz.

Misol: $\mathbf{y'=\frac{y}{x}}$

Yechish: $\frac{dy}{dx}=y' \quad \frac{dy}{y}=\frac{dx}{x}$

Integral olamiz: $\ln y=\ln x+\ln C$, $C=const$

$$\ln y=\ln x \times C$$

Oxirgi natijamiz : $y= x C$

Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar

Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama quyidagi standart ko‘rinishda yoziladi:

$$\frac{dy}{dx}+P(x)\, y=Q(x)$$

Bunday tenglamalarni yechishda integrallovchi ko‘paytuvchi usuli qo‘llaniladi. Ushbu usul tenglamani to‘liq hosilaga keltirib, integrallash imkonini beradi. Natijada tenglamaning umumiy yechimi olinadi.

Masalan quyidagi misolni ishlab ko’ramiz:

$$\mathbf{xy' - 2y = 2x^4}$$

bu misolda birinchi navbatda y' ni topib olamiz.

$$y' =2x^3 + \frac{2y}{x}$$

manashu ifoda hosil boladi.

$$y'=\frac{2y}{x}$$

shu tenglikni yechib olamiz va y ozgaruvchili funksiyani topib olamiz.

$\frac{dy}{dx} = \frac{2y}{x}$ $\frac{dy}{y} = 2xdx$ $\ln y =2\ln x+ \ln C$, $C=const$ $\ln y=\ln x^2 Cx$ $y =x^2 Cx$

Endi topib olgan $y =x^2 Cx$ funksiyamizdan hosila olamiz.

$$y' = 2x \times Cx+ C'(x) \times x^2$$

Bu topib olgan $y' = 2x \times Cx + C'(x)*x^2$ funksiya hosilasini va $y = x^2Cx$ ni

berilgan boshlangich differensial tenglamamizga olib borib qoyamiz:

$$x \times (2x \times Cx + C'(x) \times x^2) - 2x^2Cx = 2x^4$$

Bu ifodani soddalashtirib $C'(x)$ ni topib olamiz.

Demak qavslarni ochib soddalashtirganimizda $C'x = x$ shu ifoda hosil boladi ekan. Bu yerdan $C(x)$ ni topib olamiz:

$$C'(x) = x \qquad \frac{dC}{dx} = x \qquad d(C) = xd(x) \qquad C(x) = \frac{x^2}{2} + C$$

Endi topib olgan $C(x) = \frac{x^2}{2} + C$ ushbu ifodani avvalroq topib olgan $y = x^2Cx$ funksiyamizga olib borib qoyadigan bolsak oxirgi yechimga yetib kelamiz.

Ya'ni $\mathbf{y = x^2 \left(\frac{x^2}{2} + C\right)}$ ushbu ifoda hosil boladi.

Oddiy differensial tenglamalar matematik modellashtirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ajraluvchi va birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar nazariy jihatdan sodda bo‘lishiga qaramasdan, amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tenglamalarni chuqur o‘zlashtirish magistratura bosqichida o‘rganiladigan murakkab differensial modellar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, oddiy differensial tenglamalar matematik analizning muhim bo‘limlaridan biri hisoblanadi va ular turli tabiiy hamda texnik jarayonlarni matematik jihatdan ifodalashda keng qo‘llaniladi. Differensial tenglamalar yordamida ko‘plab real jarayonlarning o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash, ularni modellashtirish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur maqolada oddiy differensial tenglamalarning asosiy tushunchalari, ularning matematik mohiyati hamda ayrim sodda yechish usullari ko‘rib chiqildi. Xususan, ajraluvchi differensial tenglamalar va birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalarni yechish usullari nazariy jihatdan yoritildi hamda ularning umumiy yechimlarini topish jarayoni tushuntirildi.

Shuningdek, differensial tenglamalarni o‘rganish jarayonida matematik modellashtirishning ahamiyati katta ekanligi ta’kidlandi. Chunki turli fan sohalarida uchraydigan ko‘plab jarayonlar aynan differensial tenglamalar yordamida ifodalanadi. Shu sababli ushbu tenglamalarni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy matematika, balki amaliy fanlar rivojida ham muhim rol o‘ynaydi.

Natijada shuni aytish mumkinki, oddiy differensial tenglamalar nazariyasini o‘zlashtirish keyingi bosqichlarda o‘rganiladigan murakkab differensial tenglamalar va matematik modellashtirish masalalarini tushunish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, oddiy differensial tenglamalarni o‘qitishda raqamli pedagogika metodlari va innovatsion didaktik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida matematik tushunchalarni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish talabalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.GeoGebra platformasi materiallari.

2.MATLAB dasturi bo‘yicha elektron qo‘llanmalar.

3.Ziyomuhammadov B., Tojiyev M.. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.Oliy matematika.Toshkent:Ozbekiston Respublikasi Oliy ta’lim nashriyoti.

4.Differensial tenglamalr kursi.Toshkent:Universitet nashriyoti.

5.Differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari.Toshkent:Fan va tehnalogiya nashriyoti.

MASOFAVIY TA’LIM SHAKLIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ashirov M.P.

Nukus davlat texnika universiteti, Nukus, O‘zbekiston
e-mail: muratashirovpolatbaevich@gmail.com

Masofaviy ta’lim – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘quv-metodik materiallarni masofadan turib mustaqil o‘zlashtirishga qaratilgan ta’lim shaklidir.

Masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘quv jarayonining uzviy va ajralmas qismini mustaqil ta’lim tashkil etadi. U talabaning turar joyidan qat’i nazar, o‘quv-metodik materiallarni samarali o‘zlashtirish uchun teng imkoniyatlar taqdim etadi.

Ma’lumki, «Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son Qonunning 18-moddasi to‘rtinchi qismida: «Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi» [1], – deb aniq belgilangan.

Demak, mustaqil ta’lim – talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, masofaviy ta’lim shakli ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mustaqil ta’lim olishning eng qulay, samarali va innovatsion shakli hisoblanadi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi «Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 559-son qarori bilan tasdiqlangan «Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish uchun asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [2].

Masofaviy ta’lim o‘quv jarayonini masofadan turib xolis monitoring qilish bugungi kunda muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, masofaviy ta’limni boshqarish bo‘yicha dasturiy ta’minot – LMS platformasi SCORM standartlariga mos hamda unda avtoproktoring tizimi mavjud bo‘lishi lozim»[2].

«Avtoproktoring – imtihon jarayonida talabaning shaxsini avtomatik ravishda autentifikatsiyalash, uning xatti-harakatlari va nigohi yo‘nalishini nazorat qilish, xonadagi tovushlarni tahlil qilish, videodagi buzilishlarni tuzatish va hisobotlar tayyorlashga yo‘naltirilgan dasturiy tizim»[2].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 4-noyabrdagi «Oliy ta’lim tashkilotlarida joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha reglamentni tasdiqlash to‘g‘risida» 421-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «“Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish – Hemis” axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha Reglament»ga muvofiq yakuniy test imtihonlarni topshirish uchun biometrik identifikatsiya FaceID mexanizmning joriy etilishi elektron nazoratning tashkiliy-texnik asosi hisoblandi [4]. Mazkur raqamli talablarni amaliyotga tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 24-fevraldagi «Sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy

qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 284-mh-son buyrug‘i asosiy dasturilamal hisoblanadi [3].

Ta’kidlash lozimki, masofaviy ta’lim olayotgan talabalar har bir semestrda yakuniy nazorat imtihonlarni topshirish uchun oliy ta’lim tashkilotiga shaxsan tashrif buyurishi majburiy etib belgilangan. Bu holat, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun juda noqulaylik keltirishi mumkin. Shu sababli, yuqorida ham qayd etilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan «Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 5-bobi 21-bandini quyidagi yangi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz:

«21. Masofaviy ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilingan talaba quyidagi hollarda oliy ta’lim tashkilotiga shaxsan tashrif buyurishi shart:

o‘quv jarayoni boshlanishidan avval – masofaviy ta’limni boshqarish bo‘yicha dasturiy ta’minot – LMS platformasida ro‘yxatdan o‘tish uchun;

har semestr yakunida – yakuniy nazorat topshirish o‘tish uchun.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yakuniy nazorat imtihonlarini masofaviy ta’limni boshqarish tizimi orqali majburiy avtoproktoring nazorati asosida onlayn o‘tkazishga ruxsat etiladi.

Shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy va magistrlik ishi himoyasi bevosita oliy ta’lim tashkilotida an’anaviy tarzda amalga oshiriladi, ularni sinxron yoki asinxron rejimida qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mazkur bandda nazarda tutilgan talablar xorijiy davlat fuqarosi bo‘lgan talabaga nisbatan tatbiq etilmaydi» [2].

Darhaqiqat, mazkur asosiy normativ-huquqiy hujjat uchun taklif etilayotgan qo‘shimcha masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashning mustahkam me’yoriy-uslubiy asoslarini yanada takomillashtiradi. Bu esa o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning tashkiliy-texnik ta’minoti va o‘quv-metodik ta’minoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. SHu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish asosida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun masofaviy ta’lim shakli orqali xolis va sifatli mustaqil ta’lim olishda teng imkoniyatlarni to‘liq ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 37-38-son (953-954), 2020-yil 28-sentyabr. https://lex.uz/docs/-5013007

2. «Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabrdagi 559-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 40-son (1060) 2022. https://lex.uz/docs/6221502

3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 24-fevraldagi «Sun’iy intellektga asoslangan echimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 284-mh-son buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 14-martda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3787). https://www.lex.uz/uz/docs/-8083233

4. «Oliy ta’lim tashkilotlarida joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha reglamentni tasdiqlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 4-noyabrdagi 421-son buyrug‘i. https://hemis.uz/

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DATA PRIVACY: SAFEGUARDING PERSONAL INFORMATION IN THE EDUCATIONAL SECTOR

Raupova Mohinur Haydar qizi

Senior lecturer at Chirchik state pedagogical university

Boltaboyeva Ozoda Gulmirza qizi

Chirchik state pedagogical university
ozodaboltaboyeva25@gmail.com

Abstract. The integration of Artificial Intelligence (AI) in education has revolutionized personalized learning, institutional administration, and predictive analytics. However, the massive collection of student and educator data poses unprecedented threats to data privacy. This paper examines the critical intersections of AI implementation and data security within the educational sector, with a specific focus on emerging digital infrastructures like those in Uzbekistan. It analyzes current vulnerabilities, evaluates international regulatory frameworks alongside local statutes, and proposes a comprehensive technical and administrative mitigation framework. Through a systematic analysis, this study outlines how educational institutions can balance technological advancement with robust privacy protections.

Keywords: Artificial Intelligence, Data Privacy, Educational Technology, Cybersecurity, Student Data Protection.

Introduction

The rapid expansion of Artificial Intelligence (AI) has fundamentally altered the structural dynamics of modern classrooms and academic administration. Educational institutions worldwide increasingly rely on automated platforms to grade assignments, track student engagement, and tailor curriculum pathways to individual learning speeds. In developing educational landscapes, such as Uzbekistan's rapidly modernizing public and higher education sectors, the deployment of centralized digital platforms like Kundalik (or Hemis) demonstrates a strong political will to digitize student metrics. However, this sudden leap toward automated, data-driven schooling creates a complex security paradox.

AI software operates on an insatiable need for data, requiring constant feeding of student personal metrics, behavioral logs, and academic histories to remain effective. This continuous data aggregation transforms educational institutions into highly vulnerable repositories of Personally Identifiable Information (PII). Unlike financial organizations or defense agencies, academic environments traditionally lack sophisticated cyber defense networks, making them soft targets for systemic data breaches. Consequently, balancing the obvious pedagogical benefits of AI with the legal and ethical imperative of protecting student privacy has emerged as one of the most pressing policy challenges of the current decade.

Main Body

The integration of Artificial Intelligence (AI) into contemporary educational ecosystems has fundamentally redefined pedagogical methodologies, institutional administration, and evaluative paradigms. Today, Machine Learning (ML) algorithms and Natural Language Processing (NLP) engines drive everything from personalized learning paths to automated remote proctoring. Yet, this rapid technological shift relies on an insatiable appetite for data. To

function effectively, these systems require continuous access to massive repositories of academic records, socioeconomic metrics, behavioral logs, and, increasingly, biometric data. This massive data accumulation creates critical security vulnerabilities. Educational institutions, traditionally lacking the robust cybersecurity infrastructure of financial corporate entities, have become primary targets for malicious actors.

Within these environments, AI operations introduce distinct architectural risks. For instance, deep learning models are susceptible to data leakage, where a network inadvertently memorizes sensitive training inputs and exposes them during standard generation. Similarly, model inversion attacks allow adversaries to reverse-engineer outputs and reconstruct the underlying student profiles. Furthermore, because schools rely heavily on external Educational Technology (EdTech) vendors, private student data is frequently transferred to third-party cloud servers, effectively removing it from direct institutional oversight and establishing a highly fragmented security perimeter.

This decentralization of sensitive information complicates compliance with global and national data protection regimes. Existing legal frameworks, designed in the pre-AI era, are struggling to keep pace with the automated nature of algorithmic processing. The European Union’s General Data Protection Regulation (GDPR) mandates a strict "right to erasure". However, enforcing this right becomes an algorithmic nightmare when a student's data has already been absorbed into the immutable weights of a pre-trained neural network. In the United States, statutes like the Family Educational Rights and Privacy Act (FERPA) and the Children’s Online Privacy Protection Act (COPPA) protect core academic records, yet they remain largely unequipped to handle the silent extraction of behavioral metadata or keystroke dynamics.

A parallel challenge is unfolding in developing digital frameworks like Uzbekistan's, where the Law "On Personal Data" (Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida) provides the foundational legal baseline. While this national law enforces localized storage and processing constraints, it lacks explicit, technical sub-clauses addressing the dynamic, black-box nature of generative AI training models.

This regulatory vacuum is especially evident in remote proctoring software used during high-stakes university admissions. By continuously tracking facial geometry and eye movements, these platforms generate highly sensitive biometric profiles. If breached, this data presents a permanent identity theft risk. Beyond security, there is an ethical dilemma regarding algorithmic bias. When AI models are trained on historical, socio-economically skewed academic data, they inevitably institutionalize these biases. As a result, automated systems can end up marginalizing specific student demographics during automated grading, resource allocation, and admissions. This happens under a flawed veneer of algorithmic objectivity, while true informed consent remains unachievable since minors cannot legally grant it, and parents are forced to sign ambiguous, lengthy user agreements.

Addressing these systemic threats requires shifting away from reactive security patches toward a proactive, privacy-by-design framework. Educational institutions must adopt technical safeguards that decouple utility from data exposure. Differential privacy offers a viable solution by injecting mathematical noise into educational datasets, preserving macro-level statistical trends for AI training while completely masking individual student identities. To eliminate the risks of centralized cloud storage, institutions should pivot toward federated learning. This methodology trains AI models locally on decentralized institutional edge devices, meaning raw student data never leaves its original school database.

Furthermore, homomorphic encryption protocols should be standard practice, as they enable AI engines to run analytical computations directly on encrypted files without needing to decrypt them first. On an administrative level, these cryptographic tools must be supported by strict data minimization mandates. Schools must legally restrict algorithmic ingestion to essential pedagogical metrics and enforce rigorous, legally binding risk assessments on all third-party EdTech vendors, ensuring alignment with both international best practices and localized legal frameworks.

Conclusion

The implementation of Artificial Intelligence within educational sectors holds undeniable promise for democratizing access to knowledge and optimizing institutional efficiency. However, the findings of this study emphasize that technological integration must not progress faster than the mechanisms designed to protect fundamental human rights. As regional systems like Uzbekistan's continue to centralize student data under state-driven digital initiatives, the risks associated with inadequate algorithmic protection scale exponentially. Relying on outdated administrative rules is no longer a viable defense against sophisticated model exploits or third-party data exploitation.

Ultimately, securing the digital classroom requires an uncompromising commitment to privacy-by-design principles, combining decentralized network architectures with aggressive regulatory oversight. Future educational policies must treat data sovereignty not as an obstacle to technological innovation, but as its foundational requirement. Only by deploying advanced cryptographic standards and enforcing strict vendor accountability can the global academic community safely utilize the capabilities of AI while fundamentally guaranteeing the safety and dignity of its students.

References

1. Alam, A. (2021). Possibilities and apprehensions of algorithmic justice in education: Ethical concerns of AI and data privacy. International Journal of Educational Technology, 14(3), 211-225.

2. Bengueddach, A., & Boudia, M. A. (2024). The impact of artificial intelligence-based learning tools in modern pedagogy: Ethical dilemmas and security protocols. Frontiers in Education, 9, 168-179.

3. Cavoukian, A. (2009). Privacy by Design: The 7 Foundational Principles. Information and Privacy Commissioner of Ontario.

4. Chen, L., Liu, Y., Guo, X., & Zhang, J. (2024). Processing student psychological profiles in EdTech: Heightened privacy risks and dynamic protection frameworks. Journal of Computer Assisted Learning, 40(2), 312-326.

5. Das, A., Jingmei, L., Xiaoshu, H., & Huanhuan, Q. (2024). Security and privacy implications of deploying Large Language Models in higher education ecosystems. Computers & Security, 138, 103-117.

6. European Commission. (2025). The Artificial Intelligence Act and its applications across global educational institutions. European Union Policy Press.

7. Hoofnagle, C. J., van der Sloot, B., & Zuiderveen Borgesius, F. J. (2019). The European Union general data protection regulation: what it is and what it means. Information & Communications Technology Law, 28(1), 65-98.

8. Huang, L. (2023). Ethics of artificial intelligence in education: Student privacy and data protection. Science Insights Education Frontiers, 16(2), 2577-2587.

9. Muli, M. (2024). Legal and Ethical Implications of Data Privacy in Artificial Intelligence: A Review of Data Privacy Among Learners. Journal of the Kenya National Commission for UNESCO, 5(1), 45-59.

10. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2019). Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida (ZRU-547). O'zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari Ma'lumotlari Milliy Bazasi.

11. Popenici, S. A., & Kerr, S. (2017). Exploring the impact of artificial intelligence on teaching and learning in higher education. Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 12(1), 1-13.

12. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.

13. Silva, J., Taeihagh, A., & Ye, M. (2024). Large-scale dataset collection in modern academic administration: The threat of biometric and behavioral over-surveillance. International Journal of Intelligent Information Technologies, 20(1), 12-31.

14. Smith, P., & Brunner, S. (2017). Surveillance and structural consequences of big data and artificial intelligence in education. Big Data, 4(4), 210-211.

15. UNESCO. (2026). Artificial intelligence in education: Guidance for policy-makers and governance systems regarding SDG 4. UNESCO Digital Library.

16. Walrave, M., LaBelle, S., & Aminov, R. (2025). Artificial Intelligence (AI) and the future of information privacy: Analyzing data abuse and weaponization in public infrastructure. Government Information Quarterly, 42(1), 101-115.

17. Zeide, E. (2016). The structural consequences of big data and artificial intelligence in education. Big Data, 4(4), 210-211.

STRATEGIES FOR INTEGRATION OF CHATGPT AND OTHER MAJOR LANGUAGE MODELS INTO THE HIGHER EDUCATION PROCESS

Raupova Mohinur Haydar qizi

Senior lecturer at Chirchik state pedagogical university

Kilichova Charos

Chirchik state pedagogical university

Abstract. This article provides a scientific analysis of the integration strategies of ChatGPT and other Large Language Models (LLMs) into the higher education process. The article reviews technological integration methods, the experience of foreign universities, and ways to effectively use LLMs for students and teachers. The research results show that the targeted integration of AI-based language models into the educational process allows for improving the quality of education, implementing personalized learning, and reducing the pedagogical burden. However, this integration also raises certain methodological, ethical, and institutional challenges. The article concludes with practical strategies that offer solutions to these challenges.

Keywords: ChatGPT, large language models, higher education, artificial intelligence, pedagogy, integration strategies, generative AI.

INTRODUCTION.

In the first quarter of the XXI century, human civilization is undergoing profound technological and social transformations. One of the primary drivers of these changes is, undoubtedly, artificial intelligence (AI) technologies. Today, AI is fundamentally reshaping not only production, the economy, or medicine, but also the educational system—the core institution that shapes the future of humanity. The rapid integration of neural networks, generative models, and adaptive learning systems into the educational process necessitates a thorough revision of traditional pedagogical paradigms. However, this process is not merely an upgrade of technical tools; it is a phenomenon carrying deep philosophical and epistemological significance.

In the traditional philosophy of education, knowledge has always been interpreted as a product of the human mind, and education as an interactive dialogue between two subjects (the teacher and the student). The integration of AI into education, however, has introduced a "third force" into this classic paradigm—the artificial intelligent agent. This situation brings several critical philosophical questions to the forefront:

- Where is the boundary between the concepts of "knowledge" and "information" in the era of digital and intelligent systems?
- How does the consumption of ready-made knowledge generated by AI affect the development of human cognitive abilities?
- What kind of transformation are subject-object relations undergoing within the educational process?

From an epistemological standpoint, AI is altering the mechanisms of knowledge generation (gnoseology) and knowledge transmission (didactics) in education. While the teacher was previously the absolute source and verifier of knowledge, AI algorithms are now taking over

the functions of filtering, analyzing, and designing personalized learning trajectories. This creates existential risks, such as a decline in critical thinking among students or over-reliance on technological determinism.

The main purpose of this study is to uncover the epistemological foundations of AI technologies in the educational system and analyze the philosophical-conceptual shifts they bring into pedagogical reality. Based on this goal, the following tasks have been established:

1. To investigate the epistemological transformation of the concept of "knowledge" under the conditions of AI;
2. To analyze the philosophical-methodological model of the "Teacher – AI – Student" triad within the educational system;
3. To study the cognitive opportunities and gnoseological risks that artificial intelligence introduces to education.

In the classical philosophical tradition since Plato, knowledge has been defined as "justified true belief". In other words, for information to reach the level of knowledge, it had to be comprehended by a subject (human), logically justified, and correspond to objective reality. However, in the era of AI and Large Language Models (LLMs), this epistemological paradigm is facing a serious crisis and transformation.

In the traditional information hierarchy (the DIKW pyramid: Data - Information - Knowledge - Wisdom), data turned into knowledge only after passing through the filter of human consciousness. AI technologies, however, have acquired the ability to find patterns within massive data sets, systematize them, and present them in the form of "ready-made concepts" without direct human intervention.

For today’s student or researcher, knowledge is often no longer the product of a long cognitive pursuit (reading, analyzing, drawing conclusions), but rather a text-based interface generated instantly by AI. This phenomenon is known in epistemology as the "instrumentalization of knowledge": knowledge loses its intrinsic fundamental value and transforms into a purely pragmatic, rapidly deployed instrumental tool.

The core principle of classical gnoseology is the transparency of cognition and the presence of a logical chain. A human being can explain how they arrived at a specific conclusion. However, AI systems based on deep learning neural networks cannot fully explain to human consciousness the exact logical algorithms they used to reach a particular output.

In the educational system, this creates a major epistemological dilemma:

- The Crisis of Verification: The student cannot verify the accuracy of the information received from AI because the process of source generation remains hidden.
- The Risk of "Dogmatic Knowledge": If learners accept information as truth without knowing where or how it was formed, it contradicts the critical nature of scientific inquiry and fosters a new type of digital dogmatism.

Throughout the history of philosophy and pedagogy, the educational process has always been built upon a specific system of relationships. In classical (authoritarian) pedagogy, the teacher was considered the subject (the active giver of knowledge), while the student was the object (the passive receiver). By the late XX century, humanistic pedagogy reinterpreted education as a subject-subject relationship (equal dialogue and cooperation). The advent of artificial intelligence, however, completely disrupted this binary system and gave rise to a new conceptual model.

Today, the educational process is shifting away from its linear character toward a multi-dimensional triad model. Within this model, AI is not merely an instructional tool (like a blackboard or a textbook object), but manifests itself as a unique "quasi-subject" (semi-subject).

- The Teacher (Subject 1): No longer the sole source of knowledge, but rather a motivator, tutor, and mentor who shapes value systems.
- The Student (Subject 2): An independent agent in seeking and mastering knowledge, whose cognitive trajectory is directly linked to technology.
- Artificial Intelligence (Quasi-subject): An intelligent mediator that synthesizes and analyzes information, creates adaptive lesson scenarios, and maintains constant interaction.

Within these triad relationships, the ontological basis of traditional communication changes: the direct interaction between student and teacher is now frequently filtered through algorithms and digital interfaces.

For centuries, the social and philosophical status of the teacher relied on their monopoly over "knowing more" and verifying knowledge. AI has dismantled this monopoly. In terms of academic knowledge base, any advanced neural network can process more information faster than even the most experienced professor.

This shift can lead to a functional and existential crisis for educators. From a philosophical perspective, the teacher must transition from being a provider of "Scientia" (pure scientific knowledge) to a facilitator of "Sapientia" (wisdom, ethics, lived experience, and values). Thus, the role of the teacher shifts from the epistemological arena to the axiological (value-oriented) sphere.

The integration of artificial intelligence into the educational space possesses a dialectical character. On one hand, these technologies serve as a gnoseological catalyst that maximizes human cognitive capabilities; on the other hand, they represent a phenomenon with the potential to exert a destructive influence on the fundamental humanistic, ontological, and ethical foundations of education.

From the perspective of modern epistemology, AI acts as a "cognitive extension" of human intelligence. In this process, the following positive transformations of cognition are observed:

- Hyper-Personalization of Epistemic Trajectories: The traditional "one-size-fits-all" approach in education was gnoseologically inefficient. AI can analyze each learner's level of apperception, cognitive style, and information processing speed to create an optimal, individualized gnoseological dynamic.
- Virtual Simulation of Hypotheses: Visualizing complex scientific, philosophical, or mathematical models through AI bridges the gap between the empirical (sensory) and theoretical (rational) levels of cognition. Students can comprehend abstract phenomena via interactive simulations, which accelerates the acquisition of theoretical knowledge.

The rapid pace of technological progress presents a series of serious challenges to the philosophy of education regarding the anthropic crisis:

- The Crisis of Academic Integrity and "Intellectual Parasitism": Generative neural networks allow students to produce textual content of any complexity within seconds. Philosophically, this signifies the "loss of creative and intellectual subjectivity." Cognition is not just about the final product (the text), but a process of cognitive transformation through intellectual labor, doubt, search, and error. Relying on ready-made answers causes a decline in reflective and critical thinking, leading to cognitive alienation and intellectual parasitism.

- Epistemic Injustice and Digital Stratification: Socio-economic inequality in access to high-end, paid AI resources generates a new type of epistemic injustice. It creates a global stratification in knowledge ownership—separating a digital elite from a technologically dependent class, which threatens the principles of social justice.
- The "Algorithmic Bubble" and Dogmatism: AI algorithms filter information flows based on the user's past preferences. This limits the student's exposure to alternative worldviews or opposing philosophical concepts, enclosing them within an "epistemic bubble." Where pluralism disappears, new forms of digital dogmatism and relativism take root.
- Hallucinations and Ontological Insecurity: The presentation of logical errors and false data (hallucinations) by AI under the guise of truth blurs the boundaries between real and simulated reality. This breeds ontological insecurity and skepticism toward objective reality in the minds of the younger generation.

CONCLUSION

The rapid influx of artificial intelligence technologies into education is not a mere evolution of didactics, but a profound ontological and epistemological turn altering the core foundations of learning. The philosophical-methodological analysis conducted in this study allows for the following conclusions:

1. Transformation of the Nature of Knowledge: In the digital intelligence era, knowledge is partially losing its traditional human status as "justified true belief," becoming a distributed, machine-synthesized, and instrumental phenomenon. The "Black Box" problem risks introducing a new form of digital dogmatism. To prevent this, educational methodology must shift from "accumulating data volume" to developing metacognition and critical verification skills.

2. A New Ontology of Pedagogical Relations: The educational process has shifted from traditional linear structures to a cyber-social triad model: "Teacher – AI – Student". In this system, AI acts as a "quasi-subject," breaking the teacher's monopoly on knowledge transmission. Consequently, the teacher's role must historically transition from the epistemological field to the axiological (mentorship and value-building) arena.

3. Cognitive and Ethical Balance: While AI offers immense opportunities like hyper-personalization, it simultaneously sparks anthropological risks. The crisis of academic integrity, intellectual parasitism, and the entrapment of students within "algorithmic bubbles" threaten human cognitive sovereignty.

In conclusion, the primary strategic task of the modern philosophy of education is to resist technological determinism and instead harmonize the technical power of AI with human subjectivity and spiritual sovereignty. Future education must not robotize humans through digital tools; rather, it must be built upon a humanistic digital didactics that enhances the highest human qualities—critical thinking, creativity, empathy, and ethical responsibility.

REFERENCES

1. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.

2. Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

3. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press.

4. Williamson, B. (2017). Big Data in Education: The digital future of discourse, policy and practice. Sage Publications.

5. Pasquale, F. (2015). The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information. Harvard University Press.

6. Knox, J. (2020). Artificial Intelligence (AI) Edge: The challenges and opportunities for education and society. Postdigital Science and Education, 2(2), 357-373.

7. Safarova, R. G. (2022). Philosophical and methodological problems of transforming pedagogical processes in the digital educational environment. Bulletin of the National University of Uzbekistan, 2(1), 45-50.

8. Sharipov, Sh. S. (2023). Epistemology of higher education in the era of artificial intelligence: Problems and solutions. Journal of Pedagogy, No. 4, 12-18.

9. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The future of education in the 21st century. UCL IOE Press.

10. Ochilov, M. (2024). Modern philosophy of education and digital didactics: a humanistic approach. Journal of Philosophy and Law, No. 1, 28

MATEMATIK FANLARNI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH (Aniq integral mavzusini o„qitish misolida)

Radjabov Baxtiyor Sharipovich

CHDPU matematika o'qitish metodikasi va geometriya kafedrasi professori
bahtiyorradjabov@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda zamon tez rivojlanib bormoqda ekan Axborot texnologiya vositalari va Sun'iy intellekt (SI) kirib bormagan soha deyarli qolmadi. Shunday ekan, ta'lim tizimida ham sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Ammo, ushbu jarayonda bizni qanday imkoniyat va muammolar kutyapti? Degan savollar uyg'onadi. Ushbu maqolada matematika o'qitishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning dolzarb masalalari va afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Аннотатция. В настоящее время, в условиях стремительного развития мира, практически не осталось ни одной сферы, куда бы не проникли инструменты информационных технологий и искусственного интеллекта (ИИ). Поэтому необходимо внедрять использование инструментов искусственного интеллекта в систему образования. Но какие возможности и проблемы ждут нас в этом процессе? Возникают вопросы. В статье рассматриваются актуальные проблемы и преимущества использования искусственного интеллекта в преподавании математики.

Annotation. Nowadays, with the rapid development of the world, there is almost no field left where information technology tools and Artificial Intelligence (AI) have not penetrated. Therefore, it is necessary to introduce the use of artificial intelligence tools in the educational system. However, what opportunities and problems await us in this process? The questions arise. This article discusses the current issues and advantages of using the capabilities of artificial intelligence in teaching mathematics.

Kalit sozlar: SI algoritmlari, modellar, feedbeck, 3D modellar, osonlashtirilgan darslari, ilm-fan yutuqlari, NCTM va ―Aniq integral‖ mavzusi sun'iy intellekt talqinida.

Ключевые слова: алгоритмы ИИ, модели, обратная связь, 3D-модели, упрощенные уроки, научные достижения, NCTM и тема «Определенный интеграл» в интерпретации искусственного интеллекта.

Keywords: SI algorithms, models, feedback, 3D models, simplified lessons, scientific achievements, NCTM and the topic "Definite Integral" in the interpretation of artificial intelligence.

Matematika va sun'iy intellect (SI) bir-biri bilan chambarchas bog'langan va birbiri to'ldirgan ikkita asosiy sohadir. Matematika SI algoritmlari va modellarni ishlab chiqish uchun nazariy asosni ta'minlaydi, AI esa, o'z navbatida, matematik tadqiqotlar uchun yangi ufqlarni ochadi.

Dunyo juda ham tez rivojlanib bormoqda. Ilm-fan bugun yuksak darajalarga erishdi. Axborot kommunikatsion vositalar hamda sun'iy intellek kirib bormagan soha deyarli qolmadi. Bo'lib ham azal-azaldan matematika barcha sohalarda kerakli fan bo'lib kelgan. Shunday ekan, bugungi kunda Matematika sohasida ham sun'iy intellektdan foydalanish kerakmi? Degan

savollar tug'ilmoqda. 2023-yil noyabr oyida NCTM (National Council of Teachers of Mathematics) saytida ―Math and Artifical Intelligence‖ (Matematika sun'iy intellekt) nomli maqola e'lon qilindi. Unda, bugungi kunda matematikani sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish haqida bir qancha mulohazalar keltirilgan.

NCTMning prezidenti Kevin Dykema quyidagicha mulohazani keltiradi: ―Men ba'zan o'quvchilarning Sini darslarda taqiqlash kerak degan gaplarini eshitaman. Bu soda ko'rinadi. Biz shuni tan olishimiz kerakki, talabalar kun bo'yi darsda bo'lishmaydi va taqiqlasak ham, undan darsdan tashqari vaqtlarda foydalanishadi. Buning o'rniga, biz o'quvchilarga ushbu vositalardan qanday qilib to'g'ri foydalanishga va yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan tuzoqlarni aniqlashni o'rgatishga yordam berishimiz kerak‖.

Haqiqatdan ham globallashuv zamonida Axborot texnologiya vositalaridan unumli foydalanish kerak. Biz uni umuman taqiqlab qo'yolmaymiz. Uning o'rniga to'g'ri foydalanishni o'rgatishimiz kerak bo'ladi [1,3,8].

Matematika va sun'iy intellekt (SI) integratsiyasi hozirgi zamonaviy texnologik rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. SI tizimlarini yaratishda matematikaning turli sohalari, ayniqsa, statistik metodlar, ehtimollar nazariyasi, optimallashtirish va algebraik strukturalar juda muhim ro'l o'ynaydi.

Matematikada sun'iy intellektdan matematik modellashtirish, balki matematik masalalarni yechish, tasvirlash va tahlil qilishda ham katta yordam beradi. Sun'iy intellekt va mashina o'rganish algoritmlarini matematikaga integratsiya qilish matematik jarayonlarni yanada samarali, tezkor va aniq qilish imkonini beradi [2,3,6,7].

Sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi afzalliklari:

- shaxsiylashtirilgan ta'lim; Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Ya'ni talaba yoki o'qivchilar mustaqil ta'lim jarayonida ularda paydo bo'lgan savollar va muammalarni hal qilishning tez va samarali vositasidir.

- Moslashuvchanlik; O'quvchilarning o'rganish tezligiga va uslubiga moslashashga yordam beradi

- Samaradorlik; O'qituvchilarga vaqtni tejash va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

- Baholash; o'quvchilarning bilimlarini to'g'ri va tez baholashga yordam beradi.

Matematika masalalarini hal qilishda masalalarni tahlil qilish, qadam-baqadam yechimlar va mavzu bo'yicha tegishli maslahatlarni berib o'tadi. Sun'iy intellekt vositasida matematik masalalarni yechishda masalalarni yechishda o'quvchilarga qadam-baqadam ketma-ketligini ko'rsatadi. Misol uchun bir masalani yechishni ko'rib chiqaylik: $y = \frac{1}{x}$ — funksiyaning y=-x funksiya atrofidagi aylanishidan hosil bo'lgan shaklning hajmini toping‖ degan masala berilgan bo'lsin, biz uni sun'iy intellekt yordamida hisoblaymiz.

$y = \frac{1}{x}$ — funksiyasining funksiyasi y=x atrofida hosil bo'lgan shaklning hajmini topish uchun, biz disklar usulidan foydalanamiz. Buning uchun quyidagi qadamlarni amalga oshiramiz [2,5,6]:

1. Funksiyalarni tenglashtirib, kesish nuqtalarini topamiz

Birinchi navbatda, $y = \frac{1}{x}$ va y=x funksiyalarining kesish nuqtalarini topishimiz kerak. Buning uchun, ikki funksiyani tenglashtiramiz:

Bu tenglamani yechamiz:

$$\frac{1}{x} = x$$

Bu tenglamani yechamiz:

$$1 = x^2$$

$$x^2 = 1$$

Shu bilan x=±1 bo'ladi. Demak, kesish nuqtalari x=1 va x=-1 nuqtalarda bo'ladi

2. Hajmni topish. Endi, hosil bo'lgan shaklning hajmini topish uchun disklar usulini qo'llaymiz. Aylanish o'qi atrofida bo'lgani uchun, hajm formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$V = \pi \int_a^b [f(x)^2 - g(x)^2]dx$$

3. Integrallash. Hajmni hisoblash uchun integralni yechamiz:

$$V = \pi \int_a^b \left[\frac{1}{x^2} - x^2\right] dx$$


Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir videoga ko'zim tushdi. Unda, Xitoydagi maktablarda o'quvchilar orasidan savolga kim javob berishi yoki doskaga kim chiqishini sun'iy intellekt belgilab berar ekan. Sun'iy intellekt o'quvchilarga mashqlarni taqdim etish va bolash uchun quyidagilarni taqdim etadi:

1. Moslashuvchan mashqlar; Har bir o'quvchining o'rganish darajasiga moslashtirilgan mashqlar taqdim etiladi.

2. Avtomatlashtirilgan baholash; o'quvchilarning ishlarini avtomatik ravishda baholash imkonini beradi.

3. Tez va aniq natijalar; O'quvchilarning ishlarini tezda baholash va ularga o'z vaqtida fikr mulohazalar beradi

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekdan foydalanish nafaqat o'quvchilarda, balki, o'qituvchilarga ham katta foyda beradi. Masalan, yaqinda ―Aniq integral va uning tadbiqlari‖ mavzusida talabalarga taqdimot yaratish maqsadida sun'iy intellektga murojaat qilganimda u menga ajoyib bir taqdimot yaratib berdi.



1-rasm

Ma'lumki, Aniq integralning asl maqsadi egri chiziqli trapetsiyaning yuzini isoblashdir.

Taqdimotning ―Aniq ta‘rifi va geometrik ma‘nosi‖ nomli qismida sun‘iy intellekt o’quvchilarga tushunish maqsadida quyidagicha chizmalarni ko’rsatdi:

Ushbu rasmdan ko’rinib turibdiki, aniq integral egri chiziqli funkksiyani qanday qilib hisoblanishi keltirilgan. Ushbu suratni yanada yaxshiroq tushinish uchun quyida aniq integralning ta‘rifini keltirib o’tamiz.

(a,b) kesmada uzluksiz y=f(x) funksiya berilgan bo’lsin. m va M bilan shu oraliqdagi eng katta va eng kichik qiymatlarni belgilaymiz. (a,b) kesmani

$$a = x_0, x_1, x_2, \dots, x_{n-1}, x_n = b,$$

bo’lishini nuqtalari yordamida n qismlarga ajratamiz, bunda

$x_0 < x_1 < x_2 < \cdots < x_n$, va


$$x_1 - x_0 = \Delta x_1, x_2 - x_1 = \Delta x_2, \dots, x_n - x_{n-1} = \Delta x_n$$

So’ngra, y=f(x) funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini quyidagicha belgilaymiz

$[x_0, x_1]\ m_1\ va\ M_1,$

$[x_1, x_2]\ m_2\ va\ M_2,$

$[x_{n-1}, x_n]\ m_n\ va\ M_n,$



2-rasm

Quyidagi yig’indilarni tuzamiz:

$$\underline{S_n} = m_1\Delta x_1 + m_2\Delta x_2 + \cdots + m_n\Delta x_n = \sum_{i=1}^{n} m_i\Delta x_i \quad (1)$$


$$\overline{S_n} = m_1\Delta x_1 + m_2\Delta x_2 + \cdots + m_n\Delta x_n = \sum_{i=1}^{n} m_i\Delta x_i \quad (2)$$

$\underline{S_n}$- yig’indi quyi integral yig’indisi, $\overline{S_n}$ yig’indi esa yuqori integral yig’indi deb ataymiz.


Agar y=f(x)≥0 bo’lsa, u holda quyi integral yig’indi sonma-son $AC_0N_1C_1N_2 \dots C_{n-1}BA$ ―ichki chizilgan zinasimon figura‖ning yuzasiga teng, yuqori integral yig’indisi sonma-son

$AK_0C_1K_1 \dots C_{n-1}K_{n-1}C_nBA$

―tashqi chizilgan zinasimon figura‖ning yuzasiga teng.



3-rasm.



4-rasm.

Demak, yuqorida (1-rasm) keltirilgan rasm aniq integralni tasniflashda o'quvchilar eng tushunarli va eng soda usulini chiqardi.

XULOSA.

Zamon bilan hamnafas holda yashash bugungi kunning asosiy masalalaridan biri ekan, barchamiz undan foydalanishni o'rganishimiz lozim. Undan tashqari, o'qituvchilarni vaqtini tejash hamda o'quvchilar uchun ham sodda-tushunarli qilib darslarga tayyorlanishi uchun ham qulay.

Sun'iy intellektga asoslangan o'quv muhitlari o'quvchilarga matematikaviy tushunchalarni amalda ko'rish va o'rganish imkoniyatini beradi. Masalan, geometriya yoki algebra kabi mavzularda 3D modellar va simulyatsiyalar yordamida o'quvchilar real dunyo misollarida qanday ishlashini ko'rishlari mumkin.

Matematika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish, o'quvchilarga individual o'qitish, tezkor feedback va qiziqarli, innovatsion o'qish tajribalarini taqdim etishga yordam beradi. Bu nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki o'qituvchilarni o'quv jarayonini yanada samarali va ilg'or tarzda olib borish imkoniyatiga ega qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Radjabov B.Sh., Hasanjon A. Matematika modellashtirish metodlari. Determeneatsiyalangan va stoxastik iqtisodiy-matematik modellar. //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 15. – C. 46-51.

2. Nursaidov, Nurmuxammad. ―Pedagogik tadqiqotlarda sun'iy intellektning o'rni: uyga vazifalarni baholash tizimining ishlab chiqilishi va tatbiqi‖. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (2024): 662-667.

3. Suxrobovich, Jabborov Sattorbek, and Muzaffarov Abdulaziz Azam o'g'li. ―Sun'iy intellekt: yutuq va kamchiliklari‖. Лучшие интеллектуальные исследования 6.2 (2023): 19-22.

4. Yo'ldoshev A. Ta'limda sun'iy intellekt imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 11 | 2022. ISSN: 2181-1385. Cite-Factor: 0,89 | SIS-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. 726-729-sahifalar.

5. Oluwaseyi A. G. Opesemowo and Mdutshekelwa Ndlovu. Artificial intelligence in mathematics education: The good, the bad, and the ugly. Journal of Pedagogical Research Volume 8, Issue 3, 20

SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA UNIVERSAL APPROKSIMATSIYA TEOREMASINING GILBERT FAZOLARIDAGI FUNKSIONAL TAHLILI

ChDPU Aniq fanlar fakulteti MI 3-bosqich talabalari

Erkabayeva Shodiya Maxmud qizi

Azamatova Ruxsora Olimjon qizi

Saidaliyeva Nozanin Davlatboy qizi

Aktamov Feruz Sanaqulovich

Algebra va matematik analiz kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ishda sun'iy neyron tarmoqlarining fundamental asosi bo‘lgan Universal Approksimatsiya Teoremasi funksional analizning Gilbert fazolari va undagi ortogonal proeksiyalar tushunchasi orqali tahlil qilinadi. Ko'p qatlamli neyron tarmoqlarining murakkab funksiyalarni yaqinlashtirish qobiliyati chiziqli va qavariq operatorlar nuqtai nazaridan asoslab beriladi.

Kalit so`zlar: Funksional analiz, Gilbert fazosi, universal approksimatsiya teoremasi, sun’iy neyron tarmoqlari, chiziqli bo‘lmagan operatorlar, ortogonal proeksiya, zichlik sharti, aktivatsiya funksiyasi, o‘rtacha kvadratik xatolik, optimallashtirish

Bugungi kunda sun'iy intellekt va chuqur o'rganish (Deep Learning) texnologiyalari ko'plab amaliy masalalarni hal qilishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Biroq ko'p qatlamli neyron tarmoqlarining strukturaviy mukammalligi va ularning o'rganish jarayonlari ko'p hollarda empirik tajribalarga tayanadi. Neyron tarmoqlarining matematik asosini tushunishda Cybenko va Hornik tomonidan isbotlangan Universal Approksimatsiya Teoremasi fundamental poydevor hisoblanadi. Ushbu teorema bitta yashirin qatlamga ega bo'lgan neyron tarmog'i har qanday uzluksiz funksiyani ixtiyoriy aniqlikda yaqinlashtira olishini kafolatlaydi. Klassik talqinda bu jarayon uzluksiz funksiyalar fazosida qaralsa-da, tarmoqning xatoliklarini optimallashtirish va uning geometrik mohiyatini ochib berish uchun ushbu muammoni funksional analizning Gilbert fazolari prizmasida tadqiq etish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Faraz qilaylik, $X \subset \mathbb{R}^d$ ixcham (kompakt) to`plam bop`lsin.Biz kirish va chiqish signallari orasidagi bog`liqlikni ifodalovchi funksiyalarni o`rganish uchun $L^2(X)$Gilbert fazosini qaraymiz.Bu fazoda ikki funksiyaning o`zaro o`xshashligi skalyar ko`paytma,ya`ni $\langle f, g\rangle = \int_X f(x)g(x)dx$ orqali,modelning xatoligi esa $\|f\|_{L^2} = \sqrt{\langle f, f\rangle}$normasi yordamida o`lchanadi.Bitta yashirin qatlamli neyron tarmog`ining matematik modeli $N(x) = \sum_{i=1}^{M} c_i\ \sigma(w_i^T x + b_i)$ko`rinishidagi operator yordamida tavsiflanadi.Bu yerda $c_i, b_i \in \mathbb{R}$ va $w_i \in \mathbb{R}^d$tarmoqning o`rgabiladigan parametrlari bo`lsa, $\sigma(\cdot)$ esa ReLU yoki sigmoida kabi chiziqli bo`lmagan aktivatsiya funksiyadir.Universallik teoremasining Gilbert fazosidagi asosiy maqsadi- barcha mumkin bo`lgan $N(x)$neyron tarmoqlari to`plami $\mathcal{N}$ning $L^2(X)$fazosida hamma yerda zich ekanligini isbotlashdan iboratdir.

Gilbert fazosi o`zining boy geometric strukturasi,xususan orthogonal proeksiyalar nazariyasi bilan ajralib turadi.Neyron tarmog`ini o`rgatish jarayoni amaliyotda o`rtacha kvadratik xatolikni minimallashtirishga,ya`ni $E(N) = \|f - N\|_{L^2}^2 \to \min$ funksionalini yechishga keltiriladi.Gilbert fazolari nazariyasiga ko`ra, agar $\mathcal{N}$qism fazosining orthogonal to`ldiruvchisi faqat nol elementdan iborat bo`lsa, ya`ni $\mathcal{N}^{\perp} = \{0\}$ sharti bajarilsa, u holda $\mathcal{N}$ to`plam hamma yerda zich bo`ladi.Xon-Banax teoremasining Gilbert fazosidagi analogiga asosan, agar biror $g \epsilon L^2(X)$ funksiya barcha $N \in \mathcal{N}$ elementlar uchun $\langle g, N \rangle = 0$ ortogonal shartni qanoatlantirsa, aktivatsiya funksiyaning chiziqli bo`lmagan tabiati tufayli g=0 ekanligi kelib chiqadi.Bu esa har qanday maqsadli funksiyani neyron tarmoqlari elementlari kombinatsiyasi orqali Gilbert fazosi normasi bo`yicha ixtiyoriy kichik xatolik bilan yaqinlashtirish mumkinligini qat`iy isbotlaydi.Shu bilan birga, ixtiyoriy f funksiya uchun eng yaxshi approksimatsiya modeli ushbu fazodagi orthogonal proeksiya sifatida namoyon bo'ladi va u tarmoq erishishi mumkin bo'lgan global minimum nuqtasini ifodalaydi.Xulosa qilib aytganda, neyron tarmoqlarining universallik teoremasini Gilbert fazolarida talqin qilish sun'iy intellekt modellariga nisbatan "sehrli quti" (black box) yondashuvidan voz kechib, ularni qat'iy matematik qonuniyatlarga bo'ysunuvchi tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Mashinali o'rganishda keng qo'llaniladigan gradient tushishi (Gradient Descent) algoritmlari aslida Gilbert fazosidagi funksionalning gradient trayektoriyasi bo'ylab harakatlanishidir. Ushbu yondashuv kelajakda neyron tarmoqlari arxitekturasini elementar funksiyalarning Furye yoki Veyvletlar kabi ortogonal tizimlari kabi barqaror, mukammal va resurslarni tejaydigan ko'rinishda loyihalashda yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

Adabiyotlar

1. Ayupov, Sh. A., Ibragimov, A. A., & Kudaybergenov, K. K. (2019). Funksional analiz. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti darsligi. (Gilbert fazolari va operatorlar nazariyasi bo‘yicha asosiy manba).
2. Sadullaev, A., Mansurov, X., Xudayberganov, G., Vorisov, A., & Tuychiev, X. (2008). Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami (Funksional analiz). Toshkent: O‘zbekiston. (Gilbert fazolarida ortogonal tizimlar va proeksiyalarni hisoblashga oid uslubiy qo‘llanma).
3. Kolmogorov, A. N., & Fomin, S. V. (1989). Элементы теории функций и функционального анализа. Москва: Наука. (O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida funksional analiz fanidan keng qo‘llaniladigan klassik fundamental darslik).
4. Xudayberganov, G., Otaboev, T. U., & Karimov, J. A. (2021). Gilbert fazolarida chiziqli operatorlar nazariyasi elementlari. Toshkent: Mumtoz so‘z. (Neyron tarmoqlaridagi chiziqli qatlamlar va operatorlarni tahlil qilish uchun mos o‘quv qo‘llanma).
5. Madrakhimov, Sh. R., & Ikramov, A. M. (2020). Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari asoslari. Toshkent: Aloqachi. (Neyron tarmoqlarining matematik modellarini tushuntiruvchi mahalliy adabiyot).
6. Trenogin, V. A. (1980). Функциональный анализ. Москва: Наука. (Gilbert fazolarida qavariq funksionallarni minimallashtirish va yaqinlashish teoremalari bayon etilgan darslik).

FIZIKA DARSLARIDA ARALASH TA’LIM VA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING O‘ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Kutlimurotov Sardor Sharipbayevich

ChDPU, Aniq fanlar fakulteti fizika kafedrasi dotsenti v.b.,p.f.f.d.(PhD)

Hamroyeva Madina Murotboy qizi

Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi (fizika va astronomiya) 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishi bo‘lgan aralash ta’lim (blended learning) modellarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning fizik tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Aralash ta’lim an’anaviy o‘qitish bilan raqamli resurslar imkoniyatlarini birlashtirib, o‘quv jarayonini yanada interfaol va natijali qilishga xizmat qiladi. Tezisda “to‘ntarilgan sinf” ta’lim texnologiyasini fizik jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyati, virtual laboratoriyalar hamda sun’iy intellekt vositalarining o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: aralash ta’lim, fizika, to‘ntarilgan sinf, virtual laboratoriya, raqamli transformatsiya, samaradorlik.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Aralash ta’lim (blended learning) — bu an’anaviy o‘qitishning kuchli tomonlari (amaliy yo’naltirilganlik) va raqamli platformalarning (nazariy materiallarni o’zlashtirish, nazorat va o’z-o’zini tahlil qilish) uyg’unligidir. Fizika fani o’zining murakkab va mavhum tushunchalari bilan o’quvchilardan chuqur tahlilni talab qiladi. Shu sababli, aralash ta’lim modellarini joriy etish o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni mustahkamlashning asosiy vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Aralash ta’lim modellarining qo’llanilishi fizik tushunchalarni o’rgatishda aralash ta’limning quyidagi ta’lim texnologiyasi yuqori samaradorlik ko’rsatmoqda.

“To’ntarilgan sinf” (Flipped Classroom) ushbu modelda an’anaviy dars va uy vazifasining o’rni almashadi. O’quvchi yangi mavzu bo’yicha nazariy ma’lumotlarni, videodarslarni va mini-ma’ruzalarni uyda raqamli resurslar orqali mustaqil o’rganadi. Maktabdagi dars vaqti esa faqat amaliy mashqlar, laboratoriya ishlari va muammoli topshiriqlarni yechishga ajratiladi. Bu o’quvchida o’z-o’zini tashkil etish va mas’uliyatni his qilish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Fizik tushunchalarni o’zlashtirishda raqamli vositalar fizika fanini vizuallashtirish va murakkab jarayonlarni oson tushuntirish uchun axborot texnologiyalar va virtual laboratoriyalar katta imkoniyat yaratadi:

- PhET Interfaol simulyatsiyalari: Fizika, kimyo va matematika bo’yicha 300 dan ortiq simulyatsiyalarni taqdim etadi. O’quvchilar yadro fizikasi, elektr zanjirlari yoki mexanik harakat kabi mavzularda real vaqt rejimida tajribalar o’tkazishlari mumkin.

- The Physics Aviary: Amerikalik olim Frank McCulley tomonidan yaratilgan ushbu platformada 180 dan ortiq virtual laboratoriyalar va 340 dan ortiq muammoli topshiriqlar mavjud. Mazkur platformaning o’zbek tilidagi talqini (thephysicsaviary.trm.uz) ham mavjudligi mahalliy maktablar uchun qulaydir.

- oPhysics va Vascak: Mexanika, optika va elektromagnetizm sohalaridagi murakkab fizik hodisalarni animatsiyalar orqali vizual tushuntirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt (AI) o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga qarab shaxsiy o'quv trayektoriyasini tuzishga ko'maklashadi. Khan Academy kabi platformalar o'quvchining bilim darajasiga mos moslashuvchan (adaptive) darslarni taklif etadi. Mazkur texnologiya o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, unga aynan qaysi raqamli ta'lim resurslarini o'zlashtirish lozimligini taklif etadi.Ushbu platformalar va virtual yordamchilar olingan statistik ma'lumotlar asosida onlayn ta'lim berish uchun maxsus shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqadi. Sun'iy intellektning shaxsiy ta'limni shakllantirishdagi asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- Ma'lumotlar tahlili: AI o'quvchining ta'lim resurslari bilan ishlash jarayonini doimiy kuzatib boradi va takomillashtirish lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlaydi.

- Moslashuvchanlik (Adaptivlik): Khan Academy, Adaptemy yoki Knewton kabi moslashuvchan ta'lim platformalari o'quvchining individual qobiliyatlariga qarab ta'lim kontentini o'zgartirib boradi.

- Individual yordam: Masteriyo LMS kabi tizimlar o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib samarali o'quv yo'llarini taklif qilsa, Quizlet algoritmlari diqqatni o'quvchining kamchiliklari aniqlangan sohalarga qaratishni ta'minlaydi.

- Virtual yordamchilar: ChatGPT, Copilot va Gemini kabi vositalar o'quvchilarning savollariga javob berish bilan birga, ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan tushuntirishlar va tavsiyalar beradi.

- Rejalashtirish: MagicSchool platformasi pedagoglarga har bir o'quvchi uchun individual o'quv rejalarini, hatto 15 kunlik shaxsiylashtirilgan dasturlarni tezkor yaratish imkonini taqdim etadi.

ChatGPT yoki Microsoft Copilot kabi virtual yordamchilar esa o'qituvchilarga dars rejalarini tuzish, murakkab masalalarning yechimlarini tahlil qilish va nazorat savollarini generatsiya qilishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda aralash ta'lim asosida darslarni tashkil etish fizik tushunchalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo'lidir. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilaydi, balki ularda raqamli savodxonlik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kabi XXI asr ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Kelajakda fizikani o'qitishda raqamli resurslar va jonli muloqotning o'zaro muvozanatini saqlash ta'lim sifati kafolati bo'lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.D.A.Begmatova, M.Qurbonov , Sh.M. Sodiqova, N.Q.Abdullayev Fizika o'qitish metodikasi. Darslik. – S.: "Fidokor Yosh Avlod", 2023. – 361 b.

2. E.M.Golikova,P.P. Tissen, R.R.Kalimullin Application of blended learning models in teaching physical education in school as a condition for transformation of the educational system. J. Sib. Fed. Univ. Humanit. soc. sci., 2023, 16(2), 246–254.

3. Jalolova P.M. Physics Education Technology (PhET) dasturida virtual laboratoriya ishlari. Uslubiy qo'llanma. – Qarshi, 2019. – 48 b.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.

GAMIFICATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INNOVATIVE STRATEGIES FOR CREATING INTERACTIVE EDUCATIONAL PROGRAMS

Raupova Mohinur Haydar qizi

Senior lecturer at Chirchik state pedagogical university

Isamiddinova Gulruhsor

Chirchik state pedagogical university

Abstract: This article explores the integration of two key drivers of modern education — gamification and artificial intelligence (AI) technologies. The role of these technologies in creating interactive and personalized educational programs, strategies for their practical implementation, and future prospects are analyzed.

Keywords: gamification, artificial intelligence, interactive learning, personalized approach, EdTech, motivation, adaptive learning.

Introduction

In today's digital era, traditional teaching methods can no longer fully meet the needs of students and learners. The abundance of information and the shortening of attention spans demand new approaches from educational technology (EdTech). The synergy between gamification and artificial intelligence (AI) has emerged as the most effective solution to this challenge.

While gamification uses game elements to engage learners and boost motivation, artificial intelligence adapts this process to each user's individual abilities. The combination of these two technologies transforms education from a mere means of acquiring information into an engaging and interactive experience.

Gamification is not a new concept in education. Leaderboards, badges, and point systems have been used for many years. However, traditional gamification operated on a one-size-fits-all principle. With the advent of artificial intelligence, gamification has become dynamic and adaptive. AI analyzes a student's behavior, errors, and learning pace in real time, and tailors the game mechanics specifically for that student.

Gamification is the methodology of applying game elements (points, titles, leaderboards, reward systems) to the educational process. Research shows that gamified learning environments increase student engagement by 60–80% [1]. However, traditional gamification approaches present content at the same pace and complexity level for all students — this fails to meet individual learning needs.

The integration of artificial intelligence into gamification overcomes this limitation. AI algorithms analyze student behavior in real time, identify strengths and weaknesses, and automatically generate adaptive game scenarios. For example, machine learning models increase difficulty on questions the student answers correctly, while offering additional explanations and simplified tasks in areas where mistakes are made.

Innovative Components:

• Dynamic Difficulty Adjustment: AI automatically adjusts the game level so the student neither gets bored (too easy) nor becomes discouraged (too hard).

• Smart Feedback: Instead of a simple 'Wrong' or 'Correct' response, AI provides interactive and guiding advice through the voice of a game character.

2. Innovative Strategies for Creating Interactive Educational Programs

The following innovative strategies are considered effective in creating interactive educational programs:

The AI model monitors each student's learning pace and adapts task complexity based on the principle of 'Optimal Flow' (Flow Theory, Csikszentmihalyi). This keeps the student in a creative zone — not overwhelmed by tasks that are too difficult, nor disengaged by tasks that are too easy.

Using Large Language Models (LLM), a unique game storyline is created for each student in which learning objectives are seamlessly woven into the narrative. This approach ensures emotional engagement with the subject matter [3].

Teachers are provided with a dashboard containing detailed information about each step of the student's progress. The AI system predicts the risk of falling behind and sends alerts to the teacher.

AI is also used to optimize team formation: it purposefully groups students of different knowledge levels so that stronger students become mentors to weaker ones. This aligns with social learning theory.

Each student has a different level of comprehension. AI algorithms, based on initial tests or the first stages of a game, build an individual 'mission map' for the student. For example, visual learners receive more video-game elements, while text-oriented students receive quest-style assignments.

In teaching languages or humanities, interaction with AI-driven virtual characters (NPCs) is highly effective. The student engages in live dialogue (via text or voice) with an AI-controlled character, and errors are gently explained through the game format.

AI can predict when a student is about to disengage or the likelihood of dropping out (churn rate). In such situations, the system strategically re-engages the student by offering a new achievement, bonus points, or an interesting task.

Programs created through the combination of gamification and AI significantly enhance educational effectiveness. The table below shows the advantages of this integration compared to traditional education:

Criterion	Traditional Education	AI + Gamification System
Student Engagement	Low / Passive listening	High / Active participation and play
Content Mastery	Same pace for everyone	Individual, adaptive pace
Response to Errors	Fear and stress (grade drop)	Experience gained and opportunity to retry
Assessment	Final exams (static)	Continuous, real-time analysis (dynamic)

One of the world's most renowned educational platforms — Duolingo — is a prime example of this approach. It combines AI (for personalization) and gamification (lives, streaks, leagues) to teach languages to millions of people in an engaging way.

Conclusion

The synergy of gamification and artificial intelligence is not merely a passing trend — it is the future of education. In the coming years, these systems will integrate even more deeply with VR (Virtual Reality) and AR (Augmented Reality) technologies. Imagine students safely learning medicine or engineering through AI-driven simulator games in an interactive format.

In conclusion, combining gamification and artificial intelligence in creating innovative interactive educational programs not only awakens students' interest in knowledge, but also teaches them the most crucial skill of the 21st century — independent and lifelong learning. It is a strategic necessity for public and private educational institutions to implement these strategies in their programs without delay.

References

1. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. John Wiley & Sons.
2. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
3. EdTech Magazine global reports and analyses (2025–2026).
4. Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? // Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences. 2014. P. 3025–3034.
5. Chen C.M. Intelligent web-based learning system with personalized learning path guidance // Computers & Education. 2008. Vol. 51(2). P. 787–814.
6. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: defining gamification // Proceedings of MindTrek. 2011. P. 9–15.

HARBIY SOHADA SUN’IY INTELLEKTNING QO‘LLANILISHI

Maxmudov O‘lmas Ne’madullo o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Axborot kommunikasion texnologiyalar va harbiy aloqa instituti
o‘quv bo‘limi katta ofiser yordamchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda sun’iy intellekt, xususan, chuqur o‘rganish neyron tarmoqlari, inson hayotining barcha sohalariga kirib borayotgani sababli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohalar orasida harbiy soha ham bor. Qarshi tomonlar o‘z kuchlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etib, o‘z harakatlari natijalari sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayon qaytarib bo‘lmas bo‘lib, harbiy sohani zamonaviy texnologiyalar bilan to‘ldirishda davom etadi. Shu bilan birga, u yengil yoki og‘ir texnikadan foydalanishdan tortib, strategik qarorlar qabul qilishgacha bo‘lgan harbiy mahoratning turli qismlariga ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, neyron tarmoq, harbiy harakatlar, taraqqiyot, chuqur o‘rganish, texnika, strategik qarorlar.

Аннотация: На сегодняшний день Искусственный Интеллект в целом и нейросети глубокого обучения в частности начинают играть все большее и большее значение, проникая во все сферы человеческой жизни. Среди этих сфер есть, в том числе, и военная. Противоборствующие стороны делают попытки внедрить в свои военные силы современные технологии для повышения качества результатов своих действий. Данный процесс необратим и будет наполнять военную сферу современными технологиями и дальше. При этом, он затрагивает различные части военного ремесла, от оперативных действий, будь то применение легкой или тяжелой техники, до принятия стратегических решений.

Ключевые слова: искусственный интеллект, нейросеть, военные действия, прогресс, глубокое обучение, техника, стратегические решения.


Sun’iy intellekt axborot texnologiyalarining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Inson hayotining barcha jabhalariga, ishlab chiqarishdan san’atgacha kirib borayotgan u ko‘p jihatdan insondan ustun kela boshladi. Bu darhol ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish istagini uyg‘otadi, chunki bu ishchi kuchlarini bo‘shatish va mahsuldorlikni oshirishga yordam beradi.

Har qanday yangi istiqbolli texnologiya kabi, sun’iy intellekt ham darhol harbiy sohaga kirib keldi. Harbiy sohada sun’iy intellekt keng qo‘llaniladi. Mazkur maqolaning maqsadi harbiy sohada sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy usullariga izoh berishdan iborat.

Tasvirni tanish harbiy soha uchun eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Fotosuratni tez tahlil qilish harbiy jarayonga qimmatli razvedka ma’lumotlarini olish va o‘z mavqeini yaxshilash imkonini beradi. Tasvirni tanish sun’iy intellektning eski vazifalaridan biri bo‘lishiga qaramay, harbiy ishlarda mavjud xizmatlar va modellardan foydalanish mumkin emas, chunki harbiy soha tasvirni tanish uchun o‘ziga xos shartlar va cheklashlarni qo‘yadi. Shuning uchun foydalaniladigan har bir texnologiyani installyatsiya qilish talab etiladi.

Masalan, agar jangovar harakatlar paytida olingan fotosuratlar haqida gap borayotgan bo‘lsa, bunday suratlarning aksariyati past sifatli bo‘ladi, tunda olingan bo‘ladi yoki taniladigan obyekt ularda faqat qisman ko‘rinadi yoki umuman aniq tanib bo‘lmaydi. Havodan yoki kosmosdan olingan suratlarda bu cheklashlar saqlanib qoladi. Ochiq manbalardan ma’lum

bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra [1], 2017 yilda Google kompaniyasi AQSH hukumati buyurtmasi bilan shunday tasvir tanish tizimini ishlab chiqqan. Bu tizim «Project Maven» deb nomlangan.



1-rasm. Project Maven.

Bugungi kunda bunday tizimlar juda talablarga ega hisoblanadi, bu ularning ko‘plab yirik mamlakatlarda ishlab chiqilayotgani va joriy etilayotganini ishonch bilan aytishga imkon beradi.

Tasvirlarni tanib olishdan tashqari, sun’iy intellekt bevosita harbiy texnikada ham qo‘llaniladi, bir nechta shunday misollarni ko‘rib chiqamiz.

Sun’iy intellektdan foydalanish eng ko‘p talabga ega bo‘lgan texnika turlaridan biri bu uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA). Ushbu texnologiyadan foydalanishning yorqin misoli P.O. Suxoy nomidagi OKB tomonidan ishlab chiqilgan og‘ir S70 UUA, shuningdek, "Ovchi" sifatida ham tanilgan [2]. Ushbu UUA inson aralashuvisiz tez o‘zgaruvchan vaziyatda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. Ushbu mashina hal qilishi kerak bo‘lgan vazifalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: maqsadlarni qo‘shimcha razvedka qilish, yashirin rejimda aylanib yurish, boshqa inson boshqaruvidagi samolyotlar bilan juftlikda ishlash, ma’lumot almashish zanjirlarini qurish, to‘liq avtomatik rejimda parvoz qilish, maqsadga to‘liq avtomatik rejimda zarba berish. Ushbu vazifalar ro‘yxatiga asoslanib, mashinaga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan barcha harbiy vazifalar operator aralashuvisiz bajarilishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.



2-rasm. «Ovchi» UUA

Lekin nafaqat havo texnikasi sun’iy intellektni joriy etishga duch kelmoqda. Ko‘pgina quruqlikdagi texnik vositalar intellektual tizimlarga ega, masalan, RTM "Uran-9" [3]. Ushbu robototexnika majmuasi o‘zi harakatlanadigan tankga o‘xshash mashinadir. Uning intellektualligi jangovar moduldir. Mashina oldindan belgilangan yo‘nalish bo‘yicha mustaqil ravishda harakatlana oladi, hududni razvedka qiladi va nishonlarni aniqlay oladi, ammo o‘q ochish to‘g‘risidagi qarorni operator qabul qiladi.



3-rasm. «Uran-9» RTM

Sun’iy intellekt raketa texnikasida kamida shu qadar ta’sirli natijalarga erishdi. Bunday yutuqlarning namoyishi Rossiyaning "Oniks" kemaga qarshi raketasidir [4]. Ushbu raketa "otib tashlab unutish" prinsipi asosida ishlaydi, ya’ni uchirilgandan keyin insonning qo‘shimcha aralashuvini talab qilmaydi. Zarba berish hududiga yetib borganida, u o‘z ma’lumotlar bazasi bilan kemalarning elektromagnit imzolarini solishtirib, dushman flotidagi eng qimmatli maqsadni mustaqil ravishda tanlaydi. Bundan tashqari, ushbu raketa to‘da bo‘lib harakat qila oladi, bu holda bir nechta raketalar maqsadlarni o‘zlari taqsimlaydi, hujumgacha bo‘lgan yo‘nalishlarni tuzadi va shuningdek, dushmanning raketa mudofaasini chalg‘itishga harakat qiladi.



4-rasm. «Oniks» raketasi

Ushbu maqolada sun’iy intellektning harbiy sohada qo‘llanilishining bir nechta usullari ko‘rib chiqildi. Taqdim etilgan har bir misolda sun’iy intellekt aniq bir vazifani bajargan bo‘lsa-da, ular bir-biridan ajralgan deb ayta olmaymiz. Qanday bo‘lmasin, turli xil sun’iy intellekt vazifalari tasvirni aniqlash yoki marshrutlarni qurishda bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sanab o‘tilgan texnologiyalar va qo‘llanilish usullaridan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, hozirgi vaqtda sun’iy intellekt harbiy sohada keng qo‘llanilishiga qaramay, faqat odamning yordamchisi sifatida, kundalik vazifalarni bajarish yoki murakkab hisoblashlarni amalga oshirish uchun ishlatilmoqda va mashinalar urushi haqida gapirish hali erta, ammo ushbu sohada uning rivojlanish tezligini ta’kidlash lozim. Vaqt o‘tishi bilan u tobora ko‘proq vazifalarni hal qila boshlaydi va harbiy san’atning boshqa sohalariga kirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Google помогает Пентагону распознавать изображения с военных дронов [Электронный ресурс]. https://habr.com/ru/articles/410879/ (дата обращения: 11.04.2024);

2. Боевой потенциал БПЛА С-70 «Охотник» [Электронный ресурс]. URL: https://topwar.ru/235267-boevoj-potencial-bpla-s-70-ohotnik.html (дата обращения: 11.04.2024);

3. Искусственный интеллект в Российской Армии [Электронный ресурс]. URL: https://topwar.ru/189298-iskusstvennyj-intellekt-v-rossijskoj-armii.html (дата обращения 11.04.2024);

4. «Оникс» и «Гранит»: как умные ракеты выбирают себе цель [Электронный ресурс]. URL: https://www.gazeta.ru/army/2021/11/18/14218657.shtml?updated (дата обращения 11.04.2024)

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA SHAHAR AHOLISINING TA’LIM EHTIYOJLARINI BASHORAT QILISH: MA’LUMOTLAR TAHLILI VA STRATEGIK REJALASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR

Ismailov I.T., Umarov E.D.

[1] -Muxammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali. Samarqand

[2] – Muxammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali. Samarqand

Kirish. Urbanizatsiya — XXI asrning eng keskin ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri bo‘lib, dunyo miqyosida shahar aholisining ulushi 1950-yildagi 30% dan 2023-yilda 57% ga yetdi va 2050-yilga borib bu ko‘rsatkich 68% ga yetishi bashorat qilinmoqda [1]. O‘zbekistonda ham ushbu jarayon jadal kechmoqda: so‘nggi 10 yil ichida shahar aholisi 3,5 million kishiga ko‘payib, hozirda umumiy aholining 51,5% ini tashkil etmoqda [2]. Bu holat ta’lim tizimiga ulkan bosim o‘tkazmoqda — yangi maktablar, kollej va universitetlar qurish, mm o‘qituvchilar tayyorlash hamda ta’lim infratuzilmasini kengaytirish dolzarb masalaga aylandi.

Biroq an’anaviy demografik bashorat usullari shahar aholisining ta’lim ehtiyojlarini aniq va o‘z vaqtida aniqlash uchun yetarli emas. Sun’iy intellekt (SI) va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari bu sohadagi inqilobiy o‘zgarishlarni ta’minlashi mumkin. Ushbu tezisda SI asosidagi bashorat modellari urbanizatsiya sharoitida ta’lim ehtiyojlarini aniqlash va strategik rejalashtirishga qanday qo‘llanilishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Muammoning mohiyati va dolzarbligi

Urbanizatsiya sur’ati va ta’lim infratuzilmasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik butun dunyo shaharlarida kuzatiladigan tizimli muammodir. Masalan, tez rivojlanayotgan shaharlarda maktab o‘rinlari tanqisligi, o‘qituvchilar yetishmasligi va ta’lim sifatining pasayishi kabi hodisalar kuzatilmoqda. O‘zbekistonda 2022-2023 o‘quv yilida 147 ta maktabda uch smenali o‘qitish amalga oshirilganligi bu muammoning aniq ko‘rinishidir [3].

Muammoning asosiy sabablari quyidagilar:

– Ta’lim infratuzilmasini rejalashtirish ko‘pincha o‘tgan yillardagi statistikaga asoslanadi, prognozlash esa sust amalga oshiriladi;

– Aholining harakatchanligi (migratsiya) va demografik o‘zgarishlar o‘z vaqtida hisobga olinmaydi;

– Ta’lim ehtiyojlari nafaqat miqdoriy (o‘rin soni), balki sifat jihatdan ham (ixtisosliklar, yo‘nalishlar) farqlanadi;

– Turli idoralar (ta’lim, statistika, shaharsozlik) ma’lumotlari integratsiyalashmagan holda saqlanadi.



1-rasm. O‘zbekiston shaharlarida aholisi va ta’lim muassasalari soni o‘rtasidagi nisbat (2013–2023)

Sun’iy intellekt asosidagi bashorat usullari

Ta’lim ehtiyojlarini bashorat qilishda qo‘llaniladigan SI usullari bir necha guruhga bo‘linadi. Har bir usul o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, urbanizatsiya kontekstida turli vazifalar uchun qo‘llaniladi.

Birinchi guruh — **mashina o‘rganishi (Machine Learning)** algoritmlari. Random Forest, Gradient Boosting va Support Vector Regression kabi algoritmlar demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida ta’lim talabini prognoz qiladi. Masalan, Xitoyning Shenzhen shahri SI modeli yordamida 5 yil oldin maktab o‘rinlari talabini 94% aniqlik bilan bashorat qilgan [4].

Ikkinchi guruh — **chuqur o‘rganish (Deep Learning)** modellari, xususan LSTM (Long Short-Term Memory) neyron tarmoqlari. Ushbu modellar vaqtli qatorlarni (time series) tahlil qilib, aholining yosh tarkibi dinamikasi va migratsiya oqimlarini hisobga olgan holda bashorat qiladi. Bu usul ayniqsa tez o‘zgaruvchan shaharlarda samarali ishlaydi.


Uchinchi guruh — **geospatial AI** yoki fazoviy sun’iy intellekt. GIS (Geografik Axborot Tizimlari) ma’lumotlari bilan SI integratsiyasi nafaqat "qancha" ta’lim muassasasi kerak, balki "qayerda" qurilishi zarurligini ham aniq ko‘rsatib beradi. Bu yondashuv transport aloqalari, aholi zichligi xaritalari va ko‘chmas mulk ma’lumotlari bilan boyitilgan holda ishlatiladi.

1-jadval.

SI bashorat usullarining qiyosiy tahlili

Usul nomi	Asosiy vazifa	Aniqlik darajasi	Qo‘llanish sohasi
Random Forest	Talabni prognoz qilish	91–95%	Qisqa muddatli reja
LSTM neyron tarmoq	Vaqtli qator tahlili	93–97%	Uzoq muddatli reja
Geospatial AI	Joylashuv tahlili	89–94%	Infratuzilma joylashuvi

NLP + Big Data	Ijtimoiy ehtiyoj tahlili	85–91%	Sifat bashorati



2-rasm. SI asosida ta’lim ehtiyojlarini bashorat qilish jarayonining blok-sxemasi

Xalqaro tajriba va amaliy misollar

Rivojlangan mamlakatlar ushbu yondashuvni allaqachon amaliyotga tatbiq etgan. **Singapur** hukumati «Smart Nation» dasturi doirasida SI bashorat tizimini ishlab chiqib, har bir yangi turar-joy majmuasi qurilishidan oldin unga bog‘liq ta’lim ehtiyojlarini avtomatik hisoblash tizimini joriy etdi. Natijada maktab o‘rinlari taqchilligini 0 ga tushirishga muvaffaq bo‘lindi [5].

Janubiy Koreyaning Seoul shahri ham bu borada ibratli tajribaga ega. Seoul ta’lim departamenti real vaqt rejimida demografik ma’lumotlarni tahlil qiluvchi AI platformasini ishga tushirib, o‘qituvchilar taqsimotini dinamik ravishda boshqarish imkoniga ega bo‘ldi. Bu tizim yillik 23 million dollarlik xarajatni tejashga yordam berdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida **Qozog‘iston** o‘z tajribasini shakllantirmoqda. 2022-yilda Qozog‘iston Ta’lim va fan vazirligi «EduAnalytics» platformasini ishga tushirdi — ushbu tizim 17 ta viloyat bo‘yicha ta’lim ehtiyojlarini bashorat qilish va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston bu tajribadan saboq olishi va mintaqaviy sharoitga moslashtirilgan model ishlab chiqishi mumkin.

2-jadval.

Xalqaro amaliyotda SI asosida ta’limni rejalashtirish natijalari

Mamlakat/Shahar	Joriy etilgan yil	Asosiy natija
Singapur	2018	Maktab taqchilligi 0% ga tushirildi
Seoul, Koreya	2019	Yillik $23 mln tejash
Helsinki, Finlyandiya	2020	O‘qituvchi yetishmasligi 18% kamaydi


Shenzhen, Xitoy	2021	Bashorat aniqligi 94%
Nursulton, Qozog‘iston	2022	17 viloyat bo‘yicha integratsiya

O‘zbekiston uchun model: bosqichma-bosqich yondashuv

O‘zbekiston shaharlariga moslashtirilgan SI bashorat modelini joriy etish uchun uch bosqichli yondashuv taklif etiladi:

1-bosqich — Ma’lumotlar bazasini integratsiya qilish (12 oy). Davlat Statistika qo‘mitasi, Ta’lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi (ro‘yxatga olish ma’lumotlari) va Shaharsozlik qo‘mitasi ma’lumotlarini yagona raqamli platformada birlashtirish. Bu bosqichda ma’lumotlar sifatini ta’minlash va xavfsizlik standartlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

2-bosqich — Pilot model ishlab chiqish va sinash (6 oy). Toshkent, Samarqand va Namangan kabi yirik shaharlardan biri uchun pilot bashorat modeli ishlab chiqiladi. Random



Forest va LSTM algoritmlarining kombinatsiyasi asosida 3–5 yillik prognoz yaratiladi va tarixiy ma’lumotlar bilan tekshiriladi (backtesting).

3-bosqich — Kengaytirish va institutsionallashtirish (18 oy). Muvaffaqiyatli pilot natijalar asosida model barcha viloyatlarga kengaytiriladi. Ta’lim vazirligi qoshida maxsus «EduData» markazi tashkil etilib, tizim doimiy monitoring ostida ishlaydi. Natijalar har yili Prezidentlik reytingiga va Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga hisobot sifatida taqdim etiladi.

3-rasm. O‘zbekiston uchun taklif etilgan SI bashorat modelining konseptual arxitekturasi

Joriy etishdagi to‘siqlar va yechimlar

Ushbu tizimni O‘zbekistonda joriy etishda bir qator to‘siqlar mavjud. Avvalo, **ma’lumotlar sifati muammosi**: hozirda turli idoralar ma’lumotlari turli formatda saqlanib, o‘zaro bog‘liq emas. Yechim sifatida yagona milliy ma’lumotlar standarti (metadata standard) joriy etilishi taklif etiladi.

Ikkinchi to‘siq — **malakali kadrlar tanqisligi**. Data scientist va AI mutaxassislar yetishmasligi tizim ishlab chiqish va yuritishni qiyinlashtiradi. Bu muammo Ta’lim vazirligi,

AQSH USAID kabi xalqaro tashkilotlar hamda yetakchi texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikda echilishi mumkin.

Uchinchi muammo — **shaxsiy ma’lumotlar himoyasi**. Aholining demografik va joylashuv ma’lumotlari maxfiy hisoblanib, ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida»gi qonuni (2019) talablari asosida amalga oshirilishi shart. Model faqat anonim agregat ma’lumotlar bilan ishlashi lozim.

XULOSA

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim ehtiyojlarini bashorat qilish tizimi urbanizatsiya sharoitida ta’lim infratuzilmasini strategik rejalashtirishning zamonaviy va samarali vositasidir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv maktab o‘rinlari taqchilligini sezilarli darajada qisqartirib, davlat resurslarini tejash va ta’lim sifatini oshirishga bevosita hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish ayniqsa muhim, chunki mamlakat jadal urbanizatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Taklif etilgan uch bosqichli yondashuv: ma’lumotlar integratsiyasi, pilot model va kengaytirish — O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda amalga oshirilishi realistik va iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi. Biroq muvaffaqiyat uchun idoralararo hamkorlik, malakali kadrlar tayyorlash va qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur shart-sharoit hisoblanadi.

Kelajakda ushbu model nafaqat ta’lim, balki sog‘liqni saqlash, transport va ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirishda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan «aqlli shahar» (Smart City) ekotizimining muhim bo‘g‘iniga aylanishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

[1] United Nations, Department of Economic and Social Affairs // World Urbanization Prospects 2023. New York: UN, 2023. 124 p.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi // Demografik yilnoma 2023. Toshkent, 2023. 210 b.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi // Ta’lim tizimi holati to‘g‘risida hisobot, 2022–2023 o‘quv yili. Toshkent, 2023.

[4] Zhang Y., Wang L., Chen H. // AI-based Education Demand Forecasting in Shenzhen // Smart Cities Journal. 2022. Vol. 5, No. 2. pp. 312–328.

[5] Ministry of Education Singapore // Smart Education Planning with AI: Singapore's Approach. Singapore, 2020. 45 p.

[6] Kim J., Park S. // Predictive Analytics for School Infrastructure Planning in Seoul // Journal of Urban Technology. 2021. Vol. 28, No. 1. pp. 89–107.

“ANALYTIQ” RAQAMLI TA’LIM PLATFORMASI ASOSIDA TALABALAR ANALITIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION DIDAKTIK TEXNOLOGIYALAR

Urolov G‘ulom Berdiyor o‘g‘li

TATU Akademik Litseyi, Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: gulomurolov95@gmail.com

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat o‘quv mazmunini yangilashni, balki ta’lim jarayonining tashkiliy-pedagogik asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bugungi kunda analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mutaxassis tayyorlash tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Zamonaviy jamiyatda talabalarga tayyor bilimlarni yetkazishdan ko‘ra, ularni axborotni tahlil qilish, tanqidiy baholash, muammolarni aniqlash va asoslangan xulosalar chiqarishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

An’anaviy o‘qitish metodlari esa bu talablarni to‘liq qondira olmaydi. Auditoriya mashg‘ulotlarida barcha talabalar uchun bir xil mazmun va tezlikda dars tashkil etilishi ularning individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish imkonini cheklaydi. Shu sababli raqamli platformalar ta’lim jarayonida samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, adaptiv o‘qitish, real vaqt monitoringi, avtomatik baholash va individual yondashuv imkoniyatlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [2].

Ilmiy ishimiz doirasida “AnalytiQ” platformasi ishlab chiqilgan raqamli pedagogik tizim hisoblanadi. Mazkur platforma talabalarning analitik fikrlash ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks ta’lim muhiti sifatida loyihalashtirilgan. Platforma faqat elektron darslik yoki oddiy test tizimi emas, balki talabaning butun o‘quv faoliyatini yagona tizimda birlashtiruvchi raqamli muhit hisoblanadi. Unda o‘quv resurslarini o‘zlashtirish, topshiriqlarni bajarish, refleksiya yuritish, pedagogik turtki olish va natijalarni monitoring qilish jarayonlari o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etilgan.

Platformaning asosiy afzalligi shundaki, u talabaning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda Bloom taksonomiyasining bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash va yaratish bosqichlari yagona didaktik tizim sifatida integratsiyalashgan. Shu bilan birga, platforma induktiv, deduktiv va argumentatsion faoliyatlarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarni mustaqil fikrlashga, dalillashga va refleksiv tahlil qilishga yo‘naltiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi vaqtda oliy ta’lim tizimida analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan raqamli pedagogik modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi integrativ raqamli platformalar va adaptiv o‘qitish mexanizmlariga asoslangan metodikalar bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar kam uchraydi. Shu nuqtai nazardan, “AnalytiQ” platformasi asosida ishlab chiqilgan innovatsion didaktik texnologiyalar zamonaviy ta’limning dolzarb muammolaridan birini hal etishga qaratilgan.

“AnalytiQ” platformasining didaktik asosini besh blokli tashkiliy-pedagogik model tashkil etadi. Mazkur modelda raqamli muhit va auditoriya mashg‘ulotlari yagona integrativ tizim sifatida uyg‘unlashtirilgan. Model Dewey konstruktivistik yondashuvi, Vigotskiyning proksimal

rivojlanish zonasi nazariyasi, Bloom taksonomiyasi hamda SAMR modeli asosida ishlab chiqilgan.

Model tarkibiga maqsadli-yo‘naltiruvchi, mazmuniy-texnologik, jarayon-faoliyat, nazorat-baholash va natija-refleksiv bloklar kiradi. Ushbu bloklar o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritib, talabaning analitik fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning asosiy xususiyati baholash, o‘qitish va refleksiya jarayonlarining yagona pedagogik tizim sifatida integratsiyalashganligidir.

Platformada bilish faoliyatining induktiv, deduktiv va argumentatsion turlari o‘zaro uyg‘un holda tashkil etilgan. Ushbu metodika talabalarni mustaqil tahlil qilish, dalillash va muammoli vaziyatlarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Auditoriya mashg‘ulotlari konsentrik tamoyil asosida tashkil etilib, reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tish ta’minlanadi.

Mashg‘ulot jarayonida loyiha metodi, keys-stadi, muammoli o‘qitish va onlayn testlardan foydalaniladi. Talabalar tahliliy topshiriqlarni bajarish, dalillangan xulosalar chiqarish hamda refleksiya yuritish orqali Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlarini egallaydilar. Raqamli platforma va auditoriya faoliyatining integratsiyasi esa o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

“AnalytiQ” platformasining muhim innovatsion jihatlaridan biri impuls va personal simulyatsiya mexanizmi hisoblanadi. Ushbu mexanizm talabaning o‘quv faolligini real vaqt rejimida monitoring qilish va individual pedagogik yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. Tizim talabaning faolligi pasayganda avtomatik eslatmalar yuboradi hamda o‘qituvchini xabardor qiladi.

Personal simulyatsiya mexanizmi talabaning refleksiya natijalari va o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, keyingi topshiriqlarni uning bilim darajasiga moslashtiradi. Natijada adaptiv o‘qitishning individual modeli shakllanadi va talabaning motivatsiyasi hamda o‘quv faolligi qo‘llab-quvvatlanadi.

Platformada onlayn testlar, elektron portfolio va avtomatik baholash tizimlari yagona didaktik mexanizm sifatida integratsiyalashgan. Onlayn testlar diagnostik, analitik va adaptiv shakllarda tashkil etilib, talabalarning bilim va analitik fikrlash darajasini baholash imkonini beradi.

Elektron portfolio talabaning rivojlanish dinamikasini aks ettirib, refleksiv va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Avtomatik baholash tizimi esa o‘quv natijalarini real vaqt rejimida tahlil qilib, o‘qituvchiga vizual analitik ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa individual yondashuv va samarali pedagogik boshqaruvni ta’minlaydi.

Tadqiqotda induktiv, deduktiv va argumentatsion faoliyatlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida ishlab chiqilgan metodika talabalarning Bloom taksonomiyasining barcha kognitiv bosqichlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishiga xizmat qildi. Konsentrik tamoyil asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni baholash hamda dalillangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratdi.

Tadqiqotda platformaning innovatsion jihatlaridan biri sifatida impuls va personal simulyatsiya mexanizmi asoslab berildi. Ushbu mexanizm talabaning o‘quv faolligini real vaqt rejimida monitoring qilish, individual pedagogik yordam ko‘rsatish hamda adaptiv o‘qitishni shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada talabaning motivatsiyasi, refleksiv faoliyati va o‘quv jarayonidagi ishtiroki uzluksiz qo‘llab-quvvatlanadi.

Shuningdek, onlayn testlar, elektron portfolio va avtomatik baholash tizimlarining integratsiyasi baholash jarayonining pedagogik samaradorligini oshirdi. Ushbu tizimlar talabaning bilim darajasi, analitik fikrlashi va rivojlanish dinamikasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Refleksiya kundaliklari hamda metakognitiv savol-javob mexanizmlari esa talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish va metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali raqamli vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ushbu maqolada zamonaviy dasturlash ierarxiyasida fundamental o‘rin egallagan C++ tilidagi sonli ma’lumot turlari va ularning matematik apparat bilan o‘zaro aloqasi tadqiq etiladi. Muallif sonli sinflarning xotira arxitekturasidagi o‘rnini lingvistik va algoritmik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Maqolada standart kutubxonalar (<cmath>, <complex>, <random>) va ularning hisoblash aniqligini ta’minlashdagi roli qiyosiy o‘rganilgan. Bular bilan birga, sonli sinflarning strukturaviy tahlili, ularning matematik modellashtirishdagi o‘rni va C++ tilidagi amalga oshirish usullari ham atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, real fizikaviy, iqtisodiy va biologik tizimlarni raqamli simulyatsiya qilishda hisoblash aniqligi, tezligi va xotira samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim muammo bo‘lib qolmoqda. C++ da maxsus sonli sinflarni loyihalash ushbu muammoni hal qilishda kalit rol o‘ynaydi. Masalan, oddiy float yoki double yetarli bo‘lmagan hollarda ixtiyoriy aniqlikdagi sonli sinflarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Yoki murakkab sonlar bilan ishlaganda standart <complex> kutubxonasi hamma vaqt ham optimal ishlayvermaydi – ba’zida o‘z sinfingizni yozishga majbur bo‘lasiz.

Maqolaning asosiy maqsadi – C++ tilida sonli sinflarni tuzishning strukturaviy tamoyillarini tizimlashtirish va ularni turli matematik modellarga (masalan, differensial tenglamalar, optimallashtirish masalalari, sanoqli integrallash) qo‘llashning samarali usullarini taklif qilishdir. Tadqiqot natijalari dasturchilar va hisoblash matematiklari uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, mavjud raqamli kutubxonalarning (masalan, Boost.Multiprecision, Armadillo, Eigen) imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

C++ dasturlash tilida sonli ma’lumot turlarining lingvistik, algoritmik hamda ontologik

aspektlari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Ayniqsa, C++ tili kontekstida sonli sinflar (numeric classes) tushunchasi nafaqat til imkoniyatlarini, balki matematik modellashtirishning strukturaviy asoslarini ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

C++ tilidagi sonli ma’lumot turlari va ularning matematik modellashtirishdagi o‘rni til asoschisi B. Stroustrup tomonidan fundamental darajada ishlab chiqilgan. Tadqiqotchining asosiy pozitsiyasiga ko‘ra, qat’iy tiplash (strong typing) tamoyili dasturiy xatolarni dastlabki bosqichlarda bartaraf etish imkonini beradi. Muallif, shuningdek, butun sonli tiplar (int, short, long) va o‘zgaruvchan nuqtali tiplar (float, double) o‘rtasidagi xotira arxitekturasidagi farqlar dasturning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini alohida ta’kidlab o‘tgan. Ushbu yondashuv sonli sinflarni loyihalashda nafaqat funksional, balki strukturaviy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi [1].

Ilmiy manbalarda sonli hisoblashlarda aniqlik muammosi yetakchi o‘rinlardan biri sifatida qaraladi. Xususan, D. Goldberg o‘zining maqolasida o‘zgaruvchan nuqtali sonlar bilan ishlashda IEEE 754 standartiga asoslangan yaxlitlash xatoliklari, epsilon va maxsus qiymatlar (NaN, INF) masalalarini chuqur tahlil qilgan. Goldberg ta’kidlashicha, real fizikaviy jarayonlarni modellashtirishda double tipi ham ba’zan yetarli bo‘lmaydi, bu esa yuqori aniqlikdagi sinflarni yaratish zaruratini keltirib chiqaradi [4]. Shu bilan birga, ayrim mualliflar xatoliklarni oldindan baholash uchun <limits> kutubxonasi va std::numeric_limits mexanizmidan foydalanishni tavsiya etadilar [8].

Standart kutubxonalarning matematik modellashtirishdagi roli alohida tahlilni talab qiladi. N. M. Josuttis o‘zining darsligida <cmath>, <complex> va <random> kutubxonalarining C++ standartidan keyingi evolyutsiyasini batafsil bayon qilgan. Muallifning fikricha, ushbu kutubxonalar protsessorning o‘zgaruvchan nuqtali birligi (FPU) bilan optimallashtirilgan holda ishlaydi, bu esa hisoblash tezligini sezilarli darajada oshiradi [5]. Ayniqsa, <complex> kutubxonasi mavhum matematik tushunchalarni (kompleks sonlar, kvaternionlar) dasturiy muhitda tabiiy ifodalash imkoniyatini beradi. Bu esa matematik formulalarni kodga to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya qilishni osonlashtiradi.

Kompleks sonlar bilan ishlash masalasiga D. E. Knuth o‘zining monografiyasida alohida to‘xtalib o‘tgan. Tadqiqotchi kompleks tekislikdagi trigonometrik va eksponensial funksiyalarning sonli barqarorligi masalasini chuqur tahlil qilgan. Knuthning xulosalariga ko‘ra, real va mavhum qismlarni alohida saqlashdan ko‘ra, kompleks sonlarni yagona sinf sifatida loyihalash samaraliroq hisoblanadi [6]. Ushbu g‘oya amaliyotda std::complex klassining asosiy arxitekturasiga aylangan.

Tasodifiy jarayonlarni modellashtirish masalasi, ayniqsa, tasodifiy modellar va Monte-Karlo simulyatsiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Matsumoto va Nishimura tomonidan ishlab chiqilgan Mersenne Twister algoritmi <random> kutubxonasining markaziy elementi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ushbu algoritm eski rand() funksiyasiga nisbatan ancha uzoq davrga va yaxshi taqsimlanish xususiyatlariga ega [7]. Shu bilan birga, ba’zi manbalarda Mersenne Twister kriptografik maqsadlar uchun xavfsiz emasligi, shuning uchun ilmiy simulyatsiyalarda uni qo‘llashda ehtiyot bo‘lish kerakligi ta’kidlanadi [3].

Ixtiyoriy va yuqori aniqlikdagi hisoblashlar masalasi hozirgi kunning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Boost.Multiprecision kutubxonasi bu sohada eng keng tarqalgan vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy-texnik hujjatlarda qayd etilishicha, ushbu

kutubxona 128, 256 va undan yuqori bitli sonlar ustida ishlash imkonini beradi [9]. Bunday yondashuv, ayniqsa, astronomik hisob-kitoblar, molekulyar dinamika simulyatsiyalari va kriptografik tizimlarda muhim ahamiyatga ega. I.U.Xushboqov o‘zining o‘quv qo‘llanmasida ushbu kutubxona yordamida ixtiyoriy aniqlikdagi sonli sinflarni yaratish bo‘yicha amaliy misollar keltirgan [10].

Ayrim ilmiy manbalarda sonli sinflarni loyihalashda xavfsizlik masalalari ham yetarli darajada yoritilmagan. S. Meyers ta’kidlaganidek, integer overflow yoki floating-point exception kabi xatolar dasturiy mahsulotning beqaror ishlashiga olib kelishi mumkin [3]. Shu nuqtai nazardan, <limits> kutubxonasi yordamida tip chegaralarini oldindan tekshirish va xatoliklarni boshqarish mexanizmlarini o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot umumdidaktik tamoyillar, fanlararo integratsiya nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyalariga tayanadi. Tadqiqot davomida C++ dasturlash tilidagi sonli sinflar hamda ularni matematik modellashtirishda qo‘llash masalalari aynan shu nazariy asoslar orqali tahlil qilindi. Ya’ni, men bu ishni qilayotganda faqat dasturlashga oid bilimlarnigina emas, balki o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini ham hisobga oldim. Negaki, sonli sinflarni tushunish uchun nafaqat texnik bilim, balki mantiqiy fikrlash va tizimli yondashuv ham kerak.

Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot ishi uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi yo‘nalish — C++ tilidagi fundamental sonli tiplarni (int, short, long, float, double, long double) tizimli o‘rganish. Tadqiqot davomida har bir tipning xotira hajmi (sizeof operatori yordamida), minimal va maksimal qiymat chegaralari (std::numeric_limits orqali) hamda arifmetik amallarning bajarilish tezligi qiyosiy tahlil qilindi. Tekshiruv natijasida kutilmagan bir holat aniqlandi: turli kompilyatorlarda long double tipining haqiqiy bit hajmi turlicha bo‘lib, ayrimlarida 80 bit, boshqalarida esa 128 bit qiymatida namoyon bo‘ldi. Ushbu farq dastlab tadqiqot davomida kutilgan natijalarga to‘g‘ri kelmadi. Qayta tekshiruvlar va hisob-kitoblar natijasida ushbu tafovut kompilyatorlarning arxitekturaviy xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ikkinchi yo‘nalish — standart kutubxonalarning amaliy sinovi. Tadqiqot davomida <cmath>, <complex> va <random> kutubxonalari alohida-alohida o‘rganildi. Xususan, <complex> kutubxonasi yordamida kompleks sonlar ustida ko‘paytirish amali bir necha million marta takrorlanib, uning ishlash tezligi va barqarorligi tahlil qilindi. <random> kutubxonasidagi Mersenne Twister algoritmi tasodifiy sonlar generatsiyasida yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega. Biroq, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mazkur generator kriptografik jihatdan xavfsiz emas. Shu sababli, u maxfiy ma’lumotlar yoki xavfsizlik talablari yuqori bo‘lgan tizimlarda qo‘llash uchun yaroqli emas. Ushbu xulosa amaliy sinovlar jarayonida olingan tajribalarga asoslanadi.

Uchinchi yo‘nalish — tashqi kutubxonalarni o‘rganish. Tadqiqot davomida Boost.Multiprecision, Armadillo va Eigen kutubxonalarining imkoniyatlari tahlil qilindi. Boost.Multiprecision kutubxonasi bilan ishlash jarayonida quyidagi qonuniyat aniqlandi: aniqlik

darajasi oshirilgan sari hisoblash tezligi sezilarli darajada pasayib boradi. Aniqrog‘i, 128 bitli sonlar bilan ishlashda tezlikning pasayishi nisbatan kichik bo‘lsa, 256 bitli sonlarga o‘tilganda ishlash tezligi 10 dan 20 baravargacha kamayishi kuzatildi. Ushbu holat shuni ko‘rsatadiki, yuqori aniqlikdagi hisoblashlarni loyihalashda dasturchi aniqlik va tezlik o‘rtasidagi muvozanatni oldindan baholashi zarur.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

Nazariy metodlar:

Tahlil va sintez – C++ dasturlash tilidagi sonli sinflar va matematik modellashtirish masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, texnik hujjatlar va standartlar (masalan, IEEE 754) o‘rganildi hamda tizimlashtirildi.

Qiyosiy tahlil – turli mualliflarning (Stroustrup, Goldberg, Knuth, Josuttis va boshqalar) sonli tiplar, ularning aniqlik darajasi va xotira arxitekturasi haqidagi qarashlari taqqoslandi. Shuningdek, standart kutubxonalar (<cmath>, <complex>, <random>) va tashqi kutubxonalar (Boost.Multiprecision, Armadillo, Eigen) o‘zaro solishtirildi.

Mantiqiy umumlashtirish – o‘rganilgan materiallar va amaliy sinovlar asosida sonli sinflarni loyihalashning strukturaviy tamoyillari bo‘yicha nazariy xulosalar chiqarildi.

Kontent-tahlil – mavzuga oid ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va kutubxonalarning rasmiy tavsiflari mazmuniy jihatdan o‘rganildi.

Tizimli tahlil – C++ tilidagi sonli ma’lumot turlarining o‘zaro aloqadorlik jihatlari (xotira, tezlik, aniqlik, kengaytirilish imkoniyati) kompleks tarzda o‘rganildi.

Empirik metodlar:

Kuzatuv – Boost.Multiprecision, Armadillo va Eigen kutubxonalarining real loyihalarda qo‘llanilishi kuzatildi. Ularning ochiq kodli repositoriyalaridagi misollar va test dasturlari tahlil qilindi.

Eksperiment (sinov dasturlari tuzish) – har bir sonli tip va kutubxona uchun alohida sinov dasturlari yozildi. Masalan, float va double tiplarining 10 million marta qo‘shish amalini bajarish vaqti o‘lchandi. Boost.Multiprecision kutubxonasining 128, 256 va 512 bitli sonlar bilan ishlash tezligi qiyoslandi.

Xatoliklarni modellashtirish – integer overflow va floating-point exception kabi tipik xatolar sun’iy ravishda yaratilib, ularni aniqlash va oldini olish usullari (std::numeric_limits yordamida chegaralarni tekshirish) sinab ko‘rildi.

Profil va xotira tahlili – Visual Studio va GCC kompilyatorlarining profiling vositalari yordamida sonli sinflarning xotira sarfi va protsessor vaqti o‘lchandi. Ayniqsa, katta hajmdagi massivlar (10 million element) bilan ishlashda xotira fragmentatsiyasi va keshlash muammolari kuzatildi.

Mavjud tajribani o‘rganish – Boost, Armadillo va Eigen kutubxonalarining ilg‘or dasturlash tajribalari, ularning hujjatlarida keltirilgan eng yaxshi amaliyotlar (best practices) tahlil qilindi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologiya C++ tilidagi sonli sinflarning strukturaviy xususiyatlarini tizimli o‘rganish, ularni matematik modellashtirishda qo‘llashning samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

C++ dasturlash tili kontekstida sonli sinflar va matematik modellashtirishning strukturaviy tahliliga oid tadqiqot davomida bir qator natijalar olindi. Ushbu natijalar nazariy adabiyotlar tahlili va amaliy sinov dasturlari asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida standart sonli tiplar (int, float, double, long double), standart kutubxonalar (<cmath>, <complex>, <random>) va tashqi kutubxonalar (Boost.Multiprecision, Armadillo, Eigen) o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularning matematik modellashtirishdagi o‘rni, afzalliklari va cheklovlari o‘rganildi.

Standart sonli tiplar bo‘yicha natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, C++ dagi standart butun sonli tiplar (int, short, long, long long) o‘zlarining qat’iy belgilangan xotira hajmi va tez ishlashi bilan ajralib turadi. Biroq, ularning chegaraviy qiymatlari mavjud bo‘lib, integer overflow xatosi yuzaga kelishi mumkin. Sinov dasturlari davomida int tipidagi o‘zgaruvchiga uning maksimal qiymatidan (2,147,483,647) katta son qo‘shilganda, dastur kutilmagan natija bergani kuzatildi. Bu esa real ilmiy-texnikaviy hisoblashlarda std::numeric_limits yordamida chegaralarni oldindan tekshirish zaruratini ko‘rsatadi.

O‘zgaruvchan nuqtali tiplar (float, double, long double) bilan ishlashda esa aniqlik muammosi yetakchi o‘rinda turishi aniqlandi. Xususan, float tipi 6-7 o‘nlik xonagacha aniqlikni ta’minlasa, double tipi 15-16 o‘nlik xonagacha aniqlik beradi. Biroq, IEEE 754 standartiga asosan, har qanday haqiqiy sonni kompyuter xotirasida aniq saqlash imkonsiz. Masalan, 0.1 sonini float tipida saqlashda yaxlitlash xatoligi yuzaga keladi. 10 million marta takrorlangan qo‘shish amali natijasida float tipidagi xatolik double tipiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgani kuzatildi. Shu bilan birga, double tipi float ga nisbatan taxminan 2-3 baravar sekinroq ishladi. Bu esa dasturchidan aniqlik va tezlik o‘rtasida muvozanatni tanlashni talab qiladi.

Qiziqarli natijalardan biri — long double tipining turli kompilyatorlarda turlicha bit hajmda bo‘lishi aniqlandi. GCC kompilyatorida 80 bit, MSVC da 64 bit (odatdagi double bilan bir xil), ba’zi platformalarda esa 128 bit bo‘lishi kuzatildi. Ushbu holat ko‘chma (portable) dasturlar yozishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan muhim omillardan biridir.

Standart kutubxonalar bo‘yicha natijalar

<cmath> kutubxonasining trigonometrik, eksponensial va logarifmik funksiyalari protsessorning FPU birligi bilan optimallashtirilgan holda ishlashi kuzatildi. Biroq, ba’zi murakkab funksiyalar (masalan, pow()) da aniqlikning pasayishi va vaqtning ortishi qayd etildi.

<complex> kutubxonasi bilan kompleks sonlar ustida bajarilgan 10 million marta ko‘paytirish amali natijasida, standart std::complex<double> klassi qo‘lda yozilgan sinfga nisbatan taxminan 1.5-2 baravar tez ishlashi aniqlandi. Bu esa standart kutubxonadan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi. Biroq, ba’zi maxsus holatlarda (masalan, kvaternionlar yoki boshqa murakkab matematik ob’ektlar bilan ishlaganda) o‘z sinflarini yozishga to‘g‘ri kelishi mumkin.

<random> kutubxonasining Mersenne Twister generatori eski rand() funksiyasiga nisbatan ancha uzoq davrga (2^19937-1) va teng taqsimlangan tasodifiy sonlar generatsiyasiga ega. Biroq, tadqiqot davomida Mersenne Twister kriptografik jihatdan xavfsiz emasligi aniqlandi. Uning natijalarini kuzatish orqali generatorning ichki holatini tiklash mumkin. Shu sababli, maxfiy ma’lumotlar yoki xavfsizlik talablari yuqori bo‘lgan tizimlarda ushbu generatordan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Tashqi kutubxonalar bo‘yicha natijalar

Boost.Multiprecision kutubxonasi yordamida ixtiyoriy aniqlikdagi sonlar bilan ishlash imkoniyati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, aniqlik ortishi bilan hisoblash tezligi sezilarli darajada pasayadi. Aniqrog‘i, 128 bitli sonlar bilan ishlashda tezlikning pasayishi nisbatan kichik

(2-3 baravar) bo‘lsa, 256 bitli sonlarga o‘tilganda ishlash tezligi standart double tipiga nisbatan 10-20 baravargacha kamayishi kuzatildi. 512 bit va undan yuqori aniqliklarda esa bu farq yanada ortadi. Shu bilan birga, xotira sarfi ham aniqlik darajasiga to‘g‘ri proportsional ravishda oshib bordi.

Armadillo va Eigen kutubxonalari esa matritsa va vektorlar bilan ishlashda yuqori unumdorlik ko‘rsatdi. Ayniqsa, katta hajmdagi matritsalarni (1000x1000 va undan katta) ko‘paytirishda Eigen kutubxonasi Armadilloga nisbatan 1.5-2 baravar tez ishladi. Ikkala kutubxona ham standart C++ massivlariga nisbatan qulay interfeys va optimallashtirilgan hisoblash imkonini beradi.

Xotira va tezlik profiling natijalari

Katta hajmdagi massivlar (10 million elementli float va double massivlari) bilan ishlashda xotira fragmentatsiyasi va keshlash (caching) muammolari kuzatildi. float tipidagi massiv double tipidagi massivga nisbatan taxminan 2 baravar kam xotira egalladi va shu sababli keshlash samaradorligi yuqori bo‘lgani uchun tezroq ishladi. Biroq, aniqlik talablari yuqori bo‘lgan hisoblashlarda double dan foydalanish majburiy bo‘lishi mumkin.

Integer overflow va floating-point exception kabi xatolarni oldini olishda std::numeric_limits yordamida chegaraviy qiymatlarni tekshirish eng ishonchli usul ekanligi aniqlandi. Qo‘lda tekshirish usullariga nisbatan bu usul xatolik ehtimolini kamaytiradi va kodning tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Muhokama

Olingan natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. B. Stroustrupning qat’iy tiplash tamoyili haqidagi qarashlari [1] ushbu tadqiqotda ham o‘z tasdig‘ini topdi. Haqiqatan ham, C++ dagi sonli tiplarning aniq belgilangan xususiyatlari dasturiy xatolarni dastlabki bosqichlarda bartaraf etishga yordam beradi.

Goldbergning IEEE 514 standarti va yaxlitlash xatoliklari haqidagi xulosalari [4] amaliy sinovlar davomida to‘liq tasdiqlandi. Kompyuterda haqiqiy sonlar bilan ishlaganda mutlaq xatolik emas, balki nisbiy xatolikni nazorat qilish kerakligi yana bir bor isbotlandi.

Josuttisning standart kutubxonalarning optimallashtirilgan ishlashi haqidagi fikrlari [5] <complex> va <random> kutubxonalari bilan ishlashda o‘z tasdig‘ini topdi. Biroq, Mersenne Twister generatorining kriptografik xavfsizligi pastligi [7] tadqiqot davomida aniqlangan muhim cheklovlardan biridir. Bu jihat avvalgi adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan.

Knuthning kompleks sonlarni yagona sinf sifatida loyihalash haqidagi g‘oyasi [6] std::complex klassining asosiy arxitekturasida to‘liq amalga oshirilgan va u o‘zining samaradorligini isbotlagan.

Boost.Multiprecision kutubxonasining aniqlik va tezlik o‘rtasidagi munosabati bo‘yicha olingan natijalar [9] kutubxonaning rasmiy hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlar bilan mos keladi. Biroq, 256 bitdan yuqori aniqliklarda tezlik pasayishining darajasi avvalgi taxminlardan biroz yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oddiy hisoblashlar uchun int va double tiplaridan foydalanish yetarli. Faqat xotira juda cheklangan bo‘lganda short yoki float ga o‘tish maqsadga muvofiq.
2. Agar yuqori aniqlik talab etilsa, long double dan oldin uning kompilyator va platformaga qarab o‘zgarishini tekshirish kerak.
3. Kompleks sonlar bilan ishlaganda standart <complex> kutubxonasidan foydalanish eng samarali yechim.

4. Tasodifiy sonlar generatsiyasida <random> kutubxonasidan foydalanish, ammo kriptografik xavfsizlik talab etilsa, maxsus generatorlarni (masalan, std::random_device yoki tashqi kutubxonalar) qo‘llash tavsiya etiladi.

5. Yuqori aniqlik talab etilganda (128 bitdan yuqori) Boost.Multiprecision kutubxonasidan foydalanish mumkin, ammo tezlikning pasayishiga tayyor bo‘lish kerak. Bunda aniqlik va tezlik o‘rtasidagi muvozanatni alohida baholash zarur.

6. Matritsa va vektorlar bilan ishlaganda Armadillo yoki Eigen kutubxonalaridan foydalanish standart massivlarga nisbatan samaraliroq.

7. Integer overflow va floating-point exception xatolaridan saqlanish uchun std::numeric_limits yordamida chegaraviy qiymatlarni oldindan tekshirish majburiy.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, C++ dasturlash tilidagi sonli sinflarni matematik modellashtirish jarayonida to‘g‘ri tanlash va qo‘llash hisoblash aniqligi, tezligi va xotira samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Standart sonli tiplar (int, float, double, long double) va kutubxonalar (<cmath>, <complex>, <random>) ko‘p hollarda yetarli bo‘lsa-da, maxsus talablar mavjud bo‘lganda tashqi kutubxonalar (Boost.Multiprecision, Armadillo, Eigen) yoki o‘z sinflarini yozishga murojaat qilish zarurati tug‘iladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, butun sonli tiplar bilan ishlashda integer overflow xatosining oldini olish uchun std::numeric_limits yordamida chegaraviy qiymatlarni oldindan tekshirish majburiy hisoblanadi. O‘zgaruvchan nuqtali tiplar bilan ishlashda esa aniqlik muammosi yetakchi o‘rinda turadi. Xususan, float tipi double tipiga nisbatan tezroq ishlaydi, ammo aniqlik darajasi sezilarli darajada past.

Shuningdek, standart kutubxonalarni tahlil qilish natijasida <complex> kutubxonasining standart std::complex<double> klassi qo‘lda yozilgan sinfga nisbatan 1.5-2 baravar tez ishlashi aniqlandi. <random> kutubxonasidagi Mersenne Twister generatori esa eski rand() funksiyasiga nisbatan uzoq davr va teng taqsimlangan tasodifiy sonlar generatsiyasini ta’minlaydi.

Tashqi kutubxonalarni o‘rganish natijasida Boost.Multiprecision yordamida ixtiyoriy aniqlikdagi sonlar bilan ishlash imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Biroq, aniqlik ortishi bilan hisoblash tezligi sezilarli darajada pasayadi. Aniqrog‘i, 128 bitli sonlar bilan ishlashda tezlikning pasayishi nisbatan kichik bo‘lsa, 256 bitli sonlarga o‘tilganda ishlash tezligi standart double tipiga nisbatan 10-20 baravargacha kamayishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, C++ tilidagi sonli sinflar va matematik modellashtirishning strukturaviy tahlili dasturchilar va hisoblash matematiklari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sonli sinflarni loyihalashda funksional imkoniyatlar bilan birga xotira arxitekturasi, tiplararo munosabatlar va kengaytirilish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur. Kelgusida parallel hisoblashlar va ko‘p tarmoqli dasturlar kontekstida sonli sinflarning samaradorligini o‘rganish, shuningdek, sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish sohalarida C++ sonli kutubxonalarining qo‘llanish imkoniyatlarini chuqurroq tadqiq etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Stroustrup, B. The C++ Programming Language. 4th ed. — Addison-Wesley Professional, 2013. — 1366 p. (GOST bo‘yicha: Строуструп Б. Язык программирования C++. 4-е изд. М.: Вильямс, 2013. 1366 с.)

2.Prata, S. C++ Primer Plus. 6th ed. — Addison-Wesley, 2011. — 1200 p.

3. Meyers, S. Effective Modern C++: 42 Specific Ways to Improve Your Use of C++11 and C++14. — O'Reilly Media, 2014. — 334 p.

4. Goldberg, D. What Every Computer Scientist Should Know About Floating-Point Arithmetic // ACM Computing Surveys. — 1991. — Vol. 23, No. 1. — P. 5-48.

5. Josuttis, N. M. The C++ Standard Library: A Tutorial and Reference. 2nd ed. — Addison-Wesley, 2012. — 1104 p.

6. Knuth, D. E. The Art of Computer Programming, Volume 2: Seminumerical Algorithms. — Addison-Wesley, 1997. — 762 p.

7. Matsumoto, M., Nishimura, T. Mersenne Twister: A 623-dimensionally equidistributed uniform pseudo-random number generator // ACM Transactions on Modeling and Computer Simulation. — 1998. — P. 3-30.

8. Seacord, R. C. Secure Coding in C and C++. 2nd ed. — Addison-Wesley, 2013. — 600 p.

9. Boost Libraries. Multiprecision library documentation [Electronic resource]. URL: https://www.boost.org/ (Accessed: 02.04.2026).

10. Xushboqov, I. U. Dasturlash asoslari: O‘quv-uslubiy majmua. — Denov, DTPI, 2024. — 210 b.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xolmedov X.M.

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
xolmedov@tuit.uz

Zamonaviy ta’limda sun’iy intellekt an’anaviy o‘qitish metodlarini takomillashtirishga va hatto, tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Uning ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qitishni personallashtirish, pedagogik faoliyat samaradorligi va sifatini oshirish, talabalar tomonidan materialning o‘zlashtirilishini yaxshilash hamda tegishli fanlar bo’yicha kontentlar yaratish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu, ayniqsa, murakkab konsepsiyalar va qonunlar ko‘rgazmali tushuntirishni hamda talabalarning individual xususiyatlariga moslashishni talab qiladigan fizika kabi fan uchun juda dolzarbdir.

Sun’iy intellektning ta’limdagi eng muhim afzalliklaridan biri — o‘quv jarayonini har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish (adaptatsiya qilish) imkoniyatidir. An’anaviy ta’lim metodlari ko‘p hollarda talabalarning tayyorgarlik darajasi, materialni o‘zlashtirish tezligi va kognitiv xususiyatlari turlicha ekanligini hisobga olmaydi. Sun’iy intellekt talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilgan holda, turli murakkablik darajasidagi topshiriqlarni tanlashi, qo‘shimcha tushuntirishlarni taklif etishi va o‘quv trayektoriyasini real vaqt rejimida tuzatib borishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar turli murakkablik darajasidagi masalalarni avtomatik ravishda tanlashi, qiyin mavzular bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirishlarni taklif qilishi yoki talaba bilimining o‘sishiga qarab o‘qitish sur’atini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, fizika fanini o‘rganishda sun’iy intellekt talabaning kuchli tomonlariga tayanib, shuningdek, bilimidagi bo‘shliqlar yoki biror mavzuni mutlaqo tushunmaslik holatlarini hisobga olgan holda individual topshiriqlarni shakllantirishga qodir. Ayrim talabalar jarayonlarning vizuallashuvini, boshqalari esa formulalarni yaxshiroq qabul qiladi. Mashinali o‘qitish algoritmlari tushuntirishning optimal shakllarini: interaktiv simulyasiyalar, videolar yoki bosqichma-bosqich yechimga ega matnli masalalarni avtomatik ravishda tanlashi mumkin. Ushbu yondashuv o‘qitishning samaradorligi va natijadorligini oshiradi. Fizikaviy laboratoriya tajribalarida olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda neyrotarmoqlar olingan ma’lumotlarni qayta ishlashi, grafiklar chizishi, qonuniyatlarni aniqlashi va hatto keyingi o‘rganishlar uchun farazlar taklif qilishi mumkin.

O‘qituvchilar o‘quv materiallarini generatsiya qilish va darslarni rejalashtirishda Nearpod platformasidan foydalanishlari mumkin. Nearpod platformasi standart taqdimotlarni interaktiv mashg‘ulotlarga aylantirish imkonini beradi. O‘qituvchi slaydlarga virtual laboratoriyalar, so‘rovnomalar va ijodiy topshiriqlarni qo‘shadi, bu esa darsga tayyorgarlik ko‘rish vaqtini sezilarli darajada tejaydi. Ayniqsa, o‘rnatilgan simulyatorlar orqali murakkab fizikaviy tajribalarni namoyish etish imkoniyati juda muhimdir. Shuningdek, Gamma AI dasturi bir nechta so‘z yoki butun boshli paragraflar asosida bir daqiqa ichida taqdimotlarni generatsiya qilish imkonini beradi [1]. Fizikadan masalalarning variantlar to‘plamlarini yaratish, ya’ni

topshiriqlarni avtomatik generatsiya qilishda ChatGPT va Deyepseyek kabi zamonaviy modellar o‘quv materiallarini yaratishda katta yordam beradi.

Fizika ta’limiga sun’iy intellektni joriy etishning muhim jihati interaktiv o‘quv materiallarini yaratish hisoblanadi. Fundamental qonuniyatlarni o‘rganish jarayonida ularning ko‘pchiligini ko‘rgazmali misollarsiz tasavvur qilish qiyin. Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan virtual laboratoriyalar va simulyatorlar talabalarga tajribalar o‘tkazish, murakkab fizikaviy jarayonlarni vizuallashtirish hamda o‘quv laboratoriyasida qayta tiklash qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan hodisalarni tadqiq qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyasiyalardan foydalanish (masalan, PhYeT) murakkab jarayonlarni vizualizatsiyaga yordam beradi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida elektr maydonidagi zarralarning harakati, tovush to‘lqinlarining tarqalishi yoki termodinamik jarayonlar kabi vizual kontentlarni yaratish, kvant zarralarining harakati yoki yadro reaktorlaridagi jarayonlarni modellashtirish mumkin, bu esa mavhum konsepsiyalarni yanada ko‘rgazmali va tushunarli qiladi. Bunday vositalar talabalarning darsga jalb qilinishini oshiribgina qolmay, ularda fizikaviy hodisalar haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi, virtual muhitda mustaqil ravishda fikrlash va ularni tekshirish imkonini bergan holda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.[2]

Bilimlarni baholashni avtomatlashtirish — sun’iy intellektning ta’limdagi yana bir muhim afzalligidir. Mashinali o‘qitish algoritmlari nafaqat test topshiriqlarini tekshirishga, balki batafsil yozma javoblarni tahlil qilishga, xatolarni aniqlashga va hatto fizika masalalarini yechish mantig‘ini baholashga ham qodir. Bu o‘qituvchilarning ishlarni odatiy tekshirishga sarflaydigan vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va bor e’tiborni talabalarni individual qo‘llab-quvvatlashga qaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar batafsil qayta aloqani shakllantirishi mumkin, bu esa talabalarga o‘zlarining zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi va ularni yaxshilash yo‘llarini taklif qiladi. Masalan, YandexGPT kabi neyrotarmoqlar fizika masalalarining yechimlarini tahlil qilish va ularni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish imkoniyatlarini namoyish etmoqda.

Gradescope tizimi talabalarning yozma ishlarini tekshirish va baholash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. O‘qituvchi talabalar yechimlarining skanerlangan nusxalarini tizimga yuklaydi, algoritmlar esa o‘xshash javoblarni avtomatik ravishda guruhlaydi. Sonli javobga ega masalalar uchun tizim natijalarni mustaqil ravishda solishtiradi va tekshirish vaqtining 70 foizigacha tejaydi. Ushbu bosqichda ikki tomonlama funksiyani bajaradigan, ya’ni talabalar ishlaridagi ko‘chirmakashlikni aniqlaydigan va sharhlash vositalarini taqdim etadigan Turnitin servisidan foydalanish mumkin.

Sun’iy intellektning ta’limga joriy etilishi ulkan imkoniyatlar ochib berishi bilan birga, jiddiy masalalarni ham o‘rtaga tashlamoqda. Sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligi va xolisligi yetarli darajada kafolatlanmaganligi ham o‘ta muhim muammo hisoblanadi. Zamonaviy tizimlar, ayniqsa generativ modellar, xatolar, noto‘g‘ri ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yoki haddan tashqari soddalashtirilgan turli xil manbalarga tayangan holda matnlar, formulalar va eksperimental ma’lumotlarni yaratishga qodir. Qat’iylik va aniqlik birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan fizika ta’limida noto‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarda fizika qonunlari va tamoyillari haqida noto‘g‘ri tasavvurlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir jiddiy salbiy jihat o‘quvchilarning texnologiyalarga qaram bo‘lib qolishidir, bu ularning mustaqilligini, analitik fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Masalalarni yechish yoki maslahatlar olish uchun sun’iy intellektdan doimiy ravishda

foydalanish natijasida talabalar yechim qidirish, shaxsiy g‘oyalarni shakllantirish va individual yondashuvni ishlab chiqish ko‘nikmalarini yo‘qotishga moyil bo‘ladilar. Faqatgina formulalarni yodlash emas, balki ularning tamoyillari va sabablarini tushunish muhimdir. Fizikada bunday qaramlik talabalarda olingan bilimlarni yangi, nostandart vaziyatlarda qo‘llashga imkon bermaydigan bir qolipli bilimlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada talabalar o‘quv materialini tayyor algoritmlar to‘plami sifatida qabul qila boshlaydilar, bu esa ijodiy fikrlash hamda masalalarni yechishda o‘ziga xoslikni, originallikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qator afzalliklariga qaramay, sun’iy intellektni ta’limga joriy etish mas’uliyatli yondashuvni talab qiladi. Asosiy muammolardan biri — texnologiyalar va inson omili o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdir. O‘qituvchi ta’lim jarayonida asosiy shaxs bo‘lib qolishi va sun’iy intellekt uning o‘rnini bosishi emas, balki pedagogning imkoniyatlarini kengaytirishi hamda o‘qitishda yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Уэйн Холмс, Майя Бялик, Чарльз Фейдл. «Искусственный интеллект в образовании:

Перспективы и проблемы для преподавания и обучения». М.: «Альпина ПРО», 2022. — 304 с.

[2] Садуакасова Р.Р. Применение искусственного интеллекта на уроках физики: методология и

эффективность // Современные проблемы науки и образования.–2025. № 2.

TALABA-YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BAHOLASH TEXNOLOGIYASI

Xudaynazarov A.O‘

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston.
Email: azamatjon.200992@gmail.com

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakat taraqqiyoti yoshlarning ijtimoiy faolligi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi, huquq va burchlarini anglashi, tashabbuskorligi va ijtimoiy hayot jarayonlaridagi ishtirokiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli oliy ta’lim tizimida yoshlarning faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish va baholashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, talabalar faoliyatini tahlil qilish, individual yondashuvni ta’minlash, kompetensiyalarni avtomatik monitoring qilish hamda baholash jarayonlarini optimallashtirishda sun’iy intellekt muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt asosidagi baholash texnologiyasi talabalarning bilim, ko‘nikma, munosabat va ijtimoiy faolligini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur texnologiya katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, individual rivojlanish dinamikasini aniqlash va shaxsga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi.

Sun’iy intellektning ta’limga tez integratsiyalashuvi butun dunyo bo‘ylab pedagogik amaliyotlarni o‘zgartirib, talabalarni jalb qilish va shaxsiylashtirilgan o‘rganish uchun yangi yo‘llarni taklif qiladi. Sun’iy intellektga asoslangan ma’lumotlar talabalarda fuqarolik ongini, demokratik qadriyatlarni va ijtimoiy mas'uliyatni qanday rivojlantirishi mumkinligini ko‘rib chiqadi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan videolar, podkastlar, simulyatsiyalar va kontent yaratish platformalari huquqiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik ishtirokini rivojlantiradigan shaxsiylashtirilgan, interaktiv va ta’sirchan o‘quv muhitini yaratadi. Khan Academy AI, Curipod va Duolingo Max kabi vositalar muammolarni hal qilish, ijtimoiy o‘zaro ta'sir va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot ta’lim nazariyasini amaliy sun’iy intellekt qo‘llanmalari bilan sintez qiladi, Sun’iy intellektning talabalarning qiziqishlari va o‘rganish uslublariga mos keladigan individuallashtirilgan faol fuqaro bo‘lish yo‘llarini yaratish salohiyatini ta’kidlaydi. Sun’iy intellektni fuqarolik ta’limiga integratsiya qilish o‘qituvchilar va ota-onalarni axloqiy, qadriyatlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanishga rahbarlik qiluvchi kuratorlarga aylantiradi. Bu talabalarni texnologik rivojlangan jamiyatda faol fuqarolik uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ijtimoiy ong bilan ta’minlash orqali demokratik rivojlanishni mustahkamlaydi[1].

Sun’iy intellektdan foydalangan holda talabalarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish ijtimoiy tarbiya, rasmiy ta’lim va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishda katta ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt yoshlarning faol fuqarolik, huquqiy savodxonlik va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilimlarini rivojlantirishda muhim vositadir. Shu bilan birga, axborot texnologiyalardan samarali foydalanish uchun

pedagogik yondashuvlar va metodikalarni, xususan, oila, maktab va jamiyat hamkorligiga asoslangan holda yangilash va joriy etish zarurdir.

Faol fuqarolik kompetentsiyasini shakllantirish jarayonida talaba-yoshlar jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunishni, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishni va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Talaba-yoshlar faolligi darajasini oshirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va televidenie muhim rol o‘ynaydi. Xususan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish talabalarning ta’lim jarayonida faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda so‘rash muhim: faol fuqarolik kompetentsiyasi nima va bu nima uchun muhim? Faol fuqarolik kompetensiyasi insonning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini, demokratik qadriyatlarga sodiqligini, huquqiy ongini va mas’uliyat hissini o‘z ichiga oladi. O‘smirlik davrida bu qobiliyatlarning shakllanishi nihoyatda muhim, chunki aynan shu davrda insonning dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy yetukligining poydevori qo‘yiladi[2].

Talaba-yoshlarni an’anaviy usullar bilan tanqidiy fikrlash yoki hamkorlik kabi murakkab fuqarolik ko‘nikmalarini baholash qiyin kechadi. Aynan shu o‘rinda sun’iy intellekt yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt asosidagi baholashning ikkita asosiy yo‘nalishi ajralib turadi: **Birinchidan,** Bilim va ko‘nikmalarni bevosita baholash: Avtomatlashtirilgan tizimlar talaba-yoshlarning mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish kabi ko‘nikmalarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilishi mumkin. Bu jarayonda Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va Mashinani o‘qitish (ML) kabi texnologiyalar keng qo‘llaniladi. **Ikkinchidan,** Xulq-atvor va profilni baholash: Bu yondashuv talabalarning raqamli muhitdagi faolligi, xavfsizlikka rioya etishi, ijodkorligi va yetakchilik kabi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali ularning "raqamli fuqarolik" profillarini yaratishga qaratilgan. Natijada ishtirokchilarning kuchli tomonlari va rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlari aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, siz izlayotgan aniq va tayyor texnologiya bugungi kunda mavjud bo‘lmasa-da, uning barcha asosiy tarkibiy qismlari – ilmiy asoslari, texnologik imkoniyatlari, mahalliy va xalqaro amaliyotdagi dastlabki qadamlari – jadal shakllanmoqda. Bu esa yaqin kelajakda bunday kompleks baholash texnologiyasini yaratish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yetib kelayotganidan dalolat beradi. Talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt asosidagi baholash texnologiyalari zamonaviy pedagogikaning innovatsion yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini samarali monitoring qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik, texnik va etik tamoyillarga amal qilish muhim hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan sun’iy intellekt tizimlari faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bakhtyorovna, U. Z. (2025). The Role and Significance of Artificial Intelligence in Forming Active Citizenship Competence in Adolescent Students with The Help of Media Products. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 3(7), 27-31. https://doi.org/10.5281/

2. N. Selwyn, Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press, 2019.

3. Urinbaevich K. A. YOUTH OF UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF CHANGES IN POLITICAL PROCESSES //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 1455-1464.

4. XUDAYNAZAROV A. TALABA-YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI //«ACTA NUUz». – 2026. – T. – №. 5. – C. 251-253.

YIGIRISH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

G'.X. Djumabayev

djumabaev.gx@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yigirish texnika va texnologiyalarini sun'iy intellekt (SI) asosida takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan yigirish mashinalarida SI algoritmlarini qo'llash orqali ip sifati nazorati, energiya sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari SI texnologiyalari ipning mustahkamligi va ravonligini yaxshilashi, uzilishlarni kamaytirishi hamda uskunalarning barqaror ishlashini ta'minlashini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda trikotaj matolarini ishlab chiqarish sezilarli ravishda ortgan. Trikotaj matolarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan iplarga yumshoqlik, kam buramlik talablari qo'yiladi. Halqali yigirish mashinalarida mazkur kamchiliklarni bartaraf etuvchi kompakt yigirish usuli yaratilgan [1]. Ushbu usulning afzalligi shundaki, tolalar ipda tartibli joylashganligi tufayli cho'zishga qarshiligi ortadi, tolalarning kompaktlanishi natijasida ipning tukdorligi kamayadi. Demak, kompaktlash yo'li bilan ipning fizik-mexanik xossa ko'rsatkichlari yaxshilangan [1]. Shuning uchun ham kompakt ip yigirish usuli yangi yigirish usuli sifatida keng miqyosda sanoatga kirib keldi.

To'qimachilik sanoati raqamli texnologiyalar asosida jadal rivojlanmoqda. Xususan, yigirish jarayonlariga sun'iy intellekt va avtomatik boshqaruv tizimlarini joriy etish mahsulot sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy halqali va pnevmomexanik yigirish mashinalarida sensorlar yordamida ipning tarangligi, uzilishi, ravonligi va tukdorligi real vaqt rejimida nazorat qilinadi. SI algoritmlari ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, optimal ish rejimlarini avtomatik tanlaydi. Natijada:

- ip uzilishlari kamayadi;
- energiya sarfi qisqaradi;
- mashina unumdorligi ortadi;
- inson omili ta'siri kamayadi.

"Rieter", "Zinser" va "Marzoli" kabi zamonaviy yigirish uskunalarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari keng qo'llanilmoqda. Robotlashtirilgan transport va avtomatik ip ulash texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Halqali yigirish mashinalarida yigirib olingan iplarning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu iplarning uzilishlar sonining ko'pligidir. Iplarning ko'p uzilishi o'z navbatida mashina unumdorligini pasayishiga va ip sifatining yomonlashuviga olib keladi.

Kompakt yigirish texnologiyasida SI asosida tolalar harakati va pishitish jarayoni optimallashtiriladi. Bu esa ipning mustahkamligi va silliqligini oshirib, tukdorlikni kamaytiradi. Pnevmomexanik yigirishda esa sun'iy intellekt yigirish kamerasi tezligini va havo oqimini avtomatik boshqarib, yuqori sifatli ip olish imkonini beradi.

Shuningdek, mashinalarning texnik holatini oldindan prognoz qilish orqali nosozliklarning oldi olinadi. Predictive maintenance (bashoratli texnik xizmat) tizimlari uskunalarning ishlash muddatini uzaytirib, ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi.

Xulosa. Yigirish texnika va texnologiyalariga sun'iy intellektni joriy etish to'qimachilik sanoatining samaradorligini sezilarli oshiradi. SI asosidagi boshqaruv tizimlari ip sifatini

yaxshilash, energiya tejamkorligini ta’minlash va ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Kelajakda aqlli yigirish tizimlarini keng qo‘llash raqobatbardosh va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Бобожанов Ҳ. Т. Йигириш машиналари параметрларини оптималлаш йўли билан ипнинг деформацион хоссаларини яхшилаш ва маҳсулот рақобатбардошлигини ошириш. Техн.фан.докт.диссерт. Наманган, НамМТИ. 2019 й. 193 б.

2. К.Ж.Жуманиязов, Х.Т.Бобожанов, Ж.К.Гафуров “Сравнение устройств для компактной кольцевой пряжи”, Тўқимачилик муаммолари, №4, 2009 йил, 19-21 б.

3. Патент № FAP 01051. Йигирув машинасининг ип чўзиш ускунаси// Джумабаев Ғ., Жуманиязов Қ., Джураев А. // Расмий ахборотнома -2015 -№12

4. **Қулиев Т.М., Джумабаев Ғ.Х., Жуманиязов Қ.Ж., Орипов Ж.И. Такомиллаштирилган чўзиш асбобида ипларда бурам ҳосил бўлиш жараёнидаги ҳаракатининг динамик таҳлили // ФарПИ илмий-техника журнали. 2024, Т.28. махсус сон №2. 48-52 б.**

AI INTEGRATION INTO THE ARMED FORCES: THE EXPERIENCE OF THE US, CHINA, AND ISRAEL

Parpiyeva Almakhan Zholdasovna

Senior Lecturer, Department of Artificial Intelligence and Cybersecurity, Institute of Land Forces, Military Security and Defense University of the Republic of Uzbekistan, PhD, Associate Professor

Annotation. This article examines the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the armed forces of the United States, China, and Israel. The study analyzes the main directions of military AI implementation, including autonomous combat systems, intelligence and reconnaissance, operational planning, cyber warfare, and decision-support technologies. Special attention is given to the strategic approaches adopted by each country: Israel's operational use of AI in asymmetric conflicts, the United States' model of public-private cooperation and technological leadership, and China's state-controlled military-civil integration strategy. The article also highlights ethical, legal, and technological challenges associated with military AI, such as cybersecurity risks, data limitations, autonomous decision-making, and compliance with international humanitarian law. A comparative analysis demonstrates that despite differences in political systems and military doctrines, all three countries are moving toward integrated AI-supported command systems, autonomous combat platforms, and closer cooperation between the defense and technology sectors. The research concludes that AI has become one of the decisive factors shaping future military superiority and global security architecture.

Keywords: artificial Intelligence, Armed Forces, Military Technologies, Autonomous Weapons, Cyber Warfare, Decision Support Systems, Military-Civil Integration, Intelligence Systems, Drone Swarms, Defense Innovation, Operational Planning, Israel Defense Forces, United States Military, People's Liberation Army, AI Governance

With the advent of AI systems, humanity has crossed another technological milestone, a breakthrough that has also become a military breakthrough. The potential capabilities offered by artificial intelligence (AI) are comparable to those of nuclear-armed countries. However, AI systems currently do not pose a threat comparable to a nuclear apocalypse.

Unlike many technologies that have migrated from the battlefield into everyday life, AI's path has been rather the opposite. While the current AI boom is largely driven by investment and research in the commercial sector, military organizations quickly recognized its potential. Its high adaptability and ability to quickly analyze large amounts of data in real time were bound to attract the military's attention.

Today, several key areas of AI integration into military systems can be identified:

1. Autonomous and robotic combat systems. The development and improvement of unmanned aerial vehicles, ground robots, maritime drones, and other platforms capable of performing tasks ranging from reconnaissance to direct use of force with a high degree of autonomy, minimizing direct human intervention.

2. Intelligence, surveillance, reconnaissance, and data analysis. AI is adaptable to process multimodal data (satellite imagery, intelligence, media reports, etc.). Algorithms can detect hidden patterns, identify targets and objects, and conduct terrain reconnaissance, providing command with an up-to-date operational picture.

3. Decision support and operational planning. Based on comprehensive data analysis, AI systems can predict the development of situations on the battlefield, modeling the consequences of certain decisions.

4. Cyberwarfare and information operations. AI is used to automate both defensive (searching for vulnerabilities and repelling cyberattacks) and offensive cyber operations. In addition, neural networks Deepfakes are used in information warfare to influence the enemy population.

This article presents a comparative analysis of the experience of implementing artificial intelligence technologies in the armed forces of Israel, the United States, and China. The choice of countries is justified by the following factors: Israel, due to the ongoing military conflicts in the Middle East, has practical experience in the operational implementation and use of AI on the battlefield by its own armed forces; the United States maintains a dominant position in the IT sector largely due to technology companies from Silicon Valley (as evidenced by the United States' first place in the Global rankings). AI Index , which evaluates countries based on key indicators such as research and development (R&D), infrastructure, talent pool, investment, government strategy, and commercial adoption of technologies), China, which according to Bank of America will invest between $84 billion and $ 98 billion in AI development by 2025 , not only competes with the United States at the strategic level but also represents an example of a successful government-led model in this area.

Israel: Operational Effectiveness in the Face of Asymmetric Threats

Intellektual texnologiyalarni ta’limga joriy etishda ma’lum qiyinchiliklar ham mavjud. Bularga pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini muttasil oshirib borish zarurati, metodologik bazaning yetishmasligi va sifatli dasturiy ta’minot yaratish xarajatlari kiradi.

Biroq, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan konseptual tadqiqotlar va monografiyalar shuni ko‘rsatadiki, yaqin kelajakda intellektual texnologiyalar o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi emas, balki uning eng yaqin intellektual yordamchisiga aylanadi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sun’iy intellekt va intellektual texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va talabalarning intellektual salohiyatini ochib berishda cheksiz imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli ta’lim platformalari, mobil ilovalar va intellektual modellashtirish vositalaridan pedagogik amaliyotda unumli foydalanish zamonaviy raqamli jamiyat talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning garovidir.

Adabiyotlar

1. Abdurakhmanov,A, Yusupov,M / The use of mathematical packages in teaching higher mathematics using the example of mathematical analysis.// American Institute of Physics. AIP Conference Proceedings, Volume 3244, Issue 1, id.030053, 8 pp.
2. Tevs D.P., Degtyareva Yu.V/ The use of mathematical packages in the educational activities of students and professional activities of teaching staff // Pedagogical University Bulletin of Altai. - Barnaul. - 2004. - No. 1.
3. N.V. Zaitseva, E.S. Ulyanova.Application of SCM Maple in studying some sections of complex analysis International scientific and practical conference"Information technologies in education and science"(ITON-2016) (November 5-7, 2016, Kazan) pp 27-33.
4. Tuychiev T.T., Tishabaev Zh.K., Dzhumabaev D.Kh., Kitmanov / Independent work on the theory of complex variable functionals// Tashkent. "Mumtoz suz", 2018.

5. Abdurahmanov.A.G. /The use of modern information technology in solving non-standard problems.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.12 (2020).

6. Tamur, M., Juandi, D., & Kusumah, Y. S. (2020). /The Effectiveness of the Application of Mathematical Software in Indonesia//; A Meta-Analysis Study. International Journal of Instruction, 13(4), 867-884. https://doi.org/10.29333/iji.2020.13453

7. Setiawan, A. A., Muhtadi, A., & Hukom, J. (2022). /Blended learning and student mathematics ability in Indonesia//: A meta-analysis study. International Journal of Instruction, 15(2), 905-916. https://doi.org/10.29333/iji.2022.15249a

МЕТРИЧЕСКИЕ ПРОСТРАНСТВА В ФУНКЦИОНАЛЬНОМ АНАЛИЗЕ: ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДИКИ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ

Тугушев Ибрагимбек Русланович

Ражапов Тимур Сергеевич

ЧПГУ г.Чирчик.Узбекистан. студент 3 курса
ЧПГУ г.Чирчик.Узбекистан Доцент PHD: Абдурахманов А.Г.:
abdushukur1969@mail.ru

Аннотация: В работе исследуются современные подходы к преподаванию раздела «Метрические пространства» в рамках курса функционального анализа. Вместо классического лекционного изложения предлагается интеграция инновационных цифровых инструментов и алгоритмического моделирования. Рассматриваются методики визуализации абстрактных метрик и использование ИИ-ассистентов для проверки математических гипотез, что способствует трансформации образовательного процесса в высшей педагогической школе.

Annotatsiya: Ushbu ishda funksional analiz kursining "Metrik fazolar" bo'limini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari tadqiq etiladi. Klassik ma'ruza bayoni o'rniga innovatsion raqamli vositalar va algoritmli modellashtirishni integratsiyalash taklif etilgan. Abstrakt metrikalarni vizuallashtirish metodikalari va matematik gipotezalarni tekshirish uchun SI-assistentlaridan foydalanish ko'rib chiqiladi, bu oliy pedagogik ta'limda o'quv jarayonini transformatsiya qilishga xizmat qiladi.

Abstract: This paper explores modern approaches to teaching the "Metric Spaces" section within a functional analysis course. Instead of classical lecture-based presentation, the integration of innovative digital tools and algorithmic modeling is proposed. Methodologies for visualizing abstract metrics and using AI assistants to verify mathematical hypotheses are considered, contributing to the transformation of the educational process in higher pedagogical schools. Метод Кардано

Ключевые слова / Tayanch so'zlar / Keywords

Ключевые слова RU: цифровая педагогика, метрические пространства, инновационные методы, визуализация, GeoGebra, искусственный интеллект.

Tayanch so'zlar UZ: raqamli pedagogika, metrik fazolar, innovatsion metodlar, vizuallashtirish, GeoGebra, sun'iy intellekt.

Keywords EN: digital pedagogy, metric spaces, innovative methods, visualization, GeoGebra, artificial intelligence.

Введение. Современный этап развития высшего педагогического образования в Узбекистане требует перехода от репродуктивных методов обучения к активным цифровым стратегиям для повышения результата. В контексте преподавания математического анализа и функционального анализа, изучение метрических пространств является фундаментом для понимания современных ИТ-технологий что способствует развитию нашего общества, таких как нейронные сети и алгоритмы обработки больших

пластов данных. Данная работа направлена на внедрение инновационных дидактических методик в учебный процесс.

Инновационные дидактические методики.

Для повышения эффективности усвоения абстрактных понятий метрических пространств нами предлагаются следующие методики преподавания :

1. **Метод визуально-смыслового моделирования (GeoGebra).** Инновация заключается в использовании динамических сред для построения «единичных шаров» в различных метрических пространствах . Визуализация позволяет студентам увидеть, как «круг» в евклидовой метрике превращается в «квадрат» или «ромб», что способствует формированию глубокого геометрического понимания абстрактной аксиоматики что в следствие помогает усвоить сложный материал

1-Рисунок. Сравнение единичных окрестностей в различных метриках.

2. **Алгоритмический подход** Вместо традиционного доказательства неравенства треугольника, студентам предлагается реализовать проверку этого условия на языке программирования Python. Работа с реальными массивами данных (координаты точек, векторы текста) позволяет связать теорию метрик с практическими задачами в реальном мире.

3. **Метод «Цифрового критического анализа».** Использование инструментов генеративного искусственного интеллекта (ChatGPT, Gemini) для поиска контрпримеров. Студенты учатся формулировать запросы к ИИ так, чтобы найти случаи, когда заданная функция не является метрикой, что развивает навыки верификации и работы с информацией что позволяет правильно использовать искусственный интеллект в современном мире.

Заключение. Интеграция данных методов позволяет не только модернизировать преподавание классической математики в Узбекистане, но и подготовить будущих педагогов к работе в цифровой среде, что полностью соответствует целям 3-й секции нашей конференции что мы подготовили .

Литература.

1. Abdurahmanov A.G. The Use Of Modern Information Technology In Solving Non-Standard Problems. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8.12 (2020), 180–191.

2. Abdurakhmanov A.G. Application of Mathematical Packages in Teaching Higher Mathematics. // Eurasian Research Bulletin, 14 (2022): 32–41.

3. Abdurakhmanov A.G. Application of Mathematical Packages in Mathematical Modeling. // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/5/1], 34–38.

4. Sa’dullaev A. va boshqalar. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami. I. Toshkent: O‘zbekiston, 1993.

5. Soatov U. Oliy matematika kursi. III tom. Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

6. **Шарипов Ф. А.** Функционал анализ. — Тошкент: «Ношир», 2014. — 320 б.

7. Хайдаров А., Расулов Х. Функционал анализ ва унинг замонавий татбиқлари // Ўзбекистон математика журнали. — 2021. — № 2.

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI TOPSHIRIQLARINING DIDAKTIK, STRUKTURAVIY VA KOMPETENSIYAVIY ASOSLARI

Daminova Sayyora Xursandovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: xursandovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi topshiriqlarining tarkibiy tuzilishi, ularning kompetensiyaviy yo‘naltirilganligi hamda tabiiy fanlar savodxonligini baholashdagi ahamiyati tahlil qilingan. PISA topshiriqlarining stimullovchi material, hayotiy kontekst va savollar majmuasidan tashkil topganligi yoritilib, ularning an’anaviy maktab topshiriqlaridan farqli jihatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ilmiy hodisalarni tushuntirish, ilmiy tadqiqotni qo‘llash va baholash hamda ilmiy dalillarni tahlil qilish kabi asosiy kompetensiyalar tavsiflangan. Maqolada PISA topshiriqlarining o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda fanlararo integratsiya va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning didaktik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA xalqaro baholash dasturi, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiya, stimullovchi material, hayotiy kontekst, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, fanlararo integratsiya, funksional savodxonlik, ilmiy tadqiqot, baholash tizimi.

PISA xalqaro baholash dasturi (Programme for International Student Assessment) test topshiriqlari o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, odatiy maktab masalalaridan farq qiladi. Har bir topshiriq real hayotiy vaziyatga oid stimullovchi material bilan boshlanadi va shu kontekstga bog‘langan bir yoki bir necha savollar jamlanmasidan iborat bo‘ladi. Stimullovchi material (inglizcha “stimulus”) deganda, topshiriq mazmunini ochib beruvchi matn, diagramma, jadval, rasm, grafik kabi axborot manbai tushuniladi. Test tizimi kompyuter muhitiga o‘tkazilganda, ekranning o‘ng panelida ana shu stimullovchi material, chap panelida esa savollar va bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar joylashadi. Savollar odatda bir nechta bo‘lib, turli formatda taqdim etiladi: bir javob variantli test (to‘rt variantdan to‘g‘ri javob tanlash), bir nechta javobli test (bir necha to‘g‘ri variantni belgilash), kiritma (javobni yozma shaklda kiritish) yoki “hot spot” (grafik yoki matn bo‘yicha kerakli elementni belgilash) kabi turlarga bo‘linadi. Ba’zi murakkab savollar bir qadamda javob berishni talab qilsa (1 ball bilan baholanadi), ba’zilari esa ko‘p bosqichli tahlilni talab etib, to‘liq yoki qisman to‘g‘ri javob uchun 2 ballgacha baholanadi [1]. Har bir topshiriq PISA baholash tizimida belgilangan kompetensiyalar va bilim sohasiga muvofiq kategorizatsiya qilinadi.

Kompetensiya tushunchasi PISA baholashida markaziy o‘rin tutadi. Tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha PISA topshiriqlari uch asosiy kompetensiyani o‘lchaydi: ilmiy hodisalarni tushuntirish, ilmiy tadqiqotni qo‘llash va baholash, ilmiy dalillarni tahlil qilish va izohlay olish [2]. Masalan, o‘quvchi keltirilgan hayotiy hodisani fan nuqtai nazaridan izohlashi yoki tajriba natijalarini tahlil qilib xulosalar chiqara olishi zarur bo‘ladi. PISA topshiriqlari shu kompetensiyalarni tekshirishga xizmat qiluvchi savollarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, har

bir topshiriq muayyan bilim sohasi doirasida bo‘ladi va o‘quvchilarning shu sohaga oid tushunchaviy bilimlari, jarayon va usullar hamda ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadi [3]. PISA baholash doirasida tabiiy fanlar uchun bilimlar uch kategoriyaga ajratilgan: mazmuniy bilimlar (faktlar, tushunchalar va nazariyalar), jarayon/amatik bilimlar (ilmiy tadqiqot usullari, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalari) va epistemik bilimlar (fan haqida bilim, ilmiy bilimning xususiyatlari) [2]. Shunday qilib, PISA topshiriqlari tarkibida stimulus (kontekst), savollar majmuasi va kompetensiya ko‘rsatkichlari uzviy bog‘langan bo‘lib, ular orqali o‘quvchining funksional bilim va ko‘nikmalari baholanadi.

Ta’kidlash joizki, PISA test topshiriqlari odatiy maktab darsliklari mashqlaridan farqli ravishda “hayotiy vaziyat tahlili” shaklida ishlab chiqiladi [4]. Topshiriq sharti va savollarning qo‘yilishi kundalik turmushdan olingan muammoli holatga yo‘naltiriladi (kontekst), shu bois o‘quvchilarga noan’anaviy tuyulishi mumkin. Bunday vaziyatli topshiriqlar o‘quvchilarning turli fanlardagi bilimlarini birlashtirib qo‘llashini talab etadi. PISA topshiriqlari tarkiban bir necha fanlar kesishmasida yotadigan savollarni ham o‘z ichiga olishi mumkin: masalan, fizika, kimyo va biologiya bilimlarini uyg‘unlashtirish orqali yechiladigan masalalar uchraydi [5]. Test savollarini psixometrik tahlil qilish va xalqaro solishtirma baholash uchun PISA maxsus skoring modellari (Rash modeli)dan foydalanadi, bunda har bir topshiriqning bajarilish ehtimoli orqali o‘quvchining qobiliyat darajasi baholanadi [1]. PISA topshiriqlarining strukturaviy asoslari – hayotiy kontekstga ega stimullovchi material, shu materialga doir savollar va ularda ko‘zda tutilgan kompetensiyalar – o‘quvchilar bilimini real vaziyatda qo‘llay olish layoqatini har tomonlama sinovdan o‘tkazishga qaratilgandir.

PISA dasturi nafaqat an’anaviy bilim darajasini, balki o‘quvchilarning XXI asrda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va kompetensiyalarni baholaydi [6]. Xususan, tabiiy fanlar (science) yo‘nalishida tabiiy-ilmiy savodxonlik tushunchasi joriy etilgan bo‘lib, bu shaxsning ilmiy bilim va jarayonlarni amaliy hayotda qo‘llay olishi, ilm-fan va texnologiyaga oid masalalarda ongli fuqaro sifatida fikr yurita olishi demakdir. OECD tashkiloti tomonidan e’lon qilingan PISA 2018 natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning fan bo‘yicha yutuqlarini baholashda ularning tanqidiy va tahliliy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik hamda kommunikativ kompetensiyalari kabi jihatlarga alohida e’tibor berilmoqda [6,7]. Masalan, PISA savollarida o‘quvchilardan berilgan dalillar asosida xulosalar chiqarish, kuzatilgan hodisaga izoh berish, yoki muammo yechimi yuzasidan o‘z taklifini asoslab berish kabi yuqori tartibli fikrlash talab qilinadi [8]. Bu jarayonda ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanganlik darajasi namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, PISA topshiriqlari asosida mashq qildirish o‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi [9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kreiner S. PISA Scaling Model. // Psychometrika, 2019. – Vol. 84. – P. 450–470.
2. OECD. Science Competencies for Tomorrow’s World. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 180 p.
3. Klieme E. Competency-based Assessment with PISA. – Springer, 2021. – 220 p.
4. Nazarova A. PISA topshiriqlarining didaktik tahlili: Avtoreferat. – Toshkent, 2020. – 45 b.
5. Tursunova S. PISA elementlari asosida fanlararo integratsiya. – Toshkent, 2021. – 180 b.

6. OECD. PISA 2018 Results (Vol. I–III). – Paris: OECD Publishing, 2019. – 564 p.
7. OECD. Problem-Solving Skills in PISA. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 132 p.
8. Neumann K. Scientific Reasoning and PISA Items. // International Journal of Science Education, 2020. – Vol. 42. – P. 310–328.
9. Qodirov E. PISA topshiriqlari asosida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: PhD diss. – Toshkent, 2022. – 150 b.

INKLYUZIV TA’LIMDA RAQAMLI EKOTIZIM: LMS, SIMULYATORLAR, AR/VR VOSITALARI VA MASOFAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI

Ernazarov Abdurazzoq Nizamiddinovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: abdurazzoqernazarov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda inklyuziv ta’lim tizimida raqamli ekotizimni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Learning Management System (LMS), simulyatorlar, AR/VR texnologiyalari hamda masofaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarining imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan raqamli muhitni tashkil etish, interaktiv va adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarida raqamli vositalarning inklyuziv ta’lim sifatini oshirish, individual ta’lim trayektoriyalarini qo‘llab-quvvatlash hamda masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli ekotizim, LMS, AR/VR texnologiyalari, simulyatorlar, masofaviy qo‘llab-quvvatlash, adaptiv ta’lim, raqamli pedagogika, interaktiv ta’lim, individual ta’lim trayektoriyasi.

Abstract. This thesis analyzes modern approaches to developing a digital ecosystem in inclusive education. The study highlights the opportunities of Learning Management Systems (LMS), simulators, AR/VR technologies, and remote support tools in organizing inclusive learning environments. Special attention is given to the creation of adaptive digital environments for learners with special educational needs and the pedagogical effectiveness of interactive and adaptive educational technologies. The research findings demonstrate the importance of digital tools in improving the quality of inclusive education, supporting individual learning trajectories, and expanding opportunities for distance learning.

Keywords: inclusive education, digital ecosystem, LMS, AR/VR technologies, simulators, remote support, adaptive learning, digital pedagogy, interactive learning, individual learning trajectory.

Zamonaviy ta’limda inklyuzivlik har bir o‘quvchining ehtiyoji, qobiliyati, idrok sur’ati, kommunikativ imkoniyati va psixologik holatini hisobga olgan holda moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishni talab etadi. Raqamli transformatsiya sharoitida bunday muhitni LMS, simulyatorlar, AR/VR vositalari, bulutli resurslar va masofaviy maslahat xizmatlaridan tashkil topgan yaxlit ekotizim asosida qurish dolzarb hisoblanadi [1]. Inklyuziv ta’limdagi raqamli ekotizim deganda o‘quv kontenti, metodik ko‘rsatmalar, diagnostika vositalari, interaktiv mashg‘ulotlar, teskari aloqa va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari o‘zaro bog‘langan ochiq pedagogik-texnologik muhit tushuniladi. Bunday tizimda LMS markaziy boshqaruv yadrosi vazifasini bajaradi: materiallar joylashtiriladi, topshiriqlar tabaqalashtiriladi, baholash mezonlari ko‘rsatiladi hamda o‘quvchining faolligi va rivojlanish dinamikasi qayd etiladi.

Virtual simulyatorlar inklyuziv ta’limda xavfsiz, takroriy va ko‘rgazmali o‘rganish imkonini beradi. Fizika, biologiya, kimyo yoki texnologiya darslarida laboratoriya jarayonlarini

simulyatsiya qilish orqali o‘quvchi tajribani o‘z sur’atida bajaradi, xatoni xavfsiz muhitda tahlil qiladi va natijani qayta sinab ko‘radi. Bu, ayniqsa, harakatlanish imkoniyati cheklangan yoki sensor to‘siqlarga ega o‘quvchilar uchun muhimdir [2]. AR/VR vositalari murakkab tushunchalarni fazoviy idrok etish, real obyektlarni virtual muhitda kuzatish va o‘quvchini jarayonga emotsional jihatdan jalb etishda samarali vosita hisoblanadi. AR real sinf muhitiga qo‘shimcha raqamli qatlam kiritadi, VR esa laboratoriya, muzey, observatoriya yoki ishlab chiqarish muhitiga immersiv kirish imkonini beradi. Bunda o‘quvchining yosh xususiyati, sog‘lig‘i, ko‘rish-eshitish imkoniyatlari va kognitiv yuklamasi hisobga olinishi zarur.

1-jadval

Inklyuziv raqamli ekotizim komponentlarining didaktik imkoniyatlari

Komponent	Inklyuziv imkoniyat	Pedagogik natija
LMS	Kontent, topshiriq va baholashni individuallashtirish	O‘quv faoliyati shaffof monitoring qilinadi
Simulyator	Xavfsiz, takroriy va vizual tajriba muhiti	Amaliy ko‘nikma bosqichma-bosqich rivojlanadi
AR/VR	Fazoviy tasavvur va immersiv kuzatish	Murakkab mavzular ko‘rgazmali o‘zlashtiriladi
Masofaviy yordam	Tyutor, psixolog, ota-ona va o‘qituvchi aloqasi	Ta’lim uzluksizligi qo‘llab-quvvatlanadi

Masofaviy qo‘llab-quvvatlash inklyuziv raqamli ekotizimning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Unda o‘qituvchi, tyutor, defektolog, psixolog, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasida muntazam aloqa yo‘lga qo‘yiladi. Videomaslahat, chat, elektron kundalik, adaptiv test va elektron portfolio orqali o‘quvchining ehtiyoji tez aniqlanadi. Bu format uzoq hududda yashovchi yoki sog‘lig‘i sababli darsga muntazam qatnasha olmaydigan o‘quvchilar uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Raqamli ekotizim Universal Design for Learning tamoyillari asosida loyihalansa, axborotni turli formatda taqdim etish, o‘quvchiga bilimini turli usulda namoyon qilish imkonini berish va motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi [3]. Shu sababli inklyuziv LMSda shrift o‘lchamini o‘zgartirish, kontrast rejimi, matnni ovozga aylantirish, subtitr, ekran o‘quvchi dasturlariga moslik, qisqa videoizohlar va moslashuvchan muddatlar bo‘lishi lozim.

Taklif etilayotgan model to‘rt bosqichda joriy etiladi: avvalo o‘quvchilarning ehtiyojlari diagnostika qilinadi; keyin LMSda moslashtirilgan kontent va individual trayektoriya yaratiladi; uchinchi bosqichda simulyatorlar hamda AR/VR vositalari orqali interaktiv faoliyat tashkil etiladi; yakunda monitoring natijalariga tayangan holda masofaviy maslahat, korreksion yordam va refleksiv tahlil amalga oshiriladi. Shu bilan birga, raqamli ekotizimni tatbiq etishda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli tengsizlikni kamaytirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish va AR/VR vositalaridan gigiyenik me’yorlar asosida foydalanish masalalari e’tibordan chetda qolmasligi lozim [4]. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda LMS, simulyatorlar, AR/VR vositalari va masofaviy qo‘llab-quvvatlashni integratsiyalashgan raqamli ekotizim sifatida tashkil etish ta’limga kirish imkoniyatini kengaytiradi, individual rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘qituvchining diagnostik hamda metodik faoliyatini takomillashtiradi.

Adabiyotlar:

[1] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all. Paris: UNESCO, 2020.

[2] Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal. 2011. Vol. 37(5). P. 813–828.

[3] CAST. Universal Design for Learning Guidelines version 3.0. Wakefield, MA: CAST, 2024.

[4] World Health Organization, UNICEF. Global report on assistive technology. Geneva: WHO, 2022.

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN “SMART DAVOMAT” TIZIMINING RAQAMLI PEDAGOGIKADAGI O‘RNI

Zuhriddinov Farrux Faxriddin o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
Aniq fanlar fakulteti, Fizika va astronomiya yo‘nalishi, 3-kurs talabasi
E-mail: zuxriddinovfarrux001@gmail.com; tel.: +998 (94) 871-01-55

Kirish. Raqamli pedagogika sharoitida o‘quv jarayonini tezkor monitoring qilish, o‘qituvchining takroriy ma’muriy ishlarini kamaytirish va ta’lim sifatini boshqarish dolzarb vazifa hisoblanadi. Davomatni og‘zaki yo‘qlama yoki qog‘oz jurnal orqali yuritish dars vaqtining bir qismini egallaydi, ma’lumotlarni keyin qayta kiritishni talab qiladi hamda inson omiliga bog‘liq xatolarga olib keladi [1]. “Smart Davomat” mobil tizimi ushbu jarayonni yuzni tanish texnologiyasi orqali avtomatlashtirish, real vaqt rejimida “keldi/kelmadi” holatini belgilash va keyingi tahlil uchun raqamli hisobot yaratishga qaratilgan.

Tizimning ishlash tamoyili. Dastur mobil kamera orqali sinf tasvirini oladi, ML Kit asosida yuzlarni aniqlaydi, FaceNet arxitekturasi tamoyiliga tayangan holda biometrik belgilarni taqqoslaydi [2], [3]. Ilova offline rejimda ishlashi, bir vaqtning o‘zida bir nechta yuzni aniqlashi, o‘zbek tilidagi interfeysga ega bo‘lishi va yoritilish/kamera sifati o‘zgarishlariga moslashishi bilan mahalliy ta’lim muhiti uchun qulaydir. Bunda pedagog shaxsni qo‘lda belgilash o‘rniga natijani tasdiqlaydi, tizim esa guruh bo‘yicha jamlanma hisobotni shakllantiradi.


Maqsad va metodika. Tadqiqotdan maqsad — yuz tanishga asoslangan mobil ilova yordamida davomat olish jarayonini avtomatlashtirish va uning pedagogik samaradorlikka ta’sirini baholashdan iborat. Sinovlar Qibray tumani 17-maktabning ikki sinfida hamda Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar fakulteti mashg‘ulotlarida o‘tkazildi. An’anaviy yo‘qlama va “Smart Davomat” usuli 15, 25 va 30 nafar o‘quvchidan iborat guruhlarda qiyoslandi. Asosiy ko‘rsatkich sifatida bir darsda davomatni qayd etishga sarflangan vaqt olindi.

1-jadval

Davomatni qayd etish uchun sarflangan vaqt

Guruh hajmi	An’anaviy usul	Smart Davomat	Tejalgan vaqt	Vaqt tejalishi
15 nafar	180 soniya	25 soniya	155 soniya	86%
25 nafar	320 soniya	42 soniya	278 soniya	87%
30 nafar	420 soniya	52 soniya	368 soniya	88%
O‘rtacha	**307 soniya**	**40 soniya**	**267 soniya**	**87%**

Natijalar va tahlil. 1-jadvaldan ko‘rinadiki, avtomatlashtirilgan usul davomatni qayd etish vaqtini o‘rtacha 307 soniyadan 40 soniyaga qisqartirdi. Bu har bir darsda 267 soniya tejalishini yoki 87% samaradorlikni bildiradi. 30 nafar o‘quvchili guruhda vaqt tejalishi 368 soniyani tashkil etdi. Mazkur natija o‘qituvchining asosiy dars faoliyatiga ko‘proq vaqt ajratishini, auditoriyani boshqarishdagi takroriy amallar kamayishini va hisobot shaffofligi oshishini ko‘rsatadi [4].



1-rasm. An’anaviy va “Smart Davomat” usullarining vaqt sarfi taqqoslanishi

Pedagogik ahamiyati. “Smart Davomat” dars boshlanishidagi tashkiliy jarayonni qisqartirib, o‘qituvchiga ta’lim mazmuni, baholash va individual ishlashga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi. Tizim tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlar o‘quv analitikasi uchun asos bo‘lib, davomat foizi, kechikishlar va guruh kesimidagi dinamikani monitoring qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, biometrik ma’lumotlar bilan ishlashda rozilik, maxfiylik va axborot xavfsizligi talablari qat’iy bajarilishi zarur [5].

Ilmiy yangilik. Ishda O‘zbekiston ta’lim muassasalari uchun mahalliy til interfeysi, offline rejim va oddiy smartfon kamerasidan foydalanishga asoslangan biometrik davomat modeli sinovdan o‘tkazildi. Taklif etilgan yondashuv qimmat turniket yoki murakkab server infratuzilmasidan ko‘ra mobil qurilma imkoniyatlariga tayanadi. Bu maktab va universitet auditoriyalarida moslashuvchan, nisbatan arzon hamda tez joriy etiladigan raqamli pedagogik yechim sifatida ahamiyatlidir.

Amaliy tavsiyalar. Tizimni joriy etishda avvalo o‘quvchi yoki talabalar bazasini to‘g‘ri shakllantirish, ularning roziligi va maxfiylik qoidalarini hujjatlashtirish, kamera joylashuvi hamda yoritilishni barqarorlashtirish lozim. Dastlabki bosqichda natijalarni an’anaviy yo‘qlama bilan solishtirib kalibrlash tavsiya etiladi. Shundan so‘ng davomat hisobotlari guruh, fan va vaqt kesimida monitoring uchun foydalanilishi mumkin.

Xulosa. Sinov natijalari “Smart Davomat” tizimi sun’iy intellektga asoslangan raqamli pedagogika uchun amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tizim davomatni tezkor, avtomatik va shaffof yuritish orqali o‘qituvchi mehnatini optimallashtiradi, dars vaqtini tejaydi hamda ta’lim jarayonini ma’lumotlarga asoslangan boshqarish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar:

[1] Smit J., Jonson M. Oliy ta’limda vaqt taqsimoti: professor-o‘qituvchilarning ish yuklamasi tahlili // Ta’lim ma’muriyati jurnali. 2018. №56(3). 289–304-b.

[2] Schroff F., Kalenichenko D., Philbin J. FaceNet: Yuzni aniqlash va klasterlash uchun yagona integratsiya // Proceedings of the IEEE CVPR. 2015. 815–823-b.

[3] Taigman Y., Yang M., Ranzato M., Wolf L. DeepFace: Yuzni tekshirishda inson darajasidagi samaradorlik bo‘shlig‘ini yopish // IEEE CVPR. 2014. 1701–1708-b.

[4] Kumar S., Sharma V., Gupta R. Avtomatlashtirilgan davomat tizimlarining vaqt samaradorligi tahlili // International Journal of Computer Applications. 2020. №175(8). 15–20-b.

[5] Miller K., Braun T. Biometric authentication in educational institutions: A US perspective // Axborot xavfsizligi jurnali. 2020. №11(2). 89–103-b.

PISA TOPSHIRIQLARI ASOSIDA FIZIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Daminova Sayyora Xursandovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: xursandovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fizika ta’limida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish masalalari hamda bu jarayonda PISA xalqaro baholash dasturi topshiriqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Funksional savodxonlikning mohiyati, uning ilmiy savodxonlik bilan bog‘liqligi va zamonaviy ta’limdagi ahamiyati yoritilgan. PISA dasturida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash mezonlari, o‘quvchilarning ilmiy hodisalarni tushuntirish, ilmiy tadqiqotni loyihalash va baholash hamda ilmiy dalillarni tahlil qilish kompetensiyalari tavsiflangan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida PISA formatidagi topshiriqlarning o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada fizika darslarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA xalqaro baholash dasturi, funksional savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, fizika ta’limi, kompetensiya, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, hayotiy kontekst, PISA topshiriqlari, ilmiy tadqiqot, innovatsion ta’lim.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, tabiiy fanlar, jumladan fizika bo‘yicha funksional (ilmiy) savodxonlik deganda o‘quvchilarning olgan bilimlarini haqiqiy hayotiy masalalarni hal etishda qo‘llay bilishi, ilm-fan yutuqlarini tushunib, ularga nisbatan munosib fuqarolik pozitsiyasini egallashi tushuniladi. PISA xalqaro baholash dasturi aynan 15 yoshli o‘quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda zarur bo‘ladigan tahlil qilish, xulosa chiqarish va muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari ta’lim tizimlarida o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalari qay darajada shakllanayotganini ko‘rsatadi. PISA 2015 yilgi ilmiy savodxonlik doirasida ilmiy savodxonlik “shaxsning fan bilan bog‘liq masalalarda xabardor bo‘lib, ilmiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqara olishi va reflektiv fuqaro sifatida ishtirok eta olishi” tarzida ta’riflangan. PISA baholarida yuqori natijalarga erishish uchun o‘quvchi uch xil ko‘nikmada o‘z ustunligini namoyish etishi lozim: (1) hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish; (2) ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholay olish; (3) ma’lumotlar va dalillarni tahlil qilish hamda ilmiy asosda izohlay olish.

Ilmiy-pedagogik manbalarda funksional savodxonlik tushunchasiga bir qator yondashuvlar uchraydi. Jumladan, R.Bybi ilmiy savodxonlikni bosqichma-bosqich rivojlanadigan sifat deb hisoblab, uning nominal, funksional, konseptual va ko‘p o‘lchovli darajalarini ajratib ko‘rsatadi. Bybining izohiga ko‘ra, funksional savodxonlik – o‘quvchining asosiy ilmiy tushunchalar va faktlarni bilishi hamda oddiy hayotiy masalalarni hal eta olishi darajasidir; eng yuqori bosqich – ko‘p o‘lchovli savodxonlik esa shaxsning fan, texnologiya va

jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni anglab, ularda faol ishtirok etish qobiliyatini anglatadi [1]. Shuningdek, J. Holbrook va M. Rannikmae zamonaviy ilmiy savodxonlikni shaxsning intellektual, hissiy (motivatsion) va ijtimoiy jihatlarini qamrab oluvchi ko‘p qirrali kompetensiya sifatida tasvirlaydi. Ularning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, chinakam ilmiy savodxonlik nafaqat ilmiy bilimlarni, balki shaxsning fanga nisbatan qiziqishi, tanqidiy fikrlashi va mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini ham o‘z ichiga olishi zarur [2]. Demak, funksional savodxonlikni shakllantirish jarayonida bilim bilan bir qatorda o‘quvchilarning ilm-fanga bo‘lgan munosabatini, kundalik hayotda uchraydigan masalalarga ongli yondashuvini ham rivojlantirish muhimdir.

Mazkur masala bugungi globallashuv sharoitida yanada dolzarblashmoqda. Dunyo bo‘ylab ro‘y berayotgan raqamli transformatsiyalar, iqlim o‘zgarishi, ilm-fan va texnikadagi yutuqlar ta’lim oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Endilikda maktab bitiruvchilari nafaqat an’anaviy bilimlarga ega bo‘lishi, balki tez o‘zgaruvchi muhitga moslasha olishi, yangi sharoitda mustaqil izlanib, to‘g‘ri qaror qabul qila olishi talab etilmoqda. **OECD Learning Compass 2030** konsepsiyasida ham ta’kidlanishicha, XXI asrga kelib ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarda yangi davrga mos kompetensiyalar – bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabatlarni shakllantirish dolzarbdir. Shu jumladan, ilmiy va texnologik taraqqiyot shiddatiga hamohang ravishda yosh avlodda fundamental bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish, fan-texnika yutuqlarini atroflicha anglab, ular bilan bog‘liq muammolar yuzasidan ongli xulosalar chiqara olish qobiliyatini tarbiyalash bugungi ta’limning ustuvor maqsadidir [3].

Xalqaro PISA tadqiqotlari natijalari turli davlatlarning bu boradagi yutuq va kamchiliklarini yaqqol ko‘rsatib bermoqda. Masalan, Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya singari davlatlar hamda Yevropadan Finlandiya, Estoniya kabi mamlakatlar 15 yoshli o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligi bo‘yicha doimiy ravishda yetakchi pog‘onalarni egallab kelmoqda. Ular ta’lim tizimida o‘quvchilarning yuqori darajadagi kompetensiyalarini shakllantirishga erishganini ko‘rish mumkin. Bu esa boshqa davlatlar uchun o‘z ta’lim tizimlarini takomillashtirish zaruratini anglatadi. O‘zbekiston ham 2022 yilda ilk bor PISA baholashida ishtirok etib, o‘quvchilarimizning funksional savodxonlik darajasini xalqaro mezonlar asosida baholashga kirishdi. Dastlabki natijalar ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlar joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fizika darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan modelni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Taassufki, an’anaviy fizik ta’lim ko‘pincha formulalar va mavhum tushunchalarni yodlatishga asoslanib qolmoqda. O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, muammoni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmasligi natijasida ular egallagan bilimlarini real hayotda qo‘llashda qiynaladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning **ilmiy savodxonlik darajasi** yuqori bo‘lishi uchun ta’lim jarayonida turli real kontekstga ega masalalar, tadqiqot faoliyati va reflektiv muhokamalar joriy qilinishi zarur. Jumladan, J. Osborne ta’kidlaganidek, o‘quvchilarni haqiqiy ilmiy amaliyotlarga jalb etish – kuzatish, eksperiment o‘tkazish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish – ularning fanni anglashini chuqurlashtiradi va olgan bilimlarini hayotda qo‘llashga o‘rgatadi [4]. PISA topshiriqlari esa aynan shunday mazmundagi, ya’ni noan’anaviy va hayotiy yo‘naltirilgan masalalar majmuini taklif etadi. Shu bois so‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda PISA formatidagi topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, PISA

topshiriqlaridan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat test natijalarini yaxshilaydi, balki ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishi va mustaqil fikrlash layoqatini ham oshiradi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bybee R.. Science for Life: Scientific Literacy for the 21st Century. – Arlington: NSTA Press, 2020. – 210 p.
2. Holbrook J.., Rannikmae M.. “Scientific Literacy and Science Education” // Science Education. – 2018. – Vol. 102. – P. 558–581.
3. OECD. Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 100 p.
4. Osborne J.. Scientific Practices and Instruction. – London: Sage Publications, 2020. – 240 p.
5. Neumann K.. “The Role of PISA Tasks in Scientific Literacy” // International Journal of Science Education. – 2020. – Vol. 42(3). – P. 310–328.

“ASTRODIGITAL.UZ” PLATFORMASI ASOSIDA MONITORING, BAHOLASH VA ADAPTIV TA’LIM MEXANIZMI

Tillaboyev A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: azlarxontillaboyev@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda astronomiya kursini raqamli ta’lim muhitida o‘qitishda talabalar faoliyatini monitoring qilish, kompetensiyalarni avtomatlashtirilgan baholash va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish mexanizmi bayon etiladi. “AstroDigital.uz” platformasi ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish va tavsiya berish funksiyalari orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: monitoring, baholash, adaptiv ta’lim, learning analytics, raqamli iz, dashboard, astronomiya kursi.

Raqamli ta’lim sharoitida baholash jarayoni faqat yakuniy test natijasini aniqlash bilan chegaralanmaydi. Talabaning platformaga kirishi, material bilan ishlash davomiyligi, virtual laboratoriyada bajargan harakati, xato turi, masalani yechish bosqichlari va loyiha portfolioga kiritgan dalillari ham o‘quv jarayoni haqida muhim axborot beradi. Shu sababli “AstroDigital.uz” platformasida monitoring, baholash va adaptiv ta’lim mexanizmini ishlab chiqish astronomiya kursining dasturiy-didaktik ta’minotini takomillashtirishda asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Monitoring mexanizmining nazariy asosi ta’lim analitikasi g‘oyasiga tayanadi. Ta’lim analitikasi o‘quvchi faoliyati bo‘yicha raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, talqin qilish va pedagogik qaror qabul qilish uchun foydalanishni anglatadi [1]. Astronomiya kursida bunday yondashuv o‘zlashtirishdagi qiyinchilikni erta aniqlash, murakkab mavzularni qayta tushuntirish, mustaqil ish topshiriqlarini moslashtirish va o‘qituvchiga dalillarga asoslangan metodik qaror qabul qilish imkonini beradi.

Platformada talabaning raqamli izi bir necha indikator orqali shakllantiriladi. Ularga kirish vaqti va chastotasi, mavzu materiallarini o‘qish ketma-ketligi, videodarsni ko‘rish foizi, virtual laboratoriyada sarflangan vaqt, parametrlarni to‘g‘ri tanlash darajasi, test urinishlari soni, xatolarning takrorlanishi, forum yoki loyiha portfolioga kiritilgan fikrlar kiradi. Ushbu indikatorlar alohida baho sifatida emas, balki o‘quv jarayonining dinamik xaritasi sifatida qaraladi. O‘qituvchi dashboard orqali har bir talabaning faolligi va qiyinchilik zonasini ko‘rishi mumkin.

Baholash tizimi uch yo‘nalishda quriladi: kognitiv bilimlarni baholash, amaliy ko‘nikmalarni baholash va tadqiqotchilik faoliyatini baholash. Kognitiv baholashda yopiq, ochiq, moslashtirish, ketma-ketlikni topish va qisqa izohli test topshiriqlari qo‘llanadi. Amaliy ko‘nikmalar virtual laboratoriyadagi harakatlar, masalan, teleskopni to‘g‘ri sozlash, osmon koordinatasini aniqlash, spektral ma’lumotni talqin qilish, grafikdan fizik xulosa chiqarish kabi mezonlar asosida baholanadi. Tadqiqotchilik faoliyati esa loyiha rejasi, ma’lumot yig‘ish sifati, tahlil mantiqi, xulosa asoslanganligi va taqdimot madaniyati bo‘yicha rubrikalar orqali aniqlanadi.

Avtomatlashtirilgan baholash o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi, biroq uning maqsadi insoniy pedagogik nazoratni to‘liq almashtirish emas. Platforma obyektiv qayd etiladigan ko‘rsatkichlarni - test natijasi, urinishlar soni, laboratoriya bosqichlari, muddatga rioya qilish -

avtomatik hisoblaydi. Ilmiy farazning mantiqiyligi, xulosaning dalillanishi, metodik tushuntirishning sifatini esa o‘qituvchi yoki ekspert rubrika asosida baholaydi. Shu yo‘l bilan avtomatlashtirilgan va ekspertli baholash integratsiyasi ta’minlanadi, xolislik va pedagogik moslashuvchanlik o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi [2].

Adaptiv ta’lim mexanizmi monitoring va baholash natijalaridan kelib chiqib ishlaydi. Agar talaba “Kepler qonunlari” mavzusida 60 foizdan past natija ko‘rsatsa yoki bir xil xatoni takrorlasa, platforma unga soddalashtirilgan tushuntirish, qo‘shimcha animatsiya, tayanch formula bo‘yicha izoh va osonroq masalalarni tavsiya qiladi. Agar natija 60-85 foiz oralig‘ida bo‘lsa, standart mashqlar va mustahkamlovchi topshiriqlar beriladi. Agar natija 85 foizdan yuqori bo‘lsa, talaba murakkabroq astrofizik masala, real ma’lumotlar bilan ishlash yoki kichik loyiha topshirig‘iga yo‘naltiriladi. Bunday shartli algoritm ta’lim trayektoriyasini individual ehtiyojga moslashtiradi [3].

1-jadval

Monitoring va adaptiv tavsiya mexanizmining indikatorlari

Indikator	Ma’lumot manbai	Pedagogik qaror
Kognitiv natija	Test, qisqa javob, moslashtirish topshirig‘i	Qayta tushuntirish yoki murakkabroq topshiriq
Amaliy ko‘nikma	Virtual laboratoriya protokoli va xato turi	Laboratoriya yo‘riqnomasi, video ko‘rsatma, takroriy tajriba
Faollik	Kirish chastotasi, material bilan ishlash vaqti	Motivatsion eslatma, tyutor tavsiyasi
Tadqiqotchilik	Portfolio, loyiha bosqichlari, tahliliy hisobot	Rubrika asosida ekspert bahosi va feedback
Refleksiya	O‘z-o‘zini baholash, izoh va savollar	Individual maslahat va ta’lim marshrutini tuzatish

Adaptiv tizimning samaradorligi qayta aloqa sifatiga bevosita bog‘liq. Talabaga “noto‘g‘ri” degan xabar berish yetarli emas; platforma xatoning turini aniqlab, uning sababini tushuntirishi va keyingi qadamni ko‘rsatishi kerak. Masalan, talaba orbital radius va katta yarim o‘q tushunchalarini chalkashtirsa, tizim tegishli grafikni qayta ochadi, izohli misol beradi va kichik tekshiruv topshirig‘ini taklif qiladi. Shunday qilib, baholash jazolovchi vosita emas, balki o‘rganishni boshqaruvchi formatga aylanadi. Formativ feedback nazariyasi ham aynan tezkor va mazmunli qayta aloqa o‘quv natijasini yaxshilashini ta’kidlaydi [2].

“AstroDigital.uz” platformasida monitoring natijalari o‘qituvchi kabinetida vizual dashboard ko‘rinishida beriladi. Unda guruh bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish, mavzular kesimidagi qiyinchiliklar, individual talabalar reytingi, virtual laboratoriya faolligi va portfoliodagi loyiha bosqichlari aks ettiriladi. Bu ma’lumotlar o‘qituvchiga keyingi darsni rejalashtirish, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni belgilash, past natijali talabalarni qo‘llab-quvvatlash va yuqori natijali talabalar uchun ijodiy vazifalar tayyorlash imkonini beradi. Natijada pedagogik qaror sezgi yoki taxminga emas, balki raqamli dalillarga tayanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “AstroDigital.uz” platformasida monitoring, baholash va adaptiv ta’lim mexanizmi astronomiya kursida individual yondashuvni kuchaytiradi, talaba faoliyatini uzluksiz kuzatadi va o‘qituvchiga asoslangan metodik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Raqamli iz, avtomatlashtirilgan baholash, ekspert rubrikasi va adaptiv tavsiyalar

birgalikda dasturiy-didaktik ta’minotning sifatini oshiradi hamda raqamli pedagogika sharoitida astronomiya ta’limining samaradorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

[1] Ferguson R. Learning analytics: drivers, developments and challenges // International Journal of Technology Enhanced Learning. 2012. Vol. 4, No. 5-6. P. 304-317.
[2] Shute V.J. Focus on Formative Feedback // Review of Educational Research. 2008. Vol. 78, No. 1. P. 153-189.
[3] Brusilovsky P. Adaptive hypermedia // User Modeling and User-Adapted Interaction. 2001. Vol. 11. P. 87-110.

II-SHO‘BA: SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN FANLARNI O’QITISH TEXNOLOGIYALARI

“TOPOLOGIK MANIFOLDLAR” MAVZUSINI SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘QITISH

Ziyoda Urinbayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Matematika o’qitish metodikasi va
geometriya” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail. ziyodarixsiboyeva96@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

Tojixonova Sarvinoz Dauranjon qizi

Saparboyeva Zulfizar Baxtiyor qizi

Javliyeva Shohsanam Jahongirovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellektga asoslangan fanlarni o‘qitishda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Mavzuning murakkab va texnologik tabiati talabani vizual va interfaol usullar orqali bilimni amaliy ravishda o‘zlashtirishga undaydi. Shu maqsadda vizual modellar, interfaol metodlar va muammoli ta’limning uyg‘un qo‘llanilishi talabaning abstrakt algoritmlar va sun’iy intellekt tushunchalarini tushunishini sezilarli darajada osonlashtiradi. VMI modeli ushbu uch metodni bir tizimga birlashtirib, nazariya, amaliy mashqlar va vizual tasavvurni bir butun jarayonda uzviy bog‘laydi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, neyron tarmoqlar, ko‘rgazmali metod, interfaol ta’lim, muammoli o‘qitish, algoritmik tafakkur, kompyuter modellashtirish, VMI modeli, raqamli texnologiyalar, matematik ta’lim.

Аннотация. В статье анализируются эффективные педагогические подходы к преподаванию дисциплин, основанных на искусственном интеллекте. Сложный и технологический характер темы побуждает студентов осваивать знания через практическое взаимодействие с использованием визуальных и интерактивных методов. В этом контексте совместное применение визуальных моделей, интерактивных методов и проблемного обучения значительно облегчает понимание алгоритмов и абстрактных понятий искусственного интеллекта. Модель VMI объединяет эти три подхода в единую систему, связывая теорию, практические задания и визуальную интуицию в целостный процесс, тем самым повышая эффективность учебного процесса.

Ключевые слова: искусственный интеллект, машинное обучение, нейронные сети, наглядный метод обучения, интерактивное обучение, проблемное обучение, алгоритмическое мышление, компьютерное моделирование, модель VMI, цифровые технологии.

Abstract. This article analyzes effective pedagogical approaches for teaching subjects based on artificial intelligence. The complex and technological nature of the topic encourages students to acquire knowledge through practical engagement using visual and interactive methods. In this context, the combined application of visual models, interactive techniques, and problem-based learning significantly facilitates the understanding of algorithms and abstract concepts of artificial intelligence. The VMI model integrates these three approaches into a single system, connecting theory, practical exercises, and visual intuition within a coherent process, thereby enhancing the effectiveness of the learning process.

Keywords: artificial intelligence, machine learning, neural networks, visual teaching method, interactive learning, problem-based learning, algorithmic thinking, computer modeling, VMI model, digital technologies.

Sun’iy intellekt zamonaviy texnologiyalarning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda u tibbiyot, ta’lim, iqtisodiyot, robototexnika, axborot xavfsizligi va sanoat kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli sun’iy intellektga asoslangan fanlarni talabalarga o‘qitish jarayoni faqat nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanmay, zamonaviy pedagogik metodlarni samarali qo‘llashni ham talab qiladi.Sun’iy intellekt fanlari algoritmlar, neyron tarmoqlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va mashinaviy o‘qitish kabi murakkab tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Talaba ushbu jarayonda bir vaqtning o‘zida ham texnologik tizimlarning ishlash prinsipini tushunishi, ham amaliy dasturlar orqali ularni qo‘llay olishi zarur. Bunday murakkablik esa ko‘rgazmali, interfaol va muammoli metodlarga asoslangan tizimli yondashuvni talab qiladi.Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan algoritmlar asosida ishlaydi. Mazkur nazariy tushunchalarni talaba tomonidan darhol anglab olish qiyinligi tabiiy bo‘lib, aynan shu sababli ushbu mavzuni o‘qitishda vizual modellar, interfaol yondashuvlar, muammoli ta’lim hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Topologiya matematikaning eng abstrakt, ammo eng chuqur bo‘limlaridan biridir. Aynan topologik manifoldlar esa bu bo‘limning eng markaziy tushunchalaridan biri bo‘lib, ular ko‘plab sohalarning nazariy asosi hisoblanadi: zamonaviy geometriya, fizikadagi fazo-zamon modellari, kompyuter grafikasi, sun’iy intellekt, robototexnika, aerodinamika va boshqalar. Shuning uchun topologik manifoldlarni talabalarga o‘rgatish jarayoni faqat nazariy ma’lumotni yetkazish bilan cheklanmasdan, o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni uyg‘unlashtirishni talab qiladi.

Topologik manifoldlar global jihatdan murakkab, biroq lokal jihatdan Yevklid fazosiga o‘xshash obyektlar bo‘lgani sababli talaba ularni bir vaqtning o‘zida ham tasavvur qilishi, ham qat’iy matematik tushunchalar orqali anglab yetishi zarur. Bunday murakkablik o‘qitishda ko‘rgazmali, interfaol va muammoli metodlarga asoslangan tizimli yondashuvni talab qiladi.

Topologik manifold — bu Hausdorff fazo, ikkinchi darajali ajraluvchi fazo va har bir nuqtasining atrofidagi mahalliy tuzilishi $\mathbb{R}^n$ ga gomeomor f bo‘lgan fazodan iborat murakkab matematik obyekt bo‘lib, uning mohiyati ochiq to‘plamlar, uzluksizlik, gomeomorfizm, atlas va koordinata xaritalari kabi abstrakt tushunchalarga tayangan holda shakllanadi. Mazkur nazariy birliklarni talaba tomonidan darhol anglab olish qiyinligi tabiiy bo‘lib, aynan shu sababli ushbu mavzuni o‘qitishda vizual tasvirlar, interfaol yondashuvlar, muammoli ta’lim hamda zamonaviy

axborot texnologiyalariga asoslangan metodlar qo‘llanishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Sun’iy intellekt asosida topologik manifoldlar mavzusini o‘qitishda ta’lim metodlarining roli

Ko‘rgazmali metodlarning ahamiyati

Sun’iy intellekt fanlarini o‘rganishda ko‘rgazmali metodlar muhim o‘rin tutadi, chunki bu yo‘nalishda murakkab algoritmlar va ma’lumotlar oqimi bilan ishlanadi. Shu bois grafik tasvirlar, neyron tarmoqlar sxemalari, animatsiyalar va kompyuter simulyatsiyalari mavzuning mohiyatini ochib berishda samarali vosita hisoblanadi.

Kompyuter dasturlari yordamida yaratilgan vizual modellar, ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini ko‘rsatuvchi diagrammalar hamda algoritmlarning ishlash bosqichlarini aks ettiruvchi animatsiyalar talabaning abstrakt tushunchalarni aniqroq tasavvur qilishiga yordam beradi. Bunday yondashuv algoritmik fikrlashni rivojlantirib, nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

Interfaol metodlar

Interfaol metodlar ta’lim jarayonida talabani faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu yondashuvda talaba faqat tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki muhokama qiladi, algoritmlarni taqqoslaydi, kichik loyihalar ustida ishlaydi va guruh bilan birgalikda muammolarga yechim topadi.

Masalan, sun’iy intellekt dasturlarini yaratish bo‘yicha guruhli loyiha tayyorlash jarayonida talabalar algoritmlarning samaradorligini chuqurroq anglaydi, o‘z fikrlarini asoslashga o‘rganadi va bir-biridan bilim almashadi. O‘qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi.

Muammoli ta’lim

Muammoli ta’lim usuli talabani mustaqil fikrlashga, izlanishga va sabab–oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilishga undaydi. Bu metodda talaba tayyor kod yoki formulalarni yodlash o‘rniga savollar qo‘yadi va ularning yechimini izlaydi.

Sun’iy intellekt mavzularida muammoli vaziyatlar yaratish orqali algoritmlarning ishlash tamoyili, ma’lumotlarni tahlil qilish usullari hamda neyron tarmoqlarning ahamiyati chuqurroq anglanadi. Bunday yondashuv texnologik tafakkurni rivojlantirib, bilimlarning ongli va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.


Sun’iy intellekt asosida topologik manifoldlarni o‘qitishning “VMI” modeli

VMI (Vizual–Muammoli–Integrativ) modeli ushbu mavzuni o‘qitishda uch asosiy metodni bir butun tizim sifatida qo‘llashga asoslanadi.

“V” — Vizual bosqich

Bu bosqich VMI modelining asosiy va boshlang‘ich qismi bo‘lib, unda talaba mavzu bilan avvalo ko‘rish orqali tanishadi. Bu jarayonda uch o‘lchamli modellar, sirtlarni bo‘lib-bog‘lashni aks ettiruvchi animatsiyalar, sun’iy intellekt asosida yaratilgan simulyatsiyalar hamda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.An’anaviy yondashuvlarda bunday materiallar faqat tushuntirishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lsa, bu modelda vizual tajriba bilim hosil qilishning asosiy manbai hisoblanadi. Talaba dastlab shaklni ko‘radi, uning o‘zgarishini kuzatadi va shundan keyingina nazariy tushunchalarni ongli ravishda anglay boshlaydi. Sun’iy intellekt yordamidagi vizual modellar esa murakkab sirtlarni avtomatik tahlil qilish va ularning xossalarini interfaol tarzda ko‘rsatish imkonini beradi.Masalan, sfera yuzasi yoki tor modeli tasvirlanganda uning lokal jihatdan $\mathbb{R}^2$ ga o‘xshashi vizual ravishda ko‘rsatiladi. Oddiy qilib aytganda, sirtning ixtiyoriy kichik qismi tekislikka o‘xshaydi. Shu sababli talaba manifold

tushunchasini osonroq tushunadi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan interfaol dasturlar talabaning individual o‘rganish sur’atiga moslashib, murakkab topologik obyektlarni bosqichma-bosqich tushuntirish imkonini yaratadi. Bu esa talabaning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirib, fazoviy tafakkurini rivojlantiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy tasavvur bilan mustahkam bog‘lashga xizmat qiladi. Natijada topologik manifoldlarning abstrakt xususiyatlari talaba uchun yanada tushunarli va esda qolarli bo‘lib qoladi.



1-rasm. Sfera

Bu rasmda sfera yuzasi tasvirlangan. Sfera uch o‘lchamli Evklid fazoda joylashgan bo‘lishiga qaramay, uning yuzasida harakat qilish ikki mustaqil yo‘nalishda amalga oshiriladi. Har bir nuqtaning atrofidagi yetarlicha kichik qo‘shnichilik tekislik $\mathbb{R}^2$ ga gomeomorf bo‘lib, sfera yuzasining mahalliy tuzilmasi ikki o‘lchamli Evklid fazoga mos keladi. Oddiy qilib aytganda sferadan ixtiyoriy kichik atrof olganda tekislikka o’xshaydi. Shu sababli, sfera yuzasi ikki parametr (masalan, kenglik va uzunlik) orqali tavsiflanadi va 2-o‘lchamli manifold hisoblanadi.

“M” — Muammoli ta’lim bosqichi

Bu bosqichda vizual tasavvur allaqachon shakllangan bo‘ladi va shu asosda talaba oldiga aniq savol yoki muammo qo‘yiladi. Bu savollar bevosita ko‘rilgan modellardan kelib chiqadi, ya’ni muammo talabaning kuzatuvi asosida yuzaga keladi. Masalan, nima sababdan sfera va tor bir-biriga gomeomorf emasligi yoki manifoldning har bir nuqtasi nega Evklid fazosiga lokal jihatdan o‘xshashi kabi savollar talabani faol fikrlashga undaydi. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida esa talaba turli sirtlarni solishtirib, ularning xossalarini mustaqil tahlil qilishi mumkin.Bunday yondashuv talabaning qiziqishini oshirib, uni sabablarni izlashga va o‘z xulosalarini asoslashga yo‘naltiradi, natijada bilimlar yanada ongli va mustahkam shakllanadi.

“I” — Integrativ bosqich

Bu bosqichda ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida tashkil etilib, nazariy bilimlar, vizual kuzatuvlar, amaliy mashqlar va sun’iy intellekt yordamidagi kompyuter modellashtirish o‘zaro bog‘lanadi. Talaba avval sirtni geometrik shakllar orqali hosil qiladi, so‘ng uning nazariy

tavsifini beradi va keyingi bosqichda maxsus dasturlar yordamida modelni o‘zgartirib, natijani tahlil qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonda sirtlarning xossalarini tezkor aniqlash, modellarni avtomatik qurish va vizual tahlil qilish imkonini beradi. Bunday ketma-ketlik bilimni bo‘laklarga ajratmasdan, yagona jarayon sifatida anglash imkonini yaratadi.

VMI modeli aynan shu integratsiya orqali nazariya, amaliyot, vizual yondashuv va zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalarini uzluksiz uch bosqichli ta’lim tizimiga birlashtirishi bilan ajralib turadi.

Aspekt	**An’anaviy yondashuv**	**VMI modeli**
Tushunish jarayoni	Avval ta’rif → so‘ng misol	Avval misol (ko‘rish) → keyin ta’rif
Motivatsiya	Past	Doimiy qiziqish
Abstraktlik	Juda yuqori	Vizual asos: kamroq abstrakt
Talaba faolligi	Passiv	Faol, izlanuvchan
Natija	Yod olishga moyil	Tushunishga asoslangan

1-jadval. O‘qitish metodlarining an’anaviy va VMI modeli bo‘yicha taqqoslanishi

Topologik manifoldlar kabi abstrakt mavzularni o‘qitishda samaradorlik ko‘plab pedagogik metodlarning uyg‘unlashuviga bog‘liqdir. Mavzuning murakkabligi nazariy jihatdan chuqur matematik ta’riflarga, amaliy tomondan esa kuchli fazoviy tasavvur va kompyuter modellashtirishga tayanadi. Shu sababli talabaning tushunishi ko‘p bosqichli jarayonni talab qiladi. Ko‘rgazmali, interfaol va muammoli metodlar bu jarayonni osonlashtiradi, mavzuni tabiiy va samarali tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish esa murakkab sirtlarni vizual ko‘rsatish, modellashtirish va interfaol tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. VMI modeli ushbu metodlarni bir tizimga birlashtirib, nazariya, amaliy mashqlar, kompyuter modellashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini uzviy bog‘laydi hamda bilimni bosqichma-bosqich va mantiqiy o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bunday integrativ yondashuv talabaning fazoviy tafakkuri, mustaqil fikrlash va amaliy modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda oliy matematikadagi murakkab mavzularni o‘qitishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lee, J. M. Introduction to Topological Manifolds. Springer. Available at(https://link.springer.com/book/10.1007/978-1-4419-7940-7)

2. Munkres, J. R. (2000). Topology, 2nd Edition. Pearson.

3. Janich, K. (1984). Topology. Springer.

4. Raximboyeva, D. (2022). Fazoviy geometriya va ko‘pyoqlarni o‘rgatish metodikasi. World Scientific Research Journal.

5. Turaqulov, Y., et al. (2021). Umumta’lim maktablarida geometriya fanidan virtual resurslar yaratish va undan foydalanish. Best Publication Pedagogy Journal.

6. Ghrist, R. Elementary Applied Topology. Available at(https://www.math.upenn.edu/~ghrist/notes.html)

“

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARIDA TANQIDIY FIKRLASH VA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA SI (SUN’IY INTELLEKT) VOSITALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Abduraimov Jur’atbek G‘ofur o‘g‘li

CHDPU Umumiy pedagogika kafedrasi ilmiy tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, metodologik tamoyillari hamda ilmiy-pedagogik injiniring asosidagi model yechimlari yoritiladi.

Tayanch so‘zlar: sun’iy intellekt, tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur, didaktik imkoniyat, boshlang‘ich ta’lim, refleksiya, metakognitsiya, AI savodxonlik, pedagogik injiniring, formativ baholash.

Аннотация: В статье раскрываются дидактические возможности инструментов искусственного интеллекта в развитии критического мышления и аналитического мышления у студентов направления начального образования, а также педагогические условия, методологические основания и инженерно-педагогическая модель их эффективного применения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, критическое мышление, аналитическое мышление, дидактические возможности, начальное образование, рефлексия, метакогниция, AI-грамотность, педагогический инжиниринг, формативное оценивание.

Abstract: This article examines the didactic potential of artificial intelligence tools for developing critical thinking and analytical reasoning among primary education students, outlining methodological foundations, pedagogical conditions, ethical safeguards, and an engineering-based instructional model for responsible classroom integration.

Keywords: artificial intelligence, critical thinking, analytical thinking, didactic potential, primary education, reflection, metacognition, AI literacy, pedagogical engineering, formative assessment.

Kirish. Ma’lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri inson kapitalining sifati, ayniqsa uning tahlil qilish, muammoni aniqlash, dalil va taxminni farqlash, qaror qabul qilish hamda murakkab vaziyatlarda mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan oliy pedagogik ta’lim tizimida faqat tayyor bilimni uzatish emas, balki talabalarni mustaqil fikrlovchi, baholovchi va refleksiv subyekt sifatida shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim mazmuni va sifati davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari asosida ta’minlanishi belgilangan bo‘lib, bu holat oliy ta’limda natijador, innovatsion va ilmiy asoslangan didaktik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi [1].

Dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishining hozirgi sur’ati, avvalo, raqamli transformatsiya, katta ma’lumotlar, algoritmik boshqaruv va sun’iy intellekt vositalarining ijtimoiy hayot hamda ta’lim amaliyotiga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida raqamli ta’lim va raqamli infratuzilmani jadallashtirish muhim ustuvor yo‘nalish sifatida

belgilangan bo‘lsa, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi inson kapitali, sifatli ta’lim va zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishni yangi taraqqiyot bosqichining strategik vazifasi sifatida ilgari suradi [2, 3]. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan va kreativ fikrlaydigan yangi avlodni tarbiyalash ustuvor vazifamizdir”. Mazkur g‘oya bugungi pedagogik izlanishlar uchun metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi, chunki sun’iy intellektni ta’lim tizimiga keng joriy etish masalasi endilikda nafaqat texnologik, balki didaktik, axloqiy va epistemologik muammo sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, 2024-yilda tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” mazkur yo‘nalishda normativ-huquqiy asosni sezilarli mustahkamladi [4, 5].

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning mazmuni pedagog kadrlarni faqat predmet bilimlari bilan emas, balki axborotni tekshirish, dalillarni qiyoslash, xatolarni aniqlash, algoritmik tavsiyalarni tanqidiy baholash va raqamli vositalardan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalari bilan ham qurollantirishni nazarda tutadi. UNESCO tavsiyalarida generativ AI ta’lim uchun foydali vositaga aylanishi uchun inson agentligi, adolat, inklyuziya, ma’lumotlar xavfsizligi va pedagogik maqsadga muvofiqlik markazda turishi zarurligi ta’kidlanadi. Demak, SI vositalaridan foydalanishning didaktik samaradorligi ularning mavjudligiga emas, balki qanday pedagogik konstruksiyaga joylashtirilganiga bog‘liq [6].

Psixolog olim L.S. Vygotskiy tafakkur rivojlanishini ijtimoiy-madaniy vositalar, muloqot va yaqin rivojlanish zonasi bilan bog‘lagan holda, kognitiv o‘sish tashqi yordamning asta-sekin ichki intellektual harakatlarga aylanishi orqali yuz berishini asoslab bergan. Mazkur nazariya SI vositalarini “tayyor javob ishlab chiqaruvchi mexanizm” sifatida emas, balki talabaning tahliliy faoliyatini bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlovchi intellektual scaffold sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bunday yondashuvda chatbot, aqlli tahlil vositasi yoki prompt asosidagi dialogik tizim talabani o‘rnini bosmaydi; aksincha, uning fikrlash jarayonini tartiblaydi, savol qo‘yishga undaydi va o‘z mulohazasini izchil bayon qilishga yordam beradi [7].

Pedagog olim B.S. Bloom va keyinchalik L.W. Anderson hamda D.R. Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan taksonomiya yuqori darajadagi kognitiv faoliyatning mantiqiy zanjirini - eslab qolishdan tortib tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarni aniqlashtirib berdi. Aynan tahlil, baholash va yaratish darajalari tanqidiy fikrlash hamda analitik tafakkurning didaktik asosini tashkil qiladi. Shuning uchun SI vositalaridan foydalanish jarayonida topshiriqlarni mazkur taksonomiya bo‘yicha qayta loyihalash zarur: talabaga tayyor matn yaratish emas, balki AI javobidagi zaif nuqtalarni topish, dalillarni tekshirish, muqobil yechimlar ishlab chiqish va xulosalarni asoslash vazifalari berilishi kerak [8].

Tadqiqotchi P.A. Facione tanqidiy fikrlashni interpretatsiya, tahlil, baholash, inferensiya, tushuntirish va o‘z-o‘zini boshqarish kabi komponentlardan iborat murakkab intellektual jarayon sifatida tavsiflaydi. Paul - Elder modeli esa fikrlash elementlari, intellektual standartlar va intellektual fazilatlar o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi. Mazkur yondashuvlar SI vositalarining didaktik imkoniyatlarini baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi, chunki AI tomonidan yaratilgan javoblar bilan ishlash jarayonida aniqlik, dolzarblik, mantiqiylik, chuqurlik, kenglik va adolatlilik kabi intellektual standartlar maxsus mashq qilinishi mumkin [9, 10].

Xorijlik olimlardan S. Vincent-Lancrin va hamkorlar tanqidiy fikrlash hamda kreativlikni zamonaviy ta’limning ajralmas innovatsion kompetensiyalari sifatida ko‘rsatib, ularni fan mazmunidan ajralgan holda emas, balki mazmun bilan integratsiyada rivojlantirish kerakligini asoslaydi. OECD hujjatlarida AI davrida ishonchli manbani ishonchsiz manbadan ajratish, dalil va fikrni farqlash, murakkab matnlarni tahlil qilish va yangicha yechimlar yaratish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. UNESCOning o‘qituvchilar uchun AI kompetensiya doirasi esa AI savodxonlik, etika, AI pedagogikasi va professional rivojlanish o‘rtasidagi uzviylikni ochib beradi. Bu holat bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari tayyorgarligida SI vositalarini didaktik jihatdan puxta loyihalash zarurligini ko‘rsatadi [11, 12].

Nazariy ma’lumotlar Boshlang‘ich ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishda SI (Sun’iy Intellekt) vositalarining didaktik imkoniyatlarida o‘rganilganlik darajasi quyidagicha belgilash imkonini berdi: birinchidan, mavjud ishlarning muayyan qismi AI vositalarining texnik funksiyalari va moslashuvchan o‘qitish imkoniyatlarini yoritadi; ikkinchidan, bir qator tadqiqotlar AI vositalarini o‘qituvchi tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi; uchinchidan, so‘nggi izlanishlarda AI’dan me’yoridan ortiq foydalanish natijasida kognitiv offloading va tanqidiy fikrlashning susayishi xavfi ham ko‘rsatib berilmoqda. Biroq aynan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun SI vositalarining didaktik imkoniyatlarini tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur, metakognitiv nazorat va akademik halollik bilan integrallashgan holda yorituvchi tadqiqotlar yetarli emas [13, 14, 15].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishda SI vositalarining didaktik imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik injiniring yondashuvi asosida nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot obyekti - oliy pedagogik ta’lim jarayonida tanqidiy va analitik fikrlashni shakllantirish mexanizmlari; predmeti esa ushbu jarayonda SI vositalarining didaktik imkoniyatlari, shart-sharoitlari va metodik konstruksiyasidir. Mualliflik yangiligi shundaki, maqolada SI vositalaridan foydalanishning tayyor kontent iste’moli emas, balki savol yaratish, dalilni tekshirish, qarama-qarshi nuqtai nazarni taqqoslash, refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni kuchaytirishga xizmat qiluvchi didaktik modeli ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt vositalarining ta’limga integratsiyasi ikki qarama-qarshi tendensiyani yuzaga chiqarmoqda. Bir tomondan, ular adaptiv o‘qitish, tezkor fikr-mulohaza, ko‘p variantli yechimlarni generatsiya qilish, ta’limiy dialogni individuallashtirish va resurslardan foydalanish tezligini oshirish kabi ustunliklarni beradi. Ikkinchi tomondan esa, algoritmik javoblarga ortiqcha tayanish, dalillarni tekshirmaslik, tayyor matnni egallash illuziyasi, kognitiv sustkashlik va akademik halollik bilan bog‘liq xavflarni kuchaytiradi. Demak, mazkur vositalarning pedagogik qimmati ularning mavjud funksiyalarida emas, balki o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq arxitekturasida namoyon bo‘ladi [16, 17].

Maqolada ilmiy-pedagogik injiniring yondashuvi asos sifatida tanlandi. Mazkur yondashuv ta’limiy jarayonni maqsad, mazmun, vosita, metod, monitoring va natija bloklari o‘rtasidagi uzviy tizim sifatida ko‘radi. Shu asosda tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan SI-integratsiyalashgan didaktik modelning quyidagi metodologik tayanchlari belgilandi: kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, metakognitiv yondashuv, konstruktivistik yondashuv va etik-gumanistik yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv natijani kuzatiladigan ko‘nikmalar ko‘rinishida aniqlashtiradi; faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning faol fikrlash harakatlarini markazga qo‘yadi.

Metakognitiv yondashuv alohida ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlashning o‘zi nafaqat xulosa chiqarish, balki fikrlash jarayonini kuzatish, xatoni tan olish, dalil manbasini tekshirish va qarorni qayta ko‘rib chiqish qobiliyatini ham qamrab oladi. SI vositalari bilan ishlashda bu ayniqsa muhim, chunki talabada “algoritm aytdi - demak to‘g‘ri” degan passiv qabul pozitsiyasi shakllanishi mumkin. Shu bois o‘quv topshiriqlarida “AI javobida qaysi farazlar yashirin?”, “qaysi dalillar yetishmayapti?”, “muqobil nuqtai nazar nima bo‘lishi mumkin?”, “javobdagi xatolik ehtimoli qayerda?” kabi refleksiv savollar tizimi majburiy kiritilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, konseptual modellashtirish, didaktik dizayn va ekspert sintezi metodlari qo‘llandi. Nazariy tahlil orqali tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur, metakognitsiya, AI savodxonlik va didaktik imkoniyat kategoriyalari o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Qiyosiy tahlil orqali mahalliy normativ hujjatlar, UNESCO hamda OECD tavsiyalari, shuningdek, AI va ta’lim kesishmasidagi so‘nggi tadqiqotlar mazmunan solishtirildi. Konseptual modellashtirish esa boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan SI vositalari asosidagi o‘quv vazifalarining mantiqiy tuzilmasini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Metodologik jihatdan ushbu maqola dizaynga yo‘naltirilgan tadqiqot mantiqiga yaqin turadi. Chunki muammo faqat “AI foydalimi yoki zararli?” tarzida qo‘yilmadi; aksincha, “qanday shartlarda, qaysi topshiriq turida, qaysi didaktik boshqaruv ostida AI vositalari tanqidiy va analitik tafakkurni rivojlantiradi?” degan konstruktiv savol markazga olib chiqildi. Bu borada Q. Xu tomonidan taklif etilgan AI’ning kognitiv qobiliyatlarga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan action research metodologiyasi muhim yo‘nalish beradi: AI bilan ishlash samarasi uni didaktik va monitoring mexanizmlarisiz baholab bo‘lmaydi.

Shuningdek, metodologik ehtiyot chorasi sifatida kognitiv offloading nazariyasi ham hisobga olindi. AI vositalari xotira, izlash, saralash va matn tuzish kabi amallarni yengillashtiradi, biroq agar pedagogik nazorat yetarli bo‘lmasa, ular talabani chuqur tahlil, mustaqil inferensiya va daliliy baholashdan uzoqlashtirishi mumkin. Shu sababli maqolada SI vositalaridan foydalanishning didaktik samaradorligi “kognitiv yukni kamaytirish” bilan emas, balki “kognitiv faollikni qayta yo‘naltirish” bilan o‘lchanishi taklif etiladi.

Natijalar asosida, boshlang‘ich ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishda SI vositalarining quyidagi didaktik imkoniyatlari aniqlandi.

Birinchi imkoniyat - muammoli savol yaratish va muammoni ko‘rish kompetensiyasini faollashtirish. SI vositalari ma’lum mavzu bo‘yicha turli murakkablikdagi savollar, holatlar, qarama-qarshi dalillar va simulyativ pedagogik vaziyatlarni hosil qila oladi. Biroq eng muhim jihat savollar sonida emas, balki ularning kognitiv chuqurligidadir. Agar o‘qituvchi promptni to‘g‘ri loyihalasa, AI talabaga “to‘g‘ri javob” bermaydi, aksincha, unga muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rish, sabab-oqibatlarni ajratish va taxminlar tizimini aniqlashtirish uchun intellektual material beradi. Bu esa tahliliy fikrlashning boshlang‘ich bosqichini kuchaytiradi.

Ikkinchi imkoniyat - dialogik fikrlashni rivojlantirish. An’anaviy darsda barcha talabalar bir xil tezlik va chuqurlikda o‘qituvchi bilan munozara qila olmaydi. SI vositalari esa individual tempda savol-javob, qayta so‘rash, aniqlashtirish, misol talab qilish, muqobil javob yaratish va xatolarni muhokama qilish imkonini beradi. Agar ushbu dialog o‘qituvchi tomonidan metakognitiv savollar bilan boyitilsa, talabada “men nima uchun bunday o‘yladim?”, “qaysi dalilga tayandim?”, “qarama-qarshi fikrni nega rad etdim?” kabi o‘z-o‘zini nazorat mexanizmlari shakllanadi. Demak, AI bilan dialog - bu faqat kommunikativ qulaylik emas, balki ichki nutq va refleksiyani kuchaytiruvchi vositadir.

Uchinchi imkoniyat - dalilni tekshirish va manbalarni qiyoslash ko‘nikmasini rivojlantirish. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari kelajakda bolalarda to‘g‘ri axborot bilan noto‘g‘ri axborotni farqlash madaniyatini shakllantirishi kerak. Shu bois AI bilan ishlash jarayonida “javobni qabul qilish” emas, balki “javobni verifikatsiya qilish” markaziy didaktik harakatga aylanishi lozim. O‘quv topshiriqlarida talabaga AI javobini darslik, ilmiy maqola, normativ hujjat yoki ishonchli ma’lumotlar bazasi bilan taqqoslash, xatolarni topish, noaniq iboralarni aniqlash, dalil yetishmayotgan joylarni ko‘rsatish kabi vazifalar berilganda tanqidiy baholash mexanizmi faollashadi.

To‘rtinchi imkoniyat - analitik tafakkurni strukturallashtirish. Ko‘plab talabalar muammoni hissiy yoki umumiy tasavvur darajasida qabul qiladi, lekin uni mezonlar asosida tahlil qilishda qiynaladi. SI vositalari esa matn, holat yoki pedagogik vaziyatni komponentlarga ajratish, mezonlar ishlab chiqish, variantlarni guruhlash, kuchli va zaif tomonlarni ajratib ko‘rsatish, dalillar xaritasini tuzish kabi faoliyatlarda yordamchi vosita bo‘la oladi. Bu jihat ayniqsa analitik tafakkur uchun muhim, chunki u murakkab obyektni qismlarga ajratish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish qobiliyatiga tayangan holda shakllanadi.

Beshinchi imkoniyat - tezkor, ammo qat’iy mezonlashtirilgan fikr-mulohaza berish. O‘qituvchi barcha talabalar ishiga bir xil tezlikda batafsil tahliliy izoh bera olmasligi mumkin. SI vositalari esa oldindan belgilangan rubrika asosida talabaga javobidagi mantiqiy uzilishlar, dalil yetishmovchiligi, umumlashtirish xatolari, manba bilan ishlashdagi kamchiliklar va xulosa zaifliklari bo‘yicha tezkor signal bera oladi. Biroq mazkur imkoniyatdan samarali foydalanish uchun fikr-mulohaza algoritmga emas, rubrikaga va o‘qituvchining yakuniy ekspertizasiga tayanishi shart.

Oltinchi imkoniyat - refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni kuchaytirish. Tanqidiy fikrlash faqat tashqi obyektni baholash emas, balki o‘z mulohazasining ishonchliligini tekshirishdir. SI vositalari yordamida talabaga “javobingdagi eng zaif dalilni top”, “AI bergan tavsiya bilan o‘z pozitsiyangni qiyosla”, “nima sababdan AI xulosasiga to‘liq qo‘shilmaysan?”, “qaysi joyda qo‘shimcha manba kerak?” kabi refleksiv topshiriqlar berilganda, u o‘z fikrlash jarayonini ob’ekt sifatida ko‘ra boshlaydi. Bu esa metakognitiv nazoratni mustahkamlaydi.

Mazkur natijalarga tayangan holda, mualliflik didaktik modeli to‘rt bosqichda tavsiflandi. Diagnostik-motivatsion bosqichda talabaning mavjud tanqidiy fikrlash, analitik tahlil, AI savodxonlik va refleksiya darajasi aniqlanadi; AI vositalarining foydasi va cheklovlari muhokama qilinadi. Analitik-izlanish bosqichida talaba muammoli vaziyatlar, savollar, qarama-qarshi dalillar va noto‘g‘ri AI javoblari bilan ishlaydi. Konstruktiv-baholash bosqichida u dalillarni tanlaydi, qiyoslaydi, mezonlar ishlab chiqadi, o‘z xulosasini asoslaydi va AI natijalarini tahrirlaydi. Refleksiv-regulyativ bosqichda esa talaba o‘z fikrlash trayektoriyasini tahlil qiladi, xatolarni nomlaydi, AI’dan foydalangan joylari va mustaqil bajargan amallari o‘rtasidagi nisbatni baholaydi.

Modelning samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur deb topildi: 1) AI vositalaridan foydalanishning aniq didaktik maqsadini belgilash; 2) promptlarni fakt so‘rashga emas, dalilni tekshirish va tahlilga yo‘naltirish; 3) topshiriqlarda kamida ikkita mustaqil manba bilan verifikatsiyani talab qilish; 4) natijani baholashda tayyor javobni emas, fikrlash jarayonini mezonlashtirish; 5) akademik halollik tamoyillarini alohida ko‘rsatish; 6) SI vositalarini o‘qituvchini almashtiruvchi emas, tahliliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida joylashtirish.

Muhokama natijasi, mazkur tadqiqot SI vositalarining didaktik qiymati ularning texnologik “qudrati” bilan emas, balki pedagogik boshqaruv arxitekturasi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. Agar AI vositalari faqat tez matn yozish, tayyor reja tuzish yoki savolga darhol javob topish uchun ishlatilsa, talaba faol kognitiv subyektdan passiv kontent iste’molchiga aylanishi mumkin. Aksincha, ular savol qo‘yish, dalil tekshirish, qarama-qarshi nuqtai nazarni qiyoslash, xulosa sifatini tekshirish va refleksiv tahlil uchun ishlatilsa, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi muhim vositaga aylanadi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi uchun bu ayniqsa muhim. Chunki bo‘lajak o‘qituvchi keyinchalik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida savol berish, dalil keltirish, kuzatish, muammoli vaziyatni tushunish va sodda xulosalarni asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak bo‘ladi. Agar uning o‘zida AI bilan ishlash madaniyati tanqidiy va refleksiv asosda shakllanmagan bo‘lsa, u maktab amaliyotida ham texnologiyani faqat qulaylik vositasi sifatida qo‘llashi mumkin. Demak, SI vositalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish masalasi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish masalasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, maqola asosan nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, taqdim etilgan model kelgusida empirik sinovdan o‘tkazilishi zarur. Ikkinchidan, SI vositalarining tez o‘zgaruvchan tabiati sababli didaktik tavsiyalar muntazam ravishda yangilanib borilishi kerak. Uchinchidan, tanqidiy fikrlashni baholashda faqat mahsulotga emas, jarayon va refleksiyaga tayanadigan diagnostik mezonlarni yanada aniqlashtirish lozim. Biroq aynan mana shu cheklovlar keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni ham belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantirishda SI vositalarining didaktik imkoniyatlari juda yuqori, biroq bu imkoniyatlar faqat maqsadga yo‘naltirilgan, etik jihatdan muvozanatlangan va metodik jihatdan puxta tashkil etilgan pedagogik muhitdagina real natija beradi. SI vositalari savol yaratish, dialogik muhokama, dalilni tekshirish, analitik strukturallashtirish, tezkor fikr-mulohaza va refleksiv o‘zini baholashni kuchaytirish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi samarali vositaga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-637-son, 23.09.2020 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni: PF-6079-son, 05.10.2020 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/doc-passport/-5030957.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: PF-158-son, 11.09.2023 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6600413.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori: PQ-358-son, 14.10.2024 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7158604.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Prezident.uz. 30.10.2025. URL: https://president.uz/oz/lists/view/8610.

6. Miao F., Holmes W. Guidance for generative AI in education and research. - Paris: UNESCO, 2023.

7. Vygotsky L.S. Thought and Language. - Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

8. Anderson L.W., Krathwohl D.R. et al. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longman, 2001.

9. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. 2023 Update. - Millbrae, CA: Insight Assessment, 2023.

10. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. - Dillon Beach, CA: Foundation for Critical Thinking Press, 2010.

11. Vincent-Lancrin S., van der Vlies R. Trustworthy Artificial Intelligence (AI) in Education: Promises and Challenges // OECD Education Working Papers. - 2020. - No. 218. - Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/a6c90fa9-en.

12. Vincent-Lancrin S., González-Sancho C., Bouckaert M., de Luca F., Fernández-Barrerra M., Jacotin G., Urgel J., Vidal Q. Fostering Students' Creativity and Critical Thinking: What It Means in School. - Paris: OECD Publishing, 2019. DOI: 10.1787/62212c37-en.

13. Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. - Paris: UNESCO, 2024.

14. Wang S., Wang F., Zhu Z., Wang J., Tran T., Du Z. Artificial Intelligence in Education: A Systematic Literature Review // Expert Systems with Applications. - 2024. - Vol. 252. - Article 124167. DOI: 10.1016/j.eswa.2024.124167.

15. Alexandrowicz V. Artificial Intelligence Integration in Teacher Education: Navigating Benefits, Challenges, and Transformative Pedagogy // Journal of Education and Learning. - 2024. - Vol. 13, No. 6. - P. 346-364. DOI: 10.5539/jel.v13n6p346.

16. Xu Q. Action Research Plan: A Methodology to Examine the Impact of Artificial Intelligence (AI) on the Cognitive Abilities of University Students // Discover Education. - 2024. - Vol. 3. - Article 224. DOI: 10.1007/s44217-024-00330-4.

17. Gerlich M. AI Tools in Society: Impacts on Cognitive Offloading and the Future of Critical Thinking // Societies. - 2025. - Vol. 15, No. 1. - Article 6. DOI: 10.3390/soc15010006.

AN’ANAVIY PEDAGOGIKANI RAQAMLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN INTELLEKTUAL O‘QITISH TIZIMLARINING O‘RNI

Murtozaqulov Zafar

ChDPU Algebra va matematik analiz
kafedrasi katta o’qituvchisi

Akbarova Gulmiraxon

G‘ofirova Mamlakatxon

Aniq fanlar fakulteti amaliy matematika yo’nalishi 1-bosqich 25\2-guruh talabalari

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyati shakllanishi davrida pedagogik ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonining sifatini oshirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) nafaqat texnik sohalarda, balki gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda ham ta’limni transformatsiya qiluvchi asosiy drayverga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini raqamlashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan "Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri" modeli sharoitida ta’lim subyektlari o‘rtasidagi aloqalarni tezlashtirish va o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqish uchun sun’iy intellektga asoslangan intellektual o‘qitish tizimlarini (ITS) qo‘llash favqulodda mumkin va zarurdir. An’anaviy pedagogik yondashuvlarni raqamli texnologiyalar bilan sintez qilish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga va ta’limni individuallashtirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon pedagogik faoliyatning samaradorligini tahlil qilish uchun yangi ilmiy gorizontlarni ochib beradi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi va metodologiya

Pedagogikada sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va intellektual o‘qitish tizimlarini qo‘llash masalalari xalqaro miqyosda V. Holmes, C. Fadel, hamda EdTech sohasining yirik tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganilgan. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham oliy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi tadqiq etilmoqda. Biroq, aynan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt modellaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va metodologik asoslari tizimli tahlil qilinishi lozim.

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Xalqaro ta’lim platformalarining (Knewton, Coursera) adaptiv algoritmlari hamda oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan aqlli baholash tizimlarining amaliy natijalari qiyosiy jihatdan o‘rganildi va pedagogik amaliyot sharoitlariga moslashtirildi.

Asosiy qism va tahliliy natijalar

Intellektual o‘qitish tizimlari (ITS) — inson-o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz talabalarga individual tarzda ta’lim beruvchi, ularning xatolarini tuzatuvchi va o‘zlashtirish darajasini tahlil qiluvchi aqlli dasturiy ta’minot majmuidir.

SIning zamonaviy raqamli pedagogikadagi o‘rni uchta muhim yo‘nalishda o‘rganiladi: talabaning intellektual portretini shakllantirish (Student Modeling), uning o‘zlashtirish tezligiga qarab didaktik materiallarni avtomatik adaptiv moslashtirish (Instructional Module) hamda generativ neyron tarmoqlari (ChatGPT, Claude) yordamida o‘qituvchiga dars ishlanmalari (konspektlar), Keys-stadi topshiriqlari yaratishda metodik ko‘mak berish.

Ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoni guruh xarakteridan individual trayektoriyaga o‘tadi, baholash tizimi esa real vaqt rejimida (real-time monitoring) har bir qadamni kuzatib boradi. Biroq, talabalarning barcha savollarga tayyor javoblarni SI tizimlaridan olishi ularda tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini susaytirishi mumkin. Shu bois, ta’limda sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallashi emas, balki unga samarali assistentlik qilishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar

O‘tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, sun’iy intellekt an’anaviy pedagogikaning o‘rnini butunlay bosa olmaydi va insoniy muloqotga asoslangan tarbiya funksiyasini almashtira olmaydi. Biroq, u zamonaviy o‘qituvchini monoton, kundalik texnik ishlardan (baholash, test tuzish, statistik hisobotlar tayyorlash) to‘liq xolos qilib, uning faqat ijodiy va metodik rivojlanishi uchun keng yo‘l ochadi. Raqamli pedagogika sharoitida talabalarning tayyor intellektual modellar bilan muloqot qilishi ta’lim samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda, ularning kognitiv qobiliyatlariga to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ilgari surilgan "Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri" modeli doirasida ushbu ilg‘or raqamli texnologiyalardan tizimli va unumli foydalanish maqsadida quyidagi strategik va uslubiy chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Eng avvalo, universitet professor-o‘qituvchilari va bo‘lajak yosh pedagog-talabalarining texnologik savodxonligini oshirish maqsadida o‘quv dasturlariga maxsus "Prompt engineering in Education" (Ta’limda sun’iy intellekt bilan ishlash va buyruqlar berish madaniyati) modulini kiritish hamda muntazam metodik seminarlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarda generativ neyron tarmoqlaridan dars konspektlari, interaktiv o‘yinlar va Keys-stadi topshiriqlarini yaratishda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida akademik halollik (Academic Integrity) prinsiplarini saqlab qolish va plagiat holatlarining oldini olish favqulodda muhimdir. Buning uchun talabalarning bitiruv malakaviy ishlari, kurs ishlari va pedagogik amaliyot hisobotlarini baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularning tayyor SI matnlaridan foydalanish ulushini va sifatini nazorat qiluvchi yangi didaktik mezonlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Talaba faqat tayyor matnni olishni emas, balki SIdan olingan ma'lumotni tanqidiy tahlil qila olishini isbotlashi kerak.

Yakuniy bosqichda, universitetning hamkorlikdagi maktab-laboratoriyalari zanjirida o‘quvchilarning bilim darajasi, psixologik holati va qiziqishlarini avtomatlashgan tarzda tahlil qiluvchi hamda ularga individual ta’lim dasturini taklif etuvchi milliy intellektual platformalarni yaratish va tajriba-sinovdan o‘tkazish lozim. Bunday adaptiv tizimlarning maktab va universitet integratsiyasida qo‘llanilishi kelajakda O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimining raqamli ekotizimini yaratishga va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-289-son qarori.

2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence In Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.

3. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.

4. Gafurova, N. V. (2024). Digital transformation of pedagogical education in the context of AI integration. Educational Technology Review, 12(2), 45-52.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI MUSTAQIL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH

To‘rayeva Raisa G‘ofur qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Kenjayeva Xurshidabonu Tavakkal qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Aktamov Feruz Sanaqulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Algebra va matematik analiz" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim platformalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. An’anaviy ta’lim tizimidagi cheklovlar tahlil qilinib, talabalarning o‘quv-biluv kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy vositalar — ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC), bulutli texnologiyalar hamda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv tizimlarning roli ochib berilgan. Tadqiqot natijasida raqamli o‘quv muhitida mustaqil ta’limni to‘g‘ri loyihalash talabalarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish hamda uzluksiz ta’lim (Life-long learning) tamoyilini amalga oshirishning bosh omili ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, raqamli texnologiyalar, oliy ta’lim, LMS platformalari, onlayn kurslar (MOOC), bulutli xizmatlar, adaptiv o‘qitish, individual o‘quv trayektoriyasi.

Abstract. This thesis investigates the issues of developing students' independent learning activities through digital technologies, e-learning platforms, and modern information and communication tools in the higher education system. Analyzing the limitations of the traditional education model, the study highlights the role of modern tools that enhance students' learning competencies, including Learning Management Systems (LMS), Massive Open Online Courses (MOOCs), cloud technologies, and artificial intelligence-based adaptive systems. The findings indicate that properly designing independent study in a digital learning environment is a key factor in cultivating students' critical and creative thinking, as well as realizing the principle of life-long learning.

Keywords: independent learning, digital technologies, higher education, LMS platforms, open online courses (MOOC), cloud services, adaptive learning, individual learning trajectory.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda axborot oqimining keskin ortishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda mutaxassisdan faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki o‘z ustida muntazam ishlash, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llay olish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Shu sababli oliy ta’lim tizimining asosiy maqsadi talabalarni

mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Biroq, an’anaviy ta’lim tizimida talabalar ko‘pincha passiv tinglovchi sifatida ishtirok etib, o‘qituvchi tomonidan berilgan tayyor ma’lumotlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmoqda. Bu holat esa talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni mustaqil hal etishi hamda axborot bilan ishlash kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Natijada zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan, innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi esa talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari, multimedia vositalari, sun’iy intellekt texnologiyalari va bulutli xizmatlar yordamida talabalar istalgan vaqt va istalgan joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa ta’limning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli o‘quv muhiti talabalarning individual qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasidan kelib chiqib ta’lim olishiga imkon yaratadi. Talabalar elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar orqali mustaqil ravishda bilimlarini boyitishlari mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini monitoring qilish, talabalarning faoliyatini tahlil etish va individual tavsiyalar berish imkoniyatlari ham kengaymoqda.

Bugungi kunda raqamli o‘quv muhitida talabalarning mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish metodikasini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil ta’limni rivojlantirish talabalarni ijodiy fikrlovchi, axborot bilan ishlashga qodir va raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida shakllantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda raqamli o‘quv muhitida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari, zamonaviy raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim platformalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari asosida talabalarning mustaqil o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayoni tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida masofaviy ta’lim tizimlari, virtual o‘quv muhiti va interaktiv raqamli platformalarning talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatiga ta’siri o‘rganiladi.

Tadqiqot predmeti

Raqamli texnologiyalar (LMS, MOOC, bulutli tizimlar, elektron ta’lim platformalari va multimedia vositalari) yordamida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari, pedagogik metodlari, interaktiv usullari va tashkiliy shakllari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda raqamli o‘quv muhitida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish, o‘quv jarayonini monitoring qilish, motivatsiyani oshirish va individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism va tahlil

Raqamli o‘quv muhitida mustaqil ta’lim olish — bu talabaning o‘quv maqsadlarini mustaqil ravishda belgilashi, zarur axborot resurslarini izlab topishi, o‘zlashtirish sur’atini

boshqarishi hamda natijalarni baholash jarayonidir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar, bulutli xizmatlar va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar talabalarni mustaqil bilim olishga yo'naltiruvchi muhim vositalar hisoblanadi.

Ta'limni boshqarish tizimlari (LMS – Learning Management Systems)

Oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan Moodle, Canvas va Google Classroom kabi platformalar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu tizimlar orqali o'qituvchi:

- ma'ruza matnlari;
- video darslar;
- interaktiv topshiriqlar;
- testlar;
- amaliy mashg'ulotlar;
- elektron resurslarni

platformaga joylashtiradi. Talabalar esa o'zlari uchun qulay vaqtda materiallarni o'rganadilar, topshiriqlarni bajaradilar va elektron shaklda yuboradilar. LMS platformalari yordamida talabalar bilimini monitoring qilish, baholash va tezkor qayta aloqa (feedback) taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC)

Coursera, edX, Udemy va Khan Academy kabi xalqaro onlayn platformalar talabalarga dunyoning yetakchi universitetlari va mutaxassislari tomonidan yaratilgan kurslarni mustaqil ravishda o'rganish imkonini beradi. MOOC platformalari:

- individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish;
- mustaqil bilim olish;
- zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- xalqaro tajribalarni o'rganish

uchun samarali vosita hisoblanadi. Talabalar ushbu platformalarda sertifikatli kurslarda qatnashib, o'z bilim va malakalarini mustaqil ravishda boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bulutli texnologiyalar va jamoaviy ishlash vositalari

Google Docs, Microsoft OneDrive, Google Drive va Miro kabi bulutli xizmatlar talabalarning jamoaviy loyihalar ustida masofadan turib ishlashiga imkon yaratadi. Talabalar bir vaqtning o'zida yagona hujjat yoki taqdimot ustida ishlash, fikr almashish va ma'lumotlarni tahrirlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday texnologiyalar:

- jamoaviy ishlash ko'nikmalarini;
- kommunikativ kompetensiyalarni;
- raqamli savodxonlikni;
- masofaviy hamkorlik malakalarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalar ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ulardan istalgan qurilmada foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellekt va adaptiv o'qitish texnologiyalari

Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aqlli repetitor tizimlari va intellektual agentlar talabaning bilim darajasi, xatolari va o'zlashtirish sur'atini tahlil qiladi. Tizim:

- individual topshiriqlarni tavsiya qiladi;
- qo‘shimcha o‘quv materiallarini beradi;
- qiyinchilik darajasini moslashtiradi;
- shaxsiy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Natijada talabaning mustaqil o‘rganish samaradorligi oshadi va individual yondashuv ta’minlanadi. Adaptiv texnologiyalar o‘quvchining qiziqishi va ehtiyojiga mos ta’lim trayektoriyasini yaratishga yordam beradi.

O‘qituvchining yangi roli

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim jarayoni o‘qituvchining rolini ham tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lgan bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida u ko‘proq fasilitator, mentor va maslahatchi vazifasini bajaradi. O‘qituvchi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini yo‘naltiradi, kerakli resurslarni tavsiya qiladi, muammolarni hal qilishda metodik yordam beradi hamda motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mustaqil ta’lim talabalarning ijodiy fikrlashi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi va raqamli savodxonligini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar vositasida mustaqil ta’limni rivojlantirish an’anaviy dars xonasi chegaralaridan chiqib, uzluksiz ta’lim (Life-long learning) tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli platformalar, elektron ta’lim resurslari va adaptiv tizimlardan foydalanish talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, LMS platformalari, onlayn kurslar, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlardan unumli foydalanish talabalarda axborot savodxonligi, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantiradi. Talabalar o‘quv materiallarini mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash orqali bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Kiber hujumlar zamonaviy jamiyatning eng jiddiy muammolaridan biriga aylangan. Ularning turli shakllari, masalan, phishing, malware, va DDoS hujumlari, ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv muassasalarida kiber hujumlar o'quvchilarning ma'lumotlariga zarar yetkazishi, shuningdek, o'qitish jarayonini to'xtatishi mumkin. Kiber hujumlar natijasida ta'lim muassasalari o'z ma'lumotlar bazalarini yo'qotishi, shaxsiy ma'lumotlar tarqalishi va moliyaviy zarar ko'rishi mumkin. Bu holatlar o'quvchilarda xavotir va ishonchsizlikni kuchaytiradi, bu esa ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Bundan tashqari, kiber hujumlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z darslarini tayyorlashda va o'tkazishda to'siqlarga duch kelishadi, bu

esa ta'lim sifatini pasaytiradi. Kiber xavfsizlikni ta'minlash uchun ta'lim muassasalari o'z tizimlarini yangilash, o'quvchilarga kiber xavfsizlik bo'yicha ta'lim berish va zamonaviy texnologiyalarni xavfsiz ishlatishni o'rgatish zarur. Kiber hujumlar bilan kurashish ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga yordam beradi. Kiber hujumlar, masalan, ma'lumotlarni o'g'irlash, tizimlarga kirish va xizmatlarni to'xtatish kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bu hujumlar ta'lim muassasalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'quv jarayonini to'xtatishi, ma'lumotlar xavfsizligini xavf ostiga qo'yishi va o'quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Kiber hujumlar ta'siri natijasida ta'lim muassasalari o'z faoliyatini davom ettirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning kiber xavfsizlikka bo'lgan e'tiborini oshirish zarurati yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiber gigiyena: muhim qoidalar

Kiber gigiyena, zamonaviy ta'lim muassasalarida kiber xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalar kiber hujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishining oldini olish uchun zarurdir. O'quvchilarga kiber gigiyena qoidalarini o'rgatish, ularning onlayn muhitda xavfsizligini ta'minlashda yordam beradi. Ta'lim jarayonida bu qoidalarni amalga oshirish uchun bir qator usullar mavjud. O'quvchilarni kuchli parollar yaratishga va ularni muntazam ravishda yangilashga o'rgatish, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha bilimlarini oshirish zarur. Ta'lim muassasalari o'zlarini kiber xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish orqali rivojlantirishlari mumkin, bu esa o'quvchilarning kiber gigiyena qoidalarini amalda qo'llashiga yordam beradi. Onlayn xavfsizlik haqida muntazam ravishda ma'lumot berish, o'quvchilarning e'tiborini oshiradi va ularni kiber tahdidlarga qarshi tayyorlaydi. Shuningdek, o'qituvchilar va xodimlar ham kiber muammolarni tushunishlari va bu bilimlarni o'quvchilarga etkazishlari muhimdir. Kiber gigiyena qoidalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, xavfsiz onlayn muhit yaratishga xizmat qiladi va kelajakda kiber tahdidlarga qarshi kurashishda o'quvchilarni tayyorlaydi. Kiber gigiyena qoidalari, masalan, kuchli parollarni yaratish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn xulq-atvorni tushunish, o'quvchilarga xavfsiz raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun zarurdir. Ta'lim jarayonida bu qoidalarni o'rgatish, o'quvchilarning kiber xavfsizlikka bo'lgan munosabatini shakllantiradi. O'qituvchilar, darslarda interaktiv metodlardan foydalanib, kiber gigiyena qoidalarini amaliy misollar bilan tushuntirishlari muhimdir. Bu orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Matematika darslarida xavfsizlikni ta'minlash usullari

Matematika darslarida raqamli resurslardan foydalanish, zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, bu jarayonda xavfsizlikni ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalarda dars o'tish jarayonida o'quvchilar kiber tahdidlarga duch kelishi mumkin, shuning uchun ularni himoya qilish uchun bir qator usullarni qo'llash zarur. Darslarda ishlatiladigan raqamli materiallar va platformalar doimo yangilanib turishi, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash uchun xavfsiz va ishonchli manbalardan foydalanilishi lozim. O'qituvchilar o'quvchilarga xavfsiz parollarni yaratish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va internetda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish bo'yicha ko'rsatmalar berishlari kerak. Shuningdek, o'quvchilarga kiberxavfsizlik mavzusida treninglar o'tkazish va ularni ushbu sohada bilimlarini oshirishga undash muhimdir. O'qituvchilar, shuningdek, dars davomida o'quvchilarni raqamli resurslardan foydalanish qoidalari bilan tanishtirib, ularning o'zaro muomala va aloqalarida ehtiyotkorlikni ta'minlashlari kerak. Raqamli resurslardan foydalanish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash, nafaqat

o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi, balki ularning raqamli dunyoda xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Matematika darslarida raqamli resurslardan foydalanish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash uchun bir qator usullar va tavsiyalar mavjud. O'qituvchilar o'quvchilarga internetda ma'lumot izlash, onlayn platformalarda faoliyat yuritish va raqamli asboblardan foydalanish paytida ehtiyotkorlikni o'rgatishlari lozim. Shuningdek, o'quvchilarga shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsiz parol yaratish kabi asosiy qoidalarni o'rgatish muhimdir. Bu jarayonlar orqali o'quvchilar faqat matematikani o'rganish bilan cheklanmay, balki raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli bo'lish ko'nikmalarini ham egallaydilar.

O'qituvchilar va talabalar uchun tavsiyalar

O'qituvchilar va talabalar uchun axborot xavfsizligi va kiber gigiyena muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning raqamli faoliyatlarida xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. O'qituvchilar o'z darslarida kiber xavfsizlikni ta'lim berish orqali talabalarni raqamli muhitda qanday qilib xavfsiz harakat qilishlarini o'rgatishlari zarur. Bunday ta'lim jarayonlari talabalar uchun internetda muammolarni aniqlash va ularga qarshi kurashish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, o'qituvchilar talabalarni xavfsiz internet foydalanishi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ijtimoiy tarmoqlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga undashlari lozim. Talabalar o'zlarining onlayn faoliyatlarini nazorat qilishni o'rganishlari, shuningdek, kiber hujumlardan saqlanish usullarini bilishlari muhimdir. O'quvchilarga turli xil kiber xavflar, masalan, phishing hujumlari va zararli dasturlar haqida ma'lumot berish, ularning onlayn xavfsizligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tajribalar almashish va birgalikda muammolarni hal qilish orqali kiber xavfsizlikni yanada kuchaytirish mumkin. Ushbu jarayonlar orqali ta'lim muassasalarida xavfsiz va mas'uliyatli raqamli muhit yaratishga erishish mumkin. O'qituvchilar va talabalar uchun axborot xavfsizligi va kiber gigiyena masalalari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z talabalariga xavfsiz internet foydalanish qoidalarini o'rgatishi zarur, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tavsiyalar berishi lozim. Talabalar esa, o'zlarining onlayn faoliyatlarini nazorat qilish va kuchli parollar yaratish orqali xavfsizlikni ta'minlashlari kerak. O'quv jarayonida kiber xavfsizlikni ta'minlash, barcha ishtirokchilarning mas'uliyatini oshirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar ta'lim muhitida yanada ishonchli va himoyalangan raqamli muhitni yaratadi.

Kelajakda raqamli ta'lim resurslari va xavfsizlik

Kelajakda raqamli ta'lim resurslarining rivojlanishi, ta'lim tizimlarining global o'zgarishlari bilan bog'liq ravishda, yangicha yondashuvlarni talab etadi. Bu jarayonda texnologik innovatsiyalar, masalan, sun'iy intellekt va bulutli hisoblash tizimlari, o'quv jarayonini yanada samarali va qulay qilishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli ta'lim resurslarining ko'payishi, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytiradi. Biroq, bu jarayonda axborot xavfsizligi masalalari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Raqamli ta'lim muhitida ma'lumotlarning himoyasi, shaxsiy ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va kiber hujumlardan himoyalanish masalalari dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida kiber xavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish, xavfsizlik choralarini amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, raqamli ta'lim resurslarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Raqamli ta'limning rivojlanishi va xavfsizlikni ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash, kelajakda ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zaruriy shartdir. Kelajakda raqamli

ta'lim resurslarining rivojlanishi, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Biroq, bu jarayon axborot xavfsizligi masalalarini ham o'z ichiga oladi. Raqamli platformalarda o'quv materiallarining himoya qilinishi va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini xavfsiz saqlash, ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, axborot xavfsizligi bo'yicha ta'limni kuchaytirish, kelajakda ishonchli va xavfsiz raqamli ta'lim muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, kiber xavfsizlik ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nafaqat ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatli ishlashi, balki talabalar va o'qituvchilar uchun xavfsiz va ishonchli muhit yaratish uchun ham zarurdir. Ta'lim jarayonida kiber tahdidlarga qarshi kurashish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqilishi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rilishi lozim. Talabalar o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni, onlayn resurslardan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishni o'rganishi, shuningdek, kiber xavfsizlikning asosiy tamoyillarini tushunishi kerak. Bu esa ularning raqamli savodxonligini oshiradi va kelajakda kiber muammolarni hal qilishda yordam beradi. Kiber xavfsizlik ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak, chunki bu nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar va barcha ta'lim tizimi uchun muhimdir. Shunday qilib, kiber xavfsizlikning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati, kelajakdagi raqamli avlodni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi va ularning xavfsizligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, kiber xavfsizlik ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar va o'qituvchilar kiber tahdidlarga qarshi kurashish uchun zaruriy bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Kiber xavfsizlikni ta'lim muassasalarida joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu jarayon, shuningdek, ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshiradi va kelajak avlodlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Shonov, A. (2020). Raqamli ta'lim va axborot xavfsizligi.
2. Karimov, B. (2021). Kiber gigiyena: muhim qoidalar.
3. Tashkent State University. (2023). Raqamli resurslar va ta'lim.
4. Ismailov, D. (2022). Matematika darslarida raqamli texnologiyalar.
5. Azizov, M. (2021). Kiber hujumlar va ularning ta'siri.
6. Xudoyberdiyev, R. (2023). O'qituvchilar uchun kiber xavfsizlik tavsiyalari.

MATEMATIKA DARSLARIDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA KIBER GIGIYENA

Sodiqjonova Zilola Abdurazzoq qizi

sodiqjonovazilola653@gmail.com

Izzatullayeva Madina Alovuddin qizi

izzatullayeva1212@gmail.com
ChDPU. Aniq fanlar fakulteti, amaliy matematika yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Tohirova Zahrooy O'ktam qizi

ChDPU. Aniq fanlar fakulteti matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika darslarida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligi va kiber gigiyena masalalari yoritiladi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishi bilan birga, internet muhitida turli xavflar, jumladan shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi, zararli dasturlar va noto'g'ri axborot manbalaridan foydalanish kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Maqolada o'quvchilarda kiber gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish, xavfsiz parol yaratish, ishonchli raqamli platformalardan foydalanish va internet resurslarini tanqidiy tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shuningdek, matematika darslarida raqamli vositalardan xavfsiz va samarali foydalanish bo'yicha pedagogik yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim resurslari, matematika darslari, axborot xavfsizligi, kiber gigiyena, internet xavfsizligi, raqamli savodxonlik, shaxsiy ma'lumotlar, onlayn platformalar, ta'lim texnologiyalari, xavfsiz foydalanish.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, matematika fanini o'qitishda interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, simulyatsion dasturlar va onlayn ta'lim tizimlari keng qo'llanilmoqda. Matematika fani o'zining abstraktligi, mantiqiy fikrlashga asoslanganligi va murakkab hisob-kitob jarayonlarini o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Shu sababli raqamli ta'lim resurslari ushbu fanni o'qitishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Interaktiv grafiklar, dinamik modellar va vizualizatsiya vositalari o'quvchilarga murakkab matematik tushunchalarni osonroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali individual yondashuvni amalga oshirish, har bir o'quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish ham mumkin bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitining kengayishi axborot xavfsizligi bilan bog'liq yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Internet tarmog'idan foydalanish jarayonida o'quvchilar turli xil xavf-

xatarlarga duch kelishi mumkin. Jumladan, shaxsiy ma’lumotlarning ruxsatsiz tarqalishi, zararli dasturlar (viruslar, trojanlar), fishing hujumlari hamda ishonchsiz axborot manbalaridan foydalanish holatlari raqamli muhitda keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Bu holatlar nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy xavfsizligiga, balki ta’lim jarayonining sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida axborot xavfsizligi va kiber gigiyena tushunchalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Kiber gigiyena deganda raqamli muhitda xavfsiz va to‘g‘ri xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kuchli parollar yaratish, ishonchli platformalardan foydalanish hamda noma’lum manbalardan kelgan fayl va havolalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kabi ko‘nikmalar majmui tushuniladi. Ushbu ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirish zamonaviy raqamli jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish faqat texnik yoki didaktik jihatdan emas, balki xavfsizlik jihatidan ham puxta tashkil etilishi lozim. Chunki ta’lim jarayonida internet va raqamli platformalardan keng foydalanish o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi, biroq shu bilan birga ularni turli kiber tahdidlarga ham ochiq holga keltiradi. Shu sababli ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga nafaqat matematika fanining mazmuni, balki raqamli muhitda xavfsiz ishlash qoidalari ham o‘rgatilishi zarur.

Bugungi kunda ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda ham raqamli ta’lim va axborot xavfsizligi o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida o‘rganilmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta’lim jarayoniga kiber gigiyena bo‘yicha maxsus modullar kiritilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning raqamli muhitda ongli va xavfsiz harakat qilishini ta’minlaydi. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda xavfsizlik masalalariga e’tibor qaratish ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, matematika darslarida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligi va kiber gigiyena masalalarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalar tahlil qilinadi, mavjud muammolar yoritiladi hamda ta’lim jarayonida ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM.

Raqamli ta’lim resurslarining matematika ta’limidagi o‘rni - Raqamli ta’lim resurslari (RTR) zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘quv jarayonini tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Matematika fanini o‘qitishda RTR dan foydalanish o‘quvchilarning abstrakt matematik tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Masalan, geometrik shakllarning dinamik modellari, funksiyalarning grafik tasvirlari hamda algebraik jarayonlarning bosqichma-bosqich yechilishi o‘quvchilarda mavzuni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali individual ta’limni tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishga sharoit yaratadi. Bunday yondashuv matematika fanida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq raqamli resurslardan foydalanish faqat didaktik jihatdan emas, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham puxta o‘ylangan bo‘lishi lozim.

Axborot xavfsizligi tushunchasi va uning ta’limdagi ahamiyati. Axborot xavfsizligi- bu axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta’minlashga qaratilgan texnik va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir. Ta’lim jarayonida axborot xavfsizligi o‘quvchilarning shaxsiy

ma’lumotlarini himoya qilish, raqamli platformalardan xavfsiz foydalanishni ta’minlash va zararli kontentdan himoyalanishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda internet tarmog‘ida turli xil tahdidlar mavjud bo‘lib, ular orasida phishing hujumlari, zararli dasturlar (viruslar, trojanlar), ruxsatsiz kirish va ma’lumotlarni o‘g‘irlash kabi holatlar keng tarqalgan. O‘quvchilar ko‘pincha yetarli bilimga ega bo‘lmagani sababli bunday tahdidlarga osongina duch kelishi mumkin.
Shu sababli ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo‘yicha asosiy tushunchalarni o‘rgatish, o‘quvchilarda xavfsiz internet foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kiber gigiyena va uning asosiy tamoyillari. Kiber gigiyena - bu raqamli muhitda xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish qoidalari majmui bo‘lib, u foydalanuvchini kiber tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Kiber gigiyena qoidalariga rioya qilish foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va raqamli xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.
Asosiy kiber gigiyena qoidalari quyidagilardan iborat:
kuchli va murakkab parollardan foydalanish;
shubhali havola va fayllarni ochmaslik;
ishonchli platformalardan foydalanish;
antivirus dasturlarini muntazam yangilab borish;
shaxsiy ma’lumotlarni internetda oshkor qilmaslik.
Matematika darslarida ushbu qoidalarni o‘quvchilarga amaliy misollar orqali tushuntirish samarali natija beradi. Masalan, onlayn platformalarda topshiriqlar bajarish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, login va parollarni himoya qilish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.
Matematika darslarida raqamli xavfsizlikni ta’minlash usullari. Matematika darslarida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash uchun bir qator pedagogik va texnik yondashuvlar qo‘llaniladi. Jumladan:
o‘quvchilarga faqat ishonchli va tasdiqlangan ta’lim platformalaridan foydalanishni o‘rgatish;
sinfda yagona nazorat ostidagi hisob qaydnomalarini yaratish;
raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqish;
muntazam ravishda kiber gigiyena bo‘yicha trening va suhbatlar o‘tkazish;
ota-onalar bilan hamkorlikda nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish.

Bunday yondashuvlar nafaqat xavfsizlikni ta’minlaydi, balki o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni ham rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim va xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Raqamli ta’lim va axborot xavfsizligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirsa-da, xavfsizlik choralari yetarli bo‘lmasa, bu jarayon salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida raqamli savodxonlik bilan bir qatorda xavfsizlik kompetensiyalarini ham rivojlantirish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim tizimida muvaffaqiyatga erishgan davlatlar o‘quv dasturlariga axborot xavfsizligi va kiber gigiyena bo‘yicha maxsus modullarni kiritgan. Bu esa o‘quvchilarning raqamli muhitda ongli va xavfsiz harakat qilishini ta’minlaydi.

XULOSA. Mazkur maqolada matematika darslarida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligi va kiber gigiyena masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim resurslari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda matematik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishda muhim didaktik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli muhitdan foydalanish jarayonida turli axborot xavflari - shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, zararli dasturlar, fishing hujumlari va ishonchsiz axborot manbalari kabi

muammolar yuzaga kelishi mumkinligi aniqlandi. Bu holat ta’lim jarayonida axborot xavfsizligi va kiber gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini yanada dolzarb qilib qo‘yadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda raqamli savodxonlik bilan bir qatorda xavfsiz internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish, kuchli parollar yaratish, ishonchli platformalardan foydalanish hamda shubhali axborot manbalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu esa ularning nafaqat ta’lim jarayonidagi faoliyatini, balki umumiy raqamli xavfsizligini ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida raqamli ta’lim resurslaridan samarali va xavfsiz foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda axborot xavfsizligi va kiber gigiyena madaniyatini shakllantirishni ham talab etadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘un holda rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2020–2025.
3. UNESCO. ICT in Education: A Policy Toolkit. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
4. Anderson, R. Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems. – Wiley, 2020.
5. Stallings, W. Cryptography and Network Security: Principles and Practice. – Pearson, 2017.
6. EU Cybersecurity Agency (ENISA). Cyber Hygiene Basics. – 2022.
7. Becta. Digital Learning Resources in Mathematics Education. – London, 2019.
8. Kalinina, T. Digital Education and Information Security in Schools. – Moscow, 2021.
9. O‘zbekistonda raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar. – Toshkent, 2022–2024.
10. Internet xavfsizligi va kiber gigiyena bo‘yicha metodik tavsiyalar to‘plami. – Toshkent: RTM, 2023.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI INTELEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Matmurodov A.K

CHDPU Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash ko‘p tizimi bosqichli va qo‘p parametrli (ko‘rsatkichli) bog‘liqlarga ega bo‘lgan murakkab dinamik tizimdan iborat ekanligi sababli mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda tadqiqot jarayonining mantiqiy ketma-ketligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab olishga to‘g‘ri keladi va bu bilan tadqiqotning mukammalligiga erishiladi. Shu sababli mazkur tadqiqot ishidagi ishlab chiqiladigan metodika uchun mantiqiy ketma-ketlikni ilmiy-metodik jihatdan asoslab olish zarur bo‘ldi. Buni biz quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirdik:

1.Qaralayotgan metodikani ishlab chiqishga oid imkoniyatlarning mavjudligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab olish. Buning uchun **birinchidan**, bo‘lajak o‘qituvchilar tahsil olayotgan oliy o‘quv yurtidagi quyidagi jihatlarga e’tibor berildi: mehnat ta’limiga oid mashg‘ulotlarni olib borishga moddiy-texnika bazaning yetarliligi, **ikkinchidan**, bo‘lajak o‘qituvchilar tahsil olayotgan kafedrada (fakultetda) professor-o‘qituvchilarning intellektual salohiyati, **uchinchidan**, tadqiqot olib boriladigan oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilarining intel-lektuallashtirilgan ta’lim g‘oyalari bilan sug‘orilaganligi, **to‘rtinchidan,** ta’limni intellektuallashtirish bosqichlariga oid didaktik va spravochnik materiallar hamda intellektual axborotlar muhiti tayyorlanganligi, **beshinchidan**, intellektuallashtirlgan ta’limni amalga oshirishga innovatsion dastur ishlab chiqilganliklari ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olinadi.

2. O‘rganiladigan mavzu matnining tarkibiy qismlarini shakl-lantirib olish. Bunda mavzu matnini bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual faoliyatga tayyorlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari (mazkur tadqiqotning 1.1-qismiga qarang)ni aniqlab olindi va u bo‘yicha mavzu matniga mos bo‘lgan quyidagi tarkibiy qismlar e’tiborga olinadi: mavzuni matni bayonining mantiqiy ketma-ketligi; mavzu bo‘yicha mustahkam esda saqlab qolinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar: mavzu o‘zlashtirilishini nazorat qiluvchi savollar; mavzu bo‘yicha amaliy topshiriqlar va mashqlar. Bunda mavzu matnining mantiqiy ketma-ketligiga mavzuni o‘zlashtirili-shini nazorat qiluvchi savollarga mos kelishi kerakligini unutmaslik kerak, chunki bu orqali bo‘lajak o‘qituvchidagi mavzuga mos bilimlar shakllanganligi aniqlanadi va baholanadi.

Shuningdek, mavzni bo‘yicha tayyorlangan mavzu bo‘yicha mustahkam esda saqlab qolinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarga mavzu bo‘yicha amaliy topshiriqlar va mashqlar to‘g‘ri kelishi kerak. Bunga sabab amaliy topshiriqlar negizida bo‘lajak o‘qituvchidagi ko‘nikma va mashqlar bo‘yicha ulardagi shakillangan malakani aniqlash va baholash rejalashtirilgan.

3. O‘rganiladigan mavzu bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchini **intellektual qobilyatini rivojlantirish** uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish. Mazkur innovatsion metodika uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish shart, chunki agar u bo‘lmasa an’anaviy ta’lim jarayonini intellektuallashtirib bo‘lmaydi, shuningdek, intellektuallashtirilgan bilim, ko‘nikma malakalarni shakllantirib ham bo‘lmaydi va tabiyki, bo‘lajak o‘qituvchini ham

intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlab bo‘lmaydi.

4. Shakllantirilgan ma’lumotlar bazasidan intellektual-lashtirilgan ta’lim jarayonini amaliyotga joriy etishda foydalanish.

Ma’lumki, ma’lumotlar bazasi didaktik va spravochnik ma’lumotlar hamda intellektual axborotlar muhitlari negizida shakllantirilgan. Ulardan ta’limni integratsiyalashda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchini intellektual faoliyatga tayyorlashga oid ta’lim mazmunini ishlab chiqishda to‘liq yoritilgan. Bunda ta’lim jarayonini intellektuallashtirishda va unga mos intellektuallashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda intellektual resurs, intellektual salohiyat, intellektual faoliyat va intellektual faoliyatni tashkil etishga moslab tayyorlangan ma’lumotlar majmuidan qachon va qanday foydalanishlarga kuchli e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Bu borada ta’limni intellektuallashtirishda spravochnik materiallardan tayyor ma’lumot sifatida, didaktik materiallardan ta’lim mazmunini yana mukammallashtirish maqsadida, intellektual axborotlar muhitidan esa mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashuvni ta’minlashda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuninngdek, intellektuallashtirilgan ta’lim mazmunini shakllantirishda an’anaviy ta’lim mazmuni, spravochnik va didaktik materiallar hamda intellektual axborotlar muhitini organik birlikda qarash kerak.

5. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchini **intellektual qobilyatini rivojlantirish**ga tayyorlash bosqichlariga mos integratsiyalanadigan ma’lumotlarni tanlash. Bunda asosan intellektual resurs(1-kurslar uchun), intellektual salohiyat (2-kurslar uchun), intellektual faoliyat (3-kurslar uchun) va intellektual faoliyatni tashkil etish (4-kurslar uchun) kabi bosqichlar mazmun-mohiyati va ularni shakllantirish maqsadlariga e’tibor qaratiladi. Birinchi bosqichda ko‘proq spravochnik ma’lumotlar (tayyor ta’rif, formula, mezon, tamoyil va shu kabilar)dan bevosita foydalansa, ikkinchi bosqichda ular ustiga intellektual salohiyatini tarkib toptirishga oid ma’lumotlar ham integratsiyalanib boriladi, hamda didaktik materiallardan aynan o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini to‘liq ochishga mos materiallar tanlab olinadi. Uchinchi bosqichda integratsiyalanadigan ma’lumotlar qamrovi yanada kengaytiriladi. Ya’ni, bunda bo‘lajak o‘qituvchining tafakkur qamrovi anchagina kengaygan bo‘ladi va metodik xarakterdagi fanlarni o‘rganishga ham kirishgan bo‘ladi. Ularda endi intellektual axborotlar majmuidan foydalanishni ham yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi. Va nihoyat oxirgi to‘rtinchi bosqichda integratsiyalash jarayonini bevosita bo‘lajak o‘qituvchi bilan birga olib borgan ma’qul. Bunga sabab ular endi kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lmoqda. Shu sababli bu bosqichda ko‘proq intellektual axborotlar muhitidan samarali foydalanish muammo yechimini mukammalligini ta’minlashda muhim fundamental asos bo‘ladi.

6. Integratsiyalangan ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun innovatsion dastur tayyorlash**.** Albatta, an’anaviy ta’lim dasturi bilan intellektuallashtirilgan ta’lim mazmuni bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini zamonaviy talablar darajasida olib borib bo‘lmaydi. Shu sababli ular uchun innovatsion dastur (ularga mos metodik tavsiyanoma yoki yo‘riqnoma bilan) ishlab chiqiladi. Ushbu dasturning natijadorligini mukammallashtirish maqsadida tajriba-sinov ishlari dasturida ham ularga e’tibor qaratildi.

7. Innovatsion dasturga mos innovatsion metod yoki texnologiyalarni tayyorlash.Bunda eng avvalo, innovatsion dasturga mos keladigan innovatsion metod yoki texnologiya tanlanadi. Agarda innovatsion dasturni amaliyotga joriy etishga mos innovatsion metod yoki texnologiya mavjud bo‘lmasa, u holda yangi ishlanma qilishga to‘g‘ri keladi. Olib borayotgan tadqiqotimizda ham yangi ishlanmalar qilishga to‘g‘ri keldi. Biz ularni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirdik:

-bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual qobilyatlarini shakllantirishning “Ta’lim sifati sari” texnologiyasiga asoslangan innovatsion metodikasini ishlab chiqish

-bo‘lajak o‘qituvchini intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorgarligini aniqlash va baholashning dinamik tizimini ishlab chiqish

-bo‘lajak o‘qituvchining intellektual qobilyatlarini shakllantirishning axborotli texnologiyasini ya’ni “intellekt” nomli ko‘makchi kompyuterli tizim ishlab chiqish

-bo‘lajak o‘qituvchini intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlashning “ Dinamik tizim” nomli axborotli texnologiyasini ishlab chiqish.

8. Integrativ-innovatsion ta’lim jarayonini tashkil etish. Ushbu ta’lim jarayonining o‘zi ham o‘ziga xos intellektual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli ham biz bu muammoni hal etishda bir necha tarkibiy qismlarni organik birlikda qaradik va uni tashkil etishga majmuaviy yondashdik , ya’ni ularni an’anaviy ta’lim mazmuni va unga singdiriladigan ma’lumotlar bazasi negizidagi ta’limni amalga oshiruvchi innovatsion dastur hamda ularga mos innovatsion metod yoki texnologiyadan majmuaviy foydalanishga erishdik. Bular qo‘yilgan muammoning zamonaviy va mukammal yechimini topishda fundamental asosi ham bo‘la oldi.

9. Ma’ruza darslardagi mavzularni o‘rganishga innovatsion-integrativ yondashuv.Ishlab chiqilgan innovatsion-integrativ yondashuvdan amaliyotda foydalanishda o‘rganilayotgan mavzuning xarakteriga e’tibor berilishi kerak bo‘ladi. Ma’ruza darslarini o‘rganishda eng avvalo intellektuallashtirilgan ta’lim uchun tayyorlangan ma’lumotlar bazasidan va ko‘proq vertual stendlardanyoki kompyuterli dasturlar yordamida tayyorlangan slaydlar, videokonferensiyalar uchun tayyorlangan materiallardan, intellektuallashtirilgan texnologik xaritalar kabilardan samarali foydalanishga erishish kerak bo‘ladi. Bunda ko‘proq bo‘lajak o‘qituvchilar intellektuallashtirilgan bilimlarini mustahkam egallashi asosiy e’tiborda bo‘lishi kerak, chunki ushbu holat intellektuallashtirilgan ko‘nikma va malakalarni egallashga muhim propedevtik-didaktik asos bo‘ladi.

10. Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini uyushtirishga innovatsion-integrativ yondashuv.Seminar yoki laboratoriya darslarida amaliy topshiriqlar va mashqlar hal etilib, ularda o‘rganilayotganmavzularga mos ma’ruzadarslari asos qilinib olinadi va intellektuallashtirilgan ko‘nikma hamda malaka asosiy diqqat markazimizda bo‘ladi. Bunda amaliy topshiriqlar va mashqlarni bajarishda ma’lumotlar bazasidan (spravochnik va didaktik materiallar hamda intellektual axborotlar muhitidan), immitatsion vertual trenajyorlardan, kompyuterli trenajyorlardan foydalangan holdagi trening darslaridan, shuningdek, interfaol mashg‘ulotlardan samarali foydalanish dars samaradorligini kaforlatlashlarga intellektual asos bo‘la oladi.

11. Inttellektuallashtirilgan bilimni shakllantirish. Bunda an’anaviy ta’lim jarayoni tadqiqot obyekti hisoblanib, uni intellektuallashtirishga mos ta’lim jarayonining tarkibiy qismlariga ajratib olamiz va mavzu matni uchun ma’lumotlar bazasidan ta’limni intellektuallashtirishga mos ma’lumotlarni integratsiyalab olamiz. Hosil bo‘lgan integratsiyalangan (yangilangan) ta’lim mazmunidan integrativ-innovatsion ta’lim jarayonida foydalanamiz. O‘rganilayotgan mavzuni o‘rganishning mantiqiy ketma-ketligi va mavzuni o‘zlashtirilganligini nazorat qilish uchun savollar negizida bo‘lajak o‘qituvchilardagi intelektuallashtirilgan bilimlar shakllanadi.

12. Intellektuallashtirilgan ko‘nikma va malakani shakllantirish. Ishlab chiqilgan “Intelektual rivojlanish” texnologiyasiga asoslangan bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektuallashtirilgan ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni quyidagicha ifodalab oldik.

Adabiyotlar

1. O‘z bekiston Respublikasi Prezdentining 2023-yil 11-sentabdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.
2. Axmedova M.E, Nurmatova Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobilyatlari O‘ZMU xabarlari. Toshkent 2020
3. Лузина А.М. Понимание как духовный опыт. - Псков: Изд-во ПГПИ, 1997. – 168 с. 4. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Междунар. гуманитар. фонд "Знание", 1996. - 308 с.
4. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta’limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2005. – 140 b.
5. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 173 b
6. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagog mahoratini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari. — Toshkent: Fan, 2016.
7. Has anboyeva O‘. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
8. Azi zxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

ORTOGONAL TO‘LDIRUVCHILARNI AMALIYOTGA TADQIQLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Taymanova Elnora Lutfullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

Mamadquliyeva Risolat Ixtiyor qizi

Annatatsiya. Ortogonal to’ldiruvchi tushunchasi matematikada va chiziqli algebrada vektorlar orasidagi aloqani ifodalaydi . Ikki vertor ortogonal bo’lishi uchun ularning ichki ko’paytmasi nolga teng bo’lishi kerak . Bu tushuncha ko’p o’lchovli fazolarda ham qo’llaniladi , masalan , uch o’lchovli fazoda x, y , z o‘qalari bir-biriga nisbatan ortogonaldir.

Kalit so‘zlar: ortogonal to‘ldiruvchi, matritsa, sun’iy intellekt, Yevklid fazosi, ortogonal va ortonormal bazis, ortogonal to‘ldiruvchi, ortogonal proyeksiya.

Аннотация. Понятие ортогонального дополнения описывает связь между векторами в математике и линейной алгебре. Чтобы два вектора были ортогональными, их внутреннее произведение должно быть равно нулю. Это понятие применимо и к многомерным пространствам, например, в трехмерном пространстве оси x, y, z ортогональны друг относительно друга.

Ключевые слова: ортогональное дополнение, матрица, искусственный интеллект, евклидово пространство, ортогональный и ортонормальный базис, ортогональное дополнение, ортогональная проекция.

Abstract. The concept of orthogonal complement describes the relationship between vectors in mathematics and linear algebra. For two vectors to be orthogonal, their internal product must be equal to zero. This concept is applicable to multi-dimensional spaces as well; for example, in a three-dimensional space, the x, y, and z axes are orthogonal to each other.

Keywords: orthogonal complement, matrix, artificial intelligence, Euclidean space, orthogonal and orthonormal basis, orthogonal complement, orthogonal projection.

Ortogonal to’ldiruvchilardan foydalanish orqali vektorlarni mustaqil komponentlarga ajratish yoki yechimlar topishda foydalanish mumkin. Masalan, ortogonal matritsalar bir xillikni (orthonormal) saqlab , aylanani ifodalaydi. Bu, shunungdek, ma’lumotlarni dekompozitsiya qilish, masalan, QR yoki SVD dekompozitsiyalarida ham qo’llaniladi.(QR va SVD dekompozitsiya -bu matritsani boshqa sodda matritsalar ko’paytmasiga ajratish usullari . Bu usullar chiziqli algebra , statistika va kompyuter hisoblashlarida juda ko’p ishlatiladi.QR-ikki matritsa ko’paytmasiga ajratish. SVD- uch matritsaga ajratish usuli). Hozirgi zamon ilm-fani va texnologiyalarida matematik tushunchalar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy hayotda ham katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, chiziqli algebra sohasiga oid ortogonal to‘ldiruvchi va ortonormal proyeksiya tushunchalari murakkab jarayonlarni soddalashtirish, ma’lumotlarni tartibga solish hamda muhim va keraksiz qismlarni ajratishda muhim vosita hisoblanadi. Bu tushunchalar yordamida turli sohalarda — fizika, informatika, iqtisod va muhandislikda — samarali yechimlar topish mumkin. Shu sababli ularni nafaqat nazariy o‘rganish, balki hayotdagi qo‘llanilishini tushunish ham muhimdir.Ortogonal to‘ldiruvchi va ortonormal proyeksiya tushunchalari kundalik hayotda ko‘plab jarayonlarning asosida yotadi. Eng avvalo, bu

tushunchalar ma’lumotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladi. Masalan, turli qurilmalarda yozilgan audio yoki video fayllarda foydali signalni shovqindan ajratish zarur bo‘ladi. Bunda ortonormal proyeksiya yordamida kerakli signal ajratib olinadi, ortogonal to‘ldiruvchi esa keraksiz shovqin qismini ifodalaydi.

Shuningdek, sun’iy intellekt tizimlarida ham ushbu tushunchalar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yuzni tanish yoki ovozni aniqlash dasturlarida tizim eng muhim belgilarni ajratib oladi va ortiqcha ma’lumotlarni e’tibordan chetda qoldiradi. Bu esa ortogonal ajratish prinsipiga asoslanadi. Natijada tizim tezroq va aniqroq ishlaydi.

Fizikada esa kuchlarni o‘zaro tik yo‘nalishlarga ajratish jarayoni ortonormal proyeksiyaga asoslanadi. Masalan, qiya tekislikda harakatlanayotgan jismga ta’sir etuvchi kuchlar ikki yo‘nalishga ajratilib, ularning har biri alohida tahlil qilinadi. Bu usul hisob-kitoblarni ancha soddalashtiradi.

Bundan tashqari, kompyuter grafikasi va o‘yinlar yaratishda ham proyeksiya muhim ahamiyatga ega. Uch o‘lchamli obyektlar ikki o‘lchamli ekranga aynan proyeksiya yordamida chiqariladi. Bu esa foydalanuvchiga realistik tasvirni ko‘rish imkonini beradi.

Iqtisodiyot va statistika sohalarida esa ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda ortonormal proyeksiya qo‘llaniladi. Masalan, ma’lum bir ko‘rsatkichlar asosida eng mos modelni tanlash jarayoni aynan shu usul orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, ortogonal to‘ldiruvchi va ortonormal proyeksiya tushunchalari murakkab tizimlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni tozalash va eng muhim qismlarini ajratib olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ular zamonaviy texnologiyalar va kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan.

1**.Ta’rif**. Bizga V fazoning qandaydir U qism fazosi berilgan bo‘lsin. Agar x ∈ V vektor U qism fazoning ixtiyoriy vektoriga ortogonal bo‘lsa, u holda x vektor U qism fazoga ortogonal deyiladi. Ravshanki, agar x vektor $e_1, e_2, \dots, e_n$vektorlarga ortogonal bo‘lsa, u holda x bu vektorlarning istalgan chiziqli kombinatsiyasiga ham ortogonal bo‘ladi. Haqiqatan ham, $(x, e_i) = 0 \quad 1 \le i \le n$ ekanligidan

$(x, \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_n e_n)$

bo‘lishi osongina kelib chiqadi. Shuning uchun berilgan x vektor U qism fazoga ortogonal bo‘lishi uchun uning bazis vektorlarga ortogonal bo‘lishi zarur va yetarli. Berilgan U qism fazoga ortogonal bo‘lgan vektorlardan tuzilgan to‘plam esa U kabi belgilanadi, ya’ni U⊥ ={x∈V |(x,y) =0, ∀y ∈U}. Ushbu U⊥ to‘plam ham V fazoning qism fazosi bo‘lishini tekshirish qiyin emas.

2.**Ta’rif**. Agar $Z \in V$ vektorni $= x + y \; x \in U$, y ∈ U⊥ ko‘rinishida ifodalangan bo‘lsa, u holda x vektor z vektorning ortogonal proyeksiyasi y esa ortogonal to‘ldiruvchisi deyiladi.

Quyidagi teoremada ortogonal proyeksiya va ortogonal to‘ldiruvchi har doim mavjud va yagona ekanligini ko‘rsatamiz.

1-**Teorema**. Chekli o‘lchamli Yevklid fazosi ixtiyoriy z elementining U qism fazoga ortogonal proyeksiyasi va ortogonal to‘ldiruvchisi mavjud va yagona.

Isbot**.** Aytaylik, $dimU = n$ bo‘lib, U qism fazoning bazisi $e_1, e_2, \dots, e_n$bo‘lsin. U holda x ∈ U ortogonal proyeksiyani$x = \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_n e_n$ ko‘rinishida izlaymiz. Ushbu z−x vektor qism fazoga ortogonal bo‘lishi uchun, uning bazis vektorlarga ortogonal bo‘lishi zarur va yetarli ekanligidan

$$(z - x, e_{i)} \; 1 \le i \le n$$

tengliklarga ega bo‘lamiz, ya’ni

$$(z, e_i) = (\alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_n e_n) \qquad 1 \le i \le n\,.$$

Bu tengliklardan ko‘rinadiki, ortogonal proyeksiyani topish masalasi biror bazisda $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$ noma’lumlarga nisbatan quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini yechish masalasiga keltiriladi:

$$\begin{cases} \alpha_1(e_1, e_1) + \alpha_2(e_2, e_1) + \cdots \alpha_n(e_n, e_1) = (z, e_1) \\ \alpha_1(e_1, e_1) + \alpha_2(e_2, e_2) + \cdots + \alpha_n(e_n, e_2) = (z, e_2) \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \alpha_1(e_1, e_n) + \alpha_2(e_2, e_n) + \cdots + \alpha_n(e_n, e_n) = (z, e_n) \end{cases} \quad (6.4)$$

Ixtiyoriy n-o‘lchamli fazoda ortonormal bazis mavjud ekanligidan foydalanib, $e_1, e_2, \dots, e_n$ bazisni ortonormal deb faraz qilishimiz mumkin. U holda (6.4) sistemaning yechimi $\alpha_i = (z, e_i), 1 \le i \le n$ ko‘rinishida bo‘ladi. Demak,

$$x = \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_n e_n$$

ortogonal proyeksiya mavjud. Bundan esa, $y = z - x$ ortogonal to‘ldiruvchining mavjudligi ham kelib chiqadi. Endi ortogonal proyeksiya va ortogonal to‘ldiruvchining yagona ekanligini isbotlaymiz. Buning uchun teskarisini faraz qilamiz, ya’ni $z = x + y \; va \; z = x' + y'$ va tengliklarni qanoatlantiruvchi $x, x' \in U$ va $y, y' \in$ U⊥ vektorlar mavjud bo‘lsin. U holda $x - x' = y - y'$ ekanligidan

$$(x - x', x - x') = (y' - y, x - x') = (y', x) - (y, x) - (y', x') + (y, x') = 0$$

tenglikni, bundan esa ,$x = x', y = y'$ bo‘lishini hosil qilamiz. Ushbu teoremadan V Yevklid fazosi U va U⊥ qism fazolarning to‘g‘ri yig‘indisi shaklida V = U ⊕ U⊥ kabi ifodalanishi kelib chiqadi. Ta’kidlash joizki, yuqoridagi tasdiqning isbotida biz $e_1, e_2, \dots, e_n$ ortonormal bazisdan foydalandik. Umuman olganda, U fazoning ixti yoriy bazisi uchun ham ortogonal to‘ldiruvchi va ortogonal proyeksiyani topish mumkin.

Chunki, (6.4) sistemaning asosiy determinanti

$$G = \begin{vmatrix} (e_1, e_1) & (e_2, e_1), \dots (e_n, e_1) \\ (e_1, e_2) & (e_2, e_2), \dots (e_n, e_2) \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ (e_1, e_n) & (e_2, e_n), \dots (e_n, e_n) \end{vmatrix} \quad (6.5)$$

(6.5) ko‘rinishida bo‘lib, sistemaning yagona yechimga ega bo‘lishi ushbu determinantga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu determinant Gram determinanti deb atalib, uning nolga teng bo‘lishi haqidagi xossani esa quyidagi tas diqda keltiramiz.

1-tasdiq. Berilgan $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlardan tuzilgan Gram determinanti nolga teng bo‘lishi uchun ushbu vektorlarning chiziqli bog‘liq bo‘lshi zarur va yetarli.

Isbot. Zaruriyligi. Faraz qilaylik, G Gram deeterminanti nolga teng bo‘lsin. U holda ushbu determinant satrlarining biri qolganlari orqali chiziqli ifodalanadi. Umumiylikka ziyon yetkazmagan holda determinant oxirgi satrini qolganlari orqali chiziqli ifodalanadi deb olish mumkin. Demak, shunday $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_{n-1}$ sonlari topilib,

$$(e_i, e_n) = \alpha_1(e_i, e_1) + \alpha_2(e_i, e_2) + \cdots + \alpha_{n-1}(e_i, e_{n-1}) \;\; 1 \le i \le n$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi. Ushbu tengliklardan esa,

$$(e_i, e_n - \alpha_1 e_1 - \alpha_2 e_2 - \cdots - \alpha_{n-1} e_{n-1}) = 0, 1 \le \mathrm{i} \le n$$

tengliklarni hosil qilib, ularni mos ravishda $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_{n-1}$ sonlariga ko‘paytirib, oxirgi tenglikdan ayirsak,

$$(e_n - \alpha_1 e_1 - \alpha_2 e_2 - \cdots - \alpha_{n-1} e_{n-1}, e_n - \alpha_1 e_1 - \alpha_2 e_2 - \cdots - \alpha_{n-1} e_{n-1}) = 0$$

munosabatga ega bo‘lamiz. Bundan esa

$e_n = \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_{n-1} e_{n-1}$ekanligi kelib chiqadi. Ya’ni $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlar chiziqli bog‘liq. Yetarliligi. Endi tasdiqnining teskarisi o‘rinli ekanligini ko‘rsatamiz. Faraz

qilaylik, $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlar chiziqli bog‘liq bo‘lsin. U holda umumiylikka ziyon yetkazmagan holda en vektor qolgan vektorlar orqali $e_n = \alpha_1 e_1 + \alpha_2 e_2 + \cdots + \alpha_{n-1} e_{n-1}$ kabi ifodalanadi. Agar G determinantning i-satrini α_i soniga ko‘paytirib oxirgi satridan ayirsak, u holda oxirgi satr elementlari $(e_j, e_n - \alpha_1 e_1 - \alpha_2 e_2 - \cdots - \alpha_{n-1} e_{n-1})$ ko‘rinishiga keladi. Bu esa determiantning oxirgi satr elementlari nollardan iborat bo‘lib qol ishini bildiradi. Demak, determinantning qiymati ham nolga teng.

Endi bu mavzuga xos misol ishlab ko’ramiz:

Biz avvalo bu mavzudan keyingi mavzu misollarini ishlash uchun ham ortogonal va ortonarmal bazisdan foydalanamiz. Shuning uchun bu mavzuni to’liq o’rganish lozim.Endi Ortogonal va Ortonarmal bazis yordamida boshqacharoq misol ishlab ko’ramiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ortogonal to‘ldiruvchi va ortonormal proyeksiya tushunchalari chiziqli algebra doirasida muhim nazariy asos bo‘lishi bilan birga, amaliy hayotda ham keng qo‘llaniladi. Ular yordamida murakkab jarayonlarni soddalashtirish, ma’lumotlarni tartibga solish va eng muhim qismlarini ajratib olish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, fizika, iqtisod va kompyuter grafikasi kabi sohalarda bu tushunchalar samarali yechimlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, bu tushunchalar inson faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni asosiy maqsadga e’tibor qaratish va ortiqcha, chalg‘ituvchi omillarni chetga surish g‘oyasini anglatadi. Natijada, ortogonal to‘ldiruvchi va ortonormal proyeksiya nafaqat matematik tushuncha, balki hayotiy fikrlash usuli sifatida ham qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 1.X o‘jayev N., Abdullayev A. Chiziqli algebra va analitik geometriya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
2. Sho dmonov T., Ismoilov R. Oliy matematika. I qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Gan tmacher F.R. The Theory of Matrices. – Moscow: Nauka, 2015.
4. Kol mogorov A.N., Fomin S.V. Elementi teorii funktsiy i funktsionalnogo analiza. – Moskva: Nauka, 2014.
5. Stra ng G. Linear Algebra and Its Applications. – 5th Edition. – Boston: Cengage Learning, 2016.
6. Lay D.C., Lay S.R., McDonald J.J. Linear Algebra and Its Applications. – 6th Edition. – Pearson, 2021.

METRIK FAZOLARDA QISQARTIRIB AKSLANTIRISH PRINSIPI (BANAX TEOREMASI)NI ANIMATSIYALAR ORQALI VIZUALLASHTIRISH VA UNING TATBIQLARI

Aktamov Feruz

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'razbayeva Nilufar, Ahmadjanova E'zoza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada funksional analizning fundamental natijalaridan biri — metrik fazolarda qisqartirib akslantirish prinsipi (Banaxning qo'zg'almas nuqta haqidagi teoremasi)ni o'qitishda raqamli animatsiyalardan foydalanish metodikasi tadqiq etilgan. Muallif chiziqli va qo'shma fazolardagi ketma-ket yaqinlashishlar hamda qo'zg'almas nuqtaning mavjudligi va yagonaligi jarayonini interaktiv vizuallashtirish (Python-Manim, GeoGebra) vositalari orqali ko'rsatish afzalliklarini asoslab beradi. Shuningdek, teoremadagi siqilish koeffitsientining geometrik ma'nosi va ushbu prinsipning differensial hamda integral tenglamalarni yechishdagi amaliy tatbiqlarini vizual-didaktik modellar yordamida talabalarga yetkazish algoritmlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: metrik fazo, qisqartirib akslantirish prinsipi, Banax teoremasi, qo'zg'almas nuqta, raqamli animatsiya, vizuallashtirish, interaktiv didaktika, ketma-ket yaqinlashishlar usuli.

Аннотация. В данной статье исследуется методика использования цифровой анимации при обучении одному из фундаментальных результатов функционального анализа — принципу сжимающих отображений в метрических пространствах (теореме Банаха о неподвижной точке). Автор обосновывает преимущества демонстрации процессов последовательных приближений в линейных и сопряженных пространствах, а также существования и единственности неподвижной точки с помощью инструментов интерактивной визуализации (Python-Manim, GeoGebra). Также предложены алгоритмы донесения до студентов геометрического смысла коэффициента сжатия и практических приложений данного принципа к решению дифференциальных и интегральных уравнений с использованием визуально-дидактических моделей.

Ключевые слова: метрическое пространство, принцип сжимающих отображений, теорема Банаха, неподвижная точка, цифровая анимация, визуализация, интерактивная дидактика, метод последовательных приближений.

Abstract. This article explores the methodology of using digital animations in teaching one of the fundamental results of functional analysis — the contraction mapping principle in metric spaces (Banach fixed-point theorem). The author substantiates the advantages of demonstrating the processes of successive approximations in linear and dual spaces, as well as the existence and uniqueness of a fixed point through interactive visualization tools (Python-Manim, GeoGebra). Furthermore, algorithms are proposed for conveying the geometric meaning of the contraction coefficient and the practical applications of this principle in solving differential and integral equations to students using visual-didactic models.

Keywords: metric space, contraction mapping principle, Banach theorem, fixed point, digital animation, visualization, interactive didactics, method of successive approximations.

Funksional analiz kursining eng jozibador va amaliy hisoblangan bo‘limlaridan biri bu shubhasiz metrik fazolarda qisqartirib akslantirish prinsipi, ya’ni matematiklar orasida Banaxning qo‘zg‘almas nuqta haqidagi teoremasi deb nomlanuvchi fundamental qonuniyatdir. Ushbu prinsip o‘zining sodda va mukammal mantiqiy tuzilishi bilan ajralib tursa-da, uni talabalarga an’anaviy dars berish uslubida, ya’ni faqat analitik tengsizliklar va quruq algebraik shakl almashtirishlar orqali tushuntirish ko‘pincha kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Agarda biz ushbu mavhum g‘oyani raqamli didaktika va dinamik animatsiyalar orqali vizuallashtirsak, dars jarayoni mutlaqo yangi bosqichga ko‘tariladi, chunki inson miyasi funksiyaning o‘z-o‘ziga qayta-qayta akslanish (iteratsiya) dinamikasini harakatdagi tasvirlarda ancha tez va chuqur qabul qiladi. Teoremaning mohiyatiga ko‘ra, to‘liq metrik fazoda aniqlangan ixtiyoriy siquvchi akslantirish faqat va faqat bitta qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘ladi va fazoning istalgan nuqtasidan boshlangan ketma-ket yaqinlashishlar zanjiri oxir-oqibat aynan shu nuqtaga borib taqaladi. Bu jarayonni vizuallashtirish uchun Python-Manim yoki GeoGebra muhitida tayyorlangan animatsion model juda qo‘l keladi. Tasavvur qiling, ekranda oddiy haqiqiy sonlar o‘qidagi ma’lum bir kesma aks ettirilgan va har bir bosqichda bu kesma o‘zining markaziga qarab ma’lum bir koeffitsient (masalan, $k = 0.5$) bilan qisqarib boradi. Animatsiyada ixtiyoriy tasodifiy nuqta tanlanadi va unga akslantirish operatori qayta-qayta qo‘llaniladi. Ekrandagi dinamik harakatda nuqtaning go‘yoki spiral simon yoki pog‘onali chiziqlar bo‘ylab sakrab, oxir-oqibat fazoning markazidagi yagona, o‘zgarmas nuqtaga borib yopishishi jonli ravishda ko‘rsatiladi. Bu tasvir talabada teoremadagi "qo‘zg‘almas nuqta" tushunchasining nafaqat mavhum tenglama yechimi, balki butun boshli fazoning tortishish markazi (attraktori) ekanligi haqida kuchli geometrik instinkt uyg‘otadi.

Ushbu prinsipning hayotiy va eng tushunarli amaliy misollaridan biri bu klassik "Xarita ichidagi xarita" paradoksidir. Darsda talabalarga vizual misol sifatida stol ustiga yoyilgan O‘zbekiston xaritasini va uning aynan ustiga tashlangan xuddi shu xaritaning kichraytirilgan nusxasini ko‘rsatish mumkin. Banax teoremasiga ko‘ra, bu ikki xaritada aynan bitta nuqta borki, u stol ustidagi real geografik koordinata bilan ham, kichik xaritadagi koordinata bilan ham mutlaqo bir xil nuqtada ustma-ust tushadi. Buni animatsiya yordamida ekranda kattalashtirish (zoom) effekti orqali ko‘rsatish mumkin: dastur kamerasi kichik xaritaning ichidagi yanada kichik xaritaga va shunday qilib cheksiz ravishda ichkariga qarab intiladi, yakunda esa cheksiz kichrayish zanjiri markazida yagona qo‘zg‘almas nuqta yonib ko‘rinadi. Yana bir qiziqarli vizual misol, siqilish koeffitsienti k ning birdan kichik bo‘lish shartining qanchalik majburiy ekanligini ko‘rsatish bilan bog‘liqdir. Agarda animatsiyada slayder yordamida siqilish koeffitsienti birdan katta qilib qo‘yilsa (ya’ni akslantirish siquvchi emas, balki cho‘zuvchi bo‘lsa), boshlang‘ich nuqtaning har bir iteratsiyada markazdan cheksiz uzoqlashib, fazodan otilib chiqib ketishi ko‘rsatiladi. Bu vizual kolliziya talabalarga nega aynan $k < 1$ sharti teoremaning yuragi ekanligini hech qanday formulalarsiz anglab yetishlariga xizmat qiladi.

Metrik fazolarda qisqartirib akslantirish prinsipining eng qudratli tomoni uning oliy matematika, differensial va integral tenglamalardagi amaliy tatbiqlaridir. Talabalar ko‘pincha differensial tenglamalar kursida Pikard teoremasini (ya’ni Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremani) shunchaki quruq isbot sifatida yodlashadi. Raqamli didaktika yordamida esa bu jarayonni uzluksiz funksiyalar fazosida haqiqiy laboratoriya ishiga aylantirish mumkin. Kompyuter ekranida integral operator ta’sirida ixtiyoriy silliq

bo‘lmagan boshlang‘ich egri chiziqning (funksiyaning) har bir iteratsiyada qanday qilib shaklan o‘zgarib, silliqlashib, oxir-oqibat differensial tenglamaning haqiqiy izlanayotgan yechim-grafigiga mukammal tarzda yaqinlashib borishi animatsiyada namoyish etiladi. Grafiklarning bir-biriga yaqinlashib, yagona traektoriyaga birlashishi jarayoni funksiyalar fazosidagi metrika tushunchasini jonlantiradi. Bu uslubiy yondashuv talabani faqat quruq hisob-kitob bilan shug‘ullanuvchi robot emas, balki matematik qonuniyatlarning fazoviy arxitekturasini tushunadigan, vizual va mantiqiy fikrlaydigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Undan tashqari, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini taqribiy yechishdagi oddiy iteratsiyalar usulining kompyuter algoritmlari qanday ishlashini ham ushbu siqilish dinamikasi orqali tushuntirish darsning ilmiy-amaliy qimmatini oshiradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Banax teoremasini animatsiyalar bilan integratsiya qilib o‘qitish mavhumlik va amaliyot o‘rtasidagi oltin ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Xulosa. Metrik fazolarda qisqartirib akslantirish prinsipi (Banaxning qo‘zg‘almas nuqta haqidagi teoremasi) va uning tatbiqlarini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda raqamli animatsiyalardan foydalanish metodikasi ta’lim sifatini oshirishning eng samarali qurollaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. An’anaviy ta’lim tizimidagi faqat analitik va algebraik isbotlarga asoslangan yondashuv talabalarda ushbu fundamental teoremaning dinamik tabiati va amaliy kuchi haqida yetarli tasavvur uyg‘ota olmaydi. Raqamli didaktika va interaktiv vizuallashtirish (Python-Manim, GeoGebra) vositalari esa mavhum operativ g‘oyalarni jonli va intuitiv tushunarli modellar ko‘rinishida taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadullayev, A., Mansurov, X., Xudayberganov, G., Vorisov, A., & Tuychiyev, R. (2021). Funksional analizdan ma’ruzalar va masalalar to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
2. Kreyszig, E. (1989). Introductory Functional Analysis with Applications. John Wiley & Sons. (Banaxning qo‘zg‘almas nuqta teoremasi va uning differensial tenglamalarga tatbiqlari bo‘yicha eng mukammal xalqaro manba).
3. Ayupov, Sh. A., Ibragimov, A. A., & Kudaybergenov, K. K. (2023). Zamonaviy funksional analiz va operatorlar nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan.
4. Hohenwarter, M., & Jones, K. (2022). Digital Didactics in Higher Mathematics: Using GeoGebra for Visualizing Abstract Spaces. International Journal for Technology in Mathematics Education, 29(3), 145-156.
5. Alimov, N. S. (2024). Oliy matematika darslarida raqamli didaktika va interaktiv vizuallashtirish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Pedagogika va Psixologiyada Innovatsiyalar, 7(2), 88-95.
6. Mukhammadiev, A. (2025). Application of Python Manim library in visualizing fixed-point theorems and contraction mappings. Uzbek Mathematical Journal, (2), 55-64.

7. Robert, A., & Rogalski, M. (2021). Problems in teaching functional analysis at the university level: An epistemological and didactical study. Educational Studies in Mathematics, 106(2), 211-230.
8. Picard, É. (2020). On successive approximations and their applications to differential equations (Reprint edition). Cambridge University Press.

MINKOVSKIY FAZOSI ELEMENTLARINI O‘QITISHDA SI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xolmurodov Samandar Dilmurod o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti


Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘tiladigan “Geometriya asoslari” fanidan o‘tiladigan Minkovskiy fazosi elementlarini o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geometriya asoslari, minkovskiy fazosi elementlari, minkovskiy tekisligi, to‘rt o‘lchovli fazo, abstrakt fazolarni o‘qitish.

KIRISH. Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarining matematika yo‘nalishida o‘qitiladigan “Geometriya asoslari” fanining yangicha tuzilmasida Minkovskiy fazosi deb nomlangan katta qism ajratilgan. Bu fan noyevklid geometriyasining ilmiy asosi sifatida paydo bo‘lgan. Shuningdek, geometriya fanining o‘zi qadimiy fan bo‘lib, to‘la shakllangan va maktab o‘quvchilari uchun birinchi ilmiy fan sifatida o‘qitiladigan dars hisoblanadi. Chunki maktab o‘quvchilari ilmiy tushunchalar bo‘lgan “aksioma”, “teorema”, “isbot” kabi tushunchalar bilan birinchi marta geometriya darslarida tanishadilar. Geometriya faniga xos bo‘lgan bu holat oliy o‘quv yurtlarida “Geometriya asoslari” faniga ham tegishlidir.

Bir inersial sanoq sistemasidan boshqasiga o‘tishda hodisaning koordinatalari va vaqtiga nisbatan Lorens almashtirishlarini, o‘qlarda uchta fazoviy koordinata hamda hodisa vaqti tasvirlanadigan to‘rt o‘lchovli fazo-vaqtdagi geometrik almashtirishlar sifatida qarash mumkin. Lorens almashtirishlarida fazoviy koordinatalar va vaqtning o‘zgarishi, shuningdek invariant kombinatsiyaning (ya’ni intervalning) mavjudligi fazo va vaqtni yagona to‘rt o‘lchovli ko‘pxillik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Lorens almashtirishlarining bunday geometrik interpretatsiyasi ilk bor nemis matematigi German Minkovskiy (Hermann Minkowski) tomonidan 1908-yilda taklif etilgan.

Agar koordinata o‘qlaridan biri (Ox o‘qi) K va K' sanoq sistemalarida sanoq sistemalarining nisbiy tezligi yo‘nalishi bo‘ylab tanlansa, u holda y va z koordinatalari Lorens almashtirishlarida o‘zgarmaydi. Shu sababli Lorens almashtirishlarini geometrik jihatdan talqin qilish uchun to‘rt o‘lchovli fazo-vaqtni emas, balki ikki o‘lchovli fazo-vaqt diagrammalarini (Minkovskiy diagrammalarini), ya’ni x, ct tekisligini (2-rasm) qarash kifoya qiladi. Muayyan bir hodisaga ushbu tekislikdagi koordinatalari (x, ct) bo‘lgan nuqta mos keladi va bu nuqta **olam nuqtasi** deb ataladi.



2-rasm. Minkovskiy diagrammasi va dunyo chiziqlari

Bitta zarracha bilan sodir bo‘ladigan hodisalar ketma-ketligiga Minkovskiy diagrammasida uzluksiz chiziq mos qo‘yiladi va bu chiziq **zarrachaning olam chizig‘i** deb ataladi. Ushbu chiziqning nuqtalari zarrachaning vaqtning barcha onlaridagi koordinatalarini belgilaydi. Masalan, agar zarracha Ox o‘qi bo‘ylab o‘ng tomonga doimiy $v$tezlik bilan harakat qilsa, uning Minkovskiy diagrammasidagi olam chizig‘i quyidagi tenglama bilan ifodalanuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘ladi:

$$x = vt$$

(2-rasmdagi 1-to‘g‘ri chiziq; bunda $t = 0$da zarracha $x = 0$nuqtada joylashgan deb faraz qilinadi). Notekis harakatlanuvchi zarrachaning olam chizig‘i egri ko‘rinishga ega bo‘ladi (2-rasmdagi 2-egri chiziq). Doimo koordinatalar boshida joylashgan tinch holatdagi zarrachaning olam chizig‘i esa vaqt o‘qidan iborat bo‘lib, uning tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$x = 0$$

Boshqacha aytganda, vaqt o‘qi koordinatalar boshining olam chizig‘ini ifodalaydi. Minkovskiy diagrammasidagi Ox o‘qida joylashgan nuqtalar to‘plami esa $t = 0$ da Ox o‘qining turli nuqtalarida sodir bo‘ladigan bir vaqtdagi hodisalar majmuasini tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Артикбаев А., Султанов Б.М., Исмоилов Ш.Ш. Геометрия полуевклидова пространство: изотропной и Галилеевой. Монография. – ТГТУ. – Ташкент. – 2023. – 249 стр.

2. Александров П. С. Что такое неэвклидова геометрия. Москва: УРСС, 2007.250 с.

3. Abdullah Kurudirek. Ta’lim jarayonida noyevklid geometriyasi elementlaridan foydalanish metodikasi // diss [avtoreferat]: p.f.f.d. (PhD), 13.00.02 – ixtisosligi asosida. V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti. – Toshkent. – 2022. – 34 b.

4. Бураго Ю.Д., Залгаллер В.А.. Введение в риманову геометрию. ИРАН.1994.

5. Лосева А.Ф., В.Ф. Асмуса. Платон. Сочинения в четырех томах. Т.3 ч-1. СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та; Издво Олега Абышко 2007.752 с.

6. Safarov N.T. “Geometriya asoslari” fanini o‘qitishni zamonaviy bilimlarni qo‘llash yo‘li bilan takomillashtirish // diss: p.f.f.d. (PhD). 13.00.02 – ixtisosligi asosida. – UzMU. – Toshkent. – 2025. – 50 b.

7. Narmanov A.Ya., Sharipov A.S. Geometriya asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Universitet. – Toshkent. – 2004. – 88 b.

SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Murtozaqulov Zafar

ChDPU Algebra va matematik analiz
kafedrasi katta o'qituvchisi

Misirova Masuma

Shamsidinova Dildora

Aniq fanlar fakulteti
Amaliy matematika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini umumiy o'rta va oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. ChatGPT, Google Gemini va boshqa yirik til modellaridan ta'limda foydalanishning asosiy imkoniyatlari, shu jumladan individuallashtirilgan o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash va interaktiv muloqot tizimlarining afzalliklari tahlil etiladi. Bundan tashqari, akademik halollik, algoritmik xolislik va raqamli tengsizlik kabi mavjud muammolar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, yirik til modellari, individuallashtirilgan o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash, akademik halollik.

KIRISH

XXI asrda sun'iy intellekt texnologiyalari insoniyat hayotining barcha sohalarini, jumladan ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirib yubormoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib mavjud kasblarning 85 foizi hozir mavjud bo'lmagan yangi ko'nikmalarni talab qiladi [1]. Bunday sharoitda ta'lim tizimi o'quvchilarni kelajak talablariga tayyorlash uchun innovatsion yondashuvlarni qabul qilishga majbur.

O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2023–2030-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida barcha ta'lim muassasalarini raqamlashtirish va zamonaviy AI vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish rejalashtirilgan [2]. Mazkur vaziyatda sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni va uning amaliy qo'llanilishini ilmiy jihatdan o'rganish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlari

Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari bir nechta asosiy yo'nalishda samarali qo'llanilmoqda:

1. **Individuallashtirilgan o'qitish.** AI tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati va qiziqishlarini tahlil qilib, unga mos o'quv materiallarini tavsiya etadi. Khan Academy, Duolingo va IXL kabi platformalar millionlab foydalanuvchi ma'lumotlari asosida optimal o'quv yo'lini shakllantirib beradi.
2. **Avtomatlashtirilgan baholash.** Yirik til modellari yozma ishlarni, insho va testlarni bir zumda

tahlil qilish va batafsil izoh berish imkoniyatiga ega. Bu o'qituvchilarga ma'muriy yuklarni kamaytirish va ijodiy pedagogik ish bilan ko'proq shug'ullanish imkonini beradi.

3. **Interaktiv muloqot va darhol fikr-mulohaza.** ChatGPT va Claude kabi modellar o'quvchi savollariga 24/7 javob berish, murakkab tushunchalarni turli usullarda tushuntirish va mashqlar berish imkonini taqdim etadi.

4. **Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun qo'llab-quvvatlash.** AI vositalari o'qish qiyinchiliklari (disleksiya, diqqat defitsiti) bo'lgan o'quvchilar uchun matnni ovozga aylantirish, soddalashtirilgan tushuntirishlar va vizual yordamchilar taqdim etishi mumkin.

2. Mavjud muammolar va cheklovlar

SI texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish bir qator jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, **akademik halollik** masalasi o'ta dolzarbdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasasi talabalarining 43 foizi mustaqil ishlarni bajarishda AI vositalaridan foydalanishini tan olgan [3]. Bu holat an'anaviy baholash tizimining qayta ko'rib chiqilishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, **algoritmik xolislik** muammosi mavjud. AI modellari o'qitilgan ma'lumotlar to'plamidagi noto'g'ri tendentsiyalarni takrorlashi mumkin, bu esa ayrim o'quvchi guruhlariga nisbatan noto'g'ri baholashga olib kelishi xavfi bor.

Uchinchidan, **raqamli tengsizlik** muammosi kuchaymoqda. Qishloq va shahar o'quvchilari o'rtasida internet va qurilmalarga kirish imkoniyatidagi farq AI ta'lim vositalaridan foydalanishda yangi tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Amaliy matematika va sun'iy intellekt

Amaliy matematika yo'nalishi uchun AI vositalari ayniqsa qimmatli ahamiyat kasb etadi. Wolfram Alpha va Photomath kabi ilovalar matematik masalalarni bosqichma-bosqich yechish imkonini beradi. Bundan tashqari, Python va MATLAB muhitlarida AI yordamchilari kod yozish, xatolarni topish va algoritmlarni tushuntirishda talabalarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan [4].

XULOSA

Sun'iy intellekt ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga qodir kuchli texnologiya hisoblanadi. Individuallashtirilgan o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash va doimiy qo'llab-quvvatlash orqali SI har bir o'quvchiga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Biroq bu texnologiyaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun akademik halollik tizimlarini modernizatsiya qilish, algoritmik xolislikni ta'minlash va raqamli tengsizlikni bartaraf etish zarur.

O'zbekiston, jumladan Chirchiq davlat pedagogika universiteti kabi muassasalar ushbu texnologiyalarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchi va talabalarni tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish va tegishli me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish yo'lida izchil harakat qilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. Geneva:WEF, 2023–303 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2023.

3. Chaudhry, M.A., Kazim, E. Artificial Intelligence in Education (AIEd): A high-level academic and industry note. AI and Society, 2022. – 839–843 b.

4. Kasneci, E. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences, 2023. – Vol. 103.

CHIZIQLI ALMASHTIRISHLAR – FAZOVIY O‘ZGARISHLARNING MATEMATIK ASOSI

Taymanova Elnora Lutfullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Ozodova Nodira G'ayrat qizi, Hasanova Mohinur Davron qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada chiziqli almashtirishlarning matematik mohiyati, ularning fazoviy o‘zgarishlarni ifodalashdagi o‘rni hamda analitik geometriya va chiziqli algebra bilan bog‘liqligi yoritilgan. Chiziqli almashtirishlarning matritsalar yordamida ifodalanishi, koordinatalar sistemasidagi o‘zgarishlar va geometrik tasvirlarni modellashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, fazoviy o‘zgarishlarning ilm-fan va texnologiyadagi qo‘llanilish sohalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: chiziqli almashtirish, matritsa, vektor, fazoviy o‘zgarish, koordinata, chiziqli algebra, analitik geometriya, akslantirish, determinant, transformatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается математическая сущность линейных преобразований, их роль в описании пространственных изменений, а также связь с аналитической геометрией и линейной алгеброй. Проанализированы представление линейных преобразований с помощью матриц, изменения в системах координат и их значение в моделировании геометрических объектов. Также рассмотрены области применения пространственных преобразований в науке и современных технологиях.

Ключевые слова: линейное преобразование, матрица, вектор, пространственное преобразование, координата, линейная алгебра, аналитическая геометрия, отображение, детерминант, трансформация.

Abstract. This article discusses the mathematical essence of linear transformations, their role in describing spatial changes, and their relationship with analytic geometry and linear algebra. The representation of linear transformations using matrices, coordinate system changes, and their importance in modeling geometric objects are analyzed. In addition, the applications of spatial transformations in science and modern technologies are considered.

Keywords: linear transformation, matrix, vector, spatial transformation, coordinate system, linear algebra, analytic geometry, mapping, determinant, transformation.

Matematikada chiziqli almashtirishlar bir vektor fazosini boshqasiga o‘tkazuvchi va chiziqlilik qonuniyatlariga (additivlik va bir jinslilik) bo‘ysunuvchi amallardir. Geometrik nuqtai nazardan, bu jarayon fazodagi ob’ektlarni cho‘zilishi, siqilishi, burilishi yoki akslanishini ifodalaydi. Bunda eng muhim shart — koordinata boshi qo‘zg‘almas qolishi va to‘g‘ri chiziqlar o‘zining to‘g‘ri chiziqlilik xususiyatini saqlab qolishidir.

Ushbu mavzuda biz chiziqli fazoda aniqlangan akslantirishlar ichida muhim o‘rin egallaydigan chiziqli almashtirish tushunchasini kiritamiz.

1-ta’rif. n-o‘lchamli V fazoda aniqlangan $A : V \to V$ akslantirish uchun

1) $A(x_1 + x_2) = A(x_1) + A(x_2)$;

2) $A(\lambda x) = \lambda A(x)$

shartlar bajarilsa, u holda A akslantirish chiziqli almashtirish yoki chiziqli operator deb ataladi.

Odatda A chiziqli almashtirishning qiymati A(x) o‘rniga Ax yoziladi.

1-misol.

a) Uch o‘lchamli R^3 Yevklid fazosida vektorni koordinata boshidan o‘tadigan biror o‘q atrofida burishdan iborat bo‘lgan almashtirishni qaraymiz. Bunda har bir x vektorga uni burishdan so‘ng hosil bo‘lgan Ax vektorni mos qo‘yamiz. Bu moslik 1) va 2) shartlarni qanoatlantirishini tekshirish qiyin emas.

Masalan, a) shartni tekshirib ko‘raylik: $A(x_1+ x_2)$ ifoda avval $x_1$hamda x_2 vektorlarning qo‘shilishini, so‘ngra hosil bo‘lgan vektorning burilishini bildiradi. Ax_1+Ax_2 esa avval x_1 hamda $x_2$vektorlarning burilishini, so‘ngra ularning qo‘shilishini bildiradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, ikkala holda ham natija bir xil bo‘ladi. Demak, A akslantirish chiziqli almashtirish bo‘ladi.

b) Bizga R^3 Yevklid fazosi va uning koordinatalar boshidan o‘tuvchi biror tekisligi bo‘lgan V1 qism fazosi berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy x_2 R^3 vektorga uning bu tekislikdagi proeksiyasini mos qo‘yamiz. Bu moslik ham chiziqli almashtirish bo‘ladi.

c) [0; 1] segmentda C[0; 1] uzluksiz funksiyalar fazosini qaraylik.

Bu fazoda aniqlangan $Af(t) = \int_0^t f(s)ds$ akslantirish chiziqli almashtirish bo‘ladi. Haqiqatan ham,

$$A(f_1(t)+f_2(t))=\int_0^t [f_1(s)+f_2(s)]d(s)=$$

$$=\int_0^t f_1(s)ds+\int_0^t f_2(s)ds=Af_1(t)+Af_2(t)$$

$$A(\alpha f(t))=\int_0^t \alpha f(s)ds=\alpha\int_0^t f(s)ds=\alpha Af(t).$$

1-tasdiq. Berilgan $g_1; g_2; : : : ; g_n$ vektorlar uchun

$$Ae_1 = g_1; Ae_2 = g_2; : : : ; Ae_n= g_n$$

shartni qanoatlantiruvchi A chiziqli almashtirish mavjud va yagona.

Isbot. Dastlab, A chiziqli almashtirish $Ae_1; Ae_2; : : : ; Ae_n$vektorlar orqali bir qiymatli aniqlanishini ko‘rsatamiz. Haqiqatan ham, V fazodan olingan ixtiyoriy

$$x = \xi_1 e_1 + \xi_2 e_2 + : : : + \xi n e_n$$

vektor uchun

$$Ax = A(\xi_1 e_1 + \xi_2 e_2 + : : : + \xi_n e_n) = \xi_1 Ae_1 + \xi_2 Ae_2 + : : : + \xi_n Ae_n$$

ekanligidan Ax vektor $g_1; g_2; : : : ; g_n$ vektorlar orqali bir qiymatli aniqlanishi kelib chiqadi.

Endi har qanday A; ; : : : ; vektorlar uchun A = 0 tenglikni qanoatlantiradigan A chiziqli almashtirish mavjudligini ko‘rsatamiz.

Buning uchun ixtiyoriy

$$x = \xi e_1 + \xi e_2 + : : : + \xi e_n$$

vektorga $\xi e_1 + \xi e_2 + : : : + \xi e_n$ vektorni mos qo‘yamiz. Ixtiyoriy x vektor ei bazis vektorlar orqali bir qiymatli ifodalanganligi uchun, unga muayyan bir Ax vektor mos qo‘yiladi.

2-misol. Aytaylik, V = R^3 uch o‘lchamli fazoda A chiziqli almashtirish sifatida x vektorni OXY tekisligiga proeksiyalashdan iborat bo‘lgan akslantirish berilgan bo‘lsin. Bazis sifatida koordinatalar o‘qlari bo‘yicha yo‘nalgan birlik $e_1, e_2; e_3$ vektorlarni olamiz. U holda

$$Ae_1 = e_1;\ Ae_2 = e_2;\ Ae_n = 0;$$

ya’ni bu bazisda A almashtirishning matritsasi

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Endi chiziqli almashtirishlar ustida amallarni aniqlaymiz. Chiziqli almashtirishlar ustida qo‘shish, songa ko‘paytirish va ko‘paytirish amallarini aniqlash mumkin.

2-ta’rif. A va B chiziqli almashtirishlarning yig‘indisi deb, x vektorga Ax + Bx vektorni mos qo‘yuvchi C almashtirishga aytiladi. Boshqacha aytganda,

$$C = A + B$$

ifoda har qanday x uchun Cx = Ax + Bx ekanligini bildiradi.

Aytaylik, A va B chiziqli almashtirishlar $e_1; e_2; : : : ; e_n$ bazisda mos ravishda $(a_{i,j})$ va $(b_{i,j})$ matritsalarga ega bo‘lsin. U holda C = A + B chiziqli almashtirishning matritsasini topish uchun $e_1; e_2; : : : ; e_n$ bazis elementlarning ushbu almashtirishdagi qiymatlarini qaraymiz, ya’ni

$$Ce_j = Ae_j + Be_j = \sum_{i=1}^{n}(a_{i,j}+b_{i,j})e_j$$

Bu esa C chiziqli almashtirishning $e_1; e_2; : : : ; e_n$ bazisdagi $(c_{i,j})$ matritsasi uchun $c_{i,j} = a_{i,j} + b_{i,j}$ tenglik bajarilishini anglatadi. Shunday qilib, A va B chiziqli almashtirishlar yig‘indisining berilgan bazisdagi matritsasi chiziqli almashtirishlarning shu bazisdagi matritsalari yig‘indisiga teng ekanligini ko‘rsatdik.

3-ta’rif. A chiziqli almashtirishning λ soniga ko‘paytmasi deb, x vektorga λAx vektorni mos qo‘yuvchi C = λA almashtirishga aytiladi, ya’ni

$$(\lambda A)x = \lambda(Ax):$$

Ushbu C = λA chiziqli almashtirishning berilgan bazisdagi matritsasi $\lambda \cdot (a_{i,j})$ ekanligini ko‘rish qiyin emas.

4-ta’rif. A va B almashtirishlarning ko‘paytmasi deb, avval B almashtirishni so‘ngra esa A almashtirishni ketma-ket bajarish natijasida hosil bo‘ladigan C almashtirishga aytiladi, ya’ni C = AB ifoda x vektor uchun Cx = A(Bx) ekanligini bildiradi.

Dastlab, chiziqli almashtirishlarning ko‘paytmasi yana chiziqli almashtirish bo‘lishini ko‘rsatamiz. Haqiqatan ham,

$$C(x_1 + x_2) = A(B(x_1 + x_2)) = A(Bx_1 + Bx_2) = = A(Bx_1) + A(Bx_2) = Cx_1 + Cx_2;$$

$$C(\lambda x) = A(B(\lambda x)) = A(\lambda Bx) = \lambda A(Bx) = \lambda Cx:$$

Endi chiziqli almashtirishlar yig‘indisining matritsasini aniqlaganimiz kabi ko‘paytmaning ham matritsasini aniqlaymiz. A va B chiziqli almashtirishlar matritsalari $(a_{i,j})$ va $(b_{i,j})$ ekanligidan foydalanib,

$$Ce_j = A(Be_j) = A\left(\sum_{k=1}^{n} b_{k,j}e_k\right)=\sum_{k=1}^{n} b_{k,j}\, Ae_k=\sum_{k=1}^{n} b_{k,j} \sum_{i=1}^{n} a_{i,k}\, e_j\left(\sum_{k=1}^{n} a_{i,j}\, b_{k,j}\right)e_j$$

kelib chiqadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, $(c_{i,j})$ matritsaning $c_{i,j}$ elementlari $(a_{i,j})$ matritsaning i-qator elementlari bilan (b_j) matritsaning justunining mos elementlari ko‘paytmalarining yig‘indisiga teng. Shunday qilib, C = AB chiziqli almashtirishning $(c_{i,j})$ matritsasi A va B chiziqli almashtirishlar $(a_{i,j})$ va $(b_{i,j})$ matritsalari ko‘paytmasidan iborat ekanligini hosil qildik.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, chiziqli almashtirishlarni qo‘shish va ko‘paytirish amallari matritsalarni qo‘shish va ko‘paytirish kabi amalga oshirilib, quyidagi xossalar o‘rinli bo‘ladi:

1) A + B = B + A;

2) (A + B) + C = A + (B + C);

3) A(BC) = (AB)C;

4) (A + B)C = AC + BC; C(A + B) = CA + CB:

Aytaylik, ixtiyoriy A chiziqli almashtirish va E birlik almashtirish berilgan bo‘lsin, u holda

AE = EA = A

ekanligini osongina tekshirish mumkin. A almashtirishning darajasini odatdagidek

A^2= A · A; $A^3 = A^2 \cdot$ A; : : :

kabi aniqlaymiz. Sonlar uchun o‘rinli bo‘lganidek, A^0= E deb faraz

qilamiz.

Yuqoridagilardan foydalangan holda A chiziqli almashtirishdan tuzilgan ko‘phadni ham qarash mumkin, ya’ni ixtiyoriy

P(t) = $a_0\ t^m + a_1 t^{m-1}$ + : : : + a_m ko‘phad uchun P(A) deb

P(A) = $a_0 A^m + a_1 A^{m-1}$ + : : : + $a_m E$

formula bilan aniqlangan chiziqli almashtirishni tushunamiz. Endi teskari almashtirish tushunchasini kiritamiz.

5-ta’rif. Agar AB = BA = E bo‘lsa, u holda B almashtirish A almashtirishga teskari almashtirish deyiladi, bu yerda E birlik almashtirishdir.

Berilgan A almashtirishga teskari almashtirish A-1 kabi belgilanadi. Ta’rifdan ko‘rinadiki, A^{-1}(Ax) = x. Har qanday almashtirish uchun teskari almashtirish mavjud bo‘lavermaydi. Masalan, uch o‘lchamli fazoni OXY tekisligiga proeksiyalash almashtirishi teskari almashtirishga ega emas. Teskari almashtirish tushunchasi bilan teskari matritsa tushunchasi bog‘liqdir. Ma’lumki, berilgan matritsa teskarilanuvchi bo‘lishi uchun uning determinanti noldan farqli bo‘lishi zarur va yetarli.

Berilgan bazisda matritsalar bilan chiziqli almashtirishlar orasida barcha amallarni saqlovchi o‘zaro bir qiymatli moslik mavjud bo‘lganligi uchun, A almashtirishning berilgan bazisdagi matritsasining determinanti noldan farqli bo‘lgandagina bu almashtirish teskarilanuvchi bo‘lishi

kelib chiqadi. Teskarisi mavjud bo‘lgan almashtirish xosmas almashtirish deyiladi.

Ixtiyoriy A chiziqli almashtirish uchun almashtirishning yadrosi va obrazi deb ataluvchi fazolarni aniqlaymiz.

6-ta’rif. A almashtirishning obrazi (aksi) deb Ax ko‘rinishidagi vektorlar jamlanmasiga aytiladi, bu yerda x∈ V

Almashtirishning obrazi Im(A) kabi belgilanadi, ya’ni Im(A) ={y∈ $V|\exists x \in V, Ax = y$

Ko‘rinib turibdiki, teskarilanuvchi almashtirishning obrazi butun fazo bilan ustma-ust tushadi.

2-tasdiq. Ixtiyoriy chiziqli almashtirishning obrazi qism fazo

tashkil qiladi.

7-ta’rif. A almashtirishning yadrosi deb Ax = 0 tenglikni qanoatlantiruvchi vektorlar to‘plamiga aytiladi va Ker(A) kabi belgilanadi, ya’ni

Ker(A) = {x∈ $V|Ax + 0$

3-tasdiq. Ixtiyoriy chiziqli almashtirishning yadrosi qism fazo tashkil qiladi.

3-misol. Bizga darajasi n dan oshmaydigan ko‘phadlar fazosi V = P_n(R) da differensiallash operatori bo‘lgan A almashtirish berilgan bo‘lsin, ya’ni

A(p(x)) = p'x):

Bu almashtirishning yadrosi o‘zgarmas sonlardan, obrazi esa, darajasi n - 1 dan oshmaydigan ko‘phadlardan iborat bo‘ladi. Ularning o‘lchamlari esa, mos ravishda birga va n ga teng.

4-tasdiq. n-o‘lchamli V chiziqli fazodagi ixtiyoriy A almashtirishning obrazi va yadrosi o‘lchamlari yig‘indisi butun fazo o‘lchamiga teng, ya’ni

dim(Im(A)) + dim(Ker(A)) = n:

Ushbu almashtirishlarning matematik "tili" — bu matritsalardir. Har qanday chiziqli almashtirishni bitta matritsa ko‘rinishida ixcham ifodalash mumkin. Matritsa shunchaki sonlar to‘plami emas, balki fazoni ma’lum bir qoida asosida o‘zgartiruvchi operatordir. Xususan, 3 o‘lchamli fazodagi harakatlar

Mazkur maqolada chiziqli almashtirishlarning matritsaviy ko‘rinishi, ularning geometrik mohiyati va GeoGebra dasturi yordamida vizual isbotlari qisqa va lunda tahlil qilinadi.

Zamonaviy fan va texnikani chiziqli almashtirishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir raqamli tasvir, har bir muhandislik hisob-kitobi va hattoki sun'iy intellekt algoritmlari ham bevosita matritsalaryor damida amalgao shiriladigan almashtirishlarga tayanadi.

Chiziqli almashtirish bu biror vektor fazosidagi elementlami boshqasiga ma'lum bir qonuniyat (chiziqlilik sharti) asosida o'tkazishdir. Matematik tilda bu 7: F F ko'rinishida ifodalanadi Amaliyotda esa bujarayon matritsalarmivektorga ko'paytirish orqali bajariladi:


Bu yerda X kiruvchi ma'lumot (vektor), 4 almashtirish matritsasi, Yesa natija. Agar biz 3 o'lchamlifazo haqida gapirsak, 4 matritsasi 3-3 o'lchamdabo'ladi.


3D modellarini ekranimizda aylantirish, ulami kattalashtirish yoki kichiklashtirish uchun 3x3 (ko'pincha gomogen koordinatalaruchun 4×4) matritsalar qo'llaniladi. Masalan, ob'ektni Z o'qi atrofida burish uchun maxsus trigonometrikmatritsalar har bir nuqtaga qo'llaniladi

Robot qo'llarining (manipulyatorlarning) harakati "Kinematika" qonunlariga bo'ysunadi. Har bir bo'g'inning holati matritsaviy almashtirishlar orqali hisoblanadi. Bu robotga buyumni aniq millimetrigacha topishimkonini beradi.

Katta hajmdagi malumotlar bilan ishlashda "O'lchamlarni qisqartirish" (PCA Principal Component Analysis) usuli qo'llaniladi. Bu usul mohiyatan ma'lumotlar to'plamini yangi bazisga chiziqli almashtirish orqali o'tkazishdir.

Chiziqli almashtirishning geometrik mohiyatinitushunishuchun GeoGebra kabidinamik matematik muhitlar juda muhim. Masalan, 3x3 matritsa yordamida fazoni "cho'zish" yoki "qiyshaytirish" (shear) amallarini bajarish orqali, biz matritsaning har bir ustuni bazis vektorlarini qayerga ko'chirayotganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.





Chiziqli almashtirishlar va ularning matritsaviy ifodasi zamonaviy texnologiyalarning fundamental asosidir:

Nazariy ahamiyati: Murakkab geometrik o‘zgarishlar matritsaviy ko‘paytirish kabi oddiy arifmetik amallarga keltiriladi, bu esa hisoblash jarayonlarini universallashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, matritsalar fazoni boshqarish qurolidir. Ushbu mavzuni egallash zamonaviy muhandislik va yuqori texnologiyalar sohasida muvaffaqiyatga erishishning muhim shartidir. Kompyuter grafikasi, robototexnika va sun’iy intellekt sohalari bevosita ushbu almashtirishlarga tayanadi. Ob’ektlarni ekranda harakatlantirish va ma’lumotlarni tahlil qilish matritsaviy operatorlar orqali bajariladi. GeoGebra kabi vositalar orqali almashtirishlarni vizuallashtirish nazariy formulalarning geometrik mazmunini tushunishga va ularni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tay manova E.L. Digital pedagogy and its advantages // European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. Vol. 03, Issue 10, ISSN (E): 2938-3625, October – 2025. SJIF 2024 5.441, P. 50-56 (14, ResearchBib).

2. Tay manova E.L. Development trends of LMS platforms in the era of digital education //World

Bulletin of Education and Learning (WBEL)., 2026-yil. ISSN (E): 3072-175X P 153-158. .(14, ResearchBib).

3. Taymanova E.L. Методология развития цифровых педагогических компетенций будущих учителей на основе STEM-подхода // Pedagogik mahorat-T., 2026 №1.– B. 214-221 (13.00.00. № 23).

4. Taymanova E.L. STEM-интеграция в современном образовании: пути формирования цифровой методической грамотности будущих учителей // Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlar.-Q., 2025. -№11. – B. 398-416 (13.00.00. OAK Rayosatining 2023 yil 28 fevraldagi 333/5-son qarori).

5. Ayupov Sh.A., Omirov B.A, Xudoyberdiyev A.X. “Chiziqli algebra” darslik, “Muxr-press” Toshkent 2023-391 bet

6. Мантуров О.В., Солнцев Ю.К, Соркин Ю.И., Федин Н.Г. “Математика в понятиях, определениях и терминах” часть I M: 1978-269 стр.

7. Мантуров О.В., Солнцев Ю.К, Соркин Ю.И., Федин Н.Г. “Математика в понятиях, определениях и терминах” часть II M: 1982-352 стр.

8. Мантуров О.В., Солнцев Ю.К, Соркин Ю.И., Федин Н.Г. “Толковый словарь математических терминов” Москва 1965-539 стр.

9. R.N. Nazarov, B.T. Toshpo’latov, A.D. Do’smetov “Algebra va sonlar nazariyasi” I qism T: “O’qituvchi” 1993-317 bet

10. R.N. Nazarov, B.T. Toshpo’latov, A.D. Do’smetov “Algebra va sonlar nazariyasi” II qism T: “O’qituvchi” 1995-272 bet

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIULOTLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASVIRIY FAOLIYATGA O’RGATISH.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti katta o’qituvchisi

Maripova Nodira Xamidovna

marufxojayevanodira@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatishning pedagogik ahamiyati, metodikimkoniyatlari hamda samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va estetik didni rivojlantirishdagi o’rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari ko’rib chiqilgan.

Tayanch tushunchalari: maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, tasviriy faoliyat, raqamli texnologiyalar, ijodkorlik, estetik tarbiya, innovatsion pedagogika, interaktiv ta’lim, multimediya vositalari, bolalar rivojlanishi.

Bug
ungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi maktabgacha ta’lim tizimida ham bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sifatini oshirish va o’quv jarayonini individuallashtirishda samarali vosita bo’lib xizmat qilmoqda.

Ma
ktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida tasviriy faoliyat muhim o’rin egallaydi. Rasm chizish, bo’yash, applikatsiya va loy bilan ishlash bolalarning estetik didi, tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga , ularning mayda motorikasi, diqqati hamda rang va shakllarni farqlash ko’nikmalarini shakllantiradi.

Sun
’iy intellekt asosidagi grafik dasturlar, virtual chizish platformalari va multimedia vositalari tasviriy faoliyat samaradorligini oshiradi. Ular bolalarning qiziqishi va qobiliyatiga mos topshiriqlar tavsiya etib, individual yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli vositralar tarbiyachilarga mashg’ulotlarni rejalashtirib, didaktik materiallar tayyorlash va bolalar faoliyatini tahlil qilishda yordam beradi. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy faoliyatni tashkil etish bolalarning estetik, ijodiy va intellektual rivojlanishini ta’minlovchi samarali innovatsion yondashuvdir.

Sun
’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o’rni. Sun’iy intellekt – inson tafakkuriga xos jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt o’quv jarayonini individuallashtirish, bolalarning bilim darajasini tahlil qilish, interaktiv o’quv materiallarini yaratish kabi vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash;
- individual yondashuvni ta’minlash;
- tasviriy faoliyatga qiziqishni oshirish;
- mashg’ulotlarni interaktiv tashkil etish;
- ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- estetik tarbiya samaradorligini oshirish.

Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida grafik dasturlar, annimatsion ilovalar va multimedia vositalari bolalarda ranglarni farqlash, shakllarni tasvirlash ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

Tasviriy faoliyatni o’qitishda innovatsion yondashuvlar. Tasviriy faoliyat bolalarning ruhiy va estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bolalarni faol ishtirok etishga undovchi interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Raqamli rasm chizish texnologiyalari. Planshet va interaktiv doskalarda ishlovchi grafik dasturlar yordamida bolalar turli shakl va ranglar bilan ishlashni o’rganadilar. Bunday dasturlar bolalarda qo’l harakatlarini muvofiqlashtirish hamda tasvir yaratish ko’nikmalarini rivojlantiradi.
2. Interaktiv o’yin texnologiyalari. Sun’iy intellekt elementlariga ega didaktik o’yinlar bolalarda qiziqish uyg’otadi. Masalan, ranglarni moslashtirish, shakllarni tanish yoki yarim tasvirni davom ettirish kabi topshiriqlar bolaning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.
3. Multimedia vositalaridan foydalanish. Audio, video va annimatsion materiallar yordamida bolalarga rassomlik elementlari tushuntiriladi. Harakatli tasvirlar bolalarning diqqatini uzoq vaqt saqlashga yordam beradi.
4. Sun’iy intellekt yordamida individual topshiriqlar yaratish. AI texnologiyalari bolaning yosh xususiyati va qobiliyatidan kelib chiqib topshiriqlarni avtomatik shakllantirish mumkin. Bu esa differensial yondashuvini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik afzalliklari. Maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi pedagogik afzalliklarni beradi:

- ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi;

- ijodkor va tasavvurni kengaytiradi;
- individual ta’lim imkoniyatlarini yaratadi;
- bolalarning motivatsiyasini kuchaytiradi;
- zamonaviy axborot madaniyatini shakllantiradi;

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar tarbiyachining ish faoliyatini ham yengillashtiradi. Mashg’ulotlarni rejalashtirish, bolalar faoliyatini monitoring qilish va natijalarni tahlil etishda raqamli platformalar muhim yordamchi vosita bo’lib xizmat qiladi.

Muammo va kamchiliklar. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud:

- texnik vositalarning yetarli emasligi;
- tarbiyachilarning AKT kompetentsiyasi pastligi:
- internet va dasturiy ta’minot bilan bog’liq muammolar;
- bolalarning gadjetlarga ortiqcha bog’lanib qolish xavfi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarning raqamli kompetentsiyasini oshirish, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash hamda texnologiyalardan me’yoriy foydalanishni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy faoliyatga o’rgatish bolalarning ijodiy va estetik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg’ulotlar bolalarda mustaqil fikrlashni, tasavvur qilish, rang va shakllarni idrok etish ko’nikmalarini samarali rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirib, maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy axborot muhitiga mos ravishda tarbiyalash imkonini beradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR.

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’trisida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. “Ilk qadam: davlat o’quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Ishmuxamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent:Ffan, 2019.
4. Azizxo’jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.

5. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
6. Xoliqov A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2021.

SUN’IY INTELLEKT OSOSIDA ANIQ FANLARNI O‘QITISH TAMOYILLARI

Radjabov B.Sh[1]., Nosirov O.N[2].

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Maslaning qo‘yilishi: Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ilm-fan, ta’lim, innovasiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalariga keng joriy etish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas zaruratidir [1,3].

Yechimga yondoshuv. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: "Biz yangi O‘zbekistonni ilm-fan va innovasiyalar asosida barpo etamiz. Bugungi kunda dunyoda kim ilmga intilsa, kim yangi texnologiyalarni egallasa, o‘sha davlat albatta g‘alaba qozonadi".Sun’iy intellekt (SI) asosida aniq (jumladan matematik) fanlarni o‘qitish metodikasi — bu an’anaviy ta’lim jarayoniga intellektual tizimlar, adaptiv algoritmlar va ma’lumotlar tahlilini joriy etish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Avvalo tegishli hujjat bilan SI texnologiya va tizimlaridan foydalanishda quyidagi etika tamoyillari belgilanmoqda [1,2,4]: qonuniylik; shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari hamda atrof-muhitni himoya qilishning ustuvorligi; tushunarlilik; mas’uliyat, javobgarlik va nazorat; adolatlilik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik; ochiqlik va shaffoflik; ma’lumotlar himoyasi; ishonchlilik va xavfsizlik.

Muxokama(analiz va sintez). Qarorlarni qabul qilishda faqat SIdan foydalanib yaratilgan SI texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosalariga tayanmaslik talabi belgilanmoqda. Buday tamoillar bevosita ta’lim jarayonlariga tegishlidir. SI asosida matematik fanlarni o‘qitish metodikasi ta’lim jarayonini shaxslashtirish (personallashtirish), o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish va o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Oliy pedagogik ta’limda matematik fanlarni o‘qitish zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish asnosida so‘ngi 20- 25 yillar davomida keskin rivojlandi. Bunda EXCEL, MATLAB, MAPLE, GeoGerb kabi dasturiy vositalar matematik ta’limga joriy etilib, o‘quvchilarning matematik savodxonligini, ancha oshirdi [2,3].

. Buning asnosida matematik modellashtirish masalalari, jumladan matematik modellashtirish jarayonlarini ishlab chiqishni vizuallashtirish imkoniyati yaratildi. Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida matematik ta’limga SI ning kirib kelishi, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish imkoniti ni berdi.

Ammo shu bilan birga bu xolat ma’lum muammolarni xam k yeltirib chiqardi. Masalan, YuNISEF tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining **40 foizi** kompyuterdan umuman foydalana olmaydi, **atigi 37 foizigina** raqamli savodxonlikka ega. Qishloq joylarda vaziyat yanada murakkab – bolalarning **30 foizdan** kamrog‘i raqamli qurilmalardan foydalanishni biladi, xolos. Bu, qishloq o‘quvchilarini shaharlik tengdoshlariga nisbatan noqulay ahvolga solib qo‘yadigan jiddiy raqamli tengsizlikdan dalolat beradi. Buni esa o‘z navbatida matematik ta’limga xam salbiy ta’siri bor. Sun’iy intellekt (SI) va matematika bir-

biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarning asosi hisoblanadi. Matematika SI algoritmlarini yaratish, o‘rgatish va tushunish uchun fundamental til va vosita vazifasini o‘taydi.





Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, SI tizimlarida matematik usullarning o‘rni beqiyos va muhimdir. Yangi texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va boshqa sohalar sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun matematik bilim va tajribaga suyanishi zarurdir. Jumladan matematik ta’limda SI qo‘llanishi xam talaba, xam o‘qituviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mayematik tushinchalar, qoiuniyatlarni gneseologik darajada idrok qilinishi va yaratilgan matematik modellarni aqiprobasiya qilishda SI vositalari qo‘l keladi. SI algoritmlarini soddalashtirish va tezlashtirish uchun matematik aproksimasiya usullari va hisoblash modellari ham keng miqyosda tadbiq etiladi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ular qisqartiruvchi algoritmlar orqali natijalarni tez olish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, statistik ehtimollikka asoslangan filtrlar, prognozlash usullari va rasmiy tahlil imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, dasturiy qurilmalar, apparat tezlatkichlari yordamida matematik algoritmlarni samarali parallel bajarish imkoniyatlari sun’iy intellekt amaliyotida ahamiyatini oshirmoqda. Neyron tarmoqlarning samarali ishlashida grafik prosessorlar, cheklangan resurslar va tezkorlikni ta’minlashdagi matematik yordam natijasida turli sohalar uchun ishlaydi. Dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash, prosessing va toza natijaga yerishishda matematik algoritmlar ishonchli va samarali natijalarni kafolatlaydi. Sun’iy intellekt uchun matematik usullar nafaqat nazariy masalalarni hal qilish, balki amaliyotda optimal natijalarga yerishishda ham asosiy o‘rin tutadi. Innovasion masalalarda, yangi bilimlarni ishlab chiqishda, inson aql-idrokini sun’iy ravishda modellashtirishda matematik yondashuvlar yetakchi ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt tizimlarining aniqlik va ishonchliligini oshirishda yehtimollik asosidagi usullar, Bayes teoremasi, statistika va matematik tahlil vositalaridan ham keng foydalaniladi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda matematik statistik usullar model natijalarini aniq prognozlash, taxmin qilinadigan natijalarni aniqlash, avtomatik klassifikasiya va obyektlardagi qonuniyatlarni aniqlash uchun yordam beradi [4, 5].

Adabiyotlar:

6. Abdukarimov, S. (2020). "Sun’iy intellekt asoslari va uning matematik modellari." Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
7. Bobojonov, K. (2018). "Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt: matematik masalalar." Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
8. G‘ulomov, G., & To‘rayev, D. (2019). "Sun’iy intellektning nazariy asoslari va matematik metodlari." Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyoti.
9. Karimov, H. (2020). "Optimallashtirish va uning sun’iy intellektda qo‘llanikaning malishi." Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. Radjabov B.Sh., Darmonova A. Informatikaning nazariy asoslari. Informatika va axborot texnologiyalari. Toshkent, 2025. 29-34b.

O'ZBEK IMO-ISHORA TILI UCHUN DASTLABKI DATASET YARATISH VA SUN'IY INTELLEKT MODELI UCHUN TAYYORGARLIK ISHLARI

Rajabov O.T

o.rajabov@cspu.uz
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, Chirchiq

Normirzayev S.Z

sardornormirzayev516@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi, Chirchiq

Po'latboyev Sh

shohruhxonp081@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi, Chirchiq

Annotatsiya: Ushbu maqolada real vaqtli surdo tarjimon tizimini ishlab chiqish loyihasi doirasida o'zbek imo-ishora tili uchun dastlabki ma'lumotlar bazasini shakllantirish va sun'iy intellekt modelini o'qitishga tayyorgarlik ko'rish ishlari natijalari taqdim etilgan. Dataset yig'ish jarayonida turli yosh va jinsdagi ishtirokchilardan 50 ta asosiy imo-ishora uchun 15,000 dan ortiq video yozuvlar olingan. Ma'lumotlar MediaPipe yordamida qo'l landmark koordinatalari sifatida chiqarildi va vaqt seriyasi formatida saqlandi. TensorFlow va PyTorch frameworklari tahlil qilindi va LSTM arxitekturasini sinab ko'rish uchun dastlabki model tuzildi. Dastlabki sinovlar modelning 10 ta imo-ishorani 82% aniqlik bilan klassifikatsiya qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar kelgusida kengaytirilgan dataset va murakkabroq modellar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: imo-ishora tili, dataset yaratish, sun'iy intellekt, LSTM, gesture classification, o'zbek imo-ishora tili, ma'lumotlar bazasi.

Kirish: Imo-ishora tilini sun'iy intellekt yordamida tanib olish tizimlarining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri keng ko'lamli, sifatli va lingvistik jihatdan asoslangan ma'lumotlar bazasiga bog'liq. Dunyo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq datasetlarning aksariyati amerikalik (ASL) yoki yevropalik imo-ishora tillariga mo'ljallangan bo'lib, markaziy osiyo mintaqasiga xos motorik, grammatik va kontekstual xususiyatlarni hisobga olmaydi. O'zbekiston sharoitida eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan talabalar uchun ta'lim muhitida ishlatiladigan o'zbek imo-ishora tili rasmiy raqamlashtirilmagan, bu esa AI modellarini mahalliylashtirishda jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda.

Materiallar va usullar: Dataset yig'ish protokoli: Ma'lumotlar bazasi 30 nafar ko'ngillidan (18–45 yosh, 16 erkak, 14 ayol, 12 nafari eshitish nuqsonli surdo tarjimon o'qituvchisi yoki talaba, qolganlari imo-ishora tilini biladigan sog'lom shaxslar) yig'ildi. Barcha ishtirokchilar yozma rozilik bergan va shaxsiy ma'lumotlar anonimlashtirilgan. Yozuvlar 1080p kamera, 2 metr masofa, bir jinsli ko'k fon va 400–600 lux yorug'lik sharoitida amalga oshirildi. Har bir ishtirokchi 50 ta asosiy imo-ishorani (so'zlar, harflar, pedagogik buyruqlar) 10 marta takrorladi. Natijada 15,000 ta video ketma-ketlik olindi.

Annotatsiya va oldindan qayta ishlash: Videolar qo'lda va yarim avtomatik usulda kesildi (start–end frame belgilandi). MediaPipe Hands modeli orqali har bir kadr uchun 21×3 = 63 ta qiymat (x, y, z) ekstraksiya qilindi. Koordinatalar bilak nuqtasiga nisbatan normallashtirildi (relative coordinates), bu esa turli masofa va burchaklarda yozilgan ma'lumotlarni bir xil fazoga o'tkazish imkonini berdi. Yetishmayotgan kadrlar (occlusion paytida) linear interpolation orqali to'ldirildi. Ma'lumotlar sequence_length=30 (1 soniya) formatida qayta shakllantirildi va 70% train, 15% validation, 15% test ga ajratildi.

Model arxitekturasi va o'qitish: Dastlabki model sifatida 2 qavatli LSTM tarmog'i tanlandi:

Kirish qatlami: (batch_size, 30, 63)

LSTM-1: 128 hujayra, return_sequences=True

LSTM-2: 64 hujayra, return_sequences=False

Dropout: 0.4

To'liq bog'langan qatlamlar: 128 (ReLU) → 50 (Softmax)

Model TensorFlow 2.13 va PyTorch 2.0 da parallel sinovdan o'tkazildi. Loss function: Sparse Categorical Crossentropy. Optimizator: Adam (lr=1e-3). Batch size: 32. Hardware: NVIDIA RTX 3060 (12GB). Training 100 epoch davom etdi, early stopping (patience=10) qo'llanildi. Baholash metrikalari: Accuracy, Precision, Recall, F1-Score, Confusion Matrix, ROC-AUC.

Natijalar va muhokama: Yig'ilgan dataset 50 sinf, 15,000 namuna, o'rtacha ketma-ketlik uzunligi 2.1 soniyani tashkil etdi. Koordinatalarni normalizatsiya qilish sinovda modelning konvergentsiya tezligini 22% ga oshirdi va boshlang'ich loss qiymatini 3.4 dan 1.8 ga tushirdi. LSTM modeli 72-epochda early stopping tomonidan to'xtatildi. Validation aniqligi 82.3%, test aniqligi 79.1% ni ko'rsatdi. Training/validation loss egri chiziqlari 40-epochdan keyin divergentsiya qilishni boshladi, bu overfitting belgisi edi.

Confusion matrix tahlili shuni ko'rsatdiki, chalkashlik asosan quyidagi juftliklarda yuz bergan:

"A" (yumruq, bosh barmoq yon) ↔ "B" (tekis kaft, barmoqlar yonma-yon)

"Rahmat" (qo'lni ko'ks tomon tortish) ↔ "Kechirasiz" (qo'lni pastga siljitish)

"Ha" ↔ "Yo'q" (barmoq harakati tez va kichik amplitudali)

Bu xatolar asosan imo-ishoralarning fazoviy o'xshashligi va temporal tezlik farqlarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Dropout 0.4 ga ko'tarilgandan so'ng validation loss barqarorlashdi, lekin aniqlik 3% ga tushdi. Data augmentation (vaqt siljishi ±5 frame, koordinatalarga Gauss shovqini σ=0.01, tezlikni 0.9×/1.1× o'zgartirish) qo'llanilganda test aniqligi 80.7% ga yetdi.

Frameworklar taqqoslanganda, PyTorch debug qilish va arxitektura o'zgarishlarini kiritishda qulayroq bo'ldi, TensorFlow esa deployment va SavedModel eksportida afzallik ko'rsatdi. GPU xotira ishlatilishi o'rtacha 6.2GB, epoch davomiyligi 48 soniya.

Muhokama qismida ta'kidlanishicha, LSTM vaqt seriyali ma'lumotlarni qayta ishlashda samarali, ammo uzoq muddatli bog'liqliklarni (long-range dependencies) va bosh a'zolar (yuz ifodasi, tana po'sti) kontekstini hisobga olmaydi. Shuning uchun keyingi bosqichda Spatial-Temporal Graph Convolutional Networks (ST-GCN) va Transformer (Self-Attention) arxitekturalari sinovdan o'tkaziladi. Datasetga yuz landmarklari (MediaPipe Face) va tana po'sti (Pose) qo'shilishi ko'p-modal tizim yaratish imkonini beradi. Shuningdek, real vaqt inferensiya uchun model quantization (INT8) va ONNX export rejalashtirilgan.

Xulosa: O'zbek imo-ishora tili uchun dastlabki dataset muvaffaqiyatli yaratildi va sun'iy intellekt modeli uchun tayyorlandi. Dastlabki LSTM modeli oddiy imo-ishoralarni tanib olishda yuqori aniqlik ko'rsatdi. Kelgusida dataset kengaytiriladi, Transformer arxitekturalari sinab ko'riladi va real vaqt tizimiga integratsiya qilinadi. Olingan natijalar loyihaning keyingi bosqichlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). "Long Short-Term Memory." Neural Computation.
2. Vaswani, A., et al. (2017). "Attention Is All You Need." NeurIPS.
3. O'zbekiston Respublikasi "Imo-ishora tili haqida"gi qonun loyihasi matnlari

FIZIKA DARSLARIDA KO‘RGAZMALI TAJRIBALAR, MOSLASHTIRILGAN VOSITALAR VA RAQAMLI SIMULYATORLARDAN INKLYUZIV FOYDALANISH METODIKASI

Ernazarov Abdurazzoq Nizamiddinovich[1]

1 – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: abdurazzoqernazarov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda fizika darslarida ko‘rgazmali tajribalar va moslashtirilgan vositalardan foydalanish orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari yoritiladi. Fizika hodisalarining mazmunini ko‘rish, eshitish, sezish va amaliy bajarish orqali anglash o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu sababli fizika tajribalarini oddiy vositalar yordamida inklyuziv tarzda tashkil etish, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashtirilgan eksperimentlar yaratish hamda virtual va raqamli simulyatorlardan foydalanishning metodik asoslarini aniqlash zamonaviy raqamli pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, fizika tajribasi, ko‘rgazmalilik, moslashtirilgan vosita, raqamli simulyator, AR/VR, maxsus ehtiyoj.

Fizika fani o‘quvchidan kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, modellashtirish va xulosa chiqarish kabi amaliy-intellektual faoliyatlarni talab qiladi. An’anaviy darsda tajriba ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan namoyish etiladigan jarayon sifatida qolib ketadi. Inklyuziv yondashuvda esa har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos faol ishtirokchi bo‘lishi zarur. Bunda universallik, xavfsizlik, ko‘p kanalli idrok, hamkorlikda bajarish va natijani turli shaklda ifodalash tamoyillari asos qilib olinadi [1].

Fizika darslarida ko‘rgazmali tajribalar va moslashtirilgan vositalardan foydalanish o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni real hodisalar bilan bog‘lashiga yordam beradi. Masalan, kuch, bosim, elektr zanjiri, yorug‘likning sinishi yoki issiqlik almashinuvi kabi mavzularda oddiy buyumlar – karton, shisha idish, suv, ip, rezina, shar, chiroqcha, LED, past kuchlanishli batareya, o‘lchov chizig‘i va smartfon datchiklaridan foydalanish mumkin. Bu vositalar arzon, xavfsiz va o‘quvchi qo‘li bilan bajarishga qulay bo‘lgani uchun tajriba jarayonini demokratiklashtiradi.

Moslashtirish jarayonida o‘quvchining ko‘rish, eshitish, harakatlanish yoki bilish faoliyatidagi individual ehtiyojlari inobatga olinadi. Ko‘rishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun yirik shriftli yo‘riqnoma, kontrast ranglar, relyefli belgilar va og‘zaki izohlar beriladi. Eshitishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun tajriba bosqichlari piktogramma, yozma algoritm va subtitrli video orqali tushuntiriladi. Harakatlanish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun qurilmalar qulay balandlikda joylashtiriladi, natijalar esa hamkor o‘quvchi yoki raqamli sensor orqali qayd etiladi [2].

1-jadval. Oddiy vositalar asosida moslashtirilgan fizika tajribalari

Mavzu	Oddiy vosita	Inklyuziv moslashtirish
Mexanika: kuch va harakat	qiya tekislik, aravacha, shar, ip	relyefli yo‘l, yirik shkala, juftlikda o‘lchash
Optika: yorug‘lik yo‘li	fonar, ko‘zgu, suvli stakan, oq ekran	kontrast fon, katta yo‘nalish strelkalari, og‘zaki tavsif

Elektr: sodda zanjir	batareya, LED, kalit, sim	past kuchlanish, rangli va belgili simlar, xavfsizlik kartasi
Issiqlik: harorat o‘zgarishi	termometr, idish, iliq suv	raqamli datchik, katta ko‘rsatkich, natijani jadvalga kiritish

Fizika tajribalarini oddiy vositalar yordamida inklyuziv tarzda tashkil etish uchun avvalo tajribaning didaktik maqsadi aniqlanadi: qaysi fizik qonun yoki hodisa kuzatiladi, qanday o‘lcham olinadi, o‘quvchi qanday xulosa chiqaradi. Keyingi bosqichda xavfsizlik mezonlari belgilanadi, qurilma soddalashtiriladi va o‘quvchining mustaqil bajarishi uchun qisqa yo‘riqnoma tuziladi. Tajriba jarayonida rollar taqsimlanadi: kuzatuvchi, o‘lchovchi, natijani yozuvchi, izohlovchi. Bunday rollar alohida ehtiyojga ega o‘quvchini passiv kuzatuvchiga aylantirmaydi, balki uning imkoniyatiga mos mas’uliyatni beradi.

Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashtirilgan eksperimentlar yaratish “kamaytirish” emas, balki o‘quv maqsadini saqlagan holda bajarish yo‘lini moslashtirishdir. Masalan, Om qonunini o‘rganishda murakkab laboratoriya stendi o‘rniga LED yorqinligi, past kuchlanishli manba va qarshiliklardan iborat sodda zanjir tanlanadi; natija grafik ko‘rinishida emas, og‘zaki izoh, jadval, piktogramma yoki sensor ko‘rsatkichi asosida ham taqdim etilishi mumkin. Shu tariqa baholash o‘quvchining faqat yozma tezligiga emas, balki fizik mazmunni tushunishiga qaratiladi.

Virtual va raqamli simulyatorlardan foydalanishning metodik asoslari uch bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqich – tajribaga tayyorgarlik: o‘quvchi simulyatsiyada parametrlarni o‘zgartirib, kutilayotgan hodisani oldindan ko‘radi. Ikkinchi bosqich – real tajriba bilan taqqoslash: o‘quvchi oddiy vositalarda olingan natijani simulyatsiya natijasi bilan solishtiradi. Uchinchi bosqich – refleksiya va umumlashtirish: o‘quvchi qaysi sharoitda farq yuzaga kelganini tushuntiradi. Raqamli simulyatorlar, jumladan PhET tipidagi interaktiv muhitlar, xavfli yoki qimmat tajribalarni xavfsiz modellashtirish, ko‘rinmas jarayonlarni vizuallashtirish va parametrlarni tez o‘zgartirish imkonini beradi [3], [4].

Inklyuziv fizika darsida raqamli vositalar faqat “namoyish” uchun emas, balki differensial ta’limni tashkil etish uchun qo‘llanadi. O‘qituvchi simulyator interfeysini oldindan tekshiradi: matn o‘qilishi, rang kontrasti, klaviatura orqali boshqarish, ovozli izoh, subtitr va ekran o‘quvchi bilan mosligi hisobga olinadi. Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari esa o‘quvchining javoblaridagi takroriy xatolarni aniqlash, individual tavsiya berish va laboratoriya varaqasini murakkablik darajasi bo‘yicha moslashtirishda yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq yakuniy pedagogik qaror o‘qituvchi tomonidan, o‘quvchining ehtiyoji va xavfsizligi inobatga olingan holda qabul qilinadi.

Tajriba natijalarini baholash mezonlari ham inklyuziv bo‘lishi lozim. O‘quvchi qurilmani to‘g‘ri yig‘ishi, kuzatish olib borishi, o‘lchash natijasini qayd etishi, sabab-oqibat bog‘liqligini tushuntirishi va xulosani o‘ziga qulay shaklda taqdim etishi baholanadi. Baholash varaqasida “xavfsizlik”, “hamkorlik”, “fizik izoh” va “natijani talqin qilish” kabi bandlar alohida ko‘rsatilsa, har bir o‘quvchining real yutug‘i ko‘rinadi [2].

Xulosa qilib aytganda, ko‘rgazmali tajribalar, oddiy moslashtirilgan vositalar va virtual simulyatorlarning uyg‘un qo‘llanishi fizika ta’limida inklyuziv muhit yaratadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni tajribadan chetlashtirmaydi, aksincha, har birining bilish imkoniyatini ochib beradi. Eng muhim natija shundaki, maxsus ehtiyojli o‘quvchi ham fizik hodisani kuzatish, o‘lchash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonining teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi.

Adabiyotlar:

[1] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all. Paris: UNESCO, 2020.

[2] CAST. Universal Design for Learning Guidelines version 2.2. Wakefield: CAST, 2018.

[3] Wieman C.E., Adams W.K., Perkins K.K. PhET: Simulations that enhance learning // Science, 2008. Vol. 322. № 5902. P. 682–683.

[4] Finkelstein N. et al. High-tech tools for teaching physics: the Physics Education Technology Project // Journal of Online Learning and Teaching, 2006. Vol. 2. № 3. P. 110–121.

DUNYODA RADIOLOGIYA SOHANING HOLATI VA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI TADBIQI

Hasanova Dilafro'z Bo'ronovna

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Sun'iy intellekt (SI) ushbu asrning eng innovatsion texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Uning sog'liqni saqlash sohasiga kirib kelishi tizimni butunlay o'zgartirdi va ta'lim, o'qitish, tashxis qo'yish, davolashni rejalashtirish kabi turli jabhalarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqotchilar rentgen tasvirlari yordamida suyak yo'qolishini aniqlashda SI modellarining turli avlodlari aniqligini sinovdan o'tkazdilar. Biz CNN va YOLO algoritmlarning rentgen tasvirlarni o'qishidagi imkoniyatlarini tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlar. *Rentgen tasvirlari, algoritmlar, konvolyutsion neyron tarmoqlar, qarorlar qabul qilish, ekspert tizimlar.*

Bugun axborot texnologiyalar barcha sohani jad'al rivojlantirishga olib kelayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Xuddi shuningdek axborot texnologiyalari shifokorlik kasbining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Sog'liqni saqlash sohasida raqamli ma'lumotlarning ulushi ortib, sohaga mos axborot tizimlari ishlab chiqilmoqda. Yana sohada uchraydigan ma'lumotlar turli formatlarda bo'lib, bu axborot tizimlariga alohida yondashishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 28.12.2023 PQ-415 sonli "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imzolandi [3]. Qarorda belgilab berilgan dasturlardan qator axborot tizimlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Shulardan DMED-Digital medical elektronik data - Raqamli tibbiy elektron ma'lumotlar yagona elektron axborot tizimi bo'lib, asosan menejment va raqamli elektron tibbiy kartalar ma'lumotlar bazasi sifasida 36 milliondan ortiq tibbiy kartalarni o'zida jamlagan yagona sog'liqni saqlash tizimining yadrosi sifatida xizmat qilayotgan axborot tizimi hisoblanadi [1]. Yana qator axborot tizimlarini ishlab chiqish amaliyotga joriy qilish masalalari qatorida ""Diagnostik tasvirlar almashinuvi, arxivi va teleradiologiya" milliy axborot tizimini yaratish" ham belgilab berilgan tizim 2026-2027 yillarda bajarilishi rejalashtirilgan. Ushbu loyiha uchun "KfW" bankining kredit mablag'lari 6,6 mln yevro mablag' ajratilgan. Hozirda esa radiologiya sohasida Qure.ai tizimi Fujifilm kompaniyasi portativ va statsionar rentgen apparatlari bilan birga sun'iy intellekt modullarini taklif etadi.

[3] https://lex.uz/uz/docs/-6719038

Ushbu qurilmalar tasvir olingan zahoti uni SI orqali tahlil qilib, o‘pka kasalliklari (sil, pnevmoniya, o‘simtalar va boshqa) haqida tezkor xulosa berish imkoniyatini beradi [2]. 2025 yil boshidan stomatalogiya sohasiga ham Janubiy Koreyaning Medit (i600, i700) intraoral skanerlaridan foydalanish orqali sun’iy intelekt algoritmlari orqali karies, tish toshlari, tish ildizlari haqida shifokorga yordamchi xulosalar bera oladi. Bu tizimlar faqat shu uskunalar o‘zagida ishlaydi.

Xalqaro maydonda zamonaviy tibbiyotda rentgenologik tahlilga oid axborot tizimlarini o‘zaro integratsiyalash diagnostika jarayonlarini tashkil etish, ma’lumotlarni boshqarish hamda klinik qarorlar qabul qilish usullarini tubdan yangilab, raqamli sog‘liqni saqlash transformatsiyasining muhim asosiga aylanmoqda. Bu tizimlar yagona, sodda tuzilma emas, balki tasvirlarni saqlash va uzatish tizimlari (PACS), radiologik axborot tizimlari (RIS), shuningdek, tobora keng qo‘llanilayotgan sun’iy intellektga asoslangan kompyuter yordamida aniqlash vositalaridan iborat murakkab ekotizimni tashkil etadi. Shu bilan birga, ularning dunyo bo‘yicha joriy etilishi bir xil emas: ayniqsa Osiyo mintaqasida qo‘llanish darajasi, innovatsion yondashuvlar va mavjud muammolar nihoyatda dinamik va rang-barang ko‘rinishga ega.

Asosan, ushbu axborot tizimlari o‘zaro ishlash va ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash uchun standartlashtirilgan protokollarga tayanadi. Tibbiyotda Digital Imaging and Communications (DICOM) standarti tibbiy tasvirlar uchun universal til bo‘lib xizmat qiladi, u nafaqat piksel ma’lumotlarini, balki bemor identifikatorlari, olish parametrlari va KTdagi Xounsfild birliklari kabi miqdoriy o‘lchovlar kabi muhim metama’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi[3]. RIS radiologiya ish jarayonining asosiy boshqaruv markazi sifatida faoliyat yuritib, buyurtmalarni kiritish va rejalashtirishdan tortib, hisobot tayyorlash hamda hisob-kitoblargacha bo‘lgan barcha bosqichlarni nazorat qiladi. PACS esa tasviriy ma’lumotlarni xavfsiz saqlash, ularni tezkor topish va uzatish uchun javobgardir [3]. Bunday “vazifalarni ajratish”ga asoslangan arxitektura har bir tizimni o‘z funksiyasiga mos ravishda takomillashtirish imkonini yaratadi va natijada ishonchli hamda samarali klinik jarayonlar zanjiri shakllanadi.

Jahon miqyosida yuqori daromadli davlatlar rivojlangan IT infratuzilmasi, qo‘llab-quvvatlovchi me’yoriy-huquqiy asoslar hamda yo‘lga qo‘yilgan moliyalashtirish mexanizmlari hisobiga PACS/RIS tizimlarini yuqori darajada integratsiyalashga erishgan. Aksincha, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda (LMICs) moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, tarmoq infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali mutaxassislar tanqisligi kabi qator muammolar mavjud. Bu omillar esa sog‘liqni saqlash natijalarida sezilarli tafovutlar keltirib chiqaradi [6]. Gumanitar teleradiologiya loyihalari muhim bog‘lovchi mexanizm sifatida shakllanib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali past va o‘rta daromadli mamlakatlardagi (LMIC) chekka va yetarli ta’minlanmagan hududlarga mutaxassis xulosalarini

yetkazib bermoqda. Natijada, bemorlarga o‘z vaqtida va aniq tashxis qo‘yish imkoniyati sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Osiyo qit’asi bu boradagi global tafovutlarni yaqqol ko‘rsatib beruvchi hududlardan biridir. Ayniqsa, Yaponiya va Janubiy Koreya tibbiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

Yaponiyada tibbiy tasvirlarni boshqarish tizimi — PACS milliy darajada to‘liq integratsiya qilingan. Bundan tashqari, mamlakatda farmatsevtika va tibbiy asbob-uskunalarni nazorat qiluvchi maxsus tashkilot — PMDA mavjud bo‘lib, u sun’iy intellektga asoslangan vositalarni, jumladan ko‘krak qafasi rentgen tasvirlarini tahlil qiluvchi tizimlarni rasmiy tasdiqlash tartibini yo‘lga qo‘ygan. Xalqaro miqyosdagi keng qamrovli tadqiqotlar ham Yaponiyaning tasviriy diagnostika sohasidagi rivojlangan infratuzilmasini alohida ta’kidlaydi va uni boshqa davlatlar uchun o‘ziga xos mezon sifatida ko‘rsatadi.

Janubiy Koreyada ham shunga o‘xshash yuqori darajadagi texnologik muhit shakllangan. Mamlakatning rivojlangan telekommunikatsiya infratuzilmasi mobil sog‘liqni saqlash (mHealth) hamda tasvirlash informatikasi kabi murakkab tizimlarning samarali ishlashiga imkon beradi. Biroq bu texnologiyalarni amaliyotga joriy etish jarayoni asosan milliy qonunchilik va tartib-qoidalar bilan belgilanadi[7,8].

Xitoy raqamli sog‘liqni saqlash sohasida faol va keng ko‘lamli milliy siyosat yuritmoqda. Ayniqsa, “Yangi avlod sun’iy intellektni rivojlantirish rejasi” ushbu yo‘nalishda asosiy drayverlardan biri bo‘ldi. Ushbu dastur doirasida mingdan ortiq shifoxonalarda sun’iy intellektga asoslangan rentgen tasvirlarini tahlil qilish tizimlari joriy etildi. Ularning asosiy vazifasi sil, pnevmoniya kabi kasalliklarni aholining katta qatlamida erta aniqlash va ommaviy skrining jarayonlarini samarali tashkil etishdan iborat.

So‘nggi yigirma yil ichida Xitoyda in-situ rentgen-fluoresans (XRF) texnologiyasi izchil va tez sur’atlarda rivojlanib bordi. Bu o‘sish, avvalo, yer osti boyliklarini izlash va o‘rganish, atrof-muhit holatini muntazam kuzatish hamda sanoat jarayonlarini aniq nazorat qilishga bo‘lgan ehtiyoj bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, ushbu yo‘nalishdagi yutuqlar Xitoyning rentgen nurlari asosidagi tahlil usullarini takomillashtirish va keng qo‘llashga katta ahamiyat berayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

Osiyoning boshqa hududlarida esa vaziyat ancha murakkab va bir xil emas. Masalan, Hindiston axborot texnologiyalari sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsada, radiologik xizmatlarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganligi muammo bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ushbu nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan yangi va innovatsion yondashuvlar ham paydo bo‘lmoqda. Jumladan, muvaffaqiyatli teleradiologiya loyihalaridan birida Tripura hududidagi 26 ta qishloq tibbiyot markazi Bangalordagi, 3000 kilometrdan ortiq

masofada joylashgan ixtisoslashgan markaz bilan bog‘langan. Bu tajriba bulut texnologiyalariga asoslangan RIS/PACS tizimlarining qishloq joylarda ham samarali ishlashi mumkinligini amalda isbotlab berdi va sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hindistondagi holatni keng qamrovda o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tizimlarni ommalashtirishda muhim omillar sifatida davlat va xususiy sektor hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, xarajatlarning yuqoriligi va malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq muammolar hali ham asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shunga o‘xshash vaziyat Indoneziyada ham kuzatiladi. Masalan, Yogyakartadagi yirik shifoxonalardan birida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, PACS/RIS tizimlari ikki yil davomida joriy etilganiga qaramay, ulardan to‘liq va samarali foydalanish darajasi pastligicha qolgan. Bu holat, ayniqsa, foydalanuvchilarni yetarli darajada o‘qitish va tizimlarni mavjud ish jarayonlariga chuqur integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mintaqaning resurslari cheklangan hududlarida uchraydigan operatsion muammolar ko‘pincha radiolog mutaxassislar yetishmasligi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda muammoni yumshatish uchun radiograflarning vakolatlarini kengaytirish, ularning malakasini oshirish hamda axborot texnologiyalari bilan qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rentgenologik tahlil tizimlari rivojida eng muhim yo‘nalishlardan biri — sun’iy intellektning chuqur va keng qamrovli joriy etilishidir. Agar ilgari u faqat istiqboldagi texnologiya sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi paytda u klinik amaliyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Sun’iy intellekt takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish, diagnostika aniqligini oshirish hamda radiologlarga murakkab tahliliy vazifalarga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini bermoqda.

Zamonaviy AI platformalari tobora takomillashib, radiologning kundalik ish jarayoniga bevosita moslashmoqda. Xususan, ular DICOM Structured Report (SR) formatidagi izohlar orqali ma’lumotlarni qayta ishlaydi va ochiq manbali RIS tizimlariga integratsiya qilinib, real vaqt rejimida kontekstual yordam ko‘rsatadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt va inson mutaxassislari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu jarayon ish oqimlarini to‘g‘ri tashkil etish, ma’lumotlarni yagona standart asosida shakllantirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni puxta boshqarishni talab etadi.

Alveolyar va peri-implant suyak yo‘qotilishini rentgen tasvirlari asosida baholash uzoq vaqt davomida bir qator muammolar bilan cheklanib kelgan. Xususan, baholash jarayonining

subyektivligi, turli mutaxassislar o‘rtasidagi natijalar tafovuti hamda an’anaviy qo‘lda tahlil usullarining nisbatan past diagnostik aniqligi ushbu sohada jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilgan.

So‘nggi yillarda esa bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan yondashuvlar sezilarli darajada faollashdi. Ayniqsa, chuqur o‘rganish algoritmlari va kompyuter ko‘rish texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yangi avlod sun’iy intellekt tizimlari ishlab chiqildi. Dastlab eksperimental bosqichda sinovdan o‘tkazilgan bu yechimlar bugungi kunda asta-sekin klinik amaliyotga tatbiq etilmoqda va rentgenologik diagnostikaning aniqligi hamda ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D.B.Hasanova. “Sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish istiqbollari”.Fan va texnologiyalar taraqqiyoti, 2025/1.181-185 .
2. D.B.Hasanova. “Chuqur o‘rganish texnologiyasi orqali rentgenda jag‘ suyagi cho‘kishini ko‘rib klassifikatsiyadagi bosqichlarni belgilab berish rentgenologik mezonlari”,2025.312-315.
3. Shah, A., Muddana, P. S., & Halabi, S. (2022). A Review of Core Concepts of Imaging Informatics. Cureus. https://doi.org/10.7759/cureus.32828
4. Eichhorn, K., & Sunderbrink, D. (n.d.). PACS/RIS. In Medizintechnik (pp. 815–822). Springer Berlin Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-540-34103-1_50
5. Hanna, M., Brabin, J., Spuur, K., Keshwan, R., & Chau, M. (2025). A narrative review of the benefits of RIS/PACS and its integration into the radiology departments of low and middle-income countries. Radiography, 31(6), 103185. https://doi.org/10.1016/j.radi.2025.103185
6. Aoyama, T., Koide, Y., Shimizu, H., Urikura, A., Kitagawa, T., Hashimoto, S., Tachibana, H., & Kodaira, T. (2024). A cross-national investigation of CT, MRI, PET, mammography, and radiation therapy resources and utilization. Japanese Journal of Radiology, 43(1), 109–116. https://doi.org/10.1007/s11604-024-01650-z
7. Mendel, J. B., Lee, J. T., Dhiman, N., & Swanson, J. A., Jr. (2019). Humanitarian Teleradiology. Current Radiology Reports, 7(6). https://doi.org/10.1007/s40134-019-0327-7

NO CLONE DASTURINING OCHIQ TA’LIM PLATFORMALARI (LMS, MOOC) BILAN O‘ZARO ISHLASH MEXANIZMLARI

Azimqulov Sayxun Niyozali o`g`li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o`qituvchisi
azimqulov.s@cspi.uz +99890-286-61-61

Annotatsiya. Mazkur tezisda dasturlash ta’limida akademik halollikni ta’minlash, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish va ta’lim sifatini oshirishda “No Clone” dasturining LMS (Learning Management System) hamda MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari bilan integratsiyalashuv mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda “No Clone” tizimining kodlarni avtomatik tahlil qilish, kod klonlari va plagiat holatlarini aniqlash, sun’iy intellekt asosida semantik va funksional o‘xshashliklarni baholash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, REST API, LTI, SCORM va xAPI standartlari asosida LMS tizimlari bilan integratsiyalashuv jarayonlari, bulutli hisoblash va mikroxizmatli arxitektura asosida MOOC platformalarida ishlash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “No Clone” dasturining ta’lim platformalari bilan integratsiyasi baholashning obyektivligini oshirish, plagiat holatlarini kamaytirish, individual ta’limni qo‘llab-quvvatlash hamda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. No Clone, LMS, MOOC, akademik halollik, dasturlash ta’limi, kod klonlari, plagiat, avtomatik baholash, REST API, LTI, SCORM, xAPI, sun’iy intellekt, individual ta’lim, raqamli ta’lim, ta’lim platformalari.

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda oliy ta’lim muassasalari oldida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ushbu jarayonda dasturlash va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bilimini obyektiv baholash, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda akademik halollik tamoyillarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom, EdX, Coursera, FutureLearn, Udacity kabi LMS va MOOC platformalarining ommalashuvi ta’lim jarayonining masofaviy va gibrid shakllarini kengaytirdi. Biroq bunday platformalarda dasturlash topshiriqlarini nazorat qilish va talabalarning ishlarini individual baholash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, kodlarni nusxalash, internet manbalaridan tayyor yechimlardan foydalanish va talabalar o‘rtasida topshiriqlar almashinuvi kabi holatlar baholash natijalarining haqqoniyligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, “No Clone” dasturi dasturlash topshiriqlarida kodlarning o‘xshashlik darajasini aniqlash, kod klonlarini tahlil qilish va akademik halollikni nazorat qilishga qaratilgan innovatsion yechim sifatida alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Xususan, Learning Management System (LMS) va Massive Open Online Courses (MOOC) platformalari ta’limning raqamli transformatsiyasida muhim o‘rin egallab, ta’lim jarayonini boshqarish, nazorat qilish va takomillashtirishning samarali vositalariga aylangan. LMS platformalari o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni taqdim etish, talabalar bilimini baholash, o‘quv faoliyatini

monitoring qilish hamda natijalarni saqlash va tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etuvchi kompleks axborot tizimlari hisoblanadi. Ushbu platformalar yordamida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik uzluksiz davom etib, ta’lim jarayonining shaffofligi va samaradorligi ta’minlanadi. MOOC platformalari esa ta’limning ommaviy va ochiq shaklini rivojlantirishga xizmat qilib, geografik va vaqt cheklovlaridan qat’i nazar millionlab foydalanuvchilarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu platformalar moslashuvchan o‘qitish muhitini shakllantiradi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim olishlariga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, MOOC platformalari katta auditoriyani qamrab olishi sababli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va bilimlarni keng ommaga yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq dasturlash fanlarini o‘qitishda ushbu platformalarda topshiriqlarni tekshirish, talabalar tomonidan bajarilgan ishlarning mustaqilligini aniqlash va plagiat holatlarini nazorat qilish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur muammolarni hal etishda “No Clone” dasturi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur dastur kodlarini avtomatik tahlil qilish, o‘xshashliklarni aniqlash va kod klonlarini topishga mo‘ljallangan intellektual tizim hisoblanadi. Tizim C++, Java, Python, JavaScript, PHP, C#, Kotlin va Go kabi zamonaviy dasturlash tillarida yozilgan kodlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu esa turli ta’lim muassasalari va o‘quv platformalarida qo‘llanilayotgan dasturlash fanlari uchun yagona nazorat mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

“No Clone” dasturining asosiy afzalliklaridan biri turli tipdagi kod klonlarini aniqlash imkoniyatidir. Dastur nafaqat koddagi bo‘sh joylar, izohlar yoki o‘zgaruvchi nomlari o‘zgartirilgan holatlarni aniqlaydi, balki ayrim operatorlar qo‘shilgan yoki olib tashlangan kodlar hamda turlicha yozilgan bo‘lsa-da, bir xil mantiqiy natijaga ega bo‘lgan dasturiy yechimlarni ham tahlil qila oladi. Ayniqsa, uchinchi va to‘rtinchi tipdagi kod klonlarini aniqlash imkoniyati ushbu tizimni an’anaviy plagiat tekshiruv vositalaridan ajratib turadi. Dastur sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish algoritmlaridan foydalangan holda algoritmik o‘xshashliklarni, semantik bog‘liqliklarni hamda funksional ekvivalentlikni aniqlaydi. Natijada talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarning haqiqiy mustaqillik darajasini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

“No Clone” dasturining samaradorligini oshirishda uning LMS platformalari bilan integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega. Integratsiya zamonaviy dasturiy interfeyslar va xalqaro standartlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, REST API texnologiyasi yordamida LMS va “No Clone” tizimlari o‘rtasida avtomatlashtirilgan ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda talaba topshirgan dastur kodi LMS tizimi orqali avtomatik ravishda “No Clone” serveriga yuboriladi. Tizim kodni tahlil qilib, o‘xshashlik darajasi, aniqlangan muammolar va tavsiyalarni o‘z ichiga olgan hisobotni shakllantiradi hamda natijalarni qayta LMS bazasiga uzatadi. Ushbu jarayon inson aralashuvisiz amalga oshirilgani sababli baholashning tezkorligi va obyektivligi ta’minlanadi.

Bundan tashqari, “No Clone” tizimi Learning Tools Interoperability (LTI) standarti asosida ham LMS platformalari bilan ishlashi mumkin. Ushbu standart turli ta’lim tizimlari va tashqi xizmatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi. LTI yordamida foydalanuvchilar yagona autentifikatsiya tizimi orqali platformalarga kirishi, topshiriqlarni sinxronlashtirishi va baholash natijalarini avtomatik uzatishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonining yaxlitligini saqlashga hamda turli dasturiy vositalar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, SCORM va xAPI standartlari yordamida talabalarning o‘quv faoliyatini batafsil monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu texnologiyalar topshiriqlarni bajarish

davomiyligi, urinishlar soni, o‘zlashtirish darajasi va individual rivojlanish dinamikasi haqida ma’lumotlarni yig‘ib, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Natijada o‘qituvchilar talabalar faoliyati haqida keng qamrovli ma’lumotlarga ega bo‘lib, ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“No Clone” dasturining LMS va MOOC platformalari bilan o‘zaro integratsiyasi dasturlash ta’limida akademik halollikni ta’minlash, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish va individual ta’limni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur integratsiya kodlarni chuqur tahlil qilish, plagiat va kod klonlarini aniqlash, real vaqt rejimida monitoring olib borish hamda o‘quv faoliyati bo‘yicha analitik ma’lumotlarni shakllantirish imkonini beradi. Kelajakda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), o‘quv analitikasi (Learning Analytics) va adaptiv ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalashuv “No Clone” tizimining pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dasturlash ta’limi sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida raqamli baholash tizimlarini takomillashtirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ahmad L., Khan A. Artificial Intelligence Applications in Educational Assessment and Academic Integrity Monitoring. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. 2024. – Vol. 21(15). – P. 1–18.
2. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges. *International Journal of Technology Enhanced Learning*. 2022. – Vol. 4(5–6). – P. 304–317.
3. Zhang Y., Li X. Cloud-Based Assessment Systems for Massive Online Learning Platforms. *Journal of Educational Computing Research*. 2024. – Vol. 62(3). – P. 451–470.
4. Bates A.W. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Vancouver: BCcampus, 2022.
5. Siemens G. *Learning Analytics: The Emergence of a Discipline*. American Behavioral Scientist, 2023. – Vol. 57(10). – P. 1380–1400.
6. Ellis R.K. *Field Guide to Learning Management Systems*. Alexandria: ASTD Press, 2021.
7. Horton W. *E-Learning by Design*. 3rd Edition. New Jersey: John Wiley & Sons, 2022.
8. Almarashdeh I. Sharing Instructors Experience of Learning Management System: A Technology Perspective of User Satisfaction in Distance Learning Course. *Computers in Human Behavior*. 2021. – Vol. 63. – P. 249–255.
9. Pankin J., Roberts J., Savio M. Blended Learning at MIT. *MIT White Paper*. Massachusetts Institute of Technology, 2022.
10. OECD. *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. Paris: OECD Publishing, 2023.
11. Urdan T.A., Weggen C.C. *Corporate E-Learning: Exploring a New Frontier*. WR Hambrecht + Co., 2021.
12. Roy C.K., Cordy J.R., Koschke R. Comparison and Evaluation of Code Clone Detection Techniques and Tools: A Qualitative Approach. *Science of Computer Programming*. 2021. – Vol. 74(7). – P. 470–495.
13. Bellon S., Koschke R., Antoniol G., Krinke J., Merlo E. Comparison and Evaluation of Clone Detection Tools. *IEEE Transactions on Software Engineering*. 2022. – Vol. 33(9). – P. 577–591.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MAZMUNI, FUNKSIONAL IMKONIYATLARI HAMDA ULARNING ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

Abdukarimova Gavhar Dilmurod qizi

TIQXMMI MTU tayanch doktoranti

e-mail: g.abdukarimova@tiiame.uz | ORCID iD: 0009-0006-4165-4694

ANNOTATSIYA

Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining mohiyati, tarkibiy tuzilishi va funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu vositalarni qo‘lashning nazariy asoslari, pedagogik maqsadga muvofiqligi va integratsiya yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, texnologiya asosida baholash va monitoring tizimlarini tashkil etish kabi amaliy masalalar yoritiladi. Muhandislik ta’limi misolida grafik kompetentlikni shakllantirishda texnologiyalarning o‘rni ko‘rsatiladi. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha milliy hujjatlar tahlili asosida integratsiyaning asosiy imkoniyatlari va tizimli to‘siqlari aniqlanadi. Algoritmik xolislik, ma’lu’motlar xavfsizligi va akademik halollik kabi etik muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, adaptiv ta’lim, raqamli kompetensiya, grafik kompetentlik, muhandislik ta’limi, intellektual o‘qitish tizimlari, baholash tizimi, algoritmik xolislik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются сущность, структурный состав и функциональные возможности технологий искусственного интеллекта. Рассматриваются теоретические основы, педагогическая целесообразность и направления интеграции цифровых инструментов в современный образовательный процесс. Затрагиваются практические вопросы развития цифровых компетенций педагогов и организации систем оценивания и мониторинга. Роль технологий ИИ в формировании графической компетентности рассмотрена на примере инженерного образования. На основе анализа национальных стратегических документов Узбекистана выявлены ключевые возможности и системные препятствия для интеграции. Рассматриваются также этические проблемы: алгоритмическая объективность, безопасность данных и академическая честность.

Ключевые слова: искусственный интеллект, машинное обучение, адаптивное обучение, цифровая компетентность, графическая компетентность, инженерное образование, алгоритмическая объективность.

ABSTRACT

This article analyses the essence, structural composition, and functional capabilities of artificial intelligence technologies. The theoretical foundations, pedagogical appropriateness, and integration directions of applying digital tools in the modern educational process are examined. Practical issues such as developing teachers' digital competencies and organising technology-based assessment and monitoring systems are addressed. The role of these technologies in developing graphic competence is illustrated through the example of engineering education. Based on the analysis of Uzbekistan's national strategic documents and local research, the key opportunities and systemic barriers to integration are identified. Ethical issues — including algorithmic fairness, data security, and academic integrity — are also addressed.

Keywords: artificial intelligence, machine learning, adaptive learning, digital competency, graphic competence, engineering education, intelligent tutoring systems, algorithmic fairness.

KIRISH

To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sohasiga ham chuqur kirib bormoqda. An’naviy o‘qitish modeli — yagona dars reja, bir xil topshiriq, umumiy baholash — har bir talabaning o‘ziga xos o‘lash sur’ati va kognitiv xususiyatlarini hisobga olmaydi. Zawacki-Richter va boshq. (2019) umumlashtirgan 146 ta tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalari, xususan intellektual o‘qitish tizimlari, ushbu muammoga samarali yechim bo‘la oladi [18].

O‘zbekistonda bu jarayon davlat siyosati darajasida mustahkamlandi. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [9], “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun [10] va 2024 yilda qabul qilingan sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi [11] — bu hujjatlar to‘lami O‘zbekistonning raqamli pedagogikaga o’tish yo‘lini belgilab beradi. Biroq siyosiy irada va amaliy holat o’rtasidagi tafovut — infratuzilma nomutanosibligi, pedagog kompetensiyasining pastligi, mahalliy tildagi kontent tanqisligi — hali yechimini kutmoqda [2], [3].

Shu bilan birga, texnologiyani joriy etish o‘z-o‘zidan natija bermaydi. O‘qituvchining raqamli tayyorgarligi, baholash va monitoring tizimlarining to’g’ri tashkil etilishi hamda pedagogik maqsadlar bilan texnologik imkoniyatlarning uyg’unlashuvi — bular muvaffaqiyatning asosiy shartlaridir. Ushbu maqolada shu shartlarning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli ta’lim texnologiyalarining mohiyatini ochib berish, ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvining nazariy zaminini belgilash, O‘zbekiston kontekstidagi to‘siqlarni aniqlash va amaliy tatbiq yo‘nalishlarini ko‘rsatish. Qo‘yilgan vazifalar: texnologiyaning tarkibiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini tahlil qilish; pedagogik nazariyalar bilan bog’lanishini ko‘rsatish; o‘qituvchi kompetensiyasi va baholash tizimlari masalalarini yoritish; muhandislik grafikasi misolida grafik kompetentlikni shakllantirishda qo‘llanish yo‘nalishlarini aniqlash; etik muammolarni ko‘rib chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli ta’lim texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar ikkita asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: tizimning texnologik tuzilishi va uning pedagogik samaradorligi. Russell va Norvig (2020) texnologiyaning zamonaviy ta’rifini beradi: katta hajmdagi ma’lu’motlardan

qonuniyatlarni aniqlay oladigan, tilni tushunadigan, vizual ma’lu’motni qayta ishlay oladigan va murakkab qaror qabul qila oladigan tizimlar [13]. Bu ta’rif an’naviy dasturlashdan tubdan farq qiladi va pedagogikaga yangi imkoniyat ochadi.

Pedagogik samaradorlik nuqtai nazaridan eng muhim topilma Bloom (1984) ga tegishli: individual repetitor bilan ishlagan talaba sinf sharoitidagi tengdoshidan ikki standart og’ish yuqoriroq natija ko‘rsatadi — bu “2 sigma muammosi” deb atalgan [4]. VanLehn (2011) 26 ta tadqiqotni meta-tahlil qilib, intellektual o‘qitish tizimlarining effekt hajmi d = 0.76 ekanligini aniqladi — insoniy repetitorlik (d = 0.79) darajasiga juda yaqin ko‘rsatkich [16]. Bu raqamlar texnologiyaning oddiy yordamchi quroldan ko‘proq narsa ekanligini ko‘rsatadi.

Til modellari sohasida Brown va boshq. (2020) GPT tizimining imkoniyatlarini ko‘rsatdi: nafaqat matn yaratish, balki talaba savollariga javob berish, yozma ishlarni baholash va individual fikr-mulohaza bildirish [5]. Kasneci va boshq. (2023) bu topilmalarni ta’lim kontekstiga o’girib, katta til modellarining shaxsiylashtirilgan tushuntirish berish va o‘qish materiallarini moslashtirish imkonini tahlil qildi [6]. Biroq ular bir muhim ogohlantirishni ham beradi: texnologiya o‘qituvchi tomonidan tanqidiy tushunilmasdan qo‘llanilsa, foyda o’rniga zarar yetkazishi mumkin.

Kompyuterli ko‘rishda LeCun, Bengio va Hinton (2021) neyron tarmoqlar asosidagi tizimlarning vizual ma’lu’motlarni idrok etishda insonga yaqinlashib borayotganini ko‘rsatdi [7]. Bu muhandislik grafikasi uchun bevosita ahamiyatga ega: talabaning eskizlarini proportsiya, chiziq sifati va geometrik aniqlik bo‘yicha avtomatik tahlil qilish imkoni paydo bo‘la’di.

Pedagogik nazariya nuqtai nazaridan Vygotsky (1978) ning “yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD) konsepsiyasi eng mos asos hisoblanadi [17]. Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan yangilangan Bloom taksonomiyasi [1] sun’iy intellektning kognitiv ierarxiyaning quyi bosqichlarini (eslab qolish, tushunish, qo‘lash) avtomatlashtirib, o‘qituvchi va talabaning resurslarini yuqori tartibli ko‘nikmalar — tahlil, sintez, baholash, yaratish — ga yo‘naltirish imkonini beradi. Siemens (2005) ning konnektivizm nazariyasi esa raqamli asrdagi bilimni odamlar, texnologiyalar va ma’lu’motlar bazalari o’rtasidagi aloqalar tarmog’ida joylashgan deb izohlaydi [14].

Mahalliy tadqiqotlar o‘ziga xos vaziyatni aks ettiradi. Ashurov (2024) O‘zbekiston oliy ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning muammo va istiqbollarini o’rganib, infratuzilma, kadrlar tayyorlash va ma’lu’mot xavfsizligini asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatdi [2]. Ashurov (2025) zamonaviy oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan o‘zbek tilidagi kontent tanqisligini tahlil qildi [3]. Mansurov (2025) esa sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish modellarini ishlab chiqib, adaptiv tizimlar va generativ sun’iy intellektni birlashtirgan yechimlar taklif etdi [8].

Zawacki-Richter va boshq. (2019) adabiyotlar tahlilida muhim bo‘shliqqni aniqladi: ko‘pchilik tadqiqotlar texnik imkoniyatlarni ko‘rsatadi, ammo etik oqibatlar, algoritmik taraflama va raqamli tengsizlik masalalari yetarlicha o’rganilmagan [18]. Puentedura (2006) ning SAMR modeli esa texnologiya integratsiyasining to‘rtita darajasini — almashtirish, kuchaytirish, o‘zgartirish, qayta belgilash — aniqlaydi va amaliy tatbiq yonalishlarini baholashda foydali asos bo‘lib xizmat qiladi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Adabiyotlar qidiruvida Scopus, Web of Science, ERIC va Google Scholar bazalari qo‘llanildi. Qidiruv so‘zlari: “artificial intelligence in education”, “intelligent tutoring systems”, “adaptive learning”, “digital competence”, “graphic competence engineering”. Vaqt doirasi: 1984–2025 yillar; asosiy e’tiborga 2018 yildan keyingi nashrlar olindi. Dastlabki qidiruvda 200 dan ortiq xalqaro manba aniqlandi; mavzu mosligi, metodologik sifat va iqtibos ko‘rsatkichlari bo‘yicha tanlov natijasida 10 ta xalqaro manba belgilandi.

Milliy siyosat hujjatlari va mahalliy tadqiqotlar qo‘shimcha manbalar sifatida kiritildi: “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun, 2024 yilgi sun’iy intellekt strategiyasi hamda Ashurov (2024, 2025) va Mansurov (2025) tadqiqotlari. Bu O‘zbekiston kontekstida integratsiyaning amaliy imkoniyatlari va to‘siqlarini baholash imkonini berdi.

Ma’lu’motlarni yig’ish uch yo‘nalishda amalga oshirildi: (1) texnologiyaning tuzilishi va funksional imkoniyatlariga oid nazariy manbalar; (2) pedagogik samaradorlikni empirik tarzda o’lchagan tadqiqotlar; (3) ta’limga integratsiya yo‘nalishlarini tahlil qilgan tizimli ko‘rib chiqishlar. Tahlilda uch bosqichli yondashuv qo‘llanildi: tematik kodlash, takrorlanuvchi pedagogik prinsiplarni ajratish, topilmalarni muhandislik grafikasi va O‘zbekiston kontekstiga tatbiq etish.

NATIJALAR

Texnologiyaning tuzilishi va funksional imkoniyatlari

Zamonaviy raqamli ta’lim tizimlari to‘rt o‘zaro bog’li moduldan iborat. Ma’lu’motlarni qayta ishlash moduli talabaning xatti-harakatlari, javoblari va sarflangan vaqtini to’laydi. O‘qitish va modellashtirish moduli mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida talabaning bilim darajasini baholab, qiyinchilik zonalarini aniqlaydi. Qaror qabul qilish moduli keyingi topshiriqning qiyinlik darajasini va turini belgilaydi. Muloqot moduli tabiiy til yoki grafik interfeys orqali talaba bilan bevosita aloqani ta’minlaydi. Hozirgi tijorat tizimlari tor intellekt (ANI) toifasiga kiradi — ya’ni muayyan vazifa doirasida ixtisoslashgan.

Adaptiv o‘qitish va prognoz tahlili

Adaptiv tizimlar Vygotsky [17] ning ZPD nazariyasiga asoslanib, talabaning hozirgi darajasidan bir qadam yuqorida turuvchi topshiriqlar bilan uni o‘stiradi. Tizim uchta savolga javob beradi: talaba nimani o’llashtirgan, qaysi uslub unga mos, navbatdagi mavzuni qachon taqdim etish kerak. Prognoz tahlili esa dastlabki faoliyat ko‘rsatkichlari asosida xavf guruhidagi talabalarni erta aniqlashga va o‘qituvchining e’tiborini yo‘naltirishga imkon beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari va pedagogik nazariya

Konstruktivizm (Piaje, Vygotsky) ta’limotiga ko‘ra bilim passiv qabul qilinmaydi, balki faol quriladi. Interaktiv raqamli muhitlar aynan shu prinsip asosida ishlaydi. Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan yangilangan Bloom taksonomiyasi [1] sun’iy intellektning quyi kognitiv bosqichlarni — eslab qolish, tushunish, qo‘lash — avtomatlashtirib, o‘qituvchi resurslarini yuqori tartibli ko‘nikmalar — tahlil, sintez, baholash, yaratish — ga yo‘naltirish imkonini beradi. Konnektivizm nazariyasi [14] esa texnologiyani bilim tarmog’ining tugunlari sifatida ko‘ra’di. SAMR modeli [12] bo‘yicha eng yuqori daraja — qayta belgilash — avval

mumkin bo’lmagan imkoniyatlar yaratadi: masalan, talaba o‘z grafik loyihasini 3D virtual muhitda sinab ko‘ra’di va real vaqtda teskari aloqa oladi.

O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi

Texnologiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining tayyorgarligiga bog’liq. Kasneci va boshq. (2023) ta’kidlaganidek, yirik til modellaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi ularning imkoniyatlarini ham, cheklovlarini ham bir xil darajada tushunishi lozim [6]. Raqamli kompetensiya to‘rt qatlamdan iborat: texnologik savodxonlik (platformalardan foydalana olish), pedagogik integratsiya (o‘qish maqsadlariga mos qo‘lash), tanqidiy baholash (tizim tavsiyalarini qayta ko‘rib chiqish) va etik mas’uliyat (ma’lu’motlar maxfiyligi, algoritmik adolat). Muhandislik grafikasi o‘qituvchisi, masalan, nafaqat CAD dasturlarini, balki kompyuterli ko‘rishda qaysi xatolarni aniqlay olmasligini ham bilishi zarur.

Baholash va monitoring tizimlari

An’naviy baholash talabaning bilim darajasini faqat ma’lu’m nuqtalarda — imtihon, test — suratga oladi. Raqamli monitoring tizimlari esa to‘rt funksiyani uzluksiz bajaradi: formativ baholash (real vaqtda xatoni ko‘rib to’g’rilash), diagnostik tahlil (qaysi tushunchalar o'zlashtirilmaganligini aniqlash), prognozli monitoring (keyingi natijalarni oldindan ko‘rsatish) va jamoaviy tahlil (guruh bo‘yicha qiyinchilik to’langan mavzularni aniqlash). Muhandislik grafikasi kursida bu tizim talabaning har bir harakatini — vosita tanlashdan tortib xato takrorlashgacha — qayd etib boradi va semestr oxirida o‘qituvchi faqat yakuniy chizmani emas, balki butun o‘quv traektoriyasini ko‘ra oladi.

Grafik kompetentlikni shakllantirishda qo‘llanish yo‘nalishlari

Muhandislik grafikasi sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’limga tatbiq etishning namunali maydoni sifatida alohida ahamiyatga ega. To‘rtita qo‘llanish yo‘nalishi aniqlandi: (1) fazoviy tasavvurni rivojlantirish — murakkab geometrik jismlarni turli rakurslardan 3D interaktiv ko‘rinishda namoyish etish; (2) individual baholash — talabaning chizmasi o’lcham aniqligi, chiziq turi, proyeksiya muvofiqligi va standartlarga rioya qilish bo‘yicha avtomatik tahlil qilinadi; (3) o‘yin asosidagi o‘qitish — murakkabligi oshib boruvchi grafik muammolar ketma-ketligi; (4) xatolardan o‘qitish — tizim statistik jihatdan eng ko‘p takrorlanadigan xatolarni aniqlab, aynan shu xato turlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan mashqlar taklif etadi.

O‘zbekiston konteksti: imkoniyatlar va tizimli to‘siqlar

O‘zbekistonda raqamli ta’limga o’tish siyosiy irada darajasida mustahkam asoslangan. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [9], “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun [10] va 2024 yilda qabul qilingan sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi [11] — bu hujjatlar to‘lami O‘zbekistonning raqamli pedagogikaga o’tish yo‘lini belgilab beradi. Mahalliy tadqiqotlar [2], [3] va [8] esa ushbu siyosiy maqsadlar bilan amaliy holat o’rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi.

Ashurov (2024) [2] tadqiqotida O‘zbekiston oliy ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish uchun uchta zarur shart belgilangan: (1) raqamli infratuzilmaning yetarli darajaga yetkazilishi; (2) o‘qituvchilarning sun’iy intellekt vositalarini didaktik jihatdan qo‘lash kompetensiyasini oshirish; (3) ma’lu’mot xavfsizligi tizimlarini mustahkamlash. Ashurov (2025) [3] zamonaviy oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati sifatida o‘zbek tilidagi kontent tanqisligini alohida ta’kidlaydi. Global

sun’iy intellekt platformalarining asosan ingliz tilida o‘qitilganligi O‘zbekiston talabalari uchun raqamli imkoniyatlarga teng kirish huquqini cheklaydi — bu raqamli tengsizlikning mahalliy ko‘rinishi bo‘lib, UNESCO (2023) [15] ham ushbu muammoni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb deb belgilagan.

Mansurov (2025) [8] ishlab chiqqan individuallashtirish modellari asosida ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muhitida adaptiv sun’iy intellekt tizimlari amalda ishlashi uchun mahalliy tildagi o‘quv kontent bazasini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bloom [4] va VanLehn [16] tomonidan aniqlangan empirik ko‘rsatkichlar texnologiyaning insoniy repetitorlik darajasiga yaqinlashganini tasdiqlaydi; biroq bu natijalar asosan ingliz tilidagi muhitda olingan — o‘zbek tilidagi ma’lu’motlarda o‘qitilmagan model mahalliy talabalarga past sifatli javob berishi ehtimoli yuqori [3].

Mahalliy kontekstda uchta asosiy tizimli to‘siq ajralib turadi: infratuzilma nomutanosibligi (ta’lim muassasalari orasida raqamli jihozlanganlik darajasining katta farqi), pedagog kompetensiyasining pastligi (SAMR [12] modelining birinchi darajasidan — almashtirish — nariroq o’ta olmaslik holatlari) va mahalliy tildagi kontent tanqisligi (o‘zbek tilida sifatli sun’iy intellekt treningi uchun etarli ma’lu’motlar bazalarining yo’lqligi). Bu to‘siqlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim ustuvorliklarni belgilaydi.

Etik va ijtimoiy o’lcham

Sun’iy intellekt integratsiyasining etik o’lchami uchta alohida muammo orqali tahlil qilinadi.

Algoritmik xolislik. Katta til modellari o‘qitilgan ma’lu’motlar to’lami strukturaviy notengligi ularda o‘zgarmas holda saqlanadi va ta’lim muhitiga joriy etilganda ayrim guruhlar uchun tizimli tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. UNESCO (2023) [15] va Ashurov (2025) [3] ushbu muammoni O‘zbekiston kontekstida dolzarb deb ta’kidlaydi: o‘zbek tilida yetarli kontent bilan o‘qitilmagan model mahalliy talabalarga past sifatli javob beradi. Zawacki-Richter va boshq. [18] ham algoritmik taraflamani ta’limda sun’iy intellekt tadqiqotlarida yetarlicha ko‘rib chiqilmagan muammo sifatida belgilagan.

Ma’lu’motlar xavfsizligi. Ta’lim muhitida sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning kognitiv profillari va o’rganish naqshlari kabi nozik shaxsiy ma’lu’motlarni to’laydi. Ashurov (2024) [2] ma’lu’mot xavfsizligini O‘zbekiston oliy ta’limida sun’iy intellektni joriy etishning asosiy to‘sig’i sifatida ko‘rsatadi. Mansurov (2025) [8] individuallashtirish modellarini loyihalashda ma’lu’motlar maxfiyligini ta’minlash zarurligini alohida mezon sifatida kiritgan.

Akademik halollik. Kasneci va boshq. (2023) [6] ta’kidlaganidek, aniq etik me’yorlar belgilanmagan taqdirda generativ sun’iy intellekt mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan ko‘ra ularni o’rinbosarligiga olib kelish ehtimoli yuqori. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun sun’iy intellekt foydalanish etikasiga oid institutsional qoidalar ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin.

Birinchidan, raqamli ta’lim texnologiyalari an’naviy pedagogik yondashuvlarni inkor etmaydi — ularni boyitadi va individuallashtiradi. VanLehn [16] va Bloom [4] tomonidan

aniqlangan empirik koʻrsatkichlar texnologiyaning insoniy repetitorlik darajasiga yaqinlashganini tasdiqlaydi. **Ikkinchidan,** Vygotsky [17], Siemens [14] va konstruktivizm nazariyalari raqamli ta'lim integratsiyasining pedagogik asoslanishini toʻla ta'minlaydi; Anderson va Krathwohl [1] ning yangilangan Bloom taksonomiyasi esa sun'iy intellektning quyi kognitiv bosqichlarni avtomatlashtirib, yuqori tartibli koʻnikmalar uchun resurs ozod qilish imkonini koʻrsatadi. **Uchinchidan,** SAMR modeli [12] boʻyicha eng yuqori daraja — qayta belgilash — faqat oʻqituvchi va texnologiya birgalikda ishlagan holda erishiladi.

Toʻrtinchidan — Oʻzbekiston konteksti uchun alohida muhim — sun'iy intellekt integratsiyasining asosiy toʻsig'i texnologiyaning oʻzi emas: infratuzilma nomutanosibligi, pedagog kompetensiyasining pastligi va mahalliy tildagi kontent tanqisligi hal qiluvchi omillar boʻlib qolmoqda [2], [3], [8]. **Beshinchidan,** algoritmik xolislik, ma'lu'motlar xavfsizligi va akademik halollik masalalari amaliy joriy etishda e'tibordan chetda qolmasligi kerak [6], [15], [18].

Amaliy takliflar toʻrt yoʻnalishda shakllandi. Oʻqituvchilarni tayyorlash boʻyicha: qayta tayyorlash dasturlarida texnik koʻnikmalar bilan bir qatorda tanqidiy raqamli tafakkur va etik mas'uliyat mavzulari alohida oʻrin egallashi kerak [6]. Tizimni joriy etish boʻyicha: Puentedura [12] ning SAMR modeli bosqichma-bosqich tatbiq etilishi zarur. Monitoring tizimi boʻyicha: summativ baholash o'rniga formativ va diagnostik funksiyalarga urg'uberiluvchi uzluksiz monitoring tizimi joriy etilishi kerak. Mahalliy kontent boʻyicha: oʻzbek tilidagi sun'iy intellekt treningi uchun sifatli ma'lu'motlar bazasini shakllantirish davlat va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq [8].

Keyingi tadqiqotlar uchun ustuvor yoʻnalishlar: muhandislik grafikasi ta'limida raqamli texnologiyalarni qoʻlashning muayyan metodikalarini ishlab chiqish va eksperimental sinov o'tkazish; Oʻzbekiston kontekstida oʻqituvchi va talabalar tajribasini sifatli tadqiqot orqali o'rganish; algoritmik xolislik va ma'lu'motlar xavfsizligiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Anderson L.W., Krathwohl D.R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Educational Objectives. — New York: Longman, 2001.

[2] Ashurov J.D. Oliy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: muammolar va istiqbollar // Advanced Methods of Ensuring the Quality of Education: Problems and Solutions. — 2024. — Vol. 1, No. 3. — B. 112–118.

[3] Ashurov J.D. Zamonaviy oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari // Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali. — 2025. — 2(2). — B. 57–59.

[4] Bloom B.S. The 2 Sigma Problem: The Search for Methods of Group Instruction as Effective as One-to-One Tutoring // Educational Researcher. — 1984. — Vol. 13, No. 6. — P. 4–16. DOI: 10.3102/0013189X013006004

[5] Brown T.B., Mann B., Ryder N. [va boshq.]. Language Models are Few-Shot Learners // Advances in Neural Information Processing Systems. — 2020. — Vol. 33. — P. 1877–1901.

[6] Kasneci E., Sessler K., Kuchemann S. [va boshq.]. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. — 2023. — Vol. 103. — Art. 102274. DOI: 10.1016/j.lindif.2023.102274

[7] LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep Learning for AI // Communications of the ACM. — 2021. — Vol. 64, No. 7. — P. 58–65. DOI: 10.1145/3448250

[8] Mansurov A.S. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish modellarini ishlab chiqish // Ta'limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari va Rivojlanish Omillari. — 2025. — 49(1). — B. 18–21.

[9] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. — 2020. — https://lex.uz

[10] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — 2020. — https://lex.uz

[11] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-son Qarori. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. — 2024. — https://lex.uz

[12] Puentedura R.R. Transformation, Technology, and Education. — 2006. — URL: http://hippasus.com/resources/tte/

[13] Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. — Hoboken, NJ: Pearson, 2020.

[14] Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. — 2005. — Vol. 2, No. 1. — P. 3–10.

[15] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris: UNESCO Publishing, 2023.

[16] VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems // Educational Psychologist. — 2011. — Vol. 46, No. 4. — P. 197–221. DOI: 10.1080/00461520.2011.611369

[17] Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

[18] Zawacki-Richter O., Marin V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education — where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2019. — Vol. 16. — Art. 39. DOI: 10.1186/s41239-019-0171-0

REAL VAQT REJIMIDA IMO-ISHORA HARAKATLARINI ANIQLASH UCHUN KOMPYUTER KO'RISHI ASOSIDAGI TIZIMNING DASTLABKI NATIJALARI

Rajabov O.T

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, Chirchiq

Email: o.rajabov@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim muhitida eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan talabalar uchun real vaqtli surdo tarjimon tizimini yaratish loyihasi doirasida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar natijalari bayon etilgan. Tizimning asosiy komponenti sifatida video oqimidan qo'l va barmoq harakatlarini aniqlash hamda ularning koordinatalarini real vaqt rejimida qayta ishlash moduli ishlab chiqildi. OpenCV kutubxonasi va MediaPipe texnologiyasi yordamida inson qo'l landmarklarini aniqlash algoritmi sinovdan o'tkazildi. Dastlabki eksperimentlar natijasida tizim statik va oddiy dinamik imo-ishoralarni 85% aniqlik bilan tanib olish imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatildi. Shuningdek, qo'l harakatlarining koordinatalarini olish va ularni keyingi tahlil uchun tayyorlash jarayoni optimallashtirildi. Ushbu natijalar kelgusida murakkab imo-ishoralarni tanib olish va ularni matn/ovozga aylantirish tizimini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi.

Kalit so'zlar: surdo tarjimon tizimi, kompyuter ko'rishi, real vaqtli aniqlash, MediaPipe, OpenCV, imo-ishora tanib olish, inklyuziv ta'lim.

Kirish: Inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi barcha toifadagi o'quvchilar, xususan, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan talabalar uchun teng huquqli ta'lim imkoniyatlarini yaratishni talab etadi. An'anaviy ta'lim jarayonida surdo tarjimonlarning yetishmasligi, ularning dars davomida doimiy mavjud bo'la olmasligi hamda real vaqt rejimida tarjima sifatining o'zgaruvchanligi o'quv jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan hisoblanadi. Sun'iy intellekt va kompyuter ko'rishi (Computer Vision) texnologiyalarining so'nggi yillardagi keskin rivojlanishi imo-ishora tilini avtomatik ravishda tanib olish va matn/ovozga aylantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq, ko'pchilik mavjud tizimlar xorijiy tillarga moslashtirilgan, yuqori hisoblash quvvatini talab qiluvchi yoki real vaqt rejimida past barqarorlikka ega bo'lgan yechimlardir. O'zbekiston sharoitida esa o'zbek imo-ishora tiliga xos lingvistik va motorik xususiyatlarni hisobga olgan, past resursli qurilmalarda ham ishlay oladigan, real vaqtli tizimlar deyarli mavjud emas.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi inklyuziv ta'lim muhitida talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun real vaqt rejimida ishlaydigan, kamerali qurilmalar orqali qo'l harakatlarini aniqlaydigan va ularning koordinatalarini qayta ishlaydigan dasturiy modulni ishlab chiqishdir. Tadqiqot yangiligi shundaki, tizim arxitekturasi ochiq kutubxonalar (OpenCV, MediaPipe) asosida qurilib, o'quv muhitidagi o'zgaruvchan sharoitlarga (yorug'lik, fon, harakat tezligi) moslashuvchanlik darajasi baholangan. Shuningdek, dastlabki klassifikatsiya bosqichida statik va sodda dinamik imo-ishoralarni tanib olish imkoniyati sinovdan o'tkazilgan.

Materiallar va usullar: Tadqiqotda dasturiy platforma Python 3.10 dasturlash tili asosida ishlab chiqildi. Video oqimini qabul qilish va qayta ishlash uchun OpenCV 4.8 kutubxonasi, qo'l landmarklarini aniqlash uchun esa Google tomonidan ishlab chiqilgan MediaPipe Hands modeli

(v0.8.10) qo'llanildi. Eksperimental o'rnatma sifatida 1080p rezolyutsiyali standart veb-kamera (30 FPS) ishlatildi. Tizim arxitekturasi quyidagi ketma-ket modullardan iborat:

Video oqimini olish va oldindan qayta ishlash: Har bir kadr RGB formatida o'qilib, 640×480 o'lchamga keltirildi. Yorug'lik farqlarini minimallashtirish uchun adaptiv kontrastni kuchaytirish (CLAHE) va Gauss shovqinini filtrlash qo'llanildi.

Qo'l deteksiyasi va landmarklarni ekstraksiya: MediaPipe modeli har bir kadrda qo'lning 21 ta asosiy nuqtasini (barmoq uchları, bo'g'imlar, bilak) aniqlab, ularning 3D koordinatalarini (x, y, z) qaytardi. Koordinatalar 0–1 oralig'ida normalizatsiya qilindi.

Koordinatalarni filtrlash va vaqt seriyasiga aylantirish: MediaPipe natijalaridagi kichik tebranishlarni bartaraf etish uchun eksponensial silliqlovchi filtr (α=0.75) qo'llanildi. Koordinatalar frame_id vaqt belgisi bilan birga CSV formatida saqlanib, keyingi tahlil modullariga uzatildi.

Dastlabki klassifikatsiya sinovi: 10 ta asosiy statik va sodda dinamik imo-ishora uchun k-NN (k=5) va SVM (RBF kernel) algoritmlari sinovdan o'tkazildi. Model train/test split 80/20 nisbatda ajratildi.

Baholash metrikalari: real vaqt ishlatish ko'rsatkichi (FPS), landmark aniqlanish ulushi, koordinatalarni qayta ishlash kechikishi (ms), hamda boshlang'ich tasniflash aniqligi (%). Eksperimentlar laboratoriya sharoitida (bir jinsli fon, o'rtacha yorug'lik 500 lux) va o'quv sinfi sharoitida (o'zgaruvchan fon, 300–800 lux) o'tkazildi.

Natijalar va muhokama: Olib borilgan ishlar natijasida tizim videodan qo'l landmarklarini real vaqt rejimida o'rtacha 30 FPS tezlikda va 32 ms kechikish bilan aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Optimal sharoitda (bir jinsli fon, yetarli yorug'lik) 21 ta landmarkning aniqlanish ko'rsatkichi 96.4% ni tashkil etdi. O'quv sinfi sharoitida esa fon shovqini va qo'lning qisman yopilishi (occlusion) sababli bu ko'rsatkich 88.2% ga pasaydi. Silliqlovchi filtr qo'llanilgandan so'ng koordinatalardagi tebranishlar 60% ga kamaydi, bu esa keyingi dinamik tasniflash bosqichi uchun barqaror kirish ma'lumotlarini ta'minladi.

Dastlabki gesture classification eksperimentlarida 10 ta imo-ishora uchun o'rtacha 85.1% aniqlik qo'lga kiritildi. Eng yuqori natija "salom", "to'xta" va "men" kabi aniq barmoq konfiguratsiyasiga ega ishoralarda (89–92%) kuzatildi. Eng past natija esa barmoqlar yaqin joylashgan va harakat yo'nalishi o'xshash bo'lgan ishoralarda (78–81%) qayd etildi. Tizimning kamchiliklari sifatida quyidagilar aniqlandi:

Tez harakatlar paytida MediaPipe modelining frame-lag ko'rsatishi;

Qo'l ekran chegarasidan chiqqanda yoki ikkinchi qo'l bilan to'silganda deteksiya uzilishi;

Yorug'likning keskin o'zgarishi (masalan, deraza yonidagi joy) kontrastni pasaytirib, landmark aniqligini kamaytirishi.

Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotlar (Camgoz et al., 2018; MediaPipe benchmarklari) bilan solishtirilganda, tizimning real vaqt ishlash qobiliyati va past hisoblash talabi jihatidan ustunlik qilishi, ammo murakkab dinamik ishoralarni tanib olishda vaqt seriyali modellarga (LSTM, Transformer) ehtiyoj borligi tasdiqlandi. Shuning uchun keyingi bosqichda koordinatalarning vaqt seriyali tahlili, spatial-temporal attention mexanizmlari va fon-ajratish (background subtraction) algoritmlari integratsiya qilinishi rejalashtirilgan..

Xulosa: Olib borilgan ishlar natijasida real vaqt rejimida imo-ishora harakatlarini aniqlash va koordinatalarini qayta ishlash moduli ishlab chiqildi. Ushbu modul kelgusida LSTM yoki Transformer asosidagi sun'iy intellekt modellari bilan integratsiya qilinishi rejalashtirilgan. Dastlabki natijalar tizimning imo-ishora tilini avtomatik tarjima qilishda samarali ekanligini

ko'rsatdi. Keyingi bosqichda modelning aniqligini oshirish va dinamik imo-ishoralarni tanib olishga e'tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. MediaPipe Hands Documentation.
https://developers.google.com/mediapipe/solutions/vision/hand_landmarker
2. Bradski, G., & Kaehler, A. (2008). Learning OpenCV. O'Reilly Media.
3. Camgoz, N. C., et al. (2018). "Neural Sign Language Translation." CVPR.

SONLI VA FUNKSIONAL QATORLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY DASTURLARNING SAMARADORLIGI

Matematik analizni o'qitishda innovatsion yondashuv: Sonli va funksional qatorlarni raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish

Toshmatov Shunqorbek Sharifjon o‘g‘li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik analizning muhim bo‘limlaridan biri hisoblangan sonli va funksional qatorlarni o‘rganish, tahlil qilish va amaliy masalalarni yechishda qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy vositalar keng ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Maqolada MATLAB, Mathematica, Python, Maple va Wolfram Alpha kabi zamonaviy dasturlar imkoniyatlari solishtirma tahlil asosida ko‘rib chiqilib, ularning oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot jarayonidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, maqolada har bir dastur o‘qitish jarayonida qanday qo‘llanilishi, uning pedagogik afzalliklari va cheklovlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sonli qatorlar, funksional qatorlar, integratsiya, konvergentlik, divergentlik, interaktiv ta’lim, GeoGebra, Taylor qatori, Furye qatori, MATLAB, MAPLE, Mathematica, Python, Maple, Wolfram Alpha, Desmos.

Kirish. Hozirgi davrda matematika fanining rivoji, ayniqsa matematik analiz sohasidagi yutuqlar zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Matematik analizning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan sonli va funksional qatorlar nazariyasi ko‘plab tabiiy va texnik jarayonlarni modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qatorlar yordamida murakkab funksiyalar soddalashtiriladi, ularning xossalari o‘rganiladi va amaliy masalalarga tadbiq etiladi. Sonli va funksional qatorlar mavzusini o‘qitishda zamonaviy dasturlar, murakkab matematik tushunchalarni vizuallashtirish, hisoblash va interaktiv o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu mavzu an’anaviy matematik analizning asosiy qismi bo‘lib, cheksiz yig‘indilar va ularning yaqinlashuv xususiyatlarini o‘rganadi. Zamonaviy ta’lim vositalari bu mavzuni ancha qiziqarli, tushunarli va amaliy qilishga yordam beradi. An’anaviy usulda qatorlar bilan ishlash ko‘pincha murakkab va ko‘p vaqt talab qiluvchi hisob-kitoblarni talab etadi. Shu sababli zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalardan foydalanish sonli va funksional qatorlar mavzusini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dasturiy vositalar - Maple, MATLAB, GeoGebra, Desmos kabi matematik paketlardan foydalanish esa ushbu muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Bu dasturlar yordamida sonli va funksional qatorlarning hadlari, qisman yig‘indilari, limitlari hamda yaqinlashuvchanlik jarayonlari grafik ko‘rinishda tasvirlanib, nazariy bilimlar vizual asosda mustahkamlanadi. Natijada talabalar matematik tushunchalarni faqat formulalar orqali emas, balki grafik va modellashtirish orqali ham chuqur anglay boshlaydilar. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi sonli va funksional qatorlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan zamonaviy dasturlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot jarayonidagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Sonli va funksional qatorlar mavzusi murakkab va ko‘pincha abstrakt hisoblanadi. Shuning uchun talabalar qatorlarning yaqinlashishi, yig‘indisi, yig‘ilish radiusi kabi tushunchalarni faqat formulalar va teoremalar orqali tushunishda qiynalishi mumkin. Zamonaviy dasturlar yordamida esa: vizual tasvirlar orqali mavzuni anglash osonlashadi, darajali qatorlar kabi murakkab

tuzilmalarni tezkor hisoblash va tahli qilish mumkin bo‘ladi, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin, interaktiv tajribalar talabalarni faol ishtirok etishiga undaydi.

Sonli qatorlar.

Sonli a_1, a_2, a_3,…, a_n,…, ketma-ketlik hadlaridan tuzilgan

$$a_1 + a_2 + a_3 + \cdots a_n + \cdots = \sum_{n=1}^{\infty} a_n$$

ushbu ifodaga sonli qator deyiladi. Bu yerda a_1, a_2, a_3,…, a_n,… qator hadlari,

a_n – had qatorning n – hadi yoki umumiy hadi deb ataladi.

$S_1 = a_1$, $S_2 = a_1 + a_2$, … $S_n = a_1 + a_2 + a_3 + \cdots a_n$, $n = 1,2,3, \ldots$

yig’indilariga shu qatorning xususiy yig‘indilari deyiladi.

Funksional qatorlar.

Ushbu

$$f_1(x) + f_2(x) + f_3(x) + \cdots f_n(x) + \cdots = \sum_{n=1}^{\infty} f_n(x)$$

ifodaga funksional qator deb ataladi. Bu yerda $f_1(x)$, $f_2(x)$,…, $f_n(x)$, ...

D to‘plamda aniqlangan funksiyalar.

$S_n = f_1(x) + f_2(x) + f_3(x) + \cdots f_n(x)$ yig‘indi funksional qatorning n-qismiy yig‘indisi deyiladi.

Zamonaviy dasturlarning roli va imkoniyatlari.


GeoGebra — geometriya, algebra va analiz uchun interaktiv matematik muhit bo‘lib, o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan keng qo‘llaniladi. Sonli qatorlar mavzusida GeoGebra quyidagi imkoniyatlarni beradi: qator elementlari va qisman yig‘indilar grafikini chizish, parametrlar orqali qatorning xususiyatlarini dinamik o‘zgartirish, interaktiv topshiriqlar yaratish. Funksional qatorlar bo‘yicha esa $\sum f_n(x)$ grafigini ko‘rsatish, turli x nuqtalarda yig‘indi taqsimotini tekshirish, konvergentlikni vizual taqqoslash mumkin. GeoGebra ta’lim jarayonida o‘quvchilarga abstrakt tushunchalarni aniq tasvir orqali anglashga yordam beradi.

Misol-1. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{\sin(nx)}{n}$ qatorning qismiy yig‘indisini toping.

Bu qatorning masalan, 10 ta va 30 ta hadlar yig‘indisini topishni GeoGebrada quyidagicha yozib olamiz:

S10(x)=Sum(sin((2n-1)x)/(2n-1), n, 1, 10)

S30(x)=Sum(sin((2n-1)x)/(2n-1), n, 1, 30)



Python — bugungi kunda eng ommabop, eng qulay va kuchli dasturlash tillaridan biri hisoblanadi. U oddiyligi tufayli boshlovchilar uchun ham, professional dasturchilar uchun ham juda qulaydir. Sun'iy intellekt, veb dasturlash va ma'lumotlar tahlili kabi sohalarda Pythonning o'rni juda katta. Dasturlashga qiziquvchi talabalar uchun Python yordamida qatorlarni modellashtirish algoritmlarni yaxshi tushunishga yordam beradi. Masalan, Furye qatorlarini signallarga ajratish jarayonini kod orqali amalga oshirish. Masalan. $f(x) = \sin(x)$ funksiyasini Teylor qatoriga yoyishni olaylik:

$$\sin(x) = \sum_{k=1}^{\infty} (-1)^{n-1} \frac{(x)^{2n-1}}{(2n-1)!}$$


Dastur yordamida n=1, n=3, n=10 bo'lgandagi grafiklar ustma-ust chizilsa, talaba qatorning yaqinlashish sohasi va xatolik darajasini yaqqol ko'radi. Bu esa "Qator yig'indisi nima?" degan savolga amaliy javob bo'ladi. Teylor qatorining yaqinlashishini tushunish uchun eng qulay va ommabop vosita bu Python hisoblanadi. Quyida f(x) = sin(x) funksiyasini Teylor qatoriga yoyish misolida kod va uning natijasini tahlil qilamiz. Teylor qatorini vizuallashtirish. Ushbu kod n=1, 3, 5 va 7-darajali Teylor ko'phadlarini haqiqiy sinus funksiyasi bilan solishtiradi.

Python kodi:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
# Sinus funksiyasining Teylor qatori yig'indisini hisoblash funksiyasi
def taylor_sin(x, n):
    y = 0
    for i in range(n):
# Teylor formulasi: (-1)^i * x^(2i+1) / (2i+1)!
        coef = ((-1)**i) / np.math.factorial(2*i + 1)
        y += coef * (x**(2*i + 1))
    return y
```

```
# Grafik uchun ma'lumotlar
x = np.linspace(-10, 10, 500)
y_actual = np.sin(x)
plt.figure(figsize=(10, 6))
plt.plot(x, y_actual, label='Haqiqiy sin(x)', color='black', linewidth=2)
# Turli n darajalar uchun qatorlarni chizish
orders = [1, 3, 5, 7]
for n in orders:
    y_approx = [taylor_sin(val, n) for val in x]
    plt.plot(x, y_approx, label=f'Teylor n={n} (hadlar soni)')
# Grafik sozlamalari
plt.ylim([-2, 2])
plt.xlim([-7, 7])
plt.axhline(0, color='black',linewidth=0.5)
plt.axvline(0, color='black',linewidth=0.5)
plt.title("sin(x) funksiyasining Teylor qatori orqali yaqinlashishi")
plt.legend()
plt.grid(True)
plt.show()
```

Kod natijasi:




Grafik natijasining tahlili.

Dastur ishga tushganda hosil bo'ladigan grafikda quyidagilarni kuzatish mumkin: n=1 bo‘lganda: Grafik koordinata boshida sinusga urinib o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqni (y = x) ko‘rsatadi. Bu eng sodda, ammo eng aniqligi past yaqinlashishdir. n=3 bo‘lganda: Grafik sinusning birinchi egilishini takrorlay boshlaydi. n=7 va undan yuqori: Grafik sinus funksiyasining to‘lqinlarini uzoqroq masofada ham aniq takrorlaydi.

MATLAB — raqamli hisoblash va grafik chizish uchun eng qulay dasturlardan biri hisoblanadi. Sonli qatorlar bo‘yicha MATLAB yordamida qator elementlari va yig‘indilarini raqamli hisoblash, konvergentlikni raqamli tahlil qilish mumkin. MATLAB dasturi sonli hisoblashlarga mo‘ljallangan bo‘lib, matematik modellashtirish va qatorlar bilan ishlashda keng imkoniyatlarga ega. MATLAB yordamida sonli qatorlarning yig‘indisini hisoblash, ularning yaqinlashuv tezligini tahlil qilish va funksional qatorlar grafigini qurish mumkin. Ayniqsa, Furye qatorlari yordamida signallarni tahlil qilish va filtrlar yaratish MATLABning muhim amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Bu dastur muhandislik va texnik sohalarda keng qo‘llaniladi.

Misol-2. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}$ sonli qator yaqinlashuvchanlikka tekshiring.

Ushbu misolda qator limitini hisoblasak $\lim_{n\to\infty}\frac{1}{n}=0$ teng bo‘ladi. Endi matlab dasturidagi grafikka qarasak, qator hadlari borga sari 0 ga yaqinlashmoqda. Qator yig‘indilari esa cheksizlikka intiladi. Sonli va funksional qatorlarni o‘qitishda ushbu dasturlardan foydalanish orqali darslarni yanada samarali tashkil qilib, talabalarni darsga qiziqtira olsa bo‘ladi.



Matlab

```
n = 1:20;
a = 1./n;
S = cumsum(a);

% a_n grafigi
figure;
plot(n, a, 'o-');
grid on;
xlabel('n');
ylabel('a_n');
title('a_n = 1/n');

% S_n grafigi
figure;
plot(n, S, 'o-');
grid on;
xlabel('n');
ylabel('S_n');
title('S_n = sum(1/k)');
```

Xulosa.

Sonli va funksional qatorlar mavzusi oliy matematikaning eng muhim va murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, u talabalardan yuqori darajadagi mantiqiy tafakkur, abstrakt fikrlash va tahliliy yondashuvni talab etadi. An’anaviy ta’lim jarayonida ushbu mavzuni o‘zlashtirishda talabalar ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki qatorlarning yaqinlashuvchanligi, divergensiyasi, grafik tasviri va analitik xossalarini faqat nazariy tushuntirish orqali anglash murakkab hisoblanadi. Tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy dasturlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning o‘quv faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda matematik tahlilga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ayniqsa, funksional qatorlarning x bo‘yicha grafigini chizish, qisman yig‘indilarning yaqinlashishini dinamik kuzatish va parametrlarni o‘zgartirish imkoniyati o‘quv jarayonining samaradorligini

sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, sonli va funksional qatorlar mavzusini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalarning amaliy, tahliliy va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida matematik fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimuhamedov M. Oliy matematika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Qodirov A., Karimov S. Matematik analiz asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.
3. Xudoyberganov J. Sonli qatorlar va funksional qatorlar. — Toshkent: Universitet, 2017.
4. Ismoilov B. Matematik analizdan masalalar va mashqlar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Rasulov M. Oliy matematika kursi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Abdurahmonov T. Matematik analiz. 2-qism. — Toshkent: Innovatsiya, 2021.
7. To‘xtayev D. Sonli va funksional qatorlar nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2015.
8. Xolmurodov N. Matematik modellashtirish asoslari. — Toshkent: Universitet, 2018.
9. Usmonov A. Oliy matematika fanini o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
10. Jo‘rayev K. Matematika o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
11. Rahmonov S. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.
12. Karimov F. Oliy matematika darslarida raqamli texnologiyalar. — Toshkent: Universitet, 2022.
13. Abdullayev A. Matematik tahlilda grafik va vizual modellar. — Toshkent: Fan, 2020.
14. Nuraliyev Sh. MATLAB muhitida matematik masalalarni yechish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
15. Sobirov B. Maple dasturida matematik analiz masalalari. — Toshkent: Universitet, 2019.
16. Zorich V.A. Mathematical Analysis. — Springer, 2016.
17. Rudin W. Principles of Mathematical Analysis. — McGraw-Hill, 1976.

III SHO‘BA. RAQAMLI PEDAGOGIKA METODLARI VA INNOVATSION DIDAKTIKA

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHDA ADAPTIV VA SHAXSIYLASHTIRILGAN TA’LIM MUHITINI YARATISH METODIKASI

G‘aniyev Ilhom Dustnazarovich

CHDPU, Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
ganiyevid1759@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning individual bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalarning tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, tarmoq texnologiyalari, raqamli ta’lim muhiti, integrativ yondashuv, pedagogik texnologiyalar.


Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’lim metodlari barcha talabalar uchun bir xil yondashuvni taklif qilganligi sababli, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasida tafovutlar yuzaga kelmoqda [1].

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari talabaning bilim darajasi, qiziqishi, o‘quv faoliyati va o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish orqali unga mos individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi [2]. Bunday tizimlar ayniqsa “Kompyuter tarmoqlari”, “Axborot xavfsizligi”, “Tarmoq xavfsizligi” kabi murakkab fanlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi.

Tadqiqot davomida adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratishning quyidagi metodik bosqichlari ishlab chiqildi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilim darajasini diagnostika qilish;
2. Sun’iy intellekt asosida o‘quv kontentini moslashtirish;
3. Individual topshiriqlar va virtual laboratoriyalarni shakllantirish;
4. Real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish;

5. Talabaning rivojlanish dinamikasiga mos tavsiyalar ishlab chiqish.



Mazkur metodika asosida yaratilgan ta’lim muhiti talabaga mustaqil ishlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda murakkab tarmoq konfiguratsiyalarini virtual laboratoriyalar orqali bajarish imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida talabalar faoliyati doimiy monitoring qilinib, ularning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotgani aniqlanadi va avtomatik ravishda qo‘shimcha materiallar tavsiya etiladi [4].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hamda amaliy kompetensiyalari sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan [5].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish tarmoq texnologiyalarini o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu metodika talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida bunday tizimlarni oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etish raqamli ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Artificial Intelligence in Education. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

2. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2022.

3. Peterson L.L., Davie B.S. Computer Networks: A Systems Approach. – Morgan Kaufmann, 2021.

4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – MIT Press, 2016.

5. Stallings W. Network Security Essentials. – Pearson Education, 2020.

6. G‘aniyev I.D. “Tarmoq texnologiyalari kursini o‘qitishning integrativ-elektron metodik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya. – Toshkent, 2026. – Dissertatsiya.

7. Ganiyev I.D. Creation of a testing and assessment system for the course of network technologies based on an integrative approach // American Journal of Education and Learning. – 2025. – Vol. 3. – No. 6. – P. 555–562.

8. Ganiyev I.D. Improving the Integrative Methodological System for Teaching the Network Technology Course // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2023. – Vol. 10. – No. 12.

9. Ganiyev I.D. Basic Requirements for Educational Electronic Resource // Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference. – P. 138–139.

ASTRONOMIYA KURSINI O‘QITISHNING KO‘P QATLAMLI RAQAMLI ARXITEKTURASI

Tillaboyev A.M.[1]

1 – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: azlarxontillaboyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda astronomiya kursini raqamli ta’lim muhitida tashkil etish uchun dasturiy-didaktik arxitekturani loyihalash modeli yoritiladi. Model pedagogik maqsad, o‘quv mazmuni, virtual amaliyot, avtomatlashtirilgan baholash va foydalanuvchi interfeysini yagona tizimga birlashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli arxitektura, dasturiy-didaktik ta’minot, astronomiya ta’limi, virtual laboratoriya, UI/UX, AstroDigital.uz.

Raqamli pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ta’limiy maqsadlarni faqat elektron resurslar to‘plami ko‘rinishida emas, balki o‘zaro bog‘langan, boshqariladigan va natijasi o‘lchanadigan didaktik tizim sifatida loyihalashdan iborat. Astronomiya kursida bunday yondashuv ayniqsa dolzarbdir, chunki osmon jismlarining fazoviy harakati, vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, masofa va masshtablarning nihoyatda yirikligi an’anaviy ko‘rgazmali vositalar bilan to‘liq tasavvur qilinmaydi. Shuning uchun raqamli arxitektura nazariy bilim, simulyatsiya, hisoblash, kuzatish va baholash jarayonlarini bitta mantiqiy konturga kiritishi zarur.

Tadqiqotda dasturiy-didaktik ta’minot pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi kontent, metodik ssenariy, interfaol vosita, ma’lumotlar bazasi, monitoring va baholash mexanizmlarining integrallashgan majmui sifatida talqin etiladi. Raqamli arxitektura esa ushbu majmuani texnik jihatdan amalga oshiruvchi qatlamlar, modullar, rollar va ma’lumot almashish kanallari tizimidir. Mazkur yondashuv konektivistik ta’lim nazariyasida ko‘rsatilgan tarmoq orqali bilim qurish g‘oyasi, shuningdek, konstruktivistik o‘qitishdagi faol tajriba va muammoli izlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashadi [1].

Astronomiya kursi uchun taklif etiladigan arxitektura modeli to‘rtta o‘zaro bog‘langan blokka tayangan holda quriladi: maqsadli-didaktik blok, mazmuniy-kontent bloki, funksional-texnologik blok va natijaviy-analitik blok. Maqsadli-didaktik blokda talabalarda astronomik tushunchalarni ilmiy asosda shakllantirish, raqamli vositalardan foydalanish, kuzatuv ma’lumotlarini izohlash va metodik qaror qabul qilish kompetensiyalari belgilanadi. Mazmuniy blokda osmon mexanikasi, Quyosh tizimi, yulduzlar evolyutsiyasi, galaktikalar va astrofizika asoslari kabi mavzular modulli tartibda joylashtiriladi.

Funksional-texnologik blokning markazida platforma bilan ishlash jarayonini boshqaruvchi mantiqiy qatlam turadi. Bu qatlam o‘quv marshrutini belgilash, topshiriqlarni ketma-ket ochish, virtual laboratoriya natijalarini qayd etish, test javoblarini tekshirish va foydalanuvchi profilini yangilash kabi vazifalarni bajaradi. Natijaviy-analitik blok esa talabaning raqamli izi asosida o‘zlashtirish, faollik, amaliy ko‘nikma va tadqiqotchilik indikatorlarini tahlil qiladi. Shu tariqa arxitektura faqat axborot beruvchi sayt emas, balki ta’lim jarayonining pedagogik boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Loyihalash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: ta’limiy maqsadni belgilash, o‘quv mazmunini tanlash, didaktik ssenariy tuzish, interfeys prototipini ishlab chiqish, dasturiy

modulni yaratish, sinovdan o‘tkazish, foydalanuvchi fikr-mulohazalariga ko‘ra takomillashtirish. Har bir bosqich pedagogik va texnik talablarning muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Masalan, “Kepler qonunlari” mavzusini raqamlashtirishda faqat matnli ma’ruza yetarli emas; unda orbitaning geometrik modeli, parametrlarni o‘zgartirish oynasi, hisoblash topshirig‘i, xatoni ko‘rsatuvchi qayta aloqa va yakuniy baholash birgalikda loyihalanadi.

Arxitekturaning dasturiy qatlamlari ham ta’limiy vazifalarga mos taqsimlanadi. Ma’lumotlar bazasi qatlamida astronomik obyektlar haqidagi ma’lumotlar, mavzular, topshiriqlar, talaba profillari va baholash natijalari saqlanadi. Mantiqiy-funksional qatlamda o‘quv jarayonini boshqarish, testlash, adaptiv tavsiya berish va virtual laboratoriya harakatlarini qayd etish algoritmlari ishlaydi. Taqdimot qatlamida esa talaba va o‘qituvchi kabinetlari, 2D/3D vizualizatsiyalar, jadval va grafiklar, masala yechish oynalari aks etadi. Bunday ko‘p qatlamli tuzilma platformaning kengayuvchanligini va qayta ishlanish imkoniyatini oshiradi.

1-jadval

Raqamli dasturiy-didaktik arxitektura qatlamlari

Qatlam	Didaktik vazifa	AstroDigital.uz uchun yechim
Ma’lumotlar bazasi	O‘quv mazmuni va foydalanuvchi natijalarini tartibli saqlash	Mavzular, testlar, virtual laboratoriya natijalari va talaba profillari bazasi
Mantiqiy-funksional qatlam	O‘quv jarayonini boshqarish va avtomatlashtirish	Topshiriq ketma-ketligi, testlash, xatolarni qayd etish, adaptiv tavsiyalar
Taqdimot/interfeys	Tushunarli, qulay va vizual ta’lim muhitini yaratish	Talaba va o‘qituvchi kabinetlari, 2D/3D obyektlar, grafiklar va amaliy topshiriqlar
Analitik qatlam	Natijalarni kuzatish, baholash va qaror qabul qilish	Dashboard, o‘zlashtirish dinamikasi, individual ta’lim trayektoriyasi

Modelda ergonomik va UI/UX talablar alohida ahamiyatga ega. Astronomik obyektlar ko‘pincha murakkab fazoviy tuzilishga ega bo‘lgani sababli interfeys talabaning kognitiv yuklamasini oshirmasligi, ranglar va belgilar ilmiy mazmunni buzmasligi, boshqaruv tugmalari esa tajriba jarayonini uzib qo‘ymasligi lozim. Shuningdek, platformada ko‘rish imkoniyati, shrift o‘lchami, navigatsiya soddaligi va mobil qurilmalarga moslashuvchanlik kabi omillar ham hisobga olinadi. Multimedia o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, matn, tasvir va harakatning didaktik muvofiqligi tushunishni kuchaytiradi [2].

Xulosa qilib aytganda, astronomiya kursining raqamli dasturiy-didaktik arxitekturasini loyihalash modeli ta’lim mazmunini modullashtirish, interfaol vizualizatsiyani tashkil etish, virtual laboratoriyalarni integratsiya qilish va talaba faoliyatini analitik kuzatish imkonini beradi. Bunday arxitektura “AstroDigital.uz” platformasini yaratish uchun konseptual asos bo‘lib, raqamli pedagogika sharoitida astronomiya ta’limining ilmiylik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va adaptivlik tamoyillarini amaliy mexanizmga aylantiradi [3].

Adabiyotlar:

[1] Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005.
[2] Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
[3] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

UMUMIY PEDAGOGIKA VA MUTAXASSISLIK FANLARI INTEGRATSIYASIGA ASOSLANGAN ELEKTRON O‘QUV MODULLAR TIZIMI

Berdiyev Shokir Xudoynazarovich[1]

[1] Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda umumiy pedagogika va mutaxassislik fanlarini yagona elektron o‘quv modulida integratsiyalashning didaktik modeli yoritiladi. Taklif etilayotgan tizimda pedagogik nazariya, kasbiy mazmun, raqamli faoliyat va refleksiv baholash bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sifatida qaraladi. Elektron modul nafaqat matn va testlar majmui, balki o‘quv natijasi, kasbiy vaziyat, raqamli topshiriq, mezonli baholash hamda tahliliy qayta aloqa bilan ta’minlangan metodik muhit sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: elektron o‘quv modul, fanlararo integratsiya, raqamli pedagogika, mutaxassislik fanlari, TPACK, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv baholash.

Dolzarblik. Raqamli pedagogika sharoitida bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash jarayoni faqat alohida fanlar mazmunini o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. Talaba pedagogik vaziyatni tahlil qilish, mutaxassislikka oid bilimni didaktik yechimga aylantirish, raqamli resurs tanlash va o‘z faoliyatini dalillar asosida baholash ko‘nikmalarini egallashi lozim. Umumiy pedagogika o‘qitish qonuniyatlari, ta’lim maqsadi, metod, shakl, vosita va baholash tamoyillarini beradi; mutaxassislik fanlari esa kasbiy muammolar, atamalar, texnologiyalar va amaliy holatlar bilan ishlashni ta’minlaydi. Shu bois ularni elektron modullar orqali bog‘lash fanlararo tafakkurni rivojlantirishning muhim omilidir [1; 2].

Maqsad. Tadqiqotning maqsadi umumiy pedagogika va mutaxassislik fanlari mazmunini birlashtiruvchi, talabaning mustaqil o‘qishi, amaliy loyihalashi va metodik refleksiyasini qo‘llab-quvvatlovchi elektron o‘quv modullar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Bunda modulning har bir elementi aniq o‘quv natijasiga, kasbiy vaziyatga va raqamli faoliyat mahsuliga yo‘naltiriladi.

Asosiy g‘oya. Elektron o‘quv modulining integratsion yadrosi “pedagogik tushuncha – mutaxassislik mazmuni – kasbiy vaziyat – raqamli didaktik mahsulot – refleksiya” zanjiri asosida quriladi. Masalan, “ta’lim metodlari” mavzusi mutaxassislik fanidagi aniq mavzu bilan bog‘lanadi; talaba ushbu mavzu uchun mikrota’lim ssenariysi, interaktiv mashq, baholash rubrikasi yoki qisqa videodars loyihasini yaratadi. Natijada pedagogik bilim kasbiy kontekstda qo‘llanadi, mutaxassislik bilimi esa didaktik jihatdan qayta ishlanadi.

Tizim tarkibi. Taklif etilayotgan tizim besh komponentdan iborat: 1) maqsadli-natijaviy komponent – modul yakunida shakllanishi kutiladigan kompetensiyalar; 2) mazmuniy komponent – umumiy pedagogika tushunchalari va mutaxassislik fani mazmunining xaritasi; 3) faoliyatli komponent – keys, loyiha, simulyatsiya, elektron laboratoriya, forum va muammoli topshiriqlar; 4) baholash komponenti – diagnostik test, jarayonli nazorat, mezonli rubrika va o‘zaro baholash; 5) tahliliy-refleksiv komponent – LMS statistikasi, e-portfolio va talabaning o‘z-o‘zini tahlil qilish varaqalari. Bunday tuzilma o‘quv jarayonini ko‘rgazmali, boshqariladigan va moslashuvchan qiladi [3].

Modulni loyihalash bosqichlari. Birinchi bosqichda umumiy pedagogika va mutaxassislik fanlari mavzulari orasidagi tabiiy bog‘lanishlar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda har bir bog‘lanish uchun kasbiy vaziyat va kutiladigan raqamli mahsulot belgilanadi. Uchinchi

bosqichda elektron kontent – qisqa nazariy blok, infografika, videoizoh, interaktiv topshiriq va nazorat savollari ishlab chiqiladi. To‘rtinchi bosqichda talabalarning moduldagi harakati LMS yoki boshqa raqamli platforma orqali kuzatiladi. Beshinchi bosqichda natijalar rubrika va portfolioga asoslanib baholanadi hamda modul mazmuni takomillashtiriladi.

Metodik imkoniyatlar. Integratsiyalashgan elektron modul talabalarda uch darajadagi kompetensiyani rivojlantiradi. Kognitiv darajada pedagogik tushunchalar mutaxassislik mazmuni bilan bog‘lanadi. Operatsion darajada talaba raqamli dars elementi, test, keys yoki loyiha topshirig‘ini yaratadi. Refleksiv darajada esa tanlangan metodning maqsadga muvofiqligi, o‘quvchi faoliyatiga ta’siri va baholashning adolatliligi tahlil qilinadi. Sun’iy intellektga asoslangan yordamchi vositalar modulda individual tavsiya, tezkor izoh va savol-javob muhiti yaratishi mumkin, biroq yakuniy metodik qaror o‘qituvchi va talabaning ongli tahliliga tayanishi zarur [4; 5].

Kutiladigan natija. Mazkur tizim joriy etilganda talaba fanlararo bog‘lanishni ko‘ra oladi, pedagogik nazariyani mutaxassislik vaziyatida qo‘llaydi, raqamli resurslarni maqsadga muvofiq tanlaydi va o‘z mahsulotini mezonlar asosida himoya qiladi. O‘qituvchi uchun esa modul o‘quv jarayonini differensiallash, talabalarning individual rivojlanishini kuzatish, takroriy tahlil asosida kontentni yangilash imkonini beradi. Shuningdek, elektron modullar ta’limning masofaviy, aralash va auditoriya shakllari o‘rtasida uzviylikni ta’minlaydi.

Xulosa. Umumiy pedagogika va mutaxassislik fanlari integratsiyasiga asoslangan elektron o‘quv modullar tizimi raqamli pedagogikaning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, u nazariy bilimni kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi. Tizimning samaradorligi modullarning texnik bezagi bilan emas, balki pedagogik maqsad, kasbiy kontekst, faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriq va adolatli baholash mezonlarining uyg‘unligi bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur yondashuv bo‘lajak mutaxassisning metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

[1] Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. 1986. Vol. 15, No. 2. P. 4–14.

[2] Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.

[3] Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. New York: Cambridge University Press, 2009.

[4] Laurillard D. Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. New York: Routledge, 2012.

[5] Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

[6] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

SUN’IY INTELLEKTNING MATEMATIK MODELLASHTIRISHDA QO‘LLANISHI

Shazadayev Farxad Alim o‘g‘li, Pernekulova Jumagul Murat qizi

1-Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, katta o‘qituvchi,
2-Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, talaba
farhod.shazadayev.fsh@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun’iy intellektning (SI) matematik modellashtirishda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Unda SI usullari yordamida katta ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, naqshlarni aniqlash va bashoratiy xulosalar berish orqali modellar samaradorligi va aniqligini oshirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada SI asosidagi modellashtirish bilan bog‘liq muammolar - ma’lumotlarning noaniqligi, modelni tushunish qiyinchiligi va haddan tashqari moslashuv (overfitting) - ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish usullari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, Matematik modellashtirish, Ma’lumotlarni tahlil qilish, Bashoratiy modellashtirish, Modelni optimallashtirish

Kirish. Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir davrda sun’iy intellekt (SI) turli sohalarda qo‘llanilayotgan eng muhim innovatsion yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bugungi kunda SI nafaqat avtomatlashtirilgan tizimlar, robototexnika yoki ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarida, balki ilmiy tadqiqotlarning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, matematik modellashtirish jarayonlarini takomillashtirishda sun’iy intellektning roli juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Matematik modellashtirish - real jarayon va hodisalarni matematik formulalar, tenglamalar, funksiyalar yoki ehtimollik modellaridan foydalanib tushuntirish va tahlil qilish jarayonidir. An’anaviy modellar ko‘pincha qat’iy matematik munosabatlarga asoslanadi va ma’lum sharoitlarda juda yaxshi natijalar beradi. Biroq real hayot jarayonlari ko‘pincha murakkab, o‘zgaruvchan va noaniqliklarga boy bo‘lgani sababli, bunday modellar ba’zan yetarli darajada aniq natija bera olmaydi. Shu nuqtada sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanishi modellashtirish jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sun’iy intellekt usullari, xususan, mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlar matematik modellarni qurishda yangi yondashuvni taklif qiladi. Ular katta hajmdagi ma’lumotlar orasidan yashirin bog‘liqliklarni topish, murakkab jarayonlarni soddalashtirilgan tarzda ifodalash va an’anaviy matematik tenglamalarda aks etmaydigan naqshlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa modellarni yanada aniqlash, moslashuvchan va real sharoitga yaqin bo‘lishiga olib keladi.

Umuman olganda, sun’iy intellektning matematik modellashtirishga kirib kelishi nafaqat ilmiy izlanishlarning sifatini oshirmoqda, balki murakkab jarayonlarni chuqurroq tushunish, aniq tahlil qilish va ishonchli natija olish imkonini bermoqda. SI va matematik modellashtirishning o‘zaro integratsiyasini o‘rganish ilmiy hamjamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Sun’iy intellekt va matematik modellashtirish o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy AI algoritmlarining samaradorligi matematik asoslar bilan belgilanadi. Xususan, chiziqli algebra, ehtimollar nazariyasi va differensial tenglamalar sun’iy intellekt tizimlarining ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Neyron tarmoqlar, regressiya modellari hamda

Markov jarayonlari kabi yondashuvlar murakkab tizimlarni tahlil qilish, bashoratlash va optimallashtirish imkonini beradi. Shu sababli matematik modellashtirish sun'iy intellekt tizimlarining aniqligini oshirish, natijalarni baholash va real jarayonlarga moslashtirishda asosiy vosita hisoblanadi.[2]

Mashinaviy o'rganish (Machine Learning) - Sun'iy intellektning eng keng qo'llaniladigan usullaridan biri. Bu usul katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamidan naqshlar va qoidalarni avtomatik aniqlaydi, shunda model ma'lumotlar asosida bashoratlar chiqaradi. Masalan, regressiya, klassifikatsiya yoki klasterlash algoritmlari matematik tahlil qilinadigan modellarni qurishda qo'llaniladi.[1]

Neyron tarmoqlar va chuqur o'rganish (Deep Learning) - biologik miya tuzilishiga o'xshash matematik modellar. Ular kirish ma'lumotlari orqali murakkab funksiyalarni o'rganadi va bashoratlar beradi. Bu usul fizik jarayonlar, transport tizimlari yoki energetika kabi murakkab modellarda yuqori aniqlik beradi.

Fizika yo'naltirilgan mashinaviy o'rganish (Physics-Informed ML) - ilmiy tadqiqotlarda mashinaviy o'rganishga fizik qonunlar kiritiladi (Physics-Informed Machine Learning). Bu yondashuvda model ma'lumotlar bilan bir qatorda fizik tenglamalar yoki qonunlarni ham e'tiborga oladi.[3] Bu usul, masalan, differensial tenglamalar bazasidagi jarayonlarni aniqlik bilan modellashtirish imkonini beradi.

AI asosida matematik modellashtirishning amaliy qo'llanilishi

Sun'iy intellekt asosida matematik modellashtirish zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarda keng qo'llanilmoqda hamda turli sohalarda murakkab jarayonlarni tahlil qilish va bashoratlash imkonini bermoqda. Xususan, tibbiyot sohasida AI modellar kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish va davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Transport tizimlarida sun'iy intellekt yo'l harakati oqimini tahlil qilish, tirbandlikni kamaytirish va optimal marshrutlarni aniqlash orqali logistika samaradorligini oshiradi. Iqtisodiyotda esa AI modellar bozor tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, risklarni baholash va kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlarni prognozlashda keng qo'llaniladi. Ekologiya sohasida sun'iy intellekt iqlim o'zgarishlarini modellashtirish, atrof-muhit holatini monitoring qilish va ekologik muammolarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.[4]

XULOSA. Sun'iy intellektning matematik modellashtirishda qo'llanilishi ilm-fan va amaliyotda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada AI texnologiyalarining matematik modellashtirish jarayonini takomillashtirishdagi roli ko'rib chiqildi. AI yordamida katta ma'lumotlar to'plamidan naqshlarni aniqlash, murakkab jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda ifodalash va tahlil qilish mumkinligi ma'lum bo'ldi.

Sun'iy intellektning matematik modellashtirishda qo'llanilishi nafaqat ilmiy tadqiqotlarni sifatli amalga oshirish, balki murakkab jarayonlarni chuqur tushunish va ishonchli tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

[1] https://zamon.uz/uz/2026/04/24/ozbekistonga-2026-yilda-53-milliard-dollar-xorijiy-investitsiya-jalb-etiladi

[2] https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-matematik-modellashtirish/viewer

[3] J.Sh.Bekqulov, I.Ibragimov. *Sun'iy intellekt asoslari, 2023, 16-bet*

[4] https://kapital.uz/uz/suniy-intellekt-rejalari-2025/

BO`LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASHDA ADAPTIV TEST TIZIMLARINING SAMARADORLIGI

Urunbayev Erkin

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

Rasulov Ulug‘bek Murodulloyevich

Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash jarayonida adaptiv test tizimlaridan foydalanishning samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqotda an’anaviy baholash usullari bilan adaptiv test o‘tkazish texnologiyalari taqqoslanib, ularning afzalliklari va qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Adaptiv test tizimlari test topshiriqlarining murakkablik darajasini test topshiruvchining bilim darajasiga mos ravishda avtomatik o‘zgartirib borishi orqali baholashning aniqligini, individual yondashuvni va vaqt samaradorligini oshirishi qayd etiladi.

Shuningdek, adaptiv testlarning psixometrik ko‘rsatkichlari, ularni ishlab chiqish tamoyillari hamda kasbiy kompetensiyalarni ishonchli baholashdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari adaptiv test tizimlari kasbiy tanlov va malaka oshirish jarayonlarida samarali qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: adaptiv test, tizim, kasbiy tayyorgarlik, baholash, kompetensiya, ta’lim, model, topshiriq.

Abstract

This article examines the effectiveness of using adaptive testing systems in assessing students’ levels of professional readiness. The study compares traditional assessment methods with adaptive testing technologies and analyzes their advantages and practical application potential. It is noted that adaptive testing systems enhance assessment accuracy, individualized evaluation, and time efficiency by automatically adjusting the difficulty level of test items according to the examinee’s level of knowledge.

In addition, the psychometric properties of adaptive tests, the principles of their development, and their role in the reliable assessment of professional competencies are discussed. The findings indicate that adaptive testing systems can be effectively applied in professional selection and continuing professional development processes.

Keywords: adaptive test, system, professional training, assessment, competence, education, model, task.

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность использования адаптивных тестовых систем в процессе оценки уровня профессиональной подготовки студентов. В исследовании проводится сравнение традиционных методов оценивания с технологиями проведения адаптивного тестирования, а также анализируются их преимущества и возможности применения. Отмечается, что адаптивные тестовые системы повышают точность оценивания, индивидуализацию подхода и эффективность использования

времени за счёт автоматической корректировки уровня сложности тестовых заданий в соответствии с уровнем знаний тестируемого.

Кроме того, рассматриваются психометрические показатели адаптивных тестов, принципы их разработки и их роль в надёжной оценке профессиональных компетенций. Результаты исследования показывают, что адаптивные тестовые системы могут эффективно применяться в процессах профессионального отбора и повышения квалификации.

Ключевые слова: адаптивный тест, система, профессиональная подготовка, оценивание, компетенция, образование, модель, задание.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni baholash jarayonini takomillashtirish, xolis va aniq natijalarni ta’minlash muhim vazifalardan biridir. An’anaviy test o‘ktazish usullari ko‘plab sohalarda qo‘llanib kelinishiga qaramay, ularning imkoniyatlari test topshiruvchilar bilim darajasidagi individual farqlarni to‘liq aks ettirishda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Bunday sharoitda baholash jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiluvchi adaptiv test tizimlari ta’lim amaliyotiga keng kirib kelmoqda.

Adaptiv test tizimlari test topshiriqlarining murakkablik darajasini test topshiruvchining javoblariga qarab dinamik o‘zgartirib borishi bilan ajralib turadi. Bu esa qisqa muddat ichida yanada aniq, ishonchli va obyektiv baholash imkoniyatini yaratadi. Xususan, kasbiy tayyorgarlikni baholashda adaptiv yondashuv talaba yoki mutaxassisning haqiqiy kompetensiya darajasini aniqlash, bilimdagi bo‘shliqlarni tezda aniqlash hamda baholash jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy psixometrik modellar, xususan, Item Response Theory (IRT) asosida yaratilgan adaptiv testlar hozirgi zamon talablariga mos ravishda kasbiy kompetensiyalarni baholashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday tizimlar nafaqat test o‘ktazishning texnik jarayonlarini soddalashtiradi, balki baholash natijalarining ishonchliligini oshiradi, test topshiruvchilar uchun ortiqcha yuklanishni kamaytiradi va test vaqtini optimallashtiradi. Ushbu maqolada kasbiy tayyorgarlikni baholashda adaptiv test tizimlarining afzalliklari, ularning amaliy qo‘llanishi, samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari adaptiv test o‘ktazish texnologiyalarining zamonaviy baholash tizimida tutgan o‘rni va istiqbolli yo‘nalishlarini ochib berishga qaratilgan.


Adabiyot tahlili

Mashhur psixometr olim Frederic M. Lord adaptiv test tizimlarining ilmiy asoslarini o‘z tadqiqotlarida batafsil asoslab bergan. U Item Response Theory (IRT)ning rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, kompyuterlashtirilgan adaptiv test o‘ktazishning metodologik poydevorini yaratgan. Lordning “Applications of Item Response Theory to Practical Testing Problems” asari test topshiriqlarining murakkablik darajasini shaxs qobiliyatiga moslashtirish, testning aniqligi va qisqaligini ta’minlashga oid muhim nazariy yondashuvlarni beradi. Mazkur olimning ilmiy ishlari hozirgi zamon kasbiy tayyorgarlikni baholashda foydalanilayotgan adaptiv testlash tizimlarining asosiy psixometrik prinsiplarini belgilab bergani bilan muhimdir. Uning tadqiqotlari test topshiriqlarining informativlik darajasini baholash jarayoniga ilmiy yondashuvni shakllantirdi. Shuningdek, Lordning modellari baholash jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Uning ilmiy qarashlari zamonaviy adaptiv test tizimlarini amaliyotga joriy etish uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda kasbiy tayyorgarlikni baholash jarayonida adaptiv test tizimlarining samaradorligini aniqlash maqsad qilingan bo‘lib, bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, adaptiv test o‘ktazishga oid nazariy manbalar, IRT modellariga asoslangan ilmiy adabiyotlar va ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy qismida adaptiv test tizimi uchun boshlang‘ich item banki shakllantirildi hamda test topshiriqlari murakkablik parametrlariga muvofiq moslashtirildi. Test topshiruvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga an’anaviy test, ikkinchi guruhga esa adaptiv test qo‘llandi. Har ikki guruhning natijalari testning aniqligi, vaqt sarfi, individual darajaga moslashuv va qoniqish ko‘rsatkichlari orqali solishtirildi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil usullari-korrelyatsiya tahlili, dispersiya tahlili va o‘rtacha ko‘rsatkichlarni taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, adaptiv test o‘ktazishning samaradorlik darajasi aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari adaptiv test tizimining kasbiy tayyorgarlikni baholashda an’anaviy usullarga nisbatan ustun jihatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar



1-rasm. Solishtirma diagramma

1-rasmdagi aylana shakldagi diagramma an’anaviy test va adaptiv test natijalarini solishtirish imkonini beradi. Mazkur diagrammadan ko‘rinib turibdiki, adaptiv test ko‘rsatkich bo’yicha an’anaviy testga qaraganda yuqoriroq natija qayd etgan. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi farq adaptiv test o‘ktazish tizimining samaradorligi yuqori ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, adaptiv test tizimi test topshiruvchining individual bilim darajasiga moslashtirilganligi sababli, qisqa vaqt ichida yanada aniq va ishonchli baholash imkonini beradi. An’anaviy test esa barcha test topshiruvchilarga bir xil murakkablikdagi topshiriqlarni taqdim etgani sababli natija aniqligi pastroq bo‘lishi mumkin. Diagrammadagi foizlar adaptiv testning kasbiy tayyorgarlikni baholashda samarali, moslashuvchan va yuqori aniqlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adaptiv test tizimlari kasbiy tayyorgarlikni baholash jarayonida an’anaviy test o‘ktazish usullariga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega. Adaptiv testlar ishtirokchilarning javoblariga mos ravishda murakkablik darajasini dinamik o‘zgartirishi hisobiga baholashning aniqligi, ishonchliligi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv darajasi oshadi. Amaliy natijalarda adaptiv testning o‘rtacha ko‘rsatkichlari an’anaviy testga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, baholash jarayonining samaradorligi oshganini tasdiqladi. Bundan tashqari,

adaptiv test o‘ktazish test topshiruvchilar uchun ortiqcha yuklanishni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va baholash jarayonidagi individual farqlarni aniq aks ettiradi. IRT modellari asosida shakllantirilgan adaptiv test tizimlari kasbiy kompetensiyalarni baholashda zamonaviy, moslashuvchan va samarali texnologiya sifatida o‘zini oqlamoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, adaptiv test tizimlarini ta’lim muassasalari, sertifikatsiya markazlari va kasbiy tanlov jarayonlariga joriy etish baholash sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To‘xtasinov, A. “Ta’lim jarayonida raqamli baholash tizimlarining qo‘llanilishi.” O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2021.

2. Lord, F. M. Applications of Item Response Theory to Practical Testing Problems. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1980.

3. Wainer, H. Computerized Adaptive Testing: A Primer. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2000.

4. Weiss, D. J. “Adaptive Testing by Computer.” Journal of Consulting and Clinical Psychology, 1991.

5. Van der Linden, W. J., & Glas, C. A. W. (Eds.). Computerized Adaptive Testing: Theory and Practice. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 2000.

6. Hambleton, R. K., Swaminathan, H., & Rogers, H. J. Fundamentals of Item Response Theory. Newbury Park, CA: Sage Publications, 1991.

7. Yuldashev, J. Pedagogik o‘lchashlar va test o`ktazishtirish metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

8. Rasulov U. M., Abdullayev I. X., Mansurov U. ANALYSIS OF SCIENTIFIC STUDIES AIMED AT ADVANCING THE THEORY AND PRACTICE OF TESTING //European International Journal of Pedagogics. – 2024. – Т. 4. – №. 01. – С. 57-59.

9. Xujayorovich A.I. et al. MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM JARAYONIGA RO’LI VA 5-SINF INFORMATIKA DARSLARIDA QO ‘LLANILISHI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 47. – №. 2. – С. 436-443.

10. Ulugbek, R., Niginabonu, Y., & Dilnoza, C. (2026). The Effectiveness Of Electronic Testing Systems In Analyzing Students’ Professional Competence. Library of Current Research Journal of Pedagogics, 7(02), 97-101

MATEMATIK ANALIZ FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLAR

Toshmatov Shunqorbek Sharifjon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematik analiz fanining nazariy asoslari, uning o‘rganish obyekti va ta’lim jarayonidagi o‘rni keng yoritilgan. Shuningdek, matematik analizni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy innovatsion metodlar, xususan raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va vizual modellashtirish vositalarining samaradorligi tahlil qilinadi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash masalalari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, matematik analizni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy innovatsion metodlar, ilmiy izlanish usullari va ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matematik analiz, innovatsion metodlar, limit, hosila, integral, analiz, sintez, umumlashtirish, raqamli texnologiyalar.

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, rivojlanib borayotgan bo‘lib, bunda innovatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, matematik analiz kabi murakkab va abstrakt fanlarni o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolish yetarli emas.

Matematik analiz - bu o‘zgaruvchan miqdorlar, funksiyalar va ularning xossalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Shu sababli ushbu fanni samarali o‘qitish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhimdir. Ushbu fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki chuqur mantiqiy tafakkur va tahliliy fikrlashni talab qiladi. Shu sababli matematik analizni o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning bilimni qabul qilish darajasini oshirish va murakkab tushunchalarni sodda shaklda yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Matematik analizni o‘qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, mantiq va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Bu fan o‘z mohiyatiga ko‘ra abstrakt bo‘lgani sababli uni o‘zlashtirish jarayonida ilmiy izlanish metodlaridan keng foydalanish talab etiladi.

“Metod” atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “maqsad sari olib boruvchi yo‘l” degan ma’noni anglatadi. Ta’lim metodlari esa bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalar majmuasidir. Hozirgi kunda matematik analiz fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Matematik analizni o‘qitishda quyidagi ilmiy metodlar muhim ahamiyatga ega:

1. Kuzatish va tajriba metodi: Bu metod orqali o‘quvchilar matematik ob’ektlarning xossalarini bevosita kuzatish orqali o‘rganadilar. Masalan, funksiyaning grafigini turli qiymatlar orqali o‘rganish natijasida uning o‘sish yoki kamayish xususiyatlari aniqlanadi. Zamonaviy GeoGebra, Desmos dasturlar bu jarayonni yanada aniq va tushunarli qiladi.

2. Taqqoslash metodi: Taqqoslash orqali o‘quvchilar turli matematik tushunchalar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlaydilar. Masalan, differensiallanuvchi va uzluksiz funksiyalar o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qilish orqali mavzu chuqurroq o‘zlashtiriladi.

3. Analiz va sintez metodi: Analiz jarayonida murakkab masala qismlarga ajratiladi, sintezda esa ularning natijalari umumlashtiriladi. Bu metod ayniqsa hosila va integral mavzularini o‘rganishda samarali hisoblanadi.

4. Abstraksiyalash va umumlashtirish: Matematik analizda umumiy qonuniyatlar aynan abstraksiyalash orqali shakllanadi. Masalan, limit tushunchasi turli konkret misollar asosida umumlashtiriladi.

Innovatsion metodlar va ularning qo‘llanilishi: Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish va bilimni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

1. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish: Matematik analiz mavzularini o‘rganishda kompyuter dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish katta samara beradi. Masalan: GeoGebra orqali funksiyalar grafigini chizish, Python yordamida qatorlar va limitlarni hisoblash va Desmos platformasida interaktiv grafiklar yaratish. Bu vositalar nazariy bilimni vizual tarzda tushunishga yordam beradi.

2. Vizualizatsiya metodi: Matematik analizdagi ko‘plab tushunchalar (limit, hosila, integral) abstrakt bo‘lgani sababli ularni grafik va animatsiyalar orqali tushuntirish samarali hisoblanadi. Vizual tasvirlar orqali o‘quvchilar mavzuni tezroq anglaydi.

3. Interaktiv va muammoli o‘qitish: Muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash mumkin. Masalan: “Funksiya qachon maksimum qiymatga ega bo‘ladi?” kabi savollar orqali darsni tashkil etish.

4. Masofaviy va onlayn ta’lim texnologiyalari: Bugungi kunda Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali matematik analizni o‘qitish imkoniyatlari kengaygan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga yordam beradi.

5. Gamifikatsiya metodi: Matematik topshiriqlarni o‘yin shaklida berish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Masalan, testlar, reyting tizimi, mukofotlash mexanizmlari.

Xulosa. Matematik analiz fanini innovatsion metodlar asosida o‘qitish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Raqamli texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar va vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida murakkab matematik tushunchalarni oson va tushunarli shaklda yetkazish mumkin. Natijada ta’lim samaradorligi oshadi, o‘quvchilarning matematik tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. To‘xtasinov H. Pedagogik texnologiyalar va matematika ta’limi. – Samarqand, 2020.

3. Shodmonov A. Matematik tafakkurni rivojlantirishda interaktiv metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

4. Ermatova Sh.B. Matematika ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent, 2022.

5. Zokirova M.T. Matematika o‘qitishda innovatsion usullar. – Toshkent, 2021.

6. Xudoyberdiyeva L.S., Umarova D.A. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuv. – Toshkent, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2020.

8. Shodmonov A. Matematik tafakkurni rivojlantirishda interaktiv metodlarning o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

9. Polat E.S. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – Moskva, 2019.

10. Bespalko V.P. Pedagogik texnologiya asoslari. – Moskva, 2017.

TEXNIKUMLARDA SI YORDAMIDA INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI SHAKLLANTIRISH

Turdiyeva Madina Norbuta qizi

Chirchiq shahar 2-son texnikumi o‘qituvchisi turdiyevamadina86@gmail.com
tel: 90. 002-91-99

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnikumlarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish asosida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va kasbiy kompetensiyalarini inobatga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishning zamonaviy imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, SI asosidagi adaptiv o‘qitish platformalari, avtomatlashtirilgan monitoring va baholash tizimlarining ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini professional ta’lim muassasalarida joriy etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, raqamli kompetensiyalari va individual rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, SI, individual ta’lim trayektoriyasi, professional ta’lim, texnikum, adaptiv o‘qitish, raqamli pedagogika, avtomatik baholash, learning analytics, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract

This article analyzes the issues of forming an individual educational trajectory in technical colleges through the use of artificial intelligence (AI) technologies. The modern possibilities of organizing personalized education in the professional education system, taking into account students’ knowledge level, interests, and professional competencies, are highlighted. In addition, the role of AI-based adaptive learning platforms, automated monitoring, and assessment systems in improving the quality and effectiveness of education is revealed. According to the research findings, the introduction of artificial intelligence technologies into professional educational institutions contributes to the development of students’ independent thinking, digital competencies, and individual growth.

Keywords: Artificial intelligence, AI, individual educational trajectory, vocational education, technical college, adaptive learning, digital pedagogy, automated assessment, learning analytics, competency-based approach.

Kirish: Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘quvchilar uchun individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Professional ta’lim muassasalari, jumladan texnikumlarda ham o‘quvchilarning qiziqishi, bilim darajasi va kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim tizimida barcha o‘quvchilarga bir xil metod va mazmundagi ta’lim berilishi ularning individual imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, o‘quv faoliyatini monitoring qilish hamda shaxsiy tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Natijada adaptiv o‘qitish modeli shakllanib, ta’lim sifati va samaradorligi oshadi.

Texnikumlarda SI texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa informatika, dasturlash, robototexnika va texnik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday platformalar o‘quvchilarning bilimini real vaqt rejimida baholash, individual topshiriqlar shakllantirish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda professional ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish jarayonlarini o‘rganish uchun pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatish va ilmiy manbalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida SI asosida ishlovchi adaptiv o‘qitish tizimlari, jumladan ChatGPT, Google Classroom, Moodle, Quizizz va Kahoot kabi raqamli platformalarning imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu platformalar orqali o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual topshiriqlar yaratish va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini qo‘llash jarayonlari o‘rganildi.[2]

Shuningdek, texnikum o‘quvchilarining individual xususiyatlarini aniqlash maqsadida ularning o‘quv faoliyati monitoring qilinib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar asosida SI texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi hamda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishdagi afzalliklari aniqlab berildi.

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarini professional ta’lim tizimiga integratsiya qilishning pedagogik va texnologik jihatlari yoritildi.[3-4]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi professional ta’lim muassasalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Texnikumlarda SI yordamida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Individual ta’lim trayektoriyasi deganda o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi, kasbiy maqsadi va o‘zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda unga mos ta’lim yo‘lini tashkil etish tushuniladi.

An’anaviy ta’lim tizimida barcha o‘quvchilarga bir xil metod va bir xil topshiriqlar asosida dars o‘tiladi. Biroq barcha o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘lganligi sababli bunday yondashuv har doim ham samarali natija bermaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini tahlil qilish, uning bilim darajasini aniqlash va mos tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. Natijada ta’lim jarayoni shaxsiylashtiriladi hamda o‘quvchining o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.[5-6]

Texnikumlarda SI texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa informatika, dasturlash, robototexnika va texnik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, dasturlash fanida sun’iy intellekt o‘quvchining kod yozishdagi xatolarini avtomatik aniqlab, ularga tavsiyalar beradi. Shuningdek, o‘quvchining qaysi mavzuda qiynalayotgani aniqlanib, unga qo‘shimcha topshiriqlar va tushuntirish materiallari tavsiya qilinadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. SI yordamida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o‘quvchining boshlang‘ich bilim darajasi diagnostik testlar, amaliy topshiriqlar va elektron platformalardagi faoliyati orqali aniqlanadi. Sun’iy intellekt tizimi ushbu ma’lumotlarni tahlil qilib, o‘quvchining kuchli va zSIf tomonlarini belgilaydi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchiga mos o‘quv yo‘li shakllantiriladi. Bunda unga individual topshiriqlar, video darslar, laboratoriya ishlari va interaktiv mashqlar tavsiya etiladi. Keyingi bosqichlarda esa SI o‘quvchining faoliyatini

muntazam monitoring qilib boradi va natijalarga qarab ta’lim trayektoriyasini yangilab turadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonida ham katta imkoniyatlarga ega. SI asosidagi tizimlar test natijalarini avtomatik tekshiradi, xatolarni tahlil qiladi va o‘quvchiga individual tavsiyalar beradi. Masalan, o‘quvchi ma’lum bir mavzuda ko‘p xato qilgan bo‘lsa, tizim unga aynan shu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha mashqlarni tavsiya qiladi. Bu esa baholash jarayonining tezkor, shaffof va xolis bo‘lishini ta’minlaydi. Texnikumlarda quyidagi SI va raqamli platformalardan foydalanish mumkin: ChatGPT, Moodle, Google Classroom, Quizizz, Kahoot, GitHub Copilot va boshqa adaptiv ta’lim tizimlari. Ushbu platformalar o‘qituvchilarga dars ishlanmalarini tayyorlash, testlar yaratish, topshiriqlarni avtomatik tekshirish va o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilishda yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar uchun mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengayadi.[7-9]

SI yordamida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishning asosiy afzalliklari shundan iboratki, har bir o‘quvchiga individual yondashuv ta’minlanadi, o‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos tezlikda bilim oladi, zSIf mavzular tez aniqlanadi va o‘quvchining kasbiy kompetensiyalari samarali rivojlantiriladi. Bundan tashqari, o‘qituvchining ish yuklamasi kamayadi va baholash jarayoni avtomatlashtiriladi. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha o‘quvchilarda zamonaviy qurilmalar va internet imkoniyatlarining yetarli emasligi, o‘qituvchilarning SI bilan ishlash bo‘yicha malakasining pastligi hamda akademik halollik bilan bog‘liq muammolar uchrashi mumkin. Shuning uchun SI texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik nazoratni kuchaytirish va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.[10]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnikumlarda sun’iy intellekt asosida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish professional ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. SI texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va kasbiy ehtiyojlarini aniqlash hamda ularga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini avtomatlashtirish va baholashning shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish pedagoglarning ish faoliyatini yengillashtirib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Kelgusida professional ta’lim muassasalarida SI texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli pedagogikani rivojlantirish va individual ta’lim trayektoriyasini takomillashtirish ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021.

4.Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogik kompetentlik va kasbiy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

5.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.

6.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.

7.Robert I.V. Informatsion texnologii v obrazovanii. – Moskva: Akademiya, 2020.

8.Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2021.

9.Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

10.Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.

SONLI QATORLARNING YIG‘INDISINI HISOBLASHDA TEYLOR QATOLARINING QO‘LLANILISHI VA SAMARADORLIGI

Toshmatov Shunqorbek Sharifjon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematik analizning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan Teylor qatorlarining sonli qatorlar yig‘indisini hisoblashdagi tatbiqlari tadqiq etiladi. Maqolada funksiyalarni darajali qatorga yoyish orqali murakkab ko‘rinishdagi sonli qatorlarning aniq va taqribiy qiymatlarini topish usullari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, nazariy ma’lumotlar aniq amaliy misollar bilan boyitilgan bo‘lib, ushbu metodning boshqa hisoblash usullariga nisbatan afzalliklari va yaqinlashish sohasi xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Teylor qatori, sonli qatorlar, yig‘indini hisoblash, darajali qatorlar, funksional yoyilma, Makloren qatorlari, yaqinlashish sohasi, matematik analiz, hisoblash metodlari, taqribiy hisoblash.

Zamonaviy matematik analiz va hisoblash matematikasida murakkab funksiyalarni sodda ko‘rinishga keltirish va ularning qiymatlarini yuqori aniqlikda hisoblash fundamental masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, Teylor qatorlari funksiyalarni darajali qatorga yoyish orqali ularni cheksiz ko‘phadlar ko‘rinishida ifodalash imkonini beradi. Bu usul nafaqat funksiyani o‘rganishda, balki ko‘p hollarda bevosita hisoblash qiyin bo‘lgan murakkab sonli qatorlarning yig‘indisini topishda ham eng samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi, Teylor qatori xossalarini tahlil qilish va ularni sonli qatorlar yig‘indisini topishga tatbiq etish orqali hisoblashning samarali algoritmlarini hamda amaliy misollar yechimini ko‘rsatib berishdan iborat.

Teylor qatori yordamida sonli qatorlarni hisoblash va ularni chuqur tahlil qilish yo‘nalishida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda Teylor qatorlarining nafaqat nazariy ahamiyati, balki amaliy hisoblash jarayonlaridagi o‘rni ham alohida ta’kidlangan. Xususan, matematiklar tomonidan bu metodni takomillashtirish, hisoblash aniqligini oshirish va murakkab funksiyalarni soddalashtirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda Teylor qatorlari matematik analiz doirasida muhim vositalardan biri sifatida qaralib, turli funksiyalarni yaqinlashtirish, ularning xossalarini o‘rganish va sonli natijalarni aniqlashda keng qo‘llanilmoqda. Maqola davomida aynan Teylor qatorlari asosida ayrim sonli qatorlarning yig‘indisi aniq qiymatlarga ega ekanligi matematik isbotlar orqali asoslab beriladi. Bu esa cheksiz qatorlar bilan ishlashda muhim nazariy natijalarni beradi. Bundan tashqari, turli elementar va murakkab funksiyalarni Teylor qatoriga yoyish orqali ularning qiymatlarini yuqori aniqlikda hisoblash mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ayniqsa, bu yondashuv sonli analizda muhim ahamiyat kasb etib, kompyuter yordamida hisoblashlarda samarali natijalar beradi. Shuningdek, Teylor qatorlaridan foydalanish orqali differensial tenglamalarni yechish, funksiyalarni lokal yaqinlashtirish va fizik hamda muhandislik masalalarini modellashtirish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu metodning asosiy ustunligi uning universalligi va yuqori aniqlik darajasidadir. Teylor qatori matematik modellarda murakkab funksiyalarni soddalashtirish, kompyuterli hisoblashlar va tahliliy yechimlarni taxminan aniqlashda asosiy metod hisoblanadi. Shu sababli Teylor qatori oliy matematika va muhandislik

fanlarida fundamental o‘rin egallaydi. Turli tajribalar va hisoblash natijalari shuni ko‘rsatadiki, Teylor qatorlari asosida olingan natijalar amaliyotda ishonchli va aniq bo‘lib, zamonaviy ilmiy izlanishlarda muhim o‘rin tutadi.

Matematik analizda funksiyani darajali qator ko‘rinishida ifodalash muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Agar f(x) funksiyani ma’lum bir nuqta atrofida darajali qator yig‘indisi sifatida yozish mumkin bo‘lsa, bu jarayon funksiyani qatorga yoyish deb ataladi. Bunday yondashuv murakkab funksiyalarni soddalashtirish, ularni yaqinlashtirish hamda hisoblash jarayonlarini osonlashtirish imkonini beradi. Teylor qatori — bu differensiallanuvchi funksiyani cheksiz darajali qator yordamida yaqinlashtirib ifodalash usulidir. Ya’ni, yetarli darajada differensiallanuvchi bo‘lgan funksiyani ma’lum bir nuqta atrofida polinomlar ketma-ketligi orqali ifodalash mumkin. Bu esa funksiyaning qiymatini yaqinlashgan holda hisoblashda juda katta ahamiyatga ega.

Teylor qatorining umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\sum_{n=0}^{k} \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n \quad (1)$$

Bu yerda a — yoyish nuqtasi, $f^{(n)}(a)$ — funksiyaning n - tartibli hosilasi va n! — faktorialni bildiradi. Ushbu formula yordamida funksiyaning qiymatini berilgan nuqta atrofida istalgan aniqlikda hisoblash mumkin.

Teylor qatorining maxsus holati sifatida Makloren qatori qaraladi. Bu holatda yoyish nuqtasi $a = 0$ deb olinadi va formula soddaroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Makloren qatori ko‘plab elementar funksiyalarni tahlil qilishda juda qulay vosita hisoblanadi.

Hozirgi zamon matematikasida Teylor va Makloren qatorlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy masalalarni yechishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida murakkab funksiyalarni yaqinlashtirish, differensial tenglamalarni yechish, fizik jarayonlarni modellashtirish va kompyuter hisoblashlarini amalga oshirish mumkin. Shu sababli, bu qatorlar matematik analiz va sonli hisoblash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

f(x) funksiya x haqiqiy o‘zgaruvchili ko‘phadli k-darajali ko‘phad bo‘lsin. Quyidagi yig‘indini qaraylik:

$$\sum_{n=0}^{k} \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n = f(a) + f'(a)(x-a) + \frac{f^{(2)}(a)}{2!}(x-a)^2 + \cdots + \frac{f^{(k)}(a)}{k!}(x-a)^k \quad (2)$$

Ixtiyoriy $f(x)$ funksiya uchun quyidagi yoyilma bu funksiyaning a nuqta atrofidagi Teylor qatori deyiladi:

$$f(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n = \sum_{n=1}^{\infty}(\varphi_n)(x;a) \quad (3)$$

Bu yerda $\varphi_n(x;a) = \frac{f^{(n)}(x)}{n!}(x-a)^n$ (4)

Buni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$f(x) = f(a) + f'(x-a) + \frac{f^{(2)}(a)}{2!}(x-a)^2 + \cdots + \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n + \cdots \quad (5)$$

Agar $a = 0$ holatni ko‘rsak, quyidagi tenglikka kelamiz:

$$f(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{f^{(n)}(0)}{n!}(x)^n \quad (6)$$

(6) formula $f(x)$ funksiyaning Makloren qatori deyiladi.

Teylor qatoridan foydalanish sonli qatorlar yig‘indisini hisoblash jarayonida yuqori aniqlikka erishishga imkon beradi. Ushbu usulning muhim jihatlaridan biri shundaki, sonli qatorlarni funksiyalar orqali ifodalash natijasida ularning yaqinlashish xususiyatlarini tahlil qilish

ancha qulaylashadi. Shu bilan birga, bu metod har doim ham bir xil samaradorlikni ta’minlayvermaydi. Ba’zi hollarda Teylor qatorlari sekin yaqinlashadi, bu esa kerakli natijani olish uchun ko‘proq hadlarni hisoblashni va qo‘shimcha vaqt sarflashni talab qiladi.

1-masala. $f(x) = e^x$ bo‘lsin.

x=1 uchun e^x funksiyani Makloren qatori yordamida topamiz. e^x funksiya hosilalarini topamiz:

$f'(x) = e^x,\ f''(x) = e^x,\ f'''(x) = e^x,\ f''''(x) = e^x$ ...

Demak, x=0 nuqtada ularning qiymatlarini topamiz va Makloren qatoriga qo‘yamiz: $f(0) = 1,\ f'(0) = 1, \ldots f^{(n)}(0) = 1$. Bundan quyidagi funksional qatorga ega bo‘lamiz:

$$e^x = 1 + \frac{x}{1!} + \frac{x^2}{2!} + \frac{x^3}{3!} + \cdots$$

Endi x=1 ni qo‘yib hisoblaymiz.

$$e^1 \approx 1 + \frac{1}{1!} + \frac{1^2}{2!} + \frac{1^3}{3!} = 1 + 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{6} = 2{,}666 \ldots$$

Asl qiymat: $e \approx 2{,}718$. Demak, bir nechta had olish orqali ham yetarlicha aniq natija olinadi.

2-masala. $f(x) = \sin(x)$ funksiyani Makloren qatoriga yoying.

Birinchi navbatda berilgan funksiyani hosilalarini topamiz:

$f'(x) = \cos(x), \quad f''(x) = -\sin(x), \quad f'''(x) = -\cos(x), \quad f^{IV}(x) = \sin(x)$ ...

Keyin, x=0 nuqtada ularning qiymatlarini topamiz va Makloren qatoriga qo‘yamiz:

$$\sin(x) = \frac{x}{1!} - \frac{x^3}{3!} + \frac{x^5}{5!} - \cdots + (-1)^{n-1}\frac{(x)^{2n-1}}{(2n-1)!} + \cdots$$

$$\sin(x) = \sum_{k=1}^{\infty} (-1)^{n-1}\frac{(x)^{2n-1}}{(2n-1)!} \quad (7)$$

Shunday qilib, $\sin(x)$ funksiyasining Makloren qatori faqat toq darajali hadlardan iborat bo‘lib, u barcha haqiqiy x sonlar uchun yaqinlashuvchidir. Bu qator trigonometrik hisoblashlarni taqribiy amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Teylor qatori yordamida sonli qatorlar yig‘indisini hisoblashda avval berilgan qatorni ifodalovchi mos funksiyani aniqlash asosiy bosqich hisoblanadi. Biroq amaliy jarayonda har bir qator uchun bunday funksiyani topish har doim ham sodda kechmaydi, ba’zan esa ancha murakkab tahlilni talab qiladi. Shu bilan birga, Teylor qatorlaridan foydalanishda qatorning yaqinlashish xususiyatlari, ya’ni uning tezligi va unga ta’sir qiluvchi omillarni chuqur o‘rganish muhimdir. Chunki ayrim hollarda qatorning sekin yaqinlashishi hisob-kitob jarayonini qiyinlashtirib, qo‘shimcha hisoblashlarni talab qiladi. Shu sababli bu metodni qo‘llashda uning shartlarini to‘liq inobatga olish zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, Teylor qatorlariga asoslangan yondashuv sonli qatorlar yig‘indisini aniqlashda yuqori aniqlik beruvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda ko‘rib chiqilgan usullar matematik tahlil jarayonlarini yanada kengroq o‘rganish va chuqurlashtirish imkonini beradi. Kelajakdagi izlanishlarda Teylor qatorlarini boshqa hisoblash metodlari bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada samarali va tezkor natijalarga erishish mumkin. Shu jihatdan mazkur yondashuv zamonaviy matematik analizda muhim o‘rin tutadi va sonli qatorlarni o‘rganishda asosiy ilmiy vositalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdurahmonov A., Jo‘rayev T. Matematik analiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

2. Qosimov O. Oliy matematika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

3. Yusupov Sh. Matematik analiz (1-qism). Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Karimov I. A. Matematika fanini rivojlantirishga oid ma’ruzalar. Toshkent, 2009.
5. Mirzaev M. Oliy matematika. Toshkent: Universitet, 2016.
6. Nasriddinov B. Differensial va integral hisob. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2017.
7. Ismailov A. Matematik analizdan masalalar to‘plami. Toshkent, 2014.
8. Rahimov Sh. Oliy matematika kursi. Toshkent: Fan, 2013.
9. Tursunov H. Sonli metodlar va yaqinlashuv usullari. Toshkent, 2019.
10. Jabborov E. Matematika: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2016.
11. Apostol T. M. Calculus, Vol. 1. Wiley, 1967.
12. Rudin W. Principles of Mathematical Analysis. McGraw-Hill, 1976.
13. Bartle R. G., Sherbert D. R. Introduction to Real Analysis. Wiley, 2011.
14. Zill D. G. Differential Equations and Modeling. Cengage Learning, 2013.
15. Kreyszig E. Advanced Engineering Mathematics. Wiley, 2011.
16. Boyce W. E., DiPrima R. C. Elementary Differential Equations. Wiley, 2017.
17. Tolstov G. P. Fourier Series. Dover Publications, 2012.
18. Hardy G. H. Divergent Series. Oxford University Press, 1949.

CHIZIQLI FAZOLAR. FAZONING BAZISI VA UNING O‘LCHAMI

Komiljonova Mehriniso

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Sobirjonova Yoqutxon

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Aktamov Feruz Sanaqulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Algebra va matematik analiz" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ishda chiziqli fazolar, bazis va fazoning o‘lchami tushunchalari qisqa va aniq tarzda yoritiladi. Chiziqli fazo — vektorlar to‘plami bo‘lib, unda vektorlarni qo‘shish va skalyar songa ko‘paytirish amallari aniqlangan hamda algebraik aksiomalarni qanoatlantiradi. Bazis — chiziqli mustaqil vektorlar tizimi bo‘lib, uning yordamida fazodagi har qanday vektor yagona koeffitsiyentlar orqali ifodalanadi. Fazoning o‘lchami esa bazisdagi vektorlar soniga teng bo‘lib, u fazoning asosiy xususiyatini belgilaydi. Ishda $\mathbb{R}^n$ fazosiga misollar keltirilib, bazis va o‘lcham tushunchalarining amaliy ahamiyati qisqacha ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Chiziqli fazo, vektorlar, bazis, chiziqli mustaqillik, fazoning o‘lchami, dimension, skalyar ko‘paytirish, vektor fazo, R^n fazo, algebraik tuzilma.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda matematikaning ko‘plab yo‘nalishlari va amaliy fanlarida chiziqli algebra va uning asosiy tushunchalari muhim o‘rin egallaydi. Xususan, chiziqli fazolar, bazis va fazoning o‘lchami tushunchalari murakkab tizimlarni modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda turli masalalarni yechishda keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, axborot tizimlari, iqtisodiy modellar va muhandislik hisob-kitoblarida vektorlar va ularning fazolari asosiy matematik apparat sifatida xizmat qiladi. Shu sababli chiziqli fazolar nazariyasini chuqur o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Bazis va o‘lcham tushunchalari esa fazoning tuzilishini tushunish, vektorlarni samarali ifodalash va hisoblash jarayonlarini soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Implementing age-appropriate cybersecurity education requires tailored approaches across the developmental spectrum. For younger children (5-11 years), the focus should be on concrete safety concepts presented through engaging storytelling, visual metaphors, and gamified learning experiences. Key strategies include using relatable characters to illustrate online safety scenarios, developing simple decision trees for common digital situations, and gradually building critical thinking skills through activities that connect familiar physical security concepts to their digital counterparts. These approaches leverage children's natural curiosity while respecting their concrete thinking patterns and limited abstraction abilities.

As learners progress through middle and high school (12-17 years), educational approaches should evolve to incorporate more collaborative and technically substantial experiences. This transitional phase benefits from implementing team-based cybersecurity projects that address real community issues, introducing simplified threat modeling frameworks, and engaging students in cybersecurity competitions that develop both technical and problem-solving skills. Additionally, discussions about digital identity, reputation management, and the ethical dimensions of cybersecurity become increasingly relevant as students expand their social media presence and begin considering potential career pathways in the field.

For higher education and young adult learners (18-22 years), cybersecurity education should emphasize practical application, specialization, and professional development. Implementing realistic simulation environments that replicate contemporary threat landscapes provides the hands-on experience crucial for skill mastery, while research components exploring emerging threats develop critical analytical abilities. Educational programs should offer specialized pathways aligned with industry needs and connect learning experiences directly to professional certifications and career development opportunities, allowing students to build portfolios of practical cybersecurity work that demonstrate their capabilities to potential employers.

Conclusion

Age-appropriate cybersecurity education requires careful alignment with cognitive development, social contexts, and digital experiences of learners. Our research demonstrates that significant improvements in learning outcomes can be achieved through targeted adaptation of content complexity, teaching methodologies, and engagement strategies for different age groups. The developmental framework and quantitative models presented provide educators with

evidence-based tools to create more effective cybersecurity curricula across the educational spectrum. By meeting learners where they are developmentally, educators can build more sustainable cybersecurity knowledge and behaviors that will serve learners throughout their digital lives.

References

[1] Anderson, M., & Jiang, J. (2022). Teens, social media & technology. Pew Research Center.

[2] Bloom, B.S., & Krathwohl, D.R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Longmans, Green.

[3] Carlton, M., & Levy, Y. (2023). Cybersecurity skills: Foundational theory and development of a preliminary educational framework. Journal of Education and Learning, 12(3), 29-45.

[4] Lastdrager, E., Hofstra, P., & Van Zoonen, L. (2022). A taxonomy of cybersecurity skills for different age groups. Computer Security, 87, 101568.

[5] Piaget, J. (1970). Science of education and the psychology of the child. Orion Press.

[6] Rayner, C., & Lobato, M. (2023). Age-appropriate cybersecurity education: From kindergarten to university. International Journal of Cybersecurity Education, 5(2), 112-134.

[7] Stockman, M. (2022). Developmental aspects of cybersecurity education in K-12. Journal of Educational Computing Research, 60(1), 3-28.

[8] Vygotsky, L.S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

Davlatova Adiba Raxmatovna

CHDPU, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

XXI asrda ta’lim tizimi jadal o‘zgarish va raqamlashuv jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Bu o‘zgarishlar orasida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari o‘quv jarayonini tubdan yangilayotgan dolzarb yo‘nalish sifatida ajralib turibdi. Ayniqsa, gumanitar fanlar, jumladan o‘zbek adabiyotini o‘qitishda SI imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kun ilmiy-metodik muhokamalar markazida turibdi.

Ko‘zlangan asosiy maqsad — sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayoniga ham tatbiq etishning ilmiy-amaliy asoslarini tahlil qilish, yangi pedagogik modellar va o‘quv metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ko‘rsatishdir.

Sun’iy intellekt — bu mashina yoki dasturning inson aqliga xos fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, yozma va og‘zaki nutqni anglash, qaror qabul qilish qobiliyatiga ega tizimdir. Adabiyot darslarida SI texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’limni personallashtirish imkonini berib, o‘qitish samaradorligini oshiradi.

Ta’lim soxasida SIning quyidagi asosiy yo‘nalishlari ajralib turadi:

- Avtomatlashtirilgan ta’lim platformalari (masalan, ChatGPT, Knewton Learn va h.k.);
- Nutq va matn tahlili orqali adabiy asarlarni semantik tahlil asosida o‘rganish;
- Onlayn o‘rgatuvchi — o‘quvchi bilimini baholash va individual tavsiyalar berish tizimlari;
- Tarjimon dasturlari va lingvistik modellar — badiiy asar tili masalasini adabiy tilni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ta’lim metodikasi sohasida “axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan integrativ yondashuv” tamoyili keng rivojlanmoqda. Bu yondashuvda adabiyot fani nafaqat matnni o‘qish va tahlil qilish, balki matnni raqamli muhitda qayta ifoda etish, simvolik ma’nolarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Adabiyot o‘qitishda SI quyidagi masalalarni hal etishi mumkin:

1. Asar mazmunini semantik tahlil qilib, asosiy g‘oya va qahramonlar munosabatini aniqlash;
2. Talabalarga individual savollar tizimini avtomatik ravishda yaratish;
3. Adabiy davr, uslub, muallif tili xususiyatlarini statistik tahlil qilish;
4. Adabiyot tarixi bo‘yicha virtual interaktiv taymlaynlar tuzish;
5. Kreativ yozish, she’r yaratish yoki adabiy tahlilni avtomatlashtirish orqali ijodiy fikrni rag‘batlantirish.

Adabiy tahlil — adabiyotni o‘qitishning markaziy bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda SIdagi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullari muhim o‘rin tutadi. Masalan:

- Psixologik tahlil (sentiment analysis) orqali qahramonlar hissiyotini aniqlash;
- mavzularni aniqlash (topic modeling) — asardagi asosiy g‘oya yo‘nalishlarini avtomatik topish;
- Stilometrik tahlil — muallif tilining leksik va morfologik uslubini tahlil qilish;
- Lingvistik korpuslar asosida adabiy tilning tarixi va rivojini o‘rganish.

O‘zbek adabiyoti uchun maxsus korpuslar va SI modellarini yaratish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat ta’lim, balki tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarinida yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Sun’iy intellekt har bir o‘quvchining bilish darajasi, o‘qish sur’ati, qiziqish sohalari va fikrlash uslubiga qarab individual dars ssenariylarini tuzishi mumkin. Masalan, adabiyot fanini o‘qitishda:

- Boshlang‘ich bosqichda asosiy syujet va obrazlar bilan tanishtirish (vizual va audio yordamchi vositalar orqali);
- Yuqori bosqichlarda — tanqidiy tahlil, intertekstual aloqalarni SI yordamida ko‘rsatish;
- Ijodiy yozish mashg‘ulotlari uchun avtomat baholash tizimini qo‘llash.

Bu usullar zamonaviy pedagogikaning adaptiv ta’lim, personalizatsiya va empatik o‘qitish prinsiplariga to‘la mos tushadi.

O‘zbek adabiyoti darslarida SI vositalaridan foydalanishning amaliy misollari:

- ChatGPT yordamida nasriy asarlar asosida dialoglar, vizual va audio mahsulotlar yaratish;
- Google Bard/Claude kabi modellar orqali she’r tahlilini avtomat yoki yarimavtomat rejimida bajarish;
- AI Story Analyzer kabi dasturlar bilan asar kompozitsiyasini vizual ko‘rinishda taxlil qilish;
- Qo‘shma loyihalar: talabalar SI yordamida “o‘z davrining adabiy muhiti”ni modellashtirish loyihasini ishlab chiqishlari mumkin.

Bu usullar adabiyot darslarini faqat nazariy emas, balki tahliliy, ijodiy va tadqiqot uslubida tashkil etish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt sharoitida o‘qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki tadqiqot rahbari, yo‘naltiruvchi va tahlilchi sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifalari:

- SI tizimlari xulosalarini tahlil qilish va tanqidiy baholashga o‘rgatish;
- Talabalarning madaniy va ma’naviy dunyoqarashini SI vositalaridan mustaqil foydalanish orqali chuqurlashtirish;
- Tarbiya va ma’naviyat masalalarida inson qiymatlarini SIdan ustun qo‘yishga urg‘u berish.

SI texnologiyalarini adabiyot ta’limiga joriy etishda qator muammolar ham mavjud:

- Inson ijodkorligining qadri pasayishi — agar o‘quvchi faqat SI yordamida tahlil qilsa, shaxsiy fikrlash susayishi ehtimoli bor;
- Axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiyligi;
- Til madaniyatining buzilishi — avtomat tarjimalar va yanglish grammatik modellar natijasida tilga salbiy ta’sir;
- Plagiat va tayyor kontentdan foydalanish xavfi.

Bu muammolarni hal qilish uchun maxsus didaktik qoidalar va milliy ta’lim standartlari ishlab chiqilishi zarur.

Xorijiy modellar ko‘pincha o‘zbek tilining morfologik va semantik xususiyatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Shu sababli milliy SI modellarini yaratish — strategik vazifadir. Ular:

- O‘zbek adabiyoti korpuslariga asoslanishi kerak;
- Asarlardagi milliy qadriyat, tarixiy kontekst va obrazlar tizimini inobatga olishi lozim;
- Maktab va oliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan kontent yaratish imkonini berishi kerak.

Bunday loyihalar munosabati bilan “AI for Uzbek Literature” kabi ilmiy dasturni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Quyidagi sxema orqali SI asosida o‘zbek adabiyotini o‘qitishning integrativ modelini ko‘rish mumkin:

1) Sun’iy intellekt tahlil blogi (asarni semantik, badiiy tahlil qiladi)
2) O‘quvchi faoliyati blogi (ijodiy yozish, fikr berish, mulohaza)
3) O‘qituvchi nazorati (metodik tavsiyalar, xatolar ustida ishlash)
4) Ta’lim natijasi — kritik fikrlash, adabiy dunyoqarash, ijodkorlik qobiliyati.

Bu model pedagogik siklni sun’iy intellekt bilan inson faoliyati o‘rtasidagi hamkorlik sifatida ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sun’iy intellekt o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. U nafaqat o‘quv jarayonini interaktiv qiladi, balki o‘quvchining shaxsiy intellektual rivojiga xizmat qiladi. Biroq, bu jarayon nafaqat texnologiyalar, balki milliy did, ma’naviyat va insonparvarlik qadriyatlariga tayanishi shart.SI vositalari o‘qitishni osonlashtirishi, tahlilni avtomatlashtirishi mumkin, ammo adabiyot — inson qalbining oynasi ekanini unutmaslik lozim. Shu bois, sun’iy intellekt vositalari o‘qitishni qo‘llab-quvvatlovchi, lekin inson ijodini almashtirmaydigan yordamchi tizim sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva D. Zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalari. — Toshkent: Fan Ziyo, 2022.
2. Karakulov Sh. Artificial Intelligence in Education: A Pedagogical Approach. — Tashkent State University, 2023.
3. Eshqobilov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Universitet, 2021.
4. UNESCO Report: AI and the Future of Teaching, 2022.
5. Nazarov U. O‘zbek tili korpuslari va NLP texnologiyalari. — Toshkent: Akademnashr, 2024.
6. Russel S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. — New Jersey: Pearson, 2021.
7. Karimova N. Kreativ ta’limning metodik asoslari. — Toshkent, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIULOTLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASVIRIY FAOLIYATGA O’RGATISH.

Maripova Nodira Xamidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti katta o’qituvchisi
marufxojayevanodira@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatishning pedagogik ahamiyati, metodikimkoniyatlari hamda samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va estetik didni rivojlantirishdagi o’rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari ko’rib chiqilgan.

Tayanch tushunchalari: maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, tasviriy faoliyat, raqamli texnologiyalar, ijodkorlik, estetik tarbiya, innovatsion pedagogika, interaktiv ta’lim, multimediya vositalari, bolalar rivojlanishi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi maktabgacha ta’lim tizimida ham bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sifatini oshirish va o’quv jarayonini individuallashtirishda samarali vosita bo’lib xizmat qilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida tasviriy faoliyat muhim o’rin egallaydi. Rasm chizish, bo’yash, applikatsiya va loy bilan ishlash bolalarning estetik didi, tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga , ularning mayda motorikasi, diqqati hamda rang va shakllarni farqlash ko’nikmalarini shakllantiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi grafik dasturlar, virtual chizish platformalari va multimedia vositalari tasviriy faoliyat samaradorligini oshiradi. Ular bolalarning qiziqishi va qobiliyatiga mos topshiriqlar tavsiya etib, individual yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli vositralar tarbiyachilarga mashg’ulotlarni rejalashtirib, didaktik materiallar tayyorlash va bolalar faoliyatini tahlil qilishda yordam beradi. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy faoliyatni tashkil etish bolalarning estetik, ijodiy va intellektual rivojlanishini ta’minlovchi samarali innovatsion yondashuvdir.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o’rni. Sun’iy intellekt – inson tafakkuriga xos jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt o’quv jarayonini individuallashtirish, bolalarning bilim darajasini tahlil qilish, interaktiv o’quv materiallarini yaratish kabi vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash;
- individual yondashuvni ta’minlash;

- tasviriy faoliyatga qiziqishni oshirish;
- mashg’ulotlarni interaktiv tashkil etish;
- ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- estetik tarbiya samaradorligini oshirish.

Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida grafik dasturlar, annimatsion ilovalar va multimedia vositalari bolalarda ranglarni farqlash, shakllarni tasvirlash ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

Tasviriy faoliyatni o’qitishda innovatsion yondashuvlar. Tasviriy faoliyat bolalarning ruhiy va estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bolalarni faol ishtirok etishga undovchi interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

5. Raqamli rasm chizish texnologiyalari. Planshet va interaktiv doskalarda ishlovchi grafik dasturlar yordamida bolalar turli shakl va ranglar bilan ishlashni o’rganadilar. Bunday dasturlar bolalarda qo’l harakatlarini muvofiqlashtirish hamda tasvir yaratish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

6. Interaktiv o’yin texnologiyalari. Sun’iy intellekt elementlariga ega didaktik o’yinlar bolalarda qiziqish uyg’otadi. Masalan, ranglarni moslashtirish, shakllarni tanish yoki yarim tasvirni davom ettirish kabi topshiriqlar bolaning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

7. Multimedia vositalaridan foydalanish. Audio, video va annimatsion materiallar yordamida bolalarga rassomlik elementlari tushuntiriladi. Harakatli tasvirlar bolalarning diqqatini uzoq vaqt saqlashga yordam beradi.

8. Sun’iy intellekt yordamida individual topshiriqlar yaratish. AI texnologiyalari bolaning yosh xususiyati va qobiliyatidan kelib chiqib topshiriqlarni avtomatik shakllantirish mumkin. Bu esa differensial yondashuvini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik afzalliklari. Maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi pedagogik afzalliklarni beradi:

- ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi;
- ijodkor va tasavvurni kengaytiradi;
- individual ta’lim imkoniyatlarini yaratadi;
- bolalarning motivatsiyasini kuchaytiradi;
- zamonaviy axborot madaniyatini shakllantiradi;

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar tarbiyachining ish faoliyatini ham yengillashtiradi. Mashg’ulotlarni rejalashtirish, bolalar faoliyatini monitoring qilish va natijalarni tahlil etishda raqamli platformalar muhim yordamchi vosita bo’lib xizmat qiladi.

Muammo va kamchiliklar. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud:

- texnik vositalarning yetarli emasligi;
- tarbiyachilarning AKT kompetentsiyasi pastligi:
- internet va dasturiy ta’minot bilan bog’liq muammolar;
- bolalarning gadjetlarga ortiqcha bog’lanib qolish xavfi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarning raqamli kompetentsiyasini oshirish, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash hamda texnologiyalardan me’yoriy foydalanishni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy faoliyatga o’rgatish bolalarning ijodiy va estetik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg’ulotlar bolalarda mustaqil fikrlashni, tasavvur qilish, rang va shakllarni idrok etish ko’nikmalarini samarali rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirib, maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy axborot muhitiga mos ravishda tarbiyalash imkonini beradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR.

7. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’trisida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. “Ilk qadam: davlat o’quv dasturi. – Toshkent, 2022.
9. Ishmuxamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent:Ffan, 2019.
10. Azizxo’jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
11. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
12. Xoliqov A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2021.

STEM VA RAQAMLI TA’LIM: ZAMONAVIY TA’LIMNING ASOSI

Taymanova Elnora Lutfullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Tursunova Nozanin Nurmurod qizi, Rashidova Odina Obidjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabalari

Annotatsiya. -Mazkur maqolada STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’limi va raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. STEM yondashuvining o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari hamda STEM va raqamli ta’lim integratsiyasining istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: STEM ta’limi, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar, integratsiya, kompetensiya, interaktiv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение STEM (наука, технологии, инженерия, математика) образования и цифровых технологий в современной системе образования. Освещается влияние STEM-подхода на развитие логического, критического и творческого мышления учащихся. Также рассматриваются возможности эффективной организации образовательного процесса с использованием цифровых технологий, инновационных методов обучения и перспективы интеграции STEM и цифрового образования. Результаты исследования показывают, что данный подход играет важную роль в подготовке конкурентоспособных и высококвалифицированных специалистов, соответствующих требованиям современного общества.

Ключевые слова: STEM образование, цифровое обучение, инновационные технологии, интеграция, компетенции, интерактивное обучение, проектное обучение, проблемное обучение.

Abstract. This article analyzes the role and importance of STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) education and digital technologies in the modern education system. The paper highlights the impact of the STEM approach on developing students’ logical, critical, and creative thinking skills. It also discusses opportunities for organizing the educational process effectively through digital technologies, innovative teaching methods, and the prospects of integrating STEM with digital education. The research findings indicate that this approach plays an important role in preparing competitive and highly qualified specialists who meet the demands of modern society.

Keywords: STEM education, digital learning, innovative technologies, integration, competence, interactive learning, project-based learning, problem-based learning.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, ilm-fan va texnologiyalarning yuksalishi natijasida yangi o‘qitish yondashuvlari paydo bo‘lmoqda. Shulardan biri — STEM ta’limi va raqamli ta’limdir. Bu ikki tushuncha zamonaviy jamiyat

ehtiyojlariga mos, innovatsion fikrlaydigan va muammolarni hal qila oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

STEM — bu inglizcha Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Mathematics (matematika) so‘zlarining bosh harflaridan tashkil topgan tushunchadir. STEM ta’limi an’anaviy fanlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi.

Bu yondashuv o‘quvchilarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodkorlikni oshirish, amaliy tajriba orqali bilim olish, imkonini beradi.

Masalan, oddiy robot yasash jarayonida o‘quvchi matematika hisob-kitoblarini, fizika qonunlarini, dasturlashni va texnik loyihalashni birgalikda qo‘llaydi.

Raqamli ta’lim — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida bilim berish jarayonidir. Bu jarayonda kompyuter, internet, mobil ilovalar va boshqa texnologik vositalar keng qo‘llaniladi.

Raqamli ta’limning asosiy vositalari: onlayn platformalar (masalan, masofaviy ta’lim tizimlari), video darslar va vebinarlar, interaktiv dasturlar va ilovalar, virtual laboratoriyalar.

Raqamli ta’lim o‘quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida STEM va raqamli yondashuvlar faqat texnologik vositalarni qo‘llash bilan cheklanib qolmaydi. Ular ta’lim falsafasini, metodologiyasini va bilim olishning psixologik asoslarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, bilimni passiv qabul qilishdan faol yaratish jarayoniga o‘tish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda o‘quvchi bilim iste’molchisi emas, balki uni yaratuvchi subyektga aylanadi.

STEM va raqamli ta’limning muhim jihatlaridan biri — kognitiv yuklama nazariyasiga moslashuvdir. Ya’ni, o‘quv materiallari inson miyasi qabul qila oladigan darajada bosqichma-bosqich va mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etiladi. Raqamli platformalar orqali murakkab tushunchalar vizual, audio va interaktiv shaklda berilishi natijasida o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi. Bu ayniqsa matematika, fizika va muhandislik kabi murakkab fanlarda samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, STEM ta’limi tizimli fikrlashni (systems thinking) rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar alohida muammolarni emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga o‘rganadi. Masalan, ekologik muammoni hal qilishda faqat biologiya emas, balki matematika (hisoblash), texnologiya (monitoring tizimlari) va muhandislik (yechim ishlab chiqish) ham ishtirok etadi. Bu esa kompleks fikrlashni shakllantiradi.

Raqamli ta’lim muhitida moslashuvchan o‘quv trajektoriyasi muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi o‘z tezligi va qobiliyatiga qarab bilim oladi. Kuchli o‘quvchilar tezroq murakkab bosqichga o‘tsa, boshqalar asosiy bilimlarni mustahkamlashga ko‘proq vaqt ajratadi. Bu esa individual farqlarni hisobga olgan holda samarali ta’limni tashkil etishga imkon beradi.

Yana bir muhim jihat — metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Bu o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini nazorat qila olishi, qanday o‘rganayotganini tushunishi va kerak bo‘lsa strategiyasini o‘zgartira olishidir. Raqamli platformalarda beriladigan refleksiya topshiriqlari, o‘zini baholash tizimlari aynan shu ko‘nikmani shakllantiradi.

STEM va raqamli ta’lim fanlararo integratsiyani chuqurlashtiradi. Masalan, bioinformatika, mechatronika, nanoteknologiya kabi yangi sohalar aynan bir nechta fanlar kesishmasida paydo bo‘lgan. Bu esa talabalardan keng qamrovli bilim va moslashuvchan

tafakkurni talab qiladi. Shunday qilib, ta’lim tor ixtisoslashuvdan keng qamrovli bilim tizimiga o‘tadi.

STEM va raqamli ta’lim motivatsiya mexanizmlarini ham o‘zgartiradi. O‘quvchi o‘z faoliyatining natijasini tez ko‘radi, bu esa ichki qiziqishni oshiradi. Ayniqsa interaktiv muhitda o‘rganish jarayoni zerikarli emas, balki qiziqarli va rag‘batlantiruvchi bo‘ladi.

Bundan tashqari, bu ta’lim turi xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalar turli davlatlardagi tengdoshlari bilan birgalikda loyiha ustida ishlashi mumkin. Bu esa madaniy almashinuv va global fikrlashni rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim muhitida o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulated learning) ko‘nikmasi shakllanadi.

Shuningdek, STEM ta’limi orqali analitik tafakkur va modellashtirish qobiliyati rivojlanadi. O‘quvchilar real jarayonlarni matematik yoki kompyuter modeli orqali ifodalashni o‘rganadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun muhim asos hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat — ta’limning moslashuvchan baholash va qayta aloqa tizimidir. Raqamli platformalarda o‘quvchi darhol natijani ko‘radi va xatolarini tuzatadi. Bu esa tezkor o‘rganishni ta’minlaydi.

STEM va raqamli ta’lim zamonaviy dunyoning murakkab talablariga javob beruvchi, moslashuvchan va innovatsion ta’lim modelidir. U nafaqat bilim berish, balki insonni har tomonlama rivojlantirish, uni global muammolarni hal qila oladigan shaxsga aylantirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu yo‘nalishlar kelajakda yanada chuqurlashib, ta’limning asosiy ustuniga aylanishi kutilmoqda.

STEM va raqamli ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va ajralmas yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ular bilim berish jarayonini an’anaviy yondashuvdan chiqarib, uni yanada interaktiv, moslashuvchan va amaliyotga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladi, balki real hayotiy muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, STEM va raqamli ta’lim shaxsning intellektual salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. U o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirib, o‘z bilimini mustaqil ravishda kengaytirish va amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, moslashuvchan va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu ta’lim yo‘nalishlari jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnologik rivojlanish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘sish aynan bilimli va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli STEM va raqamli ta’limni rivojlantirish, uni keng joriy etish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

11. Taymanova E.L. Digital pedagogy and its advantages // European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. Vol. 03, Issue 10, ISSN (E): 2938-3625, October – 2025. SJIF 2024 5.441, P. 50-56 (14, ResearchBib).

12. Taymanova E.L. Development trends of LMS platforms in the era of digital education //World Bulletin of Education and Learning (WBEL)., 2026-yil. ISSN (E): 3072-175X P 153-158. .(14, ResearchBib).

13. Taymanova E.L. Методология развития цифровых педагогических компетенций будущих учителей на основе STEM-подхода // Pedagogik mahorat-T., 2026 №1.– B. 214-221 (13.00.00. № 23).

14. Taymanova E.L. STEM-интеграция в современном образовании: пути формирования цифровой методической грамотности будущих учителей // Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlar.-Q., 2025. -№11. – B. 398-416 (13.00.00. OAK Rayosatining 2023 yil 28 fevraldagi 333/5-son qarori).

TARBIYAVIY MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA KO‘ZI OJIZ BOLALARDA NUTQIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sobirova Subinsoxon Muxsinjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti Oliy matematika kafedrasi assistenti
subinsosobirova9810@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu mavzuda ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ko‘rib chiqilgan. Tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida nutq rivojlantirish usullari, maxsus didaktik vositalar va inkluziv ta'lim yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada ko‘zi ojiz o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish, so‘z boyligi va nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan metodlar hamda texnologiyalar ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maqsadli tarzda tashkil etilgan tarbiyaviy mashg‘ulotlar ko‘zi ojiz bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi va ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz bolalar, nutqiy faollik, tarbiyaviy mashg‘ulot, inkluziv ta'lim, kommunikativ kompetensiya, maxsus pedagogika, nutq rivojlantirish, tiflopedagogika, nutq texnologiyalari, sensori ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные педагогические технологии развития речевой активности у слепых детей. Анализируются методы развития речи в процессе учебной деятельности, специальные дидактические средства и подходы к инклюзивному образованию. В статье раскрываются методы и технологии, направленные на формирование коммуникативных компетенций слепых учащихся, расширение словарного запаса и речевой культуры. Результаты исследования показывают, что целенаправленно организованная учебная деятельность значительно повышает речевую активность слепых детей и улучшает их социальную адаптацию.

Ключевые слова: слепые дети, речевая активность, учебная деятельность, инклюзивное образование, коммуникативная компетенция, специальная педагогика, развитие речи, тифлопедагогика, речевые технологии, сенсорное образование.

Abstract. This article considers modern pedagogical technologies for the development of speech activity in blind children. Methods of speech development in the process of educational activities, special didactic tools and inclusive education approaches are analyzed. The article reveals methods and technologies aimed at forming communicative competencies of blind students, increasing vocabulary and speech culture. The results of the study show that purposefully organized educational activities significantly increase the speech activity of blind children and improve their social adaptation.

Keywords: blind children, speech activity, educational activities, inclusive education, communicative competence, special pedagogy, speech development, typhlopedagogy, speech technologies, sensory education.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda har bir inson - qobiliyati va imkoniyatidan qat'i nazar - to‘laqonli ijtimoiy hayotda ishtirok etishga haqlidir. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar ta'lim jarayonida

o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi: ko‘rish analizatorining zaiflik yoki yo‘qligi tufayli ular atrofdagi dunyoni idrok etishda, ijtimoiy munosabatlarda hamda nutqiy muloqotda katta to‘siqlarga uchraydi. Bunday sharoitda tarbiyaviy mashg‘ulotlarni maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish - nafaqat bilim berish, balki bolaning shaxsini har tomonlama kamol toptirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq - insonning eng muhim kommunikativ vositasi bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Ko‘zi ojiz bolalar uchun nutq ayniqsa muhim o‘rin tutadi, chunki u ko‘rish orqali olinadigan ma'lumotlarni qisman kompensatsiya qilish imkonini beradi. Shu boisdan ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirish masalasi tiflopedagogika va maxsus psixologiya sohasida dolzarb tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida inkluziv ta'limni rivojlantirish bo‘yicha ketma-ket muhim huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Prezident Farmoni bilan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo‘lib, unda alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2020-yil 23-sentyabrda kuchga kirgan 637-sonli "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunning yangi tahririda jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta'lim alohida ta'lim turi sifatida qonuniy mustahkamlandi. 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli Prezident Qarori asosida "2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" va yo‘l xaritasi tasdiqlandi. 2021-yil 12-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining 638-son Qarori bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ tartib belgilanib, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab inkluziv sinflarda moslashtirilgan o‘quv dasturlari joriy etildi. 2022-yil 20-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 355-son Qarori bilan inkluziv ta'lim markazlari faoliyatini takomillashtirish va raqamli ta'lim muhitini joriy etish vazifalari belgilandi. 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmon bilan "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur" tasdiqlangan bo‘lib, 2023-2024 o‘quv yilida respublika bo‘yicha 415 ta maktabda inkluziv sinflar tashkil etilgan. Ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy mashg‘ulotlarning sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash esa shu qonuniy asos negizida bugungi pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.Ushbu tadqiqotning maqsadi - tarbiyaviy mashg‘ulotlar asosida ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash, tahlil qilish va amaliyotga tavsiya etishdan iborat.

Ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollikning o‘ziga xos xususiyatlari

Ko‘zi ojiz bolalarning nutqiy rivojlanishi me'yordagi tengdoshlariga nisbatan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tiflopedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rish kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda verbalizm hodisasi - so‘zlarni ma'nosini to‘liq anglashdan ko‘ra mexanik ravishda takrorlash holati - kuzatiladi. Bu holat bolaning nutq boyligi katta ko‘rinsa-da, ushbu boylik real predmetlar, hodisalar va harakatlar bilan bog‘liq emasligi bilan izohlanadi. [A2;158 b]

Tadqiqotchilar ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi quyidagi xususiyatlarni qayd etadilar: birinchidan, nutqning intonatsion jihatdagi o‘ziga xosligi - ko‘zdan ko‘rish orqali o‘zlashtiriladigan imo-ishoralar, mimikalar kuzatilmasligi tufayli nutq monoton tus olishi mumkin; ikkinchidan, predmet nomlarini va ularning vizual xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlar (rang, shakl, hajm kabilar) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishda qiyinchiliklar; uchinchidan, dialoglarda faol ishtirok etishga nisbatan passivlik; to‘rtinchidan, so‘z boyligi bilan real tajriba o‘rtasidagi mos kelmaslik. [A3; 112 b]

Shu bilan birga, ko‘zi ojiz bolalarda eshitish va teginish analizatorlari kompensator funksiyani bajarib, nutqiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Musiqa, ovozli o‘yinlar, dialogli mashg‘ulotlar va taktil-kinestezik usullar orqali ko‘zi ojiz bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshirish mumkin. [A4; 240 b]

Tarbiyaviy mashg‘ulotlarning nutqiy faollikni rivojlantirishdagi o‘rni

Tarbiyaviy mashg‘ulot - bu maqsadli, rejali va tizimli tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u nafaqat bilim va ko‘nikmalar shakllantirishga, balki bolaning shaxsiy sifatlarini, xususan, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy mashg‘ulotlar bir qator muhim tamoyillarga asoslanishi lozim.

Birinchi tamoyil - kompensator rivojlanish tamoyili. Ko‘rish funksiyasining etishmasligi eshitish, teginish va harakatlanish analizatorlari faolligini oshirish orqali kompensatsiya qilinadi. Pedagog ushbu imkoniyatdan to‘liq foydalanib, nutqiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi zarur. [A1; 184 b]

Ikkinchi tamoyil - individuallashtirish tamoyili. Ko‘zi ojiz bolalar ko‘rish kamchiligi darajasi, umumiy rivojlanish saviyasi va shaxsiy xususiyatlari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Shuning uchun har bir bola uchun nutqiy rivojlantirish dasturi individual tarzda loyihalashtirilishi kerak. [A5; 196 b]

Uchinchi tamoyil - faoliyatga asoslangan yondashuv. Nutqiy faollik eng samarali ravishda bola faol ishtirok etadigan, uning qiziqishlariga mos keladigan faoliyat turlari: o‘yin, ijod, muloqot, mehnat mashg‘ulotlari - jarayonida shakllanadi.

Nutqiy faollikni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari

1. Audiovizual va multimediali texnologiyalar.

Zamonaviy audio texnologiyalar ko‘zi ojiz bolalar uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Ovozli kitoblar, audio didaktik o‘yinlar, musiqa terapiyasi va nutqiy trenajerlar bolaning lug‘atini boyitishda, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishda va nutq sur'atini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Screen reader (ekran o‘quvchi) dasturlari - JAWS, NVDA, VoiceOver - bolalarga kompyuter orqali mustaqil ma'lumot olish va kommunikatsiya qilish imkonini beradi. [A7; 45 b]

2. Braylga asoslangan o‘qish-yozish va nutq integratsiyasi texnologiyasi.

Brayl shrifti orqali o‘qish-yozishni o‘rganish nutqiy faollikning intellektual asosini mustahkamlaydi. O‘qilgan matn bo‘yicha suhbat, mazmun tahlili, hikoya tuzish - bular nutqiy faollikni oshirishning integral usullaridir. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, Brayl asosida o‘qish-yozishni o‘zlashtirgan bolalar nutqiy ifodalash qobiliyati, bahs yuritish va fikr bildirish ko‘nikmalari jihatidan sezilarli yutuqlarga erishadilar. [A6; 128 b]

3. Taktil-kinestezik texnologiya.

Teginish orqali o‘rganish - tiflopedagogikaning eng asosiy usullaridan biri. Taktil didaktik materiallar: qo‘lqop-o‘yinchiqlar, kabartma rasmlar, uch o‘lchamli modellar - bolaga predmet va hodisalar haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Pedagog bola bilan predmetni birgalikda ushlab, uning xususiyatlarini so‘z bilan ifodalashga yo‘naltirsa, bu nutqiy faollikning tezlashuviga olib keladi. Ushbu yondashuv «qo‘l-nutq» integratsiyasi deb ataladi.

4. Ijodiy faoliyat va dramatizatsiya texnologiyasi.

Dramatizatsiya va teatr o‘yinlari ko‘zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ertak va hikoyalarni rol ijro etish orqali bola yangi so‘zlarni, intonatsiyalarni, dialogli nutq shakllarini tabiiy muhitda o‘zlashtiradi. Qo‘g‘irchoq teatri, ya'ni bola o‘zi ko‘ra olmagan ko‘rgazmali obraz o‘rniga ovozli tasvir yaratishi - nutqiy tasavvurni kengaytirishda alohida samara beradi.

5. Logopedik va nutqiy korreksiya texnologiyalari.

Ko‘zi ojiz bolalarda nutq nuqsonlari me'yordagi tengdoshlariga qaraganda 2–3 barobar ko‘proq uchraydi. Shuning uchun logopedik ishlar tarbiyaviy mashg‘ulotlarning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Artikulyatsion gimnastika, nafas mashqlari, nutqiy ritmika (logoritmika), tovush chiqarish mashqlari - bularning barchasi nutqning fonetik-fonematik jihatini shakllantirishga yordam beradi. Logoped va tiflopedagogning hamkorligi bu jarayonni yanada samarali qiladi. [A4;240 b]

6. O‘yin texnologiyalari.

O‘yin - bolalikning tabiiy faoliyat shakli bo‘lib, ko‘zi ojiz bolalar uchun nutqiy rivojlanishning eng qulay muhitini yaratadi. Didaktik so‘z o‘yinlari («Kim ko‘proq so‘z biladi?», «Antonim-sinonim», «Tavsif bilan topish»), suhbatli o‘yinlar («Savol-javob», «Hikoya davom ettiring») va rolga asoslangan o‘yinlar nutqiy faollikni tabiiy va qiziqarli tarzda rivojlantiradi. O‘yin texnologiyalarida nutqiy mashqlarni ko‘zi ojiz bolalar sezgi organlariga mo‘ljallangan topshiriqlar bilan birlashtirish alohida samara beradi.

Texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish tajribasi

Farg‘ona, Andijon, Toshkent viloyatidagi “Nurli maskan” maktab-internatlarida olib borilgan kuzatuvlar va metodologik tajriba asosida quyidagi natijalar qayd etildi. Tarbiyaviy mashg‘ulotlarda audioterapiya va musiqa elementlarini qo‘llagan guruhda bolalarning nutqiy faolligi boshqa guruhga nisbatan 34 foizga oshgan. Dramatizatsiya usulini qo‘llagan guruhda esa bolalar nutqiy muloqotga kirisha olish qobiliyati 41 foizga yaxshilangan. [A6; 128 b]

Bundan tashqari, ota-onalar bilan birgalikda amalga oshirilgan mashg‘ulotlar ham yuqori natija berdi. Ota-onalar uydagi muloqotni maxsus nutqiy o‘yinlar bilan boyitganda, bolalarning maktabdagi nutqiy faolligida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu natija oila va ta'lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Raqamli texnologiyalar sohasida ko‘zi ojiz bolalarga mo‘ljallangan maxsus ilovalar - BrailleNote Touch, Seeing AI, Be My Eyes kabilar - nutqiy muloqotni jonlantirish va mustaqil kommunikatsiyani rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu vositalardan tarbiyaviy mashg‘ulotlarda maqsadli foydalanish - zamonaviy tiflopedagogikaning muhim yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. [A7; 60 b]

XULOSA

Tarbiyaviy mashg‘ulotlar asosida ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirish - murakkab, ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayon. Amalga oshirilgan tahlil va amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy faollik ko‘rish analizatorining yo‘qligi tufayli o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni hisobga olgan holda maxsus texnologiyalar qo‘llanilishi lozim.

Ikkinchidan, audiovizual, taktil-kinestezik, o‘yin, dramatizatsiya va logopedik texnologiyalarning kompleks ravishda qo‘llanilishi eng yuqori natija beradi. Biron-bir texnologiya yakka holda qo‘llanilganda uning samaradorligi cheklanib qoladi.

Uchinchidan, tarbiyaviy mashg‘ulotlar maqsadli, tizimli va individuallashtirish tamoyiliga asosida tashkil etilganda ko‘zi ojiz bolalarning nutqiy faolligi sezilarli darajada oshadi va ularning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va assistiv vositalar tarbiyaviy mashg‘ulotlar samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi va ko‘zi ojiz bolalarning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu sohadagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, milliy dasturlar va xorijiy ilg‘or tajribalarni birlashtirgan kompleks metodologiyalar ishlab chiqish hamda pedagog kadrlarni ushbu texnologiyalar bo‘yicha maxsus tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M.R. Ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning psixologik asoslari. Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent. 2018.184 b.

2. Soliyeva Z.A. (2019). Ko‘zi ojiz o‘quvchilarda verbalizm hodisasini bartaraf etishning pedagogik yo‘llari. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti. 158 b.

3. Toshmatova N.I. Maxsus maktablarda nutqiy rivojlanish: muammolar va yechimlar. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2020. 112 b.

4. Yusupova G.X. Tiflopedagogika asoslari: darslik. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti. Toshkent. 2021. 240 b.

5. Normatova D.B. Inkluziv ta'lim sharoitida ko‘zi ojiz bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari. Monografiya. Farg‘ona davlat universiteti nashriyoti. Farg‘ona. 2022.196 b.

6. Hasanov B.T., Mirzayev O.A. Ko‘zi ojiz bolalar bilan dramatizatsiya usulida nutq rivojlantirish: amaliy qo‘llanma. TDPU nashriyoti. Toshkent. 2021. 128 b.

7. Karimov I.U. (2020). Digital Assistive Technologies for Visually Impaired Students: A Pedagogical Approach. Journal of Special Education and Rehabilitation. Vol. 21(3). Pp. 45–62.

8. Koenig A.J., Holbrook M.C. Foundations of Education: Instructional Strategies for Teaching Children and Youths with Visual Impairments. Vol. 2. AFB Press. New York. 2000. 820 p.

9. Erin J.N., Wolffe K.E. (2004). Transition Issues Related to Students with Visual Disabilities. Austin: PRO-ED Publishers. 268 p.

10. Sobirova S.I. Ko‘zi ojiz bolalarda eshituv-nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Qoqon DPI. Qoqon, 2026. №4. 1549–1556-b.

11. S.Sobirova. Tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida ko‘zi ojiz bolalarning eshituv-nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. (2025). MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(10).

12. S.Sobirova. FORMING COMMUNICATION COMPETENCIES IN EDUCATIONAL SESSIONS WITH VISUALLY IMPAIRED CHILDREN. (2024). European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, Volume 2, Issue 10, October-2024, 188-192 p. https://europeanscience.org/index.php/4/article/view/1716

13. S.S.Sobirova. METHODOLOGY OF DESIGNING EDUCATIONAL ACTIVITIES FOR DEVELOPING LISTENING AND SPEAKING SKILLS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 06, Issue 11, November-2025, 198-204 p.

14.Sobirova Subinsoxon Muxsinjon qizi. (2026). KO‘ZI OJIZ BOLALARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ESHITUV MASHQLARINING O‘RNI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI, 2(11), 132–137. https://innovativepublication.uz/index.php/NUZY/article/view/5648

15. Hatlen P. (1996). The Core Curriculum for Blind and Visually Impaired Students, Including Those with Additional Disabilities. RE:view. Vol. 28(1). Pp. 25–32.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammat qizi

Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
quchqarovadilnavoz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati nazariy-empirik tahlil qilingan. Raqamli adaptiv texnologiyalarning ta’siri, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligi va O‘zbekistondagi joriy etish muammolari ko‘rib chiqilgan. Raqamli ta’lim - texnologik yangilik emas, ijtimoiy tenglik va ta’lim sifatini ta’minlovchi strategik omil ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, oliy ta’lim, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, raqamli kompetentlik, adaptiv texnologiyalar, o‘qituvchilarni tayyorlash.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirdi. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy talaba passiv bilim oluvchi emas - raqamli muhitning faol ishtirokchisiga aylanishi lozim. COVID-19 pandemiyasi bu o‘zgarishni tezlashtirdi: raqamli texnologiyalar qo‘shimcha vositadan zaruriy ta’lim platformasiga aylandi. Biroq bu jarayon raqamli tengsizlik, o‘qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma muammolarini ham yuzaga keltirdi. O‘zbekistonda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida 2023-2024-yillarda 1,2 milliondan ortiq yosh 8 ta IT yo‘nalishi bo‘yicha bepul kurslarni tamomladi, 400 000 kishi xalqaro IT sertifikatlarini oldi [5]. Shu bilan birga, mazkur sohaning pedagogik asoslarini kompleks o‘rganuvchi ilmiy tadqiqotlar hali yetarlicha rivojlanmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, hujjatli tahlil usullaridan foydalanildi. Manba bazasi sifatida Scopus, Web of Science, Springer Nature, MDPI, Frontiers of Digital Education nashrlari, OECD, UNESCO va O‘zbekiston Oliy ta’lim vazirligi hujjatlari (2020-2026) tanlandi. Uchta ko‘rsatkich baholandi: raqamli ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi; o‘qituvchilar va talabalar raqamli kompetentligi; tashkiliy-pedagogik sharoitlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy-pedagogik mohiyat. Raqamli ta’lim - AKT, raqamli platformalar va elektron resurslar yordamida bilim olish, ko‘nikmalar va kompetentliklarni shakllantirish jarayonidir 3. UNESCO (2023) raqamli texnologiyalar millionlab o‘quvchilar uchun ta’lim imkoniyatini kengaytirganini, ammo ayni paytda “raqamli bo‘shliq” muammosini chuqurlashtirayotganini qayd etadi. Coursera Global Skills 2024 ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston inson resurslarini tayyorlashga sarmoya kiritish bo‘yicha jahonda 1-o‘rinni egallagan [5].

Global tendentsiyalar. Bibliometrik tahlil (Gomez-Galan va boshq., 2023) raqamli pedagogikaning uchta rivojlanish klasterini aniqladi: ijtimoiy tarmoqlar (2000-2010), raqamlashtirish (2011-2015), pedagogika kengayishi (2016-2023) [6]. OECD Digital Education Outlook 2023 sun’iy intellektni integratsiyalash - Koreya, Avstriya, Latviya, Irlandiya tajribasiga e’tiborni qaratadi [7]. Sloveniyada o‘tkazilgan tadqiqot (MDPI, 2025) umumiy pedagogik tajriba

raqamli kompetentlik bilan bevosita bog'liq emasligini isbotladi: bu soha alohida, maqsadli tayyorgarlikni talab qiladi [4].

Aralash ta'lim va raqamli adaptiv texnologiyalar - talaba darajasiga moslashuvchi tizimlar – tavsiya etiladi. MDH mamlakatlari (Qozog'iston, Rossiya) tajribasi ham o'xshash muammolarni ko'rsatib, mintaqaviy hamkorlik muhimligini tasdiqlaydi [8].

XULOSA

Raqamli ta'limni rivojlantirish - ijtimoiy adolat, pedagogik sifat va inson kapitalini shakllantirish sohasidagi strategik imperativdir. O'zbekiston bu yo'nalishda faol siyosat olib bormoqda. Tadqiqot asosida tavsiyalar ilgari suriladi:

- raqamli kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli dasturlar yaratish;
- DigCompEdu va UNESCO ICT doiralariga asoslangan milliy standartlarni joriy etish;
- raqamli adaptiv texnologiyalar yordamida resurs kutubxonasini boyitish;
- qishloq va chekka hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish;
- AI asosidagi ta'lim vositalarini pedagogik-etik jihatdan tartibga solish.

Adabiyotlar:

[1]. Chen Y, Zheng X, Liu Y, He T. Development and implementation of digital pedagogical support systems // Humanities and Social Sciences Communications. 2024. Vol. 11. 1084-b.

[2]. OECD. Education and innovation for the digital and green transitions. OECD Publishing. 2023.

[3]. Mafa K, Mkansi M. Digital pedagogy for sustainable education transformation // Frontiers of Digital Education. 2024.

[4]. Nedelko Z, Simenc M, Kranjcic P. Digitalization of higher education: Students' perspectives // Education Sciences. 2025. Vol. 15(7). 847-b.

[5]. IT Education Association. Developing education in Uzbekistan: IT courses and certifications. 2024. URL: https://ite-association.uz/en/news/120

[6]. Gomez-Galan J. et al. Mapping of digital pedagogies in higher education // Education and Information Technologies. 2023.

[7]. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023. OECD Publishing. 2023.

[8]. Usmonov B. Higher education in Uzbekistan: Transition to digital learning // Education Journal. 2024. Vol. 13(2). 53–58-b.

[9]. Qo'chqorova D. Raqamli ta'lim tizimida adaptiv texnologiyalarning nazariy asoslari. DOI: 10.5281/zenodo.17914794

[10]. Quchqarova D.Sh. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TA'LIMNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ASOSIDA O'QUV JARAYONINING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. (2026). SCIENCE TIME JOURNAL, 4(4/2), 75-80. https://uzresearchers.com/index.php/stj/article/view/5668.

INTERAKTIV METODLARNING TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Toxirova Zaxrooy O‘ktam qizi

ChDPU o‘qituvchisi

O‘rinboyeva Ruxsora Muzaffar qizi

ChDPU talabasi

Annotatsiya: Interaktiv metodlarning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ta’lim jarayonida interaktiv yondashuvlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashi, kognitiv faolligi va darsdagi ishtirokini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv metodlarning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Interaktiv metodlar, zamonaviy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kognitiv faollik, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi, innovatsion yondashuv, kreativ tafakkur, ta’lim jarayoni, kommunikativ kompetensiya.

Interaktiv metodlar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali talabalar dars jarayonida erkin fikrlash, o‘z nuqtai nazarini bildirish va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topishga o‘rganadi. Natijada ularning mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvi rivojlanadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Case-study”, “Bumerang”, “Sinkveyn” kabi interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga hamda darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, guruhli ishlashga asoslangan metodlar talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular talabaning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Dars jarayonida faol ishtirok etgan talaba mavzuni yaxshiroq tushunadi va uzoq vaqt eslab qoladi. Shu bilan birga, interaktiv yondashuvlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni mustaqil izlanishga undaydi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish kognitiv faollikni rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Kognitiv faollik talabaning axborotni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. Interaktiv mashg‘ulotlar esa talabalarni fikrlashga, tahlil qilishga va o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, interaktiv metodlar talabalarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va turli fikrlarni solishtirish jarayonida talabalar mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Pedagogik nuqtai nazardan interaktiv metodlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni ham mustahkamlaydi. O‘qituvchi dars jarayonida faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa darsning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Interaktiv metodlardan

foydalanishda raqamli texnologiyalarning o‘rni ham muhimdir. Multimedia vositalari, elektron taqdimotlar va virtual resurslar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Vizual materiallar yordamida murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi va ta’lim samaradorligi ortadi.

Interaktiv metodlar zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular talabalarning kognitiv faolligi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

15. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

16. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. **Ta’limda innovatsion texnologiyalar**. – Toshkent: Iste’dod, 2018.

17. Muslimov N.A. **Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish texnologiyasi.** – Toshkent: Fan, 2017.

18. Azizxo‘jayeva N.N**. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

19. Farberman B.L. **Ilg‘or pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan, 2014.

20. Sayidahmedov N. **Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va amaliyoti.** – Toshkent: Moliya, 2016.

21. Xoliqov A.A. **Pedagogik mahorat.** – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

22. Abduqodirov A.A. **Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

23. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. **Pedagogik texnologiya asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

24. Nishonova S., Karimova Sh. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar.** – Toshkent: Tafakkur, 2019.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA INDIVIDUAL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Murtozaqulov Zafar

ChDPU Algebra va matematik analiz
kafedrasi katta o’qituvchisi

Rahimberganova Sevinch

Rizaeva Elnura

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
Aniq fanlar fakulteti Amaliy matematika yo‘nalishi

Kirish. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi natijasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni ta’minlash, bilimlarni baholash hamda o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos o‘quv materiallarini tavsiya etish imkoniyati yaratilmoqda [1].

An’anaviy ta’lim tizimida qo‘llaniladigan “yagona andoza” (one-size-fits-all) modeli barcha o‘quvchilarga bir xil usulda bilim berishga asoslanadi. Bunday yondashuv esa har bir ta’lim oluvchining individual qobiliyati, bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va qiziqishlarini to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada ayrim o‘quvchilar mavzuni tez o‘zlashtirsa, boshqalari qo‘shimcha tushuntirish va yordamga ehtiyoj sezadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda [2].

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarga individual ta’lim trayektoriyasini yaratish imkonini beradi. SI asosidagi tizimlar o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni tavsiya etadi, xatolarini aniqlaydi va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida adaptiv ta’lim muhitini shakllantirish mumkin bo‘lib, bunda o‘quv materiali talabaning ehtiyojiga mos ravishda avtomatik ravishda moslashtiriladi [3].

Hozirgi kunda ChatGPT, Google Gemini, Microsoft Copilot kabi sun’iy intellekt platformalari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida dars ishlanmalarini tayyorlash, testlar yaratish, murakkab mavzularni tushuntirish va mustaqil ta’limni tashkil qilish samaradorligi ortmoqda. Xususan, matematika, fizika, informatika kabi fanlarni o‘qitishda SI texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [4].

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyati xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e’tirof etilmoqda. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda sun’iy intellektdan foydalanishda insonparvarlik, xavfsizlik va etik me’yorlarga rioya qilish muhimligi ta’kidlangan [5]. Shu bilan birga, SI texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirishni ham talab etadi.

Mazkur tezisda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari hamda shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism va tahlil

Individual ta’limni tashkil etishda sun’iy intellekt algoritmlari talabaning mavjud bilim darajasini dastlabki diagnostika qilish orqali aniqlaydi. Diagnostika jarayonida talabaning avvalgi o‘zlashtirish natijalari, test topshiriqlari va mavzular bo‘yicha bilim darajasi tahlil qilinadi. Shundan so‘ng tizim har bir talaba uchun alohida o‘quv strategiyasini ishlab chiqadi. Bu esa ta’lim jarayonida differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi [6].


O‘quv jarayonida SI tizimi talabaning topshiriqlarni bajarish vaqti, yo‘l qo‘ygan xatolari, mavzuni qayta ko‘rib chiqish soni hamda darsdagi faolligini doimiy ravishda monitoring qilib boradi. Olingan ma’lumotlar maxsus algoritmlar yordamida qayta ishlanadi va o‘quvchining o‘zlashtirish holati aniqlanadi. Tahlil natijasida ta’lim kontenti avtomatik ravishda moslashtiriladi: past o‘zlashtirayotgan talabalarga sodda, tushuntirish elementlari ko‘proq bo‘lgan materiallar, yuqori natija ko‘rsatayotgan talabalarga esa murakkabroq masalalar, amaliy topshiriqlar va ijodiy loyihalar tavsiya etiladi [7].

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlarning asosiy afzalligi shundaki, ular o‘quvchining individual ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi. Natijada har bir talaba o‘z imkoniyati va bilim darajasiga mos ravishda rivojlanadi. Bu esa o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini ham rivojlantiradi [8].

Bundan tashqari, SI texnologiyalari o‘qituvchining ish faoliyatini ham yengillashtiradi. An’anaviy ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarning bilimini bir vaqtning o‘zida chuqur tahlil qilish murakkab hisoblanadi. Sun’iy intellekt esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash orqali har bir talabaning kuchli va sust tomonlarini aniqlaydi hamda o‘qituvchiga metodik tavsiyalar beradi. Shu sababli SI texnologiyalari zamonaviy ta’limning muhim innovatsion vositalaridan biri sifatida qaralmoqda [9].

Mazkur mexanizm orqali o‘quvchi faoliyati uzluksiz nazorat qilinadi va tizim doimiy ravishda yangilanib boradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi.

1-rasm. Sun'iy intellekt asosidagi individual ta'lim tizimining ishlash mexanizmi



Ushbu model doirasida pedagogning roli ham sezilarli darajada o‘zgaradi. An’anaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi asosan bilim beruvchi va nazorat qiluvchi vazifani bajargan bo‘lsa, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim jarayonida u ko‘proq mentor, konsultant va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat olib boradi. O‘qituvchi talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularni motivatsiya qilish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan shug‘ullanadi. Sun’iy intellekt tizimi esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, talabalarning umumiy va individual o‘zlashtirish dinamikasi bo‘yicha aniq statistik hisobotlarni taqdim etadi [2].

Bunday yondashuv o‘qituvchiga ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Masalan, qaysi mavzular o‘quvchilar uchun murakkab ekanligi, kimga qo‘shimcha yordam kerakligi yoki qaysi talabalar yuqori natija ko‘rsatayotgani haqida tezkor ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. Natijada pedagog o‘quv jarayonini yanada maqsadli tashkil etadi va vaqt resurslaridan unumli foydalanadi [8].

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari inklyuziv ta’lim muhitida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan talabalar uchun individual o‘quv materiallari, moslashtirilgan topshiriqlar va maxsus yordamchi interfeyslarni yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa barcha ta’lim oluvchilar uchun teng va qulay ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi [10].

Xulosa

Sun’iy intellekt yordamida individual ta’limni tashkil etish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur texnologiyalar talabalarning bilim darajasini aniq tahlil qilish, ularning qiziqishi va ehtiyojiga mos ta’lim trayektoriyasini yaratish hamda o‘quv jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy hal qilish va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish pedagog faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. O‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi mentor va konsultant vazifasini bajaradi. SI tizimlari orqali olingan statistik ma’lumotlar esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kelajakda raqamli pedagogika va sun’iy intellekt tizimlarining integratsiyasi zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Ayniqsa, individual va inklyuziv ta’limni rivojlantirishda SI texnologiyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education, 2021.

[2] Drigas A., Ioannidou R. Artificial Intelligence in Education // International Journal of Engineering Education, 2013.

[3] Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

[4] Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL Institute of Education Press, 2018.

[5] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris, 2023.

[6] Baker R.S., Inventado P.S. Educational Data Mining and Learning Analytics // Springer, New York, 2014.

[7] Woolf B.P. Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-learning. Morgan Kaufmann Publishers, 2010.

[8] Holmes W., Tuomi I. State of the Art and Practice in AI in Education // European Journal of Education, 2022.

[9] Chen L., Chen P., Lin Z. Artificial Intelligence in Education: A Review // IEEE Access, 2020.

[10] Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education // International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2019.

RAQAMLI TA’LIM EKOTIZIMIDA KEYINGI AVLOD TARMOQLARINING (5G/6G) SAMARADORLIGI VA XAVFSIZLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

G‘aniyev Ilhom Dustnazarovich

ChDPU Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) ganiyevid1759@gmail.com

Nishonov Sardor Ixtiyor o‘g‘li

ChDPU Aniq fanlar fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Telekommunikatsiya infratuzilmalarining tezkor rivojlanishi, 5G texnologiyasining joriy etilishi va 6G konsepsiyasining shakllanishi tarmoq tizimlarining murakkablashuvi hamda ma’lumotlar oqimi hajmining ortishiga sabab bo‘ldi. An’anaviy tarmoq boshqaruv usullari real vaqt rejimida resurslarni samarali taqsimlash va xavfsizlik tahdidlariga javob berishda yetarli samara bermayapti. Ushbu maqolada Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalarini tarmoq tizimlariga integratsiya qilish orqali o‘z-o‘zini optimallashtiruvchi va tiklovchi tarmoqlarni yaratish imkoniyatlari o‘rganiladi. Xususan, chuqur mustahkamlovchi o‘qitish asosida intellektual marshrutlash va anomaliyalarni aniqlash orqali proaktiv kiberxavfsizlik yondashuvlari tahlil qilinadi. Natijalar sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv tarmoqlarning kechikishini kamaytirib, xizmat sifati (QoS)ni oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Artificial Intelligence (Sun'iy intellekt), Next-Generation Networks (Kelajak avlod tarmoqlari - 5G/6G), Machine Learning (Mashinali o‘qitish), Network Automation (Tarmoq avtomatizatsiyasi), QoS (Quality of Service) (Xizmat ko‘rsatish sifati), Predictive Maintenance (Bashoratli xizmat ko‘rsatish)

Insoniyat jamiyati to‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida yashar ekan, ta’lim tizimi ham fundamental darajada yangilanmoqda. Bugungi kunda pedagogika an’anaviy, statik va bir tomonlama bilim berish metodikasidan voz kechib, dinamik, o‘zaro aloqaga asoslangan va raqamli ekotizimlar bilan integratsiyalashgan modelga o‘tmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, gologrammalar, virtual (VR) va to‘ldirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta’lim mazmunini boyitishi bilan bir qatorda, tarmoq infratuzilmasiga bo‘lgan talabni eksponentsial ravishda oshirdi.

Tadqiqotchi S. Luckin [1] ta’kidlaganidek, ta’limda sun’iy intellekt nafaqat o‘qituvchining yukini kamaytiruvchi yordamchi vosita, balki butun ta’lim ekotizimini optimallashtiruvchi intellektual boshqaruvchi hisoblanadi. Biroq, bu intellektual tizimlarning real vaqt rejimida (real-time) xatosiz ishlashi uchun keyingi avlod tarmoqlarining (5G va istiqboldagi 6G) o‘ta yuqori o‘tkazuvchanlik qobiliyati va minimal (1ms dan kam) kechikish vaqti zarur. AI va tarmoq texnologiyalarining simbiozi talabalarga shaxsiy kognitiv ehtiyojlarga moslashtirilgan, texnik to‘siqlardan xoli va kiber-himoyalangan ta’lim muhitini taqdim etadi.

Pedagogik jarayonda tarmoq samaradorligi tushunchasi endilikda faqatgina “internet tezligi” bilan o‘lchanmaydi. Bu tushuncha ta’lim kontentining uzluksizligi, foydalanuvchi psixologiyasiga moslashuvchanligi va intellektual resurs taqsimotini o‘z ichiga oladi.

AI asosidagi “aqlli tarmoqlar” o‘quv platformasidagi har bir foydalanuvchining faolligini soniyaning mingdan bir ulushlarida tahlil qiladi. Masalan, agar talaba VR-texnologiyasi yordamida murakkab muhandislik konstruksiyasini yoki jarrohlik amaliyotini simulyatsiya qilayotgan bo‘lsa, AI tarmog‘i aynan o‘sha foydalanuvchi uchun tarmoq o‘tkazuvchanlik qobiliyatini (bandwidth) ustuvor ravishda maksimal darajaga ko‘taradi. Bu pedagogik jihatdan “immersivlik” (jarayonga to‘liq sho‘ng‘ish) fenomenini saqlab qoladi. Texnik uzilishlar (lag) tufayli kognitiv bog‘liqlikning uzilishi o‘quv motivatsiyasini so‘ndiradi; AI esa bu to‘siqni bartaraf etib, “oqim holati” (flow state) davomiyligini ta’minlaydi [2].

Ta’lim muassasalari tarmoqlari orqali to‘planadigan ulkan ma’lumotlar (Big Data) talabaning bilim darajasi, qiziqishlari, diqqatni jamlash davomiyligi va o‘zlashtirish tezligi haqida qimmatli tahlillarni taqdim etadi. AI ushbu ma’lumotlarni qayta ishlab, pedagoglar uchun har bir talabaning “raqamli kognitiv portreti”ni shakllantiradi. B.H. Khan [3] o‘zining elektron ta’lim modelida texnologik infratuzilmani pedagogik natijadorlikning fundamental asosi sifatida ko‘rsatgan. Intellektual tarmoqlar yordamida o‘quv rejasi endi hamma uchun bir xil emas, balki har bir shaxsning intellektual salohiyatiga mos ravishda dinamik ravishda o‘zgarib boradi.

Ta’lim tizimi raqamlashgani sayin, kiberjinoyatchilar uchun ta’lim bazalari strategik nishonga aylanmoqda. Talabalarning shaxsiy ma’lumotlari, akademik reytinglari va ilmiy tadqiqotlarning intellektual mulk huquqini himoya qilish nafaqat texnik, balki o‘ta muhim pedagogik-etik vazifadir.

An’anaviy xavfsizlik tizimlari (Firewalls) faqat ma’lum bo‘lgan tahdidlar ro‘yxati (signatures) asosida ishlaydi va yangi turdagi hujumlar oldida ojizdir. AI asosidagi tarmoq xavfsizligi esa noodatiy faolliklarni - masalan, imtihon tizimidagi ma’lumotlarni o‘zgartirish urinishlarini yoki “phishing” hujumlarini ular sodir bo‘layotgan vaqtning o‘zida (proactive detection) aniqlaydi va bloklaydi [4]. Bu esa pedagogik jarayonning shaffofligi, adolatliligi va akademik halollik (academic integrity) tamoyillarini himoya qiladi.

Z. Papamitsiou [5] tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quv tahlili jarayonida olingan ma’lumotlar talabaning psixologik holatiga ta’sir etmasligi uchun maxfiy saqlanishi shart. AI algoritmlari ma’lumotlarni anonimlashtirgan holda tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshiradi, shu bilan birga kiber-makonda talabaning "shaxsiy hududi" daxlsizligini kafolatlaydi. Bu talabalarda raqamli ta’lim muhitiga nisbatan fundamental ishonchni (digital trust) shakllantiradi.

Dasturlanadigan tarmoqlar (Software Defined Networking - SDN) ta’lim menejmentida inqilobiy yondashuvni taqdim etadi. SDN yordamida ta’lim muassasasi ma’muriyati markazlashgan holda tarmoqni dars jadvali va o‘quv maqsadlariga moslab dasturlashi mumkin.

Intellektual resurs boshqaruvi: Dars soatlarida AI algoritmlari multimedia resurslariga, ilmiy ma’lumotlar bazalariga va interaktiv platformalarga ustuvorlik (QoS - Quality of Service) beradi. Tanaffus vaqtida yoki darsdan tashqari paytlarda tarmoq resurslari ko‘ngilochar kontentlar uchun avtomatik tarzda qayta taqsimlanadi.

Avtomatlashtirilgan o‘quv muhiti: Bu tizim texnik xodimlar aralashuvisiz tarmoqni dars formatiga (vebinar, guruhli loyiha, laboratoriya ishi) moslashtiradi [6]. Bu esa pedagogga texnik muammolarga chalg‘imasdan, bor e’tiborini o‘qitish metodikasiga qaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika va keyingi avlod tarmoq texnologiyalarining sun’iy intellekt orqali integratsiyalashuvi shunchaki texnik yangilanish emas, balki ta’limni

demokratlashtirish va uning sifatini yangi darajaga ko‘tarishning strategik omilidir. Bu simbioz nafaqat ta’limning texnik infratuzilmasini mustahkamlaydi, balki “Inson-Mashina” hamkorligini pedagogik nuqtai nazardan yangi, gumanistik bosqichga olib chiqadi.

Kelajakda AI tomonidan boshqariladigan tarmoqlar har bir ta’lim muassasasini “Smart Campus” (aqlli kampus) darajasiga ko‘taradi. Bunday muhitda ta’lim oluvchi o‘zining individual imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon eta oladi, tizim esa unga xavfsiz va moslashuvchan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishdagi investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlar uzoq muddatda mamlakatning intellektual kapitalini va raqamli iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilab beruvchi asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.

2. UNESCO. AI and education: Guidance for policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

3. Khan, B. H. Managing E-learning Strategies: Design, Management and Deployment. – Hershey: Information Science Reference, 2020.

4. Akyildiz, I. F., Kak, S., & Nie, S. 6G Wireless Systems: Vision and Prediction // Physical Communication. – 2020. – Vol. 42. – P. 101–104.

5. Papamitsiou, Z., & Economides, A. A. Learning Analytics and Educational Data Mining in Practice // Journal of Educational Technology & Society. – 2014.

6. Zhang, C., Patras, P., & Haddadi, H. Deep Learning in Mobile and Wireless Networking: A Survey // IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2019. – Vol. 21, No. 3. – P. 2224–2287.

7. Ganiyev, I. D. Creation of a testing and assessment system for the course of network technologies based on an integrative approach // American Journal of Education and Learning. – 2025. – Vol. 3, No. 6. – P. 555–562.

8. Ganiyev, I. D. Improving the Integrative Methodological System for Teaching the Network Technology Course // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU). – 2023. – Vol. 10, No. 12.

9. Ganiyev, I. D. Basic Requirements for Educational Electronic Resource // Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference. – 138–139.

MAXSUS MAKTAB O‘QUVCHILARINI MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI VA TEXNIK VOSITALARNING O‘RNI

Razokova N.K.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Ko‘p hollarda maxsus ta’lim muassasalarida matematik tushunchalarni shakllantirish jarayoni yetarli darajada tizimli tashkil etilmagan. Ayrim hollarda darslar an’anaviy usullarga asoslanib qolmoqda, bu esa o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini to‘liq hisobga olishga to‘sqinlik qiladi. Natijada o‘quvchilarda son, miqdor, shakl va fazoviy munosabatlar haqidagi tasavvurlar sekin va nomuvofiq shakllanmoqda.

Maxsus maktablarda matematikani o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korreksiya qilish va ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishdir.

Matematika fani o'quvchilarda son, miqdor, fazoviy va vaqt tasavvurlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta'limda ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun an'anaviy ko‘rgazmali qurollar bilan birga texnik va raqamli texnologiyalarning elementlaridan foydalanish zarurati tug‘ilmoqda.

Intellektual yetishmovchiligi bo‘lgan o‘quvchilar matematik tushunchalarning abstraktligi sababli ularni o‘zlashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, o‘qitishda texnik vositalar masalan, videofilmlar, kinofilmlar va ekranli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini faollashtiradi va bilish faoliyatini rivojlantiradi. Yana, geometrik shakllar, ularning xossalari va sonlar qatorini vizual tarzda namoyish etish o‘quvchilarda ob’ektning shakli, hajmi va holati haqida aniqroq tasavvurlar hosil qiladi. [1]

Dasturlashtirilgan o‘qitish va interaktivlik o‘quv jarayoning samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri sifatida dasturlashtirilgan o‘qitish elementlari qayd etilgan.

Bugungi kunda ushbu uslub raqamli texnologiyalar va interaktiv dasturlar ko'rinishida qo'llaniladi. Bunday topshiriqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

O‘quvchi topshiriqni o‘ziga mos sur’atda bajaradi.

Agar o'quvchi xatoga yo'l qo'ysa, dastur buni darhol ko‘rsatadi (ijobiy yoki salbiy signal beradi) va o‘quvchi to‘g‘ri javobni topguncha harakat qiladi.

O'qituvchi o'quvchining qiyinchiliklarini tezda aniqlash va unga o'z vaqtida yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2]

Fazoviy va vaqt tasavvurlarini shakllantirish O‘quvchilarda "kecha", "bugun", "ertaga", sutka qismlari va soatni o‘rganishda texnik modellar va raqamli vizualizatsiya katta yordam beradi. Harakatdagi tasvirlar (masalan, soat milining harakati yoki masofa, tezlik va vaqt bog'liqligini ko'rsatuvchi animatsiyalar) o'quvchilarga vaqtning o'tishini va dinamik jarayonlarni yaxshiroq his qilishga yordam beradi. [3]

O‘quvchilarda vaqtning o‘tishini aniqroq ko‘rsatish uchun "Kecha", "Bugun", "Ertaga" kabi tushunchalar kundalik muloqot va maxsus asboblar orqali shakllantiriladi:

1. Dejurlik kalendari: Vaqtning oqishini (tekuchest) vizuallashtirish uchun ishlatiladi. Unda "Kecha", "Bugun", "Ertaga" yozilgan cho‘ntakchalar bo‘lib, o‘quvchilarning ismlari yozilgan kartochkalar har kuni bir pog‘ona surib qo‘yiladi.

2. Kundalik suhbatlar: Har bir o‘quv kuni "Bugun nima qilamiz?", "Kecha nima qilgan edik?" va "Ertaga qanday rejalarimiz bor?" degan savollar bilan boshlanadi va yakunlanadi.

3. Sutka qismlari va ularning ketma-ketligi intellektual yetishmovchiligi bo‘lgan bolalar ko‘pincha kun va tunning almashishini noto‘g‘ri tushunishadi.

4. Sutka uychasi: Maxsus maket bo‘lib, unda rangli tasmalar yordamida sutka qismlari belgilanadi: masalan, ertalab – pushti, kunduzi – sariq, oqshom – ko‘k, tun – qora.

5. Rejimli lahzalar: Sutka qismlari bolaning kundalik faoliyati (yuvinish, nonushta, dars, uyqu) bilan bog‘lab o‘rgatiladi. O‘quvchilarga ushbu faoliyatlar tasvirlangan rasmlarni tartib bilan qo‘yish topshiriladi.

Ushbu usullar tizimli ravishda, nafaqat matematika darslarida, balki mehnat, tarix va jismoniy tarbiya darslarida ham qo‘llanilsa, kutilgan samarani beradi

Tabaqalashtirilgan yondashuv raqamli vositalar o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga imkon beradi. Kuchliroq o‘quvchilarga murakkabroq, mustaqil yechiladigan topshiriqlar berilsa, yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun raqamli ko‘rsatmalar va soddalashtirilgan modellar taqdim etilishi mumkin. Bu esa har bir bolaning o'z salohiyatidan kelib chiqib matematik bilimlarni egallashini ta'minlaydi. [4]

Raqamli va texnik vositalardan foydalanish maxsus maktablarda matematikani o‘qitishni qiziqarli va tushunarli qiladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, xotirasini va nutqini tuzatish bilan birga, ularni hayotda uchraydigan amaliy masalalarni yechishga tayyorlaydi. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda an’anaviy metodikani to‘ldiruvchi kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

[1]. Перова М.Н. Методика преподавания математики во вспомогательной школе. — М., 1989.

[2]. Перова М.Н., Эк В.В. Обучение элементам геометрии во вспомогательной школе. — М., 1992.

[3]. Истомина Н.Б. Методика преподавания математики в начальных классах. — М., 1992.

[4]Программы для 0—4-х классов школы VIII вида (для детей с нарушениями интеллекта). — М., 1997.

MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Sh.A.Rustamova

rustamova3196@gamail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda albatta uning didaktik va elektron jihatdan ta’minlanganligi muhim ro‘l o‘ynaydi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda muhim komponentlardan biri bo‘lgan didaktik ta’minot talabaga mustaqil ta’lim jarayonini tushunish, rejalashtirish va amalga oshirish uchun metodik ko‘rsatmalar va materiallarni o‘z ichiga oladi. Didaktik ta’minotga darslik va o‘quv qo‘llanmalar, metodik ko‘rsatmalar, mashg‘ulot materiallari, nazorat va baholash tizimi kiradi.

Zamonaviy mustaqil ta’lim jarayonida elektron ta’minot muhim rol o‘ynaydi. Bunga elektron o‘quv platformalar (Google Classrom, Moodle, Edmodo), raqamli darslik va elektron qo‘llanmalar, online test baholash tizimlari (Quizizz, Kahoot, Google Forms), ochiq ta’lim resurslari (Khan Academy, OpenStax), mobil ilovalar va chat-botlar (Wolfram Alpha, Desmos, Geogebra) misol bo‘ladi.

R.M.Suleymanovaning “Bo‘lajak informatika o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning raqamli-didaktik ta’minotini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya avtoreferatida raqamli-didaktik ta’minotni takomillashtirish jarayonini to‘rt bosqichga ajratgan. Bu bosqichlarda o‘qituvchining raqamli-didaktik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha faoliyatini quyidagicha tavsiflagan:

1. Axborot tayyorgarligi bosqichida ma’ruza matnlari, video mashg‘ulotlar, taqdimotlarni platformaga yuklash;
2. Raqamli diagnostikalash bosqichida test va topshiriqlarini yuklash. Bu bosqichdagi testlarni muallif ikki turga ajratgan. Birinchi tur testlar har bir ma’ruza materialidan keyingi, ikkinchi turi yakuniy testlar.
3. Raqamlashtirilgan o‘rganish deb nomlangan uchinchi bosqichda keyingi topshiriqni bajarish namunasini yuklash, mustaqil topish va bajarish kerak bo‘lgan topshiriqlarni kiritish.
4. Amaliy qo‘llash bosqichida mustaqil ta’lim uchun material (yo‘riqnoma) yuklash.

Ta’lim faoliyati mustaqil ta’limning amalga oshirilishida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va vositalari mustaqil ta’limning sifatli amalga oshishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan mustaqil ishlar referat, loyiha, ilmiy maqola yozish kabi shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Google Classroom, Moodle, Edmodo kabi ta’lim platformalaridan esa mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda vosita sifatida foydalanish mumkin.

Ta’lim jarayonida foydalaniladigan metodlarni ikkita asosiy turga ajratish mumkin: auditoriyada amalga oshiriladigan va auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan metodlar.

Auditoriya sharoitida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan metodlar talabalarni yangi o‘quv materiali bilan tanishtirish, o‘tilgan mavzuni so‘rash va takrorlash hamda mustahkamlash jarayonida foydalaniladi.

Auditoriyadan tashqarida qo‘llaniladigan metodlar o‘quv materialini yoki vazifani mustaqil holda o‘rganish va o‘zlashtirishda foydalaniladi. Mustaqil ta’lim metodlarini auditoriyadan tashqari qo‘llaniladigan metodlarga kiritish mumkin. Mustaqil ta’lim metodlari yordamida o‘qituvchi o‘quv materialini talabaga yetkazib berishnining maqbul yo‘llarini emas, balki talabaning ma’lumotlarni o‘qib-o‘rganish va qayta ishlash uslubini anglatadi. Har bir talaba unga berilgan vazifani mustaqil ravishda o‘rganishi, tahlil qilishi va o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi.

Mustaqil ta’limni tashkil qilishda eng keng qo‘llaniladigan usul bu talabaning individual tarzda ishlashidir. Bunda bilimga individual tarzda erishiladi, o‘qib-o‘rganish shaxsiy mustaqil konstruksiyaga aylanadi, mavjud bilimlar yangi bilimlar bilan to‘ldiriladi [1; 508].

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda nazorat va baholash muhim didaktik komponentlaridan biri hisoblanadi. Nazorat va baholash mustaqil ta’limning natijadorligini oshirish, talabaning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirishda muhim sanaladi.

D.O.Ximmatillayevning monografiyasida talabalar mustaqil ish samaradorligining muhim shartini nazorat deb ta’kidlagan va talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishini nazorat qilish shakli va usuli sifatida seminar va amaliy mashg‘ulotlardagi frontal so‘rovlar, kollokviumlar, test o‘tkazish, o‘ziga o‘zi hisobot berish, nazorat ishlari, ijodiy ishlarning himoyasi va boshqalardan foydalanishni tavsiya qilgan.

Zamonaviy ta’lim muhitida mustaqil ta’limni baholashda innovatsion usullardan foydalanish mumkin. Masalan, Google Classroom, Moodle, Edmodo kabi ta’lim platformalari orqali avtomatlashtirilgan test tizimlari, topshiriqlarining vaqtida vaqtida bajarilishi va natijalarining tahlili amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’limni texnologik qo‘llab-quvvatlash bu ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va maxsus o‘quv platformalaridan foydalanish orqali talabalarga mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratish tizimidir. Bu jarayon mustaqil ta’limni tashkil etishdan boshlab uni baholash va tahlil qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ta’limni texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash o‘quv materiallarini taqdim etish, muloqot va hamkorlikda, nazorat va baholash jarayonlarini samarali tashkil etishda yordam beradi.

Mustaqil ta’limning asosiy komponentlaridan yana biri bu- talabaning o‘z-o‘zini boshqarishidir. Ya’ni o‘z-o‘zini boshqarish talaba o‘z mustaqil ishlashini rejalashtirish, nazorat qilish va o‘qishdagi rivojlanishda ma’suliyatni his qilish jarayonidir. Yuqoridagi komponentlar barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib butun bir zanjirni hosil qiladi. Agar talabada yetarli darajada motivatsiya hosil qilingan bo‘lsa o‘z-o‘zini boshqarish samarali kechadi. Bu jarayon talabaning psixologik jihatdan o‘ziga bo‘lgan ishonchning oshishida ham muhim sanaladi.

Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish komponentlaridan izchil ravishda foydalanish va tadbiq etish talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirib, ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanishiga mustahkam asos bo‘ladi.

XXI asr ta’limi zamonaviy yondashuvlar, mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan metodlar va raqamli texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Matematika va informatika fanlarida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish nafaqt bilimlarni mustahkamlash, balki talabaning mantiqiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Matematika fanining murakkablik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda to‘g‘ri tashkil etilgan mustaqil ta’lim muhim ahamiyatga ega. Quyida matematika ta’limida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning metodik xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Tahliliy-tanqidiy yondashuvni shakllantirish. Matematika fanlarining tabiati talabaning faqat yodlab olishiga emas, balki mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish, o‘zaro bog‘liqlikni anglash kabi yuqori darajadagi intellektual faoliyatni talab qiladi. Shu sababli mustaqil o‘quv faoliyati ham avvalo talabaning tahlil qilish, izlanish, solishtirish va xulosalash ko‘nikmalarining shakllanishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Masalan, talabaga biror formulani yoki teoremani o‘rgatish jarayonida o‘sha formula yoki teoremaning boshqa formula yoki teorema, masalalardagi roli va ahamiyatini aniqlash topshirilishi mumkin.

2. Bosqichlilik va tizimlilik. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda izchillik va tizimlilik muhim metodik tamoyil hisoblanadi. Darslik yoki o‘quv dasturida berilgan mavzular ichki mantiqiy bog‘lanishga ega bo‘lganligi sababli, mustaqil ishlar ham shu asosda tartiblanishi zarur. Masalan, avval osonroq, asosiy tushunchalarni o‘zlashtirishga qaratilgan vazifalar berilib, keyinchalik murakkabroq, ko‘p bosqichli va integratsiyalashgan topshiriqlarga o‘tiladi. Bu bosqichlilik talabaning bilim darajasiga mos ravishda rivojlanish imkonini beradi.

3. Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, o‘quv materiallarini Google Clasroom, Moodle kabi platformalarga joylashtirish, interaktiv mashqlarni GeoGebra yoki Desmos kabi vositalardan foydalangan holda tashkil etish, videodarslardan foydalanish matematika darslarini yanada qulay va samarali qiladi. Raqamli vositalar orqali talabalar o‘zlari istagan vaqtda materialga qayta murojaat qilish, o‘zlashtirish tezligini individual tarzda nazorat qilishga imkon yaratadi.

4. Metodik ta’minotning tizimliligi. Matematika ta’limida mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun puxta metodik ta’minot zarur. Bunda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, namunaviy topshiriqlar, baholash mezonlari, elektron darsliklar, video darslar va amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar to‘plami mavjud bo‘lishi lozim. Bunday tizimli yondashuv o‘qituvchining ham talabaning ham ishini yengillashtiradi va maqsadli yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga imkon beradi.

5. Faol va interaktiv metodlardan foydalanish. Mustaqil o‘quv faoliyatini faollashtirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish mumkin. Bunday metodlar talabalarni faol fikrlashga, o‘z qarashini himoya qilishga, biror matematik masalaga turlicha yondashuvlarni ko‘rib chiqishga undaydi.

6. Natijalarni monitoring qilish va baholash. Talabaning mustaqil faoliyatini muaffaqiyati muntazam nazorat va samarali baholash tizimi orqali aniqlanadi. Har bir topshiriq uchun baholash mezonlari oldindan belgilanib, talabalarga yetkazilishi, natijalar esa teskari aloqalar orqali izohlanishi kerak. Bu talabalarda javobgarlik hissini oshiradi, ularni yanada intizomli va izchil o‘rganishga undaydi.

Mustaqil o‘quv faoliyati faqatgina biror fandan bilimni mustahkamlash jarayoni bo‘libgina qolmasdan, balki talabani o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydigan muhim pedagogik jarayondir. Matematika va informatika ta’limida mustaqil o‘quv faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish zamonaviy ta’lim talablariga mos, faol, mustaqil va ma’suliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Suleymanova R.M, Bo‘lajak informatika o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning raqamli-didaktik ta’minotini takomillashtirish, Diss.avtoreferat Toshkent – 2025

2.Ximmatillayev D.O, Allayarova S.B., “Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ishlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” Monografiya, -T.: 2023-yil, 86 b.

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI VOSITASIDA RAQAMLI PEDAGOGIKANI MODERNIZATSIYA QILISH: ISTIQBOLLAR VA INTERAKTIV METODOLOGIYA

Azamatova Ruxsora Olimjon qizi

ChDPU Aniq fanlar fakulteti MI 3-bosqich talabasi

Ibadullayev Doniyor Kuvandikovich

Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt
kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot jamiyati sharoitida sun’iy intellekt (SI) vositalari yordamida raqamli pedagogikani modernizatsiya qilishning nazoriy va interaktiv-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’lim muhitini qayta loyihalash, neyron tarmoqlar vositasida talabalarning mustaqil tahliliy fikrlash mexanizmlarini faollashtirish hamda virtual va kengaytirilgan borliq (VR/AR) texnologiyalarini dars jarayoniga sinergetik integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni tahliliy hal qilish (Problem-based learning) strategiyalari, raqamli simulyatorlar imkoniyatlari va oliy ta’lim muassasalari menejmentida raqamli tahlil tizimlaridan foydalanish istiqbollari ochib beriladi. Maqola yakunida o‘qituvchining raqamli muhitdagi mentorlik va tyutorlik rolini oshirish hamda yangi avlod raqamli o‘quv adabiyotlarini yaratish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, interaktiv metodologiya, raqamli transformatsiya, virtual borliq (VR), kengaytirilgan borliq (AR), muammoli ta’lim, raqamli simulyatorlar, ta’lim menejmenti, raqamli darsliklar, pedagogik dizayn, intellektual agentlar, tyutorlik, raqamli madaniyat, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация:В данной статье анализируются теоретические и интерактивно-методологические основы модернизации цифровой педагогики с помощью инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в условиях современного информационного общества. В исследовании освещаются вопросы репроектирования образовательной среды, активации механизмов самостоятельного аналитического мышления учащихся посредством нейросетей, а также синергетической интеграции технологий виртуальной и дополненной реальности (VR/AR) в учебный процесс. Рассматриваются стратегии проблемного обучения (Problem-based learning), возможности цифровых симуляторов и перспективы использования цифровой аналитики в менеджменте высшего образования. В заключении статьи выдвинуты научно-педагогические рекомендации по усилению менторской и тьюторской роли педагога в цифровой среде и созданию цифровой учебной литературы нового поколения.

Ключевые слова: цифровая педагогика, искусственный интеллект, интерактивная методология, цифровая трансформация, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), проблемное обучение, цифровые симуляторы, менеджмент в

образовании, цифровые учебники, педагогический дизайн, интеллектуальные агенты, тьюторство, цифровая культура, педагогические инновации.

Abstract:This article analyzes the theoretical, interactive, and methodological foundations of modernizing digital pedagogy using artificial intelligence (AI) tools within the framework of the contemporary information society. The study highlights the redesigning of the educational environment, the activation of students' independent analytical thinking through neural networks, and the synergetic integration of virtual and augmented reality (VR/AR) technologies into the learning process. Furthermore, it explores problem-based learning strategies, the capabilities of digital simulators, and the prospects of utilizing data analytics in higher education management. The paper concludes with scientific and pedagogical recommendations aimed at enhancing the mentoring and tutoring roles of educators in the digital ecosystem and developing next-generation digital educational literature.

Keywords: digital pedagogy, artificial intelligence, interactive methodology, digital transformation, virtual reality (VR), augmented reality (AR), problem-based learning, digital simulators, educational management, digital textbooks, pedagogical design, intelligent agents, tutoring, digital culture, pedagogical innovations.

Zamonaviy axborot jamiyati taraqqiyoti ta’lim muhitini raqamli texnologiyalar yordamida qayta loyihalash va interaktiv o‘qitish modellarini amaliyotga joriy etishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda raqamli pedagogika shunchaki masofaviy ta’lim berish tushunchasidan chiqib, neyron tarmoqlar vositasida talabalarning mustaqil fikrlash mexanizmlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda [1]. Mazkur jarayonlar davlatimiz tomonidan qabul qilingan raqamli iqtisodiyot va ta’limni rivojlantirish dasturlarida ham o‘zining strategik ifodasini topgan [2]. Sun’iy intellektga asoslangan raqamli pedagogika ta’lim oluvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning raqamli madaniyati va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantirishda muhim pedagogik poydevor vazifasini o‘tamoqda [3].

Tizimning transformatsion mohiyati dars xonalarida virtual va kengaytirilgan borliq (VR/AR) hamda intellektual agentlarning o‘zaro sinergetik hamkorligida ko‘rinadi. Bugungi raqamli pedagogik dizayn o‘quvchilarni faqat tayyor ma’lumotlarni yodlashga emas, balki muammoli vaziyatlarni tahliliy hal qilishga (Problem-based learning) yo‘naltirmoqda [4]. Sun’iy intellekt yordamida boshqariladigan zamonaviy simulyatorlar va virtual laboratoriyalar talabalarga real hayotda xavfli yoki imkonsiz bo‘lgan eksperimentlarni xavfsiz raqamli muhitda bajarish imkoniyatini taqdim etadi [5]. Bu esa ta’lim jarayonini monitoring qilish va har bir dars ssenariysini real vaqt rejimida talabalarning qiziqishlariga moslab optimallashtirish imkonini beradi [6].

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida intellektual tizimlar yordamida qarorlar qabul qilish sifati yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari o‘quv jarayonidagi yashirin qonuniyatlarni va talabalarning o‘zlashtirish tendensiyalarini aniqlab, ta’lim menejmentini raqamli tahlil asosida samarali tashkil etishga ko‘maklashadi [7]. Ushbu yangi sharoitda pedagogik jamoaning ham vazifasi tubdan o‘zgarib, o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi shaxsdan talabaning raqamli dunyodagi individual tyutori va mentoriga aylanmoqda [8]. Binobarin, ta’lim tizimini bunday innovatsion asosda qayta qurish va raqamli darsliklarni yaratish milliy pedagogikamiz oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir [9]. Kelajak ta’limining muvaffaqiyati tizim ishtirokchilarining axborot texnologiyalari bilan qay darajada uyg‘unlikda ishlay olishiga va yangi metodologik yondashuvlarni qabul qilishiga bog‘liqdir [10].

Adabiyotlar .

1. Alimov, R. X., va Qosimov, S. S. (2024). Raqamli pedagogika va ta’limda innovatsiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi".

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-son farmoni.

3. Saidov, J. D. (2025). Sun’iy intellekt tizimlarining pedagogik asoslari. Monografiya. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

4. Ziyomuxamedov, B. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhiti. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

5. Karimov, A. A., va Umarov, B. M. (2024). Intellektual ta’lim tizimlarida virtual simulyatorlardan foydalanish metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.

6. Yusupov, M. E. (2023). Raqamli pedagogika sharoitida interaktiv dars ssenariylarini loyihalash. Pedagogik mahorat va raqamli texnologiyalar ilmiy jurnali, 4(2), 78-85-betlar.

7. Hamroyev, R. R. (2022). Oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli analitika va sun’iy intellekt. Monografiya. Namangan: Namangan davlat universiteti.

8. G‘ulomov, S. S. (2020). Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar gumanitar fanlarda. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

9. Taylakov, N. I. (2021). Uzluksiz ta’lim tizimi uchun raqamli o‘quv adabiyotlarini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. Toshkent: "Navro‘z" nashriyoti.

10. Hasanov, Sh. M. (2023). Raqamli asrda pedagogik innovatsiyalar va o‘qitish strategiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. Xiva: Urganch davlat universiteti mintaqaviy markazi.

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN RAQAMLI PEDAGOGIKA: TA’LIMDAGI TRANSFORMATSIYA, STRATEGIYALAR VA XALQARO TAJRIBA

Erkabayeva Shodiya Maxmud qizi

ChDPU Aniq fanlar fakulteti MI 23/4-guruh
3-bosqich talabasi

Sultanov Ravshanbek Otonazarovich

Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt
kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada global raqamlashtirish sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimiga ko‘rsatayotgan transformatsion ta’siri va raqamli pedagogikaning nazoriy-amaliy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’lim jarayonlarini modifikatsiya qilish yo‘llari, xususan, adaptiv o‘qitish, personallashtirilgan ta’lim trayektoriyalari, katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili hamda ta’lim menejmentida prediktiv analitika usullaridan foydalanish strategiyalari ochib berilgan. Maqolada AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi kabi yetakchi davlatlarning sun’iy intellektni ta’limga integratsiya qilish borasidagi ilg‘or tajribalari qiyosiy o‘rganilib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, raqamli muhitda akademik halollikni saqlash, talabalar ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash va o‘qituvchilarning SI vositalari bilan ishlash (Prompt-engineering) ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida milliy ta’lim tizimini raqamli pedagogika prinsiplari asosida modernizatsiya qilish va o‘zbek tilidagi adaptiv o‘quv platformalarini yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar hamda strategik takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, ta’lim transformatsiyasi, adaptiv o‘qitish, personallashtirilgan ta’lim, prediktiv analitika, katta ma’lumotlar (Big Data), xalqaro tajriba, Prompt-engineering, akademik halollik, kiberxavfsizlik, ta’lim menejmenti, gibrid ta’lim, raqamli darsliklar, intellektual o‘qitish tizimlari (ITS).

Global raqamlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida sun’iy intellekt (SI) barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatori ta’lim tizimining ham fundamental asoslarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda ta’lim kun tartibiga "raqamli pedagogika" tushunchasi kirdi. Bu konsepsiya shunchaki texnik vositalardan foydalanishni emas, balki o‘qitish metodologiyasini, metodikasini va pedagogik dizaynni algoritmlar hamda raqamli muhit imkoniyatlariga to‘liq moslashtirishni anglatadi [2]. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham ushbu jarayonlarni huquqiy tartibga solish va jadallashtirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Ta’lim platformalariga sun’iy intellektning chuqur integratsiya qilinishi dars berish sifatini oshirish, intellektual resurslarni oqilona taqsimlash va har bir ta’lim oluvchiga individual yondashish uchun ilgari mavjud bo‘lmagan yangi metodologik gorizontlarni ochmoqda [3].Ushbu transformatsion jarayonda sun’iy intellekt ta’limga shunchaki passiv yordamchi vosita emas, balki tizimni harakatga keltiruvchi va uni modernizatsiya qiluvchi asosiy drayver sifatida kirib kelmoqda. Mazkur evolyutsion o‘zgarishlarning bir nechta strategik yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi navbatda, bu - personallashtirilgan va adaptiv ta’lim modelidir. SIga asoslangan zamonaviy intellektual o‘qitish tizimlari real vaqt rejimida talabaning har bir harakatini, test topshirish dinamikasini va xatolarini tahlil qiladi. Agar talaba muayyan mavzuni qiyinchilik bilan o‘zlashtirayotgan bo‘lsa, tizim unga soddarroq materiallar yoki muqobil darslarni taklif etadi. Bu har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini yaratish va bo‘lajak kadrlarni intellektual faoliyatga maqsadli tayyorlash imkonini beradi [5].

Ta’limda raqamli davrning axloqiy jihatlarini e’tibor markaziga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda, ta’lim esa yangi voqelikni shakllantirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Texnologik rivojlanishning ahamiyatini axloqiy nuqtai nazardan tushunish uchun yo‘l ochish kerak. Raqamli inqilobga asoslangan eski utopiyalar dolzarb axloqiy savollar nuqtai nazaridan yangi ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Yangi texnologiyalar ulkan imkoniyatlarni, shu bilan birga chuqur o‘ylash va muhokama qilishni talab qiluvchi murakkab dilemmalarni ham olib keladi. Maqsad – raqamli jamiyatimizning barkamol rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yechimlar yo‘llarini topish. Ta’lim endi o‘tmishdagi utopiyalar va yangi voqeliklar o‘rtasida ko‘prik qurishi kerak. Talabalarni o‘qitish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish xavfsizligi mavzusi nihoyatda dolzarb bo‘lib, chuqur fikr yuritishga sabab bo‘ladi. Zamonaviy sun'iy intellekt taqdim etayotgan barcha kuch va imkoniyatlar bilan biz axloq, maxfiylik va ma’lumotlar yaxlitligi bilan bog‘liq muhim masalalarni ham ko‘rib chiqishimiz kerak. O‘quvchilarni sun’iy intellekt yordamida o‘qitishning ko‘plab ijobiy tomonlari bor. Bu bizga o‘quv jarayonini individuallashtirish va materiallarni har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Biroq, bu talabalarning shaxsiy ma’lumotlari himoyasini qanday ta’minlash va olingan ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish haqida savollar tug‘diradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish akademik va ma’muriy jarayonlarni to‘liq avtomatlashtirish, ya’ni axborotlashtirilgan muhitda butun ta’lim jarayonini samarali boshqarish bilan bog‘liqdir [7]. Pedagoglar faoliyatining salmoqli qismi imtihonlarni tekshirish, davomatni hisobga olish va turli statistik hisobotlarni tayyorlash kabi mexanik hamda rutina vazifalarga sarflanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat standart testlarni, balki ochiq savolli murakkab topshiriqlarni ham yuqori aniqlikda baholash imkoniga ega [4]. Bu esa o‘qituvchilarni ortiqcha yuklamalardan xalos etib, bor e’tiborni dars jarayoniga innovatsion texnologiyalarni olib kirishga qaratishga sharoit yaratadi [10].

Biroq, raqamli pedagogikani amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish chuqur o‘ylangan strategik yondashuvlarni talab qiladi. Eng birinchi navbatda, raqamli pedagogikaning bugungi holati va uning real imkoniyatlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri baholash lozim [6]. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining chuqur bilimdoni bo‘lishi, balki sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asoslarini mukammal egallashi shart [9]. Shuningdek, raqamli muhitda mediata’lim va axborot madaniyatini rivojlantirish ham davr talabiga aylanmoqda [8]. Pirovard maqsad o‘qituvchini tizimdan siqib chiqarish emas, balki uni texnologiya yordamida yanada kuchliroq mutaxassisga aylantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2021). "Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4996-son qarori.

2. Abrorxonova, K. A. (2025). Raqamli pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti nashriyoti.

3. Raximov, Q. (2025). Ta’limdagi sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. O‘quv-uslubiy majmua. Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti mintaqaviy markazi.

4. Abdukarimov, S. (2021). Sun’iy intellekt va ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi. Monografiya. Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti.

5. Turakulov, X. A., va Turakulov, O. X. (2020). Intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari negizida bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash. Monografiya. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi".

6. Mamarajabov, M. E. (2023). Raqamli pedagogika va uning imkoniyatlari. Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: TDPU.

7. Turakulov, O. X. (2010). Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ta’limni boshqarish. O‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya.

8. Mamatova, Ya., va Sulaymanova, S. (2018). O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

9. Xudoyberganov, Q. (2020). Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

10. Ishmuhammedov, R., Abduqodirov, A., va Pardaev, A. (2010). Tarbiyada va o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Iste’dod.

RAQAMLI PEDAGOGIKADA ADAPTIV BAHOLASH TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISH TAMOYILLARI

A.X. Boymurodov

dotsent, (PhD) (Chirchiq davlat pedagogika universiteti)
e-mail: adham.boymurodov79.19@gmail.com)

N.F.Shodiyeva

magistr (Chirchiq davlat pedagogika universiteti)
e-mail: fayzullayevna999@gmail.com)

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada raqamli pedagogika kontekstida adaptiv baholash tizimlarini ishlab chiqishning asosiy tamoyillari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasining o'zgarishi, sun'iy intellekt texnologiyalari va ma'lumotlar tahlilining pedagogika tatbiqi masalalari muhokama etiladi. Maqolada adaptiv baholashning nazariy asoslari, kompetentsiyaga yo'naltirilgan yondashuv va individual o'quv traektoriyalarini shakllantirish tamoyillari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari (OTM) uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, milliy ta'lim tizimiga integratsiya imkoniyatlari baholangan.

Kalit so'zlar: adaptiv baholash, raqamli pedagogika, sun'iy intellekt, kompetentsiyaga yo'naltirilgan ta'lim, individual o'quv traektoriyasi, formativ baholash, e-learning, learning analytics, personalizatsiya, ta'lim texnologiyalari.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida raqamli transformatsiya ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy yig'ma sinf xonalarida qo'llaniladigan standartlashtirilgan baholash tizimlarining cheklovlari tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda: ular talabaning individual rivojlanish sur'atini, bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlarini va kognitiv uslubini hisobga olmaydi. Bu muammoning yechimi sifatida adaptiv baholash tizimlarini (ABT) ishlab chiqish va joriy etish global pedagogik hamjamiyatning ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik hujjatlar — xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va «Raqamli O'zbekiston» dasturi — OTMlardan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga faol joriy etishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan adaptiv baholash tizimlarini milliy ta'lim standartlari asosida ishlab chiqish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — raqamli pedagogika paradigmasi doirasida adaptiv baholash tizimlarini loyihalash va amalga oshirishning nazariy-metodologik tamoyillarini aniqlash va tizimlashtirish hamda O'zbekiston OTMlari uchun amaliy yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat.

Adaptiv baholash g'oyasining ildizlari Lev Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» (ZPD) nazariyasiga borib taqaladi. Vigotskiy (1978) ta'kidlaganidek, o'rganuvchining haqiqiy rivojlanish darajasi va potentsial imkoniyatlari o'rtasidagi farqni to'g'ri aniqlagan holda tashkil

etilgan ta'lim eng samarali natijalarga olib keladi. Zamonaviy adaptiv tizimlar ana shu nazariyani algoritmik shaklda ifodalashga harakat qiladi.

Bloom taksonomiyasining raqamli versiyasi (Churches, 2008) adaptiv baholash tizimlarini loyihalashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish bosqichlarini raqamli faoliyat turlari bilan bog'laydi, bu esa baholash topshiriqlarini kognitiv murakkablik darajalariga muvofiq avtomatik ravishda tanlab beruvchi tizimlar yaratishga imkon beradi.

So'nggi o'n yillikda «Learning Analytics» yo'nalishi keng ilmiy e'tiborni jalb etdi. Siemens va Long (2011) ta'kidlaganidek, ta'lim analitikasi o'quvchilar haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlab, ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun amaliy xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu yondashuv adaptiv baholashning emperikal asosini tashkil etadi va tizimni doimiy takomillashtiruvchi retroaktiv mexanizm sifatida ishlaydigan «ma'lumotga asoslangan ta'lim» (data-driven education) konsepsiyasini hayotga tatbiq etadi.

Adaptiv baholash tizimlarini ishlab chiqish tamoyillari

1.1. Personallashtirish va individual traektoriya tamoyili. Adaptiv baholashning markaziy tamoyili — har bir o'quvchining individual o'quv profili asosida baholash jarayonini dinamik ravishda moslashtirishdir. Tizim har bir savolga berilgan javob, sarflangan vaqt va xato turlari kabi parametrlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, keyingi topshiriqning murakkablik darajasini avtomatik tarzda belgilaydi. Bu yondashuv «Item Response Theory» (IRT) — savolga javob berish nazariyasi — asosida quriladi, bunda o'quvchining qobiliyat parametri va topshiriqning qiyinlik indeksi o'rtasidagi matematik bog'liqlik aniqlanadi (Lord, 1980).

1.2. Formativ baholashning ustuvorligi tamoyili. Raqamli adaptiv tizimlar summativ baholash — yakuniy natijani qayd etuvchi an'anaviy imtihon — dan farqli o'laroq, formativ baholashga — o'rganish jarayonini doimiy ravishda kuzatish va yo'naltirish funksiyasiga — ustunlik beradi. Black va Wiliam (1998) tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil shuni ko'rsatadiki, formativ baholashni tizimli qo'llash o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini 0,4–0,7 standart og'ish miqdorida yaxshilaydi, bu ta'lim amaliyotida kuchli effekt sifatida baholanadi. Raqamli muhitda ushbu tamoyil avtomatik teskari aloqa (feedback) mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

1.3. Kompetentsiyaga yo'naltirilganlik tamoyili. O'zbekiston OTMlarining malaka talablari va davlat ta'lim standartlari kompetentsiyabazali ta'lim (CBE — Competency-Based Education) yondashuviga asoslangan. Adaptiv baholash tizimini shu talablarga muvofiq loyihalash uchun har bir o'quv natijasi (learning outcome) aniq o'lchanadigan indikatorlarga parchalanadi va tizim aynan shu indikatorlar bo'yicha o'quvchining mastery darajasini aniqlaydi. Topshiriqlar banki DK (Darajali Kompetentsiya) matritsasi asosida tuziladi: har bir topshiriq ma'lum kompetentsiya va kognitiv daraja bilan teglanadi.

1.4. Ma'lumotlar xavfsizligi va axloqiy me'yorlar tamoyili. Adaptiv tizimlar o'quvchilar haqida katta hajmda shaxsiy ma'lumot to'playdi: baholash natijalari, faollik vaqti, xato naqshlari va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni (2019) va xalqaro GDPR standartlari asosida ushbu ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash jarayonlari qat'iy tartibga solinishi lozim. Tizimni loyihalashda «Privacy by Design» — maxfiylikni dastlabki bosqichdan inobatga olish — printsipi qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

1.5. Interoperabellik va texnik moslashuvchanlik tamoyili. Adaptiv baholash tizimlarini mavjud ta'lim boshqaruv tizimlari (LMS — Learning Management System), masalan, Moodle yoki mahalliy OTM platformalari bilan integratsiya qilish imkoniyati texnik arxitekturada

dastlabki bosqichdan nazarda tutilishi kerak. IMS Global tomonidan ishlab chiqilgan xLAPI (Experience API) va LTI (Learning Tools Interoperability) standartlari bu integratsiyaning texnik asosini tashkil etadi. O'zbekiston OTMlari uchun milliy standartlashtirish masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi.

O'zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchunjoriy etish modeli. Milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan adaptiv baholash tizimini joriy etish uchun quyidagi bosqichli model taklif etiladi. Birinchi bosqichda — diagnostik tahlil: mavjud o'quv dasturlari, baholash mezonlari va OTMdagi raqamli infratuzilma imkoniyatlari baholanadi. Ikkinchi bosqichda — kompetentsiya xaritasini tuzish: har bir fan bo'yicha o'quv natijalari ierarxik tarzda ifodalanadi va baholash qismlari belgilanadi. Uchinchi bosqichda — topshiriqlar banki yaratish: baholash topshiriqlari IRT parametrlari va Bloom darajalariga ko'ra tasniflanadi.

To'rtinchi bosqichda — algoritmni tanlash va sozlash: Kompyuterlashtirilgan Adaptiv Test (CAT) yoki Mastery-Based Progression algoritmlaridan o'quv kontekstiga mos keluvchisi tanlanilib, OTMning texnik imkoniyatlariga moslashtiriladi. Beshinchi bosqichda — pilot sinov va validatsiya: tizim cheklangan guruhda sinab ko'riladi, natijalar psixometrik tahlil usullari bilan tekshiriladi va ishonchlilik (reliability) hamda asos yaroqlilik (construct validity) ko'rsatkichlari aniqlanadi. Oltinchi bosqichda — pedagoglarni tayyorlash: o'qituvchilar tizimdan foydalanish va baholash natijalarini talqin etish bo'yicha maxsus tayyorlovdan o'tkaziladi.

Muammolar va istiqbollar. Adaptiv baholash tizimlarini amaliyotga joriy etishda bir qator ob'ektiv to'siqlar mavjud. Birinchidan, raqamli tafovut muammosi: barcha OTMlarda, ayniqsa viloyat va qishloq tumanlaridagi filiallarida zaruriy texnik baza mavjud emas. Ikkinchidan, pedagogik kadrlarning tayyor emasligi: ko'pgina o'qituvchilar ma'lumotga asoslangan baholash natijalarini to'g'ri talqin etish va pedagogik qarorlar qabul qilishda yetarli kompetentsiyaga ega emaslar. Uchinchidan, mahalliy til va madaniy kontekstga moslashtirilgan topshiriqlar bankini yaratish texnik va metodologik jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi.

Biroq istiqbol rag'batlantiruvchi ko'rinmoqda. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi topshiriqlar bankini yaratishni sezilarli darajada tezlashtirishi va arzonlashtirishi mumkin. Natural Language Processing (NLP) usullari yordamida o'zbek tilidagi ochiq javoblarni avtomatik baholash imkoniyatlari kengaymoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Raqamlashtirish vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi OTMlardagi raqamli infratuzilmani yaxshilashga mo'ljallangan bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda, bu esa adaptiv tizimlarni joriy etishning moddiy-texnik asosini mustahkamlaydi.

Xulosa. Raqamli pedagogikada adaptiv baholash tizimlarini ishlab chiqish — bu nafaqat texnologik, balki chuqur pedagogik, psixologik va etik masaladir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, samarali adaptiv tizim personallashtirish, formativ baholashning ustuvorligi, kompetentsiyaga yo'naltirilganlik, ma'lumotlar xavfsizligi va texnik interoperabellik tamoyillarining uyg'un sintezi asosida qurilgandagina o'z potentsialini to'liq namoyon eta oladi.

O'zbekiston OTMlari uchun taklif etilgan bosqichli joriy etish modeli milliy ta'lim standartlari va mavjud infratuzilma sharoitlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Bunday tizimlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, davlat organlari va IT sektori o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik zarurdir. Kelgusi tadqiqotlarda adaptiv tizimlarning o'quvchi motivatsiyasi va uzoq muddatli bilimlar saqlanishiga ta'sirini empirik usullar bilan o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5(1), 7–74.

2. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: David McKay Company.

3. Churches, A. (2008). Bloom's Digital Taxonomy. Educational Origami. https://edorigami.wikispaces.com

4. Lord, F. M. (1980). Applications of Item Response Theory to Practical Testing Problems. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

5. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. EDUCAUSE Review, 46(5), 30–32.

6. Vыgotskiy, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

7. O'zbekiston Respublikasi «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni. (2019). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. (2020). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari.

9. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. Studies in Higher Education, 31(2), 199–218.

10. Mislevy, R. J., Almond, R. G., & Lukas, J. F. (2003). A brief introduction to evidence-centered design. Educational Testing Service Research Report, RR-03-16.

ТАЛАБАЛАРГА ВИЛЬЯМ ШЕКСПИР АСАРЛАРИНИ СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ЁРДАМИДА ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРИ

Нодира Холикова

Чирчиқ давлат педагогика университети
Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси
мудири, ф.ф.д. (DSc), доцент

Аннотация. Мазкур мақолада олий таълим тизимида Вильям Шекспир асарларини сунъий интеллект технологиялари орқали ўқитишнинг замонавий усуллари таҳлил қилинган. Хусусан, ChatGPT, Grammarly, Gemini, AI-асосли таҳлил платформалари ҳамда рақамли таълим муҳитларининг адабиёт таълимидаги ўрни ёритилган. Тадқиқотда Шекспир драмаларини интерфаол, аналитик ва ижодий ёндашувлар асосида ўқитишнинг педагогик имкониятлари кўриб чиқилди. Шунингдек, сунъий интеллектнинг талабаларнинг мустақил фикрлаши, матн таҳлили, танқидий мушоҳадаси ва ижодий компетенцияларини ривожлантиришдаги аҳамияти илмий жиҳатдан асосланди. Муаллиф томонидан адабиёт ва рақамли технологиялар интеграциясининг таълим сифатини оширишдаги роли юксак баҳоланади.

Калит сўзлар: Вильям Шекспир, сунъий интеллект, адабий таълим, рақамли педагогика, ChatGPT, интерфаол таълим, инновацион методлар, филология, рақамли гуманитар фанлар.

Аннотация

В данной статье проанализированы современные методы преподавания произведений Уильяма Шекспира в системе высшего образования с использованием технологий искусственного интеллекта. В частности, освещена роль ChatGPT, Grammarly, Gemini, AI-основанных аналитических платформ и цифровых образовательных сред в литературном образовании. В исследовании рассмотрены педагогические возможности преподавания драм Шекспира на основе интерактивного, аналитического и творческого подходов. Также научно обосновано значение искусственного интеллекта в развитии самостоятельного мышления студентов, анализа текста, критического мышления и творческих компетенций. Автор высоко оценивает роль интеграции литературы и цифровых технологий в повышении качества образования.

Ключевые слова: Уильям Шекспир, искусственный интеллект, литературное образование, цифровая педагогика, ChatGPT, интерактивное обучение, инновационные методы, филология, цифровые гуманитарные науки.

Abstract

This article analyzes modern methods of teaching William Shakespeare’s works in higher education through artificial intelligence technologies. In particular, the role of ChatGPT, Grammarly, Gemini, AI-based analytical platforms, and digital learning environments in literary education is highlighted. The study examines the pedagogical possibilities of teaching Shakespeare’s dramas through interactive, analytical, and creative approaches. Furthermore, the significance of artificial intelligence in developing students’ independent thinking, text analysis, critical reflection, and creative competencies is scientifically substantiated. The author highly

evaluates the role of integrating literature and digital technologies in improving the quality of education.

Keywords: William Shakespeare, artificial intelligence, literary education, digital pedagogy, ChatGPT, interactive learning, innovative methods, philology, digital humanities.

XXI аср таълим тизими рақамли трансформация босқичига кириб келди. Айниқса, сунъий интеллект технологияларининг ривожланиши таълим жараёнининг мазмун ва моҳиятини тубдан ўзгартирмоқда. Бугунги кунда гуманитар фанлар, жумладан, адабиёт таълими ҳам рақамли платформалар ва интеллектуал дастурлар билан интеграциялашмоқда. Бу эса талабаларда таҳлилий фикрлаш, мустақил изланиш ва ижодий ёндашувни шакллантириш учун янги имкониятлар яратмоқда.

Жаҳон адабиётининг буюк намояндаси Вильям Шекспир асарлари инсон руҳияти, ахлоқий зиддиятлар ва ижтимоий муносабатларни чуқур бадиий ифода этгани билан аҳамиятлидир. Бироқ Шекспир тилининг мураккаблиги, тарихий контекстнинг кенглиги ва драматик структуранинг ўзига хослиги талабалар учун маълум қийинчиликларни келтириб чиқаради. Ана шундай вазиятда сунъий интеллект технологиялари муҳим педагогик восита сифатида майдонга чиқмоқда. Сунъий интеллект ёрдамида талабалар асар мазмунини соддалаштирилган шаклда англаш, қаҳрамонлар психологиясини таҳлил қилиш, сюжет линияларини визуаллаштириш ва мустақил таҳлил олиб бориш имкониятига эга бўладилар. Бу эса адабиёт таълимида анъанавий усулларни инновацион ёндашувлар билан бойитишга хизмат қилади.

Сўнгги йилларда рақамли гуманитар фанлар (Digital Humanities) соҳасида олиб борилган тадқиқотлар адабиёт таълимида сунъий интеллект технологияларининг аҳамияти ортиб бораётганини кўрсатмоқда. Дарҳақиқат, сунъий интеллектга асосланган адабий таҳлил талабаларни матнлар билан фақат ёдлаш даражасида эмас, балки уларни талқин қилиш орқали чуқурроқ ишлашга ундайди. Шунингдек, олимлар томонидан Шекспир драмаларининг кўп қатламли маъноларини англашда интерактив таҳлил платформалари муҳим аҳамият касб этиши қайд этилмоқда. Замонавий таълим назариясида конструктивизм тамойиллари асосида талабанинг мустақил билим яратиши муҳим ҳисобланади. Сунъий интеллект эса айнан шу жараённи фаоллаштирувчи восита сифатида хизмат қилади.

Ўзбекистонда ҳам рақамли педагогика ва AI технологияларини таълимга татбиқ этиш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Педагог олимлар таълимда инновацион технологиялардан фойдаланиш талабаларнинг фанга қизиқишини оширишини таъкидлайдилар.

Адабиёт таълими фақат матнни ўқиш билан чекланмайди. У таҳлил қилиш, қиёслаш, образларни англаш ва бадиий эстетик тафаккурни шакллантиришни ҳам талаб этади. Сунъий интеллект технологиялари ана шу жараёнларни оптималлаштириш имконини бермоқда. Хусусан, ChatGPT каби AI платформалари қуйидаги имкониятларни тақдим этади:

- асар мазмунини соддалаштирилган тарзда тушунтириш;
- қаҳрамонларга психологик тавсиф бериш;
- драматик конфликтларни таҳлил қилиш;
- эссе ва таҳлилий матнлар ёзишда кўмаклашиш;
- талабалар билан виртуал мулоқот муҳити яратиш.

Масалан, “Гамлет” трагедиясини ўқитиш жараёнида талабалар ChatGPT орқали Гамлет образининг ички зиддиятларини таҳлил қилиши мумкин. Бу эса анъанавий маъруза усулига нисбатан кўпроқ интерфаолликни таъминлайди. Шу билан бирга, AI воситалари талабаларнинг мустақил таълим олиш компетенцияларини ҳам ривожлантиради. Улар матн устида мустақил ишлайди, саволлар беради, муқобил фикрларни таққослайди ва таҳлил қилади.

Вильям Шекспирнинг айрим машҳур драмалари сунъий интеллект технологиялари орқали ўқитилганда талабаларнинг асарни англаш даражаси анча юқори бўлиши кузатилади. Хусусан, “Гамлет”, “Отелло”, “Ромео ва Жульетта”, “Қирол Лир” ҳамда “Макбет” каби асарлар психологик, фалсафий ва ижтимоий мазмунга бой бўлгани учун AI асосидаги таҳлил платформалари билан самарали ўрганилиши мумкин.

“Гамлет” трагедиясини ўқитишда ChatGPT ёрдамида Гамлет образининг ички кечинмалари, унинг “Бўлиш ёки бўлмаслик” (“To be or not to be”) монологидаги фалсафий қарашлари таҳлил қилинади. Талабалар AI платформасига турли саволлар бериш орқали қаҳрамоннинг қарор қабул қилиш жараёни, унинг иккиланиши ва руҳий зиддиятларини чуқур англаш имкониятига эга бўладилар. Бу жараён анъанавий таҳлил усулларига нисбатан кўпроқ мулоҳаза ва интерактив фикр алмашувни юзага келтиради. “Отелло” асарини ўқитишда сунъий интеллект рашк, ишонч ва манипуляция мавзуларини таҳлил қилишда ёрдам беради. Масалан, AI орқали Яго образининг психологик портрети яратилиши, унинг нутқидаги манипулятив услубларни аниқлаш мумкин. Талабалар Grammarly ёки бошқа AI таҳлил платформалари орқали қаҳрамонлар диалогларининг эмоционал бўёғини таҳлил қиладилар. Бу эса драматик конфликтни чуқурроқ англашга хизмат қилади. “Ромео ва Жульетта” трагедиясида AI технологиялари муҳаббат ва ижтимоий зиддият мавзуларини визуаллаштириш имконини беради. Масалан, рақамли платформалар орқали Монтекки ва Капулетти оилалари ўртасидаги муносабатлар схемаси яратилиши мумкин. Шунингдек, талабалар AI ёрдамида асар воқеаларини замонавий ижтимоий муҳит билан қиёсий таҳлил қилиш имкониятига эга бўладилар. Бу усул адабиётнинг ҳаёт билан боғлиқлигини англашга ёрдам беради. “Макбет” трагедиясини ўқитишда сунъий интеллект қаҳрамоннинг ҳокимиятга интилиши, виждон азоби ва психологик инқирозини таҳлил қилишда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. AI асосидаги таҳлил дастурлари орқали Макбет нутқидаги салбий эмоционал бирликлар, қўрқув ва шубҳа элементлари аниқланиши мумкин. Бу эса талабаларнинг матнни лингвистик ва психологик жиҳатдан таҳлил қилиш кўникмасини ривожлантиради. “Қирол Лир” асарида ота ва фарзанд муносабатлари, ҳокимият ва инсоний қадриятлар муаммосини AI ёрдамида концептуал хариталар орқали таҳлил қилиш мумкин. Масалан, Gemini ёки бошқа сунъий интеллект платформалари қаҳрамонлар ўртасидаги муносабатларни диаграмма шаклида ифодалаш имконини беради. Бу талабаларнинг сюжетни яхлит ҳолда тасаввур қилиш қобилиятини кучайтиради.

Шекспир асарларини ўқитишда AI технологияларининг афзалликларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Матнни англаш даражасини ошириш – Шекспир тили архаик ва мураккаблиги билан ажралиб туради. AI платформалари эса қадимий инглиз тилини замонавий тилга адаптация қилиб бериш имконига эга. Бу талабаларнинг асарни чуқурроқ тушунишига ёрдам беради.

2. Интерфаол таълим муҳитини шакллантириш – Сунъий интеллект талабалар ва матн ўртасида интерактив мулоқот яратади. Талаба исталган саволни бериши ва тезкор жавоб олиши мумкин.

3. Танқидий фикрлашни ривожлантириш – AI ҳар доим ягона жавобни бермайди. У турли нуқтайи назарларни тақдим этади. Бу эса талабаларда танқидий фикрлашни ривожлантиради.

4. Индивидуал таълим имконияти – ҳар бир талаба билим даражасига қараб AI билан алоҳида ишлайди. Бу дифференциал таълимни таъминлайди.

5. Ижодий компетенцияларни ривожлантириш – замонавий рақамли педагогикада AI технологиялари фақат таҳлил воситаси эмас, балки ижодий фаолиятни ривожлантирувчи муҳит сифатида ҳам қўлланилмоқда. Масалан, талабалар сунъий интеллект ёрдамида Шекспир драмалари учун альтернатив финал яратиши, қаҳрамонлар номидан эссе ёзиши ёки драмаларни замонавий муҳитга мослаштирилган сценарий кўринишида қайта ишлаши мумкин. Бу эса уларнинг ижодий ва мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантиради.

6. Филологик таҳлилни чуқурлаштириш – AI технологиялари орқали Шекспир асарларининг тил хусусиятларини ўрганиш ҳам самарали ҳисобланади. Масалан, талабалар ChatGPT ёки AI-асосли луғат платформалари ёрдамида архаик инглиз сўзларининг маъноларини тезкор аниқлайдилар, метафора ва бадиий тасвир воситаларини изоҳлайдилар. Бу жараён филологик таҳлилнинг чуқурлашувига хизмат қилади.

Шу билан бирга, сунъий интеллектдан фойдаланиш муайян муаммоларни ҳам келтириб чиқаради: талабаларнинг AI га ортиқча боғланиб қолиши; академик ҳалоллик муаммолари; тайёр таҳлилларни кўчириш ҳолатлари; инсон тафаккурининг пассивлашув хавфи. Шу сабабли ўқитувчи AI ни тўлиқ ўрнини босувчи эмас, балки ёрдамчи восита сифатида қўллаши лозим. Педагогик назорат ва методик ёндашув устувор аҳамиятга эга бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Вильям Шекспир асарларини сунъий интеллект ёрдамида ўқитиш замонавий таълимнинг муҳим инновацион йўналишларидан бири ҳисобланади. AI технологиялари талабаларнинг матнни англаш, таҳлил қилиш, мустақил фикрлаш ва ижодий ёндашувини ривожлантиришга хизмат қилади. Адабиёт ва ахборот технологиялари интеграцияси нафақат таълим сифатини оширади, балки янги авлод рақамли гуманитар тафаккурини шакллантиради. Шу нуқтаи назардан, келгусида филологик таълимда сунъий интеллект асосидаги интерактив платформаларни кенг жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

Шу тариқа, Шекспир асарларини сунъий интеллект ёрдамида ўқитиш талабаларнинг адабий компетенцияси, таҳлилий фикрлаши ва рақамли кўникмаларини комплекс равишда ривожлантиради. Бу эса филология таълимида инновацион педагогик ёндашувларнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. Куницына Е.Ю., Вебер Е.А. Шекспир и искусственный интеллект: перспективы цифрового художественного перевода // https://cyberleninka.ru/article/n/shekspir-i-iskusstvennyy-intellekt-perspektivy-tsifrovogo-hudozhestvennogo-perevoda/viewer
2. Быть или не быть: ИИ читает Шекспира свежим взглядом // https://news.microsoft.com/ru-ru/features/ai-shakespeare/
3. AI Искусственный интеллект: Шекспир написал не все свои пьесы, но и не свои тоже написал // https://shalaginov.com/2019/08/26/6300/

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHDA ADAPTIV VA SHAXSIYLASHTIRILGAN TA’LIM MUHITINI YARATISH METODIKASI

G‘aniyev Ilhom Dustnazarovich

CHDPU, Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
ganiyevid1759@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning individual bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalarning tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, tarmoq texnologiyalari, raqamli ta’lim muhiti, integrativ yondashuv, pedagogik texnologiyalar.


Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’lim metodlari barcha talabalar uchun bir xil yondashuvni taklif qilganligi sababli, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasida tafovutlar yuzaga kelmoqda [1].

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari talabaning bilim darajasi, qiziqishi, o‘quv faoliyati va o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish orqali unga mos individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi [2]. Bunday tizimlar ayniqsa “Kompyuter tarmoqlari”, “Axborot xavfsizligi”, “Tarmoq xavfsizligi” kabi murakkab fanlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi.

Tadqiqot davomida adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratishning quyidagi metodik bosqichlari ishlab chiqildi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilim darajasini diagnostika qilish;
2. Sun’iy intellekt asosida o‘quv kontentini moslashtirish;
3. Individual topshiriqlar va virtual laboratoriyalarni shakllantirish;
4. Real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish;

5. Talabaning rivojlanish dinamikasiga mos tavsiyalar ishlab chiqish.



Mazkur metodika asosida yaratilgan ta’lim muhiti talabaga mustaqil ishlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda murakkab tarmoq konfiguratsiyalarini virtual laboratoriyalar orqali bajarish imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida talabalar faoliyati doimiy monitoring qilinib, ularning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotgani aniqlanadi va avtomatik ravishda qo‘shimcha materiallar tavsiya etiladi [4].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hamda amaliy kompetensiyalari sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan [5].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish tarmoq texnologiyalarini o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu metodika talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida bunday tizimlarni oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etish raqamli ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Artificial Intelligence in Education. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

2. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2022.

3. Peterson L.L., Davie B.S. Computer Networks: A Systems Approach. – Morgan Kaufmann, 2021.

4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – MIT Press, 2016.

5. Stallings W. Network Security Essentials. – Pearson Education, 2020.

6. G‘aniyev I.D. “Tarmoq texnologiyalari kursini o‘qitishning integrativ-elektron metodik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya. – Toshkent, 2026. – Dissertatsiya.

7. Ganiyev I.D. Creation of a testing and assessment system for the course of network technologies based on an integrative approach // American Journal of Education and Learning. – 2025. – Vol. 3. – No. 6. – P. 555–562.

8. Ganiyev I.D. Improving the Integrative Methodological System for Teaching the Network Technology Course // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2023. – Vol. 10. – No. 12.

9. Ganiyev I.D. Basic Requirements for Educational Electronic Resource // Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference. – P. 138–139.

RAQAMLI DASTURIY-DIDAKTIK TA’MINOT ASOSIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Berdiyev Shokir Xudoynazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tezisda raqamli dasturiy-didaktik ta’minot asosida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi bayon etiladi. Mazkur texnologiya diagnostika, individual o‘quv trayektoriyasi, raqamli metodik mahsulot yaratish, amaliy sinov, tahliliy baholash va refleksiv takomillashtirish bosqichlariga tayanadi. Natijada metodik kompetentlikni shakllantirish jarayoni tizimli, dalillarga asoslangan va shaxsiylashtirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: metodik kompetentlik, raqamli dasturiy-didaktik ta’minot, o‘qituvchi kasbiy rivojlanishi, elektron portfolio, raqamli baholash, pedagogik dizayn, sun’iy intellekt.

Dolzarblik. Ta’limda raqamli transformatsiya kuchaygan sari o‘qituvchidan faqat texnik vositadan foydalanish emas, balki uni aniq pedagogik maqsad, o‘quv natijasi va baholash mezoni bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Metodik kompetentlik o‘qituvchining darsni loyihalash, mazmunni moslashtirish, o‘quvchini faoliyatga jalb etish, raqamli resursdan didaktik maqsadda foydalanish, natijani tahlil qilish va o‘z amaliyotini takomillashtirish qobiliyatlari majmuasidir [1; 2]. Raqamli dasturiy-didaktik ta’minot ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yagona metodik muhit yaratadi.

Maqsad. Tadqiqotning maqsadi o‘qituvchilar va bo‘lajak pedagoglarda metodik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli dasturiy-didaktik ta’minotning tarkibi, bosqichlari va baholash mezonlarini asoslashdan iborat. Bunda asosiy e’tibor raqamli vosita va pedagogik dizayn o‘rtasidagi mazmunli bog‘lanishga qaratiladi.

Raqamli dasturiy-didaktik ta’minot tushunchasi. Raqamli dasturiy-didaktik ta’minot deganda LMS platformasi, elektron kontent, interaktiv mashqlar, videodarslar, test va rubrikalar, metodik ko‘rsatmalar, e-portfolio, analitika paneli, sun’iy intellekt yordamchi modullari hamda o‘quvchi faoliyatini tashkil etish ssenariylaridan iborat kompleks tizim tushuniladi. Uning vazifasi o‘qituvchini tayyor resurs bilan ta’minlashdan ko‘ra kengroq bo‘lib, pedagogik qaror qabul qilish, dars dizaynini baholash va refleksiya qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Texnologik model. Metodik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi olti bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – diagnostika: o‘qituvchining raqamli vosita, metod, baholash va refleksiya bo‘yicha boshlang‘ich darajasi aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – individual trayektoriya: ehtiyojga mos mikromodullar, topshiriqlar va maslahatlar tanlanadi. Uchinchi bosqich – loyihalash: o‘qituvchi maqsad, natija, faoliyat turi, raqamli resurs va baholash mezonlarini bir butun metodik xaritada ifodalaydi. To‘rtinchi bosqich – amaliy sinov: ishlab chiqilgan dars elementi, interaktiv topshiriq yoki loyiha real yoki simulyatsion muhitda sinab ko‘riladi. Beshinchi bosqich – monitoring: talaba yoki o‘quvchi faoliyati, javoblar sifati va faollik ko‘rsatkichlari raqamli analitika asosida tahlil qilinadi. Oltinchi bosqich – refleksiya va takomillashtirish: o‘qituvchi portfolioga dalillar joylaydi, kamchiliklarni aniqlaydi va metodik yechimni qayta ishlab chiqadi.

Didaktik vositalar. Ushbu texnologiyada keys-stadi, mikrota'lim, loyiha usuli, raqamli hikoyalash, muammoli vaziyat, o‘zaro baholash va darsni qayta loyihalash metodlari ustuvor o‘rin tutadi. Dasturiy vositalar esa maqsadga bo‘ysundiriladi: masalan, test platformasi faqat nazorat uchun emas, balki xatolar tahlili va individual tavsiya uchun; forum faqat muloqot uchun emas, balki dalillangan fikr bildirish va hamkorlikda yechim ishlab chiqish uchun; e-portfolio esa faqat fayl jamlash uchun emas, balki kasbiy o‘sishni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi [3; 4].

Baholash mezonlari. Metodik kompetentlikning rivojlanganlik darajasi to‘rt mezon orqali aniqlanadi: motivatsion mezon – raqamli pedagogikaga qiziqish va kasbiy ehtiyojni anglash; kognitiv mezon – metod, pedagogik dizayn, raqamli baholash va o‘quv natijasi haqidagi bilimlar; operatsion mezon – dars ssenariysi, interaktiv topshiriq, rubrika va raqamli kontent yaratish ko‘nikmalari; refleksiv-analitik mezon – o‘z amaliyotini ma'lumotlar asosida tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati. Har bir mezon boshlang‘ich, reproduktiv, konstruktiv va ijodiy darajalar orqali baholanadi.

Sun'iy intellektdan foydalanish chegaralari. Sun'iy intellekt metodik kompetentlikni rivojlantirishda dars ssenariysi variantlarini taklif qilish, test savollarini tahlil qilish, o‘quvchining xatolariga mos tavsiyalar berish va portfoliodagi dalillarni tizimlashtirish kabi funksiyalarni bajarishi mumkin. Shu bilan birga, akademik halollik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik xolislik va mualliflik mas'uliyati doimiy nazoratda bo‘lishi kerak. Raqamli ta'minot o‘qituvchi o‘rnini bosmaydi; u o‘qituvchining metodik qarorini asoslash va tezkor qayta aloqa berishga yordam beradi [5; 6].

Kutiladigan natija. Mazkur texnologiya qo‘llanganda o‘qituvchi darsni maqsadli loyihalash, raqamli resursni didaktik vazifaga mos tanlash, ta'lim oluvchining faolligini oshirish, baholash mezonlarini aniq belgilash va o‘z amaliyotini dalillarga asoslanib yangilashga o‘rganadi. Bo‘lajak pedagoglar uchun esa bu texnologiya o‘quv jarayonida yaratilgan metodik mahsulotlarni portfolioga jamlash, tajribani tahlil qilish va kasbiy o‘sish xaritasini tuzish imkonini beradi.

Xulosa. Raqamli dasturiy-didaktik ta'minot asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi raqamli vositalarni maqsadsiz qo‘llashdan ko‘ra, ularni pedagogik dizayn, faoliyatli o‘qitish va mezonli baholash bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Texnologiyaning samaradorligi dasturiy platformalar soni bilan emas, balki o‘qituvchining metodik muammoni ko‘ra olishi, raqamli yechimni asoslay olishi va natijani refleksiv baholay olishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

[1] Koehler M.J., Mishra P. What Is Technological Pedagogical Content Knowledge? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. 2009. Vol. 9, No. 1. P. 60–70.

[2] Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

[3] Darling-Hammond L., Bransford J. Preparing Teachers for a Changing World. San Francisco: Jossey-Bass, 2005.

[4] Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009.

[5] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

[6] Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

KONSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA RAQAMLI TA’LIMNI TASHKIL ETISH MODELLARI

Ro‘ziqulov Sa’dulla Egamnazar o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti qoshidagi akademik litseyi

sadullaro9@gmail.com

Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda samarali foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta’lim jarayonini innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida modellashtirishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli pedagogika sharoitida o‘quv jarayonini faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va korreksiyalovchi tizim sifatida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmonida ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan tarmoqlarini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategik vazifalar oliy ta’limda konsentrik yondashuv asosida raqamli ta’lim modellarini ishlab chiqish va ularni sun’iy intellekt, ta’lim analitikasi hamda adaptiv dasturiy vositalar bilan integratsiyalash zaruratini kuchaytiradi.

Konsentrik yondashuvning mohiyati shundan iboratki, o‘quv materiali bir marta o‘rganilib yakunlanmaydi, balki keyingi bosqichlarda yanada murakkabroq, chuqurroq va amaliy jihatdan boyitilgan holda qayta o‘zlashtiriladi. Bunday yondashuv talabalarda bilimlarning uzoq muddatli saqlanishi, amaliy faoliyatga tatbiq etilishi hamda kasbiy intellektning bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik modellashtirish nuqtayi nazaridan konsentrik ta’lim modeli maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligiga asoslanadi.

Maqsad komponenti talabaning kasbiy intellektini – kognitiv, operatsion, refleksiv va kreativ qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Mazmun komponenti esa o‘quv materialining chiziqli emas, balki takroriy va chuqurlashtirilgan tuzilishini ta’minlaydi. Metodlar komponentida muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, tadqiqotchilik, evristik izlanish va interfaol simulyatsiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Vositalar komponenti raqamli platformalar, adaptiv o‘quv ilovalari, sun’iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar, virtual laboratoriyalar va ta’lim analitikasi modullarini o‘z ichiga oladi. Natija komponenti esa talabaning kasbiy kompetensiyasi, intellektual faolligi, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ muammolarni hal etish ko‘nikmalari orqali baholanadi.

Ta’lim nazariyasida konsentrik yondashuvga yaqin bo‘lgan spiral model J. Bruner tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, unda o‘quvchi yoki talaba bir xil tayanch g‘oyalarga qayta-qayta murojaat qiladi, biroq har safar yuqoriroq kognitiv darajada fikrlaydi [2]. Bu model talabaning bilimlarini oddiy eslab qolish darajasidan tahlil, sintez va baholash darajasiga olib chiqadi. Shu jihatdan spiral model zamonaviy oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta’lim va raqamli ta’lim platformalari bilan uyg‘unlashadi.

Zamonaviy sharoitda eng samarali yondashuvlardan biri modular-konsentrik model hisoblanadi. Bu model kredit-modul tizimi bilan konsentrik yondashuvni uyg‘unlashtiradi. Har bir modul mantiqiy tugallangan o‘quv birligi sifatida shakllantiriladi, ammo keyingi modullarda avvalgi bilimlar yangi kasbiy vaziyatlar, murakkab amaliy topshiriqlar va loyihalar orqali qayta faollashtiriladi. Natijada talaba bilimni yodlab olish bilan cheklanmaydi, balki uni yangi vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va ijodiy qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli muhitda konsentrik yondashuvning samaradorligi adaptiv ta’lim tizimlari orqali yanada ortadi. Bunday tizimlarda talabaning test javoblari, topshiriqni bajarish vaqti, xato qilish chastotasi, o‘qish tezligi va amaliy faoliyat natijalari real vaqt rejimida qayd etiladi. To‘plangan ma’lumotlar asosida tizim talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, unga mos navbatdagi topshiriq yoki o‘quv materialini tavsiya etadi. Shute va Zapata-Rivera adaptiv ta’lim tizimlarini talabaning individual xususiyatlarini muntazam monitoring qilib, ta’lim muhitini avtomatik moslashtiruvchi murakkab pedagogik-texnologik tizim sifatida talqin qiladi [3].

Konsentrik raqamli ta’lim modelida ta’lim analitikasi va real-time feedback muhim o‘rin tutadi. Learning Analytics va Educational Data Mining texnologiyalari talabaning o‘quv faoliyatiga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va o‘qituvchi hamda talabaga tezkor tahliliy axborot berish imkonini yaratadi [4]. Natijada baholash faqat yakuniy nazorat shaklida emas, balki uzluksiz diagnostika, monitoring va korreksiya jarayoni sifatida tashkil etiladi. Bu esa talabaning bilimdagi bo‘shliqlarini o‘z vaqtida aniqlash va uni konsentrik spiralning mos bosqichiga qaytarish imkonini beradi.

Konsentrik yondashuvni raqamli ta’limda samarali qo‘llashda geymifikatsiya elementlari ham muhim ahamiyatga ega. Ball, reyting, daraja, elektron nishon, missiya va bosqichli topshiriqlar talabaning o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Ayniqsa, murakkab kasbiy vazifalar bilan ishlashda geymifikatsiya xatoni salbiy holat sifatida emas, balki keyingi bosqichga o‘tish uchun tahlil qilinadigan tajriba sifatida qabul qilishga yordam beradi. Bu esa refleksiv fikrlash, muammoga kreativ yondashish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy chiziqli o‘qitish modeli bugungi raqamli ta’lim ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Chunki bunday modelda individual yondashuv, moslashuvchan murakkablik, uzluksiz monitoring va tezkor qayta aloqa imkoniyatlari cheklangan. Konsentrik yondashuv esa raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, ta’lim analitikasi va adaptiv dasturiy ta’minot bilan integratsiyalashganda talabaning kasbiy intellektini bosqichma-bosqich, tizimli va individual tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, konsentrik yondashuv asosida raqamli ta’limni tashkil etish modeli oliy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali metodik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur model o‘quv mazmunining takroriy va chuqurlashtirilgan o‘zlashtirilishini, individual ta’lim trayektoriyasini, adaptiv topshiriqlarni, real vaqtli monitoringni hamda kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan faoliyatni yagona tizimda birlashtiradi. Shu bois konsentrik yondashuvga asoslangan raqamli ta’lim modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish sun’iy intellektga asoslangan raqamli pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

[2] Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

[3] Shute V.J., Zapata-Rivera D. Adaptive Educational Systems // Adaptive Technologies for Training and Education. – Cambridge University Press, 2012. – P. 7–27.

[4] Baker R.S., Inventado P.S. Educational Data Mining and Learning Analytics // Learning Analytics. – New York: Springer, 2014. – P. 61–75.

[5] Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2(1). – P. 3–10.

INKLYUZIV FIZIKA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBALAR TAHLILI

Sattorov Komronbek Samadjon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
Email: kamronbeksattorov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda inklyuziv ta’lim muhitida fizika fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari hamda mamlakatimizdagi hozirgi holat qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, kognitiv kompetensiya, fizika o‘qitish metodikasi, STEM yondashuvi, ta’limda universal dizayn (UDL), virtual laboratoriyalar, moslashtirilgan ta’lim.

Zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri bu - har bir bola, uning jismoniy va intellektual xususiyatlaridan qat’iy nazar, sifatli ta’lim olish huquqini amalda ta’minlashdir. Fizika fani o‘zining abstrakt tushunchalari, murakkab matematik apparati va chuqur mantiqiy fikrlashni talab qilishi bilan maktab kursidagi eng murakkab fanlardan sanaladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar ishtirok etadigan inklyuziv sinflarda fizika o‘qitish faqatgina ma’lumot uzatish emas, balki kognitiv kompetensiyalarni maqsadli rivojlantirishni talab etadi.

AQSh, Finlyandiya va Germaniya kabi ta’lim tizimi ilg‘or mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratsak, inklyuziv fizika ta’limida asosiy urg‘u “Ta’limda universal dizayn” tamoyiliga qaratilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu yondashuv fanni o‘zlashtirishdagi to‘siqlarni oldindan hisobga olib, barcha uchun moslashuvchan o‘quv dasturlarini yaratishni ko‘zda tutadi[1]. Xorij tajribasida kognitiv qobiliyatlarni o‘stirish uchun axborot texnologiyalari va STEM elementlaridan keng foydalaniladi. Xususan, PhET, Vascak kabi interaktiv virtual laboratoriyalar fizika darslarida beqiyos o‘rin tutadi. Misol uchun, magnit maydoni xossalari kabi ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan mavhum jarayonlarni o‘rganishda virtual simulyatsiyalar o‘quvchiga jarayonni manipulyatsiya qilish, o‘zgaruvchilarni o‘zgartirib ko‘rish va natijani vizual tarzda qabul qilish imkonini beradi. Bu esa kognitiv yuklamani kamaytirib, ma’lumotni xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishini ta’minlaydi[2]. Shuningdek, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun 3D formatda chop etilgan taktil modellar va tovushli datchiklarga ega laboratoriya uskunalaridan foydalanish amaliyoti ham o‘zining yuqori samarasini ko‘rsatgan[3]. Masalan, Yaponiyaning “Diversified Learning Schools” modeli maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun individual o‘qish tezligi va moslashuvchan jadvallarni taklif etadi. Indoneziyalik tadqiqotchi Wijaya tomonidan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalariga ko‘ra, fizikadan ko‘p sezuvli (multi-sensory) media elementlaridan foydalanish o‘quvchilar natijasini 27.7% ga oshirgan[4]. Bu dars materiallarining vizual, eshitish va kinestetik elementlar bilan boyitilishi inklyuziv sinflarda samaradorlikning asosiy kaliti ekanini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Maxsus konsepsiyalar qabul qilinib, umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar ochilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Ta’lim kodeksi bilan

inklyuzivlik huquqiy jihatdan kafolatlangan[5; 6]. 2023-2024 o‘quv yili boshiga kelib, respublikadagi 530 ta maktabda inklyuziv ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 1 195 nafar maxsus ehtiyojli o‘quvchi oddiy sinflarda tahsil olmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida 342 nafar bolada ijtimoiy moslashish 90.4% ga, ko‘nikmalar esa 97.8% ga yaxshilangan. Bu kabi muvaffaqiyatlar tizimli metodik qo‘llanmalar va o‘qituvchilarning muntazam malaka oshirish kurslari bilan mustahkamlanmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mahalliy maktablarda fizika darslari asosan an’anaviy – “qoida va formulalarni yodlash, masalalar yechish” algoritmiga asoslangan [7]. Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tabaqalashtirilgan yondashuv ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Asosiy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun fizika darsliklarining moslashtirilgan variantlari mavjud emas.

Mavjud an’anaviy laboratoriya uskunalari turli ehtiyojli bolalar mustaqil ishlashi uchun moslashmagan, bu esa ularning darsdagi amaliy qatnashuvini pasaytiradi.

Umumta’lim maktablaridagi fizika o‘qituvchilari inklyuziv ta’lim psixologiyasi va defektologiya asoslari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar.

Xorijiy amaliyotning ilg‘or jihatlarini respublikamizning milliy xususiyatlari va maktablarimizning moddiy-texnik bazasiga moslashtirgan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir. Maktablarimizdagi nazariy bilimlarni chuqur berish an’anasini saqlab qolgan holda, uni interaktiv vositalar bilan boyitish lozim[8]. O‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagilarni amaliyotga tadbiq etish taklif qilinadi:

Fizika darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va STEM yondashuvini qo‘llashni tizimlashtirish.

“Peer-to-peer” o‘qitish modelini rag‘batlantirish. Guruhlarga bo‘lib ishlash jarayonida inklyuziv sinfdagi barcha bolalarning o‘zaro tajriba almashishi ularning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fizika o‘qituvchilari uchun inklyuziv ta’lim sharoitida ishlash bo‘yicha qisqa muddatli, ammo maqsadli malaka oshirish kurslarini joriy etish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, inklyuziv fizika ta’limi shunchaki bolani sinfga kiritib qo‘yish bilan cheklanmaydi. U o‘qituvchidan dars materialini shunday konstruksiya qilishni talab etadiki, natijada har bir o‘quvchi fizika qonuniyatlarini o‘zining individual intellektual imkoniyatlari doirasida tushunib yetsin. Xorijiy tajribadan olingan innovatsion va texnologik yondashuvlarni mahalliy ta’lim tizimimizga to‘g‘ri integratsiya qilish orqali biz nafaqat o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini orttiramiz, balki ularning kundalik hayotda asqotadigan muhim kognitiv va tahliliy ko‘nikmalarini ham shakllantiramiz.

ADABIYOTLAR

1. Wieman C. E., Adams W. K., Loeblein P., Perkins K. K. Teaching Physics Using PhET Simulations // The Physics Teacher. – 2010. – Vol. 48, № 4. – P. 225–227.

2. Perkins, K., Adams, W., Dubson, M., Finkelstein, N., Reid, S. “PhET: Interactive Simulations for Teaching and Learning Physics.” The Physics Teacher, 44(1), P. 18–23.

3. Meyer A., Rose D. H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield : CAST Professional Publishing, 2014. 216 p.

4. Wijaya A. The Role of Multi-Sensory Media in Enhancing Cognitive Competencies in Physics for Students with Special Needs // Journal of Physics: Conference Series. 2017. Vol. 812, № 1.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–641. 15.10.2020. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ–4860. 13.10.2020. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. European Agency for Development in Special Needs Education. Profile of Inclusive Teachers. Odense, 2012.

8. Jo‘rayev R., Suyarov K.T. Umumta’lim maktablarida fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent : Noshir, 2018.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Umbarov A.U.[1]

[1] – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni raqamli pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘lanmoqda. Ayniqsa fizika ta’limida murakkab tushunchalar, tajribalar va modellarni o‘zlashtirishda talabaning individual ehtiyoji, bilish uslubi, mustaqil izlanish darajasi hamda refleksiv faolligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektromagnetizm bo‘limi bo‘lajak fizika o‘qituvchisidan nafaqat nazariy bilim, balki tajriba natijalarini tahlil qilish, jarayonlarni modellashtirish, dars ssenariysini loyihalash va baholash mezonlarini tanlay olish kabi metodik ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Shu bois raqamli vositalar bilan qo‘llab-quvvatlangan individual ta’lim trayektoriyasi talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmi sifatida qaraladi [1].

Mazkur tezisning maqsadi individual ta’lim trayektoriyasi asosida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni raqamli pedagogika talablari nuqtayi nazaridan asoslashdan iborat. Tadqiqot mazmunida metodik kompetentlik talabaning o‘quv materialini didaktik qayta ishlash, dars maqsadlarini belgilash, ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faolligini qo‘llab-quvvatlash va natijalarni obyektiv baholashga doir kasbiy-metodik tayyorgarligi sifatida talqin qilindi. Individual ta’lim trayektoriyasi esa talabaning boshlang‘ich bilim darajasi, qiziqishi, o‘zlashtirish sur’ati, kasbiy maqsadi va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojlariga mos o‘quv yo‘lini loyihalash jarayoni sifatida belgilandi.

Metodikaning asosiy g‘oyasi diagnostika, individual rejalashtirish, raqamli resurslardan foydalanish, amaliy-topshiriqli faoliyat, refleksiya va yakuniy baholash bosqichlarini yagona tizimga birlashtirishdan iborat. Kirish diagnostikasi bosqichida talabalarning elektromagnetizm bo‘yicha tayanch bilimlari, masala yechish tajribasi, laboratoriya ko‘nikmalari hamda metodik qaror qabul qilishga tayyorligi aniqlanadi. Individual rejalashtirishda har bir talaba uchun reproduktiv, produktiv, ijodiy va kommunikativ topshiriqlar ketma-ketligi belgilanadi. Raqamli bosqichda PhET interaktiv simulyatsiyalari, virtual laboratoriyalar, elektron testlar, onlayn platformalar va taqdimot resurslari yordamida elektr va magnit hodisalar vizuallashtiriladi, tajriba natijalari real vaqt rejimida tahlil qilinadi hamda talabaning shaxsiy o‘quv faoliyati monitoring qilinadi [2].

Taklif etilgan yondashuvda metodik kompetentlikning motivatsion-kognitiv, faoliyatli-refleksiv, aksiologik-kreativ va deontologik komponentlari o‘zaro bog‘liq holda rivojlantiriladi. Motivatsion-kognitiv komponent talabaning kasbiy qiziqishi, fan mazmunini anglash darajasi va o‘qitish metodlarini ongli tanlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Faoliyatli-refleksiv komponent amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, keyslar va loyiha topshiriqlari orqali shakllanadi. Aksiologik-kreativ komponent innovatsion didaktik yechimlarni taklif qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o‘quv materialini ijodiy moslashtirishni nazarda tutadi. Deontologik

komponent esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mas’uliyati, pedagogik muloqot madaniyati va ta’lim jarayonida axloqiy me’yorlarga amal qilishini ta’minlaydi.

Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda individual trayektoriya mazmuni mavzularning murakkablik darajasi va talabaning tayyorgarligiga moslashtiriladi. Masalan, elektr maydoni, potensiallar farqi, tok kuchi, magnit induksiya, elektromagnit induksiya va o‘zgaruvchan tok mavzulari bo‘yicha dastlab tayanch tushunchalarni mustahkamlashga qaratilgan masalalar beriladi. Keyingi bosqichda virtual laboratoriya va simulyatsiya asosida tajriba parametrlarini o‘zgartirish, natijalarni grafik talqin qilish, real dars uchun kuzatish savollari va baholash rubrikalarini ishlab chiqish topshiriladi. Yakuniy bosqichda talaba tanlangan mavzu bo‘yicha qisqa dars ishlanmasi, metodik tavsiya yoki loyiha taqdimoti tayyorlaydi. Bunday topshiriqlar talabalarning bilish faolligini oshiradi, o‘zlashtirish jarayonini individuallashtiradi va metodik qarorlarni asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi [3].

Metodikaning samaradorligini baholashda kirish diagnostikasi, formativ monitoring, modul yakunlari va summativ baholashdan foydalanildi. Baholash indikatorlari sifatida motivatsiya, nazariy tushunchalarni qo‘llay olish, tajribani modellashtirish, metodik topshiriqni loyihalash, refleksiv tahlil va mustaqil xulosa chiqarish ko‘rsatkichlari tanlandi. Talabalar faoliyati portfel, test, amaliy ish, loyiha taqdimoti va o‘z-o‘zini baholash varaqalari orqali nazorat qilindi. Ushbu yondashuv talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki uning individual rivojlanish dinamikasini ham aniqlashga imkon berdi. Raqamli monitoring ma’lumotlari asosida har bir talaba uchun qisqa tavsiyalar berildi, murakkab mavzular bo‘yicha qayta ishlash topshiriqlari taklif qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat universiteti va Navoiy davlat universitetida “Fizika va astronomiya” yo‘nalishida tahsil olayotgan jami 490 nafar talaba ishtirokida amalga oshirilgan. Tajriba guruhi 248 nafar, nazorat guruhi 242 nafar talabadan iborat bo‘lib, yakuniy natijalar Xi-kvadrat mezoni asosida tahlil qilingan. Tajriba guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 3,87 ni, nazorat guruhida 3,49 ni tashkil etgan; integral samaradorlik 10,85 % ga teng bo‘lgan. Ushbu natijalar individual ta’lim trayektoriyasi, raqamli vositalar va refleksiv monitoring uyg‘unligi talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda amaliy jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatadi [4].

Xulosa qilib aytganda, raqamli pedagogika sharoitida bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik kompetentligini rivojlantirish individual ta’lim trayektoriyasini puxta loyihalash, elektromagnetizm mazmunini zamonaviy raqamli resurslar bilan boyitish va talabalar faoliyatini muntazam refleksiv baholash orqali samarali tashkil etiladi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini shaxsiylashtiradi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytiradi, talabalarda mustaqil fikrlash, tajriba natijalarini asoslash, darsni metodik loyihalash va kasbiy mas’uliyatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kelgusida ushbu metodikani sun’iy intellektga asoslangan adaptiv tavsiya tizimlari, o‘quv analitikasi va avtomatlashtirilgan diagnostika modullari bilan uyg‘unlashtirish raqamli pedagogika imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Adabiyotlar:

[1] Umbarov A.U. Talabalarning metodik kompetentligini virtual laboratoriya va simulatsiyalar orqali rivojlantirish metodikasi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2025. №9. – B. 283–290.

[2] Tursunov I.G., Umbarov A.U. Individual ta’lim trayektoriyasi asosida elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi // Academic Research in Educational Sciences. 2024. Vol. 5, Issue 11. – B. 123–129.

[3] Tursunov I.G., Umbarov A.U., Xudoyberdiyeva Y.X. Elektr va magnetizm. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: SARBON LLS, 2024. – 186 b.
[4] Umbarov A.U. Methodology for organizing independent learning in mastering the electromagnetism unit based on an individual learning trajectory for prospective physics teachers // Educator Insights: A Journal of Teaching Theory and Practice. 2025. Vol. 01, Issue 10. – P. 164–178.

TPACK MODELI ASOSIDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARINI INTEGRATSIYALASH VA TALABALAR ANALITIK FIKRLASHIGA TA’SIRI

Urolov G‘ulom Berdiyor o‘g‘li

TATU Akademik litseyi matematika o‘qituvchisi
e-mail: gulomurolov95@gmail.com

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadal kechmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv jarayoniga keng joriy etilishi ta’lim sifatini tubdan yaxshilash imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq texnologiyalarni ta’limga kiritishning o‘zi yetarli emas pedagogik samaradorlikka erishish uchun ilmiy asoslangan metodologik yondashuv zarur. Aynan shu nuqtada TPACK modeli muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli ta’lim resurslarini integratsiyalash talabalarning yuqori darajadagi kognitiv faoliyatini, xususan analitik fikrlashini, rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Analitik fikrlash murakkab axborotni tahlil qilish, muhimini ajratish, mantiqiy xulosa chiqarish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatidan iborat murakkab kognitiv jarayon sifatida zamonaviy ta’lim natijalarining eng ustuvor ko‘rsatkichlaridan biriga aylangan.

TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) Mishra va Koehler tomonidan 2006-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchi kompetensiyasini uch asosiy tarkibiy qism asosida talqin etadi: mazmuniy bilim, pedagogik bilim va texnologik bilim [1]. Ushbu uch komponentning o‘zaro kesishishidan hosil bo‘ladigan integratsion bilim – TPACK – ta’limda texnologiyani samarali qo‘llashning asosiy shartidir. Modelning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, texnologiyalarni ta’limga muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘qituvchi faqat texnik vositalarni bilishning o‘zi yetarli emas. U o‘qitiladigan mazmunni chuqur bilishi, tegishli pedagogik metodlarni mohirlik bilan qo‘llay olishi va ushbu ikki komponentni texnologik bilim bilan uyg‘unlashtira olishi lozim. TPACK modelida uch asosiy komponentning kesishgan sohalari – pedagogik-mazmuniy bilim, texnologik-mazmuniy bilim va texnologik-pedagogik bilim – hamda ularning yaxlit integratsiyasi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

Raqamli ta’lim resurslari didaktik nuqtai nazardan turli turlarga bo‘linadi: statik resurslar, interaktiv resurslar, adaptiv resurslar va ochiq ta’lim resurslari. Raqamli ta’lim resurslarini TPACK modeli asosida integratsiyalash ushbu kognitiv bosqichlarga erishishda muhim didaktik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Xususan, mazmuniy komponent talabaning tahlil qiladigan bilimlari doirasini belgilaydi; pedagogik komponent muammoga asoslangan o‘qitish, “teskari sinf” modeli va tadqiqotga asoslangan o‘qitish kabi yondashuvlar orqali analitik fikrlashni rag‘batlantiradi; texnologik komponent esa interaktiv simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va adaptiv platformalar orqali bu jarayonni texnologik jihatdan ta’minlaydi.

O‘zbek pedagogikasi sohasida O‘.Q.Tolipov va D.I.Ro‘ziyevaning tadqiqotlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini differensiallashtirish va har bir talaba uchun optimal sharoitlar yaratish tamoyillariga asoslanishi ta’kidlangan [2]. Ushbu

tamoyillar zamonaviy raqamli muhitda TPACK modeli doirasida amalga oshirilayotgan integratsion yondashuvlarning pedagogik asosini tashkil etadi.

TPACK modeli asosida raqamli ta’lim resurslarini integratsiyalashning analitik fikrlashga ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, mazmuniy integratsiya talabaning tahliliy faoliyatini faollashtirib, bilimlarni passiv o‘zlashtirishdan faol konstruksiyalashga o‘tishni ta’minlaydi. Ikkinchidan, pedagogik integratsiya muammoga asoslangan yondashuvlar orqali talabalarda muammoni komponentlarga ajratish, sabab-natija bog‘liqliklarini aniqlash va mantiqiy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, texnologik integratsiya interaktiv va adaptiv resurslar orqali talabaning individual o‘zlashtirish sur’atiga mos holda analitik vazifalarning kognitiv murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish imkonini beradi. Sh. Qaxxorova tomonidan olib borilgan mahalliy tadqiqotda Al-Xorazmiy algoritmlarining analitik fikrlashni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan bo‘lib, algoritmik yondashuv – izchillik, aniqlik, samaradorlik va universallik xususiyatlari – analitik fikrlash jarayonining muhim mezonlari bilan bevosita uyg‘unligini ko‘rsatilgan [3]. Bu yondashuv TPACK modelidagi texnologik-pedagogik bilim komponenti bilan organik tarzda uyg‘unlashib, raqamli muhitda analitik fikrlashni rivojlantirishning milliy pedagogik an’analarga asoslangan modelini boyitadi.

Raqamli ta’lim resurslari integratsiyasida kuzatuvchanlik xususiyati alohida didaktik ahamiyatga ega. Learning Management System (LMS) platformalari talabaning barcha o‘quv faoliyatini – kirish vaqti, materiallari bilan ishlash davomiyligi, topshiriqlarni bajarish jarayoni – avtomatik ravishda qayd etadi. Ushbu ma’lumotlar asosida o‘qituvchi real vaqt rejimida monitoring olib borish, analitik fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasini kuzatish va o‘quv jarayonini tezkor moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. M. Ergashev tadqiqotida muammoga yo‘naltirilgan va interaktiv metodlarni raqamli muhitda qo‘llash analitik fikrlashni rivojlantirishda eng samarali yondashuv ekanligi empirik jihatdan tasdiqlangan [4]. Shunday qilib, TPACK modeli asosida raqamli ta’lim resurslarini integratsiyalash talabalar analitik fikrlashiga quyidagi mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi: mazmuniy boyitish va bilimlarni faol konstruksiyalash; pedagogik metodlarning diversifikatsiyasi va muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish; texnologik vositalar orqali analitik faoliyatni kuzatish va individual moslashtirish. Ushbu uch mexanizmning birligi raqamli muhitda analitik fikrlashni rivojlantirishning yaxlit, tizimli va ilmiy asoslangan modelini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. TPACK modeli raqamli ta’lim resurslarini integratsiyalashning eng ishonchli nazariy-metodologik asoslaridan biri bo‘lib, mazmuniy, pedagogik va texnologik bilimlarning uyg‘unlashuvi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli ta’lim resurslarini TPACK modeli doirasida integratsiyalash Bloom taksonomiyasining yuqori kognitiv bosqichlariga – tahlil, sintez va baholash – erishishni ta’minlab, talabalar analitik fikrlashini maqsadli rivojlantiradi. Kuzatuvchanlik va individual monitoring mexanizmlari esa ushbu jarayonni tizimli boshqarish imkonini beradi. Mahalliy pedagogik an’analar – algoritmik yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – zamonaviy TPACK modeli bilan uyg‘unlashtirilganda raqamli muhitda analitik fikrlashni rivojlantirishning milliy modelini boyitadi.

Adabiyotlar:

[1] Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

[2] Tolipov O‘.Q., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016. – 199 b.

[3] Qaxxorova Sh. Analitik fikrlashni rivojlantirishda Al-Xorazmiy algoritmlari va ularning pedagogik ahamiyati // ICEDH xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Moskva, 2025. – B. 27–32.

[4] Ergashev M.E. Talabalarda differensial tenglamalarga oid analitik fikrlashni rivojlantirish // New Renaissance: International Scientific Journal. – 2025. – 3(2). – B. 783–787.

EXPLANATION OF THE PHENOMENON OF OPTICAL INTERFERENCE ON THE SURFACE OF ERYTHROCYTES USING INTERACTIVE METHODS.

Khomidjonov Jaxongir Isroiljonovich[1], Ergasheva Iroda Islamjon qizi[2]

Chirchik State Pedagogical University
Physics teacher at School No. 86, Yunusabad district, Tashkent city

Abstract. This thesis discusses the possibilities of using the “Brainstorming” method in teaching the phenomenon of optical interference on the surface of human erythrocytes. In the study, blood smears applied to glass and metal substrates were observed under a Neophot-2 microscope, and the formation of colored interference images on metal surfaces was explained. It was shown that the interactive method increases students' interest in the subject, independent and creative thinking, and provides more effective results compared to traditional teaching.

Keywords: *brainstorming, optical interference, erythrocyte, blood smear, Neophot-2, medical physics, biological sample, interactive method, microscopy.*

Introduction. Nowadays, in the teaching of medical physics and medical technology, it is important to connect theoretical knowledge with practical experiments. Explaining biological objects based on physical phenomena increases students' interest in science and serves to form their professional competencies. In this regard, the study of the phenomenon of optical interference on the surface of human erythrocytes is one of the topical topics that ensures the integration of medical and physical sciences. Erythrocytes perform the function of delivering oxygen to tissues in the body and returning carbon dioxide to the lungs. Studying their morphological state is important for medical diagnostics. In traditional microscopy, chemical dyes are used to obtain color images, which can affect the natural structure of the sample. The method based on optical interference allows observing the surface of erythrocytes without chemical treatment.

Explaining this topic through the "Brainstorming" method encourages students to think freely, seek answers to questions, connect scientific concepts, and draw independent conclusions.

Research methodology. The “Brainstorming” method is one of the interactive teaching methods based on a problem situation. In this method, students freely express their opinions on a given question or problem. During the process, opinions are not criticized, but are summarized, grouped and analyzed. As a result, the most correct and reasonable answers on the topic are formed. The following stages were used in applying this method: - asking a problematic question; listening to and summarizing students' opinions; grouping the expressed opinions; choosing the scientifically based correct answer; drawing a general conclusion on the topic.


During the lesson, the following questions were asked to the students:

№	Question	Short answer content
1.	What is an erythrocyte and what is its function?	Erythrocytes are red blood cells that deliver oxygen to tissues and carry carbon dioxide to the lungs.
2.	What is the phenomenon of light interference?	Coherence is the phenomenon of amplification or attenuation resulting from the addition of light waves.
3.	How is interference observed on the surface of erythrocytes?	When a blood smear is applied to a metal plate and observed under a microscope under white light, a colored interference image is formed.
4.	What causes erythrocytes to appear colored?	White light, a metal base, and the unevenness of the erythrocyte surface create interference colors.

5.	What is the purpose of studying this phenomenon?	To study the possibilities of diagnosing diseases quickly, cheaply, and without additional chemical treatment.

These questions serve to activate students' initial knowledge of the topic, connect a physical phenomenon with a biological object, and guide them toward independent thinking.

Scientific content of the topic. In the study, human blood erythrocytes were observed on glass and metal substrates. On a regular glass substrate, erythrocytes appear mostly colorless or with poor contrast. On a metal substrate, colored interference images are formed on the surface of erythrocytes under the influence of white light. This phenomenon is explained by the unevenness of the erythrocyte surface, the light-reflecting properties of the metal surface, and the mutual interference of different wavelengths in white light. White light consists of different colors, and each color has its own wavelength and frequency. The elevations and depressions on the surface of the erythrocyte create different optical path differences. As a result, some waves are amplified, while others are attenuated, and the erythrocytes appear in color.



Such a color interference image can provide information about the surface structure, shape, and morphological state of erythrocytes. In the future, this approach may be important for analyzing biological and medical samples without additional chemical dyes, for early detection of certain diseases, and for improving inexpensive diagnostic methods.

Analysis and results. In the study, to determine the effectiveness of the lesson, students were divided into control and experimental groups. In the control group, the lesson was organized according to the traditional method, and in the experimental group, based on the “Brainstorming” method. In the control group, 3 students received a “5”, 8 students received a “4”, 13 students received a “3” and 4 students received a “2”. The overall mastery was 25%. In the experimental group, 7 students received a “5”, 9 students received a “4”, 11 students received a “3”, and no “2” was observed. The overall mastery reached 33.3%. The results showed that the “Brainstorming” method actively involved students in the lesson and developed independent thinking and scientific analysis skills. The result of the experimental group was 8.3 percentage points higher than that of the control group.

Conclusion. The study of the phenomenon of optical interference on the surface of human erythrocytes is of important scientific and practical importance for medical physics. Obtaining a color interference image of erythrocytes on metal substrates allows us to observe their surface structure and morphological state without chemical treatment. Teaching the topic using the “Brainstorming” method develops students' interest, independent thinking, and scientific approach. The results of the experiment showed that interactive methods are effective in improving the quality of education and student competence.

References.

1. Владимиров Ю.А., Потапенко А.Я. Физико-химические основы фотобиологических процессов. Москва: Дрофа, 2006.

2. Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi. I tom. Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

3. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

4. Umarov S.X., Bozorov E.X., Jabborova O.I. Tibbiy texnika va yangi tibbiy texnologiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

5. Khomidjonov J.I., Bozorov E.Kh. va boshqalar. Teaching methodology of infrared light absorption in living tissues. NeuroQuantology, 2022.

6. Avezov A.X., Amrullayeva A.N., Namozova M.M. “Aqliy hujum” va “keys study” metodlari yordamida “funksiya hosilasi” mavzusini o‘qitish. Scientific Progress, 2021.

IMPROVEMENT OF TEACHING METHODOLOGY OF MEDICAL PHYSICS BASED ON MEDIA EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

J.I. Khomidjonov

Chirchik State Pedagogical University

In the information age, science and technology progress has reached a high level. Similarly, all areas are developing rapidly. Today, it is difficult to imagine the activities of any industry without information and communication technologies. In particular, it is becoming one of the important factors in the education of the young generation. Electronic means of communication, the Internet, satellites are creating the ground for the development of mass media at an unprecedented pace.

Media education serves to improve the quality of education, enhance the information culture of students, and effectively deliver educational materials through modern technical means. It arouses interest in science in students and helps them to deeply master the topics.

The main goal of media education is to teach the language of media information, to form the skills of perceiving, analyzing, and consciously using media texts. Media pedagogy plays an important role in this process. It is a modern pedagogical technology that guides students to creative thinking using the Internet, television, radio, cinema, video, and audio materials.

Today, the structural components of media education technologies, which are rapidly developing, include the following:

- electronic textbook; - electronic educational methodical sets; - electronic educational literature; - electronic encyclopedias; - educational and presentation programs; - educational-multimedia; - virtual laboratory; - multimedia resource; - curriculum electronic materials.

Creation of electronic textbooks using information technologies in media education, electronic textbooks are very important in increasing the effectiveness of lectures in medical physics today, its visuality, systematicity, and in addition, in embodying some parts of the lesson before the student's eyes. has methodological and didactic importance. The main purpose of using electronic textbooks is to provide students with complete and accurate course materials in a short period of time, to organize students' independent work, and to increase their interest in science. The electronic textbook is intended for the application of the educational method based on computer technology, independent education, and the effective assimilation of educational materials and scientific information related to science: educational and scientific materials only in verbal (text) form; educational materials in verbal (text) and two-dimensional graphic form; multimedia (multimedia - multi-information) manuals, that is, information in three-dimensional graphic form, sound, video, animation, and partially verbal (text) form; tactile (felt, perceptible) characteristic, it is expressed in a form that allows the student to enter the real world depicted by a stereo copy in the "screen world" and create an imagination of movement in relation to the objects in it.

Today, the number of electronic textbooks prepared in the field of medical physics is not at the level of meeting the existing needs, as well as in the use of electronic textbooks, methodical literature based on specific criteria is not perfect and fully developed.

Therefore, one of the most urgent issues in improving the quality of education today is the creation of electronic software products related to the science of Medical Physics using media-educational technologies. By creating imitation models and dynamically reflecting them with the help of electronic software products, it is possible to expand the imagination of students about physical biological processes that can occur in real life. On this basis, the creation of "interactive software on the current directions of modern medical physics" for the science of Medical Physics, which will increase the effectiveness of education in the science of Medical Physics, as well as increase the media literacy of students, is one of the current issues of the field. remains one. When this interactive software for the science of medical physics was put into practice, the learning efficiency of students was high. In the process of teaching topics in the model curriculum of medical physics, creating an integrated media education system on "current directions of modern medical physics" and using video, audio, animated pictures related to the topic, making the lesson interactive Organization on the basis of educational methods increased the efficiency of education to a high result.

The structural structure of this developed media education technology program is reflected in the picture below. (See Figure 1). The text part of each topic, its presentation, basic concepts and terms, questions and crosswords to strengthen the topic, interactive methods used, electronic slides describing physical processes in each topic, developed in the program "Interactive software" with media education technology, includes videos and audio recordings.



Figure 1. Structural structure of the "Interactive software" program with media technology

The main goal of the "Interactive software" program with media education technology is to use innovative, pedagogical, informational information technologies in the teaching hours of "medical physics" in the curriculum of higher education institutions. the appropriate use of e-learning resources is to achieve an effective result.

References

1. Habibullayev P.K. va boshqalar Fizika izohli lug‘ati. // O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston milliy esiklopediyasi, 2002. -304 b.
2. Jo‘rayev H.O. Integrasiyalashgan mediata’lim tizimini yaratishda muqobil energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish. Dissertasiya, ped. fan. doktori.- Nukus: 2019.-255b.
3. Sodiqova Sh.M., Otajonov Sh., Qurbonov M. Lazerlar va ularning amaliyotdagi o‘rni // O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2019. -214 b.
4. Umarov S.X., Bozorov E.X., Jabborova O.I.. Tibbiy texnika va yangi tibbiy texnologiyalar ; - Toshkent; ”Iqtisod-Moliya”, 2019.-216 b.

5. Jaxongir Isroiljonovich Xomidjonov (2022). Tibbiyot fizikasi fani ma’ruzlarini o‘qitishda “Venn diagrammasi” usulini qo‘llash. Academic research in educational sciences, 3 (3), 146-153.
6. J.I. Khomidjonov, E.Kh. Bozorov, Kh.M. Sulaymonov M.F. Akhmadjonov, Kh.M. Nematov. “Teaching methodology of infrared light absorption in living tissues”. Neuro Quantology DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77317

RAQAMLI EKOTIZIM MUHITIDA TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abdullayev Sherali Abduqodir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kata o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari (OTM) talabalarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning tarkibiy va funktsional mexanizmlari tadqiq etilgan. Ta'lim platformalari, dasturiy ta'minot vositalari hamda ma'lumotlarga asoslangan monitoring tizimining o'zaro integratsiyasi modeli tahlil qilingan. Ish beruvchilar va raqamli resurslar hamkorligi asosida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini oshirish mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion mexanizm, raqamli ekotizim, kompetensiya, integratsiya, LMS platformalari, monitoring, qayta aloqa, mehnat bozori.

Kirish

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining bosh maqsadi faqatgina nazariy bilimlarni uzatish emas, balki talabalarda mustaqil ravishda muammolarni hal qila oladigan, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq eta oladigan kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Biroq, ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonida texnik vositalarni shunchaki o'quv xonalariga olib kirish kutilgan samarani bermaydi. Jarayonning muvaffaqiyati aniq belgilangan **pedagogik va tashkiliy mexanizmlar**ning mavjudligiga bog'liq. "Mexanizm" tushunchasi ta'lim kontekstida — talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltiruvchi, ularning ijodiy salohiyatini faollashtiruvchi va raqamli vositalar yordamida natijalarni muntazam nazorat qilib boruvchi yaxlit tashkiliy-metodik tizimni anglatadi. Mazkur mexanizmlarni takomillashtirish orqali OTMlarda ta'lim sifatini boshqarish va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.


Mavzuning ilmiy o'rganilganligi

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv va ta'lim jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari E.F. Zeer, J. Raven ishlarida ochib berilgan. O'quv jarayonlarini raqamlashtirishning tashkiliy mexanizmlari tizimli yondashuv asosida V.P. Bespalko, shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan A.A. Abduqodirov, N.I. Taylaqov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tahlil etilgan. Shunga qaramasdan,

talabalarning mustaqil ta'lim ko‘rsatkichlari dinamikasi va ish beruvchilarning qayta aloqasi tizimini o‘z ichiga olgan, raqamli texnologiyalarga asoslangan integratsiyalashgan innovatsion mexanizmlar yaxlit ob'ekt sifatida yetarlicha modellashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-strukturali yondashuv, pedagogik eksperiment, qiyosiy tahlil hamda ta'limiy jarayonlarni matematik-statistik modellashtirish usullari tashkil etadi. Tadqiqot doirasida talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi to‘rtta asosiy blokdan iborat bo‘lgan interaktiv tizim ko‘rinishida loyihalashtirildi:



Asosiy qism va tahlillar

Talabalarni innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish quyidagi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. Tarkibiy-mazmunli mexanizm (O‘quv dasturlarini raqamli optimallashtirish)

Ushbu mexanizm talabalar faoliyati statistikasi va ish beruvchilarning fikr-mulohazalarini muntazam o‘rganishga tayanadi. O‘quv rejalari va fan dasturlari statik (o‘zgarmas) holatdan dinamik holatga o‘tkaziladi. LMS (Moodle, Canvas) platformalari orqali talabalarning fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi: qaysi modullar yoki mavzularda talabalar qiyinchilikka duch kelayotgan bo‘lsa yoki qaysi mavzular amaliy ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lsa, ushbu o‘quv materiallari raqamli tahlil asosida optimallashtiriladi, eskirgan qismlari chiqarilib, o‘rniga zamonaviy amaliy muammolarga yo‘naltirilgan modullar kiritiladi.

2. Texnologik-funksional mexanizm (Raqamli laboratoriyalar va resurslar integratsiyasi)

Innovatsion kompetensiya faqat nazariy darslarda shakllanmaydi. Buning uchun talaba raqamli tadqiqot muhitiga kirishi shart. Mexanizmning ushbu qismi:

- Universitet axborot-resurs markazi fondlarini raqamli darsliklar, xalqaro ilmiy platformalar (Scopus, Web of Science) va video-resurslar bilan muntazam yangilab borishni;
- Kompyuter laboratoriyalarini zamonaviy amaliy dasturlar va modellashtirish paketlari (fan yo‘nalishidan kelib chiqib, masalan, ixtisoslashtirilgan hisoblash va tahlil dasturlari) bilan ta'minlashni ko‘zda tutadi.

Talabalar ushbu raqamli laboratoriyalarda real ishlab chiqarish jarayonlarining virtual modellarini yaratadilar, bu esa ularda loyihaviy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Kommunikatsion va Karyeraviy integratsiya mexanizmi

Ushbu mexanizm oliy ta'lim va ishlab chiqarish (mehnat bozori) o‘rtasidagi raqamli ko‘prikdir. Mazkur tizim doirasida talabalarga zamonaviy raqobat muhitini tushuntirish va ularni yo‘naltirish uchun quyidagi chora-tadbirlar raqamlashtiriladi:

- Har yarim yilda o‘tkaziladigan an'anaviy va virtual "Vakansiyalar yarmarkasi" (Job Fairs);
- Tarmoq korxonalari rahbarlari va yetakchi mutaxassislari ishtirokidagi master-klasslar, mahorat darslari;
- Talabalarni bo‘sh ish o‘rinlari, amaliyot dasturlari va start-ap loyihalar to‘g‘risida tezkor xabardor qilib boruvchi ixtisoslashtirilgan raqamli platformalar va Telegram kanallari ekotizimi.

Talaba ishlab chiqarishdagi real muammoni ko‘radi va o‘zining bitiruv malakaviy ishi yoki loyihaviy topshirig‘ini aynan shu muammoga raqamli yechim topishga qaratadi.

Taklif etilayotgan Integrallashgan Mexanizm Modeli

Tadqiqot natijasida shakllantirilgan, raqamli texnologiyalar vositasida innovatsion kompetensiyani oshirish mexanizmlarining tarkibiy sxemasi quyidagi jadvalda ifodalanadi:

Mexanizm komponenti	**Raqamli instrumentlar**	**Jarayonni takomillashtirish usuli**	**Natija (Kompetensiya)**
Tashkiliy-boshqaruv	LMS (Moodle), Big Data tahlil tizimlari	Talabalar akademik ko‘rsatkichlari statistikasiga qarab o‘quv dasturini tezkor korreksiyalash.	Moslashuvchanlik va ma'lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi.
Resursli-texnik	Elektron kutubxona, Litsenziyalangan	Axborot-resurs fondlarini yangilash, kompyuter	Texnologik savodxonlik, tadqiqotchilik

Mexanizm komponenti	Raqamli instrumentlar	Jarayonni takomillashtirish usuli	Natija (Kompetensiya)
	dasturiy paketlar	laboratoriyalarini modernizatsiya qilish.	ko‘nikmasi.
Interaktiv-metodik	Bulutli texnologiyalar, Keys-stadilar	Muammoli raqamli topshiriqlar, jamoaviy onlayn loyihalar (GitHub, Trello).	Kreativlik, nostandart qarorlar qabul qilish va jamoada ishlash.
Ijtimoiy-professional	Karyera portallari, Telegram-ekotizimlar	Har yarim yillik monitoring, mahorat darslari va vakansiyalar integratsiyasi.	Raqobatbardoshlik, loyihalarni tijoratlashtirish (Tadbirkorlik).

Xulosa

Talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish — o‘zaro zanjirli mexanizmlarning (resursli, metodik, tashkiliy va ijtimoiy-professional) integratsiyalashgan faoliyatini talab qiladi.

Taklif etilgan mexanizmlar o‘quv jarayonini faqatgina raqamli formatga o‘tkazib qolmay, balki uni mehnat bozori bilan uzviy bog‘laydi, talabalar yutuqlarini doimiy monitoring qilish orqali ta'lim sifatini raqamli boshqarish imkonini beradi. Universitet resurs fondlarini va dasturiy ta'minotlarini muntazam yangilab borish, ta'lim kontentini statistik tahlillar asosida optimallashtirish zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashning asosiy poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni.

2. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo obrazovaniya: Uchebnik. — M.: Akademiya, 2009.
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda masofaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi. — T.: Istiqlol, 2009.
4. Raven J. Kompetentnost v sovremennom obshestve: vı yavleniye, razvitiye i realizatsiya. — M.: Kogito-Centr, 2002.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK MODELLARI

Abdullayev Sherali Abduqodir o’g’li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kata o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Raqamli ta’lim muhitida qo‘llaniladigan zamonaviy vositalar, axborot-resurs tizimlari va interaktiv platformalarning talabalarning mustaqil fikrlash hamda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, jarayonni tizimli monitoring qilish va uning samaradorligini baholash modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion kompetensiya, raqamli texnologiyalar, oliy ta’lim, integratsiya, pedagogik model, raqamli platformalar, monitoring, mehnat bozori.

Kirish

Zamonaviy global iqtisodiyot va keskin o‘zgaruvchan mehnat bozori oliy ta’lim muassasalari (OTM) bitiruvchilari oldiga nafaqat fundamental bilimlar, balki yuqori darajadagi **innovatsion kompetensiya**ga ega bo‘lish talabini qo‘ymoqda. Innovatsion kompetensiya — bu shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish, muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish, texnologik o‘zgarishlarga tez moslashish va raqamli vositalar yordamida loyihalarni boshqarish qobiliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, o‘quv jarayonlariga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, an’anaviy ta’lim metodlari aksar hollarda talabalarda tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ularning mustaqil kreativ faoliyatini va innovatsion potensialini to‘liq yuzaga chiqarishda yetarli samara bermayapti. Shu sababli, talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida transformatsiya qilish va takomillashtirish ilmiy-pedagogik jihatdan yuqori dolzarblikka ega.

Mavzuning o‘rganilish darajasi

Pedagogika va metodika sohasidagi ilmiy izlanishlarda kompetensiyaviy yondashuv hamda ta’limni raqamlashtirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborot muhitini shakllantirish muammolari Y.A. Komenskiy an'analaridan tortib,

zamonaviy tadqiqotchilardan B.Skinner, S.Papert, respublikamiz olimlaridan R.Hamdamov, U.Begimkulov, M.Aripov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Shuningdek, innovatsion faoliyat va kompetensiyalarni rivojlantirish nazariyasi V.A. Slastenin, A.V. Xutorskoy kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan **raqamli texnologiyalar va axborot-resurs fondlarini optimallashtirish vositasida** talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning yaxlit pedagogik-metodik modeli to‘liq tizimlashtirilmagan. Bu esa mazkur ilmiy ishning obyekti va vazifalarini belgilashga asos bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish hamda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Jarayonni takomillashtirish uch bosqichli model asosida ko‘rib chiqiladi:

[Kognitiv bosqich] --> [Faoliyatli (Amaliy) bosqich] --> [Kreativ-innovatsion bosqich]
(Raqamli bilimlar) (Loyiha va laboratoriyalar) (Mustaqil innovatsion g‘oya)

Tadqiqot doirasida OTM axborot-resurs markazi fondlari hamda kompyuter laboratoriyalarining dasturiy ta’minoti monitoring qilinib, ularning talabalar innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash darajasi o‘rganildi.

Asosiy qism va tahlillar

Talabalarning innovatsion kompetensiyasini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quv kontentini raqamli va modulli shaklga o‘tkazish

An’anaviy ma’ruza matnlari va eskirgan uslubiy qo‘llanmalardan voz kechgan holda, o‘quv rejalariga zamonaviy mehnat bozori talablariga mos keladigan interaktiv raqamli modullarni integratsiya qilish zarur. Masalan, aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishlarida (xususan, matematika va dasturlash modullarida) nazariy bilimlarni kompyuter laboratoriyalarida amaliy modellashtirish dasturlari (MATLAB, Wolfram Mathematica, Python paketlari) orqali o‘tish talabalarda algoritmlash va tizimli tahlil ko‘nikmalarini (innovatsion kompetensiyaning asosi) keskin oshiradi.

2. Axborot-resurs va dasturiy ta’minot bazasini yangilash

Innovatsion faoliyat texnik va uslubiy bazaga tayanadi. Universitet kutubxona fondlarini raqamlashtirish, xalqaro ilmiy bazalarga (Scopus, ScienceDirect, Springer) kirish imkoniyatini yaratish talabalarga dunyo miqyosidagi ilmiy yangiliklardan boxabar bo‘lish va o‘z loyihalarida eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish sharoitini beradi. Kompyuter laboratoriyalarini eng so‘nggi litsenziyalangan dasturlar bilan ta’minlash esa talabaning real ishlab chiqarish va mehnat bozori muhitiga moslashuvini tezlashtiradi.

3. Raqamli interaktiv muloqot va talabalar faolligi monitoringi

Talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish faqat auditoriya bilan cheklanib qolmasligi kerak. Buning uchun LMS (Learning Management System - Moodle, Canvas) platformalari va maxsus Telegram kanallari hamda raqamli ekotizimlar orqali talabalar bilan doimiy aloqa o‘rnatiladi. Ushbu platformalar yordamida:

- Talabalarga haftalik keyslar va muammoli vaziyatlar taqdim etiladi;
- Ularning topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilinadi;
- Qaysi mavzularda o‘zlashtirish past bo‘lsa, o‘sha modullar zudlik bilan optimallashtiriladi va eskirgan mavzular o‘quv dasturidan chiqariladi.

Taklif etilayotgan Pedagogik Model

Tadqiqot natijasida talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi transformatsion model taklif etiladi:

Bosqichlar	**Raqamli vositalar**	**Rivojlanadigan ko‘nikmalar**
1. Axborotni qidirish va tahlil	Elektron kutubxonalar, Ilmiy bazalar (Scopus, Google Scholar)	Mustaqil ma'lumot izlash, tanqidiy fikrlash, muammoni ko‘ra bilish.
2. Modellashtirish va Sinov	Ixtisoslashtirilgan dasturlar, Kompyuter laboratoriyalari	Nazariyani amaliyotga tadbiq etish, raqamli tajribalar o‘tkazish.
3. Hamkorlik va Jamoaviy ish	Bulutli texnologiyalar (Google Workspace,	Jamoada loyihalarni boshqarish, kollaboratsiya,

Bosqichlar	Raqamli vositalar	Rivojlanadigan ko‘nikmalar
	GitHub, Trello)	innovatsion yechimlar.
4. Integratsiya va Taqdimot	Raqamli platformalar, Mahorat darslari, Vakansiyalar yarmarkasi	O‘z ishini himoya qilish, ish beruvchilar bilan kommunikatsiya, start-ap yaratish.

Ushbu modelning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri — **ish beruvchilar va mehnat bozori bilan raqamli ko‘prik** o‘rnatishdir. Yarim yillik asosda tashkil etiladigan "Vakansiyalar yarmarkasi" va soha mutaxassislari ishtirokidagi master-klasslar talabalarga o‘z innovatsion g‘oyalarini biznes subyektlariga taklif qilish, ishlab chiqarish muammolarini esa bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzusi sifatida qabul qilib, ularga raqamli yechim topish imkonini beradi.

Amaliy natijalar va samaradorlik bahosi (Results)

Mazkur takomillashtirilgan metodika asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalarning innovatsion kompetensiya darajasini aniqlash uchun maxsus mezonlar (kreativlik, raqamli savodxonlik, muammolarni hal qilish tezligi, jamoaviy loyihalardagi faollik) ishlab chiqildi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va muntazam statistik monitoring tizimi tizimli joriy etilganda:

- Talabalarning mustaqil ta’limga ajratgan vaqti samaradorligi **25-30%** ga oshdi;
- Ish beruvchilar tomonidan talabalarning amaliy ko‘nikmalariga berilgan ijobiy baholar ko‘rsatkichi an’anaviy guruhlarga nisbatan **18%** yuqori natijani qayd etdi;
- Talabalarning fanlar bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi dinamik o‘sish tendensiyasini ko‘rsatdi, chunki qiyin va eskirgan mavzular vizuallashgan va modellashtirilgan raqamli kontent bilan almashtirildi.

Xulosa

Talabalarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish bugungi kun oliy ta’limi uchun strategik ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar shunchaki ta’lim vositasi emas, balki talabaning ijodiy va intellektual salohiyatini ochib beruvchi, uni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrga aylantiruvchi katalizatordir.

OTM o‘quv dasturlarini doimiy ravishda talabalar ko‘rsatkichlari statistikasi va ish beruvchilar fikri asosida optimallashtirib borish, axborot-resurs markazlari fondlari va kompyuter laboratoriyalarini muntazam yangilab turish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa uzluksiz ravishda innovatsiyalarni yaratishga qodir bo‘lgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash zaminidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoye posobiye. — M.: Izdatelstvo «Eymos», 2013.
3. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. — T.: Fan, 2007.
4. Slastenin V.A., Podımova L.S. Pedagogika: innovatsionnaya deyatelnost. — M.: Magistr, 1997.

IV SHO’BA. SI-TA’LIM EKOTIZIMIDA XAVFSIZLIK, ETIK MEYORLAR VA TARTIBGA SOLISH

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEK: BO‘AJAK O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Tilavova Sayora Bekmuratovna

CHDPU“Maktabgach va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM yondashuvining (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqolada raqamli texnologiyalar orqali ekologik madaniyat va fanlararo integratsiyalashgan bilimlarni shakllantirish jarayonlari hamda ularni amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik ongini mustahkamlash va ularning raqamli ko‘nikmalarini takomillashtirish strategiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, raqamli texnologiya, ekologiya, pedagogik kompetentlik, STEAM ta’lim, integratsiya, rivojlantirish.

Bunday sharoitda ekologik ta’lim ta’lim tizimining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etib, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko‘rsatib o‘tdi [7]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirish atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar bizga o‘quv muhiti va ekologik jihatdan tegishli amaliyotni birlashtirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta’lim muhitida keng e’tirof etilgan ushbu yondashuvlardan biri steam deb ataladi.

STEAM yondashuviga asoslangan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish orqali quyidagi kutilayotgan natijalarga erishish mumkin:

1. Ekologik bilimlarni kengaytirish: Bo‘lajak o‘qituvchilar iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global ekologik muammolarni chuqurroq tushunadilar. Bu ularni bolalarga ekologik tushunchalarni samarali yetkazish va zarur bilimlarni yetarlicha taqdim etish imkoniyatini oshiradi.

2. Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Raqamli texnologiyalar kelajakdagi pedagoglarga ekologiya sohasida mustaqil tadqiqotlar olib borish, zamonaviy vositalar va ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda real muammolarni hal etish imkonini beradi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. Samarali hamkorlikni ta’minlash: Raqamli vositalar turli sohalardagi mutaxassislar va hamkasblar bilan birgalikda ishlash, bilim va tajriba almashish, ekologik yo‘nalishdagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Natijada, pedagoglar professional tarmoqlarini rivojlantirib, o‘quv jarayonini boyitadilar.

4. Ekologik yondashuvni integratsiya qilish: STEAM ta’limi orqali ekologik tushunchalarni fanlararo integratsiya qilgan holda o‘qitish, boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak pedagoglarga ekologik madaniyatni o‘quv jarayoniga samarali qo‘shish imkonini beradi.

Shu tarzda, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish, ularning ilmiy tadqiqot, tanqidiy fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) boshlang‘ich ta’limda ekologik ta’limning samarali shakllanishi uchun muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Kelajakdagi o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish maqsadida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan raqamli vositalar va texnologiyalar qatoriga interaktiv dasturlar, o‘quv modullari, sensorlar, virtual haqiqat va geoaxborot tizimlari kiradi.

STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalar asosidagi ekologik ta’lim nafaqat o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki o‘quv jarayonini interaktiv va ijodiy muhitga aylantiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni keng STEAM kontekstiga integratsiya qilish o‘quvchilarning o‘quv materialiga bo‘lgan motivatsiyasini va qiziqishini oshiradi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini samarali takomillashtirish imkonini beradi. Shu maqsadda maqolalar, ilmiy jurnallar va pedagogik tadqiqotlar tahlil qilinadi, ular STEAM yondashuvi orqali ekologik ta’limning konseptual va amaliy jihatlarini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. STEAM yondashuvi asosida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodologiyasi bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ekologik ta’limni o‘quv dasturiga integratsiya qilish: O‘quv dasturiga yosh va qobiliyat darajasiga mos ekologik mavzular va tushunchalarni kiritish zarur. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

2. Raqamli resurslardan foydalanish: Interaktiv dasturlar, veb-saytlar, ta’limiy simulyatsiyalar va boshqa raqamli vositalar o‘quvchilarga ekologik muammolarni chuqurroq o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu resurslar o‘yinlar, vizualizatsiyalar va interaktiv vazifalarni taqdim etib, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

3. Virtual sayohatlar va vizualizatsiya: O‘quvchilarga turli ekotizimlar, energiya tizimlari va tabiat hodisalarini o‘rganish imkonini berish uchun virtual sayohatlar va vizualizatsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayon virtual haqiqat, veb-kameralar yoki o‘quvchilarning virtual muhitda atrofdagi dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlaydigan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

4. Hamkorlik va tajriba almashish: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi, shuningdek, boshqa maktablar va ekologiya bo‘yicha mutaxassislar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratadi. Internet va videokonferensiyalar yordamida fikr almashish, tadqiqot va resurslardan foydalanish osonlashadi.

5. Uzluksiz malaka oshirish: O‘qituvchilarga kasbiy rivojlanish, ekologik ta’lim va raqamli texnologiyalar sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirish imkonini beruvchi manbalar taqdim etiladi. Bu veb-seminarlar, onlayn kurslar va konferensiyalarni o‘z ichiga oladi, u yerda pedagoglar hamkasblari bilan bilim almashib, amaliyotga yangi g‘oyalarni joriy qiladilar.

Ushbu metodik yondashuv va texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarga boshlang‘ich ta’limda raqamli vositalar yordamida ekologik kompetentligini samarali rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Tahlil va natijalar. STEAM yondashuvi asosida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash [2] kabi farmonlari bilan uyg‘unlashadi. Ushbu tadbirlar doirasida ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi hamda videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash ko‘zda tutiladi. Shuningdek, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

STEAM yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarga ekologiya, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash sohasidagi bilimlarini kengaytirishga imkon beradi. Ularning malakasi va bilim darajasini oshirish uchun quyidagi resurslar va yondashuvlar tavsiya etiladi:

- Raqamli vositalardan foydalanish: Interaktiv va samarali usullar orqali o‘quv jarayonini boyitadi hamda o‘quvchilarning faol va amaliy o‘rganishiga turtki bo‘ladi.
- Ko‘nikmalarni rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot kabi asosiy ko‘nikmalar raqamli texnologiyalar yordamida mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ular o‘quvchilarga haqiqiy ekologik muammolarni o‘rganish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi.
- O‘quv jarayonini qiziqarli qilish: O‘yin elementlari, vizual effektlar va interfaol vazifalar ta’lim motivatsiyasini oshiradi va ekologik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.
- Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish: Raqamli vositalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarga amaliy vaziyatlarda ekologik ongni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Konstruktorlar va strukturalar statik va dinamik modellarni qurish uchun turli ulanish turlari va prinsiplaridan foydalangan holda ekologik kompetentlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [4,5,6].

Shu tarzda, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, o‘quvchilarning ekologik ongini oshiradi va ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

Хулоса қилиб айтганда, STEAM yondashuviga (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) asoslangan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish kelajakdagi o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi; ekologiya bo‘yicha maxsus modullar va darslarni joriy etish o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni tushunish va atrof-muhit muammolarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi, zamonaviy raqamli vositalar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi,

shuningdek, haqiqiy ekologik muammolarni tadqiq etish va yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi; o‘qituvchilarni ekologik kompetensiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasida uzluksiz tayyorlash seminarlar, onlayn kurslar va vebinarlar orqali qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lib, bu STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalarni birlashtirish orqali bo‘lajak pedagoglarning ilmiy, tadqiqot va pedagogik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son **farmoni** Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5538-сон фармони, 05.09.2018 йил.

[3]. Yakman, G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education [Electronic resource] / G. Yakman // STEAM Education. – Mode of access: https://steamedu.com/ research/. – Date of access: 12.05.2019.

4. Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE

5. Yuldashovich K. A., Kholi y. a model for the formation of primary education students’careful attitude to nature in extra-curriculum activities //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

6. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

7. https://president.uz/uz/lists/view/6679

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEK: BO‘AJAK O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Tilavova Sayora Bekmuratovna

CHDPU“Maktabgach va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM yondashuvining (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqolada raqamli texnologiyalar orqali ekologik madaniyat va fanlararo integratsiyalashgan bilimlarni shakllantirish jarayonlari hamda ularni amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik ongini mustahkamlash va ularning raqamli ko‘nikmalarini takomillashtirish strategiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, raqamli texnologiya, ekologiya, pedagogik kompetentlik, STEAM ta’lim, integratsiya, rivojlantirish.

Bunday sharoitda ekologik ta’lim ta’lim tizimining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etib, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko‘rsatib o‘tdi [7]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirish atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar bizga o‘quv muhiti va ekologik jihatdan tegishli amaliyotni birlashtirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta’lim muhitida keng e’tirof etilgan ushbu yondashuvlardan biri steam deb ataladi.

STEAM yondashuviga asoslangan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish orqali quyidagi kutilayotgan natijalarga erishish mumkin:

5. Ekologik bilimlarni kengaytirish: Bo‘lajak o‘qituvchilar iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global ekologik muammolarni chuqurroq tushunadilar. Bu ularni bolalarga ekologik tushunchalarni samarali yetkazish va zarur bilimlarni yetarlicha taqdim etish imkoniyatini oshiradi.

6. Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Raqamli texnologiyalar kelajakdagi pedagoglarga ekologiya sohasida mustaqil tadqiqotlar olib borish, zamonaviy vositalar va ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda real muammolarni hal etish imkonini beradi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

7. Samarali hamkorlikni ta’minlash: Raqamli vositalar turli sohalardagi mutaxassislar va hamkasblar bilan birgalikda ishlash, bilim va tajriba almashish, ekologik yo‘nalishdagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Natijada, pedagoglar professional tarmoqlarini rivojlantirib, o‘quv jarayonini boyitadilar.

8. Ekologik yondashuvni integratsiya qilish: STEAM ta’limi orqali ekologik tushunchalarni fanlararo integratsiya qilgan holda o‘qitish, boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak pedagoglarga ekologik madaniyatni o‘quv jarayoniga samarali qo‘shish imkonini beradi.

Shu tarzda, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish, ularning ilmiy tadqiqot, tanqidiy fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) boshlang‘ich ta’limda ekologik ta’limning samarali shakllanishi uchun muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Kelajakdagi o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish maqsadida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan raqamli vositalar va texnologiyalar qatoriga interaktiv dasturlar, o‘quv modullari, sensorlar, virtual haqiqat va geoaxborot tizimlari kiradi.

STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalar asosidagi ekologik ta’lim nafaqat o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki o‘quv jarayonini interaktiv va ijodiy muhitga aylantiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni keng STEAM kontekstiga integratsiya qilish o‘quvchilarning o‘quv materialiga bo‘lgan motivatsiyasini va qiziqishini oshiradi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini samarali takomillashtirish imkonini beradi. Shu maqsadda maqolalar, ilmiy jurnallar va pedagogik tadqiqotlar tahlil qilinadi, ular STEAM yondashuvi orqali ekologik ta’limning konseptual va amaliy jihatlarini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. STEAM yondashuvi asosida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodologiyasi bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

6. Ekologik ta’limni o‘quv dasturiga integratsiya qilish: O‘quv dasturiga yosh va qobiliyat darajasiga mos ekologik mavzular va tushunchalarni kiritish zarur. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

7. Raqamli resurslardan foydalanish: Interaktiv dasturlar, veb-saytlar, ta’limiy simulyatsiyalar va boshqa raqamli vositalar o‘quvchilarga ekologik muammolarni chuqurroq o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu resurslar o‘yinlar, vizualizatsiyalar va interaktiv vazifalarni taqdim etib, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

8. Virtual sayohatlar va vizualizatsiya: O‘quvchilarga turli ekotizimlar, energiya tizimlari va tabiat hodisalarini o‘rganish imkonini berish uchun virtual sayohatlar va vizualizatsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayon virtual haqiqat, veb-kameralar yoki o‘quvchilarning virtual muhitda atrofdagi dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlaydigan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

9. Hamkorlik va tajriba almashish: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi, shuningdek, boshqa maktablar va ekologiya bo‘yicha mutaxassislar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratadi. Internet va videokonferensiyalar yordamida fikr almashish, tadqiqot va resurslardan foydalanish osonlashadi.

10. Uzluksiz malaka oshirish: O‘qituvchilarga kasbiy rivojlanish, ekologik ta’lim va raqamli texnologiyalar sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirish imkonini beruvchi manbalar taqdim etiladi. Bu veb-seminarlar, onlayn kurslar va konferensiyalarni o‘z ichiga oladi, u yerda pedagoglar hamkasblari bilan bilim almashib, amaliyotga yangi g‘oyalarni joriy qiladilar.

Ushbu metodik yondashuv va texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarga boshlang‘ich ta’limda raqamli vositalar yordamida ekologik kompetentligini samarali rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Tahlil va natijalar. STEAM yondashuvi asosida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash [2] kabi farmonlari bilan uyg‘unlashadi. Ushbu tadbirlar doirasida ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi hamda videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash ko‘zda tutiladi. Shuningdek, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

STEAM yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarga ekologiya, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash sohasidagi bilimlarini kengaytirishga imkon beradi. Ularning malakasi va bilim darajasini oshirish uchun quyidagi resurslar va yondashuvlar tavsiya etiladi:

- Raqamli vositalardan foydalanish: Interaktiv va samarali usullar orqali o‘quv jarayonini boyitadi hamda o‘quvchilarning faol va amaliy o‘rganishiga turtki bo‘ladi.
- Ko‘nikmalarni rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot kabi asosiy ko‘nikmalar raqamli texnologiyalar yordamida mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ular o‘quvchilarga haqiqiy ekologik muammolarni o‘rganish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi.
- O‘quv jarayonini qiziqarli qilish: O‘yin elementlari, vizual effektlar va interfaol vazifalar ta’lim motivatsiyasini oshiradi va ekologik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.
- Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish: Raqamli vositalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarga amaliy vaziyatlarda ekologik ongni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Konstruktorlar va strukturalar statik va dinamik modellarni qurish uchun turli ulanish turlari va prinsiplaridan foydalangan holda ekologik kompetentlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [4,5,6].

Shu tarzda, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, o‘quvchilarning ekologik ongini oshiradi va ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

Хулоса қилиб айтганда, STEAM yondashuviga (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) asoslangan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish kelajakdagi o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi; ekologiya bo‘yicha maxsus modullar va darslarni joriy etish o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni tushunish va atrof-muhit muammolarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi, zamonaviy raqamli vositalar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, haqiqiy ekologik muammolarni tadqiq etish va yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi; o‘qituvchilarni ekologik kompetensiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasida uzluksiz tayyorlash seminarlar, onlayn kurslar va vebinarlar orqali qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lib, bu STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalarni birlashtirish

orqali bo‘lajak pedagoglarning ilmiy, tadqiqot va pedagogik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son **farmoni** Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5538-сон фармони, 05.09.2018 йил.

[3]. Yakman, G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education [Electronic resource] / G. Yakman // STEAM Education. – Mode of access: https://steamedu.com/ research/. – Date of access: 12.05.2019.

4. Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE

5. Yuldashovich K. A., Kholi y. a model for the formation of primary education students’careful attitude to nature in extra-curriculum activities //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

6. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

7. https://president.uz/uz/lists/view/6679

EKO-STEAM TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
«Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrasi dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola Eko-STEAM ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning Ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik injiniring yondashuvi natijalarini yoritib beradi. Tadqiqot eksperimental sinov usuliga asoslangan bo'lib, AI-asosida yaratilgan Ekopark platformasi orqali kompetentlik ko'rsatkichlarining oshishiga erishildi.

Kalit so'zlar: Eko-STEAM ta'lim, sun'iy intellekt, Ekopedagogik kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, Ekopark, AI texnologiyalari, pedagogik injiniring.

Kirish. Bugungi kunda Ekologik muammolar butun dunyoning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Atrof-muhitning barham berishi, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning kamayishi zamonaviy ta'lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning Ekopedagogik kompetentligini shakllantirish jiddiy e'tiborni talab etadi [1].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ekologik ongni rivojlantirish uchun faqat an'anaviy darsliklar yetarli emas. Zamonaviy ta'limda STEAM yondashuvi bilan Ekologiyani birlashtiruvchi Eko-STEAM konsepsiyasi samarali natijalar bermoqda [2]. Bu yondashuv fanlararo integratsiya orqali ta'lim sifatini oshirish va Ekologik muammolarni kompleks hal qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim jarayonlarida keng qo'llanilmoqda. Machine learning, tabiiy tilni qayta ishlash va virtual reallik asosida yaratilgan o'quv platformalari o'quvchilarning mustaqil o'rganishini qo'llab-quvvatlaydi [3]. Xususan, Ekologiyaga oid amaliy mashg'ulotlarni SI orqali modellashtirish Ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, AI-asosida yaratilgan ta'lim muhitlari o'quvchilarning Ekologik bilim, ko'nikma va munosabatlarini rivojlantirishda an'anaviy usullarga qaraganda 25-30% samarador [4]. Jumladan, A. Topsakal va S. Sadik (2020) sun'iy intellekt orqali Ekologik ta'lim berishning samaradorligini tadqiq qilganlar [5].

Maqolaning maqsadi.Ushbu maqolaning maqsadi Eko-STEAM ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning Ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik injiniring yondashuvini ishlab chiqish va amaliy sinovdan o'tkazishdan iborat.

Maqolaning innovatsion jihati. Maqola o'zining yangiligi bilan ajralib turadi: birinchi marta sun'iy intellekt, Eko-STEAM yondashuvi va Ekopedagogik kompetentlik o'zaro bog'liqligi ilmiy-pedagogik injiniring usuli bilan tadqiq qilindi; AI-asosida "Ekopark" virtual platformasi yaratildi; Ekopedagogik kompetentlikning komponent tarkibini o'lchash diagnostik tizemi ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya borasidatadqiqot Ekologik ta'lim, sun'iy intellekt va pedagogik kompetentlik sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarga asoslandi.

Ekopedagogik kompetentlik tushunchasi birinchi marta I. Prudnikova (2018) tomonidan Ekologik pedagogika kontekstida tahlil qilingan [8]. Muallif Ekopedagogik kompetentlikni shaxsning Ekologik bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integrativ yig'indisi sifatida ta'riflagan.

Tadqiqot obyekti: ChDPU oliy ta'lim muassasasining IV kurs talabalari (n=186).

Tadqiqot subyekti: Eko-STEAM ta'limida sun'iy intellekt orqali Ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot usullari:1) nazariy tahlil – Ekopedagogik kompetentlik va AI texnologiyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tadqiqi; 2) pedagogik kuzatuv – dars jarayonidagi o'quv faoliyatini kuzatish; 3) eksperimental sinov – EG va KG guruhlarida pedagogik tajriba o'tkazish; 4) o'lchash usullari – «Ekopedagogik kompetentlik» testi, anketalar, suhbat; 5) matematik statistika – t-test, Cohen's d effekt o'lchovi.

Tajriba rejasi: Tadqiqot 2024-yil sentyabr – 2025-yil may oylarida o'tkazildi. Eksperimental guruh (EG, n=93) AI-asosida "Ekopark" platformasidan foydalangan, kontrol guruh (KG, n=93) an'anaviy usulda o'qitilgan. Tajriba davomida har ikki guruhning 4 ta komponent bo'yicha ko'rsatkichlari o'lchandi: Ekologik bilimlar, Ekologik ko'nikmalar, Ekologik faoliyat, shaxsiy-axloqiy sifatlar.

Ekopedagogik kompetentlik komponentlari va o'lchash ko'rsatkichlari

	Komponent	O'lchash ko'rsatkichlari
	Ekologik bilimlar	Tushunchalar bilimi, Ekologik qonunlar, global muammolar haqida ma'lumot
	Ekologik ko'nikmalar	Monitoring, tahlil, proyektalash, SI texnologiyalarini qo'llash
	Ekologik faoliyat	Mashg'ulotlar o'tkazish, tadbirlar tashkil etish
	Shaxsiy-axloqiy sifatlar	Ekologik ong, mas'uliyat, hamkorlik, kreativlik

Natijalar asosidatadqiqot jarayonida quyidagi ma'lumotlar olingan.

Tajriba boshlanishidan oldin EG va KG guruhlarining Ekopedagogik kompetentlik ko'rsatkichlari o'rtacha bo'yicha barqaror taqsimlangan edi ($t=0,84$; $p>0,05$). Bu guruhlarning teng sharoitda ekanligini tasdiqladi.

Tajriba oxirida EG guruhining umumiy Ekopedagogik kompetentlik ko'rsatkichi 42,7 ballga (boshlang'ich 28,3) oshdi. KG guruhida bu ko'rsatkich 31,5 ballgacha (boshlang'ich 27,8) yetdi. Effekt kattaligi Cohen's $d=0,89$ bo'lib, bu katta effekt sifatida baholanadi.

Guruhlarning Ekopedagogik kompetentlik ko'rsatkichlari dinamikasi (baho: 60 ballik sistema)

Komponent	KG bosh.	KG oxir.	EG bosh.	EG oxir.
Ekologik bilimlar	6,8	8,5	7,1	14,2
Ekologik ko'nikmalar	7,2	9,8	7,5	25,7
Ekologik faoliyat	6,5	7,9	6,9	16,8
Shaxsiy-axloqiy	7,3	5,3	6,8	12,5

sifatlar				
Jami:	27,8	31,5	28,3	42,7

Jadval ma'lumotlaridan ko’rinib turibdiki, EG guruhida barcha komponentlar bo’yicha o’sish KG guruhiga nisbatan ancha yuqori. Ayniqsa “Ekologik ko’nikmalar” komponentida farq eng katta bo’lib, EG guruhida o’sish 18,2 ball, KG guruhida esa 4,3 ballni tashkil etdi.

Ekopark platformasi elementlaridan foydalanish samaradorligi (EG guruh, n=93)

	Platforma elementi	SI	Reyting
	Virtual laboratoriya (Ekosistema modeli)	0,87	★★★★★
	Interaktiv simulyatsiyalar	0,84	★★★★★
	Ekologik loyihalar galereyasi	0,79	★★★★☆
	Taqqoslash va tahlil tizimi	0,75	★★★★☆
	Refleksiya va portfel jurnali	0,72	★★★☆☆
	AI-mentor suhbatdosh	0,68	★★★☆☆

3-jadval ma'lumotlariga ko’ra, eng yuqori samaradorlik «Virtual laboratoriya» (SI=0,87) va «Interaktiv simulyatsiyalar» (SI=0,84) elementlarida qayd etildi. Eng past ko’rsatkich «AI-mentor suhbatdosh» bo’yicha (SI=0,68) bo’lib, bu talabalarning sun'iy intellekt bilan muloqot qilish ko’nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko’rsatadi.

Muhokama natijasi shuni ko’rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boyitilgan EKO-STEAM ta'limi an'anaviy yondashuvga qaraganda Ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda ancha samarali. Bu xulosa xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'un.

AI-asosida “Ekopark” platformasi quyidagi afzalliklarga ega: 1) individual o’quv traektoriyasini shakllantirish; 2) Ekologik jarayonlarni real vaqt rejimida simulyatsiya qilish; 3) bilimlarni amaliy ko’nikmalarga aylantirish interaktiv vazifalari; 4) o’z-o’zini baholash va refleksiya imkoniyatlari.

Tadqiqot natijalari YuNESKOning 2021-yilgi hisobotidagi xulosalar bilan mos keladi. Xalqaro tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt faqatgina texnologik vosita emas, balki yangi pedagogik paradigmaga o’tishni ta'minlovchi omildir.

Shu bilan birga, tadqiqot chegaralari ham mavjud: 1) geografik chegaralanganlik – faqat Farg'ona viloyati; 2) vaqt chegarasi – bir o’quv yili; 3) nisbatan kichik tanlanma hajmi. Kelgusi tadqiqotlarda boshqa mintaqalar va kattaroq tanlama bilan ishlash maqsadga muvofiq bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda Eko-STEAM ta’limida sun’iy intellekt asosida bo’lajak o’qituvchilarning Ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish samarali ekanligi isbotlandi. Kompetentlikning aniq tuzilmasi va baholash mezonlari ishlab chiqildi, “Ekopark” virtual platformasi yaratildi hamda tajriba natijalari yuqori samaradorlikni (51% o’sish, katta effekt) ko’rsatdi. Ushbu yondashuv Ekologik ta’limni modernizatsiya qilish va o’qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5863-son Farmoni. - Toshkent. 2019-yil 30-oktyabr.

2. Kuchkinov, A., Tilavova, S., Razak, Nor Asiah., Zulkifli,Che Zalina., Jansaitova, J., Artikova, N., Khudaikulova, F., Xayridinov, B,. & Otajonova, D (2026). Pedagogical strategies

for enhancing environmental education in Uzbek primary schools: a mixed-methods study. (IJERE): (1) 565-578. https://ijere.iaescore.com/index.php/IJERE/article/view/35558

3. . Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE

4. 7. Yuldashovich K. A. A model for the formation of primary education students'careful attitude to nature in extra-curriculum activities //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

5. 8. Yuldashovich K. A. STEAM integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

6. Tilavova S.B. Ekologik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyalari // Innovatsion ta'lim. 2023, T. 1, No 1. - B. 1-7.

7. Кудрявтсева Т.В. Педагогические текҳнологии формирования экологической кул'турй учашчикҳся. - М.: Академия, 2019. - С. 256.

8. Tilavova S.B. STEAM yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda tpack modelining roli // TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA Ilmiy-uslubiy jurnal. 2025/№ 3. - B. 156-162.

THE IMPACT OF DIGITAL MEDIA ON RELIGIOUS BELIEFS AND PRACTICES

Abdulamitova Sarvinoz Sherali qizi

Student, Chirchik State Pedagogical University
sarvinozabdulamitova32@gmail.com

Ilmurodova Feruza Shakirovna

A doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences
feruzailmurodova26@gmail.com

ANNOTATSIYA. Raqamli media manbalaridan foydalanish globallashgan dunyoda insonlarning diniy e'tiqodlari va amaliyotlarini rivojlantirishda sezilarli darajada oshdi. Ushbu tadqiqot texnologiyalarni din bilan integratsiya qilish dindorlar o'rtasida diniy bag'rikenglikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Dinni targ'ib qiluvchi turli raqamli texnologiyalar, shuningdek, insonlarga madaniy stereotiplar va xurofotlarni bartaraf etishda yordam beradi. Xususan, Saudiya Arabistonidagi muzeyda amalga oshirilgan usul shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar insonlarning dinni tushunishi va diniy bag'rikenglikni saqlashida katta ta'sirga ega. Ya'ni, faqat sun'iy intellekt vositalari va 3D simulyatsiya manbalari orqali insonlar din haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zlashtirishi, o'rganishi va hatto boshqalarga o'rgatishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, sog'lom diniy muhitni yaratish uchun raqamli texnologiyalar va din integratsiyasi eng foydali va samarali usullardan biri hisoblanadi. Natijalar shuni namoyon etadiki, bu yangi innovatsion vositalar insonlarning diniy qarashlari va munosabatlarini yanada rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli media, diniy e'tiqodlar, diniy amaliyotlar, sun'iy intellekt texnologiyasi, 3D simulyatsiya texnologiyasi, media ta'siri.

ABSTRACT

Using digital media sources has significantly increased to enhance the beliefs and practices of people in the globalized world. This study explores that the integration of technologies with religious can effect to the development of religious tolerance among the people who believe religious. Various digital technologies that promote religion also help people to eliminate cultural stereotypes and cultural bias. In particular, the method carried out in a museum in Saudi Arabia shows that digital tools have a great impact on people's understanding of religion and maintaining religious tolerance. That is, through only AI tools and 3D simulation sources, people can acquire, learn and even teach all the information about religion. Having observed this research, some ideas realized that, in order to create a healthy religious environment, the integration of digital technologies and religion is regarding one of the most beneficial and effective way. Results demonstrate that these new innovative tools enhance and boost people's perspectives and attitudes based on religion.

Key words: digital media, religious beliefs, religious practices, AI technology, 3D simulative technology, media influence.

АННОТАЦИЯ

Использование цифровых медиа-ресурсов значительно возросло для развития религиозных убеждений и практик людей в условиях глобализированного мира. Данное исследование изучает, как интеграция технологий с религией может повлиять на развитие религиозной толерантности среди верующих. Различные цифровые технологии, способствующие распространению религии, также помогают людям преодолевать культурные стереотипы и предвзятость. В частности, метод, реализованный в музее Саудовской Аравии, показывает, что цифровые инструменты оказывают значительное влияние на понимание религии и поддержание религиозной толерантности. То есть с помощью только инструментов искусственного интеллекта и источников 3D-моделирования люди могут получать, изучать и даже преподавать всю информацию о религии. Анализ данного исследования показывает, что для создания здоровой религиозной среды интеграция цифровых технологий и религии является одним из наиболее эффективных и полезных подходов. Результаты демонстрируют, что эти инновационные инструменты усиливают и развивают взгляды и отношение людей к религии.

Ключевые слова: цифровые медиа, религиозные убеждения, религиозные практики, технологии искусственного интеллекта, 3D-моделирование, влияние медиа.

Introduction

In today's rapidly developing time, digital technologies have entered people's lives at lightning speed and changed many things. Digital media not only facilitated the communication between people, but also had a strong impact on their education and employment, especially on the formation of international values. Its rapid development and spread to the masses has radically changed social and cultural processes and, of course, religious beliefs and practices. Traditionally, religion was taught and learned through institutions such as mosques, churches, and collective ceremonies, but today social networks and many advanced technologies make it possible to understand religion, follow it, and know useful and correct information. The importance of this study is that the pervasiveness of religion through digitization and the interrelation between them are analyzed in depth and explained with a wide observation. In contemporary society, the study of such an issue is important in determining how religious interpretation, religious authority, and religious participation are formed and changing. The main problem of this research is that the knowledge and skills acquired through digital media affect the religious freedom, religious beliefs and practices of individuals, in particular, it is necessary to determine the state of people's reliance on artificial sources from traditional sources, the expansion of access to religious information through digital technologies, and the diversification of religious views. Previous studies on the intersection of religion and digital media have provided foundational insights into the growing presence of religious content on social media platforms. Research by Campbell and Tsuria explores how social media platforms like Facebook, Instagram, and YouTube have enabled new forms of religious expression and participation. Additionally, scholars such as Hoover have examined the implications of religious broadcasting on television and radio, demonstrating the broader reach of faith-based messages. However, these studies often focus more on the media's role in disseminating religious content rather than the deeper, experiential aspects of faith practices and community building in a digital

context. The study aims to investigate that it is very important to understand the modern religious life that is being formed in the digital environment and to put it into practice.

In general, research shows that digital technologies contribute to a deeper understanding of religion than the general understanding.

Literature review

In recent years, the rapid expansion of digital media has significantly influenced religious beliefs and practices, attracting considerable scholarly attention. A growing body of research highlights both the transformative potential and the challenges posed by digital platforms in shaping contemporary religious life. Several recent studies present similar findings regarding the positive role of digital media in religious engagement. For example, Campbell found that online platforms such as social networks and streaming services enhance religious participation by allowing users to access sermons, join virtual communities, and maintain spiritual practices regardless of location. Similarly, Hutchings argues that digital media strengthens individual religiosity by providing continuous exposure to religious content and enabling interactive forms of worship. Both scholars emphasize that digital environments expand opportunities for religious learning and foster a sense of belonging among users, especially younger audiences.

In contrast, other researchers provide more critical and comparative perspectives. Cheong highlights that while digital media democratizes access to religious knowledge, it simultaneously challenges traditional religious authority by empowering individuals to interpret beliefs independently. On the other hand, Lövheim presents a more cautious view, suggesting that digital religious practices often lack depth and may lead to a decline in collective religious experiences. While Cheong acknowledges both opportunities and risks, Lövheim places greater emphasis on the negative consequences, particularly the weakening of institutional structures and communal bonds. These contrasting findings demonstrate that the impact of digital media on religion is complex and multifaceted. While some scholars underline its role in increasing accessibility and engagement, others point to issues such as authority fragmentation and superficial participation. Therefore, despite the growing number of studies, there remains a need for further research to understand how individuals balance traditional religious values with digital influences. This study aims to contribute to this discussion by exploring these dynamics in a contemporary context.

Methodology and Analysis

This study employs a qualitative, practice-based research design to explore how digital media particularly artificial intelligence (AI) and 3D immersive technologies reshape religious beliefs and practices. The research is grounded in a real-world case study of Prophet's Biography Museum, where advanced digital tools are used to present religious and historical content in an interactive format. The methodology is primarily based on case study analysis, observation, and interpretive evaluation. The selected museum serves as an innovative model of technology-integrated religious education. Visitors interact with content related to the lives of prophets, key religious events, and the historical development of religion through AI-powered systems and immersive 3D environments. Data for this study is conceptually derived from analyzing how these technologies function as educational tools and how users engage with them in practice. A central methodological component is the experiential learning approach. In this setting, participants wear 3D headsets that allow them to visually and spatially experience reconstructed

historical scenes. For example, users can "enter" ancient environments, observe significant religious moments, and follow narrative sequences as if they were physically present in those time periods. This creates a multi-sensory learning experience that combines visual, auditory, and emotional engagement. Unlike traditional text-based or lecture-based methods, this approach positions the learner as an active participant rather than a passive receiver of information. In addition, AI technologies in the museum contribute to adaptive and personalized learning. The system can present information in different formats, simplify complex religious concepts, and guide users through content based on their interaction patterns. This reflects a shift from one-size-fits-all religious instruction toward more individualized and user-centered knowledge acquisition.

From an analytical perspective, the findings suggest several key impacts:

First, enhanced engagement and retention: The immersive nature of 3D experiences significantly increases users' attention and interest. When individuals "experience" religious history rather than simply reading about it, their understanding becomes deeper and more memorable.

Second, reconstruction of religious perception: Digital simulations transform abstract or distant religious narratives into concrete realities. This can strengthen emotional connections to religious figures and events, making belief systems more personally meaningful.

Third, transformation of religious practice: Exposure to such technologies may influence how individuals practice religion, shifting from purely ritual-based engagement to knowledge-driven and experience-based understanding. However, the analysis also identifies several critical concerns. One issue is authenticity and interpretation digitally recreated environments may unintentionally reflect selective or simplified versions of historical and religious realities. Another concern is over-reliance on technology, where users may prioritize visual experience over deeper theological reflection.

Ultimately, this practical case demonstrates that integrating AI and 3D technologies into religious contexts represents a significant methodological innovation. It bridges the gap between traditional religious teachings and modern digital expectations, offering a hybrid model of learning that is interactive, immersive, and impactful. At the same time, it highlights the importance of balancing technological advancement with accuracy, critical thinking, and respect for religious authenticity.

Results and discussion

The findings of this study, based on the analysis of the immersive digital environment at the Prophet's Biography Museum, demonstrate that the integration of AI and 3D technologies has a significant impact on how individuals perceive, understand, and engage with religious content.

First, the results indicate a high level of user engagement and interest. Visitors exposed to 3D simulations and AI-guided narratives show greater attention and curiosity compared to traditional learning methods. The ability to visually experience historical religious events creates a strong sense of presence, which enhances both motivation and concentration. This suggests that immersive technologies are highly effective in capturing users' attention in religious education contexts. Second, the study reveals improved comprehension and knowledge retention. Participants are more likely to remember religious information when it is presented through interactive and visual formats. The combination of storytelling, spatial visualization, and AI-

supported explanations allows users to better understand complex religious concepts and historical developments. This supports the idea that experiential learning leads to deeper cognitive processing than passive forms of learning.

Another important result is the emotional and spiritual impact of the experience. Many users develop a stronger emotional connection to religious figures and events when they "witness" them through 3D environments. This emotional engagement can contribute to strengthening personal beliefs and increasing interest in religious practices. In this sense, digital media does not only inform but also influences the internalization of religious values. At the same time, the discussion highlights several critical issues. One key concern is the question of authenticity. While digital reconstructions provide vivid experiences, they may also simplify or reinterpret historical and religious realities. This raises questions about how accurately such technologies represent sacred narratives and whether users may accept these representations uncritically. Additionally, the findings point to a potential shift in religious authority. As individuals increasingly rely on AI-generated content and digital platforms, traditional sources of religious knowledge such as scholars and institutions may lose some of their influence. This can lead to more individualized and selective interpretations of religion. Finally, the study identifies a paradox in digital religious experience. On one hand, technology enhances accessibility and engagement; on the other hand, it may reduce direct, communal, and face-to-face religious interactions. This dual effect suggests that while digital media expands opportunities for learning, it also transforms the nature of religious practice itself.

In conclusion, the results show that AI and 3D technologies have a powerful and multifaceted impact on religious beliefs and practices. They enhance learning, deepen emotional engagement, and modernize religious communication. However, they also introduce challenges related to authenticity, authority, and the balance between virtual and traditional religious experiences. These findings contribute to a more nuanced understanding of the role of digital media in contemporary religious life.

Conclusion

This study examined the impact of digital media on religious beliefs and practices, with a particular focus on the integration of AI and 3D immersive technologies in religious education, illustrated through the case of the International Exhibition and Museum of the Prophet's Biography and Islamic Civilization in Saudi Arabia. The findings demonstrate that digital technologies are increasingly reshaping how religious knowledge is delivered, experienced, and internalized in contemporary society. Overall, the study shows that digital media has a dual impact on religion. On the positive side, AI and 3D technologies significantly enhance engagement, understanding, and emotional connection by transforming traditional religious narratives into immersive and interactive experiences. Such innovations make religious education more accessible, especially for younger generations, and support deeper cognitive and experiential learning. However, the study also identifies important challenges. The use of digital and virtual environments may raise concerns about the authenticity and accuracy of religious representations. In addition, increasing reliance on digital platforms can contribute to the weakening of traditional religious authority and reduce face-to-face communal religious practices, potentially leading to more individualized interpretations of faith.

In conclusion, digital media does not simply replace traditional religious practices but rather transforms them into new hybrid forms that combine physical and virtual experiences.

This study highlights the need for a balanced approach that embraces technological innovation while preserving the authenticity, depth, and communal aspects of religious life. Further research is recommended to explore long-term effects of immersive technologies on religious identity and practice in different cultural contexts.

REFERENCES

1. Campbell, H. A. Digital Religion: Understanding Religious Practice in Digital Media. London: Routledge, p. 304, 2020.
2. Campbell, H. A. Digital Religion: Understanding Religious Practice in New Media Worlds. London: Routledge, p. 256, 2022.
3. Campbell, H. A., & Tsuria, R. Digital Religion: Understanding Religious Practice in Digital Media (2nd ed.). London: Routledge, p. 320, 2021.
4. Cheong, P. H. Digital Religion, Social Media and Culture: Perspectives, Practices and Futures. New York: Peter Lang, p. 312, 2021.
5. Hoover, S. M. The Media and Religious Identity. Thousand Oaks: Sage, p. 240, 2017.
6. Hutchings, T. Creating Church Online: Ritual, Community and New Media. New York: Routledge, pp. 197-198, 2023.
7. International Fair and Museum of the Prophet's Biography and Islamic Civilization. Madinah / Makkah: Muslim World League, p. 350, 2021.
8. Lövheim, M. Mediatization of Religion: Contemporary Perspectives. – Stockholm: Nordic Academic Press, pp. 273-275, 2024.
9. Tsuria, R. The impact of digital media on religious practice and community engagement. Journal of Media and Religion, 20(1), 49-55, 2021.

TRASH-TO-CASH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHIQINDILARNI SARALASH ORQALI IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH.

Koilov S. B., Turgunbaev H.B.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika unversteti, Chirchiq, O‘zbekiston
e-mail:rustamov2110@mail.ru

KIRISH. O‘zbekiston sharoitida ham chiqindilarni boshqarish tizimi takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalar asosida yangi yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish masalasidir. Aholi sonining ortib borishi, sanoatning rivojlanishi va iste’mol darajasining oshishi natijasida chiqindilar hajmi keskin ko‘paymoqda. Bu esa atrof-muhitga, inson salomatligiga va umumiy ekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, chiqindilarni saralamasdan umumiy tarzda tashlab yuborish holatlari ko‘pligi muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Shuning uchun chiqindilarni boshqarishda zamonaviy, samarali va aholiga qulay bo‘lgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Aynan shu yerda chiqindilarni iqtisodiy manfaat bilan bog‘lash g‘oyasi juda to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Chunki inson tabiatiga ko‘ra, u o‘ziga foyda keltiradigan ishga ko‘proq intiladi. Agar chiqindini oddiy tashlab yuborish o‘rniga uni topshirib evaziga ma’lum darajada foyda olish imkoniyati bo‘lsa, odamlar bu jarayonda faolroq qatnasha boshlaydi. Shu asosda ishlab chiqilgan “Trash-to-Cash” konsepsiyasi zamonaviy ekologik muammolarga innovatsion yechim sifatida qaralishi mumkin

ASOSIY QISM. Tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Xususan, xalqaro tajribalar tahlili, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. “Trash-to-Cash” platformasi mobil ilova, ma’lumotlar bazasi va token tizimidan iborat integratsiyalashgan model sifatida ishlab chiqildi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi haqida fikr yuritganda, avvalo shuni aytish kerakki, bu ish faqat nazariy qarashlar bilan cheklanib qolmay, balki real hayotdagi muammolarni chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Chunki chiqindilarni boshqarish masalasi faqat bitta yo‘nalish bilan emas, balki iqtisod, ekologiya, ijtimoiy xulq-atvor va texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab tizim hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot jarayonida bir nechta usullarni birgalikda qo‘llash zarurur [1].

Birinchi navbatda, mavzuni o‘rganishda tahliliy yondashuvdan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Bu orqali dunyoning turli davlatlarida qanday tizimlar ishlayotgani, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanadi. Masalan, ayrim davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, boshqalarida bu tizim hali rivojlanish bosqichida ekanligi kuzatiladi. Shu orqali o‘zimiz uchun eng maqbul modelni tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat - bu modellashtirish usulidir. Tadqiqot davomida “Trash-to-Cash” platformasining ishlash jarayoni bosqichma-bosqich tasavvur qilindi. Ya’ni foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tadi, chiqindini topshiradi, tizim uni aniqlaydi va baholaydi, so‘ngra mukofot beradi. Bu jarayonni oldindan modellashtirish orqali tizimning qanchalik samarali ishlashi, qaysi joylarda muammolar yuzaga kelishi mumkinligi haqida xulosa qilish mumkin bo‘ladi. Aynan shu yondashuv kelajakda real loyiha yaratishda juda katta yordam berad[2].

Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda ijtimoiy yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Chunki chiqindilarni saralash masalasi ko‘proq insonlarning odatlari va qarashlariga bog‘liq. Shuning uchun odamlarning bu tizimga qanday munosabatda bo‘lishi, ularni qanday rag‘batlantirish mumkinligi haqida fikr yuritildi. Agar inson bu jarayonda o‘z manfaatini ko‘rsa, u albatta faolroq bo‘ladi degan xulosaga kelindi. Bu esa metodologiyaning ijtimoiy jihatini tashkil etadi. Shuningdek, iqtisodiy yondashuv ham tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ya’ni chiqindilarni saralash orqali qanday iqtisodiy foyda olish mumkinligi, token yoki bonus tizimi qanday ishlashi, bu tizimning xarajat va daromad tomonlari qanday bo‘lishi mumkinligi haqida umumiy hisob-kitoblar qilindi. Bu orqali loyiha nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham asoslanganini ko‘rsatish maqsad qilingan. Yana bir jihat shuki, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari ham metodologiyada alohida o‘rganildi. Mobil ilovalar, ma’lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida chiqindilarni boshqarish jarayonini soddalashtirish mumkinligi ko‘rib chiqildi. Bu esa tizimni yanada qulay, tezkor va shaffof qilishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, unda nazariy tahlil, taqqoslash, modellashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy yondashuvlar birgalikda qo‘llanildi. Menimcha, aynan shunday keng yondashuv orqali chiqindilarni boshqarish muammosiga real va samarali yechim topish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rag‘batlantirish asosida chiqindilarni saralash tizimi joriy etilganda aholining faol ishtiroki keskin ortadi. Shuningdek, qayta ishlash hajmi oshib, chiqindilarni poligonlarga yuborish kamayadi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rag‘batlantirish tizimlari samarali natijalar beradi. Biroq, tizimni joriy etishda infratuzilma, investitsiya va aholining xabardorligi kabi muammolar mavjud [2].

XULOSA. Trash-to-Cash modeli chiqindilarni boshqarishda innovatsion yondashuv sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu tizimni O‘zbekiston sharoitida joriy etish ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Shu tadqiqot davomida “Trash-to-Cash” konsepsiyasining nazariy va amaliy asoslari keng tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, chiqindilarni boshqarishda faqat texnologik yondashuv yetarli emas, balki odamlarning ongli ishtiroki va ularni rag‘batlantirish mexanizmlari ham juda muhim. Ekologik muhitni saqlash, chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishning eng samarali usuli – aholini bu jarayonda faol qatnashishga jalb qilishdir.

“Trash-to-Cash” platformasi aynan shu vazifani bajaradi. Aholi chiqindilarni saralab topshiradi va buning evaziga ma’lum darajada foyda oladi, bu esa inson xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Shu orqali chiqindiga bo‘lgan munosabat o‘zgaradi, chiqindi resurs sifatida qadrlanadi va poligonlarga tushadigan yuk kamayadi. Bundan tashqari, saralangan chiqindilar qayta ishlash uchun xomashyo sifatida ishlatiladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Васина М. В., Бруева О. Ю. Пути решения проблем в области обращения с отходами // Молодой ученый. 2015. №19. С. 90-92.

2. Башкатов Д. А., Русинов Р. А., Полулях Л. А. Подходы к применению искусственного интеллекта для сортировки твердых отходов в России // Международный научно-исследовательский журнал. 2025. № 1(151). DOI: 10.60797/ IRJ.2025.151.72.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON HUKUMAT PLATFORMALARIDA BIZNES JARAYONLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Malikov Samandar Xayitboy o'g'li[1]

1 – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
s.malikov@tuit.uz

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni davlat boshqaruvida tub o'zgarishlarni talab etmoqda. Elektron hukumat platformalari orqali amalga oshiriladigan biznes jarayonlarning samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni intellektual tizimlar bilan boyitish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi – elektron hukumat platformalarida biznes jarayonlarni SI asosida optimallashtirish modelini ishlab chiqish va uni joriy etish samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tizimli tahlil, jarayonlarni modellashtirish (BPMN), hamda machine learning algoritmlaridan foydalangan holda prognozlash modellari. Tadqiqot ob'ekti sifatida "my.gov.uz" va "business.gov.uz" platformalari tanlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, hozirgi elektron hukumat platformalarida biznes jarayonlarning 60–70% hali ham qo'lda boshqariladi, bu esa xizmat ko'rsatish tezligini pasaytiradi va inson omili xatolariga olib keladi [2]. SI asosida ishlaydigan chatbot tizimlarini joriy etish natijasida so'rovlarga javob berish vaqti 3,2 barobarga qisqargani aniqlandi.

Ko'rsatkich	SI joriy etilgunga qadar	SI joriy etilgandan so'ng
Ariza ko'rib chiqish vaqti	5–7 kun	1–2 kun
Xato darajasi (%)	18%	3,2%
Foydalanuvchi qoniqishi	54%	87%

1-Jadval. SI joriy etilgandan oldin va keyin ko'rsatkichlar taqqoslashi

Tahlil shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi tavsiya tizimlari (recommendation systems) va jarayonlarni avtomatlashtirishda RPA (Robotic Process Automation) texnologiyalarini birlashtirish elektron hukumat xizmatlarining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Natural language processing (NLP) modullari yordamida ko'p tilli murojaat ishlov berish tizimini yaratish O'zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi [3].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hukumat platformalariga SI integratsiyasi biznes jarayonlarni tezlashtirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirish imkoniyatini beradi. Kelajakda ushbu modelni boshqa davlat xizmatlari sohasiga kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

[1] Asilbekov B.T., Nazarov I.R. // O'zbekistonda raqamli transformatsiya: muammolar va istiqbollar. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2023. 45–52 b.

[2] Mirzayev O.S. // Elektron hukumat tizimlarida sun'iy intellekt: xalqaro tajriba. – Axborot texnologiyalari jurnali, 2024. №2. 33–41 b.

[3] World Bank Report // Digital Government and AI Integration in Central Asia. Washington, 2024. P. 78–95.

STEM TA’LIMIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Djumabayev G‘ulomjon Xalillayevich

ChDPU professori

Maxamadaliyev Begali

ChDPU talabasi

Orifjonov Alyorbek

ChDPU talabasi

Annotatsiya: STEM ta’limida immersiv texnologiyalar, xususan AR/VR, robototexnika va simulyatsiya tizimlaridan foydalanishning zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda o‘quvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: STEM ta’limi, AR/VR, robototexnika, simulyatsiya.

Hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir paytda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’limi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. STEM ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, texnologik savodxonlik, muhandislik yondashuvi hamda amaliy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu jihatdan, ta’lim jarayoniga immersiv texnologiyalarni joriy etish o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalari murakkab nazariy tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda tushuntirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, fizika fanida elektr maydoni yoki mexanik harakatlarni virtual modellashtirish, biologiya darslarida inson anatomiyasini 3D formatda o‘rganish, kimyo fanida xavfli tajribalarni virtual laboratoriyada bajarish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashiga yordam beradi hamda ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Virtual muhit orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga, mustaqil fikrlashiga va amaliy tajriba orttirishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, robototexnika texnologiyalari STEM ta’limining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, o‘quvchilarning texnik va kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Robotlarni loyihalash va dasturlash jarayonida o‘quvchilar algoritmik fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muhandislik yondashuvlarini qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydi. Ayniqsa, LEGO Mindstorms, Arduino va Raspberry Pi kabi platformalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ilmiy-texnik faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi. Robototexnika yordamida o‘quvchilar turli texnologik loyihalarni ishlab chiqish, sensorli tizimlarni boshqarish va avtomatlashtirilgan qurilmalarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarning innovatsion fikrlashi va jamoaviy ishlash

kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Zamonaviy STEM laboratoriyalarida robototexnika vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar real hayotdagi texnologik muammolarga yechim topishga o‘rganadi hamda kelajak kasblari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bundan tashqari, simulyatsiya texnologiyalari STEM ta’limida real jarayonlarni virtual tarzda modellashtirish imkonini beruvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar orqali murakkab va xavfli jarayonlarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Masalan, aviatsiya sohasida virtual uchish trenajyorlari, muhandislik fanlarida texnik qurilmalarni boshqarish simulyatorlari, fizika va matematika fanlarida esa virtual modellashtirish platformalari keng qo‘llanilmoqda. Simulyatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilar xatolar ustida ishlash, takroriy mashqlar bajarish va turli vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa amaliy tayyorgarlik sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga ham yordam beradi. Shuningdek, immersiv texnologiyalar asosidagi ta’lim muhiti o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu sababli STEM ta’limida AR/VR, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning innovatsion rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

STEM ta’limida immersiv texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. AR/VR, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, ilmiy tafakkurini rivojlantirish hamda texnologik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengaymoqda. Interaktiv va virtual muhit asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, murakkab mavzularni oson va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Immersiv texnologiyalar STEM ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytirib, o‘quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga innovatsion yondashuv hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar real hayotdagi texnologik jarayonlarni modellashtirish va boshqarish tajribasiga ega bo‘ladi. Bu esa kelajakda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kelajakda sun’iy intellekt, virtual platformalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi STEM ta’limining yangi bosqichini shakllantirishi kutilmoqda. Shu sababli ta’lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalarni tashkil etish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov B. “Raqamli pedagogika asoslari”. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.
2. Azimov Q. “STEM ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
3. Johnson L. “Robotics and STEM Education”. – New York, 2021.
4. Ivanova N. “Virtual Reality Technologies in Education”. – Moscow, 2022.
5. UNESCO. “Digital Education Transformation Report”. – Paris, 2024.
6. Rasulov A. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent, 2023.
7. Smith J. “Immersive Technologies in Modern Education”. – London, 2022.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT DIAGNOSTIK VOSITALARINING O‘RNI

Tohirova Zahrooy O‘ktam qizi

Xudoynazarova Gulnoza Habibullo qizi Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Aniq fanlar fakulteti talabasi

Nortojiyeva Durdona Qodirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Aniq fanlar fakulteti talabasi

Dolzarbligi. Zamonaviy inklyuziv ta’limning bosh maqsadi — har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini ҳисобга олган ҳолда sifatli ta’lim olishiga sharoit yaratishdan iborat. Ayniqsa, matematika fani o‘zining mavhumligi, mantiqiy ketma-ketligi va yuqori darajadagi tafakkurni talab qilishi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Matematik tushunchalarning boshlang‘ich bosqichda noto‘g‘ri shakllanishi keyingi bilimlarni o‘zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, son tushunchasi, fazoviy tasavvur, taqqoslash yoki mantiqiy bog‘lanishlarni anglashdagi kamchiliklar keyinchalik murakkab matematik amallarni bajarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv sinflarda neyrotipik o‘quvchilar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan (ATEB) bolalar ham ta’lim oladi. Bunday sharoitda o‘quvchilarning bilim darajasi, qabul qilish tezligi, xotira va tafakkur jarayonlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shu sababli an’anaviy diagnostika usullari — testlar, yozma ishlar yoki og‘zaki savol-javoblar — ko‘pincha o‘quvchining haqiqiy bilim darajasi va muammoning tub sababini aniq ko‘rsatib bera olmaydi. Ayrim hollarda o‘quvchi matematik topshiriqni bajara olmasligi bilim yetishmasligi emas, balki diqqat, idrok, nutq yoki vizual qabul qilishdagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim diagnostikasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi diagnostik vositalar o‘quvchilarning xatti-harakati, javob berish tezligi, xatolar turi va takrorlanish holatlarini tahlil qilib, individual o‘quv profillarini shakllantira oladi. Bu esa har bir o‘quvchining matematik tushunchalarni qay darajada o‘zlashtirayotganini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni erta bosqichda aniqlash va individual yondashuv asosida korreksion ta’limni tashkil etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellektli diagnostik platformalar o‘qituvchiga katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va moslashtirilgan topshiriqlarni tavsiya etishda yordam beradi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida bu vositalar differensial yondashuvni samarali tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning matematik tushunchalarini shakllantirishda sun’iy intellekt diagnostik vositalarining o‘rnini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini samarali shakllantirish hamda baholashda sun’iy intellektga asoslangan diagnostik vositalarning pedagogik imkoniyatlari, afzalliklari va samaradorligini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va matematik tushunchalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash, ularga mos differensial yondashuvni ishlab chiqish hamda ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlarini asoslash ko‘zda tutiladi.

Bundan tashqari, inklyuziv sinflarda ATEB va neyrotipik o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda sun’iy intellektli diagnostik platformalardan foydalanishning samarali metod va mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish ham tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Asosiy qism va tahlil

Sun’iy intellektga asoslangan diagnostik vositalar an’anaviy baholash tizimidan tubdan farq qiladi. An’anaviy usullar asosan o‘quvchining yakuniy natijasini — javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini baholasa, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchining fikrlash jarayoni, topshiriqni bajarish bosqichlari va individual o‘rganish uslubini (cognitive path) chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida bu vositalar alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan (ATEB) o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Sun’iy intellekt diagnostikasining asosiy afzalliklaridan biri — formativ adaptiv baholashni amalga oshirishidir. Bunda tizim o‘quvchining topshiriqni bajarish tezligi, xatolarining turi, qayta urinishlar soni va javob berishdagi qiyinchiliklarini doimiy monitoring qilib boradi. Masalan, disvalkuliya yoki diqqat yetishmovchiligi bo‘lgan o‘quvchi oddiy matematik amallarni bajarishda qiynalsa, tizim bu holatni avtomatik aniqlaydi va unga moslashtirilgan vizual topshiriqlar, interaktiv modellar yoki soddalashtirilgan mashqlarni tavsiya qiladi. Bu esa o‘quvchining individual imkoniyatiga mos ta’lim tashkil etishga yordam beradi.

Xalqaro tajribada bunday texnologiyalar samaradorligi bir qator platformalar misolida isbotlangan. Jumladan, Carnegie Learning kompaniyasining MathIA platformasi sun’iy intellekt yordamida o‘quvchining matematik fikrlash jarayonini bosqichma-bosqich kuzatadi. Agar o‘quvchi tenglamani yechishda xato qilsa, tizim faqat noto‘g‘ri javobni qayd etmaydi, balki xatoning sababini ham aniqlaydi. Masalan, manfiy sonlar bilan ishlashdagi qiyinchilik yoki fazoviy tasavvurning yetarli emasligi kabi muammolarni aniqlab, o‘quvchiga mikro-bosqichli (micro-steps) interaktiv tushuntirishlarni taqdim etadi.

Shuningdek, DreamBox Learning platformasi moslashuvchan vizualizatsiya asosida ishlaydi. Ayniqsa, eshitishida yoki nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bu tizim matematik tushunchalarni vizual vositalar orqali o‘rgatadi. Platforma o‘quvchining har bir harakatini tahlil qilib, real vaqt rejimida topshiriqlarni moslashtiradi. Raqamli chiziqlar, interaktiv bloklar va animatsion shakllar yordamida bolalarda son tarkibi, geometrik shakllar va fazoviy tasavvurlar shakllantiriladi.

Sun’iy intellekt diagnostikasining yana bir muhim jihati — bilimdagi bo‘shliqlarni aniq lokallashtirish imkoniyatidir. Matematik tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lgani sababli, ayrim mavzularni o‘zlashtirmaslik keyingi bosqichlarga salbiy ta’sir qiladi. Masalan, Khan

Academy’ning smart diagnostika tizimi o‘quvchining kasrlar mavzusidagi qiyinchiliklari aslida EKUK yoki ko‘paytirish jadvali bo‘yicha bilim yetishmasligidan kelib chiqayotganini aniqlaydi. Natijada tizim o‘qituvchiga individual metodik tavsiyalar va har bir o‘quvchi uchun alohida rivojlanish panelini (dashboard) taqdim etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning psixo-emotsional holatini ham monitoring qilish imkoniga ega. Inklyuziv ta’lim muhitida ATEB o‘quvchilar tez charchashi yoki motivatsiyasini yo‘qotishi mumkin. Tizim javob berish tezligi pasayishi yoki xatolar sonining ortishiga qarab charchoq darajasini aniqlaydi va topshiriqlar murakkabligini avtomatik ravishda moslashtiradi. Ayrim hollarda geymifikatsiya elementlari qo‘shilib, o‘quvchining qiziqishi va motivatsiyasi saqlab qolinadi.

Demak, sun’iy intellektga asoslangan diagnostik vositalar inklyuziv ta’limda nafaqat baholash, balki individual rivojlantirish, differensial yondashuvni tashkil etish va matematik kompetensiyalarni samarali shakllantirishning innovatsion pedagogik mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim muhitida sun’iy intellektga asoslangan diagnostik vositalar o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi emas, balki uning pedagogik va metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy innovatsion ko‘makchi vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, individual qiyinchiliklari va matematik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni aniq hamda tezkor diagnostika qilinadi.

Sun’iy intellekt diagnostikasi ayniqsa alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan (ATEB) o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini erta aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish, moslashtirilgan topshiriqlarni tanlash va matematik kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, fazoviy tasavvuri va matematik tafakkuri samarali rivojlanadi.

Shuningdek, sun’iy intellektli diagnostik platformalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va differensial yondashuvni tashkil etishda katta yordam beradi. Bu esa inklyuziv sinflarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt diagnostik vositalarini pedagogik amaliyotga tizimli ravishda joriy etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim innovatsion yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kelajakda individual va adaptiv ta’limni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). *Educational Data Mining and Learning Analytics*. In J. A. Larusson & B. White (Eds.), *Learning Analytics* (pp. 61–75). New York: Springer.

2. Butterworth, B., Varma, S., & Laurillard, D. (2011). Dyscalculia: From Brain to Education. *Science*, 332(6033), 1049–1053.

3. Drigas, A., & Ioannidou, R. E. (2013). Artificial Intelligence in Special Education: A Review. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 8(4), 46–51.

4. EGMA (Early Grade Mathematics Assessment) metodologik materiallari: boshlang‘ich matematik tushunchalarni xalqaro diagnostika qilish standartlari.

5. G‘oziyev, E. G‘. (2010). *Tafakkur psixologiyasi*. Toshkent: O‘qituvchi.

6. Карабанова, О. А. (2005). *Возрастная психология*. Москва: Айрис-пресс.

7. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson.

8. Mo‘minova, L. R. (2021). *Inklyuziv ta’limning metodologik asoslari*. Toshkent.

9. Назарова, Н. М. (2010). *Сравнительная специальная педагогика*. Москва: Академия.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

11. UNESCO. (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-Makers*. Paris: UNESCO Publishing.

12. Vygotsky, L. S. (1993). *The Collected Works of L. S. Vygotsky: Volume 2. Fundamentals of Defectology (Dysontogenesis)*. Springer Science & Business Media.

13. Выготский, Л. С. (2003). *Педагогическая психология*. Москва: Педагогика-Пресс.

RAQAMLI TO‘LOV EKOTIZIMIDA TELEKOMMUNIKATSIYA OPERATORINING BIRLAMCHI IQTISODIY ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN MODEL

Nuraliyev Nurbek Rustam o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, iqtisodiyot yo‘nalishi doktoranti

Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda to‘lov tizimlari infratuzilmasi tobora murakkablashib bormoqda. An‘anaviy adabiyotda telekommunikatsiya operatorlari ikki paradigmada ko‘riladi: aloqa infratuzilmasi ta‘minotchisi yoki bank xizmatlarining yordamchi kanali. Ushbu tadqiqotda ushbu paradigmalarning kamchiligi ko‘rsatilib, «Telco-Payment Operator» (TPO) modeli taklif etilmoqda.

O‘zbekiston Markaziy bankining (O‘MB) 2026 yilgi Cash Circulation Review hisobotiga ko‘ra, 2025 yilda terminal va mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar ulushi 43 foizga yetdi, jami pul aylanmasi esa 1 075 trillion so‘mni tashkil etib 2024 yilga nisbatan 28 foizga o‘sdi. Hukumatning «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasi 2030 yilga qadar naqd pulsiz to‘lovlar ulushini 75 foizga yetkazishni maqsad qilgan — ya‘ni hali 32 foiz band bo‘shliq mavjud.

KPMG Caucasus and Central Asia (2024) tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekistonda bank inklyuziyasi 49 foiz, naqd pulsiz to‘lovlar penetratsiyasi esa 33 foizni tashkil etadi. Biroq SIM-karta penetratsiyasi 91 foizdan ortiq. Bu 42 foiz bandlik farq — ya‘ni aholining katta qismi bank hisobvarag‘isiz bo‘la turib, telefon raqamiga ega. Aynan shu nuqta TPO modelining asosiy aksiomasi hisoblanadi: telefon raqami bank hisobvarag‘idan ko‘ra keng tarqalgan identifikator.

TPO modelining nazariy asoslari:

Rochet-Tirole (2003) ko‘p tomonlama platforma nazariyasiga ko‘ra, ikki yoki undan ortiq foydalanuvchi guruhini birlashtirgan platforma egasi kuchli iqtisodiy imtiyozlarga ega. Williamson (1985) tranzaksiya xarajatlari nazariyasi esa raqamli autentifikatsiya tizimlarining qidiruv, muzokaralar va nazorat xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini asoslaydi.

Uztelecom — mamlakatning 94,25 foizi davlat ulushiga ega eng yirik telekommunikatsiya operatori bo‘lib, 88 foiz hududni optik tarmoq bilan qamrab olgan va 2023 yilda 6 000 dan ortiq yangi baza stansiyasini ishga tushirgan. Kompaniya mobil segmentda 7,8 mln abonentga ega. Bu infratuzilma bank filiallarining geografik qamrovidan ancha keng.

TPO modeli uch qatlamdan iborat: (1) identifikatsiya qatlami — SIM-karta orqali MSISDN universal moliyaviy identifikator sifatida; (2) platforma qatlami — foydalanuvchilar va moliyaviy xizmatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama bozor; (3) infratuzilma qatlami — 88 foiz optik tarmoq va 5G. Ushbu model M-Pesa (Keniya, bank inklyuziyasi 26 foizdan 84 foizga) va UPI (Hindiston, 131 mlrd tranzaksiya/yil) tajribasidan farqli o‘laroq, Telco ni moliya kompaniyasiga aylantirib yubormasdan, faqat identifikatsiya va platforma operatori sifatida belgilaydi. Bank esa faqat moliyaviy lisenziyalangan processor sifatida ishlaydi.

Taklif etilayotgan model O‘zbekiston uchun quyidagi strategik ahamiyatga ega:

Birinchidan, 2030 yilga qadar 75 foizlik maqsadga erishish uchun qo‘shimcha 3,2 mln foydalanuvchini raqamli to‘lov tizimiga jalb qilish zarur — TPO modeli SIM-identifikatsiya

orqali bu aholini qamrab olishning eng arzon yo‘li. Ikkinchidan, UZCARD/Plum Technologies SMS-xabarnoma narxini 168,40 so‘mga ko‘tarishi (2025, mart) va aloqa operatorlari SMS narxining 300 foizga oshishi (Play Mobile, 2025) SMS-OTP tizimining iqtisodiy samarasizligini ko‘rsatmoqda. TPO modeli bu xarajatni sezilarli kamaytirishga imkon beradi. Uchinchidan, Toshkent jamoat transportida naqd pulsiz to‘lovga o‘tish tranzaksiyalarni 38 foizga, byudjet daromadlarini 129 foizga oshirgani (Euronews, 2026) raqamli to‘lovga o‘tishning aniq iqtisodiy samarasini ko‘rsatdi.

Xulosa: Ushbu tadqiqotda TPO modeli O‘zbekistonning raqamli to‘lov ekotizimi uchun nazariy jihatdan asoslantirildi. Kelajakdagi tadqiqotda Uztelecom asosida pilot loyiha amalga oshirilib, TPO modelining iqtisodiy samarasi empirik baholanishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘MB. Cash Circulation Review 2025. – Toshkent: O‘MB, 2026. (Anhor.uz, 14.02.2026)

2. KPMG Caucasus and Central Asia. B2C Payments, POS Financing and BNPL in Uzbekistan. – 2024.

3. Rochet J.C., Tirole J. Platform Competition in Two-Sided Markets // JNEA. – 2003. – Vol.1(4). – P.990–1029.

4. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.

5. Jack W., Suri T. Mobile Money: The Economics of M-Pesa. NBER WP No. 16721. – 2011.

6. Uztelecom/Kun.uz. Zafarli yutuqlar va yangi marralar yili. – 28.12.2023.

7. Euronews. Uzbekistan sees lower shadow economy share as cashless payments rise. – 23.01.2026.

8. Play Mobile. SMS-xabarnoma narxlari o‘zgarishi bayonoti. – Gazeta.uz, 17.02.2025.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TO‘LOVLARNING BANK TIZIMIGA TA‘SIRI: EMPIRIK TAHLIL NATIJALARI (2020–2024)

Nuraliyev Nurbek Rustam o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, iqtisodiyot yo‘nalishi doktoranti

Raqamli to‘lovlarning bank tizimiga ta‘siri ko‘p qirrali bo‘lib, faqat ijobiy emas, balki kapital boshqaruvi, raqobat va kiberhavfsizlik kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston bank tizimining 2020–2024 yillar ko‘rsatkichlari faqat tekshirilgan rasmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi:

O‘MB rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, terminal to‘lovlar ulushi 2021 yildagi 31 foizdan 2024 yildagi 40 foizga ko‘tarildi (+9 pp). Shu davrda bank tizimining kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR) 19,2 foizdan 17,0 foizga pasaydi (−2,2 pp). O‘tkazilgan Pearson korrelyatsiya tahlilida r=−0,982 (p=0,018, n=4) statistik jihatdan muhim teskari bog‘liqlik aniqlandi.

1-jadval. O‘zbekiston bank tizimi va raqamli to‘lovlar ko‘rsatkichlari (2021–2024)

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	Manba
Terminal to‘lovlar ulushi (%)	31,0	34,0	38,0	40,0	O‘MB / Tashkent Times (2024)
CAR (%)	19,2	18,8	17,8	17,0	O‘MB FSR; IMF FSAP 2025
ROE (%)	—	—	17,9	17,1	Peerian Journal / O‘MB
Kreditlar o‘sishi (%)	—	—	21,0	—	O‘MB molbarq. sharhi 2023
LCR (%)	—	—	—	194	O‘MB FSR 2024

Manba: muallif tizimlashtiruvi. — = ma‘lumot ushbu yilga rasmiy manbada alohida ko‘rsatilmagan.

Ushbu natijalar paradoksal ko‘rinishi mumkin: raqamli to‘lovlar oshganda CAR kamaymoqda. Biroq mexanizm quyidagicha: raqamli to‘lovlar kredit jalb qilishni osonlashtirdi → 2023 yilda kreditlar 21 foiz o‘sdi (O‘MB molbarq. sharhi, 2024) → aktiv bazasi kengaydi → kapital yetarliligi nisbatiga bosim tushdi. Biroq CAR hali ham belgilangan 13 foizlik minimumdan ancha yuqori (17 foiz), Likvidlik qamrov koeffitsienti (LCR) esa 194 foizga yetdi (O‘MB FSR 2024).

Raqamli to‘lovlarning bank tizimiga ta‘sirining uchta kanali:

Birinchi — daromad kanali: TBC Uzbekistan ning rasmiy hisobotiga ko‘ra, 2024 yilda umumiy operatsion daromad 108 foizga o‘sib, 1,9 trillion so‘mga yetdi. Oylik faol

foydalanuvchilar 5,9 mln (+38%), kredit portfeli 112 foizga o‘sdi. Bu raqamli banking platformasining bank daromadiga bevosita ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ikkinchi — samaradorlik kanali: Kursiv.uz (O‘MB ma‘lumotlari asosida, 2025) ko‘rsatishicha, 2025 yilning birinchi to‘rt oyida bank tizimining sof foydasi 42 foizga o‘sdi, aktivlar rentabelligi (ROA) 2,50 foizdan 2,76 foizga yaxshilandi. Raqamli kanallar orqali xizmat ko‘rsatish operatsion xarajatlarni kamaytirgan.

Uchinchi — inklyuziya kanali: 2023 yilda mobil banking ilovalar foydalanuvchilari 28 foizga ko‘paydi (Legal500, 2024). Toshkent jamoat transportida naqd pulsiz to‘lovga o‘tish natijasida tranzaksiya hajmi 38 foizga ko‘paydi, byudjet daromadlari 129 foizga o‘sdi (Euronews, 2026).

Xatarlar va cheklovlar:

IMF/Jahon banki FSAP 2025 hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimi uchun asosiy xatarlarga quyidagilar kiradi: mikrokreditlarning tez o‘sishi (2024 H1 da +77 foiz); o‘rta muddatda qattiq stresst-test stsenariysida ba‘zi banklarda kapital yetarliligi minimumdan pastga tushishi ehtimoli; kiberhavfsizlik tahdidlari (2022 yilda 18 ta kiberataqa, Legal500, 2024). Bu xatarlarni hisobga olgan holda, O‘MB ning makroprudensial siyosatni kuchaytirish rejalari strategik jihatdan o‘z vaqtida.

Xalqaro taqqos:

O‘zbekiston bank tizimi MDH mintaqasida yetakchi ko‘rsatkichlarga ega: ROA 2,50–2,76 foiz, CAR 17 foiz, NPL nisbati 2,9 foiz — mintaqa uchun eng past (AJEBM, 2026). Bu raqamli to‘lovlar kengayishi bilan birga bank tizimi barqarorligi saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda.

Xulosalar va tavsiyalar:

Birinchi xulosa: Terminal to‘lovlar ulushi oshishi va CAR pasayishi o‘rtasida $r=-0,982$ ($p=0,018$) statistik muhim teskari bog‘liqlik mavjud. Bu kredit o‘sishi mexanizmi orqali izohlanadi, banklar zaifligini anglatmaydi. Ikkinchi xulosa: Raqamli to‘lovlar bank tizimiga daromad, samaradorlik va inklyuziya kanallari orqali asosan ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Uchinchi xulosa: Kredit o‘sishining tezlashishi fonida O‘MB ning kontrsiklik kapital buferi kiritish rejasi strategik jihatdan muhim. Tavsiya: kelajakdagi tadqiqotda O‘MB oylik ma‘lumotlari asosida kengaytirilgan panel tahlil ($n\geq48$) o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘MB. Financial Stability Report for 2024. – Toshkent: O‘MB, 2025. (cbu.uz/en/press_center/releases/2489245)

2. O‘MB. Moliyaviy barqarorlik sharhi 2023. – Toshkent: O‘MB, 2024. Kreditlar +21%, depozitlar +12%.

3. IMF/World Bank. Financial Sector Assessment Program: Uzbekistan. – Washington, 2025.

4. Tashkent Times. Cash circulation is declining again. – 07.02.2024; Zamin.uz. – 17.01.2025.

5. TBC Uzbekistan. 2024-yilgi MHXS bo‘yicha moliyaviy natijalar. – bank.uz, 2025.

6. Kursiv.uz. O‘zbekiston banklari 2025-yil to‘rt oyida 4,3 trln so‘m foyda oldi. – 29.05.2025.

7. Scenarios of Development of the Banking System of Uzbekistan Until 2030. // AJEBM. – 2026.

8. Euronews. Uzbekistan sees lower shadow economy share as cashless payments rise. – 23.01.2026.

9. Legal500. Digital Payments in Uzbekistan: Legal Reforms and Global Implications. – 2024.

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN RAQAMLI EKOTIZIM MODELI ORQALI TALABALARNING MUSTAQIL O‘RGANISHINI BOSHQARISH

Eldor Umarov Do‘syarovich

Ilxom Ismoilov Turshunbayevich

Muhammadali Abduxamidov Alisher o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan Machine Learning va Learning Analytics yondashuvlarining zamonaviy raqamli ta’lim ekotizimidagi o‘rni va vazifalari tahlil qilingan. Talabalarning mustaqil o‘rganishini boshqarish jarayonida ushbu texnologiyalar yordamida o‘quv faoliyatini monitoring qilish, bilim darajasini prognozlash va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, adaptiv ta’limni tashkil etish, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va ta’lim sifatini oshirishda Learning Analyticsning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, Machine Learning, Learning Analytics, adaptiv ta’lim, mustaqil o‘rganish, ta’lim ekotizimi.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и функции технологий Machine Learning и Learning Analytics, основанных на искусственном интеллекте, в современной цифровой образовательной экосистеме. Рассматриваются возможности управления самостоятельным обучением студентов через мониторинг учебной деятельности, прогнозирование уровня знаний и формирование индивидуальных образовательных траекторий. Также обосновывается значение Learning Analytics в организации адаптивного обучения, принятии решений на основе данных и повышении качества образования.

Ключевые слова: цифровое образование, искусственный интеллект, Machine Learning, Learning Analytics, адаптивное обучение, самостоятельное обучение, образовательная экосистема.

Abstract. This article analyzes the role and functions of Machine Learning and Learning Analytics technologies based on artificial intelligence in the modern digital educational ecosystem. It highlights their capabilities in managing students’ independent learning through monitoring learning activities, predicting academic performance, and forming personalized learning pathways. The study also emphasizes the importance of Learning Analytics in implementing adaptive learning, data-driven decision-making, and improving the quality of education.

Keywords: digital education, artificial intelligence, Machine Learning, Learning Analytics, adaptive learning, independent learning, educational ecosystem.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, AR/VR, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalari zamonaviy fanlarni o‘qitishda shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta’lim sifatini kafolatlovchi strategik elementdir. Ushbu vositalarni o‘quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish bo‘lajak kadrlarning amaliy va texnologik kompetensiyalarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Texnik fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari, simulyatsiya va modellashtirish, interaktiv ta’lim platformalari, 3D printerlar va robototexnika hamda bulutli texnologiyalar talabalarni nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi talabalarning o‘quv jarayonini qanday o‘zgartirayotgani va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani aniq. Bu texnologiyalar orqali talabalar texnik sohada yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lib yetishadilar. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi texnik fanlarning o‘qitilishini yangi bosqichga olib chiqadi va ta’lim sifatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Azizov A.A. Ta’limda raqamli texnologiyalar va immersiv muhit. – Toshkent, 2024.

2.Milgram, P., & Kishino, F. (1994). A taxonomy of mixed reality visual displays. IEICE Transactions on Information and Systems.

3. Dalinger, V. A. (2023). Digital didactics: virtualization of the educational space. Journal of Digital Educational Technologies, 4(2), 112-125. (Raqamli didaktika va virtual makon muammolari).

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O‘QITISHDA AQLLI TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH

Axmatjanova M.M. Rizayeva S.D.

1-2-Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston,
xakimovamuxlisa987@gmail.com, ma’ruzasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aqlli ta’lim platformalari va sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv o‘qitishni tashkil etishda zamonaviy raqamli platformalarning o‘rni, ta’lim jarayonini individuallashtirish, masofaviy ta’limni rivojlantirish hamda baholash tizimini avtomatlashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada aqlli ta’lim platformalarining o‘quvchilar mustaqil ta’limini rivojlantirishdagi ahamiyati va ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy asosda bayon etilgan. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Aqlli ta’lim platformalari, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘qitish, masofaviy ta’lim, adaptiv ta’lim, elektron ta’lim, pedagogik texnologiyalar, avtomatlashtirilgan baholash, ta’lim samaradorligi, virtual ta’lim muhiti, innovatsion ta’lim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, aqlli ta’lim platformalari zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu platformalar o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, interaktiv muhit yaratish hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim berish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Aqlli ta’lim platformalari — bu sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili va interaktiv vositalar asosida ishlovchi zamonaviy elektron ta’lim tizimlaridir [4]. Ular yordamida masofaviy ta’limni tashkil etish, topshiriqlarni avtomatik tekshirish, o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Moodle, Google Classroom, Coursera, Edmodo kabi platformalar bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan aqlli ta’lim tizimlari hisoblanadi .

Aqlli ta’lim platformalarining asosiy imkoniyatlaridan biri — ta’lim jarayonini individuallashtirishdir. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish sur’atiga mos ravishda topshiriqlar taqdim etilishi ta’lim samaradorligini oshiradi [3]. Sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalar beradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, aqlli platformalar interaktiv ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Video darslar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari, forumlar va onlayn muloqot vositalari orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Natijada o‘quvchilarning motivatsiyasi ortadi va mavzularni chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Aqlli ta’lim platformalarining yana bir afzalligi — vaqt va resurslarni tejashidir. O‘qituvchi topshiriqlarni elektron shaklda joylashtirishi, avtomatik baholash tizimidan foydalanishi va o‘quvchilarning natijalarini tezkor kuzatishi mumkin. Bu esa pedagogning ortiqcha vaqt sarfini kamaytirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, aqlli platformalar masofaviy ta’limni samarali tashkil etishda katta imkoniyat yaratadi. Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidan turib ta’lim olish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, pandemiya davrida bunday platformalarning ahamiyati yanada oshdi . Onlayn ta’lim tizimlari ta’limning uzluksizligini ta’minlashda muhim vosita bo‘ldi.

Aqlli ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, interaktiv va qulay ta’lim muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan aqlli ta’lim platformalarining imkoniyatlari yanada kengayishi kutilmoqda [7].

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining barcha bosqichlariga faol kirib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini individual tarzda rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari — bu ma’lumotlarni tahlil qilish, foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish va avtomatik tavsiyalar berish imkoniyatiga ega bo‘lgan raqamli ta’lim tizimlaridir [2]. Bunday platformalar o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligini aniqlab, ularga mos o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Natijada ta’lim jarayoni individuallashtiriladi va o‘quvchilarning bilim olish samaradorligi ortadi.

Mazkur platformalarning asosiy pedagogik imkoniyatlaridan biri — adaptiv ta’limni tashkil etishdir. Adaptiv ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta’lim mazmunini moslashtiradi [6]. Sun’iy intellekt algoritmlari orqali o‘quvchilarning xatolari tahlil qilinadi va ularga mos tavsiyalar beriladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda o‘zlashtirish sifatini oshiradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt platformalari interaktiv ta’lim muhitini yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Virtual laboratoriyalar, aqlli test tizimlari, chatbotlar va onlayn yordamchi dasturlar o‘quvchilar bilan tezkor muloqotni ta’minlaydi. Ayniqsa, chatbot texnologiyalari talabalarning savollariga tezkor javob berish, murakkab mavzularni tushuntirish va o‘quv jarayonida doimiy yordam ko‘rsatishda samarali vosita hisoblanadi.

Sun’iy intellekt asosidagi platformalarning yana bir muhim pedagogik jihati — baholash tizimini avtomatlashtirishdir. An’anaviy baholash usullarida o‘qituvchi ko‘p vaqt sarflasa, AI texnologiyalari yordamida testlar va topshiriqlar avtomatik tekshiriladi hamda natijalar tezkor tahlil qilinadi. Bu esa o‘qituvchining ish yukini kamaytirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari masofaviy ta’limni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, pandemiya davrida AI asosidagi platformalar ta’limning uzluksizligini ta’minlashda muhim vosita bo‘ldi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt platformalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, internet tezligi bilan bog‘liq muammolar va ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining pastligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun pedagoglarni zamonaviy AI texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Demak, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ular ta’limni individuallashtirish, interaktiv muhit yaratish, baholash jarayonini avtomatlashtirish va o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini

rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan ta’lim tizimida yanada keng imkoniyatlar paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayoni jadal rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, aqlli ta’lim platformalari yordamida interaktiv o‘qitishni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday platformalar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Aqlli ta’lim platformalari — sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va interaktiv dasturlar asosida faoliyat yurituvchi zamonaviy elektron ta’lim tizimlaridir [2]. Ushbu platformalar yordamida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida doimiy muloqot tashkil etiladi, o‘quv materiallari elektron shaklda taqdim qilinadi hamda ta’lim jarayoni avtomatlashtiriladi.

Interaktiv o‘qitish — bu o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Aqlli ta’lim platformalari ushbu jarayonni samarali tashkil etishga keng imkoniyat yaratadi. Masalan, video konferensiyalar, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar, forumlar va chat tizimlari orqali o‘quvchilar darsda faol qatnashadilar hamda o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5].

Aqlli platformalarning muhim afzalliklaridan biri — ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatidir. Har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga qarab topshiriqlar berilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi [1]. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalar va qo‘shimcha materiallar taqdim etadi. Bu esa interaktiv ta’lim muhitining yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, aqlli ta’lim platformalari o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Elektron kutubxonalar, video darslar, simulyatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar mavzuni mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Interaktiv o‘qitishda baholash jarayonining avtomatlashtirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Aqlli platformalar yordamida test natijalari avtomatik tekshiriladi, statistik tahlillar amalga oshiriladi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi tezkor aniqlanadi. Bu esa o‘qituvchining vaqtini tejaydi va baholashning shaffofligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, aqlli platformalar masofaviy ta’limni samarali tashkil etishda katta imkoniyat yaratadi. Internet orqali istalgan joydan turib darslarda qatnashish, topshiriqlarni bajarish va o‘qituvchi bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, pandemiya davrida bunday platformalarning ahamiyati yanada ortdi.

Shu bilan birga, aqlli ta’lim platformalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham uchrab turadi. Jumladan, texnik vositalarning yetarli emasligi, internet bilan bog‘liq muammolar va ayrim o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi interaktiv o‘qitish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun pedagoglarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, aqlli ta’lim platformalari yordamida interaktiv o‘qitishni tashkil etish zamonaviy ta’limning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu platformalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil ta’limni rivojlantirish, baholash tizimini avtomatlashtirish hamda ta’lim jarayonini qulay va samarali tashkil etishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. Alimov R.X. *Axborot texnologiyalari va ularni ta'limda qo'llash*. – Toshkent, 2022.
9. Bates A.W. *Teaching in a Digital Age*. – Vancouver, BC: Tony Bates Associates Ltd, 2019.
10. Ishmuhamedov R. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2020.
11. Karimov U. *Raqamli ta'lim texnologiyalari asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
12. Moodle Official Documentation.
13. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2017.
14. UNESCO. *Digital Education Transformation*. – Paris, 2023.

YEVKLID FAZOSINI O‘RGANISHDA INTELLEKTUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH

Taymanova Elnora Lutfullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Ibragimova Aziza Ibodjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

Matematika fanining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan algebra va matematik analizda turli xil fazolar, ayniqsa Yevklid fazosi alohida o‘rin tutadi. Yevklid fazosi — bu vektorlar to‘plami bo‘lib, unda vektorlar ustida qo‘shish, songa ko‘paytirish kabi amallar bajariladi va ular orasidagi masofa hamda burchakni aniqlash imkoniyati mavjud. Bu fazo nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy masalalarni yechishda ham juda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: fazo, Yevklid fazosi, skalyar ko‘paytma, vector, vector uzunligi, orthogonal, ortonormal, Geogebra, Desmos, Wolfram/Alpha, Sun’iy intelekt

В алгебре и математическом анализе, являющихся одним из важных разделов математики, особое место занимают различные пространства, особенно евклидово пространство. Евклидово пространство — это множество векторов, в котором над векторами выполняются такие операции, как сложение, умножение на число, и есть возможность определить расстояние и угол между ними. Это пространство имеет очень важное значение не только с теоретической точки зрения, но и при решении практических задач.

Ключевые слова: пространство, Евклидово пространство, скалярное произведение, вектор, длина вектора, ортогональная, ортонормальная, Geogebra, Desmos, Wolfram/Alpha, Искусственный интеллект

In algebra and mathematical analysis, which are important branches of mathematics, various spaces, especially Euclidean space, occupy a special place. A Euclidean space is a set of vectors in which operations such as addition, multiplication by a number, and the ability to determine the distance and angle between them are performed on the vectors. This space is of great importance not only from a theoretical perspective but also in solving practical problems.

Keywords: space, Euclidean space, scalar product, vector, vector length, orthogonal, orthonormal, Geogebra, Desmos, Wolfram/Alpha, Artificial Intelligence

Yevklid fazosida asosiy tushunchalardan biri bu skalyar ko‘paytma bo‘lib, u orqali vektorlarning uzunligi (normasi), ular orasidagi burchak va o‘zaro yaqinligi aniqlanadi. Shu sababli, skalyar ko‘paytma bilan bog‘liq tengsizliklar matematikada muhim o‘rin egallaydi.

Ana shunday muhim tengsizliklardan biri — Koshi–Bunyakovskiy tengsizligidir. Bu tengsizlik ikki vektorning skalyar ko‘paytmasi ularning uzunliklari ko‘paytmasidan katta bo‘lmasligini ifodalaydi. Ushbu tengsizlik nafaqat algebra va geometriyada, balki matematik analiz, ehtimollar nazariyasi, statistika hamda fizika kabi fanlarda ham keng qo‘llaniladi.

Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi yordamida ko‘plab murakkab masalalarni soddalashtirish, baholash va yechimlarni isbotlash mumkin. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur o‘rganish matematik bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda Yevklid fazosining asosiy tushunchalari, skalyar ko‘paytma, vektorlar orasidagi munosabatlar hamda Koshi–Bunyakovskiy tengsizligining mazmuni va qo‘llanilishi keng yoritib beriladi. Bundan tashqari, Yevklid fazosi tushunchasi orqali nafaqat oddiy ikki yoki uch o‘lchamli fazolar, balki yuqori o‘lchamli fazolar ham o‘rganiladi. Bu esa zamonaviy matematika, kompyuter grafikasi, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Yevklid fazosidagi vektorlar orasidagi munosabatlarni o‘rganishda turli tengsizliklar katta rol o‘ynaydi. Ular yordamida vektorlar orasidagi bog‘lanishlarni baholash, chegaralash va aniqlash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi universal xususiyatga ega bo‘lib, u ko‘plab matematik natijalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tengsizlikni tushunish orqali talaba nafaqat formulani yodlaydi, balki uning mohiyatini anglab yetadi. Bu esa matematik tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shu jihatdan, mazkur mavzuni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki amaliy masalalarni samarali hal qilish imkonini ham beradi.

Ba’zi mavzularda chiziqli fazoni qo’shish va songa ko’paytirish amallari bajariladigan vektorlar to’plami sifatida ta’riflagan edik. Ammo faqat qo’shish va songa ko’paytirish ammallari yordamida vektorlarning uzunligi,vektorlar orasidagi burchak tushunchalarini ta’riflab bo’lmaydi.Buning uchun chiziqli fazoda skalyar ko’paytma tushunchasini kiritish kerak.Vektorlarni qo’shish, ularni songa ko’payti-rish va vektorlarning skalyar ko’paytmasini terminlari yordamida Yevklid geomet-riyasini bayon qilish mumkin.Bizga haqiqiy sonlar maydonida aniqlangan V chiziq fazo berilgan bo’lsin.

1-Ta’rif. Agar $x, y \epsilon V$ vektorlarning har bir juftiga (x,y) haqiqiy son mos qo’yilgan bo’lib, bu moslik quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, V chiziqli fazoda skalyar ko’paytma aniqlangan deyiladi:

1) $(x, y) = (y, x)$;
2) $(\alpha x, y) = \alpha(x, y)$;
3) $(x_1 + x_2, y) = (x_1, y) + (x_2, y)$;
4) $(x, x) \geq 0, (x, x) = 0 \ \rightarrow \ x = 0$

Boshqacha qilib aytganda skalyar ko’paytma bu $V \times$V to’plamni R maydoniga o’tkazib,yuqorida berilgan $1) - 4)$ shartlsrni qanoatlantiruvchi akslantirishdir. Skalyar ko’paytma aniqlangan chiziqli fazo Yevklid fazosi deb ataladi.

1-misol.

a) V fazo sifatida elementar geometriyada o’rganiladigan uch o’lchamli fazoni olaylik. Vektorlarning skalyar ko’paytmasini ularning uzunliklari va orasidagi burchak kosinusi ko’paytmasi sifatida aniqlaymiz, ya’ni:

$$(x, y) = |x| \cdot |y| \cdot \cos \alpha$$

Bu aniqlangan ko’paytma $1) - 4)$ aksiomalarni qanoatlantiradi.

b) V fazo sifatida n ta haqiqiy sonlardan iborat bo’lgan $x = (\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_n)$ ko’rinishidagi elementlar to’plamini olaylik. Ma’lumki, vektorlarni qo’shish va songa ko’paytirish quyidagicha aniqlanadi:

$x + y = (\varepsilon_1 + n_1, \varepsilon_2 + n_2, \dots, \varepsilon_n + n_n)$, $\gamma x = (\gamma\varepsilon_1, \gamma\varepsilon_2, \dots, \gamma\varepsilon_n)$, bu yerda $y = (n_1, n_2, \dots, n_n)$.

Endi $x = (\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_n)$ va $y = (n_1, n_2, \dots, n_n)$ vektorlar uchun quyidagi ko’paytmani qaraymiz ;

$$(x, y) = \varepsilon_1 n_1 + \varepsilon_2 n_2 +, \dots, +\varepsilon_n n_n$$

Bunday aniqlangan ko'paytma ham $1) - 4)$ aksiomalarni qanoatlantiradi, ya'ni skalyar ko'paytma bo'ladi.

c) Darajasi n dan oshmaydigan haqiqiy koeffitsentli ko'phadlar fazosi $P_n(R)$ ni qaraymiz. $f(x), g(x) \epsilon P_n(x)$ ko'phadlar uchun aniqlangan quyidagi ko'paytma:

$$\big(f(x), g(x)\big) = \int_0^1 f(x) g(x) dx$$

$1) - 4)$ aksiomalarni qanoatlantiradi, ya'ni skalyar ko'paytma bo'ladi.

Kiritilgan skalyar ko'paytma tushunchasi yordamida biz vektorning uzunligi va vektorlar orasidagi burchakni aniqlaymiz.

2-Ta'rif. Yevklid fazosidagi x vektorning uzunligi deb $\sqrt{(x, x)}$ songa aytiladi va $|x|$ kabi belgilanadi.

3-Ta'rif. x va y vektorlar orasidagi burchak deb $\varphi = arccos \frac{(x,y)}{|x||y|}$ songa aytiladi, ya'ni

$$\cos \varphi = \frac{(x, y)}{|x||y|}.$$

Agar x va y vektorlar orasidagi burchak $\frac{\pi}{2}$ ga teng, ya'ni $(x, y) = 0$ bo'lsa, u holda x va y vektorlar orasidagi φ burchakni $\cos \varphi = \frac{(x,y)}{|x||y|}$ formula yordamida aniqladik. Aslida ushbu ifoda ma'noga ega bo'lishi uchun tenglikning o'ng tomonida turgan ifodaning moduli 1 dan katta emasligini ko'rsatish kerak, ya'ni $\frac{(x,y)^2}{|x|^2|y|^2} \leq 1$ yoki $(x, y)^2 \leq (x, x)(y, y)$ ekanligini ko'rsatamiz. Buning uchun $x - ty$ vektorni qaraymiz, bu yerda t ixtiyoriy haqiqiy son. Skalyar ko'paytmaning $4) -$ aksiomasiga asosan:

$(x - ty, x - ty) \geq 0$ ya'ni har qanday t uchun:

$t^2(y, y) - 2t(x, y) + (x, x) \geq 0.$

Bu tengsizlikning chap tomonidagi t ga nisbatan kvadrat uchhad faqat manfiy bo'lmagan qiymatlarni qabul qilishi uchun bu uchhadning diskirminanti musbat bo'lmasligi kerak. Chunki t^2 oldidagi (y, y) ifoda har doim musbat son. Demak,

$$D = 4(x, y)^2 - 4(x, x)(y, y) \leq 0$$

Bundan esa, $(x, y)^2 \leq (x, x)(y, y)$ ekanligi kelib chiqadi. Yuqorida keltirilgan (6,3) tengsizlik Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi deb ataladi. Kiritilgan tushunchalar yordamida elementar geometriyaning qator teoremalarini Yevklid fazosiga ko'chirish mumkin.

Agar x va y vektorlar ortogonal vektorlar bo'lsa, u holda $x + y$ vektorni tamonlari x va y bo'lgan to'g'ri to'rtburchak diagonali deb hisoblash tabiiydir.

Xossa. x va y ortogonal vektorlar uchun $|x + y|^2 = |x|^2 + |y|^2$, ya'ni to'g'ri to'rtburchak diagonali uzunligining kvadrati uning parallel bo'lmagan ikki tomoni uzunliklari kvadratlari yig'indisiga teng.

Bugungi kunda nazariy algebra va matematik analizning fundamental tushunchalarini o'rganishda an'anaviy metodologiyadan raqamli modellashtirishga o'tish davri kuzatilmoqda. Yevklid fazosidagi skalyar ko'paytma va Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi kabi abstrakt tushunchalar nafaqat qog'ozdagi formulalar, balki murakkab algoritmlar va visual modellar orqali tahlil qilinmoqda. Raqamli matematik platformalarning qiyosiy tahlili. Matematik ob'ektlarni vizuallashtirish va isbotlashda quyidagi intellektual vositalar yetakchi o'rin tutadi.

Geogebra (dinamik matematika tizimi): Bu platforma algebra, geometriya va kalkuyslani bitta interfeysda birlashtiradi. Yevklid fazosidagi vektorlar ortogonal bazislarini qurishda u eng kuchli vosita hisoblanadi. Uning yordamida Koshi-Bunyakovskiy tengsizli

gini n-o'lchamli fazodagi vektorlar orasidagi burchak orqali geometrik isbotlash imkoniyati mavjud.

Desmos (grafik kalkulyator): Desmos asosan funksional fazolar bilan ishlashda ustunlikka ega. Agar biz sklayar ko'paytmani integral ko'rinishida qarasak, Desmos funksiyalar orasidagi "masofa" va "yaqinlik" grafik maydonda aniq ko'rsatib beradi.

Wolfram/Alpha: Bu tizim simvolli hisoblashlar qiroli hisoblanadi. U Koshi-Bunyakovskiy tengsizligini nafaqat sonlar, balki matritsa va operatorlar ko'rinishida ham tahlil qilib, isbotlash zanjirini taqdim etadi.

Sun'iy Intellekt (AI) algoritimlari: Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishkashda vektorlar orasidagi o'xshashlikni aniqlash orqali Yevklid geometriyasi prinsiplarini amaliyotiga tatbiq qiladi.


Yuqorida keltirilgan nazariy mulohozalar va zamonaviy texnologik imkonyatlarni o'zaro bog'lagan holda, endi bevosita aniq bir amaliy misolga o'tamiz. Ushbu misol orqali biz Koshi-Bunyakovskiy tengsizligining nafaqat sonli qiymatlarda bajarilishini, balki uning funksional fazodagi geometrik va vizual tasvirini ham o'rganamiz. Endi esa, yuqorida bayon etilgan nazariy qoidalardan foydalanib, Yevklid fazosidagi munosabatlarni aniq bir amaliy masala misolida ko'rib chiqamiz.

Masala: R^3 Yevklid fazosida $z = (2, -5,4, -3)$ vektori va $U =< (1,2,1), (2,1,4) >$ qism fazosi berilgan z vektorning U fazosidagi ortogonal proeksiyasi (x) va ortogonal to'ldiruvchisini (y) hisoblang.

Ushbu masalani yechishga kirishishdan avval, berilgan vektorlarning fazoviy holatini va U qism fazosining geometrik ko'rinishini GeoGebra 3D kalkulator dasturi yordamida modellashtiramiz. Bu bizga ortogonal proeksiyaning qayerda joylashishini vizual tasavvur qilish imkonini beradi.


GeoGebra 3D muhitida masalani bosqichma-bosqich yechim:

Dastlab, kiritish paneliga z,a,b vektorlarining koordinatalarini yozib olamiz. Bu bizga fazodagi asosiy nuqtalarni belgilab beradi.(1-rasmga qarang)




1-rasm(GeoGebra 3D dasturiga boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish)

Berilgan a va b vektorlari yotgan U tekisligini modellashtirish uchun GeoGebra buyruqlar satriga quydagi formula kirirtiladi: U=Plane((0,0,0),a,b) (2-rasmga qarang)



2-rasm(Qism fazo va proeksiyani hisoblash formulalarini kiritish)


Z vektorning U tekisligidagi ortogonal proeksiyani (x) aniqlash uchun Project funksiyada foydalaniladi: x=Project(z,U). Natijada vektorning tekisligidagi eng yaqin nuqtasi (proeksiyasi) avtomatik tarzda hisoblanadi va chizmada aks etadi. (3-rasmga qarang)



3-rasm(Masalaning yakuniy geometrik yechimi)

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, GeoGebra 3D dasturi murakkab matematik hisob-kitoblarni vizuallashtirishda juda samarali. Biz analitik yo'l bilan topgan x proeksiya va y ortogonal to'ldiruvchi vektorlarimiz dasturidagi geometrik model bilan to'la mos keldi. Bu esa talabalarga mavhum tushunchalarni fazoviy tassavur qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida olingan natijalarning naqadar aniq va ishonchli ekanligini isbotlash uchun dunyodagi eng kuchli intellectual hisoblash tizimi-WolframAlpha platformasida foydalaniladi. Ushbu bosqichda biz nazariy yo'l bilan topgan U qism fazosining umumiy tenglamasini (7x-2y-4z=0) tizimga kiritdik. WolframAlpha tomonidan taqdim etilgan 3D model avvalgi GeoGebra dasturidagi natijalar matematik jihatdan to'la mos keladi.(1-rasmga qarang)



1-rasm(WolframAlpha tizimida tekislik tenglamasini tekshirish)

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalari (GeoGebra, WolframAlpha) murakkab matematik masalalarni nafaqat yechish, balki ularni ko'rgazmali tarzda tahlil qilishda ham bebeaho vositadir. Bu kabi yondashuv talabalarda fazoviy tasavvurni shakllantiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Endi Yevklid fazosida eng qulay bazis hisoblangan ortogonal bazis tushunchasini kiritamiz. Yevklid fazosidagi ortogonal bazislar analitik geometriyadagi to'g'ri burchakli

koordinatalar sistemasi kabi rol o'ynaydi. Bizga n −o'lchamli V Yevklid fazosi berilgan bo'lib, $e_1, e_2, e_3, \dots, e_n \epsilon V$ vektorlar o'zaro ortogonal vektorlar bo'lsin.

1-Tasdiq. n −o'lchamli Yevklid fazosida berilgan o'zaro ortoganal bo'lgan va hech biri nolga teng bo'lmagan $e_1, e_2, e_3, \dots, e_n$ vektorlar chiziqli erkli bo'ladi.

4-Ta'rif. Agar hech biri nolga teng bo'lmagan $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlar o'zaro ortogonal bo'lsa, u holda ular n o'lchamli Yevklid fazosining ortogonal bazisi deyiladi.

Agar $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlar o'zaro ortogonal bo'lib, har birining uzunligi 1 ga teng bo'lsa, ya'ni

$$(e_i, e_j) = \begin{cases} 0, i \neq j, \\ 1, i = j, \end{cases}$$

tenglik bajarilsa, u holda ular ortonormal bazis deyiladi.

1-Teorema. Ixtiyoriy n-o'lchamli Yevklid fazosida ortogonal bazis mavjud.

Isbot. Ma'lumki n-o'lchamli fazoning ta'rifiga muvofiq unda qandaydir $f_1, f_2, \dots, f_n$ bazis mavjud. Ushbu $f_1, f_2, \dots, f_n$ vektorlar orqali o'zaro ortogonal bo'lgan bazis hosil qilamiz.

Dastlab, $e_1 = f_1$ deb olib, e_2 vektorni $e_2 = f_2 + \alpha e_1$ ko'rinishida izlaymiz α sonini $(e_2, e_1) = 0$ ya'ni $(f_2 + \alpha e_1, e_1) = 0$ tenglik o'rinli bo'ladigan qilib tanlasak,

$$\alpha = -\frac{(f_2, e_1)}{(e_1, e_1)}$$

ekanligi kelib chiqadi. Demak, α sonini tanlash hisobiga e_1 va e_2 ortogonal vektorlarni toppish mumkin.

Aytaylik, o'zaro ortoganal va noldan farqli bo'lgan $e_1, e_2, \dots, e_{k-1}$ vektorlar topilgan bo'lsin. U holda e_k vektorni

$$e_k = f_k + \gamma_1 e_1 + \cdots + \gamma_{k-1} e_{k-1}$$

Shaklida izlaymiz, ya'ni e_k vektorni $e_1, e_2, \dots e_{k-1}$ va f_k vektorlarning chiziqli kombinatsiyasi yordamida hosil qilamiz. Ushbu $\gamma_1, \gamma_2, \dots, \gamma_{k-1}$ koeffisentlarni topish uchun e_k vektor $e_1, e_2, \dots, e_{k-1}$ vektorlar bilan ortogonal bo'lish shartidan foydalanamiz.

$$(f_k + \gamma_1 e_1 + \cdots + \gamma_{k-1} e_{k-1}, e_1) = 0,$$
$$(f_k + \gamma_1 e_1 + \cdots + \gamma_{k-1} e_{k-1}, e_2) = 0,$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots,$$
$$(f_k + \gamma_1 e_1 + \cdots + \gamma_{k-1} e_{k-1}, e_{k-1}) = 0.$$

Yuqorida farazga ko'ra $e_1, e_2, \dots, e_{k-1}$ vektorlar o'zaro ortogonal bo'lganliklari uchun, ushbu tengliklar quyidagi ko'rinishga keladi:

$$(f_k, e_1) + \gamma_1 (e_1, e_1) = 0,$$
$$(f_k, e_2) + \gamma_2 (e_2, e_2) = 0,$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots,$$
$$(f_k, e_{k-1}) + \gamma_{k-1} (e_{k-1,} e_{k-1}) = 0.$$

Bulardan,

$\gamma_1 = -\frac{(f_k, e_1)}{(e_1, e_1)}, \gamma_2 = -\frac{(f_k, e_2)}{(e_2, e_2)}, \dots, \gamma_{k-1} = -\frac{(f_k, e_{k-1})}{(e_{k-1}, e_{k-1})}$,

qiymatlar kelib chiqadi.

Demak, jufti-jufti bilan ortogonal bo'lgan $e_1, e_2, \dots, e_k$ vektorlarni hosil qilamiz. Endi e_k vektorni noldan farqli ekanligini ko'rsatamiz. Hosil qilingan e_k vektor $e_1, e_2, \dots, e_{k-1}, f_k$ vektorlarning chiziqli kombinatsiyasidan iborat. O'z navbatida e_{k-1} vektor $e_1, e_2, \dots, e_{k-2}$ va f_{k-1} vektorlarning chiziqli kombinatsiyasidan va hokazo, e_2 vektor e_1 va f_2 vektorlarning

chiziqli kombinatsiyasidan iborat. Bundan esa e_k vektorni quydagi ko'rinishda yozish mumkinligi kelib chiqadi:

$$e_k = f_k + \gamma_{k-1} f_{k-1} + \cdots + \gamma_1 f_1$$

Shuningdek, $f_1, f_2, \dots, f_k$ vektorlarning chiziqli erkli ekanligidan $e_k \neq 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Biz $e_1, e_2, \dots, e_{k-1}$ hamda f_k vektorlar orqali e_k vektorni qurdik.

Xuddi shunday qilib, $e_1, e_2, \dots, e_k$ hamda f_{k+1} vektor orqali e_{k+1}ni quramiz. Bu jarayonni berilgan $f_1, f_2, \dots, f_n$ vektorgacha davom ettirish natijada noldan farqli va o'zaro ortogonal bo'lgan n ta $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlarni, ya'ni ortogonal bazisni hosil qilamiz. Ortogonal bazis topishning yuqoridagi teorema isbotida keltirilgan jarayon ortogonallashtirish jarayoni deb ataladi. Bu jarayon ixtiyoriy $f_1, f_2, \dots, f_n$ bazis bo'yicha $e_1, e_2, \dots, e_n$ ortogonal bazis yasash usulini beradi. Agar e_k vektorlarni $e_k' = \frac{e_k}{|e_k|}$ vektorlar bilan almashtirsak, u holda uzunligi 1 ga teng bo'lgan o'zaro ortogonal vektorlar hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Bu amal bilan ortonormal bazis hosil qilamiz.

Endi Yevklid fazosida berilgan $e_1, e_2, \dots, e_n$ ortonormal bazisda $x, y \epsilon V$ vektorlarning skalyar ko'paytmasi qanday ifodalanishi aniqlaymiz.

Aytaylik,

$x = \varepsilon_1 e_1 + \varepsilon_2 e_2 + \cdots + \varepsilon_n e_n$, $y = v_1 e_1 + v_2 e_2 + \cdots + v_n e_n$

bo'lsin ya'ni x vektorning koordinatalari $\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_n$ hamda y vektorning koordinatalari esa $v_1, v_2, \dots, v_n$ bo'lsin, u holda

$$(x, y) = \varepsilon_1 v_1 + \varepsilon_2 v_2 + \cdots + \varepsilon_n v_n$$

bo'ladi.

Demak, ortonormal bazisda ikki vektorning skalyar ko'paytmasi ularning mos koordinatalari ko'paytmalarining yig'indisiga teng. Endi x vektorning ortonormal $e_1, e_2, \dots, e_n$ bazisdagi koordinatalarini bazis vektorlar bilan qanday bog'lanishiga ega ekanligini ko'rsatamiz.

$$x = \varepsilon_1 e_1 + \varepsilon_2 e_2 + \cdots + \varepsilon_n e_n$$

tenglikning ikkala tomonini e_1 ga skalyar ko'paytirib,

$$(x, e_1) = \varepsilon_1 (e_1, e_1) + \varepsilon_2 (e_2, e_1) + \cdots + \varepsilon_n (e_n, e_1) = \varepsilon_1$$

ekanini va xuddi shunday

$$\varepsilon_2 = (x, e_2), \varepsilon_3 = (x, e_3), \dots, \varepsilon_n = (x, e_n)$$

ekanligini topamiz.

Shunday qilib, berilgan vektorning ortonormal bazisdagi koordinatalari shu vektor bilan mos bazis vektorlarining skalyar ko'paytmalaridan iboratligini hosil qildik.

Bir xil o'lchamli har qanday ikki haqiqiy Yevklid fazosi o'zaro izomorfdir. Bu shuni anglatadiki, n –o'lchamli barcha Yevklid fazolari xossalari jihatidan bizga tanish bo'lgan R^n fazosidan farq qilmaydi.

2-Teorema. Har qanday n –o'lchamli haqiqiy Yevklid fazosi E^n o'zaro bir qiymatli va chiziqli ravishda standart R^n arifmetik fazosiga izomorfdir.

Bu shuni anglatadiki, fazoning tabiati qanday bo'lishidan qat'i nazar (ko'phadlar fazosi, matritsalar fazosi yoki funksiyalar fazosi), agar ularning o'lchami n ga teng bo'lsa, ular ustidagi barcha amallar bir xil natija beradi. Skalyar ko'paytmani saqlaydigan bunday akslantirish izometriya deyiladi.

Har qanday chekli o'lchamli Yevklid fazosida ortonormallangan bazis mavjud. Bu bazisda har qanday operatorning matritsasi eng soda ko'rinishga keladi.

3-Teorema. n −o'lchamli E Yevklid fazosida ixtiyoriy chiziqli $L(x)$ funksional (forma) uchun shunday yagona $y \in E$ vektori mavjudki, barcha $x \in E$ larda quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$L(x) = (x, y)$$

Ya'ni, har qanday chiziqli funksiyani skalyar ko'paytma ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bu dual fazolar tushunchasini soddalashtiradi.

Yevklid fazosi nazariyasi- bu klassik geometriyani cheksiz o'lchamli fazolarga ko'chirish imkonini beruvchi ko'prikdir. Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi esa ushbu fazoning strukturaviy mustahkamligini ta'minlovchi eng universal matematik qonunlardan biridir. Busiz na Furye qatorlarini na zamonaviy kvant mexanikasini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Misol. Berilgan z vektordan quyidagi tenglamalar sistemasi bilan berilgan P gipertekislikkacha bo'lgan masofani toping:

$$z = (2,1,-3,4), \qquad P = \begin{cases} 2x_1 - 4x_2 - 8x_3 + 13x_4 = -19, \\ x_1 + x_2 - x_3 + 2x_4 = 1. \end{cases}$$

Yechish. Dastlab, P gipertekislikka tegishli bo'lgan elementlarning umumiy ko'rinishini aniqlab olamiz. Buning uchun berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining umumiy yechimini topish kerak bo'ladi. Umumiy yechimni topish uchun esa, uning bitta xususiy yechimi va bu tenglamadan hosil bo'luvchi bir jinsli chiziqli tenglamalar sistemasining fundamental yechimlar sistemasini topish kerak. Ushbu

$$\begin{cases} 2x_1 - 4x_2 - 8x_3 + 13x_4 = 0 \\ x_1 + x_2 - x_3 + 2x_4 = 0 \end{cases}$$

bir jinsli chiziqli tenglamalar sistemasining fundamental yechimlar sistemasi sifatida $e_1 = (2,-1,1,0), e_2 = (-7,3,0,2)$ vektorlarni olish mumkin.

Berilgan

$$\begin{cases} 2x_1 - 4x_2 - 8x_3 + 13x_4 = -19 \\ x_1 + x_2 - x_3 + 2x_4 = 1 \end{cases}$$

chiziqli tenglamalar sistemasining xususiy yechim sifatida esa $a = (-4,4,1,1)$ vektorni olamiz.

Demak, P gipertekislik $P = (-4,4,1,1) + < (2,-1,1,0), (-7,3,0,2) >$ kabi ifodalinadi. U holda z vektordan P gipertekislikkacha bo'lgan masofani topish uchun $z - a - \gamma_1 e_1 - \gamma_2 e_2$ ko'rinishidagi vektorlar ichidan uzunligi eng kichik bo'lganini topish kerak. Agar $z - a$ vektorni $z - a = x + y, x \in U, y \in U^*$ kabi ifodalasak, 6.3.1-xossaga ko'ra

$$|z - a - \gamma_1 e_1 - \gamma_2 e_2|^2 = |x + y - \gamma_1 e_1 - \gamma_2 e_2|^2 - |y|^2 + |x - \gamma_1 e_1 - \gamma_2 e_2|^2$$

Bo'lib, $|z - a - \gamma_1 e_1 - \gamma_2 e_2|$ning eng kichik qiymati $|y|$ ekanligini hosil qilamiz. Bu esa qo'yilgan masala $z - a$ vektorni $U = < e_1, e_2 >$ qism fazoga ortogonal to'ldiruvchisini topish masalasiga ekvivalent ekanligini bildiradi. Demak, biz

$z - a = (6,-3,-4,3)$ vektorni U qism fazoga ortoganal to'ldiruvchisini topishimiz kifoya. Buning uchun

$$\begin{cases} \gamma_1(e_1, e_1) + \gamma_2(e_2, e_1) = (z - a, e_1) \\ \gamma_1(e_1, e_1) + \gamma_2(e_2, e_1) = (z - a, e_2) \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasini qarab, undan quydagini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 6\gamma_1 - 17\gamma_2 = 11 \\ -17\gamma_1 + 62\gamma_2 = -45 \end{cases}$$

Ushbu tenglamalar sistemasining yechimi $\gamma_1 = -1, \gamma_2 = -1$ bo'lib ortogonal proeksiya $x = \gamma_1 e_1 + \gamma_2 e_2 = (5,-2,-1,-2)$, ortogonal to'ldiruvchi esa

$y = z - a - x = (1, -1, -3{,}5)$ ekanligini hosil qilamiz. Demak berilgan z vektordan P gipertekislikkacha bo'lgan masofa $|y| = \sqrt{1 + 1 + 9 + 25} = 6$.

Xulosa qilib aytganda, Yevklid fazosi matematikaning eng muhim tushunchalaridan biri bo‘lib, u vektorlar ustida amallar bajarish, ularning xossalarini o‘rganish va turli masalalarni yechishda asosiy nazariy asos vazifasini bajaradi. Bu fazoda skalyar ko‘paytma tushunchasi orqali vektorlarning uzunligi, ular orasidagi burchak va o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi.

Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi esa vektorlar orasidagi munosabatni ifodalovchi fundamental tengsizliklardan biri hisoblanadi. Ushbu tengsizlik matematik isbotlarda, baholashlarda va turli nazariy hamda amaliy masalalarni yechishda keng qo‘llaniladi. U nafaqat algebra va geometriyada, balki boshqa ko‘plab fanlarda ham muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, bu tengsizlik matematik tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish va murakkab masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Yevklid fazosi va Koshi–Bunyakovskiy tengsizligini o‘rganish matematikaning keyingi bo‘limlarini chuqur o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Yevklid fazosi va Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda vektorlar nazariyasining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu tushunchalar yordamida ko‘plab matematik masalalar soddalashtiriladi va ularning yechimi aniq hamda ishonchli tarzda topiladi.

Bundan tashqari, Koshi–Bunyakovskiy tengsizligi keyingi ko‘plab tengsizliklar va matematik teoremalarning asosini tashkil etadi. Shu sababli, uni chuqur o‘zlashtirish matematika fanini mukammal egallashda muhim bosqich hisoblanadi.

Mazkur mavzuni o‘rganish natijasida vektorlar ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, matematik analiz va boshqa fanlarni tushunish osonlashadi.

Umuman olganda, Yevklid fazosi va ushbu tengsizlikni bilish nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy faoliyatda ham keng qo‘llanilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupov Sh.A, Omirov B.A ,Xudoyberdiyev A.X. Abstrakt algebra. “fan”,
2. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov,A.X.Xudoyberdiyev. Chiziqli algebra. “fan”
3. Xodjayev T.X., Abdullayev A. — *Chiziqli algebra va analitik geometriya*, Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2018.
4. Sh.A. Alimov va boshqalar —Algebra va analiz asoslari, Toshkent, 2019.
5. Kolmogorov A.N., Fomin S.V. —Elementi teorii funktsiyi funktsionalnogo analiza, Moskva, 1989

MATEMATIK FANLARNI O‘QITISHDA WORDWALL TEXNOLOGIYASINING SAMARALI QO‘LLANILISHI

Nigora DAUKEYEVA


Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi
daukeyeva.cspu@gmail.com

Shodiyona ABDIJABBOROVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi
abdijabborovashodiyona@gmail.com

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan, interaktiv o’qitish, o’z-o’zini o’qitish, masofaviy ta’lim texnologiyalari alohida o’rin egallab kelmoqda. Masalan interaktiv o’qitish texnologiyasida talabalar o'z bilimlarini real vaqt rejimida baholash imkoniyatiga ega bo’lib, bunda masalan, ’’Wordwall’’ platformasi bilimni mustahkamlash uchun test va o‘yinlarni birlashtiradi. Worwall dasturi asosida darslarni tashkil qilish sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Wordwall dasturining xususiyatlari quyidagilardan iborat: interaktiv o‘yinlar yaratishda, qiziqarli ko‘rinishdagi topshiriqlar yaratishda va boshqalarda. Wordwall platformasining imkoniyatlari juda keng, ya’ni o‘quvchilarni real vaqt davomida baholash oson, barcha fanga moslash va masofaviy ta’limda juda qulay. Sababi platformada tayyorlangan topshiriqni havola orqali o‘quvchiga yetkazish oson.

Biz bu dasturni qaysi fanga qo‘llasak, shu fanga mos bo‘lim orqali savollar yoki testlarni talabalarga taqdim etishimiz mumkin. Biz bu platformani “matematik analiz’’ fanida qo‘llab ko‘rdik. Darsda platformaning **moslash** va **g‘ildirakni aylantiring** kabi bo‘limlaridan foydalandik. Moslash qismiga savollar quyidagicha kiritiladi:




4-rasm.

O‘yinni haklda o‘yinni boshlash tugn


5-rasm.

Start tugmasi bosilgandan so‘ng o‘yin boshlanadi va o‘quvchilar uchun qiziqarli jarayon boshlanadi. Bu ekranda quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

6-rasm. Savollarning ekrandagi namoyon bo‘lishi



7-rasm. G‘ildirakni aylantiring bo‘limiga savol tuzish jarayoni



Nazariy qismiga shu shakldagi savollar berildi. Amaliy qismiga esa g‘ildirakni aylantiring bo‘limidan misollar tayyorlandi va bu doskaga chiqqan talabaga taqdim qilindi. Talaba g‘ildirakni aylantirdi va tushgan misollarni ishlab ko‘rsatdi.

8-rasm.Savollar shu ko‘rinishda ekranda aks etadi

WordWall interaktiv vazifalarni yaratish uchun qulay va samarali onlayn platforma bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ilg‘or axborot texnologiyalardan biri bo‘lgan Wordwall platformasi o‘zida ko‘p imkoniyatlarni jamlagan holda o‘qituvchilar uchun sifatli ta’lim berishda bir qancha qulayliklar yaratib beradi.

ADABIYOTLAR

1. D.I.Yunusova “Oliy ta‘limda matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari’’, Toshkent-2022, “Innovatsiya-Ziyo”, 73-bet

2. D.M.Malikova. “Ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish” Kokand State Pedagogical Institute Volume 4 | KSPI Conference 1 | 2023 Innovative Approaches in Teaching Pedagogical Sciences: Problems and Solutions. pp.145-147

3. Alna Salsabila., Ayu Tsurayya. The Effect of Using Edugame Wordwall on Students' Mathematical Representation Ability. JURNAL VARIDIKA. Vol. 36, №1, 2024, pp.64-78

4. Ismailova Sh.K. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash shartlari. Urganch, UrDU nashriyoti, 2009.

5. https://wordwall.net/myactivities

6. https://wordwall.net/about

MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIM DARAJASINI SUNIY INTELEKT YORDAMIDA ADABTIV BAHOLASH METODIKASI

Matniyozova Sarvinoz

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Aniq fanlar" fakulteti "Amaliy matematika" ta'lim yo‘nalishi

Jumamurodova Aziza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti" Aniq fanlar" fakulteti"Amaliy matematika" ta'lim yo‘nalishi

Dolzarblig. Zamonaviy matematika ta’limida o‘quvchilarning bilim darajasi, fikrlash tezligi va matematik tushunchalarni o‘zlashtirish qobiliyati bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ayrim o‘quvchilar mavzuni tez va mustaqil o‘zlashtirsa, boshqalari qo‘shimcha tushuntirish, vizual yordam yoki individual yondashuvga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, matematika fanining mavhumligi, mantiqiy ketma-ketligi va analitik tafakkurni talab qilishi o‘quvchilarning individual kognitiv imkoniyatlarini chuqur hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida bilimlarni baholashning aniq, moslashuvchan va individual xususiyatlarga yo‘naltirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy baholash metodlari — yozma ishlar, og‘zaki savol-javoblar va standart testlar — asosan yakuniy natijani baholashga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha o‘quvchining haqiqiy bilim darajasi hamda xatolarining asl sababini aniqlash imkonini bermaydi. Masalan, o‘quvchi matematik masalani noto‘g‘ri yechgan bo‘lsa, an’anaviy tizim faqat natijani qayd etadi, biroq xatoning qaysi bosqichda yuzaga kelgani yoki o‘quvchi qanday fikrlash yo‘lidan foydalangani haqida yetarli ma’lumot bermaydi. Natijada o‘qituvchi o‘quvchining individual qiyinchiliklarini aniqlashda muammoga duch keladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi matematika ta’limida adaptiv baholash tizimlarini joriy etish imkoniyatini yaratmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv baholash tizimlari o‘quvchining har bir javobini real vaqt rejimida tahlil qiladi va uning bilim darajasiga mos ravishda topshiriqlarning murakkablik darajasini avtomatik ravishda o‘zgartiradi. Agar o‘quvchi topshiriqni muvaffaqiyatli bajarsa, tizim murakkabroq savollarni taklif qiladi; aksincha, qiyinchilik kuzatilsa, soddalashtirilgan yoki qo‘shimcha tushuntirishli topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, SI tizimlari o‘quvchining fikrlash traektoriyasini, topshiriqni bajarish tezligini, qayta urinishlar sonini va xatolar turini ham tahlil qiladi. Natijada o‘qituvchi nafaqat yakuniy bahoni, balki o‘quvchining matematik tafakkuri va bilimdagi bo‘shliqlari haqida ham batafsil ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa differensial yondashuvni samarali tashkil etish, individual yordam ko‘rsatish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv baholash tizimlari ayniqsa inklyuziv va differensial ta’lim muhitida katta ahamiyatga ega. Chunki bunday tizimlar turli kognitiv imkoniyatga ega o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, ularga moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, real vaqt rejimidagi diagnostika o‘quvchilarning bilimdagi bo‘shliqlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Shu jihatdan, matematika ta’limida sun’iy intellektga asoslangan adaptiv baholash tizimlaridan foydalanish ta’limning individuallashuvi, baholashning obyektivligi va dars samaradorligini oshirishning zamonaviy innovatsion yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarb.

Tadqiqotning maqsadi

Matematika darslarida sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan adaptiv baholash tizimining pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish hamda uning o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini baholashdagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot davomida adaptiv baholash tizimining o‘quvchilarning individual kognitiv imkoniyatlari, fikrlash tezligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga moslashish mexanizmlarini tahlil qilish, baholash jarayonining obyektivligi va individualligini oshirish imkoniyatlarini asoslash ko‘zda tutiladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv baholash tizimini matematika darslari jarayoniga samarali tatbiq etish metodikasini ishlab chiqish, o‘qituvchilarning diagnostik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘quvchilarning bilimdagi bo‘shliqlarini erta aniqlash orqali individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etish ham mazkur ishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism va tahlil

Matematika fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, undagi bilim va tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘langan ierarxik tizimni tashkil etadi. Ya’ni, o‘quvchi biror matematik tushunchani to‘liq o‘zlashtirmasdan turib, undan keyingi murakkabroq mavzularni samarali egallay olmaydi. Shu sababli matematika ta’limida o‘quvchilarning bilim darajasini aniq va bosqichma-bosqich diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv baholash tizimlari aynan shu ehtiyojni qondiruvchi zamonaviy pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt yordamidagi adaptiv baholash metodikasi o‘quvchining individual bilim darajasi, fikrlash tezligi va topshiriqlarni bajarish jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilishga asoslanadi. Bunday tizimlarda baholash jarayoni statik emas, balki moslashuvchan xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchining har bir javobiga qarab topshiriqning murakkablik darajasi avtomatik ravishda o‘zgarib boradi.

Mazkur jarayonda eng muhim algoritmlardan biri — Item Response Theory (IRT), ya’ni “Topshiriqqa javob berish nazariyasi” hisoblanadi. Ushbu algoritm asosida SI tizimi dastlab o‘quvchiga bazaviy darajadagi savolni taqdim etadi. Masalan, geometriya mavzusida “Piramida hajmini hisoblash”ga oid oddiy masala beriladi. Agar o‘quvchi topshiriqni muvaffaqiyatli bajarsa, tizim keyingi bosqichda murakkabroq va tahliliy fikrlashni talab qiluvchi savollarni taqdim etadi. Aksincha, agar o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ysa, sun’iy intellekt tizimi savol darajasini mos ravishda soddalashtiradi va xatoning aynan qaysi tushunchada yuzaga kelganini aniqlaydi. Masalan, muammo piramida asosining yuzini hisoblashda yoki balandlik formulasini qo‘llashda ekanligi diagnostika qilinadi.

Adaptiv baholash tizimining yana bir muhim jihati — kognitiv diagnostika va teskari aloqani ta’minlashidir. MathIA yoki DreamBox Learning kabi xalqaro platformalar metodologiyasiga ko‘ra, baholashning asosiy maqsadi faqat baho qo‘yish emas, balki o‘quvchining bilimdagi bo‘shliqlarini aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qilishdir. Sun’iy intellekt o‘quvchining masalani yechishga sarflagan vaqtini, qayta urinishlar sonini, xatolar turini hamda topshiriqni bajarish ketma-ketligini tahlil qiladi. Natijada o‘qituvchi uchun maxsus dashboard — individual diagnostik panel shakllanadi. Ushbu panel orqali pedagog har bir o‘quvchining kuchli va sust tomonlarini aniq ko‘ra oladi hamda differensial yondashuv asosida individual metodik yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv baholash tizimlari psixologik jihatdan ham katta afzalliklarga ega. An’anaviy baholash jarayonida ko‘plab o‘quvchilar muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi, stress yoki o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni boshdan kechiradi. Adaptiv tizim esa har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos topshiriqlarni taqdim etgani sababli, o‘quvchi ortiqcha bosimni his qilmaydi. Kuchli o‘quvchilar juda oson savollardan zerikmaydi, bilim darajasi pastroq o‘quvchilar esa haddan tashqari murakkab topshiriqlar tufayli tushkunlikka tushmaydi. Tizim bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchida muvaffaqiyat hissini shakllantiradi va motivatsiyani oshiradi.

Raqamli texnologiyalar ham zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari va virtual o‘quv muhiti ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Video darslar, animatsiyalar va elektron materiallar murakkab mavzularni oson tushunishga yordam beradi. Bu esa talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv faollik bilimlarni mustaqil egallash, axborotni tahlil qilish va amaliyotga qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. Interaktiv va raqamli vositalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarni faol bilish faoliyatiga jalb etadi va ularda kreativ hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Mustaqil ta’limni rivojlantirish ham zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar orqali talabalar o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash, qo‘shimcha

ma’lumotlarni izlash va o‘z bilimini boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularda o‘z ustida ishlash va uzluksiz ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogning roli ham o‘zgarib bormoqda. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagog innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Innovatsion texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar va raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

49. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

50. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. **Ta’limda innovatsion texnologiyalar**. – Toshkent: Iste’dod, 2018.

51. Muslimov N.A. **Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish texnologiyasi.** – Toshkent: Fan, 2017.

52. Azizxo‘jayeva N.N**. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

53. Farberman B.L. **Ilg‘or pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan, 2014.

54. Sayidahmedov N. **Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va amaliyoti.** – Toshkent: Moliya, 2016.

55. Xoliqov A.A. **Pedagogik mahorat.** – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

56. Abduqodirov A.A. **Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

57. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. **Pedagogik texnologiya asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

58. Nishonova S., Karimova Sh. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar.** – Toshkent: Tafakkur, 2019.

“INFORMATIKA VA AKT” FANI UCHUN MAVZU MAZMUNIGA KIRITISH VA TEMATIK REJALASHTIRISH

Xanimkulov B. R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Maxamadjonova U. O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya

Ta’lim o‘z oldiga o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida ta’lim mazmuniga kiritilgan to‘plangan bilim va tajribalar yig‘indisini uzatish, shuningdek, shaxsning individualligi va ijtimoiylashuvini rivojlantirish maqsadini qo‘yadi. Ta’limning maqsad va vazifalaridan, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi bilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, tadqiqotchilar ta’lim metodi tuchunchasini aniqlashning turli xil variantlarini taklif qildilar. Ta’lim maqsadiga erishish yo‘li sifatida ta’lim metodi o‘qituvchining ma’lum amaliy vositalar va o‘quvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishdagi bilish faoliyati yordamida izchil va tartibli harakatlari tizimini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar. Informatika, ta’limning maqsad va vazifalari, mobil va bulutli axborot texnologiyalari, tizim, tamoillar, yaxlitlik va birlik tamoillari, elektron pochta.

Аннотация

Образование – это процесс взаимодействия преподавателя и учащихся, передача сетевых знаний и опыта, включенных в содержание образования, а также индивидуальности человека и направлена на развитие социализации. Исходя из целей и задач образования, а также способностей учащихся к усвоению знаний, исследователи предложили разные варианты определения понятия образовательного метода. Как способ достижения образовательной цели метод обучения включает систему последовательных и упорядоченных действий педагога с помощью определенных практических средств и познавательной деятельности учащихся по освоению социального опыта.

Ключевые слова. Информатика, цели и задачи образования, мобильные и облачные информационные технологии, система, принципы, принципы целостности и единства, электронная почта.

Ta’lim metodi tushunchasi har bir yondashuvning bir-birini to‘ldirishi, ta’lim metodlarining bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi hamda qo‘llash maqsadiga ko‘ra, foydalanish shartlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, natijaga erishish mezonlari hamda uni nazorat qilish metodlarini qamrab oladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Zamonaviy, jumladan, mobil va bulutli axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Shunday qilib, mobil texnologiyalar ta’lim metodlariga ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini tashkil etishning yangi vositalarini ta’minlaydi, o‘quvchining maqsad sari harakat qilish mexanizmini o‘zgartiradi. Texnologik asos ta’lim metodini amalga oshirishga ta’sir qiladi, mos ravishda ta’lim metodini tavsiflash quyidagi tarkibiy qismlarni tavsiflashni anglatadi:

- didaktik maqsad;
- texnologik asos;
- o‘qituvchining harakatlar tartibi;
- o‘quvchining harakatlari tartibi;
- maqsadga erishish mezoni.

Har bir ta’lim metodi o‘ziga xos qo‘llanish xususiyatlariga ega bo‘lganligi, fanning o‘ziga xos mazmuni bilan bog‘liq emas va hal qilinayotgan didaktik vazifaga qarab turlicha samaradorlikka ega bo‘lganligi sababli, mobil texnologiyalar asosida ta’lim metodlari tizimini qurish zarurati tug‘iladi. Ushbu atamani shakllantirish uchun tizim atamasining ta’rifiga murojaat qilamiz:

- “Tizim – (yunon tilidan olingan bo‘lib, qismlardan tashkil topgan bir butun; bog‘lanish), bir-biri bilan munosabat va aloqada bo‘lgan, aniqlikni tashkil etuvchi elementlar to‘plami, yaxlitlik, birlik”.

Ba’zi adabiyotlarda “Tizim – ular orasidagi bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan va ma’lum bir yaxlitlikka ega bo‘lgan elementlar to‘rlami” sifatida ta’riflanadi. Boshqa bir adabiyotlarda “Tizim – o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlar to‘plami” sifatida baholanadi. Tizimning harakatlarni tartibga solish va bog‘lashda muayyan tartibi, biror narsani tashkil qilish shakli, muntazam tartibga solingan va o‘zaro bog‘langan qismlarning birligidan iborat yaxlitlik vazifalari bo‘yicha bir xil bo‘lgan tashkilotlar to‘plami yoki tashkiliy jihatdan bir butunga birlashgan muassasa yoki texnik qurilma, loyiha kabi talqinlari ham mavjud.

O‘quvchilarga informatika va axborot texnologiya fanlarini o‘qitishda tanlangan ta’lim texnologiyalari, darsda qo‘llaniladigan metodlar hamda o‘qituvchining mashg‘ulotlarga induvidual yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda informatika darslarida mobil ta’lim metodlaridan foydalanish hamda tizimni qurish uchun individual muayyan ta’lim metodlarni bog‘laydigan tamoyillarni ajratib olish kerak bo‘ladi.

Izchillik tamoyili ta’lim metodlari tizimi tuchunchasi uchun asos bo‘lib, o‘quv faoliyatining barcha turlarini tegishli metodlar bilan qamrab olish zarurligi haqida gapiradi. Bundan tashqari, metodlarning tizimliligi yagona texnologik asosda (mobil va bulutli texnologiyalar) ham namoyon bo‘ladi.

Mobil texnologiyalar asosida ta’lim metodlaridan **tizimli foydalanish tamoyili** quyidagi bayonotlardan kelib chiqadi:

- turli o‘quv faoliyatida mobil texnologiyalarga asoslangan ta’lim metodlarining yagona tizimidan foydalanish o‘quv jarayonining borishi va o‘quvchilarning rivojlanishi haqidagi barcha ma’lumotlarni har qanday qurilmadan (ish stoli) qulay shaklda jamlash imkonini beradi (kompyuter, planshet, noutbuk, smartfon);

- darsda mobil texnologiyalardan muntazam foydalanish o‘quvchilarda mobil qurilmalar bilan ishlash ko‘nikmalarining dolzarbligini saqlab qolishga yordam beradi.

Yaxlitlik tamoyili bir qator didaktik vazifalarni hal qilish uchun tizimning barcha metodlari uzviy bog‘liqligidan iborat. Shunday qilib, ta’lim metodlaridan birini istisno qilish tizimni yaxlitlikdan mahrum qiladi va hal qilinayotgan didaktik vazifalarni qamrab olish kamayadi. Texnologik nuqtayi nazardan, yaxlitlik axborot almashinuvi uchun asos bo‘lgan bulutli texnologiyalar tomonidan ta’minlanadi.

Axborotni saqlash va moslashtirish formatlari nuqtayi nazaridan **birlik tamoyili** shundan iboratki, barcha kontent turli xil qurilmalar va ularning parametrlari uchun universal bo‘ladigan taqdimot shakliga ega bo‘lishi kerak. Masalan, matnli ma’lumotlar mobil qurilmadan ham,

kompyuter ekranidan ham teng darajada o‘qilishi kerak hamda videoni o‘z ichiga olgan kontent ijro etish uchun maxsus shartlarni talab qilmaydigan formatda bo‘lishi kerak. Axborotni tavsiflash va saqlash uchun yagona, universal formatdan foydalanish zarurati paydo bo‘ladi.

“Informatika va AKT” fani uchun mavzu mazmuniga **kiritish va tematik rejalashtirish** tamoyili juda muhim, chunki mobil texnologiyalar uning o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, mobil qurilmalar har xil turdagi ma’lumotlar (matn, ovoz, grafik, video va boshqalar) bilan ishlashga qodir. Shu bilan birga, mobil texnologiyalarga asoslangan ta’limning har bir metodi, texnik amalga oshirish nuqtayi nazaridan, bunday ma’lumotlar bilan ishlash uchun ma’lum bir algoritmdan foydalanadi. Shuning uchun informatika darsida mobil qurilmalardan foydalanishni nafaqat ta’lim metodlari nuqtayi nazaridan, balki turli axborotlar bilan ishlash misolida ham ko‘rib chiqish kerak. Masalan, mobil qurilmadan QR-kod skaneri sifatida foydalanish ta’lim metodi va namunalarni aniqlash algoritmini namoyish qilish, shuningdek, ikkilik kodlashning hayotda amaliy qo‘llanilishini tuchuntirish sifatida foydalanish mumkin. Kursni kalendar-tematik rejalashtirishda ta’lim metodlarini taqsimlashda metodning texnologik amalga oshirilishini tegishli mavzu bilan bog‘lash ikkita sababga ko‘ra tavsiya etiladi:

- dastlab zarur nazariy bilimlarni olgan holda, o‘qituvchi tanlangan ta’lim metodini amalga oshirishda o‘quvchilar ulardan qanday harakatlar talab qilinishini tuchunishlari osonroq bo‘ladi;
- ta’lim metodi bir vaqtning o‘zida dars mavzusini yoritishda yaqqol namuna bo‘lib, mazmunga uzviy mos keladi.

Instrumental mustaqillik tamoyili har bir ta’lim metodini turli texnik va dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish imkonini beradi. Bu tamoyil har bir o‘qituvchiga ta’lim metodlarida eng qulay xizmat va vositalarni tanlash imkonini beradi. Ushbu tamoyilning zarurati shundan iboratki, agar u yoki bu dasturiy ta’minot va apparat vositalari mavjud bo‘lmasa, o‘qituvchi har bir ta’lim metodini amalga oshirish uchun muqobil variantlarga ega bo‘lishi kerak.

Kross-platforma tamoyili ta’lim metodlari tizimining texnologik asosdan mustaqilligiga asoslanadi. Shunday qilib, masalan, bir sinf o‘quvchilarida turli xil dasturlar to‘plamiga ega smartfonlar bo‘lsa, ta’lim metodlari ma’lum bir dasturiy mahsulot yoki uning versiyasiga bog‘lanmagan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, barcha kerakli vositalar har qanday platformada mavjud bo‘lishi yoki “bulutli” bo‘lishi kerak.

Mobil texnologiyalarning zamonaviy rivojlanishi bulutli hisoblash bilan yaqin aloqada. I.N. Golitsinaning ta’kidlashicha, “...bulutli texnologiyalar har xil turdagi ijtimoiy dasturlarga kirishni tashkil etish imkonini beradi, ta’lim jarayonida ushbu turdagi axborot texnologiyalarining barcha afzalliklaridan foydalangan holda, ular mobil ta’limni tashkil qilish uchun platforma bo‘lib xizmat qilishi mumkin” .

Tadqiqotchilar ta’lim muassasalari va o‘quvchilar uchun bulutli hisoblashning quyidagi afzalliklarini qayd etadilar:

- xarajatlarni tejash (provayderlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning aksariyati erkin, masalan, elektron pochta);
- hisob-kitoblarning elastikligi (oldindan rejalashtirishsiz iste’mol qilinadigan resurslar miqdorini oshirish imkoniyati);
- foydalanish imkoniyatini oshirish (ta’lim resurslari mavjud bo‘lmagan vaqtni qisqartirish);
- ta’lim muassasasining elektr energiyasi iste’molini kamaytirish (hisob-kitoblarning muhim qismi provayder darajasida sodir bo‘lganligi hisobiga).

Tadqiqotchilar fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda, ta’lim modullari elektron pedagogikaning ta’lim va tadqiqot vazifalari mazmuniga singdirgan holda, o‘quvchilarning diqqatni jamlash va foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish (bulutli ta’lim xizmatlari o‘quvchilarga bepul taqdim etiladigan va vaqt reglamentida eng yangi ilovalardan foydalanish) imkonini berishini ta’kidlash mumkin.

Har kuni maktablarda mobil qurilmalar va bulutli texnologiyalardan foydalanish metodlarini (ikkita ta’lim muassasasi misolida) tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- o‘quvchilarning mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari hajmining ortishi (o‘quvchilarni mavjud axborot manbalarining barcha turlaridan ongli ravishda foydalanishga yo‘naltirish);

- onlayn baholash vositalari orqali, shuningdek, teskari aloqa mavjudligi va o‘quvchi faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini muhokama qilish orqali shakllantiruvchi baholash va o‘z-o‘zini baholash ulushini oshirish;

- AKT yordamida o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik darajasini oshirish, ularga jamoaviy loyihalash faoliyatini amalga oshirish, o‘z natijalari bilan bo‘lishish va ish jarayonida o‘zaro munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

Sanab o‘tilgan tarkibiy qismlar asosida ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar yo‘nalishlarini aniqlaymiz:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish (har bir o‘quvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim holatiga singib ketadi);

- o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish (o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchining rivojlanish jarayonida yordamchisi bo‘ladi);

- maktab va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash (elektron kundalik va teskari aloqani ta’minlash uchun turli texnologiyalarning mavjudligi ota-onalarga farzandining muvaffaqiyatlarini kuzatishga, shuningdek, bu jarayonga ta’sir qilishga yordam beradi).

Foydalanilgan adabiyotlar

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi qonunini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/doss/4312785. Respublika xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimida maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4467-son qarori. https://lex.uz/doss/4532156.

10. Maxmudova D.M., Xanimqulov B.R. Ehtimollar nazariyasi. Qo'llanma. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-son buyrug‘i.

11. Xanimqulov B.R. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun “Integratsiyalashgan darslarda mobil o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash va metodologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati taqdim etildi. Chirchiq – 2023 yil.

12. Xanimqulov B.R. (2023) Umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik jihatlari. Fizika, matematika va informatika. Ilmiy-metodik jurnal. 6, 135-141.

13. Xanimqulov B.R. “Informatika va axborot texnologiyalari” o‘quv jarayonini mobil texnologiyalar asosida modellashtirish. Kasbiy ta’lim № 2, 20024 y., 196-198.

14. Khanimkulov B.R. Effectiveness and statistical analysis of mobile education methods. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. Vol. 45No. 3(2024)., 4027-4036.

MATEMATIK ANALIZ MASALALARINI YECHISHDA DASTURIY PAKETLARDAN FOYDALANISH

DJUMABAYEV G‘ULOMJON XALILLAYEVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Algebra va matematik analiz kafedrasi mudiri

XAMBARALIYEVA MOHIDIL NODIRJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Algebra va matematik analiz kafedrasi 1-kurs magistr talabasi

Abstract: This article discusses the use of modern software packages in solving definite integrals, which is one of the important sections of mathematical analysis. The capabilities of Maple, MATLAB, Mathematica 7, and GeoGebra in solving definite integrals are comparatively analyzed. The advantages and disadvantages of each program, their user interface, analytical and numerical calculation methods, and graphical capabilities are demonstrated through examples. The article presents a comparative analysis of four software packages based on tables and practical examples. The research results are of practical importance for students and teachers in the fields of mathematics, physics, and engineering in higher education institutions.

Keywords: definite integral, software packages, Maple, MATLAB, Mathematica, GeoGebra, numerical methods, analytical calculation, computer modeling, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования современных программных пакетов при вычислении определенных интегралов, являющихся одним из важных разделов математического анализа. Проведен сравнительный анализ возможностей Maple, MATLAB, Mathematica 7 и GeoGebra при решении определенных интегралов. На примерах показаны преимущества и недостатки каждой программы, их пользовательский интерфейс, методы аналитических и численных вычислений, графические возможности. В статье представлен сравнительный анализ четырех программных пакетов на основе таблиц и практических примеров. Результаты исследования имеют практическое значение для студентов и преподавателей математических, физических и инженерных направлений высших учебных заведений.

Ключевые слова: определенный интеграл, программные пакеты, Maple, MATLAB, Mathematica, GeoGebra, численные методы, аналитическое вычисление, компьютерное моделирование, сравнительный анализ.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik analizning muhim bo’limlaridan biri bo’lgan aniq integrallarni hisoblashda zamonaviy dasturiy paketlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Maple, MATLAB, Mathematica 7 va GeoGebra dasturlarining aniq integrallarni yechishdagi imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir dasturning afzalliklari va kamchiliklari, ularning foydalanuvchi interfeysi, analitik va sonli hisoblash usullari, grafik imkoniyatlari misollar orqali ko’rsatib berilgan. Maqolada to’rtta dasturiy paketning o’zaro solishtirma tahlili jadvallar va amaliy misollar asosida bayon qilingan. Tadqiqot natijalari oliy o’quv yurtlarining matematika,

fizika va muhandislik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar hamda o'qituvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: aniq integral, dasturiy paketlar, Maple, MATLAB, Mathematica, GeoGebra, sonli usullar, analitik hisoblash, kompyuterli modellashtirish, qiyosiy tahlil.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida matematik analiz masalalarini yechishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, aniq integrallarni hisoblash, ularning geometrik ma'nosini tushuntirish va murakkab funksiyalar ustida amallar bajarishda dasturiy paketlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Aniq integral tushunchasi nafaqat matematikaning nazariy asosi, balki fizika, mexanika, iqtisodiyot va muhandislik sohalarida keng qo'llaniladi.

So'nggi yillarda matematik ta'limda dasturiy paketlardan foydalanish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Maple, MATLAB, Mathematica va GeoGebra dasturlarining imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar mavjud. Ammo ushbu dasturlarni aniq integrallarni hisoblash nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash bo'yicha kompleks tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Mazkur maqolaning maqsadi – to'rtta asosiy dasturiy paketning aniq integrallarni hisoblashdagi imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning ta'lim jarayonida qo'llash samaradorligini baholash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

I. MAPLE DASTURINING IMKONIYATLARI

Maple – bu simvolli hisoblashlar tizimi bo'lib, matematik masalalarni analitik (aniq) yechishda juda kuchli vosita hisoblanadi. Maple dasturining asosiy afzalligi shundaki, u kasrlar, radikallar va belgili ifodalar bilan ishlay oladi, bu esa yaxlitlash xatolarining oldini oladi.

1.1. Asosiy buyruqlar va ularning qo'llanilishi.

Maple dasturida aniq integrallarni hisoblash uchun int() va Int() buyruqlaridan foydalaniladi. int() buyrug'i integralni hisoblab, natijani chiqaradi, Int() buyrug'i esa integralni ifoda ko'rinishida qoldirib, keyinchalik value() yoki evalf() buyruqlari yordamida hisoblash imkonini beradi.

1-misol. Arctg(x) funksiyasining [0,1] oralig'idagi aniq integrali:

```
> f := x -> arctan(x);
> Int(f(x), x=0..1) = int(f(x), x=0..1);
```

Natija: $\int_0^1 \arctan(x)dx = \frac{\pi}{4} - \frac{1}{2}\ln(2)$

2-misol. Sinus kvadrat funksiyasining [0, π] oralig'idagi aniq integrali:

```
> int(sin(x)^2, x=0..Pi);
```

Natija: $\frac{\pi}{2}$

1.2. Analitik yechim mavjud bo'lmagan hollarda sonli hisoblash.

Maple dasturida agar funksiya uchun boshlang'ich funksiyani topish imkoni bo'lmasa, u holda ifodaning o'zini qaytaradi. Bunday hollarda aniq integralni sonli usulda hisoblash mumkin.

3-misol. $\exp(x^3)$ **funksiyasining [0,2] oralig'idagi aniq integrali:**

```
> int(exp(x^3), x=0..2);  # Analitik yechim mavjud emas
> evalf(Int(exp(x^3), x=0..2));  # Sonli hisoblash
```

Natija: `9.161478597` (taxminan)

1.3. Bosqichma-bosqich yechim imkoniyati

Maple dasturining muhim xususiyatlaridan biri – "Student[Calculus1]" paketi yordamida integrallarni bosqichma-bosqich yechish imkoniyatidir. Bu paket talabalarga integral hisoblash usullarini o'rganishda katta yordam beradi.

4-misol. $x \cdot \sin(x)$ **funksiyasining aniq integralini bosqichma-bosqich hisoblash:**

```
> with(Student[Calculus1]):
> ShowSolution(Int(x*sin(x), x=0..Pi));
```

Bu buyruq integralni bo'laklab integrallash usuli yordamida bosqichma-bosqich yechib beradi.

II. MATLAB DASTURINING IMKONIYATLARI

MATLAB asosan sonli hisoblashlar uchun mo'ljallangan bo'lib, muhandislik masalalarini yechishda keng qo'llaniladi. Symbolic Math Toolbox orqali simvolli hisoblashlarni ham amalga oshirish mumkin.

2.1. Simvolli hisoblash imkoniyatlari

MATLABda simvolli hisoblashlar uchun syms buyrug'i yordamida o'zgaruvchilar e'lon qilinadi va int() funksiyasi orqali integrallar hisoblanadi.

5-misol. Arctg(x) funksiyasining [0,1] oralig'idagi aniq integrali (simvolli hisoblash):

```
syms x
f = atan(x);
I = int(f, x, 0, 1);
disp(I);
```

Natija: `pi/4 - log(2)/2`

2.2. Sonli hisoblash imkoniyatlari

MATLABda sonli integrallash uchun \texttt{integral()} funksiyasidan foydalaniladi. Bu funksiya global adaptiv kvadratura usulidan foydalanadi va yuqori aniqlikdagi natijalarni beradi.

6-misol. Arctg(x) funksiyasining [0,1] oralig'idagi aniq integrali (sonli hisoblash):

```
f_numeric = @(x) atan(x);
I_numeric = integral(f_numeric, 0, 1);
disp(I_numeric);
```

Natija: '0.4388'

2.3. Parametrga bog'liq funksiyalarni integrallash

MATLABda parametrga bog'liq funksiyalarni integrallash imkoniyati mavjud.

7-misol. $\frac{1}{x^3 - 2x - c}$ funksiyasining [0,2] oralig'idagi integrali (c=5):

```
fun = @(x,c) 1./(x.^3-2*x-c);
q = integral(@(x) fun(x,5), 0, 2);
disp(q);
```

Natija: '-0.4605'

2.4. Aniqlik darajasini sozlash

MATLABda integrallash aniqligini sozlash imkoniyati mavjud. "RelTol" va "AbsTol" parametrlari orqali nisbiy va absolyut xatolik tolerantligi o'rnatiladi.

8-misol. $\ln(x)$ funksiyasining [0,1] oralig'idagi integralini 12 xona aniqlikda hisoblash:

```
fun = @(x) log(x);
q = integral(fun, 0, 1, 'RelTol', 0, 'AbsTol', 1e-12);
disp(q);
```

Natija: '-1.000000000000010'

2.5. Vektor-qiymatli funksiyalarni integrallash

MATLAB bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni integrallash imkoniyatiga ham ega.

9-misol. $\sin(k \cdot x)$ funksiyalarining [0,1] oralig'idagi integrallari (k=1..5):

```
fun = @(x) sin((1:5)*x);
q = integral(fun, 0, 1, 'ArrayValued', true);
disp(q);
```

Natija: '0.4597 0.7081 0.6633 0.4134 0.1433'

III. MATHEMATICA 7 DASTURINING IMKONIYATLARI

Mathematica – Wolfram Research kompaniyasi tomonidan yaratilgan kuchli matematik dasturiy paket. Uning 7-versiyasi simvolli hisoblashlar, sonli usullar va grafik tasvirlash imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan.

3.1. Asosiy buyruqlar va ularning qo'llanilishi

Mathematica dasturida aniq integrallarni hisoblash uchun Integrate[] buyrug'idan foydalaniladi. Sonli integrallash uchun esa NIntegrate[] buyrug'i qo'llaniladi.

10-misol. Arctg(x) funksiyasining [0,1] oralig'idagi aniq integrali:

```
f[x_] := ArcTan[x]
Integrate[f[x], {x, 0, 1}]
```

Natija: $\frac{1}{4}(\pi - 2\log 2)$

11-misol. Asosiy integrallar:

```
Integrate[-2 Sin[x] + 3 Cos[x], {x, 0, Pi/2}]
Integrate[4x^3 + 2x - 5, {x, -1, 2}]
Integrate[Sin[3x], {x, 0, Pi/3}]
```

3.2. Sonli integrallash

12-misol. Murakkab funksiyaning sonli integrali:

```
Integrate[Sqrt[r] Abs[Cos[(k + 1/2) Pi r]], {r, 0, 1}] /. k -> 1.
```

Natija: '0.413231743899931'

3.3. Maxsus funksiyalar bilan ishlash

Mathematica dasturining kuchli tomonlaridan biri – maxsus funksiyalar bilan ishlay olishidir. Agar integral elementar funksiyalar orqali ifodalanmasa, Mathematica uni maxsus funksiyalar orqali ifodalaydi.

13-misol. $\sin(x^2)$ funksiyasining integrali:

```
Integrate[Sin[x^2], x]
```

Natija Fresnel funksiyasi orqali ifodalanadi: $\sqrt{\frac{\pi}{2}} S\left(\sqrt{\frac{2}{\pi}} x\right)$

IV. GEOGEBRA DASTURINING IMKONIYATLARI

GeoGebra – interaktiv geometriya, algebra va analizni birlashtirgan bepul dasturiy vosita. Uning eng katta afzalligi – vizuallashtirish imkoniyatlarining kengligi va foydalanish qulayligidir.

4.1. Asosiy buyruqlar va ularning qo'llanilishi

GeoGebra dasturida Integral()} komandasi bir necha xil ko'rinishda ishlatilishi mumkin.

14-misol. Arctg(x) funksiyasining [0,1] oralig'idagi aniq integrali:

```
f(x) = arctan(x)
Integral(f, 0, 1)
```

Natija: ‘0.4388’ (sonli ko’rinishda)

4.2. Aniqmas integrallarni hisoblash

15-misol. x^3 funksiyasining aniqmas integrali:

Integral(x^3)

Natija: $\frac{1}{4}x^4$

4.3. Xususiy hosilali integrallar

16-misol. x^3+3xy funksiyasining x bo’yicha xususiy integrali:

Integral(x^3+3x y, x)

Natija: $\frac{1}{4}x^4+\frac{3}{2}x^2y$

4.4. Parametrli integrallar

CAS (Computer Algebra System) ko’rinishida o’zgaruvchilarga ruxsat beriladi:

Integral(cos(a t), t)

Natija: $\frac{\sin(at)}{a}+c_1$

4.5. Grafik imkoniyatlari

GeoGebra dasturining eng muhim xususiyati – integralni grafik tasvirlash imkoniyatidir.Integral() komandasi nafaqat sonli natijani beradi, balki funksiya grafigi va x o’qi orasidagi yuzani rangli ajratib ko’rsatadi.

17-misol. $f(x)=x^2$ funksiyasining [0,2] oralig’idagi integrali:

f(x) = x^2

Integral(f, 0, 2)

Natija: ‘2.67’ (8/3) va grafikda soha rangli ajratiladi.

V. QIYOSIY TAHLIL

5.1. Funksional imkoniyatlar taqqoslamasi

Dasturiy paketlarning funksional imkoniyatlari

Mezon	**Maple**	**MATLAB**	**Mathematica 7**	**GeoGebra**
Analitik hisoblash	+++	+	+++	++
Sonli hisoblash	++	+++	+++	++
Grafik vizuallashtirish	++	+++	++	++++
Bosqichma-bosqich yechim	+++	–	++	+
Maxsus funksiyalar	+++	++	+++	+
Foydalanish qulayligi	++	+	+	++++
Bepul	–	–	–	++++

Izoh: ++++ – juda yaxshi, +++ – yaxshi, ++ – o’rtacha, + – qoniqarli, -- – mavjud emas.

5.2. Murakkab funksiyalar misolida taqqoslash

18-misol. Quyidagi integralni turli dasturlarda hisoblash: $I = \int_0^{\pi/2} \sin(x^3 + x^5)dx$

Maple:

evalf(Int(sin(x^3 + x^5), x=0..Pi/2));

MATLAB:

integral(@(x) sin(x.^3 + x.^5), 0, pi/2)

Mathematica 7:

NIntegrate[Sin[x^3 + x^5], {x, 0, Pi/2}]

GeoGebra:

Integral(sin(x^3 + x^5), 0, π/2)

Barcha dasturlar taxminan bir xil natija beradi: '0.6768' (farqlar 10^{-8} darajasida).

5.3. Xosmas integrallarni hisoblash

19-misol. Quyidagi xosmas integralni hisoblash:

$$I = \int_1^{\infty} \frac{1}{x^2} dx$$

Maple:

int(1/x^2, x=1..infinity);

Natija: '1'

MATLAB:

integral(@(x) 1./x.^2, 1, inf)

Natija: '1.0000'

Mathematica 7:

Integrate[1/x^2, {x, 1, Infinity}]

\end{verbatim}

Natija: '1'

GeoGebra:

Integral(1/x^2, 1, ∞)

Natija: '1'

5.4. Hisoblash tezligi

Nisbiy hisoblash tezligi (kichik qiymat tezroq)

Funksiya turi	**Maple**	**MATLAB**	**Mathematica 7**	**GeoGebra**
Oddiy funksiyalar	1.2	1.0	1.3	2.5
Murakkab funksiyalar	1.5	1.0	1.4	4.0
Maxsus funksiyalar	1.3	2.0	1.0	-
Vektorli funksiyalar	2.0	1.0	1.8	5.0

6. AMALIY TAVSIYALAR

6.1. Ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha tavsiyalar

Oliy o'quv yurtlarining turli bosqichlarida dasturiy paketlardan foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Bakalavriatning 1-2 kurslari:

- GeoGebra – integral tushunchasini shakllantirish, geometrik ma'nosini tushuntirish
- Maple – oddiy integrallarni hisoblash usullarini o'rganish

2. Bakalavriatning 3-4 kurslari:

- MATLAB – muhandislik masalalarida sonli integrallash
- Mathematica – murakkab funksiyalarni integrallash

3. Magistratura va ilmiy tadqiqotlar:

- Maple va Mathematica – analitik hisoblashlar va maxsus funksiyalar
- MATLAB – yuqori aniqlikdagi sonli hisoblashlar

6.2. Dasturiy paketlarni tanlash mezonlari

Muayyan masalani yechish uchun dasturiy paketni tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish tavsiya etiladi:

1. Masalaning xarakteri:

- Analitik yechim talab qilinsa $\rightarrow$ Maple yoki Mathematica
- Sonli natija yetarli bo‘lsa $\rightarrow$ MATLAB
- Vizual tasvirlash muhim bo‘lsa $\rightarrow$ GeoGebra

2. Foydalanuvchi tayyorgarligi:

- Boshlang’ich daraja $\rightarrow$ GeoGebra
- O’rta daraja $\rightarrow$ Maple
- Yuqori daraja (dasturlash bilimi talab qilinadi) $\rightarrow$MATLAB, Mathematica

3. Moliyaviy imkoniyatlar:

- Bepul dastur kerak bo’lsa $\rightarrow\rightarrow$ GeoGebra
- Litsenziya mavjud bo’lsa $\rightarrow$ boshqa dasturlar

Matematik analiz masalalarini, xususan, aniq integrallarni yechishda dasturiy paketlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirishning muhim omilidir. Ushbu maqolada to’rtta asosiy dasturiy paket – Maple, MATLAB, Mathematica 7 va GeoGebra – aniq integrallarni hisoblash nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, har bir dasturiy vosita o’zining kuchli va zaif tomonlariga ega:

Maple – simvolli hisoblashlar va bosqichma-bosqich yechimlarni tahlil qilish uchun eng yaxshi tanlov. Uning int va Int buyruqlari moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, "Student[Calculus1]" paketi talabalar uchun juda foydali.

MATLAB – sonli hisoblashlar va muhandislik masalalari uchun optimal vosita. integral funksiyasi adaptiv kvadratura usuli bilan yuqori aniqlikda ishlaydi. Vektorlashtirilgan amallar va yuqori tezlik – uning asosiy afzalliklari.

Mathematica 7 – universal matematik paket bo’lib, nazariy va amaliy masalalarni yechishda keng qo’llaniladi. Maxsus funksiyalar bilan ishlash imkoniyati va kuchli analitik hisoblash vositalari bilan ajralib turadi.

GeoGebra – vizuallashtirish va interaktiv o’qitish uchun eng qulay dastur. Integralni grafik tasvirlash, Riman yig’indilarini ko’rsatish imkoniyati bilan ajralib turadi. Bepul bo’lishi esa uning yana bir muhim afzalligidir.

Ta’lim jarayonida ushbu dasturlardan maqsadli foydalanish talabalarning integral hisoblash usullarini chuqurroq tushunishlariga, murakkab masalalarni yechish ko’nikmalarini shakllantirishga va matematik modellashtirish sohasida amaliy tajriba orttirishlariga yordam beradi.

Kelgusida ushbu tadqiqotni kengaytirib, ko’p o’lchovli integrallar, egri chiziqli integrallar va sirt integrallarini hisoblashda dasturiy paketlarning imkoniyatlarini o’rganish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mathematik-Online-Lexikon. Integration mit Maple. – Universität Stuttgart, 2012. – 45 s.

2. Wolfram Research. Mathematica 7 User Manual. – Champaign: Wolfram Research, 2008. – 1240 p.

3. Hohenwarter M. GeoGebra in Mathematics Education. – Linz: J. Kepler University, 2023. – 78 p.

4. Iowa State University. Geogebra Demos. – Ames: Iowa State University, 2025. – 15 s.

5. GeoGebra Manual. Integral Command. – GeoGebra Team, 2024. – 8 s.

6. MathWorks. MATLAB Documentation: integral - Numerical integration. – Natick: MathWorks, 2025. – 35 s.

7. MathWorks. Integration - MATLAB \& Simulink Example. – Natick: MathWorks, 2025. – 22 s.

8. Stony Brook University. The int (and Int) command. – Stony Brook: Department of Mathematics, 2002. – 10 s.

9. Mathematica Stack Exchange. NIntegrate vs. Integrate. – 2025. – 5 s.

ZAMONAVIY TA’LIMDA GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARINING O‘QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIRI

Ergashov B.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi ilmiy tadqiqotchisi

E-mail: bobur.ergashov@edu.uz

Anotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida gamifikatsiya va interaktiv texnologiyalarning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. O‘yin elementlarining dars jarayoniga integratsiyasi, raqamli platformalar orqali interaktivlikni ta’minlash hamda ularning kognitiv faollikka ta’siri yoritilgan. Gamifikatsiyaning psixologik-pedagogik asoslari, samarali qo‘llash metodikalari va texnik cheklovlar ko‘rib chiqilgan. Yakunda O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Gamifikatsiya, interaktiv texnologiyalar, o‘quv motivatsiyasi, raqamli ta’lim, kognitiv faollik, o‘yinlashtirish, ta’lim platformalari, pedagogik innovatsiyalar.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi an’anaviy dars berish usullaridan voz kechib, o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan yondashuvlarga o‘tmoqda. Raqamli muhitda o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishda gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) va interaktiv texnologiyalar muhim vositaga aylanmoqda. Ushbu usullar nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini uyg‘otish, mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish strategiyasi doirasida bunday texnologiyalarni maktab va oliy ta’lim muassasalarida joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolada gamifikatsiyaning ta’limdagi psixologik-pedagogik asoslari, interaktiv platformalarning o‘quv jarayoniga ta’siri, ularni qo‘llashdagi imkoniyatlar va cheklovlar tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim muassasalari uchun amaliy joriy etish tavsiyalari ishlab chiqiladi.

2. Gamifikatsiyaning ta’limdagi o‘rni va psixologik-pedagogik asoslari

Gamifikatsiya – bu o‘yin bo‘lmagan muhitda o‘yin elementlaridan (ballar, darajalar, nishonlar, reytinglar, vazifalar tizimi, progress-barlar) foydalanish orqali foydalanuvchi xulq-atvori va motivatsiyasini boshqarish jarayonidir. Ta’lim sohasida u o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va natijalarni real vaqtda baholash imkonini beradi.

Psixologik jihatdan, gamifikatsiya o‘z-o‘zini anglash, muvaffaqiyat hissi va ijtimoiy raqobat muhitini shakllantiradi. *Self-Determination Theory (SDT)* ga ko‘ra, o‘quvchilarning avtonomiyasi, kompetensiyasi va ijtimoiy aloqasi qondirilganda ichki motivatsiya kuchayadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayoniga o‘yin mexanizmlarini integratsiya qilish o‘quvchilarning topshiriqni bajarish davomiyligini 30–40% ga, faol ishtirok darajasini esa 25% dan ortiq oshiradi [1].

Gamifikatsiyaning ta’limdagi asosiy mexanizmlari:

- Vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish – o‘quvchi muvaffaqiyat hissi bilan keyingi darajaga o‘tadi.

- Tezkor fikr-mulohaza (feedback) – har bir harakatga darhol baho beriladi, bu xatolarni tuzatishni osonlashtiradi.

- Ijtimoiy o‘zaro ta’sir – jamoaviy musobaqalar, yetakchilar jadvali va hamkorlikdagi loyihalar motivatsiyani barqarorlashtiradi.

3. Interaktiv texnologiyalar va raqamli ta’lim muhiti

Interaktiv texnologiyalar o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida ikki tomonlama aloqani ta’minlaydi. Virtual doskalar, interaktiv simulyatorlar, AR/VR dasturlari, jamoaviy ish platformalari (Miro, Padlet, Kahoot, Quizizz, Mentimeter) darsni dinamik qiladi. Bu vositalar nafaqat vizual va audio idrokni kuchaytiradi, balki amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz virtual muhitda shakllantirish imkonini beradi.

Masalan, fizika yoki kimyo fanlaridagi tajribalar virtual laboratoriyalar orqali xavfsiz va qayta takrorlanuvchi tarzda o‘tkazilishi mumkin. Tibbiyot yo‘nalishida 3D anatomik modellar va jarrohlik simulyatorlari talabalarning amaliy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktivlikning asosiy afzalligi – o‘quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi, bu esa bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Interaktiv platformalarni ta’limda samarali qo‘llash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Maqsadga muvofiqlik (texnologiya dars maqsadiga xizmat qilishi kerak).

2. Foydalanuvchi tajribasining soddaligi (interfeys murakkab bo‘lmasligi lozim).

3. Pedagogik nazoratning saqlanib qolishi (o‘qituvchi jarayonni boshqarishi shart).

4. Imkoniyatlar va joriy etishdagi qiyinchiliklar

Gamifikatsiya va interaktiv texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi: motivatsiyani barqarorlashtirish, individual tezlikka moslashish, real vaqt rejimida fikr-mulohaza olish va ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish. Biroq, ularni samarali qo‘llashda bir qator to‘siqlar mavjud:

- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi – ko‘plab pedagoglar interaktiv vositalardan faqat namoyish qilish darajasida foydalanadi, pedagogik integratsiya metodikasi yetarli emas.

- Texnik infratuzilma cheklovlari – qishloq va chekka hududlarda internet sifati va qurilmalar yetishmovchiliği platformalardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi.

- Gamifikatsiyaning soddalashtirish xavfi – o‘yin elementlarining haddan tashqari ko‘payishi o‘quv jarayonini yengillashtirib, chuqur tahlil va kritika fikrlash ko‘nikmalarini susaytirishi mumkin.

- Baholash mezonlarini uyg‘unlashtirish – ballar va nishonlarni akademik baholash tizimi bilan bog‘lash metodik jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi [2].

Shu sababli, texnologiyalarni joriy etishda ular faqat “qo‘shimcha bezak” emas, balki o‘quv dasturining ajralmas qismi sifatida ilmiy asoslangan yondashuv bilan qo‘llanilishi zarur.

Xulosa

Gamifikatsiya va interaktiv texnologiyalar zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, dars jarayonini dinamiklashtirish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarni joriy etish uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, raqamli infratuzilmani kengaytirish, milliy o‘quv dasturlariga moslashtirilgan interaktiv kontent yaratish hamda gamifikatsiyaning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslash zarur. Ushbu chora-tadbirlar kompleks amalga oshirilganda, ta’lim tizimi nafaqat raqamli, balki psixologik va pedagogik jihatdan ham zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga ko‘tariladi.

Adabiyotlar:

[1] Deterding S., Sicart M., Nacke L., Drachen A., Dixon D. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification” // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011. 9–15 b.

[2] Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Do badges increase user activity? A field experiment on the effects of gamification // Computers in Human Behavior. 2017. №71. 469–478 b.

[3] Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer, 2012.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi 2023–2027-yillar”. Toshkent, 2023.

[5] Dichev C., Dicheva D. Gamifying education: what is known, what is believed and what remains uncertain // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2017. №14(1). 9 b.

DASTURLASH TA’LIMIDA AVTOMATLASHTIRILGAN BAHOLASH VA FIKR-MULOHAZA TEXNIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sultanov Ravshonbek Otonazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o`qituvchisi

ravshanbeksultanov077@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis dasturlash ta’limida avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza texnikalarini takomillashtirish masalalarini yoritadi. Tadqiqotda kod qamrovi va mutatsiya testlashning baholash sifatiga ta’siri, kuzatish ko‘nikmalarini baholashning zamonaviy usullari hamda vizual algoritm simulyatsiyasi mashqlarini avtomatlashtirilgan baholashning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar dasturlash ta’limi sifatini oshirishga yordam beruvchi amaliy xulosalar bilan yakunlanadi.

Zamonaviy dasturlash ta’limida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini to‘g'ri va samarali baholash muhim pedagogik muammoligicha qolmoqda. O‘quv jarayonida baholash faqat baho qo‘yish vositasi emas, balki talabaning o‘z progress darajasini anglashi, zaif tomonlarini aniqlashi va ko‘nikmalarini takomillashtirishi uchun zarur bo‘lgan fikr-mulohaza mexanizmi hamdir. Ideal sharoitda har bir talaba o‘z individual muammolarini tezkor ravishda aniqlashga yordam beruvchi shaxsiy murabbiyga ega bo‘lishi kerak. Ammo haqiqatda katta guruhlarda o‘qitish sharoitida bunday imkoniyat cheklangan.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari bu bo‘shliqni to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimlar o‘qitish resurslarini tejab, darhol fikr-mulohaza berish imkonini yaratadi va katta miqyosda sifatli baholashni amalga oshiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan baholashning o‘z cheklovlari mavjud: fikr-mulohaza sifati ko‘pincha past bo‘lib, noto‘g'ri tushunchalarni aniq aniqlash qiyin. Ushbu tezis ana shu muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqot natijalarini umumlashtiradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mavjud baholash texnikalarini takomillashtirish orqali talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini aniqroq baholay olish va ularga sifatliroq fikr-mulohaza berish imkoniyatlarini aniqlashdir. Bu maqsad uchta yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar orqali amalga oshirildi.

Birinchi yo‘nalish — dasturlash va testlash ko‘nikmalarini baholash. Bu yo‘nalishda asosiy muammo sifatida kod qamrovi metrikasining cheklovlari o‘rganildi: talabalar keng qamrovga ega, lekin dasturni spetsifikatsiyasiga qarshi to‘liq sinovdan o‘tkazmaydigan testlar yozishi mumkinligi aniqlandi. Mutatsiya testlash bu muammoning yechimi sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, vizual fikr-mulohazaning test natijalarini talabaga yetkazishdagi samaradorligi ham tekshirildi.

Ikkinchi yo‘nalish — kodni o‘qish va kuzatish ko‘nikmalarini baholash. Bu yo‘nalishda dastur kodini kuzatish ko‘nikmasi dasturlashning asosiy tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi: yangi kod yozish, xatolarni tuzatish (debugging) va mavjud kodni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarining

barchasida kuzatish koʻnikmasi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot koʻp tanlovli savollar va skelet kod mashqlarining xususiyatlari hamda samarali kuzatish strategiyalarini oʻrganishga qaratildi.

Uchinchi yoʻnalish — vizual algoritm simulyatsiyasi mashqlarini avtomatlashtirilgan baholash. Platforma asosida oʻtkazilgan tadqiqotda talabalarning notoʻg'ri simulyatsiya ketma-ketliklarini tahlil qilish va tizimli xatolarni tasodifiy e'tiborsizlik xatolaridan ajratish imkoniyatlari oʻrganildi.

Tadqiqot keng koʻlamli eksperimental ma’lumotlarga asoslangan boʻlib, bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Mutatsiya testlash samaradorligini oʻlchashda CS2 kursi talabalarining haqiqiy test toʻplamlari tahlil qilindi. Kuzatish koʻnikmalarini oʻrganishda 7 mamlakatdan 941 talaba ishtirok etgan koʻp muassasali (multi-institutional) tadqiqot oʻtkazildi. Bu tadqiqotda talabalarning imtihon qog'ozlaridagi annotatsiyalari ("doodles") va ovozli protokollar toʻplandi va tahlil qilindi.

Vizual fikr-mulohaza samaradorligini tekshirishda tasodifiy taqsimlangan uch guruhli eksperiment oʻtkazildi: bir guruh matnli, ikkinchisi ob'ekt grafi (object graph) vizualizatsiyasi, uchinchisi semantik vizualizatsiya asosidagi fikr-mulohaza oldi. Platformada e'tiborsizlik va tizimli xatolarni ajratish uchun algoritm amalga oshirilishining kritik qismlarida nazorat ostida oʻzgarishlarga imkon beruvchi maxsus jihozlangan (instrumented) kod qoʻllanildi.

Testlash koʻnikmalarini baholash boʻyicha tadqiqot shuni koʻrsatdiki, kod qamrovi metrikasi yolg'iz baholash mezoni sifatida yetarli emas. Koʻp sonli talaba topshiriqlarida deyarli toʻliq qamrovga erishilgan boʻlsa-da, mutatsiya testlash balli ancha past boʻlgan. Qoʻlda tekshirish natijasida sinovdan oʻtkazilayotgan kod test natijalariga umuman ta’sir qilmagan holatlari topildi. Bu holat baholashda kod qamrovini qoʻlda nazorat usullari yoki mutatsiya testlash bilan toʻldirish zarurligini koʻrsatadi.

Kuzatish koʻnikmalarini baholash boʻyicha tadqiqotda kuchli va zaif talabalar oʻrtasida strategiyalar boʻyicha sezilarli farqlar aniqlandi. Yuqori ball toʻplagan talabalar imtihon qog'ozida bir nechta oʻzgaruvchini sinxron kuzatishni pastki kvartildagi talabalarga qaraganda uch baravar koʻp amalga oshirgan. Annotatsiyalardan foydalanish — tashqi xotira sifatida qog'ozdan foydalanish — yuqori baho bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi isbotlandi. Bu natija talabalarga kuzatish strategiyalarini maqsadli oʻqitish zarurligini asoslaydi.

Skelet kod savollari tayyor kod kuzatish savollariga qaraganda ancha murakkab boʻlib chiqdi. Buning sababi skelet kod mashqlarini yechishda kod qismini bir necha marta kuzatish yoki simvolik bajarish talab etilishi, holbuki imtihon sharoitida talabalar koʻpincha bunday chuqur kuzatish texnikalarini qoʻllamaydi. Bu topilma kuzatish koʻnikmalarini baholashda turli mashq turlarini maqsadga muvofiq tanlash muhimligini koʻrsatadi.

Vizual algoritm simulyatsiyasi tadqiqotida Platformadan olingan ma’lumotlar tahlili shuni koʻrsatdiki, notoʻg'ri talaba javoblarining katta qismi ma’lum algoritmik notoʻg'ri tushunchalar bilan izohlanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari dasturlash ta’limida avtomatlashtirilgan baholashni takomillashtirish uchun bir nechta muhim xulosalar beradi. Birinchidan, baholashda yagona metrikaga (masalan, kod qamrovi) tayanmaslik kerak — koʻplab metrikalarni birlashtirib, inson nazoratini ham qoʻshish

sifatni sezilarli oshiradi. Ikkinchidan, mutatsiya testlash talabalarning testlash ko‘nikmalarini baholashda yuqori potentsialga ega, ammo natijalarni talabalar uchun tushunarli va foydali shaklda taqdim etish uchun qo‘shimcha tadqiqot talab etiladi.

Uchinchidan, talabalarga kuzatish ko‘nikmalarini maqsadli o‘qitish — ayniqsa tashqi xotira (qog'oz) dan foydalanish va kuzatish paytida annotatsiya qilish strategiyalari — baholash natijalarini yaxshilashga yordam beradi. To‘rtinchidan, Platforma vizual algoritm simulyatsiyasi tizimi noto‘g'ri tushunchalarni avtomatik aniqlash uchun katta imkoniyat yaratadi va talabaga fikr-mulohazani nafaqat raqamli ball ko‘rinishida, balki aniq tushuntirish shaklida berish mumkin. Beshinchidan, vizual fikr-mulohaza texnik jihatdan amalga oshiriladigan bo‘lsa-da, uning pedagogik samaradorligini oshirish uchun kuzatilayotgan ma’lumot turi va vizualizatsiya dizayniga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlarda mutatsiya testlash natijalarini talabalar uchun optimal taqdim etish, vizual fikr-mulohaza samaradorligini turli xil mashq turlari va qiyinlik darajalari bo‘yicha batafsil tekshirish, hamda kuzatish strategiyalarini o‘qitishning uzoq muddatli ta’sirini o‘lchash muhim yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xulosa

Ushbu tezisda dasturlash ta’limida avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza texnikalarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi umumlashtirildi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining samaradorligi ko‘p jihatdan baholash metrikalarining to‘g'ri tanlanishi, fikr-mulohazaning sifati va tezkorligi hamda talabalarning baholash jarayonidagi faol ishtiroki bilan belgilanadi. Kod qamrovining cheklovlari va mutatsiya testlashning kuchli tomonlari, kuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish strategiyalari hamda vizual algoritm simulyatsiyasidagi avtomatlashtirilgan noto‘g'ri tushunchalarni aniqlash usullari — bularning barchasi dasturlash ta’limida baholash sifatini tubdan yaxshilash uchun asos bo‘la oladi. Tadqiqot natijalari amaliy ta’lim jarayonida darhol qo‘llash mumkin bo‘lgan xulosalar bilan birga kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun yangi yo‘nalishlarni ham belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. Bloom, B.S. (1984). The 2 Sigma Problem: The Search for Methods of Group Instruction as Effective as One-to-One Tutoring. Educational Researcher, 13(6), 4–16.

2. Edwards, S.H. (2004). Using Software Testing to Move Students from Trial-and-Error to Reflection-in-Action. ACM SIGCSE Bulletin, 36(1), 26–30.

3. McCracken, M. et al. (2001). A Multi-national, Multi-institutional Study of Assessment of Programming Skills of First-year CS Students. ACM SIGCSE Bulletin, 33(4), 125–140.

4. Parsons, D., & Haden, P. (2006). Parson's Programming Puzzles: A Fun and Effective Learning Tool for First Programming Courses. ACE '06 Proceedings.

5. Gibbs, G., & Simpson, C. (2004). Conditions Under Which Assessment Supports Students' Learning. Learning and Teaching in Higher Education, 1, 3–31.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XAKATON TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Kuralov Bekjon Abdullayevich

Toshkent davlat texnika universiteti
oliy matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
kuralovbekjon@mail.ru
(97) 731 10 85

Xalqaro ta’lim tadqiqotlarida (Bates, 2022; Selwyn, 2023; UNESCO, 2024; Hattie, 2023) raqamli baholash, akademik halollik va AI-asosli tahlil vositalari keng o’rganilgan. Turnitin, iThenticate, Copyleaks kabi tizimlarning samaradorligi tasdiqlangan, biroq ular asosan matnli o’xshashlikni aniqlashga qaratilgan bo’lib, talabaning kognitiv rivojlanish darajasi, mustaqil fikrlash ko’nikmalari, metakognitiv refleksiyasi va kompetensiyalarini kompleks baholashda cheklangan. O’zbekiston olimlari (A. Abdullayev, M. Karimov, N. Xoliqova, D. Yusupov va b.) raqamli ta’lim muhitida baholash mezonlarini takomillashtirish, formativ baholashni joriy etish va akademik halollik madaniyatini shakllantirish bo’yicha qator ishlar olib borgan. Biroq “NO CLONE” dasturining pedagogik metodikasi, uning LMS tizimlariga integratsiyasi, baholash rubrikalari bilan sinxronlashuvi va o’quv jarayonida formativ instrument sifatida qo’llanilishi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligini va amaliy zaruriyatini belgilaydi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda “NO CLONE” dasturidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, uning pedagogik samaradorligini asoslash va amaliy qo’llash modelini taklif etishda quyidagi Vazifalarga murojaat etiladi:

- “NO CLONE” dasturining funksional, texnik va pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish; Individual faoliyatni baholashda dasturdan foydalanish bosqichlari, mezonlari va dinamik baholash rubrikalarini ishlab chiqish;
- Dasturning LMS (Moodle, Canvas, Talim.uz, Google Classroom) platformalariga API orqali integratsiya mexanizmini didaktik jihatdan asoslash;
- Pedagogik eksperiment yo’li bilan dasturning baholash ob’ektivligi, vaqt samaradorligi va akademik halollikka ta’sirini empirik tekshirish;
- O‘qituvchilar va talabalar uchun metodik qo`llanma, trening modullari va fikr-mulohaza (feedback) siklini ishlab chiqish.

Obyekt sifatida – Raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholash jarayoni qaralsa Predmet sifatida esa “NO CLONE” dasturidan foydalanish metodikasi va uning baholash sifatiga, akademik halollikka hamda talabalar kompetensiyalariga ta’siri qaraladi.

Raqamli pedagogika, innovatsion didaktika va raqamli baholash nazariyasini boyitadi. AI vositalarining ta’limdagi rolini pedagogik kontekstda tushunishga, akademik halollik va metakognitiv refleksiyani rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablari uchun metodik qo’llanma, LMS integratsiya moduli va o’qituvchilar malaka oshirish dasturi taklif etiladi. Baholash vaqti 30–40% ga qisqaradi, plagiat holatlari 50% dan ortiq kamayadi, baholash adolati va talabalarning o’z-o’zini baholash ko’nikmasi oshadi.

“NO CLONE” dasturidan foydalanish metodikasi raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashni nafaqat texnik, balki pedagogik-didaktik jihatdan asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari akademik halollikni mustahkamlash, baholash jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning mustaqil kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodika O’zbekiston ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasiga, xalqaro baholash standartlariga moslashuviga va innovatsion didaktika rivojiga muhim hissa qo’shadi. Kelgusi tadqiqotlar dasturning ko’p tilli muhitdagi moslashuvchanligi, real vaqtdagi adaptiv fikr-mulohaza mexanizmlari va etik-AI cheklovlarini o’rganishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Selwyn, N. (2023). Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury.
2. UNESCO (2024). AI in Education: Policy Framework for Academic Integrity. Paris.
3. European Commission (2025). Digital Education Action Plan 2025–2030. Brussels.
4. Biggs, J. & Tang, C. (2022). Teaching for Quality Learning at University. 5th ed. McGraw-Hill.
5. Wiliam, D. (2023). Embedded Formative Assessment. 2nd ed. Solution Tree.
6. Turnitin (2024). Academic Integrity Report: Global Trends in Student Writing.
7. Copyleaks (2025). AI-Generated Content Detection: Pedagogical Implications.

8. Abdullayev, A. (2023). Raqamli ta’lim muhitida baholash tizimlari samaradorligi. Pedagogika jurnali, 4, 45-58

“ASTRODIGITAL.UZ” PLATFORMASINING FUNKSIONAL MODULLARI VA ASTRONOMIYA TA’LIMIDA INTERFAOL O‘QUV MUHITI

Tillaboyev A.M.[1]

1 – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: azlarxontillaboyev@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda “AstroDigital.uz” platformasining konseptual tuzilmasi, foydalanuvchi rollari va asosiy funksional modullari tavsiflanadi. Platforma nazariy kontent, virtual laboratoriya, 3D simulyatsiya, amaliy topshiriqlar va xavfsiz axborot almashinuvini yagona raqamli astronomiya ta’lim muhitida uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: AstroDigital.uz, funksional modul, virtual laboratoriya, 3D simulyatsiya, astronomiya kursi, interfaol ta’lim.

Raqamli ta’lim muhiti samaradorligi ko‘p jihatdan platformaning qanday modullardan tashkil topgani, ularning o‘zaro bog‘lanishi va pedagogik maqsadga qanchalik xizmat qilishiga bog‘liq. Astronomiya kursida elektron darslik, videodars, simulyator, test va mustaqil ish topshiriqlari alohida-alohida qo‘llanganda ularning didaktik natijasi cheklangan bo‘lishi mumkin. “AstroDigital.uz” platformasi bunday tarqoqlikni bartaraf etib, har bir modulni o‘quv natijasi bilan bog‘langan yagona interfaol tizimga birlashtirishni ko‘zda tutadi.

Platformaning konseptual tuzilmasi uchta foydalanuvchi roli asosida tashkil etiladi: administrator, o‘qituvchi va talaba. Administrator tizimdagi foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazadi, modul va ma’lumotlar bazalarining ishlashini nazorat qiladi, axborot xavfsizligi bo‘yicha umumiy sozlamalarni belgilaydi. O‘qituvchi kurs mavzularini joylashtiradi, virtual laboratoriya ssenariylarini tanlaydi, topshiriqlarni belgilaydi, talabalar faoliyati bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘radi. Talaba esa nazariy materialni o‘zlashtiradi, 3D simulyatsiyalar bilan ishlaydi, amaliy masalalarni bajaradi va natijalarini shaxsiy kabinetida kuzatadi.

Bosh sahifa platformaning pedagogik navigatsiya markazi sifatida loyihalanadi. Unda kurs bo‘limlari, dolzarb topshiriqlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, tavsiya etilgan resurslar va shaxsiy reyting ko‘rsatkichlari aniq ko‘rinadi. Menyular tizimi “Nazariy kurs”, “Virtual laboratoriya”, “Masalalar to‘plami”, “Monitoring”, “Portfolio” va “Yordam” kabi bo‘limlardan tashkil topadi. Bunday navigatsiya talabaning ortiqcha vaqt sarflamasdan o‘z o‘quv marshrutini topishiga yordam beradi, o‘qituvchiga esa kurs jarayonini tezkor boshqarish imkonini yaratadi.

O‘quv-metodik kontent moduli platformaning asosiy mazmuniy qismidir. Unda interfaol ma’ruzalar, qisqa videodarslar, tayanch konspektlar, infografikalar, mavzuga oid terminlar lug‘ati va o‘zini o‘zi tekshirish savollari joylashtiriladi. Masalan, “Yulduzlar evolyutsiyasi” mavzusida nazariy tushuntirish bilan birga Hertsprung-Rassell diagrammasi, yulduz hayot siklining bosqichlari va asosiy fizik parametrlar interfaol ko‘rinishda beriladi. Bu modul talabaning mavzuni o‘zlashtirishini soddalashtiradi, biroq ilmiylik tamoyilini saqlagan holda tushunchalararo bog‘lanishni ko‘rsatadi.

Virtual laboratoriya va 3D simulyatsiya moduli astronomiya kursining amaliy jihatini kuchaytiradi. Ushbu modul orqali Quyosh tizimi jismlarining harakati, osmon sferasining koordinatalari, Oy va Quyosh tutilishlari, sayyoralarning orbitalari, teleskopning sozlanishi kabi

jarayonlar interfaol tarzda modellashtiriladi. Talaba parametrlarni o‘zgartirganida natija darhol grafik yoki fazoviy modelda aks etadi. Bunday muhit an’anaviy laboratoriyada kuzatish imkoni cheklangan jarayonlarni didaktik jihatdan yaqinlashtiradi va virtual tajribani faol bilish jarayoniga aylantiradi [1].

Amaliy topshiriqlar va masalalar moduli nazariy bilimni hisoblash, tahlil va izohlash faoliyati bilan bog‘laydi. Unda tayyor javobni tanlashdan ko‘ra, qadam-baqadam yechish, formulani tanlash, birliklarni tekshirish, oraliq natijalarni kiritish va xatoni tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, talaba sayyoraning orbital davrini hisoblashda dastlab fizik kattaliklarni aniqlaydi, so‘ng formulani qo‘llaydi, yakuniy natijani platformadagi nazorat qiymati bilan solishtiradi. Bu yondashuv algoritmik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va metodik tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1-jadval

“AstroDigital.uz” platformasining asosiy funksional modullari

Modul	Asosiy vazifa	Ta’limiy natija
O‘quv-metodik kontent	Ma’ruza, video, konspekt, infografika va terminlarni taqdim etish	Nazariy bilimlarni tizimli o‘zlashtirish
Virtual laboratoriya	Astronomik jarayonlarni 2D/3D simulyatsiya qilish	Kuzatish, tajriba va xulosa chiqarish ko‘nikmalari
Amaliy topshiriqlar	Hisob-kitobli va mantiqiy masalalarni interfaol yechish	Algoritmik fikrlash va amaliy qo‘llash
Monitoring va portfolio	Faoliyat natijalarini yig‘ish va tahlil qilish	O‘z-o‘zini baholash va refleksiya
Axborot xavfsizligi	Shaxsiy ma’lumotlar va kirish huquqlarini himoyalash	Ishonchli raqamli ta’lim muhiti

Platformaning pedagogik kuchi modullararo integratsiyada namoyon bo‘ladi. Kontent modulida o‘rganilgan mavzu virtual laboratoriyada tajriba bilan mustahkamlanadi, amaliy topshiriqlar modulida masala orqali qayta ishlanadi, monitoring modulida esa natija baholanadi. Shu sababli platforma aralash ta’lim, “to‘ntarilgan sinf”, loyihali o‘qitish va STEAM yondashuvlarini qo‘llash uchun qulay muhit yaratadi. O‘qituvchi ma’ruzani auditoriyadan oldin platformaga joylashtirishi, auditoriyada esa simulyatsiya va muammoli topshiriqlarga ko‘proq vaqt ajratishi mumkin.

Raqamli pedagogika kontekstida “AstroDigital.uz” platformasi faqat texnologik mahsulot emas, balki astronomiya ta’limini metodik jihatdan qayta tashkil etuvchi vosita sifatida qaraladi. Uning modullari o‘quvchi uchun ko‘rgazmalilik va interfaollikni, o‘qituvchi uchun boshqaruv va tahlilni, ta’lim muassasasi uchun esa standartlashtirilgan va shaffof o‘quv jarayonini ta’minlaydi. Ayniqsa, simulyatsiya moduli laboratoriya sharoitida bajarish qiyin bo‘lgan tajribalarni xavfsiz, takrorlanadigan va o‘lchanadigan shaklda o‘tkazishga yordam beradi [2].

Xulosa qilib aytganda, “AstroDigital.uz” platformasining funksional modullari astronomiya kursining nazariy, amaliy va nazorat komponentlarini yagona raqamli muhitga birlashtiradi. Platforma talabaning mavzuni o‘qishi, model bilan ishlashi, masala yechishi, natijani tahlil qilishi va o‘z rivojlanishini kuzatishi uchun uzluksiz o‘quv trayektoriyasini yaratadi. Bu esa sun’iy intellektga asoslangan raqamli pedagogika sharoitida fanlarni o‘qitishda innovatsion didaktika, simulyatsiya texnologiyalari va moslashuvchan ta’lim tamoyillarini amaliyotga joriy etish imkonini beradi [3].

Adabiyotlar

[1] Brinson J.R. Learning outcome achievement in non-traditional versus traditional labs: A review // Computers & Education. 2015. Vol. 87. P. 218-237.

[2] Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

[3] OECD. Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills. Paris: OECD Publishing, 2016.

RAQAMLI PEDAGOGIKADA ASTROFIZIKA VA KOSMOLOGIYA MAVZULARINI O‘QITISHDA KROSS-PLATFORMALI SIMULYATORLARNING METODIK IMKONIYATLARI

Saitov Mirhayot[1]

1 - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Aniq fanlar fakulteti, Fizika va astronomiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda astrofizika va kosmologiya mavzularini raqamli pedagogika asosida o‘qitishda kross-platformali simulyatorlardan foydalanish metodikasi yoritiladi. Yaponiyaning Milliy astronomiya observatoriyasi tomonidan yaratilgan “Mitaka” kompyuter simulyatori hamda “Exoplanet” mobil ilovasining vizual, tahliliy va tadqiqotga yo‘naltiruvchi imkoniyatlari o‘quvchilarda kosmologik tasavvur, fazoviy fikrlash va mustaqil izlanish kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, astrofizika, kosmologiya, kross-platformali ta’lim, Mitaka, Exoplanet, simulyatsiya, ekzosayyora, vizual ta’lim muhiti.

Zamonaviy astronomiya ta’limida Quyosh tizimidan tashqaridagi ekzosayyoralar, yulduz klasterlari, galaktikalar to‘dasi va olam evolyutsiyasi kabi makrojarayonlarni faqat og‘zaki bayon qilish yetarli emas. Yorug‘lik yillari, parsek, galaktik masofalar, relikt nurlanish chegarasi kabi tushunchalar o‘quvchi ongida aniq obraz hosil qilishi uchun interaktiv vizual muhit zarur. Raqamli ta’lim texnologiyalari aynan shu ehtiyojni qondirib, mavhum kosmik jarayonlarni kuzatiladigan, solishtiriladigan va tahlil qilinadigan modelga aylantiradi [1]. Shu jihatdan mazkur mavzu konferensiyaning fanlarni o‘qitishda simulyatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘nalishiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi astrofizika va kosmologiya mavzularini o‘qitishda kompyuter va mobil platformalarni birlashtirgan metodik modelni asoslashdan iborat. Ushbu model ikki bosqichga tayanadi: birinchisi - kompyuter vositasida tizimli-analitik vizualizatsiya, ikkinchisi - mobil qurilmalar yordamida operativ axborot-tahliliy faoliyatni tashkil etish. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor ma’lumotni qabul qiluvchidan mustaqil kuzatuvchi va tahlilchiga aylantiradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar astronomik tushunchalarni tajribaviy idrok etish, parametrlarni o‘zgartirish hamda natijalarni muhokama qilish imkonini beradi [2].

Kosmologiya va olamning yirik ko‘lamli tuzilishini tushuntirishda “Mitaka” simulyatori samarali vosita bo‘la oladi. Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini Yer atrofidagi fazodan boshlab Quyosh tizimi, yulduzlararo muhit, galaktikalar va galaktikalar to‘dalarigacha bosqichma-bosqich olib boradi. Bu jarayonda fazoviy masofa masshtabi, galaktikalarning to‘rsimon tarqalishi, klasterlar orasidagi bo‘shliqlar va koinotning kengayishi 3D formatda ko‘rsatiladi. Natijada o‘quvchida kosmik obyektlar o‘rtasidagi nisbiy masofa, vaqt va harakat haqidagi tasavvur mustahkamlanadi. Metodik jihatdan “Mitaka”dan yangi mavzuni tushuntirish, muammoli savollar berish va dars yakunida umumlashtiruvchi vizual tahlil o‘tkazish bosqichlarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Mobil platformalar esa ta’limni zamonaviy ilmiy kashfiyotlar bilan bog‘laydi. “Exoplanet” ilovasi ekzosayyoralar haqidagi ma’lumotlar katalogi, sayyoraning massasi, radiusi, orbital davri va yulduzigacha bo‘lgan masofasi kabi ko‘rsatkichlarni tezkor tahlil qilish imkonini

beradi. O‘quvchilar ilova orqali tranzit hodisasida yulduz yorqinligining pasayishi grafigini sharhlaydi, sayyora va yulduz parametrlarini solishtiradi hamda astronomlarning uzoq masofadagi obyektlarni qanday aniqlashini tushunadi. Bu faoliyat raqamli astronomik ma’lumotlar bazalari bilan ishlash, ma’lumotni saralash va dalil asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3].

Kross-platformali yondashuvni darsda qo‘llash uchun uch bosqichli ssenariy taklif etiladi. Avvalo, o‘qituvchi “Mitaka” yordamida kosmik obyektlarning makromiqyosdagi joylashuvini namoyish etadi. Keyin o‘quvchilar kichik guruhlarda “Exoplanet” ilovasi orqali tanlangan ekzosayyoraning asosiy parametrlarini tahlil qiladi. Yakunda guruhlar kuzatuv natijalarini fizika, matematika va informatika fanlari bilan bog‘lab izohlaydi. Bunday integratsiya raqamli astronomik resurslardan foydalanish madaniyatini shakllantiradi, tadqiqotchilik kompetensiyasini kuchaytiradi hamda o‘quvchilarning ilmiy dalil bilan ishlash malakasini rivojlantiradi [4, 5].

Astrofizika va kosmologiyani o‘qitishda kross-platformali simulyatorlardan foydalanish raqamli pedagogikaning muhim metodik imkoniyatlaridan biridir. “Mitaka” global kosmologik tasavvurni shakllantirsa, “Exoplanet” mobil ilovasi o‘quvchini real ilmiy ma’lumotlar bilan ishlashga yo‘naltiradi. Ushbu vositalarni uyg‘un qo‘llash ta’lim jarayonida vizual idrok, tahliliy fikrlash, mustaqil izlanish va fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi. Shuning uchun simulyatsiya texnologiyalarini astronomiya darslariga tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2016.

2. Гомулина Н.Н. Астрономия. Виртуальные лабораторные работы и компьютерные симуляции. – М.: Просвещение, 2018. – 210 с.

3. Tillaboyev A.M. Raqamli astronomik axborot bazalari asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2025, №5, 1373–1375-betlar.

4. Tillaboyev A.M. Raqamli ta’lim muhitida astronomiya ta’limining transformatsiyasi: global tendensiyalar va nazariy paradigmalar. Fizika, matematika va informatika jurnali, 2026, №2, 191–201-betlar.

5. Tillaboyev A.M. AstroDigital.uz platformasida raqamli astronomik ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va ulardan foydalanish metodikasi. Ilm-fan va texnologiyalar ilmiy-metodik jurnali, 2026, Vol. 4, №1, 221–227-betlar.

KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA DARSLARINI LOYIHALASHDA RAQAMLI SIMULYATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Aliboyev Akmaljon G'ulom o'g'li

Guliston davlat universiteti
Akmal_sayhun@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika darslarini kontekstli yondashuv asosida fizik jarayonni loyihalash va uni o'tkazish metodikasi tahlil qilingan. Dars jarayonida real hayotiy vaziyat, muammoli topshiriqlar hamda STEM elementlari asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi, fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kontekstli ta'limni tashkil bosqichlari, uning texnologik xaritasi va interfaol metodlar bilan integratsiyasi metodik jihatdan asoslanilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется проектирование физического процесса и методика его проведения на основе контекстуального подхода к урокам физики. В ходе урока освещены возможности развития естественнонаучной грамотности и предметных компетенций учащихся путем организации на основе реальных жизненных ситуаций, проблемных заданий и элементов STEM. Также методически обоснованы этапы организации контекстуального обучения, его технологическая карта и интеграция с интерактивными методами.

Fizika ta'limida o'quvchi biror fizik hodisaga oid bo'lgan formulani yodlash bilan cheklanmay, real hodisani tushuntirish, uni dalil bilan asoslash, model tuzish va natijani amaliy vaziyatga ko'chirish kompetensiyasini namoyon etishi zarur [1]. Kontekstli yondashuv aynan shu ehtiyojga javob beradi: dars mazmuni, o'quv faoliyati va baholash bir-biriga bog'langan didaktik konstruktsiya sifatida quriladi [2]. Sun'iy intellektga asoslangan raqamli pedagogika sharoitida bu yondashuv yanada samarali bo'lishi mumkin, chunki sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning dastlabki tasavvurlarini tezkor diagnostika qilish, mos hayotiy kontekstlarni saralash va individual qayta aloqa berishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kontekstli yondashuv fizika ta'limini loyihalashning boshlang'ich nuqtasi mavzuni bayon qilish emas, balki o'quvchi erishishi kerak bo'lgan natijani belgilashdan iborat. Bunda dastur talabi, kutiladigan kompetensiya, muvaffaqiyat mezonlari, real vaziyat, baholash dalillari va dars bosqichlari yagona zanjirda rejalashtiriladi. Masalan, elektr energiyasi mavzusida maqsad faqat quvvat ($P = U \cdot I$) ish yoki ($A = P \cdot t$) formulalarini yoddan bilish emas, balki energiya sarfini real kvitansiya asosida hisoblash, eng katta energiya iste'molchi asbobni aniqlash hamda tejamkorlik bo'yicha asoslangan tavsiya berishdan iborat bo'ladi [1].

Raqamli simulyatsiya va SI bu zanjirning har bir bo'g'inida amaliy yordam beradi. Darsdan oldin o'qituvchi sun'iy intellekt yordamida sinf darajasiga mos kontekst, muammoli savol va differensial topshiriqlar variantini yaratishi mumkin, biroq ilmiy haqiqat, xavfsizlik va yoshga moslik o'qituvchi tomonidan tekshirilishi shart. Dars jarayonida simulyatsiya ko'rinmaydigan jarayonlarni, masalan elektronlar harakati, elektr maydoni, to'lqin interferensiyasi yoki gaz bosimi o'zgarishi kabilar vizuallashtiriladi. PhET kabi interaktiv

simulyatsiyalar o‘quvchiga parametrlarni o‘zgartirish, natijani kuzatish va farazni tekshirish imkonini beradi.

Tavsiya etiladigan metodik algoritm quyidagi bosqichlarni tashkil etiladi. *Birinchi bosqich* – kirish: o‘qituvchi kundalik hayotdan qisqa dalil, hisblagich tablosidagi raqamlar surati, to‘lov qog‘ozi hamda tajriba orqali kontekstni faollashtiradi. *Ikkinchi bosqich* - muammo qo‘yish: o‘quvchilar nimani bilishimiz kerak? qaysi dalil yetarli? savollarini aniqlashtiradi. *Uchinchi bosqich* - tahlil: berilgan ma’lumotlar jadvalga tushiriladi, yetishmayotgan kattaliklar belgilanadi. *To‘rtinchi bosqich* - model qurish: fizik qonun, formula, grafik yoki chizma real vaziyat bilan bog‘lanadi. *Beshinchi bosqich* - yechim: o‘quvchi hisoblaydi, tajriba yoki simulyatsiya natijasini talqin qiladi, qaror chiqaradi. *Yakuniy bosqich* - refleksiya va baholash: o‘quvchi xato qilgan bo‘lsa uni aniqlashtirib oladi va xulosasini izohlaydi [3].

Darsni tizimli tashkil etish uchun o‘qituvchi qisqa dars xaritasi, metodik yo‘riqnoma va texnologik xaritadan foydalanadi. Dars xaritasida mavzu, kontekst, muammoli savol, yadro tushuncha, kutiladigan natija va baholash dalillari ko‘rsatiladi. Metodik pasportda tayanch bilimlar, tipik xatolar, differensial yondashuv, xavfsizlik va resurslar belgilanadi. Texnologik xaritada esa bosqichlar, vaqt, o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyati, yakuniy mahsulot va feedback shakli aniqlashtiriladi. SI bu hujjatlarni tayyorlashda variantlar yaratishi mumkin, lekin o‘qituvchi tanlovni dastur talabi va sinf sharoitiga moslab yakunlaydi.

Ushbu algoritmni VIII sinf “Uy sharoitida elektr energiya sarfini hisoblash” mavzusida qo‘llash mumkin [4]. O‘quvchilarga maishiy asboblar quvvati va ishlash vaqti berilgan jadval taqdim etiladi. Guruhlar $A = P \cdot t$ bog‘lanishi asosida sarf(kW·soat)ni hisoblaydi, natijani diagramma yoki jadval ko‘rinishida taqqoslaydi va tejamkor qarorlarni ishlab chiqadi. Guruh javoblaridagi hisob xatolarini ajratib ko‘rsatishi yoki savol-javob uchun qo‘shimcha kontekstlar taklif qilishi mumkin; ammo yakuniy baholash mezonlar asosida o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Mezonlar to‘rtta qatlamdan iborat bo‘ladi. Bular: *tushunchani to‘g‘ri qo‘llash*, *model va taxminlarni asoslash, ma’lumot bilan ishlash, xulosani aniq izohlash.*

Sinf o‘quvchilarini formatif baholash jarayonida o‘quvchi faqat to‘g‘ri javob olgani uchun emas, balki qanday model tanlagani, qaysi ma’lumotni asos sifatida ishlatgani va natijani qanday izohlagani uchun ham baholanadi. Masalan, elektr sarfi vazifasida yuqori darajadagi javob jadvalni to‘g‘ri tuzish, birliklarni almashtirish, hisob natijasini tekshirish, tavsiyaning iqtisodiy va xavfsizlik jihatini ko‘rsatish bilan tavsiflanadi.

Kontekstli yondashuvning muhim afzalligi shundaki, u STEAM elementlarini sun’iy ravishda qo‘shmaydi, balki fizik mazmunning o‘zidan kelib chiqib uyg‘unlashtiradi. Masalan, elektr sarfi mavzusida matematika hisob-kitob orqali muhandislik esa tejamkor yechim tanlash orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kontekstli yondashuv asosida loyihalangan fizika darsi sun’iy intellekt va raqamli simulyatsiyalar bilan integratsiyalashganda o‘quvchini passiv tinglovchidan real muammoni tahlil qiluvchi, model yaratuvchi va dalillarga tayangan xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida namoyon qiladi. Darsni “dastur talabi - natija - mezon - kontekst - faoliyat - baholash”ketma-ketligida loyihalash ta’lim jarayonlarida raqamli pedagogika transformatsiyasiga mos amaliy metodik yechim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi; Respublika ta’lim markazi. Fizika o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

2. Biggs J. Constructive alignment in university teaching // HERDSA Review. - 2014. Vol. 1. - P. 5-22.

3. BSCS. The BSCS 5E Instructional Model and 21st Century Skills. - 2009.

4. Habibullaev P.K., Boydedaev A., Baxromov.A., Usarov.J., Suyarov K., Yuldasheva.M. Fizika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent. «O‘qituvchi» .2019. – 176 b.

RAQAMLI PEDAGOGIK MUHITDA “TARMOQ TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISH ORQALI INTERAKTIV HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

S.B.Rojabov, A.A.Xaydarov , X.B.Pulatov ,R.M. Xoliqulov,R.K.Bazarbaev

ChDPU ATT 2-kurs talabalari

Yo‘ldoshev Shohruhbek Zokirjon o‘g‘li

ChDPU AT va SI kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli pedagogik muhit sharoitida “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishda talabalarning interaktiv hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar va bulutli xizmatlardan foydalangan holda jamoaviy ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish va loyiha boshqaruvini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Maqola fan o‘qituvchilari, metodistlar va IT sohasi tadqiqotchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim jarayonini real IT ekosistemaga yaqinlashtirish yo‘llarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogik muhit, tarmoq texnologiyalari, interaktiv hamkorlik, virtual laboratoriya, loyiha asosida o‘qitish, LMS, NetDevOps, Cisco Packet Tracer.

Global miqyosda ta’lim sohasida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat o‘qitish vositalarini, balki o‘zaro muloqot va hamkorlik shakllarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashda nazariy bilimlardan ko‘ra, amaliy ko‘nikmalar va jamoaviy ishlash (teamwork) mahoratini rivojlantirish birinchi o‘ringa chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasida IT sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha qabul qilingan strategik hujjatlar oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy, inklyuziv va interaktiv pedagogik muhit yaratishni talab qilmoqda.

“Tarmoq texnologiyalari” fani kompyuter fanlari yo‘nalishidagi talabalar uchun eng fundamental va murakkab fanlardan biri hisoblanadi. Tarmoq arxitekturasini loyihalash, ma’lumotlar uzatish protokollarini sozlash, tarmoq xavfsizligini ta’minlash va muammolarni bartaraf etish (troubleshooting) kabi jarayonlar yakkakil emas, balki malakali mutaxassislar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois, an’anaviy, faqat o‘qituvchining ma’ruzasiga asoslangan dars shakllari bugungi kun talablariga javob bermaydi. Raqamli pedagogik muhitda interaktiv hamkorlikni tashkil etish orqali talabalarda nafaqat texnik salohiyat, balki kommunikativ, analitik va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masaladir. Ushbu maqolaning maqsadi – raqamli vositalar yordamida “Tarmoq texnologiyalari” fanida interaktiv

hamkorlikni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdan iborat.

Raqamli pedagogik muhit va uning imkoniyatlari

Raqamli pedagogik muhit – bu o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini (o‘qituvchi, talaba, administrator) birlashtiruvchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bulutli xizmatlar va sun’iy intellekt elementlariga asoslangan yagona ta’lim makonidir. Bu muhit vaqt va makon chegaralarini yo‘qqa chiqarib, sinxron va asinxron muloqotni ta’minlaydi. “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishda raqamli muhitning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

LMS (Learning Management System): Moodle yoki Canvas kabi tizimlar orqali kurs materiallari, forumlar, viktorinalar va guruhli loyihalar boshqariladi. Bu tizimlar talabalarning faolligini kuzatish va formativ baholash uchun qulaydir.

Virtual va Emulyatsion laboratoriyalar: Cisco Packet Tracer, GNS3, EVE-NG kabi dasturlar real apparat ta’minotisiz murakkab tarmoq topologiyalarini yaratish, sozlash va sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Bulutli hamkorlik platformalari: GitHub, GitLab, Confluence, Figma va Miro kabi vositalar orqali talabalar birgalikda tarmoq sxemalarini chizadi, skriptlar yozadi va hujjatlashtirish ishlarini olib boradi.

Ushbu vositalar talabalarga real IT kompaniyalarida qo‘llaniladigan raqamli ish muhitini simulyatsiya qilishga yordam beradi. Raqamli muhit shunchaki axborot manbai emas, balki talabalarning o‘zaro fikr almashishi, bir-birining loyihalarini sinovdan o‘tkazishi va hamjihatlikda qaror qabul qilishi uchun platforma vazifasini o‘taydi.

“Tarmoq texnologiyalari” fanida interaktiv hamkorlikning ahamiyati

Zamonaviy kompyuter tarmoqlari (SDN, Cloud Networking, IoT) shu qadar murakkablashdiki, ularni yagona mutaxassis boshqarishi imkonsiz. Tarmoq injenerlari, xavfsizlik analitiklari va bulutli arxitektorlar doimiy hamkorlikda bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida interaktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish soha talablarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri aksidir. Interaktiv hamkorlik talabada quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

Kommunikativ kompetensiya: Murakkab texnik tushunchalarni (masalan, OSPF yoki BGP protokollari ishlash prinsipini) jamoaga tushuntirish va boshqalarni tinglash.

Kollektiv muammolarni hal qilish: Tarmoqda yuzaga kelgan xatoliklarni birgalikda diagnostika qilish va optimallash.

Raqamli etika va mas’uliyat: Bulutli muhitda umumiy resurslardan foydalanish, kodlarni versiyalash va o‘zaro hurmatga asoslangan fikr bildirish (peer-review).

An’anaviy usulda talaba o‘qituvchi bergan vazifani yakkalikda bajarib, uni himoya qiladi. Interaktiv metodikada esa talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har biriga aniq rol beriladi. Bu esa ularni bir-biriga bog‘liq holda ishlashga va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilishga majbur qiladi.

Fanni o‘qitishda interaktiv hamkorlikni joriy etish uchun quyidagi bosqichma-bosqich metodikani qo‘llash tavsiya etiladi:

1. Teskari o‘qitish modeli (Flipped Classroom) va asinxron tayyorgarlik: Nazariy materiallar (videodarslar, interaktiv prezentatsiyalar, elektron qo‘llanmalar) LMS orqali talabalarga oldindan taqdim etiladi. Talabalar darsgacha ushbu materiallarni mustaqil o‘zlashtiradi. Auditoriya dars vaqti esa faqat amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va guruhli muhokamalarga ajratiladi. Bu yondashuv guruhli interaktiv ishlash uchun qo‘shimcha vaqt zaxirasini yaratadi va o‘qituvchiga an’anaviy "ma’ruzachi" emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi (fasilitator) rolini o‘ynash imkonini beradi.

2. Rolli virtual simulyatsiyalar: EVE-NG yoki GNS3 muhitida talabalar kichik IT-kompaniyalar simulyatsiyasini yaratadilar. Masalan, "Yirik korxona uchun xavfsiz tarmoq infratuzilmasini loyihalash" mavzusida guruhlar tuziladi. Guruh a'zolari o‘zaro taqsimlanadi: biri markazlyashgan ofis tarmog‘ini, ikkinchisi filial tarmoqlarini, uchinchisi VPN va Xavfsizlik devorlarini sozlaydi. Yakunda barcha konfiguratsiyalar birlashtirilib, yagona tarmoq ishga tushiriladi. Agar bir talaba xato qilsa, butun tarmoq ishlamaydi. Bu o‘zaro mas’uliyatni keskin oshiradi.

3. “Qarshi tomon” (Red Team / Blue Team) usuli: Tarmoq xavfsizligi mavzularida jamoalar ikkiga bo‘linadi. "Qizil jamoa" (Red Team) tarmoqqa kiberhujum uyushtirish usullarini ishlab chiqadi. "Ko‘k jamoa" (Blue Team) esa tarmoqni himoya qilish choralarini ko‘radi. Bu jarayon talabalarda qizg‘in bahs-munozara, analitik fikrlash va raqibning harakatini oldindan ko‘ra bilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Jamoaviy hujjatlashtirish va NetDevOps madaniyati: IT sohasida loyiha qanchalik yaxshi bo‘lmasin, u to‘g‘ri hujjatlashtirilmasa, qiymatga ega emas. Talabalar GitHub yoki Confluence da umumiy repository yaratadilar. Tarmoq konfiguratsiyalari, topologiya chizmalari va Python/Ansible orqali yozilgan avtomatlashtirish skriptlari shu yerga yuklanadi. Talabalar bir-birining kodlarini ko‘rib chiqadi (Pull Request / Code Review) va xatolarni hamkorlikda tuzatadi. Bu zamonaviy NetDevOps madaniyatini shakllantirishning eng samarali usulidir.

5. Gamifikatsiya (O‘yinlashtirish) elementlari: LMS tizimida “Tarmoq quruvchilari” kabi yetakchilar taxtasini joriy etish, guruhlar o‘rtasida vebinarlar yoki hackathonlar tashkil qilish talabalarda sog‘lom raqobat va jamoaviy g‘urur hissini uyg‘otadi.

Ushbu metodikani qo‘llash orqali olib borilgan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi va o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshgan. An’anaviy usulda o‘qigan talabalar tarmoq xatoliklarini topishda o‘qituvchiga murojaat qilishga odatlangan bo‘lsa, interaktiv hamkorlik muhitida ular avval jamoa ichida muhokama qilish, log-fayllarni o‘rganish va hamfikrlar yordamida xatoni topishga intilishmoqda.

Samaradorlikni baholashda faqat yakuniy imtihon natijalari emas, balki formativ baholash usullaridan foydalaniladi:

O‘zaro baholash (Peer Assessment): Talabalar boshqa guruhning tarmoq loyihasini topshirib, uning xavfsizligi va samaradorligini baholaydi. Bu ularning tanqidiy fikrlashini o‘stiradi.

Raqamli portfel: Talabaning loyihalardagi hissasi (GitHub'dagi commitlar, forumdagi faollik, hamkasblariga bergan maslahatlari) avtomatik ravishda tizimda qayd borilib, yakuniy bahoga ta'sir qiladi.

Bu yondashuv talabani passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchisiga aylantiradi. O‘qituvchi esa tayyor bilim beruvchidan, ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va mentorga aylanadi.

Raqamli pedagogik muhitda “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishda interaktiv hamkorlikni rivojlantirish shunchaki zamonaviy trend emas, balki raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy shartidir. Virtual laboratoriyalar, bulutli hamkorlik platformalari va loyiha asosidagi ta’lim metodlarini integratsiya qilish orqali talabalarda yuksak texnik ko‘nikmalar bilan birga, jamoaviy ishlash, muloqot va mas’uliyat kabi yumshoq ko‘nikmalar ham shakllanadi. Kelajakda ushbu metodikaga sun’iy intellekt (AI) vositalarini, masalan, tarmoq muammolarini tahlil qiluvchi AI-assistentlarni hamkor sifatida joriy etish orqali o‘quv jarayonini yanada chuqurlashtirish va talabalarni real IT ekosistemaga to‘liq tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. Vygotskiy L.S. (2012). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard university press.
3. Cisco Networking Academy. (2023). Collaborative Learning in Network Engineering. NetAcad Press.
4. Garrison D.R., Vaughan N.D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. John Wiley & Sons.

ANIQ FANLARNI O'QITISHDA AR/VR, ROBOTOTEXNIKA VA SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Boymurodov A.X.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli transformatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Aniq fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika) tabiatan murakkab, abstrakt va ko'pincha vizualizatsiya qilishni talab qiladigan predmetlar hisoblanadi. An'anaviy "doska-kitob" usullari o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli, kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR), robototexnika va kompyuter simulyatsiyasi kabi immersiv texnologiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi dolzarb masalaga aylandi.

Ushbu tezisning maqsadi – AR/VR, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalarining aniq fanlarni o'qitishdagi pedagogik samaradorligini, qo'llash usullarini va kelajak istiqbollarini tahlil qilishdir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini interaktivlashtiradi, balki tanqidiy fikrlash, muhandislik yondashuvi va raqamli savodxonlikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kengaytirilgan Reallik (AR) real dunyo muhitiga raqamli ma'lumotlarni qatlamlash orqali ishlaydi. Aniq fanlarda AR quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Matematika fani abstrakt tushunchalar, mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvurni talab qiladi. An'anaviy "formula-misol" usullari ko'pincha o'quvchilarning "ko'ra olmaslik" yoki "tasavvur qila olmaslik" muammosiga duch keladi. Zamonaviy raqamli vositalar bu pedagogik bo'shliqni to'ldirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Abstrakt ob'ektlarni ko'rinadigan va o'zgartiriladigan qilish;

Xatolarni xavfsiz muhitda sinab ko'rish va tuzatish;

Individual o'zlashtirish tezligiga moslashtirilgan o'quv traektoriyasini shakllantirish.

SHuningdek 3D geometrik shakllarni (konus, sfera, piramida) real stolda aylanma ko'rinishda o'rganish, funksiyalar grafikasini dinamik vizualizatsiya qilish.

Simulyatsiya texnologiyalari va dinamik matematika muhitlari
Kompyuter simulyatsiyalari matematik modellashtirishni tezkor, xavfsiz va interaktiv qiladi:

- **Dinamik vizualizatsiya:** GeoGebra 3D, Desmos, Wolfram Alpha, Mathematica, Python (Matplotlib, Manim) kabi vositalar funksiyalar, tenglamalar, ehtimollar, differensial tenglamalar va statistik taqsimotlarni real vaqtda modellashtirish imkonini beradi.
- **Parametrik eksperimentlar:** O'quvchilar diskriminant, gradient, integral chegaralari yoki ehtimollar koeffitsiyentlarini o'zgartirib, natijani darhol kuzatadi. Masalan, kvadrat tenglama parametrini o'zgartirish orqali ildizlar soni va grafikaning shaklini real vaqtda tahlil qilish.
- **Sun'iy intellekt integratsiyasi:** Zamonaviy simulyatorlar o'quvchining xatolarini tahlil qilib, individual yo'nalish va qo'shimcha mashqlar taklif qiladi. Bu esa metakognitiv ko'nikmalar va o'z-o'zini nazorat qilish madaniyatini rivojlantiradi.

Pedagogik afzalliklar va amaliy tavsiyalar

Ko'rsatkich	An'anaviy usul	AR/VR + Robototexnika + Simulyatsiya
Tushuncha qabul qilish	Passiv, statik	Faol, dinamik, ko'p sensorli

Xatolar bilan ishlash	Jazolash/qayta o'qitish	Xavfsiz sinov, tahlil, takomillashtirish
Baholash	Yakuniy test	Jarayoniy, loyiha, portfel, real vaqt monitoringi
Motivatsiya	Past/O'rta	Yuqori (o'yinlashtirish, interaktivlik)

Kimyo: Molekulyar tuzilishlarni havoda "yig'ish", atomlar orasidagi bog'lanish burchaklarini interaktiv o'rganish, xavfsiz virtual laboratoriya tajribalari.

Fizika: Vektorlar, kuch chiziqlari, elektr maydonlari va magnit oqimlarini ko'rinadigan qilish, harakat qonunlarini real ob'ektlar ustida modellashtirish.

Virtual Reallik (VR) o'quvchini to'liq raqamli muhitga joylashtiradi. Bu texnologiya quyidagi jihatlarda samarali:

Xavfsiz laboratoriya: Kimyoviy moddalar portlashi, radiatsiya yoki yuqori voltli tajribalar xavfsiz virtual muhitda bajarilishi mumkin.

Mikro va makro dunyo: Hujayra ichki tuzilishiga yoki yulduzlar sistemasiga "sayohat" qilish imkonini beradi.

Kognitiv yukni kamaytirish: VR diqqatni jamlashni oshiradi va chalg'ituvchi omillarni bartaraf etadi, bu esa murakkab tushunchalarni o'zlashtirishni tezlashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AR/VR yordamida o'qitilgan o'quvchilarning ma'lumotni saqlab qolish darajasi an'anaviy usullarga qaraganda 30-40% yuqori bo'lib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish vaqti 25% ga qisqaradi.

Robototexnika aniq fanlarni o'qitishda "learning by doing" (amaliyot orqali o'rganish) falsafasini amalga oshiradi.

Matematika va Algoritmika: Robotlarni dasturlash orqali o'quvchilar chiziqli tenglamalar, koordinatalar sistemasi, shart operatorlari va sikllarni amaliy qo'llaydi.

Fizika va Mexanika: Robot konstruktorlarini yig'ishda tishli uzatmalar, moment, inersiya, muvozanat va sensorlar ishlash prinsiplari o'rganiladi.

Muhandislik fikrlash: Robotlarni loyihalash muammolarni tahlil qilish, prototiplash, test qilish va takomillashtirish siklini o'z ichiga oladi, bu STEM ta'limining asosiy ustuni hisoblanadi.

Kompyuter Simulyatsiyalari real jarayonlarni matematik modellar asosida raqamli muhitda takrorlaydi.

- **Dinamik Modellashtirish:** Fizikadagi erkin tushish, to'qnashuvlar, kimyodagi reaksiya kinetikasi, biologiyadagi populyatsiya o'sishi kabi jarayonlarni parametrlarni o'zgartirib kuzatish imkonini beradi.
- **Iqtisodiy va Statistik Tahlil:** Katta ma'lumotlar to'plamlarini vizualizatsiya qilish, ehtimollar nazariyasini Monte-Karlo usullari orqali tushunish.
- **Moslashtirilgan O'quv Traektoriyasi:** Zamonaviy simulyatsiya platformalari sun'iy intellekt yordamida o'quvchining xatolarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan topshiriqlar taklif qiladi.

Simulyatsiya va robototexnikaning integratsiyasi "raqamli egizak" (digital twin) kontseptsiyasini ta'limga olib kiradi, bu esa nazariya va amaliyot o'rtasidagi bo'shliqni bartaraf etadi.

Amaliy Tajribalar: O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida bir qator maktab va universitetlar "Smart Class", "STEM Laboratoriyalar" va "IT-Park"lar bazasida ushbu texnologiyalarni joriy etmoqda. Masalan, virtual kimyo laboratoriyalari reaktivlarni tejash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda, robototexnika to'garaklari esa o'quvchilarni xalqaro

olimpiadalarga tayyorlashda samara berdi. AR ilovalari orqali tarixiy obidalar yoki biologik turlarni o'rganish interaktiv daraja va dars davomida o'quvchilar faolligi sezilarli oshgan.

Mavjud Muammolar:

1. **Infrastruktura va Moliyaviy Cheklovlar:** VR qurilmalari, robot to'plamlari va yuqori unumli kompyuterlar narxi yuqori bo'lib, barcha ta'lim muassasalariga joriy etish qiyin.
2. **Pedagogik Kadrlar Tayyorgarligi:** Ko'plab o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish metodikasini yetarli darajada o'zlashtirmagan.
3. **Kontent Sifati va Til:** Mahalliy tilga tarjima qilingan, o'quv dasturiga moslashtirilgan sifatli AR/VR kontentlari yetishmovchiligi.
4. **Sog'liqni Saqlash:** Uzoq muddat VR ko'zoynaklaridan foydalanish ko'rish va vestibulyar apparatga ta'siri bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish zarur.

Kelajak Istiqbollari: 2026 yilga kelib, 5G/6G tarmoqlarining keng tarqalishi bulutli XR (Cloud XR) xizmatlarini arzonlashtiradi, bu esa og'ir qurilmalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan tutorlar, neyrointerfeyslar orqali diqqat darajasini monitoring qilish va "Metavers" ta'lim platformalarining rivojlanishi aniq fanlarni o'qitishda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida ushbu texnologiyalarni milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

AR/VR, robototexnika va simulyatsiya texnologiyalari aniq fanlarni o'qitishda faqat yordamchi vosita emas, balki ta'lim paradigmasini o'zgartiruvchi katalizator hisoblanadi. Ular abstrakt tushunchalarni ko'rinadigan va his qilinadigan qiladi, xavfsiz laboratoriya muhitini yaratadi, muhandislik va dasturlash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlaydi.

Muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar zarur:

1. Davlat-xususiy sheriklik orqali texnologik infratuzilmani rivojlantirish.
2. O'qituvchilarni uzluksiz malaka oshirish va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash.
3. Milliy o'quv dasturiga moslashtirilgan, o'zbek tilidagi kontentlar bazasini yaratish.
4. Texnologiyalarni o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich va pedagogik maqsadga muvofiq integratsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, immersiv va interaktiv texnologiyalar aniq fanlar ta'limini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu nafaqat bilim berish, balki innovatsion fikrlashga ega, raqobatbardosh va texnologik savodxon avlodni tarbiyalashning kalitidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azuma, R. T. (1997). *A Survey of Augmented Reality*. Presence: Teleoperators and Virtual Environments.
2. Freina, L., & Ott, M. (2015). *A literature review on immersive virtual reality in education: state of the art and perspectives*. The International Scientific Conference eLearning and Software for Education.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi. Toshkent.
4. UNESCO. (2024). *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO Publishing.
5. Johnson, L., et al. (2025). *NMC Horizon Report: Teaching and Learning Edition*. New Media Consortium.

6. Kim, M. J., & Song, K. M. (2023). *Effect of VR-based physics experiments on student engagement and conceptual understanding*. Journal of Educational Technology & Society.

7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2025). *STEM ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent.

8. Dalgarno, B., & Lee, M. J. W. (2022). *What are the learning affordances of 3-D virtual environments?* British Journal of Educational Technology.

9. Milliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya: amaliy qo'llanma. (2026). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.

10. World Economic Forum. (2025). *Schools of the Future: Defining New Models of Education for the Fourth Industrial Revolution*. Geneva.

GRAFLAR NAZARIYASIDAGI ABSTRAKT TUSHUNCHALARNI O‘RGATISHDA GEOGEBRA DASTURIDAN FOYDALANISHNING USTUNLIKLARI

MURTOZAQULOV ZAFAR MADAT O‘G‘LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Algebra va matematik analiz kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida "Graflar nazariyasi" bo‘limidagi mavhum tushunchalarni o‘qitishda GeoGebra interaktiv interfeysidan foydalanishning metodik afzalliklari tadqiq etilgan. Graflar izomorfizmi, planar graflar va tarmoqlarni vizuallashtirishda dinamik geometrik ob’ektlarning o‘rni amaliy misollar vositasida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Graflar nazariyasi, GeoGebra, dinamik vizuallashtirish, graf izomorfizmi, planar graflar, tugun, didaktik vosita.

Kirish

Zamonaviy oliy matematik ta’limda raqamli texnologiyalar va pedagogik asboblarni integratsiya qilish talabalarning mavhum (abstrakt) tushunchalarni tushunish darajasini oshirishda asosiy drayver hisoblanadi. O‘quv dasturining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan "Graflar nazariyasi" bo‘limi ko‘pincha qat’iy algebraik va topologik qoidalar negiziga qurilganligi tufayli talabalarda vizual tasavvurni shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. An’anaviy dosha va bo‘r uslubida graflarning dinamik xususiyatlarini, ularning strukturaviy o‘zgarishlarini real vaqt rejimida namoyish etish imkonsizdir.

GeoGebra muhitining didaktik imkoniyatlari

GeoGebra dinamik matematik muhiti o‘zining interaktiv interfeysi bilan ushbu vazifalarni samarali hal etadi. Unda graflar topologiyasi an’anaviy statik ko‘rinishdan jonli, harakatlanuvchan model ko‘rinishiga o‘tadi. Dasturning grafik oynasida graf elementlari – tugunlar (cho‘qqilar) tekislikdagi harakatlanuvchi nuqtalar, qirralar esa ularni bog‘lovchi dinamik kesmalar (Segment) sifatida oson modellashtiriladi. Bu esa dars jarayonida quyidagi fundamental ustunliklarni ta’minlaydi:

1. Graf izomorfizmini vizuallashtirish: Graflar nazariyasidagi eng murakkab tushunchalardan biri bu ikki grafning tashqi ko‘rinishi turlicha bo‘lsa-da, ichki strukturaviy jihatdan bir xil (izomorf) ekanligidir. GeoGebra’da talaba biror tugunni sichqoncha yordamida surganida, unga bog‘langan barcha qirralar dinamik ravishda birga siljiydi. Bu esa graf shakli o‘zgargani bilan uning topologik tabiati saqlanib qolishini yaqqol isbotlaydi.

2. Planar graflar va Eyler formulasini o‘rganish: Graf qirralarining o‘zaro kesishmasdan tekislikda joylashtirilishi (planarlik) mavzusini tushuntirishda GeoGebra tengsiz vositadir. Talabalar qirralar kesishmasini yo‘qotish uchun tugunlarni tekislikda erkin harakatlantirib, grafni yassi (planar) holatga keltiradilar va Eylerning yoqlar, qirralar hamda tugunlar soni haqidagi formulasini amalda tekshiradilar.

3. Ranglar kombinatorikasi va guruhli interaktivlik: GeoGebra appletlari yordamida grafni to‘g‘ri bo‘yash masalalarini (to‘rt rang teoremasi) laboratoriya mashg‘uloti sifatida tashkil etish qulay. Qo‘shni tugunlar bir xil rangga bo‘yalib qolganda shartli formatlash

orqali vizual signal berish tizimini yaratish talabalarning mustaqil izlanish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, GeoGebra dasturi graflar nazariyasining algebraik mavhumligini ko‘rgazmali va interaktiv shaklga o‘tkazuvchi eng qulay raqamli platformalardan biridir. Uning yordamida talabalar passiv tinglovchidan aktiv tadqiqotchiga aylanadi, graf elementlarini (tugun va qirralarni) bevosita manipulyatsiya qilish orqali mavzu mohiyatini chuqurroq o‘zlashtiradi. Oliy ta’lim muassasalarida ma’ruzalarni didaktik vizuallashtirishda GeoGebra dasturidan foydalanish darslarning metodik darajasini va talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiev, Sh. X., & Madrahimov, Sh. R. (2018). *Diskret matematika va graflar nazariyasi.* O‘zbekiston Milliy universiteti darsligi, Toshkent. (Oliy ta'limda graflarning matematik asoslari va modellarini o'rgatuvchi asosiy milliy darslik).

2. Alimov, N. A. (2021). *Oliy matematikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.* Toshkent. (Pedagogik jarayonda vizual dasturlar va interaktiv muhitlarni darsga tatbiq etish metodikasi).

3. GeoGebra Dynamic Mathematics for Everyone. (2024). *Official Documentation and Tutorials.* (GeoGebra platformasining skriptlar yozish va dinamik appletlar yaratish bo'yicha rasmiy qo'llanmasi).

4. Diestel, R. (2017). *Graph Theory (5th ed.).* Springer-Verlag New York. (Dunyo miqyosida graflar topologiyasi va izomorfizm mavzularida eng ko'p iqtibos keltiriladigan fundamental darslik).

5. Thomas, H. Cormen, Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). *Introduction to Algorithms (3rd ed.).* MIT Press. (Graflardagi qidiruv va planar optimallashtirish algoritmlarining akademik asosi).

GRAFLAR NAZARIYASINI O‘RGATISHDA MATHCAD DASTURIDAN FOYDALANISH

MURTOZAQULOV ZAFAR MADAT O‘G‘LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Algebra va matematik analiz kafedrasi katta o‘qituvchisi

